

2025-yil, oktabr 18(64)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni





Qadrli vatandoshlar!

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidan mustahkam o'rin olgan qutlug' sana – O'zbek tili bayrami kuni bilan siz, azizlarni, butun xalqimizni, chet ellardagi barcha yurtdoshlarimizni chin dildan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu shukuhli ayyomda bir fikrni alohida ta'kidlab aytmoqchiman: bundan sakkiz yil oldin mamlakatimizda boshlagan tom ma'nodagi tarixiy islohotlarimiz tufayli o'zbek tili rivojida ham yangi davr boshlandi. Bu borada qabul qilingan farmon, qaror va dasturlar asosida uning davlat tili sifatidagi o'rni va maqomini mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlar tiliga aylantirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdik.

Xususan, yurtimizda geografik obyektlar nomlarini davlat tili me'yorlariga muvofiqlashtirish izchil davom ettirilmoqda. Bugungi kunga qadar 250 mingga yaqin geografik obyekt, jumladan, 200 mingdan ortiq ko'cha nomlari davlat tiliga muvofiqlashtirilib, reyestrga kiritilgani, faqat keyingi ikki yilda tog' va cho'qqilar, daryo, ko'l, suv omborlari, foydali qazilma konlari, metro bekatlari, temiryo'l vokzali va stansiyalari, aeroport va avtostansiyalar singari 2 600 ta obyekt davlat tili talablari asosida qayta nomlanganini qayd etish zarur.

Hozirgi shiddatli globallashuv jarayonlari, ilm-fan yutuqlari orqali hayotimizga keng miqyosda kirib kelayotgan yangi tushuncha va atamalarni tilimizga aniq qoida va tamoyillarga binoan qabul qilish, til siyosatini ilmiy asosda, markazlashgan holda yuritish maqsadida Atamalar komissiyasi faoliyati kuchaytirildi.

Xorijiy so'z va iboralarni keng jamoatchilik, olim va mutaxassislar ishtirokida o'zbekchalashtirish bo'yicha samarali mexanizm joriy etilib, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish uchun maxsus dasturiy ta'minot ishlab chiqilgani, elektron manbalar yaratilgani e'tiborga sazovordir.

Shu o'rinda bir fikrni yana ta'kidlashni o'rinli, deb bilaman: kelajagimiz egasi bo'lgan yosh avlodimiz zamonaviy bilimlar, innovatsiya va taraqqiyot cho'qqilarini egallashi uchun albatta chet tillarini o'rganishi lozim. Lekin ular milliy ruh, milliy tafakkur egasi, vatanparvar insonlar bo'lib voyaga yetishlari uchun, avvalo, o'zbek tili va adabiyotini bolalikdan boshlab puxta bilishlari shart.

Shu maqsadda ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitishni takomillashtirishga jiddiy ahamiyat qaratmoqdamiz. Joriy yildan e'tiboran tegishli milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili fani o'qituvchilarining oylik maoshiga 50 foiz qo'shimcha ustama berilayotgani, ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarning

11-sinf bitiruvchilari uchun davlat tili fanidan yakuniy imtihon topshirish belgilangani shu yo'ldagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish talabi rasman belgilangani ham tilimizning mavqeini oshirishga xizmat qilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan o'tgan davrda 72 nomda qomus, lug'at va qo'llanmalar ko'pming nusxalarda chop etilib, davlat idoralari va ta'lim muassasalariga taqdim etildi.

Ayniqsa, olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati", to'rt jildli "Alisher Navoiy ensiklopediyasi", besh jildli "Navoiy tili lug'ati" va boshqa nashrlar yetakchi xorijiy universitetlarning kutubxonalari, jahondagi o'zbek tili markazlari va klublariga yetkazib berilayotgani saflari tobora kengayib borayotgan o'zbek tili do'stlarini mamnun etmoqda.

Biz inklyuziv jamiyat barpo etish tamoyillarini til sohasidagi davlat siyosatimizda ham muvaffaqiyatli joriy etib, mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillarining ona tillarini rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqdamiz. Ayni vaqtda ularning davlat tilini o'rganishlari uchun ham zarur sharoitlar yaratyapmiz. Bugungi kunda o'zbek tili davlat tili sifatida mamlakatimizdagi barcha millat va elat vakillarini jipslashtirishga xizmat qilayotgani birgalikda olib borayotgan sa'y-harakatlarimiz natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi.

Aziz do'stlar!

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, o'zbek tilining jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini mustahkamlash, uni xalqaro miqyosda keng targ'ib etish borasida oldimizda turgan muhim vazifalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Bu borada, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu bayram arafasida qabul qilingan "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ko'rsatib o'tilgan asosiy maqsad va vazifalarni o'z vaqtida, samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ushbu qaror bilan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi"ni hayotga joriy etishda nafaqat mas'ul va mutasaddi tashkilotlar, balki barchamiz faol ishtirok etishimiz zarur.

Bu haqda so'z yuritganda, raqamli olamda o'zbek tilida sifatli, ilmiy asoslangan, qiziqarli axborot va ma'lumotlarni ko'paytirish, xususan, global elektron ensiklopediya va platformalarni davlat tilidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan boyitish, onlayn lug'atlarni takomillashtirish ham diqqatimiz markazida bo'lishi lozimligini aytib o'tmoqchiman. Hayotimizda sun'iy intellekt ta'siri ortib borayotgan bir paytda bu qudratli vosita yordamida ona tilimizni rivojlantirish va targ'ib etish – davr talabidir.

O'zbek tilining boy imkoniyatlari asosida xalqimiz tafakkuriga mos va jozibador milliy brendlar yaratish, mahsulotlarimizni tashqi bozorga olib chiqish marketing sohasida asosiy yo'nalishga aylanishi zarur. Bu borada vatanparvar tadbirkorlarimiz alohida jonbozlik ko'rsatadilar, deb ishonaman.

Bundan o'ttiz yil oldin qabul qilingan O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini qayta ko'rib chiqish ham kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimiz qatoriga kiradi. Shuningdek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida til madaniyati va savodxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan zamonaviy va ta'sirchan media mahsulotlarni ko'paytirish lozim. Ayniqsa, farzandlarimizni ona tilimizga mehr qo'yib, uning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan bahramand bo'lishga o'rgatish ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ajralmas bir qismidir. Bu dolzarb masala ijodkor ziyolilarimiz, ta'lim-tarbiya, madaniyat, yoshlar, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatida doimo markaziy o'rinda turishi, butun jamiyatimizda umummilliy harakatga aylanishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, barcha sohalarda bo'lgani kabi ona tilimizni rivojlantirishda ham biz keng jamoatchiligimizning amaliy fikr va takliflariga, faol ishtirokiga tayanamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni bugungi quvonchli bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat va fayz-u baraka tilayman.

Milliy o'zligimiz timsoli bo'lgan jonajon o'zbek tilimiz yanada ravnaq topsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

DAVLAT TILINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish, ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini kengaytirish maqsadida **qaror qilaman:**

I. Asosiy maqsadlar

1. Quyidagilar davlat tilini yanada rivojlantirishning **asosiy maqsadlari** etib belgilansin:

a) mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanishga erishish;

b) ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

v) davlat tilining sofligini saqlash va uning lug'at boyligini muntazam oshirib borish;

g) davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, bu borada sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

d) davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

j) mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

II. Respublikada davlat tili imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishish

2. **2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **2026-yil 1-yanvardan boshlab** respublika darajasidagi davlat organlari va xo'jalik birlashmalarining markaziy apparatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklarida boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida rahbarning **ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi** lavozimi joriy etilsin.

4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda **2026-yildan boshlab:**

a) ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha darsliklarning davriyligi asosida yangi avlodini yaratsin;

b) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqsin;

v) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun "Mening ilk izohli lug'atcham" rasmi lug'at kitobini yaratsin;

g) bolalarga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha zamonaviy animatsion video va audio mahsulotlar ishlab chiqilishini tashkil etsin.

5. Fanlar akademiyasi:

a) **2026-yil 1-iyunga qadar** ko'p jildli "**O'zbekiston milliy qomusi**"ni elektron shaklda tayyorlash va e'lon qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihagini Vazirlar Mahkamasiga kiritysin;

b) **2026-yil 1-dekabr qadar** "**Ona tili. Qomus**" kitobining nashrga tayyorlanishi va chop etilishini ta'minlasin.

6. Davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash borasida:

a) Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2026-yil 1-mayga qadar** o'zbek tilini sun'iy intellekt yordamida qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladigan platforma ishlab chiqish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihagini Vazirlar Mahkamasiga kiritysin;

b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **2025-yil 1-dekabr qadar:**

i) yangi qabul qilinayotgan atamalar bo'yicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni qayd etib boruvchi;

ii) tasdiqlangan yangi so'z va atamalarni o'zida aks ettiradigan elektron reyestrni yurituvchi;

iii) o'zbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lug'atlarini o'zida jamlash va foydalanish uchun mo'ljallangan

elektron platformani yaratish bo'yicha ilmiy loyihaga tanlov e'lon qilsin.

III. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish hamda ilm-fan tili sifatida nufuzini oshirish

7. Har yili oktyabr oyida:

a) Fanlar akademiyasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi o'zbek tilining dunyo tillari o'rtasida tutgan o'rni va xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani**;

b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mamlakati-mizdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan **chet ellik talabalar o'rtasida**:

i) **o'zbek tili bo'yicha respublika olimpiadasini**;

ii) **"O'zbek tili – qalbim tarjimoni"** ko'rik-tanlovini yuqori saviyada tashkil etsin;

v) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan eng yaxshi ilmiy, ijodiy, amaliy ishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida **"Jonajon o'zbek tilim"** tanlovini;

g) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari vazirlik va idoralar bilan birgalikda **umummilliy diktant** loyihagini;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda vazirlik va idoralar **21-oktyabr** O'zbek tili bayrami kuniga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy, adabiy tadbirlar, yangi kitoblar taqdimotlarini;

j) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

i) umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'zbek tili mavzusida insholar tanlovini;

ii) o'zbek tili fani o'qituvchilari o'rtasida **"Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi"** respublika tanlovini o'tkazsin.

8. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "Vatandoshlar" jamoat fondi bilan birgalikda **har yili** Alisher Navoiy nomidagi xalqaro o'zbek tili olimpiadasini o'tkazib borsin. Bunda olimpiada g'oliblarini respublika oliy ta'lim muassasalarining "filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishiga umumiy qabul kvotasidan tashqari davlat granti asosida o'qishga qabul qilish yo'lga qo'yilsin.

9. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda uning hududiy bo'linmalarida mamlakatimizdagi oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet ellik talabalarni ular o'qiyotgan oliy ta'lim tashkilotlari mablag'lari hisobidan o'zbek tiliga bepul o'qitish kurslarini tashkil etsin.

10. Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita:

a) **2026-yil davomida** o'z mablag'lari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar vakillari uchun o'zbek tiliga o'qitish kurslarini kengaytirish;

b) Tashqi ishlar vazirligi, "Vatandoshlar" jamoat fondi va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda "Vatandoshlar" jamoat fondi mablag'lari hisobidan xorijiy davlatlardagi o'zbek diaspora tashkilotlari huzurida vatandoshlarning farzandlariga o'zbek tilini o'rgatishga ixtisoslashgan o'quv markazlari tashkil etishga ko'maklashish, ularni zarur o'quv qo'llanmalari, darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

11. Yoshlar ishlari agentligi **uch oy muddatda** o'zbek tilini boshqa millat va elatlar vakillari, xorijdagi vatandoshlarning farzandlarini, o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolarini o'qitish maqsadida "Ibrat farzandlari" loyihasi bilan hamkorlikda alohida sun'iy intellekt yordamida o'zbek tilini o'rgatish modulini ishga tushirsin. Bunda o'zbek modulini yaratish uchun xarajatlar Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan amalga oshirilishi nazarda tutilsin.

IV. Qaror ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

12. Adliya vazirligi **uch oy muddatda** qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirliklar va idoralar rahbarlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 20-oktyabr



DOLZARB MAVZU

Shohsanam YIGITALIYEVA,

Qo'qon DU o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATLARI TAVSIFI

Annotatsiya: "Til paydo bo'libdiki, necha ming yillardan beri odam bolasi sehr-u sinoatga to'la bu xilqat oldida hayrat barmog'ini tishlashdan tolmaydi. Tabiat va jamiyatdagi turfa hodisalarning mohiyati hamda qonuniyatlarini, ibtidoiy bir shamoyillarda bo'lsa-da, bahaddi imkon inkishof etishga uringan ilk aql sohiblarining diqqatini til, xususan, ilohiy va badiiy so'z tilsimi muammolari ham jiddiy band etgan.

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, tafakkur, konsept, tushuncha, milliy ong, milliy tafakkur, milliy tuyg'u, tasvir.*

Annotation: "Language has existed for thousands of years, and for many centuries, man has been in awe of this creation, a wonder and a wonder. Language, in particular, the problems of the language of divine and artistic speech, seriously occupied the attention of the first intelligent people, who, although in primitive conditions, tried to develop the essence and laws of various phenomena in nature and society.

Key words: *cognitive linguistics, worldview, worldview linguistic landscape, thought, concept, understanding, national consciousness, national thought, national feeling, image.*

Аннотация: «Язык существует уже тысячи лет, и на протяжении многих веков человек благоговеет перед этим творением, чудом и диковинкой. Язык, в частности, проблемы языка божественной и художественной речи, серьёзно занимали внимание первых разумных людей, которые, хотя и в первобытных условиях, пытались постичь сущность и закономерности различных явлений природы и общества.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, мировоззрение, мировоззренческий языковой ландшафт, мысль, концепт, понимание, национальное сознание, национальная мысль, национальное чувство, образ.*

Kirish.Bugunga qadar til tadqiqining tadriji tavsiflashdan tortib mavhumlashtirish va qoliplashtirishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Har bir davrda tilshunoslik metodologiyasida sodir bo'lgan burilish obyektning u yoki bu tomoniga qiziqish ortishi bilan bog'lanadi. Hozirda zamonaviy "ilmiy paradigma" atamasi ostida ilmiy muammoni qo'yish va hal qilishning mutaxassislar e'tirof etgan yaxlit andozasi, fan obyektiga nisbatan umumiy qarash, nazariy qoidalar, metodlar tizimi tushuniladi[1.9-13]. Tilshunoslikda uchta: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik paradigmalari ajratiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ko'pgina tadqiqotchilar til foydalanuvchisining ichki dunyosiga – lingvistik shaxsga murojaat qila boshladilar. Bu, umuman, lingvistik paradigmaning o'zgarishiga olib keldi. Uning asosiy e'tibori hozirgi vaqtda til va nutq vositalari

yordamida amalga oshiriladigan eng murakkab insoniy munosabatlar majmuyiga qaratilmoqda. Tildagi inson omili g'oyasi E.S.Kubryakova fikricha, "shaxsning lingvo-ijodiy faoliyati va uning idrok olamida yaratiladigan lisoniy manzara bilan uzviy bog'liq" dir.

Zamonaviy lingvistik ilmiy paradigma sifatida antropotsentrizm tilni o'rganishni undan foydalanuvchining nutqi, kognitiv, ijtimoiy va boshqa faoliyati bilan bog'liq holda boshladi. Natijada, tilning ijtimoiy, psixologik, kommunikativ jihatlariga qiziqish ortdi. Tilshunoslik fanining chegaralarini kengaytirish so'zlovchi shaxs olami haqidagi bilimlarning umumiy kontekstini aniqlashga qaratilgan lingvistik tadqiqotlar, aniqroq aytadigan bo'lsak, kognitiv izlanishlar hissasiga to'g'ri keladi.

Boshqacha qilib aytganda, tilni o'rganishga kognitiv yondashuvning mohiyati shundaki, ma'lum tajriba va bilim tashuvchisi sifatida shaxs

tafakkuri konseptual tushuncha va uning lisoniy ifodalanishida katta rol o'ynaydi. Binobarin, "tilni o'rganish obyekti sifatida ko'rib chiqishning alohida istiqboli insonning bilish jarayonlari va nutq faoliyatidagi markaziy rolini tan olish bilan bog'liq" va bu tilning antropotsentrik tabiatini anglatadi.

Bu yorug' diqqat-u shuur tetapoya davridan to bugungi yetuklik davriga kelguncha til mohiyatini aniqlashning ming bitta yo'lini sinab ko'rgan bo'lsa-da, bu mohiyatga to'la yetib borishning uddasidan chiqa olganicha yo'q. Chunki inson tili benihoya murakkab, benihoya ko'p tomonlama, benihoya o'ziga xos muhtasham va muntazam hodisadirki, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilishga ko'pda inson aqli ojizlik qiladi" [1.9-13].

Til, tafakkur va voqelik o'rtasidagi bu qadar murakkab bog'liqlik muammosi nafaqat til fanida, balki falsafa, mantiq, psixologiyada ham muhim o'rinlardan birini egallaydi. Til hodisasining mohiyatini tushuntirishga urinishlar falsafa tarixida qayta-qayta uchrab turadi. Uni tushunishga bo'lgan ilk urinishlarni antik falsafada Platon, Geraklit, Aristotel asarlarida va stoiklarning va'zlarida ko'rish mumkin. O'rta asrlarda nominalistlar va realistlar o'rtasidagi mashhur munozara-yu bahslar ortida ham tilning ontologik tabiati masalasini hal qilish istagi yotadi.

Gumboldt ma'lum bir xalqning fikrlash tarzini, aqliy omborini, fan, falsafa, san'at va adabiyotini "xalqning milliy ruhi" deb tushundi hamda til xalq madaniyatining bir qismi ekanligini ta'kidladi [12-14].

Professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "... har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan oddiy tushunchalar, ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. ... til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir" [3.53-60].

Gumboldt lisoniy ong tushunchasini fanga birinchi bo'lib kiritdi. Til "barcha uyg'un o'zaro to'qnashuvda faqat milliy lingvistik

ongning mahsulidir".[3.53-60] U tilni "fikrni shakllantiruvchi a'zo" deb tushundi va tilning tafakkurga bog'liqligini va har biri til tomonidan o'ziga xos shartlanishini ta'kidladi. Inson boshqa tillarni o'zlashtirib, "inson olam qamrovini" kengaytirayotgani haqida gapirar ekan, Gumboldt aynan til yordamida, ya'ni "lingvistik dunyoqarash" orqali boshqa xalqlar olam manzarasini tushunishni nazarda tutgan. Uning ta'limotiga ko'ra, til "inson tabiatiga singib ketgan va uning dunyoqarashini shakllantirish uchun zarurdir"[3.53-60], chunki inson tilsiz rivojlana olmaydi, fikrlay olmaydi, dunyoni idrok etishda tilga butunlay bo'ysunadi. V.fon Gumboldtning fikricha, til tabiat va inson o'rtasidagi bog'lovchi, "oraliq olam" bo'lib, u kishilar hamda ularni o'rab turgan dunyo o'rtasida joylashgan. Aynan til insonga voqelikni, uning atrofidagi dunyoni bilishiga yordam beradi va til yordamida "olam manzarasi" yaratiladi.

Rus tilshunosligida til va tafakkur munosabatlarining falsafiy va lingvistik muammosiga oid birinchi maxsus tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga keldi. Bu mashhur rus olimi A.A.Potebnyaning V. fon Gumboldt g'oyalari ta'sirida yozilgan "Tafakkur va til" asaridir. A.Potebnya ushbu asarida til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qildi va bir qator muhim g'oyalarni ilgari surdi:

1. Tilning tafakkurdagi roli (Potebnya tilga inson fikrining ifodasi sifatida qaraydi. U til orqali fikrlar, hissiyotlar va tajribalar ifodalanishini ta'kidlaydi).

2. Til va madaniyat (Potebnya tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki madaniyat va milliy identiklikni shakllantiruvchi omil sifatida ham ko'radi. Har bir til o'ziga xos dunyoqarashni aks ettiradi).

3. Semantik tushuncha (A.Potebnya tilning semantik jihatlarini, ya'ni so'zlarning ma'nosi va ularning kontekstdagi ahamiyatini o'rgandi. U so'zlarning ma'nosi ularning kontekstiga bog'liq ekanligini ta'kidladi).

4. Fikrlash jarayonlari (Potebnya fikrlash jarayonlarini tahlil qildi va bu jarayonlarning til bilan qanday bog'liqligini isbotladi. U fikrlashni til orqali amalga oshirishni, ya'ni tilning fikrlarni

shakllantirishdagi rolini ta'kidladi).

5. Fikrlash va tasavvur (Potebnya fikrlash jarayonlarida tasavvurni muhim element sifatida ko'radi. Uningcha, tasavvur til orqali ifodalanadigan fikrlarni boyitadi va kengaytiradi).

6. Tilning evolyutsiyasi (Potebnya tilning rivojlanishi va evolyutsiyasini ham o'rgandi, bu esa til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi).

Shunday qilib, Potebnyaning ushbu asari til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunoslikdagi kognitiv tadqiqotlar bugungi kunda umumiy g'oyaviy yo'nalishga – "ichki" tilshunoslikdan "tashqi" tilshunoslikka o'tishga mos keladi, bunda til hodisalari shaxs va uning tafakkuri bilan chambarchas bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

XX asrning eng yirik tilshunoslaridan biri Vitgenshteyn o'zining "Falsafiy asarlari"da olamni bilish mumkin, chunki til mantiqiy tuzilma sifatida olamning tuzilishini o'zining ma'nosi bilan aks ettiradi, deb ta'kidlaydi.[4.10] Uning "lisoniy olam manzarasi" haqidagi g'oyasi barcha zamonaviy kognitiv tadqiqotlar asosida yotadi.

"Til shunchaki shaxsiy bilish shakli emas, u ijtimoiy bilish shaklidir: xalq tilida til hamjamiyati a'zolari insoniyat mavjudligining boshidanoq shakllangan, rasmiylashtirilgan, lingvistik qobiliyatning asosi va lingvistik shakllardagi bilish majmuyini o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy til so'zning denotativ ma'nosida ushbu jamiyatning "olam manzarasi"ni qamrab oladi". [5.47-51]

Xulosa. Shunday qilib, til va tafakkur muammosi, shubhasiz, zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu masalaga bag'ishlangan ko'plab asarlari bunga dalil bo'la oladi. Ushbu muammoning murakkabligi, ko'p qirraliligi uni o'rganishga turli xil yondashuvlarda namoyon bo'ladi.[6.78] Tilni o'rganishga kognitiv yondashuv til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarga yangicha qarash imkonini beradi. Tilshunoslarning ong, tafakkur, mentalitet singari psixologik va falsafiy voqeliklarga murojaat qilishlari tabiiy, negaki u mohiyatan til tizimini o'rganish, til hodisalarining mavjudligi yo'lini izlashning metodologik vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012.№ 5.9-13- бет.
- 2.Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – 1 (001). – С.12-14.
- 3.Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С.53-60.
- 4.Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. 10-бет.
- 5.Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С.47-51.
6. Yigitaliyeva, S. (2023). Konsept va uning lingvistikadagi talqini. 78-83 bet. *Scienceweb academic papers collection*.

Munira XUDOYOROVA,
 Navoiy davlat universiteti
 "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti

NAVOIY QIT'ALARI POETIKASIGA DOIR

Annotatsiya: maqolada Navoiy qit'alarining kompozitsion jihatiga alohida e'tibor qaratiladi. Ular ikki jihatdan tasnifga tortiladi: sarlavha va she'riy matn. Ular bir-birini to'ldirib, quvvatlab, fikrni uzviy bog'liqlikda tadrifiy rivojlantiradiki, birini ikkinchisidan uzib, alohida talqin qilish sira mumkin emas. Sarlavhalar she'riy matnning qisqa, ammo aniq sharhini ifoda etadi. Sarlavhani qit'aning ixcham nasriy bayoni deb baholash ham mumkin. Bu fikrlar maqolada ilmiy tadqiq qilinadi. Ma'lumki, Alisher Navoiy badiiy ijodda qanday ishga qo'l ursa, u o'ziga xosligi va yangiligi bilan ajralib turgan. Qit'aga sarlavha qo'yishi ham mutafakkir shoirning turkiy mumtoz she'riyatdagi ixtirosi ekanligi misollarda aniqlangan. Chunki she'r matnini oson tushunish yoki o'ng'ay qabul qilishda aynan sarlavhalar yaqindan yordam berganligi dalillangan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, qit'a, sarlavha, matn, nasriy bayon.*

Annotation: the article pays special attention to the aspect of Navoi's continental compositions. They are divided into two categories: the title and the poetic text. They complement and strengthen each other, gradually developing the idea in an inseparable connection, so that it is impossible to separate one from the other and interpret it separately. Titles express a short but clear description of the poetic text. The title can also be considered a short prose description of the essence. For this purpose, scientific research is carried out. It is known that whatever work Alisher Navoi does in artistic creation, it is distinguished by its originality and novelty. The idea of giving a title to the continental is also determined in examples about the invention of the thinker poet in Turkic classical poetry. Because it is proven that it is precisely the titles that help in the easy or intuitive perception of the text of the poem.

Key words: *Alisher Navoi, continent, title, text, prose narrative.*

Аннотация: в статье особое внимание уделяется композиционному аспекту строф Навои. Они классифицируются по двум признакам: заглавие и поэтический текст. Они дополняют и усиливают друг друга, постепенно развивая идею в неразрывной связи, так что невозможно отделить одно от другого и интерпретировать его по отдельности. Заголовки выражают краткий, но ясный комментарий к поэтическому тексту. Заголовок также можно считать сжатым прозаическим описанием строфы. Эти идеи научно исследуются в статье. Известно, что какое бы произведение Алишер Навои ни делал в своем художественном творчестве, он отличался оригинальностью и новизной. Приведенные примеры показывают, что давать заглавие строфе также является изобретением поэта-мыслителя в классической тюркской поэзии. Потому что доказано, что именно заголовки помогали легко понять или воспринять текст поэмы.

Ключевые слова: *Алишер Навои, континент, название, текст, прозаическое повествование.*

Sharq mumtoz adabiyotida har bir lirik janr o'zining g'oyaviy-badiiy tabiati, poetik qonun-qoidalari va albatta, hayotga munosabatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Alisher Navoiy ijodiyoti lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan favqulodda katta hissasi bilan ham alohida mavqega ega. Ayniqsa, qit'a janrining mumtoz adabiyotimizda mustaqil janr sifatida to'la mavqe qozonishi, badiiylik nuqtayi nazaridan boshqa lirik janrlar tizimida muhim o'rin egallashi bevosita Alisher Navoiy salohiyati va badiiy mahoratining natijasidir. Shoir qit'alari tahliliga bag'ishlangan deyarli barcha tadqiqotlarda bu haqiqat takror-takror aytilgan. Ma'lumki, Navoiyshunoslik fani rivojida o'tgan asrning 60 – 80-yillari alohida bir davrni

tashkil etadi. Bu davrda ulug' shoir lirikasi tadqiqiga bag'ishlangan yirik fundamental tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rdiki, ularda Navoiy ijodidagi qit'alariga ham muhim o'rin ajratilgan.

Kuzatishlarimizga ko'ra, Navoiyning qit'a janri imkoniyatlari borasidagi alohida xizmati bevosita mazkur janrning poetik xususiyatlari bilan ham bog'liqdir. To'g'ri, qit'a janrining barqarqorlashgan badiiy qonuniyatlari fors-tojik she'riyatida Navoiygacha bir qadar shakllangan edi. Ulug' shoirning qit'anavislikka qo'shgan o'ziga xos yangiliklaridan biri esa qit'alarning har biri maxsus sarlavhaga ega bo'lganidir. Qit'anavislikda bunday an'ana Navoiygacha faqatgina fors-tojik shoiri

Anvariylar she'riyatida uchraydi, xolos¹. Demak, Navoiy qit'anavislikda nafaqat fors-tojik shoirlarining ijodiy yutuqlaridan ilhomlangan, ta'sirlangan, balki turkiy adabiyotda mazkur janrning poetik jihatdan yanada mukammal bo'lishi uchun novatorona yondashgan-sarlavhalar qo'yilishiga ham alohida diqqat qaratgan.

Navoiyshunos olimlarimiz mavzu ko'lamining kengligi, shakliy belgilari, uslub va son jihatidan qit'a janrining ulug' shoir ijodida o'ziga xos o'rin egallaganini ta'kidlash bilan bir qatorda, ularga qo'yilgan sarlavhalarining muallifi masalasida ham turlicha fikr-mulohazalarini bildirganlar. Ularda, asosan, quyidagicha ikki xil munosabat ko'zga tashlanadi: birinchisi Navoiy qit'alari sarlavhalarining shaxsan muallifning o'zi tomonidan qo'yilganligiga doir qarashlar, ikkinchisi qit'alar sarlavhalari muallif tomonidan emas, unga yaqin bo'lgan shaxs tomonidan qo'yilganligi haqidagi mulohazalar. Dastlabki guruhga mansub fikrlarni ustoz adabiyotshunos, professor Abduqodir Hayitmetov boshlab bergan. Ustozning "Navoiy lirikasi" nomli kitobida qit'a mavzusida ham ancha keng mulohaza yuritilib, o'zbek mumtoz adabiyotida bu janrning taraqqiyoti bevosita Navoiy nomi bilan bog'liqligi atroflicha asoslab berilgan². Shuningdek, qit'aga sarlavha qo'yilishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Olimning fikricha, sarlavha boshqa lirik janrlarga nisbatan ulug' shoirning aynan qit'a janriga munosabati boshqacha bo'lganligini ko'rsatadi: "Navoiy o'z qit'alariga shunday katta ahamiyat berganki, buni ularni ehtiyotlik bilan yig'ib borganida, har devoniga alohida she'r turi sifatida deyarli bir miqdordan joylashtirganida, mazmuniga ko'ra ularning har biriga hech erinmay sarlavha qo'yganligida yaqqol ko'rish mumkin"³. Diqqat qilinsa, olimning mazkur mulohazalarida masalaning uch jihatiga jiddiy e'tibor qaratilgan: 1. Navoiy o'z qit'alarini nihoyatda sinchkovlik bilan, uzoq vaqt mobaynida yig'ib borgan. 2. "Xazoyin ul-maoniy"dagi devonlarga taqsimlashda ham g'azal janri namunalarini kabi o'zaro teng taqsimlash tamoyiliga tayangan. 3. Boshqa lirik janrlardan farqli ravishda har bir qit'aga maxsus sarlavhalar qo'ygan.

Haqiqatan, daho shoir qit'aga ham g'azal janridan kam e'tibor qaratmagan. Bu, ayniqsa, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan devonlardagi qit'alarining soni va taqsimotida ham ko'zga ravshan tashlanadi. Ammo qit'alardagi muhim o'ziga xosliklardan yana biri bu – ularning sarlavhalari. A.Hayitmetov shoir o'z qit'alarining ijtimoiy mohiyatini aniq tushungan holda kitobxonga ham tezroq yetib

1 Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 275.

2 Хайитметов А.Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

3 Кўрсатилган китоб. – Б. 62.

borishini xohlaganligi uchun ularga sarlavha qo'ygan, degan xulosaga kelib, "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob" va "Favoyid ul-kibar" devonlaridan misollar keltiradi va teran tahlillar qiladi. Biz olimning mazkur gaplarini yoqlaymiz, albatta. Chunki tanlangan qit'alarda sarlavhalar haqiqatdan ham ifodalanayotgan ma'noning o'quvchi ong-u shuuriga tez va oson yetib borishini ta'minlashi kunday ravshan. Masalan: "Navoiy mamlakatda yuz bergan bir qurg'oqchilik munosabati bilan yozilgan quyidagi qit'ani "Navodir ush-shabob"da "Xushksol ta'rifidakim, chashmalar ayni qurub, shammai suv qolmadi" degan sarlavha ostida keltiradi"⁴:

Xushksol o'ldi bu yil ul nav'kim gard ichra el,
Bir-birin ko'rmas agarchi o'tirurlar ro'baro'.

Dalvg'a kirmas quyoshning chashmasi ne sudkim –

Topmadi ul dalv ila ul qatradin bir chashma suv.
(2, 732)

Yoki "Favoyid ul-kibar"dagi "Yamon yamonlig'ni qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa, o'n yaxshi qilig'cha" sarlavhali qit'a ham yuqoridagi fikrlarimizning bir isbotidir:

Har kishikim topsa davron ichra johu e'tibor,
Kim aning zotida bedodu sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshiliq gar qilmasa, bori yamonliq qilmasa,
Kim yamonliq qilmasa, qilg'oncha bordur yaxshilig'
(4, 726).

Umuman, "Navoiyning qit'alari uning turmush bilan to'qnashuvidagi ilk taassurotlari mevalaridir"⁵. Bu taassurotlarning muayyan chizgilari, o'ziga xos tezislari yoki taassurotlarning yorqin manzaralari, eng avvalo, qit'alarining sarlavhalarida ifoda topgan. Buyuk mutafakkir shoir ijodidagi kichik lirik janrlar, xususan, qit'alar haqida ham to'xtalgan professor R.Orzibekov sarlavha xususida A.Hayitmetovning fikr-mulohazalarini ham qo'llab, ham rivojlantiradi: "Alisher Navoiy qit'alarining qanday usulda yozilishidan qat'iy nazar, o'z muddaosini aniqroq ta'kidlab ko'rsatish maqsadida ularning har biriga sarlavha ham qo'ygan. Bu sarlavhalar shu qit'alarining g'oyaviy mundarijasiga ishora qiladi"⁶. Olim "Maxluq mulozamatidin tanfir va g'ayri Haq mulozamatidin tahzir" sarlavhasi ostidagi laganbardorlik va pastkashlikni qoralovchi mana bu qit'aga diqqatni jalb qiladi:

Kimki maxluq xizmatig'a kamar
Chust etar, yaxshiroq ushalsa beli.

Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa eli.

4 Хайитметов А.Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. 62-63-Б.

5 Кўрсатилган китоб. 62-Б.

6 Орзібеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. 24-Б.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh,
 Kim tutilsa dami, kesilsa tili. (1, 709)

Xoliq – yaratuvchi, ya'ni Alloh taolo. Maxluq – yaratilgan. Odam ham maxluqotlardan biridir. Agar e'tibor qilsak, qit'a manfaat uchun xushomad bilan insonning o'zi kabi yaratilgan boshqa bir insonga bel bukib xizmat qilishiga nafrat tariqasida yozilgan: "Qaysi kishiki o'zi singari maxluq xizmatiga bel bog'lasa, bundan ko'ra uning beli singani yaxshiroqdir", – deydi donishmand shoir. Aniqrog'i, o'z foydasi yo'lida tilyog'lamalilik bilan xushomad qiluvchi kishilarga qarata "qo'ling sinsin!", "tiling kesilsin!" kabi xalqona iboralari vositasida o'ta keskin munosabat bildiradi. Qit'a sarlavhasi esa muallifning she'rdan ko'zda tutgan yanada muhimroq g'oyasiga ishora qiladi, ya'ni maxluqning xizmatiga bel bog'lagan kishi Haqning mulozamatidan yiroqlashishi mumkinligidan o'quvchini ogohlantiradi, sergak torttiradi.

Navoiyshunos, professor A.Abdug'afurov qit'a sarlavhalarining muallifning o'zi tomonidan qo'yilganligiga ishtiboh bilan qaragan. Olimning bunday xulosaga kelishiga sabab sarlavhalarning izoh mazmunida ekanligi, ko'proq bayonchilik xarakterida ekani, qit'alarga qo'yilgan sarlavhalarning uslub jihatidan Navoiyning boshqa asarlari sarlavhalaridan farq qilishi va "aytibdur", "debudur", "xabar berur", "ado qilibtur", "tashbeh qilibtur" kabi uchinchi shaxsga ishora shakllari borligidir. Olimning fikricha, sarlavhalar Navoiy ijodiy laboratoriyasiga yaqin turgan, qit'alarining yozilish tarixi bilan bevosita yaqindan tanish bo'lgan ikkinchi bir shaxs tomonidan, ehtimol, shoir asarlarini oqqa ko'chiruvchi kotib yoki kotiblar tomonidan Navoiyning ijozati – ma'qullashi bilan yozilgan⁷. "Xazoyin ul-maoniy"ga kirmay qolgan, Hamid Sulaymon tomonidan kulliyotga ilova sifatida kiritilgan 8 ta qit'a va "Devoni Foni"da⁸gi forsiy qit'alarga sarlavha qo'yilmagani ham olimda turkiy qit'alarga sarlavhaning bevosita Navoiy tomonidan qo'yilganiga ishtiboh paydo qilgan. Ammo professor A.Abdug'afurov qit'a sarlavhalari shoirga tegishli ekanini butkul inkor qilmaydi, ya'ni uslubiga ko'ra "faqat ayrimlarigina Navoiy qalamiga mansub"⁸ bo'lishi mumkin, degan mulohazani o'rtaga tashlaydi.

Bizningcha, bu muammoni hal qilish va to'g'ri ilmiy xulosaga kelishda yirik adabiyotshunos Y.Is'hoqov anchayin yaxshi natijaga erishgan. U sarlavhalarni "Navoiy san'atkorligining ma'lum qirralarini namoyish etuvchi o'ziga xos badiiy parchalardir"⁹, – deb juda to'g'ri baholaydi. A.Abdug'afurovning qit'a

7 Қаранг: Абдуғафуров А. Эрк ва эзулик куйчилари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 61 – 62.

8 Кўрсатилган китоб. 63-б.

9 Қаранг: Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. 67- б.

sarlavhalarining Navoiyga tegishli emasligi borasidagi fikrlarini maxsus tekshirilgan ilmiy dalillar asosida to'la-to'kis rad etadi. Y.Is'hoqov Navoiyning qit'alarga sarlavha qo'yishini boshqa navoiyshunoslardan farqli ravishda Sharq mumtoz adabiyotdagi tarixiy-an'anaviylik bilan bog'laydi va bunda Navoiy atoqli fors shoiri Anvariyaning ilhomlanganini ta'kidlaydi: "Anvariyaning devonidagi yuzlab qit'alarga sarlavha qo'yilgan. Bu hodisaning Navoiy uchun o'rnak yoki turtki bo'lganligi shubhasiz ekanligi, uning Anvariyaning merosiga bo'lgan umumiy munosabati fonida olib qaralganda, to'liq tasdiqlanadi. Muhimi shundaki, bu haqda Navoiyning o'z e'tiroflari mavjud. U "Xamsat ul-mutaxayyiriy"da o'zi bilan Jomiy muloqotlarini eslab shunday yozadi: "Bir kun faqir alar xizmatida erdim va yana kishi yo'q erdi. Anvariyaning qasoyidi bobida so'z o'tadur erdi. Alar bu nav' ta'rif qiladur erdikim, "Biz aning ash'orin, bataxis, qasoyidin oz ko'rub erduk, bu yaqinda bir-ikki devoni bizning iligimizga tushubtur, gohi anga mashg'ul bo'ladurbiz, ba'zi yerda aytsa bo'lg'aykim, bashar kalomidin o'tub, e'jiz haddig'a yetmish bo'lg'ay, g'arib tarkiblar va ajib adolar nazarga keladur". Chun faqir as'hob orasida muttahaam (tuhmatlangan) muncha bormenkim, Anvariyaning mu'taqiddurur va aning she'rin ko'p o'qur. Filvoqe' mundoqdur...» (8, 46). Bizningcha, Anvariyaning mu'taqid sifatida shuhrat qozongan va o'z e'tirofiga ko'ra, uning she'rlarini ko'p o'qigan ijodkorning Anvariyaning she'rlari poetikasining original jihatlaridan ilhomlangan bo'lishi taajjublanarli emas"¹⁰. Demak, Navoiy qit'alarining sarlavhalari uchun Anvariyaning ijodidagi mazkur janr namunalari bir asos vazifasini bajargani shubhasizdir. Ammo ulug' shoir she'riyatidagi barcha qit'alar xususida bunday deb bo'lmaydi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, "Xazoyin ul-maoniy" gacha tartib berilgan ikki devon: "Badoe' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlariga kiritilgan qit'alarga sarlavhalar qo'yilmagan. Bu ulug' shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kiritilgan poetik janrlarga alohida e'tibor bilan qaraganiga dalolatdir. Y.Is'hoqovga ko'ra, kulliyotning "strukturasiga xos yangiliklardan biri – qit'a sarlavhalari ham muayyan g'oyaviy-estetik funksiyani bajar"¹¹adi. Darhaqiqat, "Navoiy qit'alarining har biriga sarlavha qo'yishining sababi shundaki, u o'z qit'alarining ijtimoiy ahamiyatini real tushunar edi va ularning o'z adresatiga to'g'ri borib yetishini, tez anglashilishini istar edi"¹². Sarlavhalar qit'a mazmunini umumlashtiradi yoki qit'ada ifodalananayotgan fikr, tasvirlananayotgan voqea,

10 Ўша китоб. 71- б.

11 Ўша китоб. 68- б.

12 Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. 64-б.

tavsiflanayotgan shaxsga ishora qiladi. Aniqrog'i, fikr markazini tashkil qilib, shoirning maqsad-muddaosini yuzaga chiqarish uchun muhim poetik funktsiya bajaradi. Ayrim qit'alarining mohiyati faqat sarlavha bilangina to'la anglashiladi – sarlavhasiz qit'a mazmunini teran idrok qilish anchayin qiyin. Jumladan, "G'aroyibus-sig'ar"dagi "Oz so'z demakning manfaatidavu ko'p so'zning mazarratida" sarlavhali 23-qit'ani olaylik. Sarlavhada "oz" – "ko'p" so'zlarining o'zaro zidlanishi, "manfaat" va "mazarrat" ohangdosh kalimalaridan anglashilayotgan ma'nolar hamda "demak", "so'z" so'zlarining mutanosib qo'llanishi gap nima xususida borishiga ishora qiladi. Ulug' shoirning o'rinni va oz so'zlash kishiga foyda keltirsa, ortiqcha va ko'p gapirish faqat zarar bo'lishi xususidagi donishmandona mulohazasi sarlavha mazmunidan ma'lum. Qit'ada bu quyidagicha ifodalangan:

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,
 Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
 Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun,
 Qilur tojvarlar bila dastbo's.
 Necha tojvardur kesarlar boshin,
 Chu hangomsiz namg'a tortar xurus. (1, 714)

Sarlavhalar hayot hodisalarini ko'rib, xulosalar chiqargan, turmushning yaxshi-yomon tomonlarini ko'rgan, achchiq-chuchugini ko'p totgan fasohat sohibining hikmatli xulosalari, deyish mumkin.

Aslida sarlavhani qit'aning qisqa, aniq va ixcham nasriy bayoni, desak xato bo'lmaydi¹³. Adabiyotshunos Q.Ergashevning yozishicha, "Navoiy nasriy asarlarida bayon tarzi har bir asarning g'oyasi, janr xususiyatlari, muallifning maqsadi va niyatlari bilan bog'liq ravishda o'ziga xoslik kasb etadi. Ayni paytda ularning barchasida Navoiy uslubiga xos umumiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi, ya'ni uning "qalami" sezilib turadi. Bayon uslubining sodda yoki murakkab bo'lishi aksar hollarda muallifning maqsadi bilan bog'liqdir".¹⁴ Bu fikrlarni qit'a sarlavhalariga ham tatbiq qilish mumkin. Sarlavhalar qit'alarining mazmuni va shoirning

maqsad-muddaosidan kelib chiqib, bir tarkibli va bir necha tarkibli gaplardan tashkil topadi. Shunga ko'ra ularni tuzilishiga ko'ra, sodda va murakkab sarlavhalarga ajratish ham mumkin.

Faqatgina poetik sintaksis talablari, ifoda tarzi va pafosning o'ziga xosligi bilan emas, mazmuni-mohiyati bilan ham sarlavhalar nihoyatda pishiq va mukammal. Demak, gap qurilishining she'riy shaklga o'ta yaqinligi, ritmik-sintaktik bo'laklardan tashkil topgan sintaktik konstruksiyalarning sa'j asosida qurilishi qit'a sarlavhalarining o'ziga xos alohida xususiyatidir. To'g'ri, ularni qit'a anglatayotgan mazmundan butkul ajratib talqin qilish ulug' shoirning badiiy niyatini ham, qit'aning asl mohiyatini ham soyada qoldiradi. Sarlavha va qit'a bir-birini yanada to'ldiradi, biri ikkinchisini poetik va ma'no jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Biroq o'quvchi, ya'ni she'rxon qit'a mazmunini, lirik qahramonning his-tuyg'ularini, avvalo, sarlavhani o'qib anglaydi, his qiladi.

Navoiy qit'alarini ulug' shoirning davr, zamon, zamon ahli haqidagi qarashlarini real va haqqoniy ifodalashi bilan birga, dunyoqarashi, ma'naviy olami, hayotiy fikr-mulohazalarini ham nihoyatda yorqin va ishonarli ochib beradi. Sarlavhalar esa barcha o'y-kechinmalar, tasvir va taassurotlar, hayotiy xulosalarni umumlashtiradi, bir joyga yig'adi.

Umuman olganda, Navoiy qit'alari kompozitsion jihatdan ikki qism: sarlavha va she'riy matndan iborat. Ammo ular bir-birini to'ldirib, quvvatlab, fikrni uzviy bog'liqlikda tadrijiy rivojlantiradiki, birini ikkinchisidan uzib, alohida talqin qilish sira mumkin emas. Sarlavhalar she'riy matnning qisqa, ammo aniq sharhini ifoda etadi. Sarlavhani qit'aning ixcham nasriy bayoni deb baholash ham mumkin. Bu fikrlarimizni yuqorida tahlil qilingan qit'a sarlavhalari ham tasdiqlab turibdi. Ma'lumki, Alisher Navoiy badiiy ijodda qanday ishga qo'l ursa, u o'ziga xosligi va yangiligi bilan ajralib turgan. Qit'aga sarlavha qo'yishi ham mutafakkir shoirning turkiy mumtoz she'riyatdagi ixtirosi edi, desak aslo xato bo'lmaydi. Chunki she'r matnini oson tushunish yoki o'ng'ay qabul qilishda aynan sarlavhalar yaqindan yordam bergandir.

¹³ Sarlavxalar haqida qarang: Qurbonov A. "Xamsa" sarlavxalari badiiyati. – Toshkent: Meri-us, 2016. 134-6.

¹⁴ Ergashev Q. Alisher Navoiyning nasriy uslubi masalalari. – Toshkent: Muxarriр, 2022.62-6.

Malika MAXMUDOVA,
 Abdulla Oripov nomidagi ijod
 maktabi tarbiyachi-pedagogi
malikamaxmudzoda@gmail.com

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA ODOB MAVZUSI TALQINI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy qit'alarida odob-axloq mavzusining navoiyona talqinlari haqida so'z boradi. Ba'zi qit'alarining mavzu talqinidagi tipologik jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, odob konsepsiyasining tahlili, odobning tasnifi amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: *odob, to'g'rilik, halollik, "Chor devon", qit'a.*

Аннотация: в этой статье мы обсудим интерпретацию темы этикета в китъа Алишера Навои. Выявлены сходства и различия некоторых китъа. Также встречается анализ концепции этикета, сведения о видах этикета.

Ключевые слова: *этикет, честность, порядочность, "Чор девон", китъа.*

Annotation: in this article, we will discuss the interpretations of the topic of morality in Alisher Navoi's qit'as. Similarities and differences of some qit'as are revealed. There is also an analysis of the concept of etiquette, information about the types of etiquette.

Key words: *manners, honesty, integrity, "Chor Devon", qit'a.*

Odob kishilik jamiyatida azaldan mavjud bo'lgan va bugunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan konsepsiyalardan biridir. Har bir ongli mavjudot bor ekan, uni hayotda, jamiyatda o'z qadri va o'rniga ega bo'lishi uchun unga, eng avvalo, go'zal odob va tarbiya zarur hisoblanadi.

Odob so'zi arabcha "adab" so'zining ko'pligi hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, barcha xulqlarning majmui odob hisoblanarkan. Odob insonning jamiyatga, insonlarga, ba'zida o'ziga bo'lgan munosabatidir. Odob xulqqa qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, jamiyat bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Har bir jamiyat esa o'z a'zolarini komil inson qilib tarbiyalanishini istaydi va bunga harakat qiladi.

Komil inson atamasi ilk bor Sharqda vujudga kelgan. Bu esa o'z-o'zidan axloqiy normalarning Sharqda paydo bo'la boshlaganini ko'rsatadi. "Avesto", "Urxun-Enasoy" bitiklari, Xammurappi, Sin-Shixuandi maqbarasidagi bitik kabilarni bunga misol qilishimiz mumkin. Sharqda tobora rivojlanib borgan bu konsepsiya XV-XVI asrlarda taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi. Bu paytda odob-axloq va komillik shunchaki konsepsiya sifatida emas, aksincha, din va tasavvuf bilan chambarchas bog'langan holda davom ettirildi. Bu davrda ijod qilgan o'z zamonasining yorqin vakillaridan biri Alisher Navoiydir. Uning asarlarining deyarli barchasini tasavvuf bilan bog'lash va undan go'zal ma'nolarni topishimiz mumkin. "Lisonu-t-tayr", "Xamsa", "Xazoyinu-l-maoniy", Nasoyimu-l-muhabbat" kabi asarlarini yuqoridagi fikrlarimizga misol qilib keltirsak bo'ladi.

Mumtoz adabiyotda qit'a janri eng keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. U shoirning so'z qo'llash mahoratining qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy aytgani singari: "She'r qanchalar uzayib ketsa, u sovuq va zo'raki asar bo'ladi. Bu kabi asar o'quvchiga zavq bermaydi, aksincha zeriktirib qo'yadi"¹. Qit'a g'azal va boshqa janrlarga nisbatan avvalroq yuzaga kelgan bo'lib, uning shakli, ya'ni maxsus qolipi mavjud emas. Har bir qit'a bir mavzuga asoslangan bo'lib, u mustaqil asar sifatida o'rganiladi. Navoiy davrigacha ko'plab qit'alar mavjud bo'lgan, ammo aynan Alisher Navoiy qit'a janrini alohida, mustaqil bir janr sifatida ravnaq toptirgan shoirdir.

Ushbu maqola buyuk shoirning "Xazoyinu-l-maoniy" devonida keltirilgan qit'alarda odob konsepsiyasining o'rni nechog'lik ekanini o'rganishga bag'ishlandi.

Xalq orasida "Chor devon" nomi bilan mashhur bo'lgan Navoiyning mazkur asari 1491–1496-yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, u asosan, 4 qismdan iboratdir. Shoir taxminan, 7-8 yoshlaridan toki vafotiga qadar yozgan barcha turkiy tildagi she'rlarini mazkur devonga jam qilgan. Bu devonni tartiblash sababini bu asarning debochasida keltirib o'tadi. "Xazoyinu-l-maoniy" jami 45 ming misradan, ya'ni 3130dan ortiq lirik she'rlar mavjud bo'lib, shundan 210 ta lirik she'ri qit'a janriga xosdir. Mazkur devonda qit'alar quyidagi tartibda joylashgan:

¹ Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – T.: O'zbekiston Davlat nashriyoti, 195. 185-bet.

“G‘aroyibu-s-sig‘ar”	50 ta
“Navodiru-sh-shabob”	50 ta
“Badoye‘u-l-vasat”	60 ta
“Favoyidu-l-kibar”	50 ta

Navoiy devonda odob, komillik, tasavvuf haqidagi tushunchalarga urg‘u beradi. Devonning barcha qismlarida tartib berilgan qit‘alar hamd va na‘t bilan boshlangan.

“Rostliq sifati-yu rostravlar karomati” deb sarlavha qo‘yilgan qit‘a “G‘aroyib us-sig‘ar”da keltirilgan 12-qit‘adir. Unda shoir rostlik, halollik, to‘g‘rilik kabi xislatlarni tarannum etadi. Halol, to‘g‘ri inson go‘yo suv ustida yura oladi deb ta‘riflaydi va bunga 2-baytda istiora san‘atidan unumli foydalanib hayotiy misol keltirib o‘tadi.

*Shior aylab bu ishni kema tiyri, ko‘rki, su uzra,
Xirum aylab havog‘a bodbondin soldi sajjoda.*

Ushbu baytda shoir rost so‘zlovchi insonni kemanding ustuniga o‘xshatadi. Chunki kemanding ustuni tik bo‘lgani uchun suvda cho‘kmaydi va uning yelkanlari havoga sajda qiladi deb so‘zini hayotiy isbot bilan keltirib o‘tadi.

Navoiy tasavvuf, komillik, Allohga oshiqlik va odob masalalarini o‘z asarlarining bosh mavzusi qilib oladi. Uning o‘zi ham komil inson darajasiga yetishmoqni orzu qilgan va shunday inson bo‘lishga harakat etganini asarlari orqali ham bilib olish qiyin emas.

U Qur‘oni Karim, hadis va o‘zidan avval yashagan ko‘plab tasavvufiy ijodkorlarning asarlari bilan ham tanish bo‘lgan. “Sahih Buxoriy”ning “Sir saqlash” bobida Ibn Battol aytadi: “Ahli ilmning fikriga ko‘ra, sohibiga zarar keltiradigan ilmni ochish mumkin emas”. Anas ibn Molik esa: “Birov bir narsa deb, atrofiga qarab qo‘ysa, bu omonatdur”. Xuddi shunga “Badoye ul-vasat”da keltirilgan “Maxfiy rozni huqqa ichindaki mushk isi debturkim, huqqa ochilsa, ul isini ne yig‘ishtursa bo‘lur, ne yoshursa” nomli 21-qit‘asini misol qilishimiz mumkin.

*Rozni asra, chunki fosh etting,
Yana pinhon bo‘lurni qilma havas.*

Inson sirini saqlay olmay fosh etib qo‘ysa, uni yana qayta sir qilib yashira olmasligini ta‘kidlaydi. Ikkinchi baytda bunga dalil sifatida insonning sirini nafasga tashbeh qiladi va sir ham xuddi nafas singari chiqib ketsa, uni qaytib olomasligini aytib o‘tadi. Bu qit‘a orqali shoir ham o‘zining, ham o‘zganing sirini fosh etmaslik odobi haqida so‘zlaydi.

Komil inson darajasiga yetishni istagan har bir jonzot borki, avvalo, shukr etmoqni va nafsni yengmoqni o‘rganmog‘i darkordir. Abu Abdurahmon as-Sulamiy “So‘fiylarning axloqi” nomli kitobida nafsni yengish, qanday vaziyat bo‘lmasin, o‘z holiga shukr qilish haqida ko‘plab misollarni keltirib o‘tadi. Bunga misol tariqasida Ubayd al-Varroqning “Qubbat ush-shuaro”sida “Bishri Hafi va bir faqir hikoyati”ni keltirib o‘tish mumkin. Alisher Navoiy ham o‘z asarlari orqali bu g‘oyalarni targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan. “Badoye‘u-l-vasat”da keltirilgan “Falokatdin ayog‘iga kafsh bo‘lmag‘ang‘a chun kafsh uchun ayog‘i bor shukr vojibdur” nomli 41-qit‘a ham aynan shu haqidadir. Bundan tashqari, “Navodiru-sh-shabob”dagi 7-qit‘a, “Favoyidu-l-kibar”dagi 9-qit‘alarni ham keltirib o‘tish mumkin.

Alisher Navoiy faqat shu mavzular bilan cheklanib qolmagan, albatta. Uning mavzu doirasi juda keng. Saxiylik va baxillik, rostgo‘ylik va yolg‘on so‘zlamoq, to‘g‘rilik va egrilik singari odobga oid bir qancha terminlardan unumli foydalangan. Uning bu asarlari nafaqat o‘z davridagi muhitga ta‘sir o‘tkazgan, balki bugungi kunda ham jamiyatga odob masalalarida yetakchi qo‘llanmalardan biri sifatida ishlatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, J.: 1–4. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2015.
3. Ebu Abdurrahman Muhammed es-Sulemi. “Sufilerin ahlaki”. – Istanbul, 2018.
4. Imom al-Buxoriy. “Al jome‘ as-sahih”. – T.: Munir nashriyoti, 2010.



TILSHUNOSLIK



Fozilbek XAMRAYEV,
Turon universiteti o'qituvchisi, f.f.f.d.
E-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

SHEVA SO'ZLARINING XORIJIY SO'ZLARNI MILLIYLASHTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi yangi o'zlashmalarni milliyashtirishda shevaga xos so'zlarning tutgan o'rni ko'rsatib berilgan. Unda sheva so'zlarining yangi nomlar yaratishda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi faol so'z yasash usullaridan keyingi muhim manba ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada turli hududga mansub bir nechta shevaga xos so'zlar tahlil etilib, ulardan tegishli xorijiy so'zlar o'rnida foydalanish bo'yicha takliflar berilgan va jadval asosida shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: *sheva, adabiy til, tarixiy so'zlar, yangi so'zlar, xorijiy so'zlar, milliyashtirish, muqobillik.*

Annotation: the article shows the role of dialectal words in the nationalization of new loanwords in the Uzbek language. In it, it is justified that dialect words are an important source after active word formation methods in the current Uzbek literary language in creating new names. Also, the article analyzes several dialect-specific words belonging to different regions, offers suggestions on using them instead of corresponding foreign words, and formulates them on the basis of a table.

Key words: *dialect, literary language, historical words, new words, foreign words, nationalization, alternative.*

Аннотация: в данной статье показана роль диалектных слов в национализации новых заимствований в узбекском языке. Обосновано, что диалектные слова являются важным источником новых наименований после активных способов словообразования в современном узбекском литературном языке. В статье также анализируются несколько диалектных слов из разных регионов, даются предложения по их использованию вместо иноязычных слов и формируются на основе таблицы.

Ключевые слова: *диалект, литературный язык, исторические слова, новые слова, иноязычные слова, национализация, альтернатива.*

Muayyan adabiy til asosini shu til shevalarining saralanmasi tashkil etadi. Jonli o'zbek tili ham rang-barang shevalar va bir nechta lahjalarni o'zida jamlagan. O'zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq-uyg'ur guruhi (lahjasi)ga mansub, deb belgilangan bo'lsa-da, unda boshqa guruh (qipchoq, o'g'uz) tillariga mansub belgilar ham ko'p uchrashi tabiiy hol. Shunga ko'ra, o'zbek tilini ko'p dialektli tillardan biri sifatida baholash mumkin. Shu o'rinda *sheva, lahja* va *dialekt* atamalariga qisqacha to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi.

Biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi sheva hisoblanadi [1; 6]. Bunda butun bir hudud tarkibidagi viloyat, shahar, tuman, shuningdek, qishloq doirasida farqlanuvchi birliklar nazarda tutiladi. Masalan, *Andijon shevasi, Shahrisabz shevasi, Qarnoq shevasi* kabi.

Lahja – shevalardagi asosiy xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisini nazarda tutadi. Masalan, *o'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi* [2; 31]. Bu atama

o'rni bilan yanada kengroq ma'noda, ya'ni tarixiy taraqqiyot natijasida alohida shakllangan xalqning milliy tili ma'nosida ham qo'llana oladi. Masalan, *turkiy tillarning qirg'iz lahjasi* [3; 6].

Dialekt – tilshunoslikka doir adabiyotlarda ko'pincha "lahja", ba'zan "sheva" ma'nosida qo'llanadi. Umuman, *dialekt* atamasi tor va keng ma'holarga ega. B.To'ychiboyev va B.Hasanovlarning "O'zbek dialektologiyasi" darsligida aytilishicha, *dialekt* xalqaro atama bo'lib, umumlingvistik "dialekt" ma'nosida ishlatilishi lozim. O'zbek dialektologiyasi fani uchun *sheva* va *lahja* atamalarini qo'llash yetarlidir [3; 6].

Bu uch tushuncha o'rtasidagi farq ko'proq nazariy jihatdan qiymatga ega, amalda ularni bir-biridan farqlamaslik, aralashtirib, o'zaro sinonim sifatida qo'llash holatlari ko'p kuzatiladi. Buni tabiiy hol sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi. Xususan, Fitrat *sheva* atamasi orqali mustaqil milliy tillar (o'zbekcha, usmonlicha, tatarcha)ni nazarda tutgan bo'lsa [4; 32], ayrim manbalarda *lahja* atamasidan *sheva* o'rnida foydalanilgan [2; 31].

Aslida, bu uch atama rus tilidagi “narechiye” (lahja), “dialekt” (dialekt) va “govor” (sheva) tushunchalarini o‘zbek tilida ifodalash ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan [1; 6]. Agar ilmiy matnda jiddiy zarurat bo‘lmasa, bu atamalarni bir-biri bilan qorishtirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Turkiy tillarga mansub turli qabila tillari, shevalarni jamlash, tasnif qilish ishlarini buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy boshlab bergan bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslikdagi shevalarni tadqiq etishga qaratilgan dastlabki izlanishlar XX asrning ikkinchi choragiga to‘g‘ri keladi. 1929-yil may oyida o‘tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksik normalarini belgilash yuzasidan ham bir qator chora-tadbirlar ko‘rishga, o‘zbek xalq shevalarini o‘rganish va shu asosda adabiy til leksikasini me‘yorlashtirishga ham e‘tibor berildi [5; 68-72]. Mazkur konferensiya doirasida dialektal so‘zlarni adabiy tilga qabul qilish mezonlari ham ishlab chiqilgan [6; 4].

Shundan keyin o‘zbek shevalarini o‘rganishga G.Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, M.Mirzayev, F.Abdullayev, B.Jo‘rayev, S.Ibrohimov, A.Ishayev va boshqa ko‘plab olimlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shishdi.

1988-yilgacha bo‘lgan davrga mansub dialektologiyaga oid kitoblar va dissertatsiyalar (9 ta doktorlik, 56 ta nomzodlik ishlari) tarkibidagi shevaga xos so‘zlarni statistik tadqiq etgan shevashunos olim A.Ishayevning qayd etishicha, o‘zbek tilidagi dialektal lug‘atlarda jami qirq ming so‘z mavjud [7; 18]. 1981-yilda nashr etilgan izohli lug‘at misolida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati uchun dialektizmlardan so‘z tanlash prinsiplari va ularning berilishi”ni tadqiq etgan R.Jomonovning aytishicha, O‘TIL (1981)ga 715 ta sheva so‘zi kiritilgan [8; 55]. O‘TILning keyingi nashrida bu miqdor 1,6 barobarga ko‘payib, 1177 tani tashkil etgan [9; 26-27]. Ulkan shevalar zaxirasiga ega bo‘lgan, ko‘p dialektli o‘zbek tili uchun buni qoniqarli ko‘rsatkich deb bo‘lmaydi. Sh.Shoabdurahmonovning “So‘z xazinasi” nomli maqolasida keltirilishicha, o‘zbek shevalari orasida adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan minglab so‘z mavjud [10; 26-30].

Albatta, dialektizmlarning u yoki bu turi izohli lug‘atlarda beriladi degan so‘z, bunday so‘zlar adabiy tilda qo‘llanishga, ifoda vositasi bo‘la olishga loyiq degan ma‘noni ham anglatadi [8; 55]. Lekin, tilshunos

(shevashunos) olimlar tomonidan tavsiya etilgan dialektal so‘zlarning adabiy tilga qabul qilinishi oson kechmaydi. Aytish mumkinki, shevaga xos birliklarni yig‘ish, tasnif va tahlil qilishdan ko‘ra ularning keng iste‘molga kirishini ta‘minlash qiyinroq. Buning bir nechta o‘ziga xos sabablari mavjud.

Birinchidan, sheva so‘zi adabiy til talablari (fonetik, leksik, uslubiy)ga mos bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, adabiy lashtirish uchun tavsiya etilgan shevaga xos so‘zlarning ko‘pchiligi adabiy tildagi muayyan so‘zga ma‘nodosh bo‘ladi. Chunki adabiy til birliklarining aslan bir qancha shevalardan saralab olingani barchaga ma‘lum, aniqrog‘i, adabiy tilda sheva so‘zlari hisobiga to‘ldirilishi lozim bo‘lgan leksik bo‘shliqning o‘zi kam.

Uchinchidan, sheva so‘zlarining qo‘llanish doirasi cheklanganligi tufayli barchaga birday tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shu kabi jihatlarni hisobga olib, akademik A.Hojiyev tilda paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni nomlashda affiksatsiya usuli va kalkalash orqali so‘zlar hosil qilishni shevalardan so‘z olishga nisbatan yuqori o‘ringa qo‘yadi [11; 150]. Tilshunos olim O.Shukurov A.Hojiyev fikrini quvvatlab, bugungi kun globallashtirish sharoitining leksikaga kuchli ta‘siri va so‘z o‘zlashtirishning faollashuvi jarayonidan kelib chiqib kalkalash usuli so‘z o‘zlashtirishdagi ustuvor yo‘l sifatida tanlanishi lozim, deb hisoblaydi [12; 226]. Mazkur holat dialektlarning til leksikasini boyitishdagi imkoniyatlarini yetarlicha o‘rgangan olimlar tomonidan ham tan olinadi [9; 28].

Boshqa tomondan qaraganda, sheva so‘zlarining adabiy tilni boyitishdagi ahamiyati yangi nomlar yaratishning boshqa tiplaridan kam emas. Buni quyidagi faktlar orqali asoslash mumkin.

Birinchidan, muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, bir so‘z bilan aytganda, milliyliigi ko‘proq o‘sha xalqning shevalar leksikasida mujassam bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishda, xorijiy so‘zlarni milliy lashtirishda sheva so‘zlaridan samarali foydalanish o‘rinli hisoblanadi.

Ikkinchidan, sheva so‘zlarining qo‘llanish doirasi muayyan hudud (qishloq, shahar) bilan chegaralangan bo‘lsa-da, ularning ildizi uzoq tarix va keng mintaqalarni o‘zida qamrab oladi. Ya‘ni sheva so‘zlarining ko‘pchiligi tor doiradagi kishilik jamiyati tomonidan ixtiro qilingan til birligi emas, balki tarixan keng iste‘molda bo‘lgan so‘zlarning muayyan

hududlarda saqlanib qolgan namunalaridir. Shunga ko'ra, sheva so'zlarining adabiylashuvi ma'lum darajada tarixiy so'zlarning tiklanishini ham anglatadi. Xususan, shevalar tarkibidagi *ucha* (orqa), *supra / surpa* (dasturxon), *bultur* (o'tgan yili), *kurra* (eshakning bolasi), *tovushqon* (quyon), *mengzamoq* (o'xsha(t) moq), *yug'urmoq* (xamir qormoq), *arig'* (toza, pokiza), *emgak* (mehnat, mashaqqat), *olim / alim* (olinadigan qarz) kabi juda ko'p so'zlarni tarixiy manbalarda ham uchratish mumkin.

A.Ishayevning o'zbek xalq shevalari va tarixiy so'zlarning aloqadorligi bo'yicha olib borgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, XI asr yozma yodgorligi bo'lgan "Devon"dagi til faktlarining asosiy qismi hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan o'zbek tilining qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga mansub shevalarda ko'proq saqlangan [13; 65-67]. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasini tadqiq qilgan A.Allaberdiyevning quyidagi ma'lumotlari orqali bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin: "Devonu lug'otit turk"da birgina o'g'uz belgisi bilan berilgan 218 ta so'zning 74 tasi (34,5 foizi) BO'Sh (Buxoro o'g'uz shevalari) da o'zgarishsiz yoki ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, leksik ma'nosini yo'qotmagan holda faol qo'llanmoqda. Ularning 40 tasi ham o'zbek adabiy tilida, ham BO'Shda ishlatilsa, 34 tasi faqat BO'Sh leksikasida saqlanib qolgan [14; 12].

B.Bafoyev o'zining "Ko'hna so'zlar tarixi" asarida *tovushqon* so'zining dastlab O'rxun-Enasoy manbalarida (*tabishg'an*, *tobisg'an* shakllarida), keyin Mahmud Koshg'ariy lug'ati (*tavishg'an* shaklida) va Alisher Navoiy asarlarida (*tovushqon* shaklida) uchrashini, shuningdek, hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida (ozarbayjon, uyg'ur, qo'miq, turkman) va o'zbek tilining turli lahjalarida ba'zi fonetik farqlar asosida qo'llanishini ko'rsatib o'tgan [15; 99].

Arig' so'zini Urganch, Xiva va Xonqa shevalarida [16; 20], shuningdek, Mahmud Koshg'ariy lug'ati [17; 39] hamda Alisher Navoiy asarlarida [18; 56] uchratish mumkin. *Olim* so'zi dastlab Mahmud Koshg'ariy lug'atida qayd etilgan bo'lsa [17; 43], hozirgi Andijon shevasida ham ayni ma'noda ishlatiladi [16; 37].

Uchinchidan, shevalar leksikasi tarkibidagi talaffuzi va imlosi murakkab bo'lgan birliklar fonetik jihatdan qayta ishlangan, muloqot uchun qulay shaklga keltirilgan bo'ladi. Buni o'zga til oilalariga mansub bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tiliga chuqur singib, o'z so'zlar qatorida ko'ruluvchi ko'plab forscha,

ayrim arabcha va ruscha so'zlar misolida ham ko'rish mumkin: Fors-tojikcha *az zot* (tagi bilan) so'zlari o'zbek tiliga *azot* ko'rinishida o'zlashgan bo'lib, "yaxlit, bor bo'yi bilan" degan ma'noni ifodalaydi [19; 65].

Qashqadaryo, Jizzax shevalarida faol qo'llanuvchi obdosh (qaynagan suv) so'zi aslan fors-tojikcha *ob* (suv) va *jo'sh* (qaynash) so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan [20; 427]. Shuningdek, *moyana* (f. *moh+ona* – har oydagi, har oylik ish haqi), *paytava* (f. *poy+toba* – oyoqni qizituvchi, *isituvchi*), *bachkana* (f. *bacha+ona* – bola kabi), *pana* (f. *panoh* – xavfsiz joy, himoya, homiylik), *zo'rvon* (f. *zuravor* – zo'rlik keltiruvchi), *ro'para* (f. *rubaru*), *bo'yra* (f. *buryo*) [21; 13-17] kabi ko'plab fors-tojikcha so'zlarning, *vallamat* (a. *valine'mat*), *savil* (a. *sabil*), *g'azna* (a. *xazina*) kabi arabcha so'zlarning, *do'xtir* (r. *doktor*), *po'rim* (r. *forma*), *patnis* (r. *podnos*) kabi ruscha-baynalmilal so'zlarning o'zbek tiliga oson singishida og'zaki nutqning ahamiyati katta bo'lgan.

Bir qancha arabcha va ruscha-baynalmilal o'zlashmalar (*mutolaa*, *suiiste'mol*, *taassurot*, *autentifikatsiya*, *bibliograf*, *vklyuchatel* kabi) o'zbek tiliga fonetik, grafik jihatdan to'la singmagan, ya'ni ularning o'zga til birliklari ekanligi to'la sezilib turadi, til egalari bunday so'zlarning talaffuzi va imlosida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning bosh sababi so'z o'zlashtirishda qabul qiluvchi til emas, manba til xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilganligidir.

Ma'lumki, sobiq sho'ro davrida o'zbek tiliga ko'p miqdordagi ruscha yoki rus tili orqali Yevropa tillari so'zlari o'zlashgan bo'lib, ularning katta qismi tillarning tabiiy aloqasi natijasida emas, balki hukmron tuzumning til siyosatiga ko'ra majburan tiqishtirilgan. Vaholanki, o'zbek tilining ichki manbalari, xususan, shevalar leksikadan ularning muayyan qismini milliyashtirish uchun mos muqobillar topish imkoniyati mavjud edi. Xususan, rus tilidan kirgan *kerosin* so'zining Jizzax shevasida *yermoy*, Qashqadaryo shevasida *yeryog'i*, Laqay shevasida *jerjov* ko'rinishidagi dialektal muqobillari mavjud [16; 133]. *Yer yog'i*, *yer moy* so'zlari dastlab XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek matbuotida ruscha *neft*, *kerosin* so'zlari o'rnida ishlatila boshlangan [22; 99, 100], keyinchalik shu kabi ko'plab milliy nomlardan voz kechilib, shunchaki ruschadan aynan ko'chirib o'tkazish "ma'qul ko'rilgan".

Qishning sovuq kunlarida tanani issiq saqlash uchun ichdan maxsus kiyim kiyiladi. Lekin o'zbek

adabiy tilida uni nomlovchi atama mavjud emas. So'zlashuv nutqida (ommaviy ravishda emas) buning uchun ruscha *belyo* so'zidan foydalaniladi. O'zbek tili tabiatiga mos bo'lmagan yot so'z ommalashib ulgurmasdan unga milliy muqobil topish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'zbek shevalari leksikasiga tayanish mumkin, ya'ni Hazorasp shevasidagi *ichmak* [16; 118], Farg'ona shevasidagi *ichik* [23; 213] so'zlari ayni shu ma'noda qo'llanadi. *Ichik(moq)* so'zining adabiy tilda boshqa ma'nosi ("kuchli darajada ko'rishish, yetishish ishtiyorida bo'lmoq, mushtiq bo'lmoq") borligini e'tiborga olib, *ichmak* so'zini *belyo* o'rnida amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Rus tili orqali o'zlashgan *salfetka* (ital. *salvietta*) so'zi "ovqat vaqtida yoki undan so'ng og'iz va qo'lni artadigan qog'oz yoki kichkina sochiq" ma'nosini ifodalaydi. Iqon shevasida ayni shu ma'noga ega bo'lgan *maychachiq* so'zi mavjud [16; 175]. Undan adabiy til talaffuzi va imlosiga mos ravishda *moysochiq* tarzida foydalanish mumkin. Shuningdek, keyingi paytlarda so'zlashuv nutqida "tarkibida maxsus suyuqlik mavjud bo'lgan salfetka" (gigiye

vositasi)ga nisbatan ruscha *vlaynaya (salfetka)* so'zidan foydalanilyapti. Uni *moysochiq* bilan deyarli bir xil vazifa bajargani uchun shunga yaqin tarzda *namsochiq* deb atash (milliylashtirish) o'rinli bo'ladi.

Adabiy tilda bir so'z bilan atash qiyin bo'lgani uchun birdan ortiq so'z bilan ifodalanadigan ayrim birikmali nomlarning shevalar tilida qisqa va sodda nom bilan atalishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, ruscha va o'zbekcha so'zlar asosida hosil qilingan *Militsiya tayanch punkti* birikmasi Qoraqalpog'istonning o'zbek shevalari (Qilichboy qishlog'i) nutqida oddiygina *bo'limcha* so'zi orqali ifodalanadi.

Umuman, turli manbalar (dialektal matnlar va lug'atlar, badiiy asarlar, kishilar bilan bevosita muloqot, internet materiallari)dan foydalanib, xorijiy so'zlar (dialektal muqobili mavjud bo'lgan o'zlashma so'zlar va neologizmlar)ni milliylashtirish uchun shevaga oid so'zlar zaxirasini yaratish shevashunoslar va tilshunoslar zimmasidagi ustuvor masalalardan hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ayrim o'zlashmalarning tavsiyaviy xarakterdagi shevaviy muqobillarini kuzatish mumkin:

sheva so'zi	manbasi	ma'nosi	xorijiy so'z	ma'nosi	izoh
Tashnov	Shukur Xolmirzayev, saylanma	uyning kirish burchagida qo'l yuvish va yuvinish uchun maxsus joy	<i>umivalnik</i>	yuz-qo'l yuvish uchun mo'ljallangan jo'mrakli qurilma	<i>tashnov</i> so'zini so'zlashuv nutqidagi rakovina o'rnida ham qo'llash mumkin
uvuldiriq / o'vildiriq	Urganch shevasi	baliq tuxumi	<i>ikra</i>	baliq tuxumi va undan tayyorlangan taom	<i>uvuldiriq</i> so'zini taom ma'nosida ham qo'llash mumkin
Maychachiq	Iqon shevasi	qo'l artadigan sochiq	<i>salfetka</i>	ovqat vaqtida yoki undan so'ng og'iz va qo'lni artadigan kichkina sochiq	uni adabiy tilga mos holda <i>moysochiq</i> tarzida nomlash ma'qulroq
qirsildoq / qirtloqi	qarluq, qipchoq lahjalari (internet ma'lumoti)	qirs-qirs ovoz chiqaruvchi narsa, yegulik	<i>chipsi yoki chips</i>	ingichka kesilib, qovurilgan va quritilgan kartoshka	leksik jihatdan <i>qirsildoq</i> so'zi bu tushunchaga ko'proq mos keladi

Albatta, jadvalda keltirilgan misollar tavsiyaviy xususiyatga ega. Bu kabi shevaviy muqobillar, tabiiyki, maxsus ekspertlar tomonidan ilmiy jihatdan yanada chuqurroq tahlil etilishi kerak hamda kerakli o'rinlarda jamoatchilik fikri ham hisobga olinishi lozim.

Xullas, o'zbek shevalari leksikasi juda boy zaxiraga ega, uni milliy nomlar yaratishda so'z yasash va kalkalashdan keyingi eng muhim manba sifatida baholash mumkin. Qolaversa, uning jonli xalq tili

xususiyatlarini o'zida jamlaganligi, tarixiylik jihatdan bebaho adabiy durdonalar tili bilan chambarchas bog'liqligi o'zbek adabiy tilining barqaror rivojlanishida sheva so'zlarining o'rni g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, o'zbek shevalari tarkibidagi kerakli so'zlarni saralab olish, ularni adabiy lashtirish va keng jamoatchilik hukmiga havola etish soha mutaxassislaridan keng qamrovli va tizimli yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978. 6-бет.
2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 31-бет.
3. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. 6-бет.
4. 1921 йил Тил ва имло қурултойининг чиқарган қарорлари. – Тошкент, 1922, 32-бет.
5. Тоғ‘аев Т. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Т.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. 68–72-бетлар.
6. Ўзбек адабий тили тўғрисидаги қарор. Манба: “Аланга” журнали, 1929 йил, №5.4-бет.
7. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Т.: Фан, 1990. 18-бет.
8. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1991.55-бет.
9. Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик бўшлиқларни тўлдиришнинг диалектал асослари. Монография. – Тошкент: Bookmany print, 2022. 26–27-бетлар.
10. Шоабдурахмонов Ш. Сўз хазинаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993 йил. – №5-6. 26–30-бет.
11. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясаши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988.150-бет.
12. Шукуров О. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (Мустақиллик даври): Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Қарши. 2022. 226-бет.
13. Ишаев А. “Девону луғотит турк” ва ўзбек шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1971, № 5. 65–67-бетлар.
14. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент. 2018. 12-бет.
15. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991. 99-бет.
16. Ўзбек халқ шевалари луғати (масъул муҳаррир: Шоабдурахмонов Ш.). – Т.: Фан. 1971. 20-бет.
17. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2017. 39-бет.
18. Навоий асарлари луғати. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 56-бет.
19. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. 65-бет.
20. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022. 427-бет
21. Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона. 2020. 13–17-бетлар.
22. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошлари). – Т.: Фан. 1981. 99–100-бетлар.
23. Турғунов Т. Ўзбек тилининг Ғарбий Фарғона шевалари (фонетик ва морфологик хусусиятлари): Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1968. 213-бет.



Mazmuna OTABOYEVA,
Qo'qon davlat universiteti PhD, dotsenti
mazmuna.rahimovna@gmail.com

PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqola pragmalingvistika sohasidagi tadqiqotlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonini atroflicha tahlil qiladi. Unda tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida pragmalingvistikaning vujudga kelishi, fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *pragmalingvistika, nutqiy harakatlar nazariyasi, nutq aktlari nazariyasi, muloqot, kommunikatsiya, kontekst, pragmatik prinsip, diskurs, tilning amaliyoti, rivojlanish bosqichlari*

Annotation: this article thoroughly analyzes the emergence, formation, and stage-by-stage development process of research in the field of **pragmalinguistics**. It illuminates the origins of pragmalinguistics as a distinct area of linguistics, as well as the related concepts and ideas.

Key words: *Pragmalinguistics, speech acts theory, communication, context, pragmatic principle, discourse, language in practice, development stages.*

Аннотация: в данной статье подробно анализируется процесс возникновения, становления и поэтапного развития исследований в области прагмалингвистики. В ней освещаются идеи, связанные с зарождением прагмалингвистики как отдельного направления языкознания.

Ключевые слова: *прагмалингвистика, теория речевых актов, общение, коммуникация, контекст, прагматический принцип, дискурс, язык в действии (практике), этапы развития.*

Tilshunoslikda semiotik yondashuv fan taraqqiyotida alohida tadqiqot manbai hisoblanadi. Ma'lumki, tilga bo'lgan semiotik yondashuv asosida pragmalingvistika paydo bo'ldi. XX asrning 30-yillaridan boshlab tilshunoslikda yangi pragmalingvistika yoki lingvopragmatika termini qo'llanila boshladi. Ushbu termin Ch.I.Morris tomonidan fanga olib kiritilgan. Avvalo, ushbu termin pragmatika va lingvistika so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, bu ikki so'zning izohlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, pragmatika – yunoncha: *pragma*, *pragmatos* – *ish, harakat* degan ma'nolarni anglatadi. Lingvistika (**lotincha:** *lingua* – til) – til haqidagi fan (k., Tilshunoslik). Tilshunoslik, "Lingvistika" – til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandır.¹

Pragmalingvistika yoki lingvopragmatika hozirgi zamon tilshunosligida kommunikatsiyaning turli shakllari va ularda tilning qo'llanilishiga qaratilgan tadqiqotlar tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda lingvopragmatika sohasi alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki u tilni nafaqat shakl va strukturaviy nuqtayi nazardan, balki uning real muloqot jarayonlaridagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi jihatidan o'rganadi. Lingvopragmatika tilning

muloqotdagi roli, turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqning qanday shakllanishi va til unsurlarining kontekstga qarab qanday ma'nolarni anglatishini chuqurroq tushunishga yo'naltirilgan. Lingvopragmatika – bu tilning muloqotda va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanishini o'rganadigan soha bo'lib, til elementlarining nutq jarayonida qanday ma'nolarni ifodalashini, ularning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday qabul qilinishini o'rganadi. Lingvopragmatika tilshunoslikning semantika (ma'no) va pragmatika (tilning amaliy qo'llanilishi) yo'nalishlarini o'z ichiga oladi va ularning kesishgan joyida shakllanadi. Lingvopragmatikaning asosiy maqsadi – so'zlovchilar tomonidan tilning qaysi maqsadlarda va qanday usullarda qo'llanilishini, ma'lumotning qanday tarzda taqdim etilishini, uning qanday ta'sir o'tkazishini tushunishdir. Bu soha tilning o'zgaruvchan va dinamik jihatlariga e'tibor qaratadi va so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonini yanada samaraliroq tushunishga yordam beradi. Lingvopragmatikaning muhim jihatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Kommunikativ maqsadlar –so'zlovchining maqsadini, masalan, kimnidir ishontirish, xabar berish yoki emotsional ta'sir ko'rsatish kabi funksiyalarni tahlil qilish.

2. Kontekst –tilning turli ijtimoiy, madaniy va shaxsiy sharoitlarda qanday o'zgarishini o'rganish.

¹ O'ZME. Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil

3. O'zgaruvchan ma'no –bir xil so'z yoki iboraning har xil kontekstlarda turlicha ma'no anglatishi.

4. Ijtimoiy va madaniy omillar –tilning qanday usullari yoki so'zlari ijtimoiy maqom, yosh yoki boshqa omillarga qarab tanlanishi.

Semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan va pragmatika terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan².

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq subyektini bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi. Bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa hislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilardan iborat bo'ladi. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda ko'plab masalalar o'rganiladi³.

Pragmalingvistika yoki lingvopragmatika — bu tilshunoslik va pragmatikaning tutashgan sohasi bo'lib, til birliklarining nutqdagi qo'llanish sharoitlarini, ularning ma'no va funksiyalarini, shuningdek, gaplovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatni o'rganadi. Bu fan til vositalarining faqat strukturaviy emas, balki funksional, kontekstual va ijtimoiy jihatlarini ham chuqur tahlil qiladi.

Tilshunoslikda pragmatik yondashuv o'tgan asrning 50-60-yillarida paydo bo'la boshladi. Lingvopragmatikaning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. J.L.Ostin va J.Sirl kabi faylasuf-tilshunoslarning nutq aktlari nazariyasi (Speech act theory) bu sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular so'zlashuv faqat axborot uzatish

emas, balki ijtimoiy harakat ekanligini asosladilar.⁴

Pragmatika va semantika o'rtasidagi farqning aniqlanishi 1970–80-yillarda boshlandi. Grays (H.P. Grice) tomonidan ilgari surilgan hamkorlik prinsipi va implikatura tushunchasi pragmatikaning mustaqil soha sifatida ajralib chiqishiga zamin yaratdi.⁵ Bu davrda tilning kontekstdagi ma'nosi, subyektivlik, ijtimoiy va madaniy omillar ko'proq o'rganila boshlandi.

Tilshunoslikda nutq faoliyati, kommunikativ strategiyalar, xushmuomalalik, nutq aktlari va ularning kontekstdagi ta'siri alohida ilmiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqildi. Bu davrda tilshunoslik pragmatika, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik bilan integratsiyalasha bordi.

Bugungi kunda lingvopragmatika mediamatnlar, siyosiy nutq, reklama, huquqiy hujjatlar, diniy matnlar, hamda interaktiv muhitdagi til (masalan, onlayn chatlar, ijtimoiy tarmoqlar) kabi turli kontekstlarda qo'llanilayotgan til vositalarini o'rganish keng yoyildi. Shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya, til etiketi va xushmuomalalik strategiyalarini o'rganish orqali lingvopragmatika yanada boyidi.

Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i hisoblanadi. U insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni o'rganadi⁶. V.V.Petrovning fikricha, "pragmatikaning asoslari Ch.Pirs, U.Jeyms, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlarning nomlari bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rtaga tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi"⁷.

Sh.Safarov pragmatikani "pragmatikani semiozisning sintaktika va semantika bilan bir qatorda turadigan ajralmas qismi" sifatida e'tirof etadi⁸. Olim pragmatikaga shunday ta'rif beradi, "pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu

4 Searle J.P. Expression and meaning. Studies in the theory of speech acts.– Cambridge Univ.Press, 1979-158 p.

Austin J.L., How to Do Things With Words, Second Edition (1976, Oxford University Press). p. 40

5 Grice H.P. Logic and conversation. In: Syntax and Semantics. – Vol.3: Speech acts. – New York: Academic Press, 1975.- P. 41-58.

6 Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari, –Toshkent, 2020. 25-bet

7 Petrov V.V. Filosofiya, semantika, pragmatika./V.Ki.: Noboye v zarubejnoj lingvistike. Vip.XVI. –M., 1985.-C.471

8 Safarov Sh., Pragmalingvistika//Монография. –Ташкент, 2008 йил.55- бет.

2 Пирс Ч.С. Избранные философские произведения. –Москва 2000- ст. 253
3 O'zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil

qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi."⁹

Kent Bach esa "Semantics and pragmatics" (Semantika va pragmatika) nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi, "Semantika va pragmatika tilshunoslikning ikki asosiy sohasidir. Ularning asosiy farqi shundaki, semantika — til birliklarining grammatik va lug'aviy shakli orqali ifodalanadigan kodlangan yoki haqiqatga oid ma'noni o'rganadi. Pragmatika esa — gapiruvchining niyati, kontekst, muloqot vaziyati va auditoriya bilan o'zaro munosabat asosida ma'noning shakllanishini tahlil qiladi. Pragmatik yondashuvning afzalligi shundaki, u semantikada ko'rinmaydigan ma'nolarni ochib beradi"¹⁰. Masalan, biror gap grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo u kontekstda noto'g'ri yoki mantiqsiz bo'lishi mumkin. Buni Moore paradoksi orqali ko'rish mumkin: "Pomidor meva, lekin men bunga ishonmayman." Bu grammatik jihatdan to'g'ri gap, lekin pragmatik jihatdan zid — chunki kishi biror narsaga ishonmagan holda uni aytmaydi.

Pragmatika tilning ishlashini real hayotga bog'laydi. Masalan, "Men uxlayapman" degan gap semantik jihatdan bayon bo'lishi mumkin, lekin agar u og'zaki aytilsa — pragmatik jihatdan yolg'on, chunki aytish harakati uxlash holatiga zid. Gapiruvchining niyati —

9 Safarov Sh., *Pragmalingvistika//Монография.* – Тошкент, 2008 йил, 76-бет.

10 Bach K. "Semantics and pragmatics". MIT Press 2000. -484 p.

pragmatikaning asosiy tayanchi. Gapiruvchining nima degani emas, nimani nazarda tutgani, kimga, qachon, qanday ohangda aytgani — bularning barchasi faqat pragmatika orqali tushuniladi. Masalan: "Bu yerda garaj bor" semantik jihatdan oddiy axborot, lekin kontekstda bu "bu yerdan benzin olishingiz mumkin" degan implikaturaga ega bo'lishi mumkin — bu pragmatik tahlil sohasiga kiradi.¹¹

Tilshunoslikda semantika va pragmatika bir-birini to'ldiruvchi, ammo tamoman farqli yondashuvlardir. Semantika til birliklarining struktural ma'nosini o'rganar ekan, pragmatika tilning real hayotdagi ishlatilishini, ya'ni gapiruvchining niyati, auditoriyaga ta'siri va kontekst asosidagi tushunilishini tahlil qiladi.

Pragmatika bu ma'noda tirik muloqotning yuragi hisoblanadi. Chunki til orqali faqat axborot emas, balki ijtimoiy harakat, hissiyot, baho va munosabatlar ham ifodalanadi. Bu esa faqat gap tuzilmasini emas, balki kontekstni, holatni va gapiruvchining strategiyasini tushunishni talab qiladi.

Shunday ekan, pragmatik yondashuv tilni insonlar orasidagi murakkab, ma'no yuki katta, vaziyatga bog'liq muloqot jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki ta'lim, tarjima, diplomatiya va sun'iy intellekt sohalarida ham beqiyos amaliy ahamiyat kasb etadi.

11 Kent Bach, San Francisco State University//<https://www.researchgate.net/publication/227981229>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh., *Pragmalingvistika//Монография.* – Тошкент, 2008 йил, 76-бет.
2. Bach K. "Semantics and pragmatics". MIT Press 2000. 484-p.
3. Kent Bach, San Francisco State University//<https://www.researchgate.net/publication/227981229>
4. Grice H.P. Logic and conversation. In: *Syntax and Semantics.* – Vol.3: Speech acts. – New York: Academic Press, 1975.- P. 41-58.
5. Hakimov M., Gaziyeva M. *Pragmalingvistika asoslari,* – Toshkent, 2020, 25-bet.
6. Petrov V.V. *Filosofiya, semantika, pragmatika.//V.Ki.: Noboye v zarubejnoj lingvistike. Vip.XVI.* – M., 1985.c-471
7. **Пирс Ч.С. Избранные философские произведения. – Москва, 2000 ст. 253**
8. **О'ЗМЕ.** Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.
9. Searle J.P. *Expression and meaning. Studies in the theory of speech acts.* Cambridge Univ.Press, 1979-158 p.
10. Austin J.L., *How to Do Things With Words, Second Edition (1976, Oxford University Press).* p. 40

Dilzodaxon SAYDALIYEVA,
Qo'qon DU o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD)
Saydaliyevad1974@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA TILGA SISTEMA SIFATIDA QARASH TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon tilshunosligida tilni o'rganish masalalari va tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, "mahsuli" sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, struktura, sistem tilshunoslik, matn, strukturalizm, glossematika va deskriptiv lingvistika.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы изучения языка в мировой лингвистике и сведения о том, что языкознание, как и другие дисциплины, в результате исследований, экспериментов, исследований, идей, наблюдений, "продукта" имеет свой объект изучения и метод изучения. проверка.данный.

Ключевые слова: *лингвистика, сравнительное языкознание, структура, систематическая лингвистика, текст, структурализм, глоссематика и описательная лингвистика.*

Annotation: in this article, the issues of language learning in world linguistics and information about the fact that linguistics, like other disciplines, as a result of research, experiments, research, ideas, observations, "product" has its own object of study and method of verification. given.

Key words: *linguistics, comparative linguistics, structure, systematic linguistics, text, structuralism, glossematics and descriptive linguistics.*

Kirish. Har qanday fikr nutqda namoyon bo'lar ekan, so'zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta'sir etish ko'lamini ham deyarli doimo nazarda tutadi. Shu boisdan ham nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini, ya'ni ekspressivligini ta'minlovchi til birliklariga, vositalarga malakali so'zlovchi, ya'ni yozuvchilar har doim o'ta sezgir nigoh bilan qaraydilar. Ma'lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar kenglikda ekanligi tilning ham nechog'lik boy ekanligini ko'rsatib beruvchi mezonlardandir. Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari

ajralib chiqdi. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, neyrolingvistika kabi mazkur yo'nalishlar o'z tadqiq obyektini, predmetini, aniq qo'yilgan maqsad, vazifalari, tahlil usullariga ega. Darhaqiqat, XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo'lgani kabi lingvistika tarixida ham asosiy e'tiborning obyektiga substansional nuqtayi nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtayi nazardan yondashuvga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bunga F.de Sossyurning "Umumiy lingvistika kursi"da bayon qilingan "til substansiya emas, balki shakldir" degan bosh g'oyasi sababchi bo'ldi. Bu g'oyaga muvofiq, strukturaning substansiyadan ajratilishi va uning nisbiy mustaqilligi e'tirof etilishi tilshunoslikda keyingi davrda buyuk kashfiyotlar qilinishiga turtki bo'lish bilan birga, bir qator yangilash qarashlarning tug'ilishiga ham zamin yaratdi. F.de Sossyur substansiya va shakl atamalari ostida sezgi a'zolarimizga ta'sir qiluvchi moddiy vositalar va bu moddiy vositalar zamirida yotgan munosabatlarni tushunadi, til shakldir deganda

tilning munosabatlar sistemasi ekanligiga urg'u beradi. Tilning moddiy tomoni, ya'ni tovush tomoni substansiya sifatida ikkinchi planga suriladi. Ana shuning natijasida u til va nutqni ajratdi.

Asosiy qism. Tilshunoslik alohida mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816-yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shakshubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, "mahsuli" sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, "o'sish" davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama-qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga "guvoh bo'ldi", shakllandi. Aniqrog'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

Tilga sistema sifatida qarash masalasi V. fon Gumboldtdan tortib Boduen de Kurtene, V.Brendal, A.G.Volkov, E.Koseriu, E.Benvenist, M.M.Pokrovskiy, G.Ipsen, Y.Trir, L.V.Shcherba, A.I.Smirnitskiy, Z.S.Xerris, G.P.Melnikov, V.M.Solnsev, Y.G.Belyayevskaya, W.Labov, P.Postal, E.S.Kubryakova, S.V.Kezina, Y.V.Ponomarenko va boshqa bugungi kun olimlari tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. [1.62]

Mazkur davrda struktura tushunchasi barcha fanlar uchun ommaviy tushunchaga aylandi. Bundan tilshunoslik ham istisno emas. Ana shunday umumiy tendensiya ta'sirida sistemaviy-struktur tilshunoslik maydonga keldi. Barcha fanlarda struktura atamasi keng qo'llanayotgan bo'lsa-da, lekin bu atama talqinida xilma-xillik shakllandi. Ana shunday xilma-xillik tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma'noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani ikki xildir: birinchisida struktura deb o'zaro bog'langan va shartlangan munosabatdagi elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv o'rganilayotgan obyekt va uni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi ichki aloqa va bog'liqlikni yoritishni talab etadi.

Ikkinchi yo'nalishda esa struktura sof shakllar va sof munosabatlar sifatida tushuniladi. Shaki esa konkret qo'llanilishdan uzilgan holda talqin qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda struktur tilshunoslikning turli tarmoqlari dunyoga keldi. Ular funksional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika yo'nalishlaridir. Struktur tilshunoslikning mazkur tarmoqlari turli tadqiqot metodlaridan foydalanganlari bilan ham o'zaro farqlanadilar.

Tilshunoslik tarixida tilga strukturaviy-funksional qarashning tarqalishi, birinchi navbatda, F.de Sossyur nomi va uning "Umumiy tilshunoslik kursi" bilan bog'liq. Sossyurning asosiy tezislaridan biri – bu "til modda emas, unda shakl bor". [2.120] Ushbu qarash bir necha o'n yillar davomida tilshunoslikning bir qator sohalariga oid rivojlanishni belgilab berdi. "Strukturalizm" umumiy nomi ostida birlashgan Sossyurning ko'plab takliflari an'anaviy tilshunoslikdagi turli sohalar tomonidan qabul qilingan. F.de Sossyur katta e'tibor bilan umumiy tendensiya zamonaviy fanlarning rivojlanish obyektlarning tuzilishi va funksiyalariga o'z qiziqishini ifoda etdi.

Tizim – bir til o'zaro bog'liq elementlarning birligi bo'lib, tuzilish deganda esa bir butun ichida bir jinsli bo'lmagan elementlarning birligi tushunilishi kerak. Elementlar to'plami (birliklar) berilgan obyekt struktura deb ataladi. Mavjud elementlar to'plami berilgan strukturaning elementlari orasidagi tizim sanaladi.

Tizim deganda o'zaro bog'langan qismlardan tashkil topgan har qanday murakkab birlik tushunilishi kerak. Binobarin, tuzilma, garchi eng muhim bo'lsa ham, lekin tizimning xususiyatlaridan faqat bittasidir. Tizimning ikkinchi, kam bo'lmagan muhim xususiyati uning mazmunidir va ayni paytda tizimlarni tadqiq qilishda eng katta semantik yuk ulanish tushunchasiga tushadi. [2.278]

F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi katta xizmati shundaki, u tilni substansiya emas, balki shakl ekanligini e'tirof etdi va bu bilan tilshunoslik tarixida til-nutq zidlanishini birinchi o'ringa olib chiqdi. Tilshunoslar diqqatini nutqiy qurshovdan holi bo'lgan mohiyatini o'rganishga jalb qildi va tilning sistema ekanligini e'tirof etdi. U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron

holati uchun tizim atamasi xarakterli ekanligini ta’kidlaydi. Bunda F.de Sosyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko’rsatadi:

- a) tizimning barcha a’zolari tenglikka ega;
- b) tizim yopiq hisoblanadi.[2.137]

Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi. F.de Sosyur tushunchasida sistema atamasi bilan birgalikda struktura atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Struktura atamasi ostida sistema a’zolarining munosabat tiplari tushuniladi. E.Benvenist turli sistemalarni tahlil qilish natijasida til shakllari ma’lum strukturaga ega, degan xulosaga keladi va uning quyidagi xususiyatlarini ko’rsatadi:[3.89]

- 1) u qismlari ustidan hukmronlik qiladigan ma’lum butunlikning birligi sanaladi;
- 2) bu birliklar ma’lum barqaror tamoyillar asosida shakliy tartibga solingandir;
- 3) butunning barcha qismlari u yoki bu vazifani bajarganligi tufayligina struktura xarakteriga ega bo’ladi;
- 4) bu qismlar ma’lum sathning har bir birligi boshqa yuqoriroq sathning kichik birligi, ya’ni butunning bo’lagi bo’lishi mumkin.

Tilshunos olim A.Hojjiyevning tilshunoslikka oid atamalar lug’atida esa quyidagicha izohlanadi: struktura – tuzilish, qurilish. Strukturalizm esa tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o’zaro bog’liqligini, tilning

tuzilish tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo’yilgan yo’nalish.

Tilshunoslikning o’z tekshirish predmetini til tizimidagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi, til va tafakkurning o’zaro munosabati, tilning jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarni chetlab o’tuvchi sohasi. Sistema – (yun. Bir butunlik, qismlardan tuzilgan narsa) tizim, deya izohlanadi.4[86–89]

Xulosa. Bu boradagi ko’plab fikrlar Sosyurni Boduen de Kurtene bilan fikrdosh olim ekanligini tasdiqlaydi. Biroq Boduen de Kurtenening qarashlaridan farqli o’laroq, til haqidagi juda chuqur mulohazalari turli asarlarda tarqoq bo’lgan Sosyur bir qator qarama-qarshiliklardan holi bo’lmasa-da, izchil va puxta o’ylangan til tushunchasini yaratdi. Sosyur konsepsiyasining umumiy g’oyasi, yuqorida aytib o’tilganidek, tilni substansiya emas, balki shakl sifatida tan olishdir. Boshqacha qilib aytganda, til tushunchasi, Sosyurning fikricha, tovush materiyasining tuzilishini, lekin bu tovush materiyaning o’zini emas, tashkil etilishini o’z ichiga oladi. [3.89] Sistema va struktura bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki hodisalardir. [5.73] Sistema haqiqiy statik tushunchadir va shunga binoan uning vositasida tilning sinxron holati yoritiladi, struktura esa dinamik tushuncha sifatida qo’llanishi lozim va uning asosida tilning diaxronik hodisalari (tadrijiy jarayonlar) o’rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild (Lingvistik ta’limotlar tarixi).
2. Sosyur F. Umumiy tilshunoslik kursi. 1916.137-b.
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.62-b.
4. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 86-89-б.
5. Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. 73-б.

Shahnoza NIZAMOVA,
Qo'qon DU dotsenti, f.f.b.f.d (PhD)

O'ZBEK TILI TAXALLUSLARINING NOMINATSION-MOTIVATSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: til tizimida atoqli otlar alohida o'rin tutadigan lisoniy hodisa sanaladi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi o'zbek onomastikasi, xususan, toponimiya va antroponimiya sohasining ham yangi sifat darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Atoqli otlarga e'tibor yanada kuchaydi.

Kalit so'zlar: *onomastika, toponimiya, antroponimiya, toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar, taxalluslar, motiv va motivatsiya.*

Annotation: proper nouns are a special phenomenon in the language system. The granting of state status to the Uzbek language has ensured that Uzbek onomastics, in particular, the field of toponymy and anthroponymy, has reached a new level of quality. Attention to proper nouns has increased even more.

Key words: *onomastics, toponymy, anthroponymy, toponyms, anthroponyms, hydronyms, oronyms, necronyms, nicknames, motive and motivation.*

Аннотация: имена собственные – особое явление в системе языка. Придание узбекскому языку государственного статуса обеспечило выход узбекской ономастики, в частности, топонимики и антропонимики, на новый качественный уровень. Внимание к именам собственным ещё больше возросло.

Ключевые слова: *ономастика, топонимия, антропонимия, топонимы, антропонимы, гидронимы, оронимы, некронимы, прозвища, мотив и мотивация.*

Kirish. O'zbek onomastikasini yanada yuksak pog'onaga ko'tarish, uni yanada rivojlantirish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham "Onomastika"ni alohida fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitish atoqli otlar borasida yetarli bilim, malaka va ko'nikmaga ega yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zbek xalqining tarixi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar kabi atoqli ot turlari haqida tushunchaga egalik insonning ma'naviy hayotida, uning madaniy saviyasini ko'tarishda, ilmiy va badiiy tafakkurini takomillashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Inson dunyoda o'zini o'zi nomlay oladigan yagona obyektidir, biroq ushbu avtonomiyaning imkoniyatlari nafaqat cheklangan, balki ko'pincha u yashaydigan jamiyat tomonidan belgilanadi. Taxallusni qabul qilishda, nomlangan shaxsning o'z nomidan qilingan harakatlarida faol ishtirok etishi xarakterlidir. Muallif o'z niyatlarini ifodalash uchun onomastik lug'at imkoniyatlaridan foydalangan holda maqbul usulni tanlaydi". Ya'ni inson o'ziga o'zi ism tanlay olmaydi, lekin insonda shunday imkoniyat borki, u ism vazifasini bajara oladigan va ism o'rnida foydalanish mumkin bo'lgan taxallusni o'zi tanlaydi. Bu ham nom olishning bir turiga kiradi. Onomastika sohasida nomlashning o'ziga xos talablari mavjud, ular quyidagicha:

Nomlash shunchaki o'zicha yuz beradigan (stixiyali) hodisa bo'lmasdan, o'ziga xos murakkab lisoniy va nolisoniy qonuniyatlarga, ehtiyoj va talablarga javob berishi lozim bo'lgan jarayondir. Ushbu jarayonning

xususiyatlari onomastik tadqiqotlarda muayyan terminlar bilan yuritiladi:

1. Nomlash (nominatsiya) tushunchasini umumiy tarzda ifoda etuvchi terminlar: atash, nomlash, atash sistemasi, atash funksiyasi, ism berish, nominatsiya, onimizatsiya, onomastik nominatsiya, nominatsion sistema, nomlash madaniyati, nomlash san'ati va boshqalar.

2. Nomlash usuli bilan bog'liq tushunchalar: to'rt nasabgacha atash, olti nasabgacha atash, urug' nomiga nisbat berish, laqab bilan atash, obyektlarni yakka tarzda nomlash, ota tomonidan atash, rasmiy nomlash, atashning arabcha usuli, ikki nom bilan atash, kishilar sharafiga nomlash, ko'pnomlilik, qo'shnomlilik va boshqalar.

3. Nomlanish jarayoni va qonuniyatlari: turdosh so'z (appelyativ)ning o'z vazifasini o'zgartirib atoqli ot tizimiga o'tishidir.[1.11]

Yuqorida keltirilgan fikrlar antroponimlarning paydo bo'lishiga qo'yilgan talabalarning to'la ko'rinishidir. Taxalluslar ham antroponim turi sifatida keltirilgan qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Taxalluslarning lisoniy belgi-xususiyatlari, jumladan, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, funksional-semantik, uslubiy, yasalish va tuzilish xususiyatlari tahlili ijod va san'at ahlining shaxsiy hayoti, o'tmishi, ijodiy konsepsiyasi, orzu-maqсадlarini o'rganishda muhim ahamiyat hamda mohiyatga ega.

Taxallus qabul qilish va qo'llash, asosan, ijodkorlar – shoir va yozuvchilar, san'atkorlar – qo'shiqchi, bastakor, raqqosa, qisman, siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar hamda rassomlarga xos bo'lib, o'zbek tili antroponimiyasida adabiy taxalluslar salmoqli o'rin tutadi.

Taxalluslarni xronologik jihatdan tarixiy va zamonaviy, adabiyot, san'at va ilm-fan taraqqiyotining muayyan davriga mansub, qo'llanish xususiyatiga ko'ra doimiy va qo'shimcha (mavsumiy) taxalluslarga ajratish mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, jumladan, adabiy, ijodiy hayot ta'sirida taxallus birligining ma'nomundariyasi, qo'llanishi kengaygan, antroponimik birlikni ifodalovchi terminga aylangan.

“Bolani nomlash odatlari va kishi nomlarining paydo bo'lishi, rivoji dastlab xalqning iqtisodiy-xo'jalik sharoiti, shunga bog'liq holda ma'naviy turmushi, jumladan diniy va estetik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti bilan yaqindan bog'liq hodisadir”. [2.106] Taxalluslarning paydo bo'lish sabablari ham xuddi shunday, ya'ni ijodkor yashagan davr, muhit, uning ijodiy konsepsiyasi kabilar farqlovchi belgi sifatida asos bo'lgan, chunki har qanday nomlash jarayoni o'xshatuvchi va farqlovchi tomonlarning munosabatidan iborat. [3. 3-4].

Taxallus faqat sun'iy, maqsadga muvofiq ravishda o'zini o'zi aniqlash natijasidir. Taxallus tanlayotganda, odamning nutqqa bo'lgan ehtiyoji seziladi. Taxallus nominatsiya usullari va prinsiplarida bir vaqtning o'zida o'z an'alarini rivojlantiradigan tabiiy nominatsiya modellarini saqlab qoladi. Taxalluslashtirish til qonunlarini ijodiy qayta ko'rib chiqishning turli xil vositalari va usullari bilan ajralib turadi [4.8] Nomlanish jarayonida tajriba, inson psixologiyasi, shaxs va jamiyatning roli, tashqi sharoit, til tizimi, tillarning o'zaro ta'siri, bizni o'rab turgan tevarakatrof asosida fikrlash u yoki bu darajada namoyon bo'lib turadi. Taxalluslar, asosan, ijodkorlarning dunyoqarashi, tili, ruhiyati, turmush tarzi, ma'naviy dunyosi, ijtimoiy qarashlari va jamiyatdagi mavqeyi kabi qator ijtimoiy omillar bilan bog'liq tarzda maydonga keladi.

Ma'lumki, har qanday obyektning belgi-xususiyatlari ko'p bo'ladi. Nomlovchi muhim deb hisoblagan yoki o'ziga yoqqan, bilgan, sezgan belgi-xususiyatni nom uchun asos (motiv) qilib oladi.

Nomlash jarayonida motiv muhim ahamiyatga ega. Antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslarini tadqiq etgan S.Kenjayeve fikricha, motiv va motivatsiya quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi:

1. Motiv va motivatsiya tilning apellyativ leksik sathi va onomastik sathi uchun ham xos. Obyekt nomining qanday bo'lishiga zamin hozirlovchi stimulyativ motiv, motiv asosida nomlanish motivatsiyadir. Motivatsiya va

nominatsiya jarayon hamda hodisa sifatida bir-biriga yaqin, o'zaro bog'liq, aloqador lingvistik, umuman, falsafiy kategoriyalardir.

2. Motiv – nomlanish uchun obyektga nomlovchilar tomonidan tanlangan asos, belgi. Narsa, obyektning belgilari ko'p, cheksiz, xilma-xil bo'ladi. Nomlanish ehtiyoji nomlanayotgan obyekt (shaxs)ning belgilaridan birini yoki obyekt (shaxs) haqidagi tasavvur, orzu, istaklaridan bittasini tanlaydi. Shu jarayonda tanlangan belgini nomlovchilar til dalillari bilan ifodalaydi. Shu tariqa ismlar paydo bo'ladi.

3. Motivatsiya har qanday ismning, umuman, nomning paydo bo'lishini belgilovchi, uning asosli va to'g'ri ekanligini belgilaydigan omildir. Nomlashda asosiy lisoniy stimulyativ rolini o'ynash motivatsiyaning vazifasidir. [5.11]

Umuman, antroponimik nominatsiya jarayonida ikki holat kuzatiladi:

1) yangi, original ism ijod qilish;

2) an'anaviy nomlar orasidan ism tanlash. Birinchi holat o'tmishda ko'p kuzatilgan. Mana shu holat til antroponimiyasi tizimi, fondining yaratilishiga sabab bo'lgan va ikkinchi holatga imkon yaratgan. Endilikda yangi ism ijod qilish jarayoni faol emas, kam uchraydigan hodisaga aylangan: Erknura (Erkin va Nuryog'di), Mirshod (Mirzohid va Gulshod), Beknur (Bekzod va Nuriya), Nurhayot (Nurmamat va Gulhayo)¹. S.Kenjayeve bu fikrlari taxalluslarga ham xos. Bugunga kelib, taxalluslarni mavjud ismlardan hosil qilish an'anasi shakllandi.

Xulosa. Taxalluslarga xos motivlar o'zbek xalqining milliy va umumbashariy qadriyatlarini bilan bog'liqdir. Etnik mansublik, diniy tushunchalar va tasavvurlar bilan bog'liq motivli taxalluslar o'zbek antroponimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Boshqa antroponimik birliklar qatori taxalluslar ham motivsiz yuzaga kelmaydi va motivsiz ism bo'lmaganidek, taxallus ham yo'q.

Bir xil taxallusli shoir, adib va san'atkorlar taxallusdoshlar deb ataladi. Taxallusdoshlik ijodkor va san'atkorlarning familiya hamda ismlarining bir xilligi, tug'ilish, yashash joylarining umumiyligi hamda taxallus tanlashda bunga nisbat berilishi, ijodiy konsepsiyasi, orzu-niyatlari, fikr-u o'ylari mushtarakligi, ruhiy holati, maishiy hayoti o'xshashligi ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

¹ Kenjaeva C.56- б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фан. ном.... дис. автор. – Тошкент, 2005.11- бет.
2. Мартынов В.В. Номинативные единицы языка и их системное описание / Актуальные проблемы лексикологии. – Новосибирск, 1969. Вып. II, ч.1. – С. 106.
3. Менажиев Я., Азаматов Х., Абдурахмонов Д., Бегматов Э. Исмингизнинг маъноси нима? – Тошкент: Фан, 1968.3-4- бет.
4. Мочалкина К.С. Псевдонимы в системе современной русской антропонимии: Дис. – Волгоград, 2004. – С. 8.

Shohsida ESHBO'TAYEVA,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
 davlat o'zbek tili va adabiyoti
 universiteti o'qituvchisi (PhD)
shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

MUSIQA TERMINLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek musiqa terminlari struktur-grammatik tahlil etilib, leksema qurilishining semantik xususiyatga ta'siri o'rganilgan. O'zbek musiqa terminlarida shakl va ma'no yasalishini o'rganish orqali ushbu birliklarning til tarkibiga ta'siri aniqlangan.

Kalit so'zlar: terminologiya, musiqa termini, struktura, grammatika, sema

Аннотация: в данной статье анализируется структурно-грамматическая структура узбекских музыкальных терминов и изучается влияние лексемной конструкции на семантические свойства. Путем изучения формообразования и значения узбекских музыкальных терминов определяется влияние этих сущностей на структуру языка.

Ключевые слова: терминология, музыкальный термин, структура, грамматика, sema

Annotation: this article analyzes the structural and grammatical structure of Uzbek musical terms and studies the influence of lexeme construction on semantic properties. By studying the formation of form and meaning in Uzbek musical terms, the influence of these entities on the structure of the language is determined.

Key words: terminology, music term, structure, grammar, sema

Terminlar boshqa til birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan xarakterlanadi. Masalan, umumnutqda so'z birikmasi shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklari sifatida qo'llanilishi kamdan-kam kuzatiladi. Ayrim hollardagina leksik lakunalar bilan bog'liq ravishdagina bunday qo'llanishlarga duch kelish mumkin. Biroq sohaviy nutqda bunday holatlar ko'plab uchraydi. Masalan: *absolyut eshituv qobiliyati, aralash taktlar, asosiy pog'onalar, birinchi skripkalar, bir ovoqli musiqa, boshlang'ich musiqa nazariyasi, dominantali kamaytirilgan septakkord, yordamchi uchto'vushliklar, keng menzurali puflama cholg'u asboblar, kichik boshlovchi septakkord* va boshqalar. Bunday holat tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, ammo terminlar jamiyatning muayyan sotsial guruhi uchun xosligi va ba'zi hollarda mavjud til vositalari, birikmalar asosida yaratilishi bilan bog'liqdir. Tilshunoslar aytganidek, "eng oddiy so'zlar" ham terminlasha olishi mumkin". Bunday hollarda "ham terminlik, ham noterminlik funksiyasini bajaruvchi ikki planli lug'aviy birliklar" ko'zda tutiladi"¹.

Ushbu xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zbek tili musiqa terminlarini struktur-grammatik qurilishi jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) sodda terminlar;
- 2) qo'shma terminlar;
- 3) juft terminlar;
- 4) takror terminlar;
- 5) birikma terminlar;
- 6) qisqartma terminlar.

Sodda terminlar – ushbu terminlar sodda tub va sodda yasama terminlarga bo'linadi. Sodda tub musiqiy

¹ Мадвалиев А. Узбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – Б.118.

terminlar asosan, *ot* va *sifat* so'z turkumiga xos: *doira, kuy, til, avj, akt, bayot, baraban, vals, gardun, garmon, gitara, dialog, bariton, allegro, largo* va boshqa shu kabilar. Bu terminlarning asosiy qismi boshqa tildan o'zlashgan terminlardir. O'z qatlamga oid sodda tub terminlar sanoqli bo'lib, ularning salmoqli qismi semantik usulda ma'no ko'chishi orqali hosil bo'lgan: *kosa, dasta, quloq, qopqoq, qovurg'a, orttirish, oqsatma, og'ishma, qochirim, qoshiq, terma* va boshqalar.

Sodda yasama terminlar esa, asosan, o'zlashma qatlamga oid terminga qo'shimcha qo'shish orqali o'z qatlamga xos musiqa termini yasalgan.

Jumladan: *musiqa + chi* – 1. Musiqa san'atining biror turini egallagan professional kasb egasi. Bunda narsa otini ifodalagan asos morfemaga kasb oti hosil qiluvchi affiks morfema qo'shilishi natijasida o'z qatlamda yangi musiqiy termin hosil qilingan.

2. Sozanda, *cholg'uchi*, ya'ni biror *cholg'u* asbobida ijro qiluvchi. Hosil bo'lgan yangi musiqa terminining forstojik tilidan o'zlashgan *sozanda* va o'z qatlamga oid *cholg'uchi* kabi to'liq sinonimlari ham bor. Bunda *cholg'u* – "musiqiy asbob" ma'nosini beruvchi asosga *-chi* kasb oti yasovchi affiksning qo'shilishi natijasida yangi termin yasalgan.

musiqa+shunos – musiqa fanining biror sohasida ishlovchi mutaxassis. Bunda ham affiksatsiya usuli orqali narsa otidan kasb oti yasalgan.

musiqashunos+lik – sodda yasama asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida faoliyat-jarayon oti hosil qilingan.

Sodda yasama musiqa terminlarni hosil qilishda eng unumdor affiks *-chi* hisoblanadi. Ushbu affiks musiqiy *cholg'u* nomlarini ifodalovchi terminlarga qo'shib, kasb

otini yasaydi: *tanburchi, naychi, karnaychi, dutorchi* va boshqalar. Eng unumsiz qo'shimcha esa, *-kash* bo'lib, u jonli so'zlashuvda *doirakash* terminini hosil qilishda qo'llaniladi. Shuningdek, *-lik* morfemasi orqali ham ko'pgina o'z qatlamga oid musiqa terminlari yasaladi: *ohangdoshlik, yakkanavozlik* kabilar. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ushbu ko'makchi morfema o'zlashma qatlamga oid musiqa terminlardan o'z qatlamga oid termin yasaydi. Shu bilan birga, *-ma, -iy, -dosh* kabi affiksalar orqali ham o'zbek tili tarkibida musiqa terminlar hosil bo'ladi.

Qo'shma terminlar – ushbu terminlar muayyan tushunchani ifodalash uchun zarurat sezilgani sabab hosil bo'lgan. “Chunki predmet, voqea va hodisalar, ularning konkret yoki to'liq belgilarini doim ham bir so'z (mustaqil ma'noli bir o'zakli so'z) bilan ifodalash imkoni bo'lavermaydi. Shuning uchun ham ma'lum tushunchani ikki yoki undan ortiq so'z birikuvidan hosil bo'lgan yangi yaxlit so'z orqali ifodalashga ehtiyoj seziladi”². A.Madvaliyevning tasnifiga asoslangan holda qo'shma musiqa terminlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. O'zbek tilida avvaldan qo'llanib kelingan o'zbekcha, arabcha, forscha so'zlarning o'zaro qo'shilishidan yuzaga kelgan qo'shma terminlar;

2. Komponentlari ruscha-baynalmilal termin yoki termin-elementlardan iborat, rus tilidan tayyor holda o'zlashtirilgan qo'shma terminlar;

3. Turli tillarga mansub birliklardan hosil bo'lgan qo'shma terminlar.

1. O'zbek tilida avvaldan qo'llanib kelingan o'zbekcha, arabcha va forscha so'zlarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma terminlar tarkibiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. ot + ot qolipida yasalgan qo'shma musiqiy terminlar: *surnay, soqiyнома, tovushqator, gulufar*;

2. sifat+ot qolipidagi musiqiy terminlar: *karnay; qo'shmay*;

3. son+ot qolipidagi musiqiy terminlar: *beshqarsak, shashmaqom*;

2. Komponentlari ruscha-baynalmilal o'zaklardan iborat, o'zbek tiliga tayyor holda o'zlashtirilgan qo'shma terminlar. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

a) ruscha-baynalmilal qo'shma terminning har ikkala (yoki uch) komponenti o'zbek tilida mustaqil termin yoki terminelement sifatida qo'llaniladi: *aventik kadans, alt gaboy, bas kaliti, bas klarnet, metroritm, mi-bemol major, mi-bemol minor, poralel tonallik, subdominantali funktsiya, subkontoroktava, subdominantseptakkord, sekstakkord, septakkord, sekundakkord, garmonik major, garmonik minor, kamer orkestri, metroritm, metso piano, metso soprano, metso forte, pentaxord, pentatonika*;

b) birinchi komponenti muntazam takrorlanuvchi, qator-qator bloklar hosil qiluvchi terminelementdan yoki mustaqil qo'llanuvchi atributiv elementning qisqartmasidan iborat, ikkinchi qismi esa mustaqil

asosdan tuzilgan musiqiy terminlar: *geterofoniya, gomofoniya, politonallik, polimetriya, polifoniya, kakofoniya, ksilofon, patefon, saksofon, semiografiya*.

Tarkibida terminelement bo'lgan terminlar nisbatan to'la aniqlikka ega. Bunday elementlar xalqaro hisoblanib, ko'pgina tillar tarkibiga singib ketgan. Xalqaro elementlar, asosan, klassik tillar hisoblangan yunon va lotin tillariga oid o'zak, prefiks va suffikslardan iborat. Ular o'zlari bildirgan tushunchaning belgisi, soni va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Bunday terminelementlar musiqiy terminologiyada ham ko'pgina terminlarni yasashda faol ishtirok etadi.

O'zbek tiliga bunday musiqa terminlari rus tili orqali kirib kelgan. Jumladan:

Politonallik – ko'p ovoqli musiqada biryo'la harakat qiluvchi ovozlarning turli tonallikda kelishi. *Poly* – yunoncha “ko'p”. *Tonallik* rus tilidagi тональность so'zining aynan tarjimasidir. Laddagi tovushlarning balandligi.

Polimetriya – (yun. Poly- ko'p, metron – o'lchov, miqdor) ko'p ovoqli musiqada turli metrdagi taktlarning bir vaqtda qo'shilib kelishi.

Polifoniya – (yun. poly- ko'p, phone – tovush, ovoz) ko'p ovoqli musiqa turi, har biri alohida mustaqillikka ega bo'lgan bir necha kuyning garmonik qo'shilib, murakkablashib rivojlanishi³.

Mazkur tipdagi terminlar, ya'ni yunon va lotin tillari materiallaridan shakllangan terminlar ikkiga bo'linadi: o'zlashtirilgan xalqaro terminlar va yunon va lotin tillari materiallari asosida rus tili bazasida yaratilgan terminlar. Yuqoridagi musiqa terminlar o'zbek tiliga rus tilidan yasalma tarzida qabul qilingan. Ushbu terminlar umumbaynalmilal hisoblanib, xalqaro terminlarni yasashga asos bo'lgan bunday terminelementlar prefiksial va postfiksial ko'rinishlarga ega.

Poly – prefiksial (prepozitiv) element hisoblanadi. Ya'ni prefiksial+asos tarzida so'z yasaydi. Musiqiy terminlarni yasashga xizmat qilgan prefiksial elementlar o'z ma'nosini saqlab qoladi va yangi asosning ma'nosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday terminelementlar nafaqat yunon va lotin tillariga xos, balki boshqa tillarda ham shunday elementlar borki, ular umumterminlarni hosil qilishda yetakchi element bo'lib ishtirok etadi.

Geterofoniya (yun. heteros – boshqa, phone – tovush, ovoz) – bir kuyning bir necha ashulachi tomonidan improvizatsiya (tayyorgarliksiz ijro) qilinayotganda ovozlarning turlicha o'zgarib ketishi.

Gomofoniya (yun. homos – teng, bir xil, phone – tovush, ovoz) – ko'povoqli musiqa turi, unda bir ovoz (odatda, eng yuqorigi) alohida ahamiyatga ega bo'lib, qolgan ovozlarga unga jo'r bo'ladi⁴.

Ushbu musiqa terminlari tarkibida yunon tiliga oid *-foniya* elementi postfiksial (postpozitiv) xususiyatiga ega. Ya'ni asos+postfiksial shaklida xalqaro terminelementni hosil qilmoqda.

2 Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017. – B. 118.

3 Akbarov I. Musika lug'ati. – Toshkent, 1997. B. 226 – 227.

4 Akbarov I. Musika lug'ati. – Toshkent, 1997. B. 68 – 69.

Yuqoridagi har ikki tip qo'shma terminlar o'zbek tilida o'zlashtirma qo'shma terminlar deyiladi.

3. Turli tillarga mansub birliklardan hosil bo'lgan qo'shma terminlar. Ular ikkita boshqa-boshqa qatlamlarga oid so'zlarning o'zaro kompozitsiyasidan hosil bo'ladi. Bu usulda hosil qilingan yangi terminlar keyingi paytlarda *duragay qo'shma so'zlar* yoki *gibrid terminlar* nomi bilan yuritiladi. Biroq "gibrid termin" atamasi o'zbek tilidagi tarkibida ruscha-baynalmilal terminelementlar bo'lgan qo'shma terminlarga nisbatangina qo'llanmoqda⁵. Gibrid musiqiy terminlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *diatonik tovushqator, diatonik yarimton, dinamik tuslar, torli kvartet, melodik holat, kamer musiqa, nota yozuvi;*

Juft terminlar – musiqa terminlari tarkibida kam qismni tashkil qiladi: *rando-sonata, jaz-band, dutor-tenor, dutor-bas, dutor-alt, dutor-kontrabas, dubl-bekar, dubl-bemol, domra-pikkolo, avj-aks, balalayka-alt, balalayka-sekunda;*

Takror terminlar. Tam-tam – Osiyodan kelib chiqqan urma asbob.

Birikma terminlar – ushbu terminlar struktur jihatdan ikki komponentli, uch komponentli, to'rt komponentli, besh komponentli va h.k turlarga ega:

1. Ikki komponentli terminlar. Bu terminlar sodda so'z birikmasi shaklida bo'lib, ularda ma'noviy yaxlitlanish kuzatilsa-da, shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi: *akkord tovushi, bal raqsi, dominant funksiyasi, bolalar ovozi, burg'uchilar orkestri, birikmali intervallar, dominant funktsiya, doriy ladi, doston yo'li, yog'och nay, mis nay, katta avj, yovvoyi chorgoh, g'ajir nay, katta ashula, kuchsiz hissa, kuchli hissa, ko'povozli musiqa, sozchi xalfa, ochiq tor, ikkinchi ovoz, chor raqs, uch nuqta, maqomi dugoh, dugoh husayniy, maqomi zangula, maqomi zirafkand, intervallar aylanishi, intervallar kengligi, maqomi isfahon, maqomi iroq, kvarta doirasi, kvinta toni, kvinta doirasi, lad alteratsiyasi, lab garmonchasi, lad modulyatsiyasi, major ladi, marosim musiqasi, marosim qo'shig'i, maqom ansambli, maqomi buzruk, maqomi dugoh, maqomi navo, maqomi rost, maqomi segoh, musiqa o'lchovi, miksolidiy ladi, minor gammasi, minor akkordi, minor tuzilishi, musiqa akustikasi, musiqa diktanti, musiqa nazariyasi, musiqa asboblari, musiqa psixologiyasi, musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa tovushi, musiqa tuzumi, musiqa folklori, musiqa shakli, nasri ajam, nasri bayot, nasri sabo, nasri segoh, nasri oraz, nasri uzzol, nasri ushshoq, nasri hijoz, nasri husayniy, notalar guruhlanishi, pan fleytasi,*

5 Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – Б. 65.

nota yo'li, ovozlar yo'nalishi, raqs musiqasi, septima toni va h.

2. Uch komponentli terminlar. Bunday murakkab terminlarda uch mustaqil lug'aviy ma'noli birliklar birikib, yaxlit ma'no ifodalaydi: *absolyut eshituv qobiliyati, ashula va raqs ansambli, bas cholg'u asboblari, bir turdagi akkord, bir ovozli musiqa, bir turdagi ovozlar, bir qismli asar, boshlang'ich musiqa nazariyasi, vertikal harakatchan kontrapunkt, garmonik ohangdosh tovushlar, dominantali kamaytirilgan septakkord, puflama (damli, duxovoy) cholg'u asboblari, yeti hissali takt, katta simfonik orkestr, kichik boshlovchi septakkord, klavishli cholg'u asboblari, musiqa asarlari tahlili, muxammasi jadidi feruz, muxammasi mirza hakim, muxammasi chor sarxona, muqaddimayi dugohi husayniy, muqaddimayi nasri ajam, muqaddimayi nasri uzzol, muqaddimayi nasri hijoz, nasri navro'zi xoro, naqshi iroq nafurdim, ovozlarning qarama-qarshi yo'nalishi, oltmish to'rttalik nota, oltmish to'rttalik pauza, opera va balet teatri, otliq askarlar trubasi, pastki boshlovchi ton, peshravi dugohi feruz, talqini dugohi husayniy, tenor cholg'u asbobi, tovushlarning bo'g'inli nomi, transpozitsiyalanuvchi cholg'u asboblari, urma (zarbli) cholg'u asboblari, xalq cholg'u asboblari, engarmonik teng tonalliklar, o'rta asr ladlari, o'n oltitalik nota, o'ttiz ikkitalik nota, qadimiy yunon ladlari.*

3. To'rt komponentli musiqa terminlar. Bunday musiqa terminlar nisbatan kam uchraydi: *xalq cholg'u asboblari orkestri.*

Musiqiy terminlar tizimida besh va olti komponentli terminlar deyarli uchramaydi.

Qisqartma terminlar – ushbu musiqiy terminlar abbreviatsiya usuli orqali hosil qilinadi. Ya'ni so'z birikmasi (ot birikma) tarkibidagi so'zlarning turli tipdagi qisqartirilishi (bosh harflari, bir bo'g'ini olinishi...) asosida qisqartmalar hosil qilinishi tushuniladi...⁶. Bunday qisqartmalar orqali ma'no yasalishi emas, shakl yasalishi yuz beradi. Masalan: *P (piano-sekin), PP (pianissimo – juda sekin), F (forte-qattiq, kuchli), FF (fortissimo – juda qattiq, kuchli), MF (metse forte – o'rta qattiq), CR (kreshchendo – tovushni tobora kuchaytirib borish), DIM (diminuendo – tovushni sekinlatib borish) va h.*

Xullas, musiqa terminlarda shakl va ma'no yasalishi o'zbek tilining o'ziga xos yasalish usullaridan foydalangan holda shakllangan. Ushbu yasalish o'zbek tili tarkibi boyishiga manba bo'lib xizmat qilgan.

6 Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б. 65.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент, 1997. – Б. 226 – 227.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б. 65.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – Б. 118.

Mahfurat OMONOVA,
Qarshi davlat universiteti professori, PhD
e-mail: maxfurat.omonova@mail.ru

MATNDA SEMIOTIK ELEMENTLARINING BIRIKISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada matnda semiotik elementlarining birikish tamoyillari, ularning semantik va sintaktik o'zaro ta'siri hamda matn mazmunini barpo etishdagi roli batafsil tahlil etiladi. Maqola semiotika nazariyasining asosiy tushunchalari, belgi tizimlari, matnda belgilar oralig'ida yuzaga keladigan munosabatlar va ularning kombinatsiyalanish qoidalari bilan shug'ullanadi. Shuningdek, matndagi elementlararo integratsiya jarayonlari va ularning kommunikativ ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari matnni chuqur anglash va tahlil qilish, shuningdek, tilshunoslik va matnshunoslik sohalarida yangi yondashuvlar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: *semiotika, matn, semiotik elementlar, birikish, semantika, sintaksis, kommunikatsiya.*

Annotation: this article presents a detailed analysis of the principles of combination of semiotic elements in texts, their semantic and syntactic interactions, and their role in constructing textual meaning. It covers fundamental concepts of semiotics, sign systems, relationships between signs in texts, and combination rules. The integration processes between textual elements and their communicative importance are also discussed. The results provide a basis for deeper text analysis and open up new approaches in linguistics and text studies.

Key words: *semiotics, text, semiotic elements, combination, semantics, syntax, communication.*

Аннотация: в статье проводится детальный анализ принципов сочетания семиотических элементов в тексте, их семантического и синтаксического взаимодействия, а также их роли в построении смысла текста. Рассматриваются основные понятия семиотики, системы знаков, отношения между знаками в тексте и правила их сочетания. Обсуждаются процессы интеграции текстовых элементов и их коммуникативное значение. Результаты работы создают основу для более глубокого анализа текста и развития новых подходов в лингвистике и текстологии

Ключевые слова: *семиотика, текст, семиотические элементы, сочетание, семантика, синтаксис, коммуникация.*

Kirish. Matn – bu ma'noni uzatish vositasi sifatida murakkab semiotik tizim bo'lib, unda turli darajadagi semiotik elementlar o'zaro bog'langan holda bir butunni hosil qiladi. Bu elementlar sifatida fonemalar, morfemalar, so'zlar, iboralar, gaplar va paragraf birliklari qabul qilinadi [1: 45]. Semiotik tizimning asosiy vazifasi – axborotni uzatishdir, bunda belgilar birlashuvi orqali ma'lumot uzatiladi.

Matnda semiotik elementlarning to'g'ri va samarali birikishi matnning tushunarligini, yaxlitligini va kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi [2: 78]. Shuning uchun ularning birikish tamoyillarini o'rganish, matnni chuqur va mukammal tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

1.Semiotik elementlarning nazariy asoslari va ularning rolini tahlil qilish.

Semiotika va semiotik elementlar

Semiotika – belgilar tizimi va uning vazifalarini o'rganuvchi fan bo'lib, matndagi har bir belgi o'z ichki mazmuni va tashqi shakliga ega [3: 15]. Semiotik element deb matnda axborot tashuvchi eng kichik birlik tushuniladi. Matnda ular turli darajada – fonemadan tortib paragrafgacha – bo'linadi, biroq har birining semiotik funksiyasi mavjud.

Matndagi semiotik elementlarning tasnifi

Matnda semiotik birliklar quyidagicha tasniflanadi [4: 28]:

Fonemalar – nutq tovushlarining eng kichik ma'noli birligi (ammo o'zlari mustaqil mazmuni tashimaydi).

Grafemalar – yozuv belgilarining eng kichik birliklari.

Morfemalar – eng kichik ma'noli birliklar.

So'zlar – semantik markaz sifatida, fikrni ifodalashda asosiy birlik.

Iboralar va gaplar – murakkab semantik birliklar, ularning birliklararo munosabatlari shakllantiruvchi omillardan biridir.

Paragraf va matn bo'laklari – mavzu va g'oyani yanada kengroq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, matndagi har bir semiotik element o'zaro bog'lanish orqali axborotni uzatishda muhim rol o'ynaydi.

2. Semiotik elementlar birikishining asosiy tamoyillari

Semantik tamoyillar

Semiotik birliklar ma'nodagi muvofiqlik va moslik asosida birlashadi. Bu jarayon semantik bog'lanish deb ataladi, u sinonim, antonim, hiperonim, hiponim kabi turli munosabatlarda namoyon bo'ladi [5: 100]. Misol uchun, "katta" va "yirik" so'zlari sinonim sifatida ma'noda yaqin ekanligi tufayli ularni bir matnda ishlatish ma'noni boyitadi.

Sintaktik tamoyillar

Elementlarning tartibga solinishi va ular orasidagi grammatik munosabatlar matndagi ma'noni aniqlashtiradi. Sintaksis qonunlari elementlar ketma-ketligini va ularning o'zaro bog'lanishini nazorat qiladi. Matnda so'zlarning yasalishi, ularning gap ichidagi joylashuvi, bog'lanish turi – bularning barchasi matnning umumiy ma'nosini shakllantiradi [1: 100].

Pragmatik tamoyillar

Semiotik elementlarning birikishi, shuningdek, matnning kommunikativ maqsadi va kontekstga bog'liq. Ba'zan grammatik jihatdan to'g'ri qilingan ibora kontekstga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli matn muallifi va o'quvchining niyatlari ham birikish jarayoniga ta'sir qiladi [3: 75].

3. Matnda semiotik birliklarning birikish mexanizmlari va qonuniyatlari. Taqsimlanish tamoyili

Har bir semiotik element matnda ma'lum o'ziga xos rol va vazifaga ega bo'lib, u boshqa

birliklar bilan o'zaro taqsimlanadi. Bu tamoyil yordamida bir matnda turli belgi birliklari o'zaro to'qnashmaydi, balki o'zaro muvofiq va tartibli joylashadi. Masalan, so'z va gaplar matndagi ma'noni birgalikda tashkil etadi, ammo ular o'rtasida o'xshashlik va farqlilik saqlanadi [4: 53].

Integratsiya tamoyili

Semiotik elementlar o'zaro bog'lanib, butun matn tizimini hosil qiladi. Bu tamoyil asosida, matndagi barcha elementlar o'zaro kommunikativ birliklarga aylanib, yaxlit matnni tashkil qiladi. Shu tarzda, har qanday semiotik element faqat tizim tarkibida o'z mazmunini to'liq ifodalaydi [5: 60].

Katenatsiya (zanjirlash) tamoyili

Matnning o'zini oqlashi uchun, semiotik birliklar ketma-ketlik tamoyiliga muvofiq joylashishi lozim. Gap va iboralarning grammatik qoidalar asosida joylashuvi natijasida matndagi ma'no zanjir hosil qiladi. Bu jarayon tilning qoidalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning buzilishi matnning noaniqligini keltirib chiqaradi [2: 36].

Koherence va koheziya tamoyillari

Matnning yaxlitligi va tushunarli bo'lishi uchun barcha semiotik elementlar o'zaro ma'noda uzviy bog'lanishi kerak. Bu jarayon ikki asosiy tamoyil – koherence va koheziya orqali amalga oshadi.

Koherence – matnning ichki mantiqiy birligini ifodalaydi. Bu tamoyil asosida matnning asosiy g'oyasi, muallifning niyati va mavzuning izchil rivojlanishi ta'minlanadi. Koherence muammosi matndagi fikrlar qatori yondashuvida, ularning mantiqan bir-biridan kelib chiqishi va o'zaro bog'lanishida namoyon bo'ladi. Masalan, gaplar va paragrafdagi fikrlarning tartibli, tushunarli va izchil tarzda ifodalanganligi matn koherentsligini oshiradi. Koherence insonga matnni oson tushunishga, unga intellektual ravishda munosabat bildirishga imkon yaratadi [1:108].

Koheziya esa matn ichidagi lingvistik vositalarning o'zaro bog'lanishini anglatadi. Bu tamoyil asosida gaplar, so'zlar va iboralar o'rtasida til darajasida grammatik va leksik-birkitalik bog'lanishlar yuzaga keladi. Koheziya vositalariga quyidagilar kiradi:

– **Bog'lovchilar** (va, yoki, chunki, shuning uchun va boshqalar) – gap va paragraf bo'laklarini ma'noda bir-biriga bog'laydi.

– **Takrorlanishlar** – muhim g’oyani mustahkamlash uchun so’zlar, iboralar yoki fikrlarning qayta ishlatilishi.

– **Sinonimlar va antonimlar** – so’zlarning o’xshash yoki qarama-qarshi ma’nodagi shakllari yordamida ma’no birligi yaratiladi.

– **Demonstrativ va shaxsiy olmoshlar** – avvalgi yoki keyingi ma’lumotlarga ishora qilib, matn qismlarini bog’lashning omili.

– **Parafrazalar** – bir xil mazmuni boshqacha ifodalash orqali bevosita bog’lanishni ta’minlash.

Koheziya matnni tilda ko’rsatadi, ya’ni uning tuzilishidagi bog’liqlikni amalga oshiradi. Agar matndagi elementlar lingvistik jihatdan bog’lanmasa, garchi mazmun jihatdan uyg’un bo’lsa ham, u tushunarsiz yoki bo’lak-bo’lak bo’lib qolishi mumkin.

Koherence va koheziya bir-birini to’ldiruvchi tamoyillar bo’lib, ular matnni yaxlit, tushunarli va samarali kommunikativ vositaga aylantiradi. Har ikkisi birgalikda ishlaganda, o’quvchi uchun mazmuni to’liq va qarama-qarshi tushunchalardan xoli holatda qabul qilish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, matnda yuqori darajadagi koherence va koheziya bo’lishi – muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning asosiy shartlaridandir [1:108].

4. Matnda semiotik elementlarning kommunikativ funksiyasi

Semiotik elementlarning birikishi nafaqat sintaktik va semantik jihatdan o’zaro muvofiq bo’lishi, balki kommunikativ jarayonni amalga oshirishda ham muhimdir. Matn muallifi o’z fikrini o’quvchiga aniq yetkazish uchun shartli belgilar tizimini shunday shakllantiradiki, u o’quvchi tomonidan to’g’ri talqin qilinadi [3: 95]. Kommunikativ samaradorlikni oshirish uchun semiotik elementlar o’rtasidagi bog’lanish mustahkam, ularning ifoda vositalari o’zaro qo’llab-quvvatlanishi kerak.

Shuningdek, kontekst, madaniy an’analar va o’quvchining qobiliyati ham bu jarayonga ta’sir qiladi.

Xulosa. Matnda semiotik elementlarning birikish tamoyillari tahlili tilshunoslik va kommunikatsiya nazariyalarida muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Semantik, sintaktik va pragmatik tamoyillarni kompleks tarzda integratsiya qilish orqali matnning mazmunli, yaxlit va tushunarli bo’lishi ta’minlanadi. Ushbu tamoyillar matn ichidagi belgilar o’rtasidagi munosabatlarni aniqlash, mazmuni chuqurroq anglash va kommunikatsiya jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat so’zlashuv va yozma matnlarni yaxshilab tahlil qilishga, balki yangi matn tahlil metodlarini ishlab chiqish va ilg’or kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lotman, Y.M. Semiotika va matn nazariyasi. – T.: Fan, 2010. 150-b.
2. Barthes, R. Elementlar semiotikasi. – Moskva, Progress, 1987. 120-b.
3. Eco, U. Semiotik nazariya. – T.: Sharq, 2015. 200-b.
4. Jakobson, R. Linguistic Communication. – Cambridge: MIT Press, 1960.
5. Abdurahmonov, Z. Matn nazariyasi va tahlil usullari. – T.: Universitet, 2012. 98-b.
6. Sultonov, G. Til va matn: lingvistik tadqiqotlar. – T.: Sharq, 2017. 135-b

Aslam USMONOV,
 A. Qodiriy nomli Jizzax DPU
 o'zbek tilini o'qitish metodikasi
 kafedrasini dotsenti v.b. F.f.f.d. (PhD)



MATN TUSHUNCHASI, HAJVIY MATNDA KULGINING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada hajviy matn tarkibidagi ayrim so'zlar kulgi yuzaga keltirishi haqida so'z yoritilgan. Tilshunoslikda "Matn" tushunchasiga bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o'nlab ta'riflar mavjud. Bu qarashlarning barchasi matnning u yoki bu xususiyatlarini qamrab olgan.

Kalit so'zlar: *matn, hajviy matn, til birliklari, pragmatika, ma'no, munosabat, so'zlar, yondashuv.*

Аннотация: в данной статье рассматривается способность некоторых слов в юмористическом тексте вызывать смех. В лингвистике существуют десятки определений, отражающих различные взгляды и подходы к понятию "текст". Все эти взгляды охватывают ту или иную особенность текста.

Ключевые слова: *текст, комический текст, языковые единицы, прагматика, значение, отношение, слова, подход.*

Annotation: this article discusses the ability of certain words in humorous text to cause laughter. In linguistics, there are dozens of definitions that reflect different views and approaches to the concept of "Text". All of these views cover one or another feature of the text.

Key words: *text, comic text, language units, pragmatics, meaning, attitude, words, approach.*

"Matn" tushunchasiga bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o'nlab ta'riflar mavjud. Avvalo, lug'atlarda keltirilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. 1955-yilda Moskvada nashr etilgan "Словар иностранных слов"da "tekst" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: Tekst (lotincha "textum"— mato, to'qish, birlashtirish)— asosiy xususiyatlari aloqadorlik va yaxlitlik bo'lgan til birliklarining o'zaro birikishi, mantiqiy ketma-ketligi¹[1: 680]; "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "matn" atamasiga "yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi, tekst" sifatida ta'rif beriladi²[2:61]. Matnning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba'zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatikasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba'zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so'z birikmasi sintaksisi, sodd gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko'ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta'kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo'shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo'ladi. Tekshiruvchilarning ko'pchiligi bu sohani birinchi qarash bo'yicha yoritmoqdalar. Ko'rinib turganiday, A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiati va mohiyatini aniq ko'rsatib bergan.

1 Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей. – Москва, 1955.стр.680

2 Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 й. 61-бет

Matn (tekst)ga lingvistik tadqiqot obyekti sifatida qaraluvchi nutqning eng yirik birligi – bir mikromavzuni yoritish uchun xizmat qiladigan nisbiy mustaqil gaplar guruhi (gaplar birikmasi – yig'indisi) ma'nosini anglatadi. [3:8]³

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "matn" atamasi quyidagicha izohlanadi: Matn atamasi (arabcha) yelka, nutqning yozuvdagi ifodasi – (tekst); Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. [4:557]⁴

Matn muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunoslaridan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. U asosiy maqsadi "ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifoda etuvchi bog'lovchilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va o'ziga xos vazifalarini aniqlashga yo'naltirilgan ishlarga hissa qo'shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash" dan iborat bo'lgan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallar asosida batafsil tadqiq etgan.⁵[5:168]

Matn muammolari bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham matn tarkibidagi bog'lanishlilikka grammatik va mazmuniy umumiylikka ko'ra uzvlarni birikuviga alohida urg'u beradilar: "matn sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik

3 А.Мамажонов, М.Абдулаттоев, Матн назарияси. – Фарғона, 2016.8-бет.

4 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2- жилд. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. –Тошкент, 2006. 557- бет.

5 Ҳақимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс. –Тошкент, 1994.168- 6.

va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig'indisidan iborat. Matn o'ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutqning yirik ifodasidir"⁶[6:4;25], – degan fikrlarini bildirib o'tadilar.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, tilshunos olim M.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratishni lozim topdik. Olim "matnni gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq"⁷[7:159] degan fikrni ilgari suradi va matn haqidagi haqli g'oyani isbotlab bergan edi.

"Yumor" (hajv) termini asli lotincha "suyuqlik" ma'nosini anglatuvchi "umor" so'zidan kelib chiqqan va tibbiyot termini sifatida qo'llangan. Bu termin bizgacha yetib kelgan, ammo o'zining asl ma'nosini mutloq yo'qotgan. Chaironing ta'kidlashicha, hozirgi kunda u "panadagi termin" bo'lib "komediya", "kulgi", "kulgili" kabi tushunchalarni qamrab oladi. Fikrimizcha, Chaira ta'kidlagan "kulgi", "komediya", "kulgili" tushunchalari insonlarning og'zaki va yozma nutqidagi matnlarda aks etadi va bunday matnlar hajviy matnlar deb ataladi.

Yigit aytar: Jonon, sevar yorim bo'l,
Ardoqlab boshimda olib yuraman.

Jonon aytar: Durust, gapingiz ma'qul,

Erimdan maslahat so'rab ko'raman. (Erkin Vohidov)

Hajviya, hajviy matn va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda hajviy matnlar yuzasidan xorij va O'zbekistonlik bir qancha olimlar ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

Jumladan, xorijda V.Raskin, A.Salvadore, J.Suzanna, S. Di Maio, A.Dimitris, F. Xristian, A.Ross, L.Broder va boshqalar hajviya mexanizmlari, hajviya nazariyalari, hajviy matnlarni tarjima qilish muammolari va strategiyalari borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, Viktor Raskinning tadqiqoti

6 Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. 4–25 -б.

7 Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикasi. –Тошкент: Фан, 2008.159 -б.

hajviyaning mohiyati, hajviyaning akti deb atalgan komponentlari, hajviyani tadqiq qilishda foydalanilgan asosiy konsepsiyalar, "kulgu turlari" va hajviyaning o'zini kategoriyalarga ajratish muammolari va hajviya nazariyalariga bag'ishlangan.⁸

Hajviy matnlar borasida tadqiqot olib borishda "hajv" tushunchasining mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da hajvga quyidagicha ta'rif berilgan: "ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masxaralab aytilgan (yozilgan) gap, jumla, bayt, asar". Macmillan izohli lug'atida "yumorning biror holat yoki tadbirni kulgili qilish sifati, kulgili aytilgan yoki qilingan narsa, biror narsaning kulgiligini bilish qobiliyati" kabi ta'riflarni uchratish mumkin. Oxford Advanced Learner's Dictionary lug'atida esa "yumor – biror narsadagi uni kulgili yoki qiziqarli qilib ko'rsatadigan sifat, kulgili narsalarga kulish qobiliyati" deya izoh beriladi.

Taniqli shoir Erkin Vohidovga muxbir savol berdi:

– **Kelinoyi** bilan salkam ellik yil yashayotgan ekansizlar, qanday qilib tanishgansizlar?

– Men taqdirimni uzoq-uzoqlardan qidirib yuribman. Buni qarangi, o'zimizning mahallada, o'zimizni ko'chamizda, qo'shni ekan! Shuni aytadilar-da

"Falokat oyoq ostida" deb...

Yuqoridagi fikrlar asosida "hajv" tushunchasining qadimiy kelib chiqishiga qaramay, u zamon bilan birga rivojlanib nafaqat kulgili, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllanganini aytish mumkin. Hajviy matnlar nafaqat kulgi, balki chuqur ma'no va maqsadni o'zida jamlagan holda, og'zaki va yozma adabiyotning muhim janri sifatida rivojlanib kelmoqda. O'zbek va xorij olimlarining tadqiqotlari ham shuni ko'rsatadiki, hajv nafaqat kulgili ifoda, balki murakkab lingvistik, psixologik va madaniy hodisa sifatida o'rganilishi zarur. Shuning uchun ham hajviy matnlar tahlil qilinayotganda, ularning nafaqat kulgili, balki o'tkir ijtimoiy xarakterga ega ekanligini hisobga olish muhimdir.

8 Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингво-стилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. – Самарқанд: "Самарқанд давлат чет тиллар институти" нашриёти, 2022.170-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей. –Москва, 1955.стр.680
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 61-бет
3. А.Мамажонов, М.Абдупаттоев, Матн назарияси. – Фарғона, 2016.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. 557- бет.
5. Ҳакимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс. – Тошкент, 1994. 68-бет.
6. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. 4 –25- бет.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикasi. – Тошкент: Фан, 2008.159- бет.
8. Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингво-стилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. – Самарқанд: "Самарқанд давлат чет тиллар институти" нашриёти, 2022.170-бет.
9. Suvonqulov B.M. O'zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari. Filol.fan.nom....diss.avtoref. –Т., 2008.13-бет.

Наргиза ИБРАГИМОВА,
 аналитик Департамента перспективного развития бизнеса
 АО “Узбекнефтегаз”

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ БУРЕНИЯ В НЕФТЕГАЗОВОЙ СФЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: в статье рассматриваются лексико-структурные особенности терминов, используемых в бурении нефтегазовой сферы китайского языка. Основное внимание уделено анализу морфемного состава и способов словообразования, характерных для данной терминологической подсистемы. Показано, что большинство терминов формируется путём сочетания трех и более значимых морфем, при этом наибольшую продуктивность демонстрирует атрибутивная модель построения.

Особое внимание уделено функциональной роли морфем, каждая из которых отражает определённый аспект обозначаемого процесса – действие, объект или техническую характеристику. Отмечается, что морфемная структура терминов обеспечивает их смысловую прозрачность, точность и системность.

Ключевые слова: китайский язык, словообразование, морфемная структура, модели словообразования, атрибутивная модель, копулятивная модель, глагольно-объектная модель, глагольно-дополнительная модель, субъектно-предикативная модель, субстантивные структуры, вербальные структуры, адъективные структуры, аналитический язык, сложение морфем, аффиксация, аббревиация, заимствование, комбинирование лексем, терминология бурения.

Annotation: the article examines the lexical and structural features of terms used in the Chinese language within the oil and gas drilling sector. The main focus is on analyzing the morphemic structure and word-formation patterns characteristic of this terminological subsystem. It is shown that most terms are formed through the combination of three or more significant morphemes, with the attributive model of construction demonstrating the highest productivity.

Special attention is given to the functional role of morphemes, each of which reflects a specific aspect of the designated process — an action, an object, or a technical characteristic. It is noted that the morphemic structure of terms ensures semantic transparency, accuracy, and systematicity.

Key words: Chinese language, word formation, morphemic structure, word-formation models, attributive model, copulative model, verb-object model, verb-complement model, subject-predicate model, nominal structures, verbal structures, adjectival structures, analytical language, morpheme compounding, affixation, abbreviation, borrowing, lexical combination, drilling terminology.

Annotatsiya: maqolada xitoy tilida neft va gaz qazib olish (burg'ilash) sohasida qo'llaniladigan terminlarning leksik va strukturaviy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor ushbu terminologik tizimga xos morfemik tuzilma va so'z yasalish modellari tahliliga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'pchilik terminlar uch va undan ortiq muhim morfemalarning qo'shilishi orqali shakllanadi, ulardan eng yuqori samaradorlikni atributiv model ko'rsatadi.

Maqolada har bir morfemaning funksional roli alohida tahlil qilinadi, chunki ular jarayonning ma'lum bir jihati — harakat, obyekt yoki texnik xususiyatni aks ettiradi. Morfemik tuzilma terminlarning semantik shaffofligini, aniqligini va tizimlilikini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: xitoy tili, so'z yasalishi, morfemik tuzilma, so'z yasalish modellari, atributiv model, kopulativ model, fe'l-obyekt modeli, fe'l-to'ldiruvchi modeli, ega-kesim modeli, o'tli tuzilmalar, fe'lli tuzilmalar, sifatdosh tuzilmalar, analitik til, morfemalarni qo'shish, affiksatsiya, abbreviatsiya, o'zlashtirish, leksik birliklarni kombinatsiyalash, burg'ilash terminologiyasi.

Введение

Слова в языке могут обладать как **общим**, так и **частным** значением, а также иметь **собственное** и **переносное** толкование. Однако существуют такие слова, которые выражают **только одно, строго определенное значение**. Подобные слова, как правило, употребляются **в науке, технике и про-**

фессиональной деятельности, где необходима точность и однозначность выражения понятий.

Слово, обозначающее **название отдельного предмета или конкретного понятия**, называется **термином**.¹ Термин может быть представлен **одним словом** либо **словосочетанием**, выполняю-

¹ А.К. Боровков, А.Ф. Фуломов, З. Маъруфов, Т. Шермухамедов. Узбек тили грамматикаси. Т., “Уздавнашр” 1989 й., 227-б.

“Hidden borrowing” (also called “calquing”) involves translating components of foreign terms using existing equivalents in the recipient language, often without significant phonetic change. For example: *Stabilizator* from “stabilizer” or *aktual*, *investitsiya*, *redaktor* – all borrowed from English but already existed with similar meanings in Russian or other languages.

Sometimes the initial meaning of a borrowed word becomes obsolete, and only the later adopted meaning remains.

3. Direct and Indirect Borrowing

“Direct borrowing” is when a word enters the recipient language “without an intermediary”. “Indirect borrowing” occurs through “a mediating language”.

Sometimes, a word borrowed from a language later returns to it with changes—a process called “reflexive borrowing”.

4. Simultaneous (Parallel) and Long-Term Borrowing

Some words from the same source language are borrowed “at the same time” or within a short period. Examples: *boks* – *bokschi* (*boxer*), *biznes* – *biznesmen* (*businessman*), *konstruktsiya* – *dizayn* – *konstruktor*, *mer* (*mayor*), *doktor*, *ideal* – *idealizm*, *tsitata*, *pasifizm* – *pasifist*.

Such borrowings often involve “abbreviated and full forms”, e.g.: *avto*, *kino*, *metro*, *taksi*, *foto* → *avtomobil*, *kinofilm*, *metropolitan*, *taksi*, *fotografiya*.

If similar-rooted words are borrowed at “different times”, the process is considered “long-term borrowing”. Example: *Kongress* (19th c., German) and *kongressmen* (later, English) into Russian. *Informatsiya* (Polish) and *dezinformatsiya* (French). *Agressiya* (French) and *agressor* (German).

5. Graphic Borrowing. “Graphic borrowing” repeats the spelling and visual structure of the source word. This is easier when alphabets match, but many languages still modify spellings to match local orthography.

Modern examples include: *happy end*, *Windows*, *MS-DOS*, *Discovery*, etc.

These follow “transcription or transliteration” or, in some cases, direct retention of original form.

“Examples of brand names” adapted in this way: *Samsung*, *Nokia*, *Lipton*, *LG*, *Kodak*, *Tom*

Klaim, *United Colors of Benetton*, *Nivea*, etc. Other examples: *jazz* – *jaz*, *rock* – *rok*, *hit* – *xit*, *show* – *shou*, *TV* – *TV*, *bar* – *bar*, *bank* – *bank*.

Such differences are called “reverse transliteration” in linguistics.

By the late 20th – early 21st centuries, borrowings like “VIP”, “mass media”, “notebook”, “know-how”, “PR”, “second hand”, “offshore”, etc., appeared in both Cyrillic and Latin scripts in Uzbek.

Example from Uzbek automotive industry: *brands like Tico, Damas, Nexia, Lacetti, Matiz, Spark, Epica, Captiva, Malibu, Cobalt—all entered through cooperation with “General Motors”, enriching Uzbek technical terminology.*

Conclusion

The various forms of borrowed words depend on multiple linguistic and extralinguistic factors, including the recipient language’s cultural context, internal structure and the degree of contact with other languages.

Our research shows that borrowing foreign words into a language—when integrated in line with linguistic norms “does not deteriorate” the recipient language. On the contrary, it expands, rejuvenates and enhances it.

References:

1. Ильина Н.Е. Рост аналитизма в морфологии. // Русский язык конца XX . столетия (1985- 1995). – М., 2000.– С. 326-344.
2. Шмелёв Д.Н. Очерки семасиологии русского языка. – М., 2003.
3. Русский язык конца XX столетия (1985-1995). – 2-е изд. – М., 2000.б-175.
4. Longman dictionary of contemporary English. New edition. 2016
5. Ўзбек тили лексикологияси (жамоа). – Тошкент: «Фан», 1981. – 12 б.
6. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М., 1998.-56 с.
7. Источниками для примеров послужили исследования Ю.С. Сорокина [Сорокин 1965: 70-137], Л.П. Крысина [Крысин 1968], словари [ТСИС; МТЭС].
8. ТСРЯ-2: Толковый словарь современного русского языка. Языковые изменения конца XX столетия / Под ред. Г.Н. Складневской. 2-е изд-е. – М., 2001.
9. Денисова С.П. Глобализмы в ' языке¹¹-массовой^{1*} коммуникации // Русский язык: исторические судьбы и современность: II Междунар. конгресс русистов. Труды и материалы.– М.: изд-во МГУ, 2004. 430-с.
10. Дадабоев Ҳ.А. “Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси” модули бўйича ўқув – услубий мажмуа.–Т., 2016.34-б.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Erkin MUSURMANOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini mudiri
filologiya fanlari doktori (D.Sc.)
e-mail: alper25@mail.ru



MASHRAB VA QALANDARLIK TARIQATI

Annotatsiya: qalandarlik ta'limoti haqidagi ma'lumotlar Mashrabning ruhiy dunyosi, ma'naviy qiyofasini yanada aniq tasvirlab beradi. Mashrab faoliyatida tariqatning bir qancha jihatlari ko'rish mumkin: jumladan, yolg'on va xiyonatdan holi bo'lish, dunyoviy ne'matlardan voz kechish va jannat huzurlariga beparvo bo'lish; manmanlik va xudbinlikni sindirish, nafsga qarshi kurash kabilar.

Kalit so'zlar: *shoir Mashrab, qalandariya, tasavvuf, dunyoviy ne'mat, jannat, komillik.*

Аннотация: информация об учении религиозного течения (тариката) каландария более точно описывает идейный мир и духовный облик поэта Машраба. В деятельности Машраба можно увидеть несколько аспектов секты каландария: в том числе отрицание алчности и коварства, отказ от мирских благ и пренебрежение присутствием рая; преодоление эгоизма и т.д.

Ключевые слова: *поэт Машраб, каландария, мистицизм, земное благословение, Рай, совершенство.*

Annotation: information about the teachings of the religious movement (tariqa) of Kalyandaria more accurately describes the ideological world and spiritual appearance of the poet Mashrab. Several aspects of the Kalyandaria sect can be seen in Mashrab's activities, including the denial of greed and deceit, renunciation of worldly goods and disregard for the presence of paradise; overcoming selfishness, etc.

Key words: *Mashrab the poet, kalyandaria, mysticism, earthly blessing, Paradise, perfection.*

Qalandar va darveshlarni gohida sinonim tarzida keltirishsa-da, ular boshqa-boshqa tushunchalardir. Qalandarlar "qalandariya" tariqatining namoyondalari bo'lishsa, darveshlar ma'lum bir tariqatning emas, balki bir qancha maktablarning kezuvcchi vakillari hisoblangan. Jumladan, o'zlarini yassaviya, naqshbandiya, mavlaviya, qodiriya kabi tariqatlarga mansub deb bilgan darvesh jamoalari bo'lgan. Darveshlar qalandarlar kabi qo'rqmas, jasoratli, cho'rtkesarlik sifatlariga ega bo'lishmagan yoki o'z tariqatlari talablaridan kelib chiqib bunday sifatlarga ehtiyoj ham sezishmagan, ularning tashqi ko'rinishlarida ma'lum o'xshashliklar bo'lgan, xolos.

Mashrab bir qancha she'rlarida o'zini "qalandar" deb ataydi va qalandarlik haqida so'z yuritadi:

Qalandar Mashrabingman, ikki olamni tepib o'ttum,
Bihishtu huru g'ilmoning puchak pulg'a sotib o'ttum...

[1: 181]

Rahimbobo Mashrab ruhiy dunyosi uning qiyofasi singari nihoyatda serjilo va diqqatga molikdir. Mashrabning butun hayoti, ijodi va ma'naviy dunyosi qalandarlik ta'limoti ta'sirida shakllangan, desak xato qilmaymiz. Mashrab tug'ilishidan to qatligacha bo'lgan hayoti davomida mutasavvuf-qalandar sifatida talqin etilgan.

Qalandarlar o'zlarining qonun-qoidalariga, ruhoniylar boshqaruv silsilasiga, xonaqoh, qalandarxona, takyalariga ega bo'lishgan.

Ayrim manbalarda qalandarlarni abdul, deb ham atashgan.

Qalandarlar tariqati XI asrda Xurosonda vujudga keldi. Tariqat dastlab malomatiya maktabi bilan bog'liq holda faoliyat olib borgan. XIII asrga kelib Suriya, Kichik Osiyo, Misrda keng tarqalgan. Qalandarlarning asosiy talabi: Tangriga tavakkul qilish va dunyo ne'matlaridan, zeb-ziynatdan voz kechish.

Bu tariqat vakillari chiroyli, bejirim kiyimlarni inkor etishgan, odatda ular bosh kiyim sifatida kulohdan, ustki kiyim sifatida janda, dolqdan foydalanishgan, bellariga belbog' o'rab yurishgan. Belbog'larning har o'rami qalandarning tariqatdagi bosqichini belgilagan.

Boshqa barcha tasavvuf maktablari vakillaridan qalandarlar o'ziga xos, diqqatni jalb qiluvchi tashqi ko'rinishlari, rang-barang kiyimlari bilan keskin farqlangan. Jumladan, xirqa uzun yengli, janda kalta yengli bo'lgan, kafaniyning yengi va yoqasi bo'lmagan biroq bu kiyimlarning matosi mushtarak bo'lib, dag'al jundan, asosan tuya mo'ynasidan to'qilgan. Ayrim qalandarlar kiyimlariga turli yamoqlar solishgan, tumor

va temir taqinchoqlar osib yurishgan. Mashrab misolida aytish mumkinki, Turkiston qalandarlarida soch qo'yish rasm bo'lgan. Bunda soch qalandar bilan koinot o'rtasida robita vositasi sifatida bilingan.

Abdurauf Fitrat XV–XVII asrlarda yaratilgan bir qancha o'tmish manbalariga suyangan holda qalandalarning bosh kiyimlari haqida so'z yuritadi[2] va kulohning to'rt xili keng tarqalganligini ko'rsatib o'tadi. Bular: kuloh-amr, kuloh-ro'yat, kuloh-subhoni, kuloh-ota.

Qalandarlar jamoasi XX asr boshlariga qadar Markaziy Osiy hududida ham faoliyat olib borishgan. Shu jihatdan Fitratning ushbu ma'lumotlari ahamiyatli: «Qalandarliq musulmon tasavvufining sho'basidir. Bu maslak bizning o'lkamizda so'ng kunlarga davom qildi. O'zbekiston shaharlaridan har birining tashqarisida «qalandarxona» nomida bog' holiga keltirilgan bir joy bo'lar edi. Qalandarlar shu yerda turar edilar...Oralaridan eng yaxshi tovushlisi shu kuylarda Yassaviy, Mashrab kabi shoirlarning she'rlarini o'qur va boshqalari uning naqoratini qaytarib turar edilar. Oralaridan bir boshliqlari bo'lib, munga “bobo” der edilar. Tilanchilik chog'ida pulni shu bobolari terar va shundan ularni ta'min qilib turar edi”.[2]

Bosh kiyim masalasida Mashrab va uning maslakdoshlari qashqar muhitiga mos o'zgacha yo'l tutganlar. Ma'lumki, Mashrab Ofoq xo'ja saroyida yetti yil bo'lgan va pining talabi bilan “oqtog'lik”larga xos oq kuloh kiyib yurgan. Biroq bu bosh kiyim shoirning qaysi yoshigacha yo'ldoshlik qilgani aniq emas.

Biz Turkiston hududida faoliyat olib borgan qalandalarning qiyofasi haqida so'z yuritdik. Biroq qalandarlar mahalliy xalqlar tushunchalari va mentalitetidan kelib chiqib hududiy o'zgarishlarga qarab qiyofalarini ham o'zgartirishgan.

Ba'zi hollarda kezuvcchi qalandarlar qo'lida yog'och qilich, shuningdek, boltacha, kachkul, kadumatbah kabi kundalik hayot uchun zarur bo'lgan narsalarni yonlarida saqlashgan. Qalandarlar zarurat tug'ilganda boshqalar anglamaydigan, o'zaro muomalada ishlatiladigan so'zlashuv tili “abdol tili”dan ham foydalanishgan.

Ayrim qalandarlar maschidga tashrif buyurmayotganligi, namoz o'qimayotganligi, ro'za tutmaganligi va buning sababini ilohiy jamol visoliga erishish uchun doimiy harakatda ekanligini bildirganlari uchun rasmiy din vakillari tomonidan tanqid qilingan. Payg'ambarning “O'lishingdan oldin o'lgin” degan

ko'rsatmasini o'zlaricha talqin qilgan qalandarlar boylik yig'ishdan va uylanishdan tiyilishgan. Ular, asosan, jamoa bo'lib yurishgan, yakka holda faoliyat olib borish an'anaviy tus olmagan. Yolg'on va xiyonatdan chekingan qalandarlar hukmdorlar bilan do'stona munosabatda bo'lishni o'zlariga or bilishgan.

Zikr – qalandalarning asosiy mistik vazifasi hisoblangan. Zikr samo – qalandarlar va turli suluklarga mansub darveshlarning musiqa yordamida mistik holga erishish vositasi.

Keltiranimizdek, zikr ikki yo'l bilan amalga oshishi mumkin bo'lgan, ichda yod qilinadigan xufiy zikr va ovozi jahriy zikr. Qalandarlar jahriya zikrini aytishgan. Jahriya zikri vaqtida turli harakatlar, tomonlarga tebranishlar, shiddatli aylanishlar amalga oshirilgan. Vaqti-vaqti bilan talablarga mos maxsus kuy va qo'shiqlar ijro etilgan. Ijodkor qalandarlar bunday harakatlarga mos ravishda mistik lirikaning eng go'zal namunalarini o'ynoqi, sodda va xalq ohangiga mos, yengil vaznlardagi she'rlarni ijod qilishgan. Mashrab she'rlarining uslubiga ham aynan mana shu talab o'z ta'sirini o'tkazgan.

“Tarixi Rashidiy”da keltirilishicha: “So'fiylar tariqat ahlining kitob va risolalarida ko'rsatilishicha, zikr tushishning uchta usuli bor: zikri qalbiy, zikri xufiya (past ovozda), zikri jahriya (baland ovozda). Hazrat payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) zikri qalbiy bilan zikri xufiyani buyurganlar... Zikri qalbiy u mo'minlarning haqiqiy yetakchisi Hazrat Abu Bakr Siddiqqa va zikri xufiyani Hazrat Ali roziyallohu anhuga topshirganlar.

Zikri jahriyani esa taqvodor muhojirlar vaqt va xaloyiq talabi hamda ehtiyojiga qarab ixtiyor qilishgan. Ayrim maxsus holatlarda Muhammad payg'ambar baland ovozda zikr tushganlariga asoslanib, ular takbir va zikrni baland ovozda aytishgan, iydi Qurbon hayitida, masalan, shunday qilishgan”.[3: 583]

Jahriya zikrining yana “arra zikri” degan turi ham bo'lgan. Bunday zikr vaqtida qalandarning maxsus harakatlari va ma'lum kalimalarning qayta-qayta takrorlanishi natijasida tomog'idan arraning tovushiga o'xshash ovoz chiqq boshlagan.

Ayrim qalandarlar tushunchalarida ruhning bir jismdan ikkinchi jismga yoki hayvon, o'simlik tanasida ko'chib yurishiga ishonch mavjud bo'lgan. Bundan qalandarlikda buddizm, lamaizmning uchqunlari o'z aksini topganligini sezish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Девон. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 181-б.
2. Фитрат А. Машраб //Илмий фикр. 1930. № 1.
3. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2010. – 583- б.

Hafiza ASLANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
hafi@mail.ru



POSHSHOXOJA HIKOYATLARIDA ISKANDAR TIMSOLI

Annotatsiya: ushbu maqolada Poshshoxoja hikoyatlarida Iskandar obrazining o'ziga xos ifodalanishi tahlil etilgan. Unga ko'ra, Poshshoxoja ijtimoiy-siyosiy muhit masalasini Iskandar timsoli vositasida g'oyalarini yoritganligi haqida nazariy fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy muhit, adolatli shoh, hikoya, olam, inson, hayot, rivoyat, afsona, doston, ijod, g'oya.*

Аннотация: в статье анализируется уникальность воплощения образа Александра в повестях Пашшаходжи. В статье высказывается теоретическая идея о том, что Пашшаходжа через образ Александра освещает проблему социально-политической обстановки.

Ключевые слова: *социальная среда, справедливый царь, повесть, мир, личность, жизнь, повествование, легенда, эпос, творчество, идея.*

Annotation: this article analyzes the unique portrayal of Alexander in Paššahoja's stories. The article advances the theoretical idea that Paššahoja, through the character of Alexander, illuminates the socio-political situation.

Key words: *social environment, just king, story, world, personality, life, narration, legend, epic, creativity, idea.*

Poshshoxojaning "Miftohul-adl" va "Gulzor" asarlari XVI asr o'zbek-turkiy tilining ajoyib yodgorliklaridan hisoblanadi. Ma'lumki, Poshshoxoja XV asr oxiri va XVI asr so'nggi choragigacha yashab, ijod etgan bo'lib, bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayot ancha murakkab edi. XV asrning 80-yillari temuriylar o'rtasida davom etib kelayotgan urushlari ularning siyosiy kuch-qudratini zaiflashtirdi. Bu esa, Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining temuriylar davlatini o'zlariga bo'ysundirishlarini osonlashtirdi. Ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrda bosib kirishi Shayboniyxon nomi bilan bog'liq bo'lib, u o'zining dastlabki yurishini temuriylarga qarashli yerlarning shimoliy qismini istilo qilishdan boshladi. U Samarqandni o'zining poytaxti qilib, ukasi Mahmud Sultonni Buxoraga

noib etib tayinlaydi. Toshkent va uning viloyatlarini mo'g'ullardan tozalagach, u yerga amakilari – Suyunchxoja va Ko'chkinji Sultonlarni yubordi va Sulton Husaynning ulkan davlatini bosib olishga tayyorlana boshlaydi. Qattiq va dahshatli qamallardan so'ng Xorazm va Balx Shayboniyxonga taslim bo'ldi. Shundan so'ng Xurosonga qarab yurish boshladi.

Hirotning ishg'ol qilinishi natijasida temuriylarga qarashli yerlarning juda boy va madaniy qismi Shayboniyxon qo'lga o'tadi.

Xurosonning Jom, Astrobod shaharlari ham Shayboniyxonga tobe bo'lgach, Marv uchun bo'lgan jangda Shayboniyxon o'ldiriladi. Bu hol xon xonadoni a'zolari orasida katta sarosimalik tug'diradi. Shayboniyxondan so'ng dinastiya boshlig'i bo'lgan Suyunchxoja qarindoshlar

orasidagi totuvlikni tiklay olmagach, uning o'rnini Ko'chkinjixon egallaydi. Qipchoqlar Eron shohi Ismoil bosqinchiligiga chek qo'yib o'z davlatlarini barpo etadilar.

XV asr oxirlaridan Hirot O'rta Osiyoning madaniyat va adabiyot markazi sifatidagi mavqeyini yo'qota boradi. U yerda to'plangan ilm-fan, adabiyot va san'at ahli boshqa tomonlarga tarqalib keta boshlaydi.

Keyinroq Buxoro madaniyat markaziga aylana boradi. Endi bu yerda to'planayotgan yozuvchi va shoirlar Hirot maktabi an'alarini ma'lum darajada davom ettira boshlaydilar.

Mana shunday ijtimoiy-siyosiy vaziyat nihoyatda murakkab davrda yashab ijod etgan Xoja o'z asarlarida odob-axloq, insoniylik, halollik va mol-dunyoga hirs qo'ymaslik singari qator mavzularni turli timsollar vositasida badiiy talqin etadi. Muallifning odil shoh, adolatli qozi, rahmdil va odil hokim singari timsollari ayni shu siyosiy vaziyat sabab xalqning og'irini yengil qilishga, har doim adolatni shior qilishga da'vati edi, albatta. Shu sababli Xoja asarlarida odil shoh, adolatli hokim, qozi va dunyodan yuz burgan darvesh, shoh singari timsollar asosiy o'rin egallaydi. Jumladan, odil shoh timsolining badiiy ifodasi sifatida shoh G'oziy – Sulton Mahmud, G'aznaviy, Sulton Malik, Iskandar Zulqarnayn, No'shiravoni Odil va boshqa timsollar orqali jamiyatda shoh va amaldorlarning adolat bilan ish yuritishlari, xalq manfaatlarini himoya qilishlari juda chiroydi badiiyat orqali beriladi.

Masalan, "Iskandar va Chin hoqoni" hikoyasini olaylik. Iskandarning Chin mamlakatini olish uchun kelayotganini eshitgan Chin hoqoni urushning oldini olish uchun elchi sifatida Iskandar qoshiga boradi. U bilan yuzma-yuz kelgach, Chin hoqoni ekanligini bildirib, kelganining sababini aytadi. "Agar saning g'arazing men bo'lsam kelibman. Har na ko'ngling tilasa, andog' qilg'il. Agar mamlakat kerak bo'lsa, bor dag'i mamlakatni olg'il. Ehtiyoj urush va g'avg'o emas. Faqir-u miskinga zarar tegurmag'il". U bu so'zlarni eshitgach, hayron qoladi va hoqonning so'zlariga ishonmaydi. Shunda hoqon Iskandarning mamlakat ichkarisiga taklif etadi hamda "man lashkarimni boshlab sanga o'tro' kelayin, sanga ziyofatlar qilib peshkashlar

tortib, andoq podshohona asos mato' sanga nisor qilayin. Andin so'ng bilgilkim, manim so'zim rost tururmu yo yolg'on?" – deydi. Hoqon Iskandarning roziligini olgach, barcha askarlarini yig'ib, podshohona yarog'-aslahalarini kiyib, Iskandarga peshvoz chiqadi. Chin askarining o'zinikidan ham ko'pligini ko'rgan Iskandar o'z maqsadidan qaytadi va hoqondan Chinning bir yillik molini so'raydi. Hoqon rad javobini beradi, agar sizlarga Chinning bir yillik molini bersam, bu ihoysiz lashkarimga nima beraman, raiyatga zulm qilsam, gunohkor bo'lamen. Shuning uchun molni ikkiga bo'lib, yarmisini senga, qolganini o'z askarlarimga berayin, deydi va Iskandarni ziyofatga taklif etadi. Iskandar ziyofatga kelsa, bir chiroyli vodiya juda ko'p oltin va kumushdan yasalgan bo'sh idishlar qo'yilgan emish. Iskandarning – bularning oshi qani? – degan savoliga hoqon: "Sen osh topmaslikdan munda kelibmu erding. Senga g'araz jahongirliq va neknomlik turur. Bu tabaqlarni oldog'i har kima ko'ngling tilasa bergil. Osh ham ondin hosil bo'lur va vajh maosh ham" – deydi. Iskandar juda xijolat chekib qoladi.

Hikoyada Iskandar bosqinchi, o'zi va askarlari manfaatini ko'zlaydigan shoh sifatida tasvirlanadi. U o'z oldiga jahongirlikni vazifa qilib qo'ygan va shu maqsad uchun kurashadi. U hamma shohlarni ham o'zi kabi hisoblagani uchun urush va g'avg'oni, faqir-u miskinlarga zarar yetkazishini istamagan hoqon gaplari natijasida taajjubga tushadi. Hikoyada Chin hoqoni timsoli o'sha davrdagi shohlarga ibrat bo'la oladigan, ideallashtirilgan timsoldir. Hoqon xalqparvar shoh sifatida gavdalanib, o'z xalqi manfaati yo'lida Iskandarga ko'p jihatlar qarama-qarshi qo'yiladi. U mamlakatni tashqi xalqlardan saqlash uchun juda kuchga ega, lekin qon to'kilishini istamaydi va "Osh topmaslikdan" bunga kelmagan shohgi bo'sh oltin, kumush idishlar bilan mehmon qiladi va bu orqali Iskandar ustidan kuladi.

Hoqonning oqil va tinchliksevar xalqi – harakatigina Chini bosqinchilar changalidan, ochlik va yalang'ochlikdan qutqarib qoladi. Iskandar Chin hoqoni timsolida saodatli, oliyanob va adolatparvar shohni ko'radi. Hoqon xarakteridagi bu ijobiy xususiyatlar Iskandarni qon to'kish yo'lidan qaytaradi.

Nizomiy “Iskandarnoma”sida va Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Chin xoqoni Iskandarning tinchlik bilan sulh tuzishi badaliga katta tortiqlar bergan bo’lsa, Xoja hikoyasida Iskandar talab qilgan yillik xirojning ham yarmini to’lashga va’da berib, Chin yurtiga kelgan shohni bo’sh idishlar bilan “mehmon” qilib yuboradi.

Xojaning adolatli shoh va dunyodan yuz o’girgan zo’hid haqidagi hikoyasida ham ikkita xarakterli timsol mavjud, bular: odil shoh sifatida badiiy tasvir etilgan Iskandar Zulqarnayn timsoli va shahzoda gado timsolidir. Xoja bu qisqa hikoyatida ana shu ikki timsol orqali o’zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarinigina emas, balki falsafiy-ijtimoiy qarashlarini ham ifoda etadi.

Xoja hikoyatida tasvirlanishicha, Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga kelib, uning hokimini keltirishlarini so’raydi. Bu viloyat xalqi o’z hokimlarining bir devona ekanligi va go’ristonda maqom tutganligini aytadilar. Iskandar yuborgan birinchi kishiga shahzoda shoh bo’lishni istamasligini, Xudoga toat-ibodat qilib yashajagini bildiradi. Shunda Iskandar uning so’zlariga quloq solmay, olib kelishni buyuradi. Shahzoda bu safar qo’lida bir o’likning, ikkinchi qo’lida boshqa bir o’likning suyagini olib keladi. U suyaklarni Iskandarning oldiga qo’yadi va bu so’ngaklarning birisi podshoh so’ngagi, ikkinchisi gado so’ngagi ekanligini va shohga shularni farqlab berishligini

talab qyadi. Iskandar esa, churun so’ngaklarni qanday farqlab olish mumkin? – deb hayron bo’ladi. Shunda devona: o’lgandan so’ng bularning farqi bo’lmas ekan, unda podshohlikdan maqsad nima? – deb javob beradi.

Iskandar devona aqliga qoyil qolib, unga shodlikni tavsiya etadi. Devona esa, shohdan buning evaziga to’rtta narsa berishni so’raydi: Avval bir tiriklik bergilkim, aning so’nggida o’lum bo’lmasun; va yana bir yigitlik bergilkim, aning so’nggida qarilik bo’lmasun; va yana bir g’aniylik bergilkim, aning so’nggida faqirlik bo’lmasun, taqi bir shodlik bergilkim, aning so’nggida g’amginlik bo’lmasun, deydi. Iskandar bu to’rt nimani berolmasligini, buni Oллоh taolo berishi mumkinligini aytadi.

Hikoyadagi asosiy timsollar Iskandar Zulqarnayn va darvesh timsollari bo’lib, bu ikki timsol asosida Xoja o’zining butun qarashlari – falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-diniy singari shaxs va ijodkor sifatidagi yuksak qarashlarini badiiy aks ettirgan. Hikoyada o’ta falsafiy-diniy g’oya asos qilib olingan. Olam uning yaratuvchisiga tegishli – u insonga qanday taqdir, qanday qismat yozsa, shu bo’ladi. Inson zotiga esa, cheklangan umr, me’yordagi ehtiyoj va o’tib ketadigan yoshlik berilgan. Demak, inson o’ziga berilgan barcha ne’matlarga faqatgina shukur qilib yashashi va hayotni – umrni qadrlashi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зоҳидов В. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” ҳақида. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Т., 1961.
2. Иброҳимов А. Ҳожа ҳаёти ва ижоди ҳақида баъзи маълумотлар. “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Т., 1965.
3. Мирзаахмедова М. Хожа. – Тошкент: Фан, 1975. 35-45-бетлар
4. Мирзаахмедова М. Подшохожа ва унинг “Мифтоҳул – адл” ҳамда “Гулзор” асарлари. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. – Тошкент, 1966. Б- 5.
5. Пошшоҳўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” дан парчалар”. Нашрга тайёрловчи Зоҳидов. В, Фаниева С. – Т., 1962.

AJINIYOZ IJODIDA AN'ANAVIY OBRAZLAR BADIYYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Ajiniyoz ijodida an'anaviy obrazlar badiiyati mavzusi keng qamrovli yoritilgan bo'lib, muallif, avvalo, poetik obraz tushunchasining estetik va ruhiy-psixologik mohiyatini, uning she'riyatdagi o'rni hamda badiiy kuchini nazariy jihatdan tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: poetik obraz, an'anaviy timsollar, Ajiniyoz, qoraqalpoq adabiyoti, badiiy yangilanish, lirik "men", ramziy obraz.

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the artistry of traditional images in the works of Ajiniyoz. The author primarily examines the aesthetic and psychological essence of the poetic image, its role in poetry, and its artistic power from a theoretical perspective.

Key words: poetic image, traditional symbols, Ajiniyoz, Karakalpak literature, artistic renewal, lyrical "I", symbolic image.

Аннотация: в данной статье всесторонне раскрывается художественность традиционных образов в творчестве Ажинияза. Автор прежде всего теоретически анализирует эстетическую и психологическую сущность поэтического образа, его место в поэзии и художественную силу.

Ключевые слова: поэтический образ, традиционные символы, Ажинияз, каракалпакская литература, художественное обновление, лирическое «я», символический образ.

Kirish. She'riyat inson qalbining eng nozik, eng teran qatlamlariga kirib boruvchi, his-tuyg'ular, kechinmalar, ichki iztirob va ruhiy holatlarning badiiy ifodasiga aylangan yuksak badiiy san'at turidir. U boshqa san'at turlaridan o'zining estetik jozibasini, poetik nafasini va ayniqsa, obrazlilik darajasi bilan ajralib turadi. Zero, she'r shakli va mazmun uyg'unligiga tayanar ekan, uning chinakam badiiy kuchi lirik "men"ning ichki olamida, insoniy ruhning ifodalanishida, obrazli tafakkur orqali gavdalanadi. Bu holat she'riyatni so'z san'atining eng murakkab, shu bilan birga, eng nafis va ta'sirchan ko'rinishiga aylantiradi.

Shu bois she'riyatda obraz badiiyati, uning tabiati, poetik mazmun bilan bog'liqligi adabiyotshunoslikning doimiy tahlil va tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Xususan, V.G. Belinskiy "Poeziya ko'ngilga obrazlar bilan so'zlaydi va shakllari qurilishida tovlanib turgan go'zallik ifodasining mohiyatidir"¹. "Poeziya tavsiflar bilan emas, balki kartina va obrazlar bilan so'zlashi kerak; Poeziya buyumni tavsif etmaydi va undan

nusxa ko'chirmaydi, balki uni yaratadi..."² deb ta'kidlaydi.

Metodologiya. Poeziyada so'zning poetik xususiyatlari va obrazlilik masalalarini ilmiy-nazariy asosda chuqur tadqiq etishda jahon adabiyotshunosligi tajribalari, xususan, M.M. Baxtin, Y. Lotman, A.A. Potebnya, L.I. Timofeyev kabi taniqli olimlarning nazariy qarashlari muhim o'rin egallaydi. Ular poetik til, badiiy obraz, semantik qatlamlar, matnning ichki tuzilmasi, poetik konnotatsiya singari masalalarni o'rganishda mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada turkiy xalqlar adabiyotshunosligida, xususan, o'zbek adabiyotshunosligida ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.Sabriddinova³ Oybek she'riyatida so'z va obraz munosabati, D.Rajapova⁴ 70-80-yillar she'riyatida badiiy obraz va ritmning o'zaro

1 Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Фофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. Б. 103–104.

2 Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Фофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. Б. 103–104.

3 Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1955. Б. 213.

4 Сабирдинов А. Ф. Ойбек шеърлятида сўз ва образ: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 1993. 138-б.

munosabati, U.Xodjamqulov⁵ Mirtemir lirikasida poetik obraz badiiyati, I.Qurbonboyev⁶ 90-yillar o'zbek she'riyatida obrazlilik masalasiga doir tadqiqotlar yaratilgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida ham obraz badiiyatiga doir salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, K. Xudaybergenov⁷, Q. Orazimbetov⁸, B. Genjemuratov⁹, Q. Jarimbetov¹⁰, P. Dabilov¹¹ kabi olimlarning tadqiqotlari obraz poetikasi masalalarining o'rganilishi jihatidan ahamiyatlidir. Ushbu olimlarning tadqiqotlari qoraqalpoq poeziyasining badiiy shakllanishi, mazmuniy yo'nalishlari, lirik qahramonning ruhiy olami, poetik tafakkur xususiyatlari, poetik matnda so'z va obraz uyg'unligi, ularning ruhiy-estetik darajada shakllanishini o'rganishga qaratilgan.

Tahlil. Barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi XIX oxiri va XX asr boshida jamiyatda yuz bergan ijtimoiy hodisalar qoraqalpoq adabiyotida ham o'z izini qoldirdi. Ayniqsa, XIX asrdagi qoraqalpoq adabiyotini o'rganganda tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hodisalarni hisobga olish lozim.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qoraqalpoqlar O'rta Osiyo, xususan, Xorazm madaniyatiga, siyosiy, iqtisodiy hayotiga zich bog'landi. Bu holat esa o'z navbatida, madaniyatlarning tutashuviga, adabiy ta'sirning kuchayishiga olib keldi. Sharq adabiyoti klassiklaridan ilhomlanish, ularga ergashish va o'ziga ustoz deb bilish an'anaga aylanib bordi. Berdaq va Ajiniyoz ijodida Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Maxtumquli asarlariga murojaat qilish

yoki o'z asarlarida ularning nomlarini tez-tez tilga olish holatlari uchraydi:

Dunyodan o'ldilar necha ming olim,
Qalblarga zarb berdi mehrsiz zolim.
Fuzuliy, Firdavsiy dunyoga ma'lum.
Ular ham o'ldilar, ey foniy, sendan.

Ajiniyoz asarlarini o'qir ekansiz, Navoiy ijodida mavjud bo'lgan Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Zulayxo, Hotam toy, Horun ar-Rashid kabi obrazlardan keng foydalanganini ko'rishimiz mumkin:

Bordur ayol-qizlari qoshlari kamon,
Yuzini taqqos etsam xurshidi jahon
Uni ko'rganlarning aqli ham hayron
Layli, Zulayxoday hurlari bordur. (Bordur)

Layli va Majnun, Farhod va Shirin obrazlari Navoiy ijodida badiiy yuksaklikka ko'tarilgani bois Navoiydan keyin yashagan barcha turkiyzabon ijodkorlar uchun ilhom manbai, tuyg'ularining badiiy libosi vazifasini bajarishga xizmat qildi:

Alloh soldi bunday yo'lga
Hech kimsadan qilmang gina
Majnun kabi chiqib cho'lga
Qolibman giryon ichinda. (Maydon ichinda)

Albatta, Ajiniyoz Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari bilan yaqindan tanish bo'lgan. Bu uning yozgan she'rlarida yanada aniq ko'rinadi. Shoir ayrim she'rlarida Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" va "Saddi Iskandariy" asarlarini o'qiganligi haqida ham yozadi. Masalan, "Armonli dunyo" she'rida:

Layli kabi ishq otiga ko'ndirding,
Meni Majnun qilding armonli dunyo.

– deb Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonini esga olgan bo'lsa, "Bordur" she'rida:

Iskandar Zulqarnayn kabi davronli,
Hazrati Sulaymon kabi farmonli

– deb yozib, Navoiy yozgan Iskandar obraziga ham katta e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nasrida "Qarun boy", "Luqmoni hakim" haqida bir qancha hikoyatlar bor. Bu hikoyatlar Navoiy qo'lyozmalari asosida bizga yetib kelgan. Ajiniyozning she'rlarida ular haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan:

Dunyoni jamlagan Qarun.
Bir o'zi bo'lib sohibi dun,
Oni ham yer yutti bir kun;
Zindan dunyo quyon yo'qdi

5 Ражапов Д. З. Бадийий образ ва ритмнинг ўзаро муносабати. (70-80-йиллар ўзбек шеърятини мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Бухоро, 1998.

6 Ходжамқулов У. Н. Миртемир лирикасида сўз ва образ: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 2004.

7 Қурбонбаев И. 90-йиллар ўзбек шеърятини образлилиқ: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 2005.

8 Худайбергенов К. Лирика ҳам омир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971; Мурадбаев Қ. Қарақалпақ поэзиясында қосық қурылысы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.

9 Оразымбетов Қ. Ҳазирги қарақалпақ лирикасында көркем излениўшилиқ. – Нөкис: Билим, 1992; Usı avtor. Ҳазирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳам типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004.

10 Генжемуратов Б. Әжинияз лирикасының поэтикасы. – Нөкис: Билим, 1997.

11 Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳам раўажланыў тарийхи. – Нөкис: Билим, 2004.188-б.

Yoki:

Qarun ko'zi dunyo moldan to'ymadi
 Luqmon hakim ming yilgacha o'lmadi.

– deyilgan qatorlar orqali Alisher Navoiyning mashhur qahramonlari, dunyoga ko'zi to'ymagan ziqna boy Qarunning oxirida ko'zi tuproq bilangina to'yanini bilsak, odamlarga yaxshilik qilgan Luqmoni hakimning bir necha ming yillardan beri yashab kelayotganini ko'ramiz.

Aynan shu davrdan boshlab qoraqalpoq adabiyotida ham didaktik ruh ustuvorlik qiladi. Masalan, Berdaqning “Xalq uchun”, “Yaxshiroq”, “Kim aytadi”, “Qachon rohatlanasan”, Ajiniyozning “Kerak”, “Nasihat”, “Bo'lurmi” kabi asarlari shu ruhga mansub bo'lib, xalq orasida ommalashadi. Xuddi shu obrazlar qoraqalpoq adabiyotida ham jamiyatda yuz berayotgan hodisalardan nolish, adolatsizlik va haqsizlikni aks ettirish uchun xizmat qilgan.

Bulbul fig'on etgan bog'lar
 Oshiq bo'lgan tinmay yig'lar
 Ko'kni kezgan qarg'a-zog'lar
 Ne bilsin gulning qadrini.

Ijodkor o'z tuyg'ularini ramzlarga o'rab tasvirlash jarayonida badiiyatning o'ziga xos ko'rinishini hosil qiladi. Ramz badiiy poetikaning eng oliy ko'rinishini hosil qilishi bilan bir qatorda ijodkor badiiy maqsadini ham o'ziga xos tarzda ifodalaydi.

Umuman, XIX asr qoraqalpoq adabiyotining mazmuniy yangilanishi, badiiy jihatdan yuksalishi, shuningdek, folklor va jahon adabiyoti an'alarining bir nuqtada sintezlashuvida Ajiniyoz ijodining o'rni alohida ahamiyat kasb

etadi. Ajiniyoz o'z asarlari bilan qoraqalpoq xalqining ruhiy dunyosini va o'zi mansub davrning badiiy qiyofasini aks ettira olgan ijodkordir.

Ajiniyoz she'riyati misolida bu holat yorqin namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida oy, oftob, yulduz, kabi obrazlar tashqi tasvir emas, balki ichki ruhiy holat, falsafiy umumlashmalar sifatida gavdalanadi. Bu obrazlar shoirning estetik konsepsiyasini, ruhiy dunyosini, zamonga, jamiyatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Adabiyotshunos U. Hamdamov ta'kidlaganidek, bunday obrazlar “ko'ngil faoligi mahsuli” sifatida yaratilgani bois, ular universallik, zamon va makondan ustunlik xususiyatiga ega.

Xulosa. Ajiniyoz ijodining badiiy mohiyatini anglashda poetik obrazlar tizimi alohida o'rin tutadi. Uning she'riyati o'ziga xos obrazlilik, ramziy ifoda, majoziy tafakkur va falsafiy umumlashmalar orqali boy badiiy makon yaratgan. Shoir an'anaviy obrazlardan – Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Qarun, Luqmon, Iskandar, hilol, oy, bulbul, gul kabi timsollardan foydalanar ekan, ularni faqatgina klassik merosga ehtirom sifatida emas, balki o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolarini ifodalashga xizmat qildirishga muvaffaq bo'lgan. Shoir yaratgan obrazlar jamiyatdagi adolatsizlik, ma'naviy tanazzul, milliy o'zlik iztirobi, ozodlik intilishlari, ruhiy kechinmalar va shaxsiy mushohadalarni ifoda etuvchi badiiy vositaga aylanadi. Ayniqsa, oy, hilol, bulbul, gul singari an'anaviy obrazlar shoir dunyoqarashi bilan uyg'unlashib, zamonaviy ijtimoiy-estetik mazmun kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Эжинияз Қосыбай улы. Тангламалы шығармалары. Баспа-и таярлаганлар: Бабаш Исмаилов, Сарсенбай Абдуллаев. – Нөкис, Қарақалпақстан, 1960, – Б. 180.

2.Эжинияз Зийўар. Танламалы шығармалары. – Нөкис, Қарақалпақстан, 1988, – Б. 152. // <https://oyina.uz/kiril/article/294>

3.Мәмбетов К. Эжинияз. – Нөкис, “Билим”, 1994, – Б. 148.

4.Рустам Мусурмон. Айт Ажиниёз қўшиқларидан”. – // <https://oyina.uz/kiril/article/294>

6.Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хәм раўажланыў тарийхы. Монография. – Нөкис: Билим, 2004.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
faxriy ustози

YANA "QARO KO'ZUM" G'AZALINI O'RGANISH TAJRIBASIDAN (Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqola dars ishlanma shaklida yozilgan bo'lib, unda A. Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalining sharhi hamda bu darsni o'tish metodlariga misollar keltirilgan.

Kalit so'lar: qorako'z, rind, rindona, mardum, jon.

Annotation: this article is written in the form of a textbook, which contains the commentary of A. Navoi's gazelle "Qaro ko'zum" and examples of methods of conducting this lesson.

Key words: dark-eyed, libertine, voluptuous, people, soul.

Аннотация: данная статья написана в виде учебника, в котором содержится комментарий газели А. Навои "Qaro ko'zum" и примеры методики проведения данного урока.

Ключевые слова: чёрноглазый, грустный, печальный, человек, душа.

Tasavvufda dunyoni anglash va kamolotga yetishning o'ziga xos yo'li mavjud. Bu falsafada olamning yagonaligi tan olinib, uni tushunish uchun ayrim nazariya va qarashlar yuzaga kelgan. Ular bu ta'limotdagi **juz' va kull, vahdatul-vujud, vahdat, tavhid, tajalliy, mazharlanish, hol, sukra, sahv, hulul** kabi jarayonlarda o'z ifodasini topgan.

Ushbu maqolada tasavvufga tayangan holda Alisher Navoiyning mashhur "Qaro ko'zum" g'azalini so'fiyona tahlil etishni maqsad qildik.

Barchaga ma'lumki, g'azal quyidagicha boshlanadi:

**Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.**

Ushbu matla'dagi qaro ko'z birikmasini qanday anglash mumkin? U insonmi yoki ilohiy xilqatmi degan savollar tug'iladi.

Agar g'azalning suvrat (zohiriy, majoziy) ma'nosiga boqsak, u zaminiy yor, ya'ni qiz timsoli. Agar bobomiz fikridan kelib chiqib "ma'ni ahli ma'noga boqar" deb, g'azalning siyrat (botin, haqiqiy, so'fiyona) ma'no qatlamini tahlil qilishga harakat qilsak, unda qorako'z samoviy Yor, ya'ni Yori azal timsoli ekaniga ishoratlar borligini his qila boshlaymiz.

Buning uchun qora ko'z birikmasining ma'no tuslarini ko'rib chiqaylik. Avvalo qaro so'zi, o'zining bir qator salbiy ma'nolaridan tashqari, Sharqda bir qancha ijobiy ma'nolarga ham ega ekanligini hisobga olaylik.

She'riyatda sochning, qoshning, kiprikning ko'zning, xolning qoraligini ta'kidlash uchun (ba'zan esa qora so'zi o'rnida "hindu bachcha", "lo'li", "lo'livash" kabi so'zlar ham qora so'zining mazmunini beradilar), qo'llanadi. Yana qora mukammallikni, kamolotda yetuklikni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Tasavvufda esa qorako'z birikmasi eng qora, qora nuqta, taxayyuliy jamlik, tavhid ma'nolarini bildiradi. Ko'z so'zining o'zi ham tabiiy qoraligidan chiqib kelinsa, qora, tim qora ma'nosini anglatadi. So'fiylikdagi qorako'z o'n sakkiz ming olamni bir nuqtada jam ko'rib va his qilib turuvchi orif ko'ngil (Suqrot kabi) mazmunini ifodalaydi.

Bularni anglash uchun tasavvufdagi juz' va kull tushunchalaridan bir og'iz xabardor bo'lmoq darkor. **JUZ' bu – xususiylik, yakkalik, kasrat. KULL – umumiylik, vahdat, tavhid, jam. Jamiki ashyolar, hodisa va sifatlar yakkalik, alohidalik hamda umumiylik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Yakkalik va umumiylik o'zaro zid va ayni vaqtda o'zaro mutanosib kategoriyalardir. Yakkaliksiz umumiylik va umumiyliigi bo'lmagan yakkalik yo'q. Har bir yakkalik (juz')da umumiylik xususiyati mavjud, tabiiy ravishda umumiylik yakkalik xususiyatlarining jamidir. Xullas, tasavvufda inson ruhi ham, olam ashyolari ham juz – kasrat bo'lsa, Mutlaq ruh (tangri) – Kull (vahdat) deb ataladi. Demak, juz Kullga qo'shilsa, u ham kull (jam) bo'ladi.**

Kasrat vahdat-ul – vujud tusini olganda tavhid (ilohiy birikish) yuz beradi. Shu ma'noda inson ruhi ham kull (jam) bo'la oladi, chunki u ruhi a'zamning juz'i (bo'lagi)dir. Bu jarayon tasavvufda vahdat-ul – vujud yoxud tavhid so'zlari bilan ayonlashadi. Ana shu tavhid (vahdat) – vojib-ul – vujudni anglash, taxayyuliy mushohada qilish, olamni yagona bir nuqtada jam (kull) tasavvur qilish xayoloti va shuuri she'riyatga qarog', nuqta, qorako'z, nuqtayi tavhid, nuqtayi savod, tavhid, mardumak, analhaq, vahdat tushunchalari orqali bayon qilinib kelingan. Navoiy shunday yozadi:

Nuqtayi tavidni bilgan(kishi) qila olmas bayon.

Kim bayon qildim desa, bilginki, qilmaydur bilib...

Mana shu bilib bayon qilishi oson kechmagan hol va taxayyul, sukra hamda sahv shuurini ayonlashtiruvchi bir she'riy timsol, bu qorako'z qo'shma so'zidir. Qorako'z – tavid nuqtasi, kull – taxayyuliy ayshning eng quyuq va junbushning yagona nuqtaga jamlangan maqomi, kasratning vahdat tusini olishidir. Buni mukammal anglash uchun kitobxonda "ko'z savodi" bo'lishi kerak. Hazrat Navoiy yozadilar:

Kechib ko'zdin yozay bir xatki, dahr ahliga ko'z solmay,

Bu damki, ko'z savodidin qaro ko'zdin davotim bor.

Misralardagi "ko'zdin-kechish" o'zlikdan kechish, zohir (tashqi) nafs ko'zidan kechishni anglatadi. "Dahr ahliga ko'z solmaslik" esa dunyo ashyolari ta'masidan kechish, nafs va tananing domlaridan qutilishdir.

"Ko'z(qaroligi) savodi" – botin, qalb, ko'ngil, ma'naviyat ko'zining ochilishi. O'zlikni topish va anglash. Olamning yagona (vahdat)ligini tushunib yetish, nuqtayi savod.

"Qorako'z davoti" – nuqtayi tavid, nuqtayi savod, olamni jam ko'rish ma'rifati. Mana shunday "ko'z savodi"ga va tahayyul mushohadasiga ega "foniyvash" (nafsni yenggan) kitobxongina "Qorako'z" dargohiga "shuuriy sayr" qila oladi:

Uruj istar esang bu dayr ichinda foniy o'lg'ilkim,

Malak uzra qadam bosib o'tar ahli fano gustoh.

Malakut olami ichra taxayyuliy keza oluvchi orif she'rxongina Qorako'zning ma'nosini to'liq anglab yeta oladi. Ana endi yuqoridagi izoh va sharhlardan so'ng matla'ning nasriy bayonini kuzatib ko'raylik:

Ey Qorako'z, mardum(mazhar)lanib odamgarchilik udmini ham egalla.

So'ng ko'zim qorachig'iga kirib, gavhar kabi o'rnashib olsang qaniydi-ya.

Bu odamgarchilik fani – rasmi (odati)ni taklif qilish oshiqning Husni mutlaq visoliga bo'lgan umid hosilasi, mehr ko'zda deyishadi.

Ko'z qorachig'ida mardum (gavhar) kabi vatan tutib(barqlanib) o'rnashib olishni tasavvufdagi tajalli nazariyasi ochadi. So'fiy solik mazharlanish va tajalli maqomida qayon boqmasin: bari(oshyo)da faqat Yor (Alloh) zuhuri (in'ikosi)ni ko'radi va taxayyul qiladi.

Shunday qarog' – qora ko'zlardan Qorako'zga tikilgan oshiq so'zsizki: (2-bayt.)

**Yuzing guliga ko'ngil ravzasin yasa gulshan,
Qadding niholiga jon gulshanin chaman qilg'il,**

– deydi-da...

Qarshisida tajalli berayotgan mazharga boqib ko'zlarida Nur (in'ikosi) kabi o'rnashganidan shod bo'lgan, bog' bo'lgan ko'ngil (jilvagoh) Allah Yuzi guli (kull)ga gulshanu (mazhar o'rni) bu quvonchdan ravza (vujud)ga aylangan Jon (ruh) Qorako'z "qaddi niholi"ga(juz') chaman (tana) bo'lishdan xushnud bo'lishi tabiiy-da...

Xullaski, "ko'z savodi" bor kishi 3ta ko'zni anglab yetadi. Birinchisi – zohir (nafs) ko'zi. Oshiq undan tezroq kechish, qutilish tarafdori. Ikkinchisi – botin ko'zi. U faqrlik martabasi. Ovqati ma'naviyat va irfon bo'lgan ochlik. Dil ko'zining, qalb chashmasining ochilishi. Uchinchisi – Qorako'z, vahdat ul-vujud. Vahdat – nuqtayi(savod) tavid.

Olamni kull – shaklda, bir qora nuqtada jam ko'rish va tasavvur qila olish idroki – irfoniy madaniyat va komillikdir.

Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la.

Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

G'azalning uchinchi baytidagi **takovarni** jonivor, ya'ni **majoziy ot deb tushunmaslik lozim**. Bu "ot" – tajalliy samandir. Bu chopqir "ot" inson ko'nglida tajalli berib, partav soluvchi samand. Tajalli suvoriysi o'z xalifasining **ko'ngil ka'basini "mahzani irfon" qilib, ul kulba(nur)ga "o'zin pinhon" qilish** uchun tobadondan tushgan nurday shu'la bermoqda. Yonida esa sodiqlik va vafodorlik ramzi bo'lgan hamroh(farishta) – it ham bor. Endi solik (juz') ham o'z sadoqatini ifodalash maqsadida mana shu Yor-u azalning farishta kabi iti bo'lish uchun o'zining g'amzada jon ipini bo'yinbog' uchun o'ziga-o'zi berishga irfoniy rozi.

Ko'ngliga llohiy nur partav va barq solgan oshiq (tan) xonu mondan, kavnu makondan voz kechib, g'amzada jonini taslim qilishga tayyor solikdir.

Shoir to'rtinchi baytda yozadi:

**Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qmlg'il.**

Shoir bu baytda talmih san'atidan foydalangan. Ya'ni "ko'hkan" tog' yo'nuvchi, to'g'rirog'i Farhoddir. Majoziy (zohiriy) ma'noda Sharq dostonchiligida ma'lumki, Farhodning ishq yo'lidagi g'ovlaridan, og'ir shartlaridan biri tog'ni yo'nib o'yib suv keltirish sinovidir. Bu sinov mashaqqatli bo'lib, bu sinovdan o'tishda ko'plab oshiqlar qurbon bo'lgan, jismi xokka aylangan. Farhod uchun suvni keltirguncha bo'lgan kunlar va daqiqalar ayriliq – firoq damlaridir. Shu ma'noda bu tog' (kesish) firoq tog'idir.

Farhod (oshiq) shu yerdagi qari hamrohi falakka: "Agar men ham o'zga oshiqlar singari bu yo'lda jon fido qilsam, xoki g'uborimdan, yana albatta ko'hkan yasagin", – deb iltijo qilmoqda. Chunki o'shagina qadim qissa-yu rivoyat hamda dostonlardagi kabi har qanday riyozatdan bosh tortmay ishq yo'lida so'zsiz yana tog' o'ygan bo'lur edi.

Tasavvufiy (haqiqiy) talqinida esa solik yo'lidagi to'siqlar – nafs, tan va dunyo. Bularni yengish ko'hkan kabi tog' yo'nish-u o'yishdan o'n chandon ortiq riyozat. Kajraftor charx domiga tushmay halifalik to'ni (duvvoj, tan) va aql tojiga munosib bo'lib yashash riyozati, dunyo ta'masiga berilmaslik kabilar oshiq yo'lidagi to'siq (balo) – sinov, ya'ni "firoq tog'i"dir. Vujud oldilagi ko'hiqof kabi ayriliq tog'idan biri esa Nafsdir.

Navoiy beshinchi baytda:

**Yuzung visodiga yetsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin-ayog' chin ila shikan qilg'il,**
– deydi.

So'fiylikdan ma'lumki, nafs, tan, olam oshiq yo'lidagi g'ovlardir. Qachonki solik ulardan voz kechib, o'zligini anglagandagina ma'shuqqa yetishi mumkin. Misrada soch so'zi bor, uning sinonimi zulfdir. Tasavvufda **zulf** – beqaror, **o'zgaruvchan olam timsoli**. Endi shu so'zni misraga joylab o'qib ko'raylik:

Yuzing visoliga yetsin desang ko'ngil (jon)larni olam (soch)ni

Boshtin-ayog' (oxirigacha) chin ila shikan qilg'il.

Endi fikr bir oz oydinlashdi. Oshiq ko'ngul (ruh)larni yuzing visoliga yetsin desang, bu bevafo, buqalamun dunyoni ostin-ustun (ayqash-chuyqash, chigal,) yo'q qilib buzib yubor, kunfayakun qil. Chunki u oshiqlar yo'lidagi to'siq (balo)dir, demoqda ekan.

Bu yerda so'z (harfiy) o'yin orqali yana bir ma'no kashf etish ham mumkin. Navoiy "olam (zulf, soch)

ni boshdan-oxirigacha" deyishi mumkin edi, negadir **ayog'** so'zini qo'llaydi. Ayog' esa may, qadah so'zining sinonimidir. Xullas, ana shu ayog' (may) ilohiy nur, irfon timsoli hisoblanadi. Shunga tayanib, misrani quyidagicha tushunish ham mumkin:

Yuzing visoliga yetsun desang ko'ngul(ruh)larni,

Olam (soch)ni boshidanoq (azaldan) oyog' (irfon) ga burkab (chin – o'rib; shikan – jingalaklab) yaratishing lozim edi, yo'qsa:

Gar budir olam kishi (oshiq)ga mumkin emas anda kom (visol).

Bu visol ilohiy vahdatdir. Buni misradagi **ko'ngillar** so'zi tasdiqlaydi. Agar shoir bir oshiq yigitni nazarda tutganida *ko'ngil* tarzida birlik sonda qo'llagan bo'lur edi. Shoir ko'plikda "ko'ngullar"ni deganda insonlar, ular qalbidagi ilk mabda'dan ajralgan (juz') ruh (jon) larni murodda tutgan. Ya'ni bulbul gulistonga oshiq bo'lib, undan ishqiy bahra olganidek, Ko'ngil (inson) ham Haq sirlariga oshiq bo'lib, bu o'ziga xos poklik qo'rg'onining ma'nolar olami va irfoniy go'zalligidan bahramand bo'lishga intiladi. Jannatdagidek yoqimli hid ufurib turuvchi bo'ston ham – Ko'ngil. Tajalli (haqiqat zuhuri) chirog'ining nuri aks etuvchi ko'zgu (mazhar) ham – Ko'ngil. Shul bois haqni idrok qilgan Ko'ngil ma'rifat nuriga ham manzil va ham manba bo'la oladi. Shoir **ko'ngullarni** deganda ana shunday qalb egalari bo'lgan oshiqlarni e'tiborda tutganligi shubhasiz.

Alalxusus, Navoiy bobo Qorako'zga: "Oshiqlaring visolga yetsun desang, dunyoni buzib maqsad (kom)ga muvofiq qilib yarat yoki olamni irfon (ilohiy ma'rifat)ga makon qilib qo'y, yoxud ko'ngil ilohiy ruh maxzani ekan, uni o'z niyatiga yetkazish uchun soching (nur)ni dorbozning narvonli arqoni kabi solik ko'ngillarga yordamga tashlab, oshiq inson (ko'ngil)larni o'zing dargoh (Arsh kursi) ingga yetkaz," – demoqdalar ekan.

Navoiy oltinchi va yettinchi baytlarida yozadilar:

**Xazon sipohiga, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.**

**Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.**

Zohiriy mazmunda oltinchi baytdagi tom so'zini devor, to'siq, qo'ra, g'ov ma'nolarida anglash mumkin. Lekin uni tom, ya'ni uyning ust qismi – tomi

ma'nosidagi kabi tepasini, ustini mazmunida ham anglash mumkin.

Shunda u ikkinchi baytda bayon qilingan Inson yuzi guli va qaddi niholi yodidan vujudga kelgan **Ko'ngil ravzasi** (bog'i) nomli ma'naviyat gulshani va chamanzorining **aksi bo'lgan, muvaqqat va moddiy** (foniy) **bog'ning ustini bildiradi**. Bu bog' tomi (tepasini) har qancha urinib o'rab berkitilmasin, baribir azaliy va abadiy hukm hamda nizom ostida kirib keluvchi voqeliklar mavjud. Ulardan biri xazon (kuz), yana biri esa shabnam (shudring)dir. U odatda gulga kechalari, ya'ni o'z oshig'i bulbuldan ayru tushgan vaqtda qo'nadi. Tongda esa ayriliq azobi va iztiroblarini ifodalovchi marjonlar kabi o'zligini namoyon qiladi. Ana shu abru nayson hadyalari kabi jimirlab, qaltirab turgan tomchilar – gul yuzidagi suvlardir. Ya'nikim: gul va ob (gulob). Shu ma'noda misrada kelguvchi quyidagi tashbehlar diqqatga sazovordir: Yuz (chehra) – GUL. Ter (tomchi) – OB (shabnam).

Haqiqatan ham adabiyotda ko'pincha qiz husni (yuz) gulga qiyos qilinadi. Ushbu taqqoslardan so'ng shunday dunyoviy sharh yuzaga keladi: **“Ey do'stim, qora ko'zli nigorimni mendan ayriliq va hajrdagi tunlaridan so'ng qalbidagi sog'inch hamda muhabbat tufayli gul usti (yuzi)ga qo'ngan tomchi suvlar singari yuzini bosgan ibo terlarni ko'rib, quvonchdan jon bersam, ana shu ter – guli oblargay yuvgin.”**

Gul bargi nima? Demak, gulbarg yor (qiz) yuzi bo'lgach, farazan **novdadagi yashil gulbargi** – yaproqlari uning kiyimi. Ya'ni: *“Jismimni qo'zg'atib yotmay, shu yerning o'zida nigorimning kiyimiga o'xshash yashil barglarday matodan kafan qilib qo'ya qol. Bu islomiy rangdagi kafan ko'nglim va ruhimga cheksiz shavq va quvonch bag'ishlaydi”...*

Agar uni gulob-g'unchadagi gulbargi va shakarni qo'shib qaynatish tufayli olinuvchi ichimlik deb tushunsak, unda ham bu voqelik o'rtasida o'xshashlik bor. Xullas, **gulob** suv, shakar, gulbargi qo'shilib qaynatilganida gulqatlardagi yaproqchalardan suvi chiqadi: guli obning vaziyat tufayli qo'shilib qaynashidan yuzaga keluvchi suyuqlikdir. Yuzdagi **ter** (yuzi ob) ham oshiq va mashuqaning kutilmagan tasodif bilan to'qnash kelib qolishi va qalbdagi **ishqning qaynashidan**, junbushga kelishidan **yuzaga keluvchi suyuqlik**. Kamiga bu ter (husni ob) suluv yuzda yuzaga chiqsa bormi, yanada ochiladi,

husn ustiga husn bo'ladi. Buni ko'rgan har qanday yigit ham tabiiyki:

Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafiq, meni,

Gul ob ila yuvu gulbargdin kafan qilg'il, – deydi-da...

Yana oltinchi baytdan (Xazon sipohi...) shunday botiniy (haqiqiy) mazmun chiqarish ham mumkin. Tasavvuf qarashlariga ko'ra, abadiy Ruhdan ajralgan olam va uning moddiy ashyolari o'zicha mustaqil harakat qilishga intiladi.

Shu ma'noda she'riyatda: **jism, tan, jismi vayrona, gavda, tan uyi, ro'zg'or, tan taxtasi vujud xokistari, o'zlik imorati, vatan, qafas, bog'** kabi nomlar bilan tilga olinuvchi **inson vujudi** – tanasi ham o'zicha yashashga intiladi. Lekin a'mol daftari (lavhi mahfuz)dagi taqdir (xakkoki): azaliy hukm tufayli bu bog' – jussaga ham mo'ysafidlik (xazon) fasli qadam qo'yadi. Agar unga oshiq tanasidagi har bir tukni tikan yoki igna qilib qarshilik ko'rsatilsa ham baribir, chunki qadar va qazo – ilohiy nizom bitigi. Kuzdan so'ng esa qish (qariyalik) kelishi tabiiy. Shunda jism tufroqdan bo'lganligi sababli, o'z manbasi (yer)ga qaytish uchun, jon Nurdan yaralgani bois o'z mabda'siga qaytish uchun o'zaro kurash boradi. Bunday chog'larda tan qozisi Aql qancha tadbir qo'llab o'z jism-qolipini omon saqlashga intilmasin, befoyda, chunki bu **tan ro'zg'orining** yana bir **sultoni** bor: u – **ko'ngil**. Ko'ngil esa o'z ruhidagi pinhoni abadiy va azaliy tiriklik ishtiyogi tufayli o'zlik bog'ining tan choklarini so'kish uchun intiladi. Bu harakat va riyozatlar tufayli tan (o'zlik)ni ter bosishi aniq. Jism esa shu ter-gulob (ruhi ob)ga cho'miltirib, bu yuvintirish (poklanish) orqali esa abadiy hayotga, baqolikka muyassar bo'lish niyati ilinjida. U o'z bog'i – jismini abadiy yashnab, gullab turishini istaydi. Agar buning imkoni bo'lmasa, ruh (jon) o'z suvi (gulob)ga yuvintirib va yashil bargi (navqironlik, islomiy mazhab)ga kafanlab tanni ham boqiy ruh (Kull) dargohiga olib ketilishidan umidvor. Misrada, bizningcha, “Safar dar vatan” rashhasi (sabog'i)dagi kabi, ruhning vatan (gavda)da turib Aqli kullga taxayyuliy sayrining so'nggi soniyalari o'z ifodasini topgan.

Gulob – abadiy tiriklik, boqiy hayot, obi hayot ramzi, dedik. Shu ma'noda gulob (boqiy hayot)ga yuvintirish juz'ning kullga birikib vahdat tusini olishidir. Bu yuvintirilish tavid suviga cho'milishdir. Hululiy aysh lazzati va zavqi. Va nihoyat maqta':

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,

Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Bu baytlar oshiq (shoir, gavda)ning o'z ruhiga vasiyati. Qadar va qazo abadiy hukm ekan, nachora? Bu foni vatan (bog')ni tark etish moddiyunchilar uchun naqadar og'ir kechmasin, ammo azaliy bitik...

So'fiy uchun esa bu tan qafasini tark etish muammosini hal qilinishidir. U sabr va tavakkul maqomida nafs shar'ni yenggan. Bu ayriliq – oshiq uchun baxt. U yangi hayot tug'diruvchi "o'lim". Chunki endi oshiq ruhi Qorako'z dargohida vahdat hosil qiladi. Bu tavhid nuqtasida ruh (juz', jon)lar Ruhi a'zam (kull) ichida, Arsh kursisida hulul etib, jonlar Jonona dengizida tomchidek sayr qilib, mavjlanib va to'lqinlanib shavqli anjuman qurganlarida Husni mutlaq boshqa oshiqlarini "otish" uchun tayyorlab qo'ygan paykon-nurlarini "sham'i anjuman qilg'il" deyilgan. Chunki har bir oshiq Yoru azal bilan faqat tanho (tavhid) qolishni istaydi. Shuning uchun o'zga oshiq elini "qurbon" qilish uchun tayyorlab qo'ygan "o'q"larini ham o'z qalbiga "sanchilishi" tarafdori. **Do'st (oshiq) haqiqiy do'st (Tangri) uchun qancha qiynalsa, o'rtadagi muhabbat, ishq, sodiqlik va ixlos shuncha ortadi, barqarorlashadi.**

Mana shu ma'nolar asrori sababli bo'lsa kerak bu g'azal matnini hofizlar "Ushshoq" kuyiga solib kuylaganlar. Va she'r matnida ham **Ko'ngil** (oshiq)lar, ya'ni **ushshoq ahlining** Qorako'z ishqidagi riyozatlari va niyozmandligi bayon qilinadi. Shu mazmunda bu musiqa va matn uzukka ko'z qo'yganday bir-birini to'ldiradi.

Yuqoridagi tahlil asosida har bir baytdan chiqib keluvchi tasavvufona nasriy bayon quyidagicha bo'ladi.

1-bayt: Ey Qorako'z (Tangri), mardumlig' shevasi ila rahmat nazari bilan boqqin.

Ko'zim qorachig'iga nur singari (tajalli) kirib, gavhar kabi(mazharlanib) vatan tutib o'rtnashib ol.

2-bayt: Yuzing gul (kull)iga ko'ngil (mazhar huqqasi) ravzasida gulshan (juz') yasab ol.

Mayin "nihol (nur)dek qadding"ga jon (ruh) gulshanini chaman (vujud, gavda) qilib olgin.

3-bayt: Takovar (tajalli)ingga Senga bo'lgan muhtojlik tufayli xunga to'lgan bag'ir (jigar) qonidan xino kabi qizil tus ber. Men vafodor hamroh(it)ingga esa sadoqatim ramzi sifatida o'z jonimning g'amzada jon ipi(ruh)ni mushkin bo'yinbog' (tasma) qilib olaqol.

4-bayt: Ey charx, ko'rib turganingdek ruh (jon) ilk mabda'siga vahdat istaydi. Shu bois riyozatlar yo'lida tuproqdan bo'lgan vujudim sening dargohingda qolib

xokka aylansa, biz foni oshiq elingni qumsagan chog'laringda shu g'uborlardan xamir qilib (Odam atoning yasalishi kabi) bir ko'hikan yasaginki, o'shagina yana Farhoddek firoq tog'i (moddiylik, foni charx g'urbatlari) ayrilig'i-g'ariblik va g'urbat mashaqqatlarini yengib, g'amlarni o'yib yashay oladi.

5-bayt: Yuz (ruh)ing visol (vahdat)iga ko'ngul (ruh, juz', inson, jon)larni yetib birlashsin (tavhid) desang, soching (zulf, dunyo)ni boshidan oxirigacha qaytadan, ya'ni oshiqlar foni dunyodayoq kom (visol) topa oladigan qilib yarat. Buning iloji yo'q ekan, soch (nur)ing grixlarini ilmak shakliga keltirki, undan oshiq ruh (ko'ngil)lar ko'tarilib dargohingga uruj aylasin!

6-bayt: Ey bog'bon (vujud, oshiq), har qanday chora-tadbir qo'llasang ham ular xazon (qarilik) lashkariga to'siq bo'la olmaydi. Chunki qadar va qazo azaliy hukm. Shu bois ruh o'z ilk mabda'siga yetishish sulukida riyozat tortmoqda. Irfoni anglagilki, har qanday muhofozakorlik befoyda... Husn bog'ing baribir qazo bitigiga mahkum.

7-bayt: Bu riyozat va mashaqqatlar tufayli ruh (jon, juz') yuzini Farhod yuzidagi kabi mehnat terlari qoplasa, ey rafiq (Alloh), meni (tana, lirik qahramon) gulob (Ruhi boqiy, obi hayvon) bilan yuv va gulning bargi singari (azaliy baqolik, navqironlik, islomiy tariqat)yashil barg kabi yashil matoga kafanla. Abadiyligingga tiriltir, tavhidingga muyassar et.

8-bayt: Ey Yori azal oshig'i (Navoiy, solik), mana shunday tadrijiy poklanishing va riyozat tufayli boqiy hayotga musharraf bo'lgaysan. Shunday damlarda Jon (Ruhi a'zam, Kull)da (hulul) birikishning Shavqli anjumani ishtirokchisiga aylanasan. U yerda Yor (Tangri) o'zga banda(qul)larini qurbon qilish uchun tayyorlab qo'yilgan "o'q"(nur)larini ham o'z ruh(jon) – juz'ingga hidoyat sham'i qilib ol. Chunki riyozatlar tufayli shunday martaba-maqom (baqo)ga erishding. Endi Do'stning qolgan sinov(qadar, qazo, o'q)lariga ham bardosh bersang, Simurg' kabi foniyu komildan tavhid (iohiy qo'shilish) maqomiga ko'tarilishing muqarrar...

Xullas, mana shunday "tafsirlar" "Qaro ko'zum"ga o'zimcha tasavvufona ko'z (qorasi)savodi bilan qaralganida kaminaning taxayyul shuurida kechgan hissiyotlar tasviridir. Demakki, so'fiyona ishoratlar turfa nigohligi sabab Qorako'zni Tangri(Kull) timsoli deb taxayyul qilishga ham imkonlar mavjud ekanligi ayonlashmoqda. Vallohu a'lam

Go'yiyo ko'nglum taxayyul mulking sultonidir,
Kim xayol ichra qilur har ishkim imkonidir.

Dildora ALIQULOVA,
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 Turon universiteti v.b dotsenti
Xurshida XURRAMOVA,
 Turon universiteti talabasi

YEVROPA VA O'ZBEK ADABIYOTIDA URUSH VA TINCHLIK MASALASINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada urush va tinchlik masalasi jahon adabiyotida badiiy talqin etilishi ilmiy tahlil qilinadi. Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", Erich Maria Remarquening "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanlari hamda Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlari asosida urushning insoniyat hayotiga ta'siri, tinchlikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqotda adabiy qiyoslash, g'oyaviy-badiiy tahlil va tarixiy tipologiya metodlaridan foydalanildi. Nazariy jihatdan maqola adabiyotshunoslikning fundamental qarashlariga tayangan bo'lib, unda urushning badiiy tasviri insonparvarlik konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *urush, tinchlik, roman, tragediya, adabiyot, jamiyat, insonparvarlik.*

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the artistic interpretation of the issue of war and peace in world literature. Based on Lev Tolstoy's War and Peace, Erich Maria Remarque's All Quiet on the Western Front, Odil Yoqubov's Ulugbek's Treasure, Shaykhzoda's tragedy Jaloliddin Manguberdi, and O'tkir Hoshimov's Between Two Doors, the study examines the impact of war on human life and the socio-cultural significance of peace in a comparative perspective. The research employs methods of literary comparison, ideological and artistic analysis, as well as historical typology. Theoretically, the article relies on the fundamental approaches of literary studies, analyzing the artistic representation of war from the perspective of the humanistic concept.

Key words: *war, peace, novel, tragedy, literature, society, humanism.*

Аннотация: в данной статье проводится научный анализ художественной интерпретации проблемы войны и мира в мировой литературе. На основе романа Льва Толстого «Война и мир», произведения Эриха Марии Ремарка «На Западном фронте без перемен», романа Одила Ёкубова «Сокровище Улугбека», трагедии Шайхзоды «Джалолитдин Мангуберди» и романа Ўткира Хошимова «Между двумя дверями» рассматривается влияние войны на жизнь человечества и социально-культурное значение мира в сравнительном аспекте. В исследовании используются методы литературного сопоставления, идейно-художественного анализа и исторической типологии. Теоретически статья опирается на фундаментальные подходы литературоведения, анализируя художественное изображение войны с точки зрения гуманистической концепции.

Ключевые слова: *война, мир, роман, трагедия, литература, общество, гуманизм.*

Kirish. Urush va tinchlik masalasi insoniyat tarixida eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Jahon adabiyotida bu mavzu turli davrlarda yozuvchilar tomonidan badiiy talqin etilgan. Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, urushni faqat janglar yoki qurol to'qnashuvi sifatida emas, balki insoniyatning ma'naviy inqirozi sifatida ko'rsatishga intilish ustuvor bo'lgan. Nazariy jihatdan, urush adabiyotda ikki xil talqinda namoyon bo'ladi: birinchisi – vayronkor kuch

sifatida, ikkinchisi – ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan muqaddas kurash sifatida. Tinchlik esa har doim adabiyotda ma'naviy uyg'onish, taraqqiyot va insoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin etilgan.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolani yozishda quyidagi metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod: Yevropa va o'zbek yozuvchilarining asarlari o'zaro qiyoslab tahlil qilindi. Tarixiy-tipologik metod: asarlar yaratilgan

davr sharoitlari, tarixiy voqealar bilan bog'liq jihatlar tahlil qilindi. G'oyaviy-badiiy tahlil: asardagi qahramonlar obrazlari, muallifning pozitsiyasi, urush va tinchlik haqidagi qarashlar falsafiy-nazariy nuqtayi nazardan o'rganildi. Adabiyotshunos olimlar nazariyasiga ko'ra, badiiy asar – bu jamiyatning ma'naviy oynasi. Shuning uchun urush tasvirlari asarda faqat tarixiy faktlarni emas, balki inson qalbi va ijtimoiy ongda o'zgarishlarni ham ifodalaydi.

Natijalar Lev Tolstoy – “Urush va tinchlik” Tolstoyning epik romanida Napoleon urushlari tarixiy voqelik sifatida emas, balki insoniyatning ijtimoiy va ma'naviy taqdirini belgilovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Asarda turli tabaqa vakillari qismati orqali urushning jamiyatga ko'rsatgan bevosita ta'siri ochib beriladi. Adabiyotshunos M. Baxtin ta'kidlaganidek, Tolstoy qahramonlari urush fonida ruhiy va axloqiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi, ular insoniylik va axloqiy qadriyatlarni qayta kashf etishga majbur bo'ladi. Muallif urushni inson tabiatiga zid, ijtimoiy taraqqiyotni izdan chiqaruvchi ofat sifatida ko'rsatadi. Tinchlik esa ruhiy uyg'unlik, ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning chinakam taraqqiyotga intilishi uchun zarur shart sifatida badiiy asoslanadi.

Erich Maria Remarque – “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” Remarquening romani Birinchi jahon urushi voqealarini oddiy nemis askarlarining ko'zlari orqali yoritadi. Bu jihati bilan u urushni “qahramonlik” emas, balki insoniy fojia sifatida talqin qiladi. Asarda “yo'qotilgan avlod” fenomeni yorqin badiiy ifodasini topgan bo'lib, urush yoshlarning orzu-umidlari, ruhiy barqarorligi va kelajagini yo'q qiluvchi kuch sifatida ko'rsatiladi. Muallif o'z asarida urushning nafaqat moddiy, balki ma'naviy talofatlarini ham ochib beradi. Remarquening g'oyasi shundan iboratki, insoniyatni ommaviy halokatdan faqat tinchlik va o'zaro hamjihatlikgina asrab qolishi mumkin.

Odil Yoqubov – “Ulug'bek xazinasini” Yoqubovning tarixiy romani urush va siyosiy fitnalar oqibatida ilm-ma'rifatning yo'qolishi, madaniy merosning boy berilishi kabi jarayonlarni tasvirlaydi. Bu asarda tinchlik faqat siyosiy mustaqillik emas, balki ilmiy taraqqiyot,

milliy ong va ma'naviyatning asosi sifatida talqin etiladi. Adabiyotshunos N. Karimovning fikricha, Yoqubovning asosiy maqsadi – tarixiy shaxslar va ularning qismati orqali o'quvchini tinchlikni saqlash va uni asrab-avaylash zarurligiga da'vat etishdir. Shuningdek, asarda tinchlikning yo'qolishi nafaqat insoniy hayotga, balki milliy meros va ilm-fan taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi yoritiladi.

Maqsud Shayxzoda – “Jaloliddin Manguberdi” Shayxzodaning mashhur tragediyasi o'zbek adabiyotida milliy ozodlik va vatanparvarlik timsoli sifatida alohida o'rin egallaydi. Asarda Jaloliddinning qahramonona kurashi urushning muqaddas maqsad – ozodlik uchun olib borilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muallif urushning fojeaviy oqibatlarini ham badiiy yoritadi: insoniy talofatlar, shaxsiy fojialar va milliy birligining zaiflashuvi. Shayxzoda o'z asari orqali o'quvchini ozodlik va tinchlik uchun kurash zarurligiga ishoniradi, ammo ayni paytda urushning og'ir oqibatlarini unutmaslik lozimligini ham eslatadi.

O'tkir Hoshimov – “Ikki eshik orasi” O'tkir Hoshimovning mashhur romani Ikkinchi jahon urushi yillarida oddiy o'zbek xalqining turmushi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy qiyinchiliklarini keng qamrovda tasvirlaydi. Asarda urushning ayollarga, bolalarga va butun jamiyatning ma'naviy hayotiga ko'rsatgan halokatli ta'siri ochib beriladi. Adabiyotshunos B. G'afurovning fikricha, bu roman o'zbek adabiyotida urushning insoniy taqdirlar bilan bog'liq eng chuqur badiiy talqinlaridan biridir. Hoshimov urushni fojia sifatida yoritgan bo'lsa-da, tinchlikni milliy birdamlik, oila qadriyati va insoniy mehr-oqibatni asrashning yagona kafolati sifatida ko'rsatadi.

Munozara. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Yevropa va o'zbek yozuvchilari asarlarida urush va tinchlik masalasiga yondashuvda muayyan farqlar mavjud. Avvalo, Yevropa adabiyotida, xususan, Lev Tolstoy va Erich Maria Remarque ijodida urushning shafqatsiz oqibatlari, inson ruhiyatida qoldirgan chuqur jarohatlar keng tasvirlangan. Tolstoy “Urush va tinchlik” romanida urushni davlat manfaatlari va siyosiy ambitsiyalar natijasi sifatida ko'rsatib, insoniylikning yemirilishi, oilaviy qadriyatlarining

izdan chiqishini ochib beradi. Remarque esa "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida oddiy askar nigohi orqali urushning ma'nosizligi, yosh avlodning orzu-umidlari qanday barbod bo'lishini yoritadi. Demak, Yevropa yozuvchilari ko'proq urushning bevosita oqibatlarini – o'lim, ochlik, ruhiy tushkunlik va ma'naviy iztiroblarni tasvirlashga e'tibor qaratgan.

O'zbek yozuvchilari esa masalaga biroz boshqacha yondashgan. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida urush va fitna nafaqat siyosiy to'qnashuv, balki ilm-fan taraqqiyotiga qarshi qaratilgan jaholatning ramzi sifatida ko'rsatiladi. Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasida urush vatan ozodligi, milliy mustaqillik uchun muqaddas kurash sifatida talqin qilinadi. O'tkir Hoshimov esa "Ikki eshik orasi" romanida oddiy odamlarning og'ir taqdiri orqali urushning xalq hayotiga solgan jarohatini ochib beradi. Demak, o'zbek yozuvchilari urushni ko'proq vatanparvarlik, erk va ozodlik, milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan bog'laydi. Shu bilan birga, har ikki adabiyotda umumiy jihatlar ham mavjud. Yevropa ham, o'zbek yozuvchilari ham urushni – vayronkor kuch, insoniyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi hodisa sifatida ko'rsatadi. Tinchlik esa aksincha, jamiyat taraqqiyoti, madaniyat va ilm-fan rivojining asosiy sharti sifatida ulug'lanadi. Mazkur umumiylik adabiyotning insonparvarlik konsepsiyasiga asoslanishini ko'rsatadi. Zero, har bir adib o'z milliy adabiy an'alaridan kelib chiqib, urushning vayronkor qiyofasini tasvirlash orqali tinchlikka bo'lgan ehtiyojni yanada chuqurroq his qildiradi. Shunday qilib, qiyosiy

tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa yozuvchilari ko'proq urushning bevosita oqibatlarini yoritgan bo'lsalar, o'zbek yozuvchilari uni milliy ozodlik va vatan taqdiri bilan bog'lashga intilgan. Biroq, umumiy g'oya bitta – urush insoniyatni halokatga olib boradi, tinchlik esa uning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining bosh omilidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, urush va tinchlik masalasi jahon hamda o'zbek adabiyotida turli badiiy vositalar va estetik qarashlar asosida yoritilgan bo'lsa-da, ularni yagona g'oyaviy nuqtada birlashtiruvchi omil – insonparvarlik tamoyilidir. Lev Tolstoy va Erich Maria Remarque asarlarida urushning ma'nisizligi, insoniyatga keltirgan mislsiz talofatlari va ruhiy iztiroblari ko'rsatib berilgan. Ularning ijodida urush insoniylikni yemiruvchi, jamiyat taraqqiyotini izdan chiqaruvchi ofat sifatida talqin qilinadi. O'zbek adabiyoti namoyandalari – Odil Yoqubov, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va O'tkir Hoshimovlarning asarlarida esa tinchlik masalasi milliy ozodlik, ma'naviy barqarorlik va taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlangan. Shu bois, urush va tinchlik masalasini adabiyot orqali o'rganish nafaqat o'tmish xotiralarini tiklash, balki bugungi kunda insoniyatning eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lgan tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Adabiyot urush fojialarini badiiy idrok etish orqali avlodlarga saboq beradi, tinchlikni esa hayotning eng ulug' ne'mati sifatida qadrlashga da'vat etadi. Bu jihatdan, adabiyot urushga qarshi ma'naviy qalqon, tinchlikni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda esa qudratli tarbiyaviy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolstoy L. N. Voyna i mir. – Moskva: Xudojeystvennaya literatura, 1960.
2. Remarque E. M. Im Westen nichts Neues. – Berlin: Ullstein Verlag, 1929.
3. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
4. Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1964.
5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1989.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. G'afurov B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
8. Baxtin M. Problemy poetiki Dostoevskogo. – Moskva: Nauka, 1972.
9. Karimova N. Adabiyot va jamiyat. – Toshkent: Universitet, 2010.

Nafisa ABDURASULOVA,
Farg'ona Davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

“JUDOLIK DIYORI” ROMANIDA SYUJET TUZILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Murod Mansurning “Judolik diyori” romani syujeti tahlil qilinadi. Asosan, asardagi syujet liniyalari, badiiy qahramonlar taqdiri, tipik obrazlar hamda zamon va makon konsepsiyalari haqida soʻz boradi. Syujetning tarkibiy qismlari asardan misollar keltirish orqali ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: *syujet, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, kompozitsiya, prolog, epilog.*

Аннотация: в данной статье проводится анализ сюжета романа Муро́да Мансу́ра «Долина разлуки». В основном рассматриваются сюжетные линии произведения, судьбы художественных персонажей, типичные образы, а также концепции времени и пространства. Структурные элементы сюжета научно анализируются с приведением примеров из произведения.

Ключевые слова: *сюжет, экспозиция, завязка, развитие событий, кульминация, развязка, композиция, пролог, эпилог.*

Annotation: this article analyzes the plot of Murod Mansur's novel “Judolik diyori” (“The Land of Separation”). It mainly discusses the plot lines of the work, the fate of the artistic characters, typical images, as well as the concepts of time and space. The structural components of the plot are scientifically analyzed with examples from the novel.

Key words: *plot, exposition, complication, development of events, climax, resolution, composition, prologue, epilogue.*

Kirish. Badiiy asar syujeti bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Ular oʻzaro bogʻliq. Qismlar qatoriga ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kiradi. Baʼzi asarlarda syujetning prolog va epilog kabi qismlari ham boʻladi. Asarning oʻzida syujetning barcha qismlari boʻlishi shart emas. Ammo tugun va kulminatsiya boʻlishi zarur. Xususan, prolog va epilog kam uchraydi¹. Lirik asarlarda esa syujet qismlarini birma-bir qidirib topish ancha qiyin. Ulardagi syujet qismlari haqida gapirganda, fikrlar oqimining boshlanishi, mantiqli tarzda davom ettirilishi, rivoji, yakunlanishi toʻgʻrisida soʻz yuritish, kechinma tasdiqlanishi, inkor qilinishi mumkin. Epik va drammatik asarlarning barchasida, lirik-epik asarlarning koʻpchiligida ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim mavjud boʻladi.

Syujet qismlarining har biri badiiy asar mazmunini ochishda muayyan vazifani bajaradi. Shunga koʻra ularning har birini alohida-alohida koʻrib oʻtish, va aniq mushohada qilish zarur.

Ekspozitsiya. Koʻpchilik asarlarda yozuvchilar syujetlardagi voqealar boshlangunga qadar ishtirok etuvchi shaxslarning qanday yashaganliklari, oʻsib ulgʻayishlari xarakter xususiyatlarining shakllanishi haqida hikoya qiladilar. Bu hikoya asar ziddiyati boshlangandan keyin sodir boʻladigan qahramonlar

xatti-harakatlarini asoslash va shu yoʻl bilan kitobxonni ularga tayyorlash va ishontirish uchun qilingan dastlabki zaruriyatdir².

Dramatik asarlarda ekspozitsiya maʼlumotlari koʻpincha ayrim ishtirok etuvchi shaxslarning axboroti yoki hikoyasida beriladi. Izzat sultonning “Iymon” dramasi. Yoʻldosh va Sanjarovlarning asardagi asosiy voqealardan, ziddiyat boshlanishidan avvalgi, yaʼni urush yillaridagi yashash tarzlari, xatti-harakatlari, xulq-atvorlari professor Komilovning hikoyasi orqali maʼlum qilinadi. Ayrim pyesalarda esa ekspozitsiya maʼlumotlari vositalar tarzida, yaʼni aks ettirilayotgan ziddiyat sodir boʻlayotgan vaziyatning oʻzi orqali yuz beradi. Koʻramizki, ekspozitsiya asar mazmunini toʻliq ochishda va kitobxonni unga ishontirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ekspozitsiyaning uch xil turi mavjud boʻlib, ular koʻpincha syujet turini keltirib chiqaradi. Agar asarning boshida kelsa, u xronikali syujetdir. Keyinroq kelsa, retrospektiv syujetni paydo qiladi.

Yuqoridagi parchadan ekspozitsiyaning adabiy asardagi vazifasi aniq koʻrinib turibdi. Bu parchalar, birinchidan, oʻquvchining asar qahramonining asosiy sifatleri bilan tanishtiradi. Ikkinchidan, bu ekspozitsiya oʻquvchi diqqatini qahramonning xarakter xususiyatiga jalb etadi, uning shaxsiyati va

1 Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent:Sharq, 2004. 268-bet

2 Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent:Sharq, 2004.222-bet

taqdiriga qiziqish uyg'otadi. Uchinchidan, harakatning, voqeaning, qahramon sarguzashtining qaysi sharoitda boshlanayotganidan xabardor qiladi.

Ekspozitsiyaning muhim sharti va fazilatlaridan biri – qisqa va mazmundor bo'lishidir. Hatto shu kichik ekspozitsiya ham bizga faqat qahramon va u harakat eta boshlaydigan sharoit haqida ma'lumot berish bilangina cheklanmaydi, balki qahramonning bundan keyin ayon bo'ladigan sifatlaridan ba'zilarini ham ochib beradi, bizni uning bundan keyingi sarguzashtlarini to'g'ri tushunishga tayyorlaydi.

Ekspozitsiyaning hamma qirralari asrning boshida to'la tasvirlanishi shart emas, aksincha, eng yaxshi Yozuvchilar asar ekspozitsiyasiga oid bir qancha ikkinchi darajali tafsilotlarni bayon etishni keyinroqqa qoldirib, qahramonlarni tezroq harakatga keltirishga intiladilar.³

Murodjon Mansurovning "Judolik diyori" romanida esa ekspozitsiyaning har uchala turini ham ko'ramiz. Asarda **ekspozitsiya** – sochma; sababi ba'zi qahramonlarga oid ma'lumotlarni turli o'rinda beradi. Masalan, ayoli Mahfuzani oldingi xatlarda nomiga ismigina tilga olinsa, keyingilarda uning ham o'zga vatandan ekanligi, Sultonmurod uni sarhaddan o'tkazib, keyin o'zi qolib ketgani haqida ma'lumot beriladi. **Qori aka** haqida ham xuddi shunday fikr ya'ni dastlab uni oddiy bir hijratdagi hamroh sifatida tilga olinsa, keyinroq u kishi yaqinlaridan ayrilib, bu tomonlarga ikkinchi hijrat ekani, uni Elchir boturdan eshitgani, yurtidan quvilib Tangritog' tomon kelayotganida bir tog' qishlog'ida bir qizga uylangani, afsuski, husnda Benazir bu qizning umri qisqaligi, farzand ko'rayotib vafot etgani, Allohga tavakkul qilib, farzandlarini tashlab yo'lga chiqqani haqida ma'lumot beriladi.

Shunday qilib, ekspozitsiya syujetning ilk va sokin holatidir, ammo unda bo'lajak konflikt va syujet rivojining urug'lari yashirin turda yashaydi.

Tugun va voqealar rivoji. "Judolik diyori" romani boshlanishida ajoyib surat haqida gapiriladi. Uni yetarlicha ta'riflanadi va asosiy voqealarga o'tadi. Asarning uchinchi qismi ko'proq xatlar, qaysiki, "sarhad oshgan xatlar"dan iborat bo'lib, unda Sultonmurodning boshidan o'tkazgan voqealardan xabardor qilinadi. Fikrimcha, asarda **tugun** boshida berilgan Sultonmurodning yurtni tashlab soxta To'raga ergashishi va nimaga aynan 8 kishi omon qolgani berilib, keyin ungacha bo'lgan voqealar beriladida, so'ng **voqealar rivojiga**, ya'ni keyingi kutilmasdan sodir bo'layotgan voqealar xususida ketadi. Voqealar rivoji borar ekan orada o'z yurtida

³ Qur'onov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademiya nashri, 2018. 60-bet

bo'layotgan voqealar, Olim akani uy olishi, mahfuzani unga bermoqchi bo'lishlari, Chamanning uylanishi va farzandli bo'lishi kabi voqealar.

Asardagi voqealar rivojini boshlovchi ziddiyatlarning paydo bo'lishini ko'rsatuvchi o'rinlar tugun deb ataladi. Tugun yuzaga kelgan ziddiyatni ochib berish yo'li bilan kitobxonning asar mavzusini to'g'ri tushunishga imkon yaratadi.

Asar roman shakliga ega bo'lganligi bois unda tugun, kulminatsiyalar ko'p. Chunki asar aynan bir tugunni yechishga qaratilmagan. Quyida biz qo'limizdan kelganicha syujetning bu elementlarini asardan ko'rsatishga harakat qilamiz.

1-tugun: bu asar boshida keltirilgan Maqsud bilan oyisining tashlandiq qo'rg'on haqidagi so'zlari:

– Oyi-chi oyi xolamgilarning qo'rg'onida nima ko'rdim aytaymi?

– Nimani ko'rding?

– Allaqanday katta-katta, g'alati qushlar uchib yuribdi. Turnaga o'xshaydi, lekin oq, kulrang, yashil har xil. Hovuz bo'yida g'ujg'on o'ynab yotibdi. Rosa zo'r sayrayabti-da o'ziyam.

– La havla va la quvvata... "Subhanalloh" de bolam.

– Aytdim, oyi...

– Yana ayt-da, yot uxla. Ko'zinga ko'rinishibdi...

– Nima, oyi? – dedim hayratga tushib.

– Boyaqishlar, – deb pichirladilar oyim.

– Kim, oyi? Kim ko'zimga ko'rinishibdi?

Axir o'zim ko'rdim-ku! Rostdanam u qushlar uzoq yurtlardan uchib kelaturib qo'ngan turnalardir. Oyim chuqur tin olib, xo'rsindilar. Ovozlar ham qaltirab chiqdi.

– Xudo rahmat qilgan bo'lsin hammalarini. Chirqirab yuribdi ekan haliyam boyaqishlarning ruhlari. Men hayron qoldim.

– Nega unaqa deysiz, oyi?

– Boyaqish xolangni, Abdurahim eshon pochchani aytaman-da. Shunday xonadon... tariqday sochilib ketdi-ya, xonavayron etdilar-a!

– Oyim o'rinlaridan turib o'tirib, ro'mollarini o'rashga tutindilar.

– Xudoyim o'zi ko'rib- bilib turgandir?...

– Darvoqe, o'zi nima bo'lgan? Shu qo'rg'on haqida gap ochildi deguncha ko'zlari yoshlanib, ovozlari o'zgarib qolaveradi. Rahmatli xolang, rahmatli eshon Abdurahim eshon pochcha deydilar-u, u yog'ini aytmaydilar. Biz esimizni tanibmizki, bu uylarning tomi ochiq, paxsa devorlari qor- yomg'irlarda nurab yotardi..." (10- bet Asarni o'qish davomida bu qo'rg'on egalari haqida ma'lumot olamiz ya'ni shu jumboq, tugunni yechamiz.

2-tugun:

Asardagi yana bir tugun – bu Bahriddinning to‘y kechasi g‘oyib bo‘lishi va Asal xolaning yolg‘iz qolishi

“Ko‘z oldimdan pakanagina, buning ustiga, bir qo‘llarini bellariga tashlab, zo‘rg‘a enkayib yuradigan lo‘libashara Asal xolam o‘tdilar. Xolam nikoh kechasi o‘g‘illari yo‘qolganidan beri yanayam bir burda tortib qoldilar”⁴

Asar oxirida ushbu tugun ham o‘z yechimini topdi, ya‘ni Asal xolaning o‘g‘li Bahriddinning daragi chiqdi.

Asar ekspozitsiyasi sahna ekspozitsiyasiga misol bo‘la oladi. Chunki asar qahramonlariga ekspozitsion ma‘lumot syujetning turli o‘rinlarida sochma tarzda beriladi. **Syujet** – xronikali; chunki o‘zga yurtda vatanjudo bo‘lib yurgan Sultonmurod har bir voqealarni silsilaviy tarzda berib boradi.

1. “Ko‘z oldimdan pakanagina, buning ustiga bir qo‘llarini bellariga tashlab, zo‘rg‘a enkayib yuradigan lo‘li bashara Asal xolam o‘tdilar”.

2. Sultonmurod akamning kelbati chavon-do‘zlarnikidek edi. Shayir. Qirg‘iy burunli. Labining ustidagi kalta mo‘ylovlari bir yarashibdi. Shu turishda to‘n kiyib, chakkasini durra bilan tang‘ib olsami, ulochining o‘zi. Lekin hozir shaharcha kiyingan, ustiga-ustak boshyalang, sochlari jingalak edi. Egnida bu tomonlarda hali rasm bo‘lmagan iroqi gulli yoqasiz ko‘ylak. Ipak bog‘ichlari bir chiroyli... (59-bet)

3. Pastda ariq, ariq bo‘yi salqin rayhonzor, uning chekkasida esa bo‘yradekkina supa ko‘rinardi. Supaga joy qo‘yilganu dasturxonning bir chekkasi qayrilib qolibdi. O‘sha qayrilgan yerida yolg‘iz o‘sma siqilgan payola: bo‘yra cho‘pi piyolaga suyalgancha turibdi. O‘smari orzu qilgan qoshlar egasi esa, xontaxta yoniga asta chizilganu salqin elitibdimi, pinakka ketgan.

Qo‘llarini yostiqqa tashlab, bir go‘zal yotishini ko‘rib hushim og‘ib qolibman. Soli gardanimga oyog‘ini nuqmaganida, bilmadim, yana qancha ahvolda turardim....

Men uni tepadan, ham uxlab yotgan yeridan tanibman. U o‘sha ketmonchi qizning o‘zginasi – Asal xolaning kelini edi!⁵

4. U biz bolalarning jon dilimiz – pochta Mirhomid amaki edi. Bu odam qo‘llari kalta-kalta, o‘zi xunuk, xuddi bukri o‘xshab enkayib yuradi, lekin po‘kislarini ko‘rsangiz!⁶

5. Hidoy xolam esa ularning tamoman aksilari. Oq sariqdan kelgan, yuzlaridan hamisha nur yog‘ilib turadi, vujudlaridan qalampirunchiq hidi anqib, quchoqlariga olganlarida bag‘irlariga singib ketging

kelaveradi odam. Bir chiroyli nimchalar, kamzullar tikadilar.⁷

Ko‘rinadiki, Romandagi har bir personajning portreti ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Birinchisida qahramonning tashqi qiyofasi so‘z orqali chizilsa, ikkinchisida uning xarakteri orqali tashqi qiyofasi namoyon bo‘ladi. Bu adibning mahorati yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

Pentologiyada, romanlarda badiiy qoliplash muhim hisoblanadi. Romanda shunday badiiy qoliplash berilganki, u asar mohiyatini yoritishga xizmat qilgan. “Alloh suygan qullarini ora-chira bu dunyoning ne‘matlari ila siylabam turadi. Lekin afzali Abu Dardoning tutgan yo‘li,- deb qoldi. –Abu Dardo?-dedi akam nimanidir eslaganday, sutchining yuziga yalt etib qarab.

– Ha, payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning shunday sahobalari o‘tgan.Qavmidan eng keyin iymonga kelgan odam.Lekin etidan tirnog‘igacha iymonga to‘liq bu odam dunyo moliyu matohini qo‘shqo‘llab itqitgan ekan. Tijoratim meni Allohning zikridan qoldiryapti, oldi-berdilar ibodatdan chalg‘ityapti deb hatto do‘konidan voz kechgan ekan. Boshqa sahobalarga yetib olish uchun, dinga kech kelib, yo‘qotgan savoblarini o‘rnini to‘ldirish uchun ham shunday qilgan ekan. Sovuq va izg‘irini tunlarning birida ana shu Abu Dardoning uyiga yo‘lovchilar tunashga izn so‘rab kiribdilar. Abu Dardo ularning oldiga issiq ovqat kiritibdiyu, ko‘rpa to‘shak bermapti. Yotar chog‘ qo‘noqlar biron cho‘shabmi, nimadir so‘rab uning hujrasiga borishsa, Abu Dardoning o‘zi sovuqdan g‘ujanak bo‘lib yotganmish.Kampiri esa chekkada bukchayib o‘tirganmish. Ustilariga yopadigan biron narsa ko‘rinmashmish. Qo‘noqlar taajjubdan Abu Dardodan so‘rashibdi : - Yopishga ko‘rpa-to‘shagingiz yo‘qmi? Ular qani? Shunda Abu Dardo : “ Bizning boshqa joylarda hovlimiz bor. Topgan matolarimizni o‘sha yoqqa jo‘natganmiz. Bu uйда biron narsamiz bo‘lganda sizdan ayamasdik. Qolaversa, narigi uyimizga eltadigan yo‘l ustida o‘tish og‘ir bo‘lgan , mashaqqatli dovon bor. Undan oshish uchun yengillashib turgan chog‘imiz edi; degan ekan.

Hazrati Umar halifalik davrlarida o‘sha sahobani zo‘rlab Shomga voliy qilib tayinlashibdi. U yerda odamlarning rohat-farag‘at ketidan quvib, dunyo jamlashga berilib ketganlarini ko‘rgan Abu Dardo xalqni masjidga chorlab, bunday xutba o‘qigan ekan:” Ey Damashq ahli, sizga ne bo‘ldiki, olimlaringiz ketib bormoqda, johillaringiz ulardan hech narsa olib qolishga shoshilmayapti: Ey Damashq ahli, Sizga ne bo‘ldiki, Alloh taolo o‘z zimmasiga olgan narsaga iqbol

4 M.Mansurov “Judolik diyori” – T.:Sharq, 1998. 17-bet

5 M.Mansurov “Judolik diyori” – T.:Sharq, 1998. 99-bet

6 M.Mansurov “Judolik diyori” – T.:Sharq, 1998. 110-bet

7 M.Mansurov “Judolik diyori” – T.:Sharq, 1998. 156-bet

qilib, o'zingizning zimmangizga yuklangan narsani unutyapsiz, tark etyapsizlar? Sizga ne bo'ldiki, yeb bitirolmaydigan narsangizni jamlash, bilan ovarasiz. Yashamaydigan binolaringizga bino qo'ygansiz? Yetisholmaydigan orzularingizga intilganingiz intilgan.

Ey Damashq ahli, Od qavmining ahliyu mol-dunyosi yer yuziga sig'mas edi., kim bugun mendan ulardan qolgan merosni ikki dirhamga sotib oladi", deganida butun masjid ahli, uni tinglayotganlar hiq-hiq yig'lashgan ekan.

O'sha pokiza zotlar haqida yana bir rivoyat aytay. Hazrati Umar qo'l ostidagi viloyatlarni tekshirishga chiqib, Shomga bemahal- tunda yetib kelibdilar, to'g'ri do'stlarinikiga tushubdilar. Ochiq turgan eshikka tortinmay kirib borgan mehmonni Abu Dardo turib kutib olibdilar. Chiroqni ham yoqmay suhbatlashib o'tirib qolishibdi. Bir mahal hazrati Umar Abu Dardonig yostig'ini paypaslab ko'rib, do'sti egarga bosh qo'yib yotganini sezib qolibdilar. Shoshib to'shakka qo'l cho'zsalar, qo'llari qup-quruq qum bilan mayday toshlarga tegibdi. Yana bir paypaslab, do'stining egnidagi Damashq ayoziga dosh ham berolmaydigan yupun kiyimni payqab qolibdi.

– Hoy, Allohning rahmatiga yetishgur, qo'ling shunchalik qisqami, axir imkoniyatingni kengaytirib qo'ygandik-ku, -debdilar xalifa.

Shunda Abu Dardo:

– Esingdami, ey Umar, Rasululloh (s.a.v.) bizga nima degandilar?- debdi ohista.

– Xo'sh, nima deb edilar ?

– Sizning dunyodan oladigan nasibangiz musofirning hurjunidagi ozuqasicha bo'lsin demabdilarmi? Biz-chi, u kishidan keyin nima ishlar qilib yubordik, Ey Umar? – debdilar.

“Shundoq- shundoq”, deb turgan halifa yig'lab yuborgan ekanlar. Biz u zotlarning oldida kimmiz? Bu amalu ibodatlarimiz Alloh bir puf desa, changdek changdek to'zg'ib ketmaydi, deb kim ayta oladi? Yana Alloh o'zi bilgay: rahmat nazari bilan kimga qaraydiyu kimga nazarini kam ravo ko'rmaydi!...”⁸

Asar ekspozitsiyasi sahna ekspozitsiyasiga misol bo'la oladi. Chunki asar qahramonlariga ekspozitsion ma'lumot syujetning turli o'rinlarida sochma tarzda beriladi.

Asar muallif tilidan emas, balki hikoyachi nutqi – personaj tilidan hikoya qilinadi. Bu hikoyachi asar qahramoni bo'lmish Maqsud. Bu ancha qulayliklarga olib kelgan, masalan, mullif tili bajaradigan vazifani hikoyachi- personaj tili bajargan bo'lsa, ikkinchidan, shu hikoyachi ya'ni Maqsudning xarakteri, o'ziga xos

8 M.Mansurov “Judolik diyori” –T.:Sharq, 1998. 128-bet

xususiyatlari, qiziqqon va o'yinqaroqligi ham ochib berilgan. Yozuvchi Maqsudni ta'riflashga, ya'ni uning portretini chizishga vaqt sarflamaydi. Uchinchidan, asarda kechgan voqealar ko'z o'ngimizda yanada jonliroq va ta'sirliroq gavdalanishini taminlagan.

Poleolog

Asarning “ Ko'zirlar “ nomli 10- qismida keltirilgan Mo'min tog'a, Adol opa va “ o'g'ri “ poleologlari orqali muallif Adol opa va Mo'min tog'alarga xos xarakter xususiyatlarni ochib bergan. Bu polelogni o'qiganimizda ularning ismi ham bejiz qo'llanmaganining guvohi bo'lamiz. Hikoyachi ularning ikki xususiyatlarini shunchaki aytib o'tmaydi agar shunday qilganida o'quvchiga zerikarli tuyulardi hamda o'z ta'sirchanligini ham yo'qotar edi. Shuning uchun ham –muallif shu kichik suhbat orqali nafaqat Mo'min tog'a va Adol opalarning xarakterlarini, balki butun o'zbeklarga xos xususiyatlarni ko'rsatib bera olgan.

“U yoqda Mo'min tog'aning daroz kampirlari bir kosa ayronmi, qatiqmi ko'tarib chiqqan, endi chol kampir “ mehmon yigit “ ustida o'lib tirilib yotishar edi. Adol opning do'rillagan ovozlari bizgacha eshitilib turibdi.

– Hoy bolam, manavini bir simir. Ichginang uzilib ketgandir sanginani. Ol- ol xolang qoqindiq. Tog'a uni toldan yechar- yechmas Adol opoqi hali uning momotaloq yelkalarini silab, hali yoqalarini to'g'rilaydi. O'zicha javrab, kuyib- pishadi:

– Kel- kel, qaddingni ko'taraqol, xolang bo'yginanga qoqindiq. Ol buni malham bo'lsin. San ko'r -man ko'r bo'lib ketgin, ilohim...

– Mana, xola, temirga suv bergandek bo'ldingiz! – dedi u axiyri kosaning yuqini ham qoldirmay. Adol opoqi yayrab ketdi:

– Xolang aylansin, qatiq osh bo'larmidi, uyga kir, uyga. Sanga biron narsa toparmiz. Tog'a ham qaytib, ichkariga qistay boshladi.

– Yur, mehmon bolam, jilla qursa, bir payola choyimizni ichib ket...”⁹

Monolog

Asarda ko'proq Maqsudxo'ja- hikoyachi tilidan monologlar keltirilgan. Ulardan biri Maqsudxo'ja Marg'u kinoyasini kutib turgan vaqtda Sultonmurod kinoyasini olib ketib qolgan vaqtda keltiriladi.

“...Kennoyim, kennoyijonim aravaning shunday yon chekkasida, uchib ketmaslikka tirishib – ham qo'rqib ham kulib – qayg'irib borarkan, men alam – achchiqdan boshimni changallaganicha qolaveraman. Keyin chidab bo'lmas bir xo'rlik bosib kelib, o'krab yuboraman: – O'g'ri! Qaroqchi! Birovlarning

9 M.Mansurov “Judolik diyori” –T.:Sharq, 1998. 49-bet

kennoyisini tortib olguvchi! Ux! Sangayam boqqan balo bordir! ¹⁰

Detal fransuzcha so'z bo'lib, tafsilot, maydachuyda degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo detal badiiy voqelikni yaratish vositasi ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok etish mumkin bo'lgan tarzda gavdalandiradi. Boshqacha aytsak, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi, detallarning birikuv natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi.¹¹ Badiiy detal ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki tafsilotlar, portret chizgilari. Shuningdek personajning imo-ishoralari, tana holati, xatti-harakati, gap-so'zlari ham detal sanaladi, ular bari birlikda konkret inson obrazini gavdalandiradi. Ya'ni badiiy detal, avvalo badiiy voqelikni to'laqonli va konkret his etiladigan darajada jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Biroq badiiy asardagi detalning funksiyasi shuning o'zi bilan cheklanmaydi. U badiiy voqelik ashyosi bo'lish bilan birga, badiiy umumlashtirishga intiladi, yozuvchi fikrini aniqlashtirish, to'ldirish, kuchaytirish, maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Murodjon Mansurovning "Judolik diyori" romani pentologiya bo'lganligi uchun, uchala kitobida ham bosh va yordamchi detallar uchraydi. Bosh detal

¹⁰ M.Mansurov "Judolik diyori" –T.:Sharq, 1998. 185-bet

¹¹ B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004. 197-bet

Yozuvchi va personaj g'oyasini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Romanning birinchi kitobida detal bu – na'matak. Na'matak detali orqali asar qahramonlaridagi vatan tuyg'usi, ajdodlar o'giti tasvirlanadi. Turna va xovuz ham bu kitobda detal hisoblanadi. Chunki asardagi personajlar taqdiri shu xovuz va turnaga bog'liq bo'ladi.

Romanning ikkinchi kitobida qalampirmunchoq detal vazifasini bajaradi. Shu qalampirmunchoq tufayli marg'uba kelinning qalbida umid uyg'onadi, yashashga umid qiladi, hamma dardni unitishga o'zida kuch topadi.

Asarning uchinchi kitobida asosiy detal vazifasini xat bajaradi. Chunki birinchi va ikkinchi kitobda jumboq bo'lgan voqea-hodisalar Sultonmurodning xatlari orqali oydinlashadi. Hattoki Baxriddinning o'lmasdan tirik qolgani, Marg'uba bilan birga turmush qurib, yaxshi yashayotganlari, Marg'ubani to'yi kuni Sultonmurod olib qochib o'ziga xotin emas, balki akasi Bahriddinga olib bergani ayon bo'ladi.

Har bir yozuvchi o'z asarini yozishdan oldin kompozitsion qurilishini o'zishga xos tarzda xayolan bo'lsa-da, tuzib oladi. So'ng badiiy qimmatini oshirish uchun obrazlar tizimini syujet chiziqlariga joylashtiradi. Murodjon Mansurovning sirli mahorati biz uchun juda qadri, qimmatiga esa beqiyosdir. Teran fikr, takrorlanmas kompozitsion xususiyatga ega romani bugungi kun romanchiligida alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon, 2002.
2. Bahodir Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
3. Izzat Sulton. Adabiyot Nazariyasi. – Toshkent, 2005.
4. A.Qodiriy. Ijod mashaqqati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 16-bet.
5. Қ. Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2014. 464-б.
6. Yo'ldosh Q, Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 306-bet.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004. 264-bet
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2005. 272-bet.
9. Quronov D, Mamajonova Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademi nashr, 2013. 412-6.
10. Бобоев Т. Адабиётшunosлик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 560-б.
11. Quronov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademi nashr, 2018. 112-bet
12. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018. 140-bet
13. Adabiy turlar va janrlar. 3jildlik. 1-jild.
14. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2008. 562-bet
15. M.Mansurov "Judolik diyori" – Toshkent: "Sharq" nashriyot uyi, 1998. 398-bet. 1-kitob
16. M.Mansurov "Judolik diyori" – Toshkent "Sharq" nashriyot uyi, 2000. 430-bet, 2-kitob
17. M.Mansurov "Judolik diyori" – Toshkent: "Sharq" nashriyot uyi, 2003. 424-bet, 3-kitob
18. M.Mansurov "Judolik diyori" – Toshkent: "Sharq" nashriyot uyi, 1998. 566-bet, 4-5-kitoblari

Boboqand UMAROV,
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

USMON AZIM IJODINING ILK DAVRLARIDA IJTIMOY HAYOT TASVIRI VA POETIK TAFAKKUR SHAKLLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Usmon Azim ijodining ilk davrida yaratilgan she'rlarida ijtimoiy hayotning badiiy ifodasi va shoir poetik tafakkurining shakllanish bosqichlari tahlil qilingan. Asosan, "Dars" to'plami hamda 1970–1980-yillar ijodiy namunalari asosida sovet mafkurasi davridagi ma'naviy muhit, senzura, Ezop tili, yashirin ijtimoiy tanqid va shoirning axloqiy pozitsiyasi o'rganilgan. Tadqiqotda shoir ijodining o'ziga xos jihatlari — ramziy ifoda, kinoya, sukut va metafora orqali jamiyatdagi ichki ziddiyatlarni ochib berish mahorati tahlil qilinadi. Usmon Azimning dastlabki ijodi o'zbek adabiyotida poetik tafakkurning yangi bosqichini boshlab bergani, ijtimoiy-falsafiy ohangning kuchayishi va shaxsiy ongning uyg'onishida muhim rol o'ynagani ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Usmon Azim, sovet davri she'riyati, ijtimoiy hayot, poetik tafakkur, Ezop tili, ramz, sukut, metafora, badiiy tafakkur, axloqiy mas'uliyat.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественное выражение общественной жизни и этапы формирования поэтического мышления поэта в стихах Усмана Азима, созданных в ранний период его творчества. В основном на основе сборника «Урок» и творческих образцов 1970-1980-х годов изучены духовная среда, цензура, язык Эзопа, скрытая социальная критика и нравственная позиция поэта в период советской идеологии. В исследовании анализируются особенности творчества поэта - его мастерство раскрытия внутренних противоречий в обществе посредством символического выражения, иронии, молчания и метафоры. На научной основе освещено, что раннее творчество Усмана Азима положило начало новому этапу поэтического мышления в узбекской литературе, сыграло важную роль в усилении социально-философского тона и пробуждении личностного сознания.

Ключевые слова: *Усман Азим, поэзия советского периода, общественная жизнь, поэтическое мышление, язык Эзопа, символ, молчание, метафора, художественное мышление, моральная ответственность.*

Annotation: this article analyzes the artistic expression of social life and the stages of formation of the poet's poetic thinking in the poems created in the early period of Usman Azim's work. Based on the collection "Dars" and creative examples of the 1970s-1980s, the spiritual environment, censorship, Aesopian language, hidden social criticism, and the moral position of the poet during the period of Soviet ideology were studied. The study analyzes the specific aspects of the poet's work - his ability to reveal internal contradictions in society through symbolic expression, irony, silence, and metaphor. It is scientifically substantiated that the early work of Usman Azim initiated a new stage of poetic thinking in Uzbek literature, played an important role in the strengthening of the socio-philosophical tone and the awakening of personal consciousness.

Key words: *Usman Azim, poetry of the Soviet period, social life, poetic thinking, Aesopian language, symbol, silence, metaphor, artistic thinking, moral responsibility.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiy tafakkuri tarixida mafkuraviy tazyiq va ruhiy uyg'onish o'rtasidagi murakkab jarayonlar davri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, 1970–1980-yillar oralig'i – "turg'unlik" yillari – jamiyatda ham, adabiyotda ham tashqi barqarorlik ortidagi ichki bo'shliq, sun'iylik, ruhiy turg'unlikni yuzaga chiqardi. Shu tarixiy kontekstda Usmon Azim (1950-yillar avlodi vakili) o'zining yangi badiiy ifoda usuli, Ezopcha nutqi va falsafiy lirizmi bilan o'zbek she'riyatida yangicha yo'nalish boshlab berdi.

Usmon Azimning sovet davridagi she'rlari – bu ochiq siyosiy tanqid emas, balki ijtimoiy ruhiyatning ichki tahlilidir. Shoir o'z asarlarida "baxtli mehnatkash", "kommunistik g'oya", "yangi odam" kabi rasmiy tushunchalarni emas, balki bu shiorlar ortida yashirin

turgan insoniy iztirob, jimlik, ma'naviy charchoqni kuylaydi. U mehnatni – ezilganlik ramzi, osmonni – erkinlik timsoli, toshni – sukutdagi haqiqat, it va bo'rini – sadoqat va ozodlik o'rtasidagi ramziy kurash belgisi sifatida talqin qiladi.

1970–1980-yillar O'zbekistoni "turg'unlik" deb ataluvchi ijtimoiy bosqichni boshdan kechirgan: iqtisodiy jihatdan tashqi barqarorlik, ichki mohiyatda esa ideologik qotib qolganlik, ruhiy toliqish, senzura va riyo avj olgan. Adabiyot esa "kommunistik tarbiya vositasi" sifatida ko'rilgan, ijod erkinligi mafkura chegarasida bo'lgan. Shu sharoitda Usmon Azimning badiiy ovozi jamiyatdagi jimlikni buzuvchi, lekin uni fosh etuvchi emas, ruhiy tahlil orqali ochuvchi ovoz sifatida shakllandi.

Shoirning ilk to'plami "Dars" (1978) sovet poetikasidagi tashviqiy ohangni inkor etadi. Unda shoir o'qituvchi va o'quvchi, dars va hayot, so'z va haqiqat o'rtasidagi ramziy bog'liqlikni ochadi. "Dars" – bu faqat maktab darsi emas, balki insonning o'z hayotidan olgan saboqlari, jamiyatning bergan sinovlari haqidagi badiiy tushunchadir.

Shoirning estetik pozitsiyasi "inqilobiy shior"dan emas, axloqiy sezgi va vijdon uyg'onishidan kelib chiqadi. U insonni "kommunistik ideallar" uchun emas, balki o'zligini anglash uchun kuylaydi. Shunday qilib, Usmon Azim o'zbek she'riyatida "tashviqotchi shoir"dan "fikrli shoir"ga o'tish bosqichini belgilab berdi.

Sovet senzurasining mavjudligi shoirni ochiq fikrdan to'sdi. Ammo bu hol Usmon Azim poetikasida yangi estetik imkoniyat yaratdi. U Ezop tili orqali fikrni yashirin tarzda ifodalash, metaforani ijtimoiy qurolga aylantirish yo'lini tanladi.

Shoirda ramzlar o'zaro bog'liq tizim hosil qiladi: "ko'z" – haqiqatni ko'rish, "so'z" – haqiqatni aytish, "sukut" – uni yashirish, "tosh" – jimlikdagi qarshilik ramzi, "it" va "bo'ri" – qullik va ozodlik o'rtasidagi dramatik oppozitsiyalar tizimi. Bu ramzlar orqali shoir jamiyatning ichki mexanizmlarini ochadi: odamlar ko'radi, lekin ko'rmaydi; eshitadi, ammo anglamaydi; yashaydi, ammo tirik emas. Usmon Azim uchun metafora – bu estetik vosita emas, haqiqatni aytishning yagona yo'li. Uning badiiy ifoda usuli orqali o'quvchi haqiqatni "so'z orasidan", "sukut ichidan" topadi.

"Turmush suratlari" turkumi she'rlari Usmon Azim poetikasining eng ijtimoiy qatlamli asarlaridandir. Bu turkumda shoir "kichik detallar" orqali katta haqiqatlarni ochadi.

Masturaning qo'li kalta –
osmongacha yetmaydi.
Boshqalarning botinkasi –
yulduzlar o'rnida.

Bu obrazlar orqali shoir ijtimoiy tengsizlikni, ma'naviy qadriyatlarining teskari aylanishini fosh etadi. "Qo'li kalta" – ayolning imkoniyati cheklangan jamiyat, "botinka – yulduzlar" – pastlikning yuksakka ko'tarilishi, ya'ni axloqiy inversiyani bildiradi. Shoir sovet jamiyatini "yulduzlar ostida yuradigan, lekin osmonga qaray olmaydigan" odamlar makoni sifatida tasvirlaydi.

Quyidagi she'r — Usmon Azimning lirik-falsafiy ruhdagi asarlaridan biri bo'lib, unda bolalik, xotira, vaqt va inson ruhining davomiyligi markaziy mavzuga aylangan. Shoir oddiy tasvir orqali inson hayotidagi eng sof, beg'ubor davr — bolalikning ruhiy izini falsafiy talqinda ochadi.

U kechgacha qoldi shu ko'yi,
Uzun-uzun xayollar surdi.
Tepalikda bo'lsa kun bo'yi,
Bolaligi hayqirib turdi.

Bu to'rtlik tashqi manzara bilan boshlanadi – "u kechgacha qoldi shu ko'yi", ya'ni shaxs yoki lirik qahramon bir joyda uzoq o'ylarga cho'mgan, vaqt o'tgan, ammo u hali ham o'sha ichki holatda. "Uzun-uzun xayollar" – bu shunchaki o'y emas, ruhiy sayohat, o'zlikni eslash jarayoni. "Tepalikda bo'lsa kun bo'yi" – obrazli ifoda: tepalik — balandlik, hayotning yuqori nuqtasi, balki shoirning hozirgi qarilik yoki yetuklik nuqtasi. Shu tepalikdan u o'z bolaligiga qarab turadi, uni uzoqdan eshitadi, his qiladi. "Bolaligi hayqirib turdi. Bu joyda "hayqirish" — hayot, chaqiriq, jonlanish, ichki og'riq ramzidir. Bolalik endi orqada qolgan emas — u hali ham unda yashaydi, ichidan ovoz beradi, xotiralar hayqiradi.

- "Ko'zga ko'ringan" degani "taniqli, mashhur" degan ma'noni anglatadi; ibora.

- "Ko'ziga ko'ringan - ko'rgan, e'tibor bergan" degan ma'noni ham anglatadi. Shuning uchun rassom rasm ko'ziga qanday ko'rinayotgan bo'lsa, shuni aytayotgandir. Haqiqatan ham mukammal, kamchiliksiz yoki ko'rishdagi nuqson sabab kamchilikni ko'rmaslik, aniqlayolmaslik ham bo'lishi mumkin.

- Chizilgan rasm rangsiz.

- Hamma rasmlar ham rangli chizilmaydi, rangsiz ham chizilishi mumkin.

- Lekin rassomning qo'lida ranglar to'plami va mo'yqalam bor!

Rassomning ko'zoynagi bor. "Men oxirgi chizgan ishimdan nuqson topa ol-mayapman" deganda rassomning ko'rish qobiliyatida muammo paydo bo'lgan bo'lishi mumkin: ko'rish qobiliyati pasayishi, ranglarni farqlayolmaslik ham kasallik. Bu jarayonda dars davomida rassomchilik sohasi, ko'zning

ko'rish qobiliyati (meditsina) bilan bog'liq hodisalar; tilshunoslik (barqaror birikmalar - *iboralar, tasviriy ifodalar, maqollarning* uslubiy ahamiyatiga oid qoida) va adabiyot (uy vazifasi topshirig'i) fani bilan integratsiyasi ketmoqda.

"Bolalar televizorni qancha vaqt ko'rishlari mumkin?" "Ko'z nurini asraylik" mavzusi bo'yicha olingan ma'lumotlar, oldingi darslarning mantiqiy davomi va yakunlovchi xulosa qismi, bilimlarning natijasi sarhisobi desa ham bo'ladi. Shuning uchun topshiriqlar sharhi bilan berdik. Topshiriqlarni bajarishda oldingi darslarda olingan bilimlar asos bo'ladi. Bu darsda yozma nutq, og'zaki nutqni o'stirishga oid; morfologiyaga (fe'llarning zamoni va shaxs-sonini aniqlash) oid topshirig'i, uyga vazifa topshiriqni bajarishda leksikologiya va sintaksisga oid ko'nikma va malakalar shakllanadi. "*Bolalar televizorni qancha vaqt ko'rishlari mumkin?*" [3] O'quvchilar matnlarni o'qib chiqqanlaridan so'ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Topshiriq. Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslab, tartib bilan yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa ekanligini aniqlang. Mazkur topshiriq o'quvchilarning matn xatboshilari uchun kichik mavzularni tanlay olish, matn qismlarini o'zaro farqlash, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, reja tuzish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Berilgan kichik mavzular

qaysi qism uchun sarlavha bo'la olishi aniqlanadi, bunda qaysi birliklar yoki gap, qismning mazmuni unga ishora qilayotganligi haqida so'raladi.

Yozma nutq. Ko'zga ziyon keltiruvchi yana qanday odatlarni bilasiz? Ularni yozing. Ushbu topshiriq o'quvchilarning matndan olgan xulosalarini aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar o'z shaxsiy kuzatishlari

asosida *telefon, kompyuter* kabi qurilmalardan me'yorida ortiq foydalanish ko'z uchun ziyonligini izohlab yozishlari lozim.

Og'zaki nutq. Quyida berilgan jadvalni to'ldiring. Ushbu jadval yordamida oila a'zolaringiz bilan bir kunlik televizorni ko'rish me'yorlari haqida suhbatlashing.

Oila a'zolarim	Yoshi	Amaldagi televizor ko'rish vaqti	Kundalik me'yor
Opam	?	?	?
Akam	?	?	?
Singlim	?	?	?
Ukam	?	?	?
?			

Ushbu topshiriq o'quvchilarning so'rovnoma o'tkazish, ma'lumot to'plash, natijalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan jadval bilan tanishib, undagi ma'lumotlar asosida oila a'zolari haqida ma'lumot yozishlari, so'ngra natijalarni matn bilan taqqoslashlari lozim.

Morfologiya. Matnda qo'llangan fe'llarning zamoni va shaxs-sonini aniqlang. Mazkur topshiriq o'quvchilarning matnning lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar matn tarkibidan fe'l zamonlari va ularning qaysi shaxs-sonda ekanligini aniqlab, yozishlari lozim. Dastlab o'quvchilar bilan fe'l, uning zamon va shaxs-son kategoriyalarini takrorlab olish uchun savol-javob o'tkazish maqsadga muvofiq.

Uyga vazifa. (Leksikologiya. Sintaksis.) Iboralar lug'atidan o'zingizga yoqqan 6 tasini yozib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing. Ushbu topshiriq

iboralar ma'nosini tushunish hamda uni mos kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilarga topshiriq sharti hamda iboralar lug'atidan foydalanish tartibi tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. 6-sinfda har bir bo'limda berilgan matnlarda ifodalangan mavzu-ning hayotda tutgan o'ri, ahamiyati haqida mushohada qilishga undash barobarida til faniga oid berilishi mo'ljallangan mavzuga oid bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan ta'limiy topshiriqlar berilgan. Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu fanlararo bog'liq bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. –Toshkent, 2022.
2. Muqumova S. Til ta'limida integrativ yondashuv. —Navoiy: “Zukko kitobxon” nashriyoti, 2024.69-b.
3. <https://t.me/birgap> Shokir Tursunning telegram kanalidan ma'lumotlar olindi. Kanalda fikr yuritiladigan mavzular: Til o'qitish metodikasi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari. Ona tili darsliklari (yuqori sinflar uchun). Ta'lim

Saodat AGZAMKHODJAEVA,

katta o'qituvchi

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz) fakulteti

Amaliy fanlar 3-bo'limi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

AELLCA OLIY TA'LIM HAMKORLIKLARIGA KIRITILISH MASALALARI TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada AELLCA oliy ta'lim hamkorliklariga kiritilish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro hamkorlikning ta'lim sifati, o'qituvchilar salohiyati va ilmiy faoliyatga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, AELLCA tizimiga qo'shilish jarayonidagi asosiy muammolar, imkoniyatlar va rivojlanish istiqbollari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: AELLCA, oliy ta'lim, xalqaro hamkorlik, integratsiya, ta'lim sifati, akkreditatsiya, o'qituvchilar malakasi.

Аннотация: в статье исследуются вопросы включения в партнерские программы высшего образования AELLCA. Рассмотрено влияние международного сотрудничества на качество образования, профессиональный уровень преподавателей и научную деятельность. Определены основные проблемы и перспективы участия вузов в сети AELLCA, а также предложены практические рекомендации по эффективной интеграции.

Ключевые слова: AELLCA, высшее образование, международное сотрудничество, интеграция, качество образования, аккредитация, квалификация преподавателей.

Annotation: this article examines the issues of inclusion in AELLCA higher education partnerships. The study explores the impact of international collaboration on education quality, faculty development, and research activities. It identifies key challenges and opportunities in the process of joining AELLCA and provides practical recommendations for effective integration into the international academic network.

Key words: AELLCA, higher education, international collaboration, integration, quality assurance, accreditation, faculty development.

Kirish. Globallashuv va xalqaro integratsiya sharoitida oliy ta'lim tizimining xalqaro hamkorlik tarmoqlariga qo'shilishi davlatning ilmiy, madaniy va iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. AELLCA (Association of English Language and Literature Colleges and Academies) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, o'z navbatida, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining jahon ta'lim makonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot AELLCA oliy ta'lim hamkorliklariga kiritilish jarayonidagi dolzarb masalalar, imkoniyatlar va muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Metodologiya. Tadqiqotda sifat tahliliy (qualitative analytical) yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan xalqaro hamkorlik dasturlari;
- AELLCA rasmiy hisobotlari va hamkorlik shartnomalari;
- Ingliz tili ta'limiga ixtisoslashgan xorijiy oliy o'quv yurtlari tajribasi.

Shuningdek, AELLCA bilan aloqada bo'lgan o'qituvchilar va fakultet rahbarlari bilan yarim strukturalangan intervyular o'tkazildi. Tahlil jarayonida SWOT (kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar) tahlili usuli qo'llanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, AELLCA tizimiga kiritilish quyidagi uch asosiy yo'nalishda foyda keltiradi:

1. **Ta'lim sifati** – o'quv dasturlarining xalqaro standartlarga moslashuvi, zamonaviy metodikalar joriy etilishi.
2. **Kadrlar salohiyati** – o'qituvchilarning malaka oshirish dasturlari va almashinuv imkoniyatlari kengayadi.
3. **Ilmiy hamkorlik** – qo'shma tadqiqotlar, konferensiyalar va grant dasturlarida ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

Biroq, **muammolar** ham aniqlandi:

- moliyaviy resurslarning yetarli emasligi;
- xorijiy akkreditatsiya jarayonlarining murakabligi;

- til kompetensiyasi bo'yicha ayrim o'qituvchilarda yetarli tayyorgarlikning yo'qligi.

Muhokama. AELLCA hamkorlik tizimiga kirish O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun nafaqat xalqaro e'tirofni kuchaytirish, balki ta'lim jarayonini global tendensiyalarga mos ravishda modernizatsiya qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik universitetlarning akademik salohiyatini, ilmiy tadqiqotlar sifati va ularning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, AELLCA tizimiga qo'shilish masalasi mamlakatning ta'lim siyosatida strategik ahamiyatga ega yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Muvaffaqiyatli integratsiya uchun birinchi navbatda, o'quv dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur. Bu jarayon o'quv rejalari, baholash mezonlari va o'qitish uslublarini AELLCA tomonidan tan olingan akademik mezonlarga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va CBI (Content-Based Instruction) kabi metodikalar ingliz tili va mutaxassislik fanlarini integratsiyalash orqali talabalarni xalqaro kommunikativ muhitga tayyorlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini chuqur o'zlashtirish – bu tizimning ajralmas qismidir. O'qituvchilarning til kompetensiyasini oshirish uchun muntazam treninglar, xorijiy stajirovkalar va sertifikatlash dasturlarini yo'lga qo'yish lozim. AELLCA bilan hamkorlikda til o'qituvchilari uchun akademik yozuv, taqdimot ko'nikmalari va ilmiy maqola yozish bo'yicha mahorat darslarini tashkil etish samarali bo'ladi.

Uchinchidan, AELLCA bilan uzluksiz axborot almashinuv va qo'shma tadbirlarni tashkil etish hamkorlikning barqarorligini ta'minlaydi. Bunda xalqaro konferensiyalar, ilmiy forumlar, professor-o'qituvchilar almashinuv va qo'shma nashrlar muhim rol o'ynaydi. Shu yo'l bilan O'zbekiston OTMLari nafaqat bilim importchisi, balki bilim eksportchisi sifatida ham xalqaro ilmiy maydonda faol ishtirok eta boshlaydi.

Bundan tashqari, universitetlarning strategik rejalashtirish jarayoniga xalqaro hamkorlik

indikatorlarini kiritish zarur. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining xalqaro reytinglardagi o'rni, xorijiy hamkorlik loyihalarining soni va sifatiga asoslanib rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Bu orqali ta'lim jarayoni natijadorligi aniq ko'rsatkichlar orqali baholanadi va AELLCA standartlariga muvofiqlik darajasi oshadi.

Shuningdek, AELLCA tizimiga kirish madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Talabalar turli millatlar vakillari bilan birgalikda o'qish, muloqot va tadqiqot olib borish orqali global fuqarolik, tolerantlik va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarni shakllantiradilar.

Umuman olganda, AELLCA bilan hamkorlik O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, milliy kadrlar salohiyatini jahon talablari bilan uyg'unlashtirish hamda ta'limni iqtisodiy va innovatsion taraqqiyotning asosiy drayveriga aylantirish yo'lida muhim o'rin tutadi.

Xulosa. AELLCA oliy ta'lim hamkorliklariga kiritilish – O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro miqyosda integratsiyalash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim strategik yo'nalishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu jarayon o'z ichiga nafaqat akademik almashinuv va qo'shma tadqiqotlarni, balki madaniy diplomatiya, innovatsion fikrlash, hamda xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishni ham oladi. AELLCA bilan hamkorlik O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga o'qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish, xorijiy ilmiy markazlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish va global ta'lim reytinglarida yuqoriga ko'tarilish imkonini beradi.

Umuman olganda, AELLCA bilan hamkorlik tizimiga qo'shilish O'zbekiston oliy ta'limining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini, xalqaro maydonda tan olinadigan diplomlar va malakalarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Shu yo'l bilan mamlakatimiz ta'lim tizimi nafaqat eksportbop bilimlar manbaiga, balki global akademik hamjamiyatning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Xalqaro hamkorlik strategiyasi – 2030. – Toshkent, 2024.
2. AELLCA. Global Collaboration in English Language and Literature Education: Annual Report. – London: AELLCA Press, 2023.
3. Knight, J. Internationalization of Higher Education: New Directions. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
4. Altbach, P. G., De Wit, H. Global Trends in Higher Education Partnerships // Journal of Higher Education Policy and Management. 2020. – T. 42, № 3. – S. 245–260.

Shaxnoza ZARIPOVA,
Teacher Samarkand State Institute
of Foreign Languages

APPLICATION OF GAMIFICATION TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

Annotation: this article analyzes the effectiveness of the application of gamification technologies in foreign language teaching. The study highlights the possibilities of increasing students' motivation, active participation and communicative competence through the integration of game elements into the educational process. The advantages of platforms such as Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo in the learning process, their role in the development of students' lexical, grammatical and speech skills are also shown. The research results confirm that gamification is one of the modern and effective methods of teaching a foreign language, and prove that the systematic introduction of this technology into the educational process serves to improve the quality of education.

Keywords: *gamification, foreign language education, game technologies, interactive lesson, motivation, communicative competence*

Аннотация: в данной статье анализируется эффективность применения технологий геймификации в обучении иностранному языку. В исследовании освещены возможности повышения мотивации, активного участия и коммуникативной компетентности учащихся путем интеграции игровых элементов в учебный процесс. Также показаны преимущества таких платформ, как Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo в процессе обучения, их роль в развитии лексических, грамматических и речевых навыков учащихся. Результаты исследования подтверждают, что геймификация является одним из современных и эффективных методов обучения иностранному языку, и доказывают, что систематическое внедрение этой технологии в учебный процесс служит повышению качества образования.

Ключевые слова: *геймификация, обучение иностранному языку, игровые технологии, интерактивный урок, мотивация, коммуникативная компетенция*

Annotatsiya: ushbu maqolada gamifikatsiya texnologiyalarining chet tili ta'limida qo'llanilishining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda o'yin elementlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning motivatsiyasi, faol ishtiroki va kommunikativ kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo kabi platformalarning o'qitish jarayonidagi afzalliklari, ularning o'quvchilarning leksik, grammatik va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari gamifikatsiya chet tili o'qitishning zamonaviy va samarali metodlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi hamda bu texnologiyani dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: *gamifikatsiya, chet tili ta'limi, o'yin texnologiyalari, interaktiv dars, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya*

INTRODUCTION

In today's era of globalization and digital transformation, the need to organize the educational process based on modern technologies is increasing. The use of digital tools, interactive platforms and innovative methods in teaching foreign languages is an important factor in the development of students' motivation, activity and communication skills. From this point

of view, gamification technologies are recognized as one of the advanced methods of effective organization of the educational process.

Gamification (Eng. gamification) - a method of involving a student in learning as an active participant by applying game elements and mechanisms (gathering points, level improvement, rewards, rating system, etc.) to the educational process. Such an approach makes the learning

process interesting, competitive and motivational. Especially in foreign language lessons, gamification serves as an effective tool for the development of students' oral speech, consolidation of grammatical material and expansion of vocabulary. This article analyzes the theoretical foundations of gamification technologies in foreign language lessons, the possibilities of their practical application, and their role in the development of students' language competence.

LITERATURE REVIEW

The concept of gamification was first introduced into scientific circulation by D. Deterding (2011), who aims to increase student motivation by applying game mechanisms to non-game processes, in particular, to education. Kapp (2012) assessed gamification as an effective method that ensures active student participation and substantiated its psychological significance in the learning process. In their research, Hamari and Shernoff (2014) emphasize that gamification positively affects the quality of education by strengthening students' internal motivation and creating an environment of competition and cooperation. Gee (2017) noted that game-based learning develops communicative and logical thinking skills in foreign language learning. In their research, Zainuddin and Attaran (2019) showed that lessons conducted through platforms such as Kahoot and Quizizz yielded more effective results compared to traditional methods. Local researchers (Juraeva, 2022; Tursunova, 2023) also emphasize that gamification is an important tool for increasing students' interest and communicative activity.

METHODOLOGY

In this study, the methods of theoretical analysis, comparison and observation were used to study the application of gamification technologies in foreign language lessons. Foreign and domestic scientific sources on the topic were studied, and the psychological, didactic, and linguodidactic aspects of gamification in the educational process were analyzed. Also, the advantages of such game platforms as Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo used in foreign language lessons, as well as their influence on the effectiveness of education, were observed in practice and combined with theoretical conclusions.

RESULTS AND DISCUSSION

As a result of the conducted research, it was established that the use of gamification technologies in foreign language lessons significantly increases the motivation of students and enhances their activity in the learning process. In particular, the introduction of game elements into the lesson process increases the level of assimilation of students, their interest in developing language skills and the spirit of competition. Such platforms as Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo, ClassDojo, widely used by foreign language teachers, serve as an effective tool for focusing students' attention, encouraging their active participation and focusing on results. For example, conducting short tests at the end of the lesson through the Kahoot platform not only strengthens students' knowledge but also encourages them to participate more actively by having the opportunity to compare their results with others. Also, word games, crosswords and interactive exercises prepared in the Wordwall program help to easily memorize lexical material. The Duolingo application allows students to practice the language daily in the process of independent learning. Such tools transform the student from a passive learner into an active participant, developing their ability to read independently, memorize and use language in real situations. According to the results, students who participated in activities based on gamification demonstrated higher academic performance compared to traditional classes.

Gamification technologies also facilitate the teacher's work. The teacher participates in this process not only as a source of knowledge, but also as a manager, guide and evaluator of the process. For example, the organization of tasks such as "Game-based Grammar Challenges" in teaching English grammar strengthens the spirit of competition in students and leads them to naturally master complex grammatical structures. When conducting games on the topics of "low tense" or "conditional sentences" in such assignments, students not only memorize the rule, but also learn to apply it in the process of real speech. In addition, gamification methods develop such important skills in students as

creative thinking, problem-solving and the formation of communicative competence. Lessons in the form of games also play an important role in maintaining students' attention for a long time, reducing stress levels and creating a positive psychological environment. In the lessons observed during the study, it was found that students strive to freely express their thoughts, be active in communication and listen to each other.

In general, the game-based learning environment makes the process of learning a foreign language more interesting, effective and modern. Gamification technologies provide greater interactivity, competition and motivation compared to traditional teaching methods. This leads to such important results as self-control in students, the formation of a positive attitude towards language learning, and active participation in the educational process. Therefore, the systematic and goal-oriented application of gamification technologies in foreign language education is one of the most relevant areas for increasing effectiveness.

CONCLUSION

The above analysis shows that the use of gamification technologies in foreign language teaching allows for the organization of the educational process in a modern, interactive, and effective direction. The introduction of game elements into the lesson process increases competition, motivation, and the internal need for learning in students. The study revealed that such game platforms as Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo, ClassDojo not only make the language learning process interesting, but also develop students' communicative, grammatical and lexical competencies. Gamification also develops independent thinking, a creative approach and collaborative work skills in students. With the help of these technologies, the student transforms from a passive learner into an active participant, and the teacher acts as a guide and motivator of the educational process. The use of game-based tasks in lessons strengthens students' ability to use language in real communication, which is an important factor in the formation of their communicative competence.

THE LIST OF USED LITERATURE:

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
2. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco: Pfeiffer.
3. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. Sebastopol: O'Reilly Media.
4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? – A literature review of empirical studies on gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.
5. Surendeleg, G., Murwa, V., Yun, H.-K., & Kim, Y.-S. (2014). The role of gamification in education – A literature review. Contemporary Engineering Sciences, 7(29), 1609–1616.
6. Al-Azawi, R., Al-Faliti, F., & Al-Blushi, M. (2016). Educational gamification vs. game-based learning: Comparative study. International Journal of Innovation, Management and Technology, 7(4), 132–136.
7. Buckley, P., & Doyle, E. (2017). Gamification and student motivation. Interactive Learning Environments, 25(7), 948–961.
8. Landers, R. N. (2019). Gamification misunderstood: How badly executed gamification de-motivates learners and what to do about it. Advances in Motivation Science, 6, 57–81.
9. Xo'jayev, B. (2021). Chet tili o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari. Toshkent: TDPU Ilmiy axborotlari.
10. Karimova, D. (2023). Zamonaviy ta'limda gamifikatsiya yondashuvining lingvodidaktik ahamiyati. "Filologiya masalalari" jurnali, №2, 85–91.

Musharraf ABDULXAYEVA,
 Qo'qon davlat universiteti
 Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA OID KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning yozma nutq malakalarini shakllantirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik jarayoni yoritiladi. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni o'rgatishda muallimning kasbiy kompetensiyasini oshirishga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, metodika, pedagogik texnologiya.

Аннотация: в данной статье рассматривается процесс профессиональной подготовки будущих учителей, направленный на формирование письменной речи. Анализируются методики развития письменной речи, современные подходы, педагогические технологии и эффективные методы, применимые в учебном процессе. Также даны рекомендации по повышению профессиональной компетентности преподавателя в обучении письменной речи.

Ключевые слова: письменная речь, будущий учитель, профессиональная подготовка, методика, педагогическая технология.

Annotation: this article explores the process of professional training of future teachers aimed at developing written speech skills. It analyzes methods of written speech development, modern approaches, pedagogical technologies, and effective techniques applicable in the teaching process. The article also provides recommendations for improving teachers' professional competence in teaching writing skills.

Key words: written speech, future teacher, professional training, methodology, pedagogical technology.

Kirish. Yozma nutq – bu tilning muhim shakli bo'lib, o'quvchilarning fikrni aniq, mantiqiy va ifodali bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun esa bu ko'nikma ikki tomonlama ahamiyatga ega: birinchidan, ular o'z fikrlarini yozma shaklda ifoda etishni o'rganadilar, ikkinchidan, bu malakani kelajakda o'quvchilarga o'rgatishlari kerak bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutq malakasining ahamiyati.

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchi shaxsining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yozma nutq malakasi esa pedagogik kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun yozma nutqni o'rgatishning maqsadi – o'qituvchini o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri, uslubiy nuqtayi nazardan aniq va tushunarli ifoda eta oladigan mutaxassis qilib tayyorlashdir.

Yozma nutq — og'zaki nutqqa nisbatan barqaror, tahrirlangan va rasmiy tusdagi muloqot shaklidir. U quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- tashkiliy va strukturaviy yaxlitlik;
- fikrni mantiqan ifodalash;
- so'z boyligi va uslubiy aniqlik;

- imloviy va grammatik me'yorlarga rioya qilish. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik va psixologik bilimlar;
- o'quv faniga oid chuqur nazariy bilimlar;
- kommunikativ kompetensiyalar (jumladan, yozma nutq);
- amaliy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik.

Yozma nutqni shakllantirish metodikasi

Yozma nutqni shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- **Bosqichma-bosqich o'rgatish:** oddiy jumalardan murakkab matnlar tuzishga o'tish.
- **Matn asosida ishlash:** tahlil, qayta hikoya qilish, ssenariy yozish, ijodiy topshiriqlar.
- **Model asosidagi yozish:** tayyor andozalar yordamida yozma ishlarni tuzish.
- **Reflektiv yondashuv:** yozilgan matnни tahlil qilish, xatolar ustida ishlash.

Bundan tashqari, interaktiv metodlar, jamoaviy va individual ish usullari, hamda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) asosida tuzilgan topshiriqlar katta samaradorlik beradi.

Kasbiy tayyorgarlikda yozma nutqni rivojlantirishga oid tavsiyalar.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- **Amaliy mashg'ulotlar:** yozma topshiriqlar asosida seminarlar va treninglar o'tkazish.
- **Portfoliolar yaratish:** talabalarning yozma ishlarini tizimli tarzda jamlab borish.
- **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** tahliliy maqola, esse va ilmiy izoh yozishga o'rgatish.
- **O'zaro tahlil va baholash:** talabalarning bir-birining ishlarini tahlil qilish orqali yozma nutqni tahliliy baholashga o'rgatish.

Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni shakllantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Matn asosida ishlash.
2. Imlo va uslub ustida ishlash.
3. Yozma ijodiy mashqlar.
4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Bo'lajak o'qituvchilarning yozma nutqni rivojlantirishda amaliyot darslarining o'zni katta. Quyidagi yo'llar bilan real natijalarga erishish mumkin:

- Portfel usuli — talabalar yozgan barcha matnlarni jamlab, tahlil qilish.
- Aqliy hujum (brainstorming) orqali tezkor yozma fikrlar ishlab chiqish.
- Xatolar bazasini tuzish va ularni tahlil qilish.
- O'zaro baholash va tahliliy mulohazalar almashinuvi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchi shaxsining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yozma nutq malakasi esa pedagogik kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun yozma nutqni o'rgatishning maqsadi – o'qituvchini o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri, uslubiy nuqtayi nazardan aniq va tushunarli ifoda eta oladigan mutaxassis qilib tayyorlashdir.

Diktantlar va ularning turlarini o'zbek olimlaridan: G.Ziyodullayeva, Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova, M.Yusupov, D.Abdullayeva, M.Yusupova, D.Eshonqulova, G.Rahmatova, I.Xolmurodov, D.O'rinboyeva, M.Rahimova, M.Mamadiyeva, G'.Ernazarov, S.Musayevalar¹

¹ D.Eshonqulova, G.Rahmatova. Diktantlar to'plami. – Toshkent, 2018; D.O'rinboyeva, M.Rahimova. Diktantlar to'plami. – Samarqand, 2017; G.Ziyodullayeva, M.Mamadiyeva, Sh.Toshmirzayeva. Ona tilidan nazorat ishlari va uni baholash mezon. – T.: "Yangi nashr", 2018; G.Ziyodullayeva,

o'rganishgan va ko'plab darslik va metodikalar ishlab chiqishgan.

Исламгалиевой Жанат Бауыржановны² o'zining ilmiy ishida diktant va ularning turlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari T.B.Буркова, Т.А.Каясова, А.И.Кобызев³lar o'zlarining kitoblarida Tumolskaya Elena Mixaylovnaning esa maqolalarida diktantlar haqida tushuncha va ma'lumotlar berib o'tilgan.

Diktantlar o'quvchilarda ko'rish, eshitish, fikrlash, yozma va og'zaki nutqni rivojlantiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Diktant olish orqali o'quvchilarning yozma nutqni rivojlanib boradi. Biroq diktant yozish ko'pchilik o'quvchilar uchun juda zerikarli hisoblanadi. Diktant olish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqarli bo'lishi uchun turli metodlardan foydalangan ma'quldur. Biz ushbu maqolada diktant olish jarayonida AKT dan foydalanish metodikasi to'g'risida ma'lumotlar berdik.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni shakllantirish – ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadigan ko'nikmadir. Ushbu malaka orqali o'qituvchi o'z fikrini ravon bayon etish, hujjatlar yozish, metodik materiallar tayyorlash va o'quvchilarga yozma nutqni o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ta'lim jarayonida keng qo'llanishi zarur.

Yozma nutq – bu o'qituvchining kasbiy saviyasini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biridir. Bo'lajak o'qituvchilarda bu ko'nikmani rivojlantirish doimiy metodik yondashuv, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion texnologiyalar orqali samarali amalga oshiriladi. Metodik yondashuvlar tizimli va bosqichma-bosqich joriy etilgandagina, bo'lajak pedagoglar zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

M.Mamadiyeva. Diktantlar to'plami: o'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur", 2012; G'.Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. 4-nashr. – Toshkent, 2013; I.Xolmurodov, S.Musayeva. Diktantlar to'plami. – Qoraqalpog'iston.

² Исламгалиевой Жанат Бауыржановны. Обучение младших школьников письму разных видов диктантов. Автореферат выпускной квалификационной работы бакалаврской работы. – Саратов, 2018.

³ А.И.Кобызев «Новый вид диктанта», «Проверяю себя», М.: Просвещение, 2002. Т.В.Буркова Рабочая классификация диктантов // Начальная школа – 2005.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanboyeva M., Yusupova D. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Karimov M. "Pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
3. Raxmonov A. "Yozma nutqni o'rgatish asoslari". – Samarqand, 2019.
4. Vygotsky L.S. "Myshlenie i rech". – Moskva: Pedagogika, 2001.
5. Richards J.C., Renandya W.A. "Methodology in Language Teaching". – Cambridge University Press, 2002.

Elyorjon VALIYEV,
 Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

VIRTUAL MULOQOT JANRLARI VA LINGVISTIKA

Annotatsiya: virtual muhitda yuzaga kelayotgan nutqiy janrlar yangi formatda namoyon bo'lishligi, qisqa, tezkor, emotsionalligi, shuningdek, gibrid ya'ni, turli janrlarning birga ifodalanishligi bilan xarakterlanuvchi nutqiy janrlardir. Bugungi kunda virtual muloqotning onlayn platformalar (WhatsApp, Telegram, Zoom, Microsoft Teams va h.k.), ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, X (Twitter), messenjerlar va chat kabi turlari keng tarqalgan.

Kalit so'zlar: *WhatsApp, Telegram, Zoom, grafika va matn, Instagram, Facebook, TikTok, elektron pochta, forumlar va bloglar.*

Annotation: speech genres emerging in the virtual environment are speech genres characterized by their manifestation in a new format, their brevity, speed, emotionality, as well as hybrid, that is, the simultaneous expression of different genres. Today, virtual communication is widespread in online platforms (WhatsApp, Telegram, Zoom, Microsoft Teams, etc.), social networks (Instagram, Facebook, X (Twitter), messengers and chats.

Key words: *WhatsApp, Telegram, Zoom, graphics and text, Instagram, Facebook, TikTok, email, forums and blogs.*

Аннотация: речевые жанры, формирующиеся в виртуальной среде, характеризуются новым форматом проявления, краткостью, скоростью, эмоциональностью, а также гибридность, то есть одновременным выражением различных жанров. Сегодня виртуальное общение широко распространено на онлайн-платформах (WhatsApp, Telegram, Zoom, Microsoft Teams и др.), в социальных сетях (Instagram, Facebook, Twitter), мессенджерах и чатах.


Ключевые слова: *WhatsApp, Telegram, Zoom, графика и текст, Instagram, Facebook, TikTok, электронная почта, форумы и блоги.*

Kirish. Virtual muhitda yaratilayotgan nutqiy janrlarning har biri o'ziga xos lingvistik xususiyatga ega. Xususan, chat janri Telegram, WhatsApp kabi platformalarda qisqa, norasmiy, stikerli, smaylik ishlatish mumkin bo'lgan virtual nutqiy janrdir. Elektron pochta esa Gmail, Mail.ru platformalarida qo'llaniluvchi rasmiy/norasmiy, aniq tuzilmaga ega, ijtimoiy tarmoq postlari esa Instagram, Facebook, X (Twitter) axborotli, shaxsiy, ko'pincha vizual, memo janri esa yumoristik xarakterdagi, grafika va matn aralash qo'llaniluvchi, forum janri esa Reddit, Stack Overflow platformalarida qo'llaniluvchi mulohazali, mukammal, mavzuga oid muhokama, Medium, X platformalarida namoyon bo'luvchi blog janri esa avtobiografik, axboriy, shaxsiy yoki kasbiy xarakterga egaligi, bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. Virtual muloqot janrlarining lingvistik xususiyatlarining muhim tomonlari shundaki, qisqalik va shifrlash (masalan, "Salom,

nma gap?"), emodzi, stikerlar orqali emotsiya ifodasi, kodmiksing va kod-sviching (ruscha-o'zbekcha aralash nutq), internet-so'zlar va neologizmlar (masalan: layk, repost, xeshteg) kabi imkoniyatlar mavjud. [1.5-9].

Virtual muloqotning internet va raqamli platformalar orqali amalga oshadigan yozma yoki ovozi turlarining paydo bo'lishi bilan uning janrlarni ishlab chiqish imkoniyati kundan kunga yangilanib bormoqda.[2.94] Bir so'z bilan aytganda, virtual muloqot internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali olib boriladigan muloqot shakli sifatida o'ziga xos janrlarni, xususan, chatlar (Telegram, WhatsApp, Messenger), elektron pochta, forumlar va bloglar, videokonferensiyalar (Zoom, Google Meet), ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar va postlar (Instagram, Facebook, TikTok), internet memolar kabilarni ishlab chiqdi. Buni quyidagi rasm orqali ifodalaymiz:



Yuqorida keltirilgan, virtual muloqotning chat janrida, qisqalik, ifodalilik, emotsionallik (emodzi, stikerlar), elektron maktub (rasmiy/norasmiy, maxsus kompozitsiyasi mavjudligi (kirish, asosiy, yakuniy qism), forum va bloglar mulohaza qilishga imkoniyatning mavjudligi, tanqidiy fikrlash, savol-javob ko'inishda ifodalanishi, ijtimoiy tarmoqlardagi post va izohlarda muayyan axborotning mavjudligi, shaxsiy ahamiyatga egaligi, ko'p hollarda vizual, ya'ni rasm yoki video bilan uzatilishi, memo janri esa yumoristik xarakterda ekanligi bilan ajralib turadi. Virtual muloqot janrlarining umumiyliigi shundaki, virtual muloqot janrlarining barchasida qisqalik, shifrlash, interaktivlik, emotsional ifodalardan foydalanish, ommaviylik kabilar yetakchilik qiladi. [2.110]

Ijtimoiy tarmoqning inson hayotida afzalligi haqida gapirar ekanmiz, uning muloqot vositasi, ya'ni do'st orttirish, ma'lumot to'plash, yangiliklardan xabardor bo'lish uchun yaxshi vosita sifatida e'tirof etish bilan birga, uning jonli muloqotga teng bo'la olmasligini ham ta'kidlash joizdir. Internet aloqasi 20-asr boshlarida paydo bo'lganidan beri uzoq yo'lni bosib o'tdi. Darhaqiqat, u juda uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lib, biz har doim ham shunday bo'lmaganini

sezmasligingiz mumkin. Biz hozir internet deb bilgan narsaga birinchi qadamlar 1800-yillarning oxirida telegraf operatorlari tomonidan qo'yilgan bo'lib, ular uzoq masofalarga xabar yuborish uchun Morze alifbosidan foydalanganlar. Buning ortidan telefon qo'ng'iroqlari boshlandi, bu odamlarning geografik chegaralar bo'ylab bir-biri bilan muloqot qilishiga imkon berdi. Oxir-oqibat, bu texnologiyalar elektron pochtaga aylandi, bu foydalanuvchilarga kompyuterlar o'rtasida oldinga va orqaga xabar yuborish imkonini berdi.

Virtual muloqot janrlari va turlari doimiy ravishda rivojlanib, yangi texnologiyalar va insonlarning ijtimoiy ehtiyojlariga qarab o'zgarib bormoqda. So'nggi yillarda Instagram, Facebook, TikTok, X (Twitter) kabi ijtimoiy tarmoq postlari va izohlari kishilarning kundalik hayotini, fikrlarini, hissiyotlarini tez va ommabop tarzda bayon qilish imkoniyati mavjudligi sababli juda ommalashgan va ijtimoiy ehtiyoj tufayli ularning yangi formatlari Reels (Instagram), Shorts (YouTube), Threads, Stories, Stickers, Polls yuzaga keldi. Bugungi kunga kelib, videokontent va strim (jonli efir) janrlari ham rivojlandiki, bunda jonli suhbatlar, blog, intervyu, Q&A, reaksiya videolari o'z aksini topadi. Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi videokonferensiya shaklidagi virtual muloqot o'zining masofadan ishlash va o'qish imkoniyatini taqdim etuvchi, ta'lim, biznes, onlayn treninglar, onlayn mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual muloqotning audiomuloqot shaklidagi podkast turi audiosuhbat, intervyu, ta'limiy va ijtimoiy mavzulardagi mulohazalarni tashkil qilib, mazmunli ekanligi, ishlash, dam olish, yurish paytida ham tinglash imkoniyati mavjudligi tufayli adresatlarning vaqti tejaladi. Virtual muloqotning yumoristik xarakterdagi mem turi Telegram, Instagram, TikTok, Reddit kabilarda rasm, video, GIF, matn orqali kulgi va tanqidni ifoda qilishga yo'naltirilganligi, qisqa, ta'sirli va ommaviy tarzda axborotni yumor orqali yetkazishda samarali ekanligi bilan ommalashgan. Multi-chat, guruh chat, kanallar, botlar formatidagi Telegram, WhatsApp, Messenger, Discord kabi platformalarda messendjer chatlari va guruh muhokamalari ommalashmoqda. Buning sababi ushbu vositalar orqali tezkor aloqa, fayl

almashuvi, guruhli fikr almashish imkoniyati mavjud.[3.75-83]

Virtual muloqotning sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) turi kompyuterlar va mashinalarga insonlarga xos aql, tafakkur va o'rganish qobiliyatlarini berishni maqsad qilgan texnologiya va fan sohasidir. Bunda ma'lumotlarga tayanib avtomatik ravishda yaxshilanish, inson tilini tushunish va javob berish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, rasmlar va videolarni tahlil qilish, obyektlarni tanib olish kabi funksiyalari mavjud. Shu bilan birga, avtomatlashtirilganligi, bilimliliigi, 24/7 ishlashi bilan xarakterlanadi. Bularga misol qilib ChatGPT, Google Gemini, Claude, Telegram-botlarni keltirish mumkin. Aytish mumkinki, SI chatbotlar va virtual yordamchilar — bu zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ishlaydigan dasturiy ta'minot vositalari bo'lib, insonlar bilan tabiiy tilda muloqot qilish qobiliyatiga ega. Ushbu janr sun'iy intellekt, mashinali o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP — Natural Language Processing) sohalaridagi yutuqlarga asoslangan. Sun'iy intellekt bir qator o'ziga xosliklarga ega virtual muloqotning bir turidir. Bunda sun'iy intellektda yaratilgan texnik vositalarda insonga o'xshash muloqot qobiliyatining mavjudligi, tabiiy tilni tushunish va javob berish qobiliyatiga egaligi, ko'p holatlarda inson bilan muloqotda ekanligini sezdirmasligi, foydalanuvchiga xizmat


ko'rsatish: ya'ni savol-javoblar, ma'lumot izlash, xizmatlarni topish yoki buyurtma berishda yordam berishi, korxonalarda mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishda foydalanilishi, ko'p funksiyaliligi, so'zni tushunish, ma'lumot izlash, ta'qib qilish (tracking), to'lov amalga oshirish, tadbirni eslatish kabi, virtual yordamchilar (masalan, Siri, Alexa, Google Assistant) kundalik vazifalarni yengillashtirishi kabilar kuzatiladi.

Yillar davomida Internet aloqasi juda o'zgardi. Odamlar birinchi marta elektron pochtdan foydalanishni boshlaganlarida, ular uzun jumlar va paragraflarni yozishlari kerak edi, chunki ularning xabarlarida kulgichlarni qo'shishning hech qanday usuli yo'q edi. Endi biz har doim kulgichlardan foydalanamiz! Biz emoji'larni matnli xabarlarida his-tuyg'ularni ifodalash yoki hatto "qo'ldan kelgan cha harakat qilish" kabi murakkab iboralarni qilish uchun ishlatishimiz mumkin.

Xulosa. Virtual vositalarning kashf qilinishi zamonaviy jamiyatning aloqa uslubini tubdan o'zgartirdi. Ularda shaxsiylik, dinamiklik, vizuallik va qisqalik asosiy xususiyatlarga aylandi. Shunday qilib, tilning virtual muhitda qanday shaklda o'zgarishi va qay tarzda yangi janrlar paydo bo'lishi — bugungi tilshunoslik va janrshunoslik uchun dolzarb masaladir. Bunda og'zaki va yozma uzatilayotgan xabarlar tili va matni lingvistik tadqiqotlar uchun obyektidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баева Л. Виртуальная коммуникация: классификация и специфика. Известник Саратовского университета. Философия, педагогика, психология, 2014, №14, вып 4. С 5-9.
2. Баева Л. Виртуальная коммуникация: особенности и этические принципы. Философские науки. 2015 (10), с 94-110.
3. Баева Л. Электронная культура: опыт философская анализа//Вопросы философии. 2013. №5, с 75-83.



+



TADQIQOTLAR

+

Omina YUSUPOVA,
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
yusupovaomina77@gmail.com

INGLIZ FOLKLORIDA “DONOLIK/NODONLIK” HAMDA “YAXSHILIK/YOMONLIK” TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TAHLILI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz xalq ertaklari va afsonalarida uchraydigan “donolik/nodonlik” hamda “yaxshilik/yomonlik” tushunchalari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – “donolik/nodonlik” va “yaxshilik/yomonlik” antonimik juftliklarining xalq ongida qanday konsept sifatida shakllanganini aniqlash, ularning tildagi leksik ifodasi, semantik maydonini o'rganish hamda bu tushunchalarning madaniy mazmunini ochib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot mazkur oppozitsiyalarning xalq ertaklari va afsonalaridagi obrazlar orqali ifodalanishi, ularning ijobiy hamda salbiy qahramonlar xatti-harakatlari, nutqi, ramziy belgilarida qanday namoyon bo'lishini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *ingliz folklori, antonimiya, oppozitsiya, konsept, yaxshilik, yomonlik, donolik, nodonlik, semantika, lingvistik tahlil.*

Annotation: this article presents a linguistic analysis of the concepts “wisdom/foolishness” and “goodness/badness” found in English folk tales and legends. The main objective of the research is to determine how the antonymic pairs “wisdom/foolishness” and “goodness/badness” have been formed as cultural concepts in the collective consciousness, to explore their lexical representations and semantic fields, and to reveal their cultural meanings. The study also examines how these oppositions are reflected through the imagery of folk narratives – in the actions, speech, as well as, symbolic features of positive and negative characters.

Key words: *english folklore, antonymy, opposition, concept, goodness, evil, wisdom, foolishness, semantics, linguistic analysis.*

Аннотация: в данной статье проводится лингвистический анализ понятий «мудрость/глупость» и «добро/зло», встречающихся в английских народных сказках и легендах. Основная цель исследования заключается в выявлении того, как антонимические пары «мудрость/глупость» и «добро/зло» сформировались как культурные концепты в народном сознании, в изучении их лексического выражения, семантического поля и культурного содержания. Кроме того, в работе рассматривается, как данные оппозиции отражаются через образы народных сказаний – в поступках, речи и символических чертах положительных и отрицательных персонажей.

Ключевые слова: *английский фольклор, антонимия, оппозиция, концепт, добро, зло, мудрость, глупость, семантика, лингвистический анализ.*

Kirish. Ingliz folklori xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy ongini aks ettiruvchi bebaho manba sifatida muhim o'rin tutadi. Folklor – xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi va jamiyatda shakllangan axloqiy tamoyillarining badiiy ifodasidir. Xususan, ingliz xalq ertaklari va afsonalarida uchraydigan “wisdom – foolishness” hamda “goodness – badness” oppozitsiyalari xalq tafakkurida shakllangan asosiy axloqiy-me'yoriy kategoriyalar sifatida

namoyon bo'ladi. Mazkur oppozitsiyalar orqali xalq og'zaki ijodi nafaqat axloqiy qadriyatlarni targ'ib etadi, balki ularni avloddan-avlodga yetkazish, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Shu bois, ingliz folkloridagi “wisdom/foolishness” va “goodness/badness” kategoriyalarini lingvistik hamda semantik jihatdan tahlil etish xalq tafakkurining madaniy-kognitiv asoslarini, shuningdek, milliy mentalitetning o'ziga xos tomonlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Mazkur tadqiqotda asosiy metodologik asos sifatida *lingvokulturologik*, *kognitiv-semantik* va *konseptual* tahlil usullari tanlandi. Ularning qo'llanishi xalq folkloridagi “donolik/nodonlik” va “yaxshilik/yomonlik” antonimik juftliklarining mazmuniy, semantik hamda madaniy qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi. Birinchidan, *lingvokulturologik tahlil* orqali mazkur antonimlarning ingliz xalq tafakkurida qanday ijtimoiy-madaniy konnotatsiyaga ega ekanligi o'rganildi. Bu yondashuv xalq tilidagi qadriyatlar, ramzlar va axloqiy me'yorlarning tilda aks etish mexanizmini aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, *kognitiv tahlil* yordamida “donolik” va “nodonlik”, “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarining xalq ongidagi mental modellari hamda ularning semantik maydoni tahlil qilindi. Uchinchidan, *semantik tahlil* metodi orqali mazkur antonimik birliklarning leksik-semantik tuzilishi, sinonimik qatori, konnotativ ma'nolari va ular ifodalangan kontekstual vaziyatlar o'rganildi.

Ingliz folkloridagi axloqiy va kognitiv oppozitsiyalarni o'rganishda bir qator tadqiqotlar asos qilib olindi. Avvalo, V.Proppning “*Morphology of the Folktale*” asari folklor asarlaridagi struktura va qahramonlar tizimini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi [5]. A.Dundes o'zining “*Interpreting Folklore*” asarida folklori xalq tafakkurining semantik tizimi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, har bir xalq ertagida ijtimoiy qadriyatlar til orqali kodlangan bo'ladi [2]. Bu yondashuv “donolik” va “yaxshilik” konseptlarini xalq mentaliteti bilan bog'lab tahlil qilish imkonini beradi. S.Thompsonning “*The Folktale*” nomli tadqiqotida esa ertaklar universalligi, ularning axloqiy asoslari va obrazlar semantikasi tahlil etiladi [7]. Thompsonning motivlar indeksatsiyasi (“*Motif-Index of Folk Literature*”) “yaxshilik/yomonlik” oppozitsiyasini tahlil qilishda qo'llanildi [6]. Tilshunoslik jihatidan, D.Crystalning “*The Cambridge Encyclopedia of the English Language*” asaridagi leksik-semantik maydonlar haqidagi nazariy qarashlar tahlilga ilmiy asos bo'ldi [1]. Ayniqsa, antonimiya, semantik qarama-qarshilik va konnotativ ma'no tahlili uchun bu manba muhim ahamiyat kasb etdi.

Natijalar va muhokama

O'rganilgan folklor matnlarida “*donolik*” konsepti odatda aqli, hushyor, sabrli va adolatli obrazlar orqali ifodalanadi. Ingliz folklorida “*donolik*” konsepti inson tafakkuri, hayotiy tajriba va aql-idrok bilan uzviy bog'liq bo'lgan kognitiv birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tushuncha xalq ongida ijtimoiy tajriba, kuzatuvchanlik va ehtiyotkorlikning ramzi hisoblanadi. Ingliz ertaklarida *wisdom*, *intelligence* leksemalari donolikni ifodalab, ko'p o'rinlarda qo'llanadi. “Ikki cho'ntakkesar o'g'rilar” (The Two Pickpockets) nomli ertakda donolikni ifodalovchi *cleverness* leksemasini uchratish mumkin. *Cleverness* leksemasi kishilarning ijobiy xislatga ega ekanligini ifodalab, “*ability to understand and learn quickly and easily*” (tez va oson tushunish hamda o'rganish qobiliyati) tarzida izohlanadi [8]:

“*He was so much taken by her cleverness in robbing him that he suggested that they should go into partnership together.*”

“The Wise Men of Gotham” ertagida *wise*, *wisdom* kabi leksemalar ko'p o'rinlarda uchraydi. *Wisdom* leksemasi “*the ability to use your knowledge and experience to make good decisions and judgments*” (bilim va tajribangizdan to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun foydalanish qobiliyati) semasida qo'llangan [9]:

“*Ah, fools! Will you ever learn wisdom? Help me, and lay my sack upon my shoulders*” [4].

“Professor imtihonidagi tegirmonchi” (“The Miller at the Professor's Examination”) ingliz ertagida ham *wisdom* leksemasi mavjud.

“*Oh! if that's all,*” said the miller, “*don't be low about the matter. Did you never hear that a clown may sometimes teach a scholar wisdom?*”

“*Nodonlik*” konsepti kognitiv nuqtayi nazardan inson tafakkuridagi tajribasizlik, beparvolik va noto'g'ri qaror qabul qilish holatini ifodalaydi. U ingliz ertaklarida ikki xil ma'noda – salbiy va komik shaklda namoyon bo'ladi. Ba'zan nodon qahramon o'z xatti-harakatlari bilan kulgili vaziyatlar yaratadi, biroq bu holatlar o'quvchiga yoki tinglovchiga ibrat bo'lish, ya'ni didaktik maqsadni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ingliz ertaklaridagi *nodonlik* konsepti turli leksemalarni o'z ichiga oladi. Masalan, *stupid* leksemasi ahmoq, nodon, aqlsiz ma'nolarini

ifodalab, *“silly or unwise; showing poor judgment or little intelligence”* (ahmoq yoki aqlsiz; noto'g'ri mulohazani yoki aqlsizlikni ko'rsatish) deb ta'riflanadi [10].

“You stupid lout, said his mother, you should have carried it very carefully in your hands” [3].

Blockhead, simpleton kabi leksemalari sodda ahmoq qahramonlarni tasvirlashda *“fool”*ga sinonim bo'ladi.

“Mr. Vinegar, you foolish man, you blockhead, you simpleton; you went to the fair, and laid out all your money in buying a cow”. (Mr. Vinegar)

Folklor matnlarida **donolik** va **nodonlik** oppozitsiyasi ko'pincha qarama-qarshi obrazlar orqali ifoda etiladi: dono qahramon aql, sabr va halollik bilan muvaffaqiyatga erishsa, nodon yoki yovuz obraz o'z xatolari tufayli jazolanadi.

“Yaxshilik” va **“yomonlik”** oppozitsiyasi esa ko'plab ertaklarda markaziy mavzuni tashkil etadi. **“Good”** konsepti *kindness, honesty, mercy, justice* kabi ijobiy fazilatlar bilan uyg'unlashgan bo'ladi.

“The countryman bade him welcome, and his wife, who was a very good-hearted woman...” (“The history of Tom Thumb”)

“Evil” konsepti *cruelty, deceit, greed* kabi salbiy jihatlar bilan bog'langan.

“William would be powerful and strong as the eagle, but feared and hated for cruelty and violence....” (“The Sons of the Conqueror”)

Shu tarzda, yaxshilik/yomonlik juftligi nafaqat axloqiy mezon sifatida, balki xalq tafakkurining konseptual modeli sifatida ham faol ishlaydi. Ingliz

folklorida mazkur antonimik tushunchalar turli leksik va frazeologik birliklar orqali ifodalanadi: **Wisdom:** *wise, clever, prudent, witty, thoughtful.* **Foolishness:** *foolish, silly, stupid, naive, gullible;* *“A fool and his money are soon parted.”* **Good:** *kind, pure, honest, generous, brave, merciful;* *“Honesty is the best policy”.* **Evil:** *wicked, cruel, malicious, greedy, deceitful.*

Bundan tashqari, metafora va epitetlar orqali ham konseptlar kuchaytiriladi:

“wise as an owl” (donolik ramzi), **“foolish as a goose”** (nodonlik timsoli), **“wicked witch”** (yomonlik timsoli), **“kind-hearted maiden”** (yaxshilik ramzi).

Mazkur oppozitsiyalar xalq ongida mavjud bo'lgan dualistik dunyoqarashning, ya'ni olamdagi barcha hodisalarning o'zaro ziddiyat va muvozanat asosida mavjud bo'lishi haqidagi tasavvurning mahsulidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz folklorida “donolik/nodonlik” hamda “yaxshilik/yomonlik” antonimik juftliklari xalq tafakkurida axloqiy, madaniy va kognitiv konseptlar sifatida shakllangan bo'lib, ular ingliz xalqining ma'naviy olami, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy qadriyatlarini ifoda etadi. Ushbu tushunchalar xalq og'zaki ijodining semantik asosini tashkil etib, ezigulik hamda yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashni, inson hayotidagi aql va tajribaning ahamiyatini yoritadi. Shunday qilib, bu antonimik birliklar ingliz folklorining lingvokognitiv va madaniy mohiyatini ochib beruvchi muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press. 2003
2. Dundes, A. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press. 1980.
3. Joseph J. English Fairy Tales. – Pennsylvania State University. 2005.
4. Joseph J. More English Fairy Tales. Illustrated by John D. Batten. – London, David Nutt, 1894. – P.206.
5. Propp, V. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press. 1968.
6. Thompson, S. Motif-Index of Folk Literature. – Bloomington: Indiana University Press. 1958.
7. Thompson, S. The Folktale. – Berkeley: University of California Press. 1977.
8. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cleverness>
9. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/wisdom>
10. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/stupid>

Nargiza MAMADJANOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
n-mamadjanova@mail.ru

KINODISKURSDA TARJIMA MASALALARI VA ULARNING MADANIYATDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada kinodiskursda til, jamiyat va madaniyatning aloqasi tahlil qilinadi. Shuningdek, tilning kino hikoyalari doirasida qanday ishlashini o'rganishga va ijtimoiy kontekst va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishga qaratilgan. Bundan tashqari, ko'p madaniyatli dunyoda muloqot va o'zaro tushunishni til ishlatishning maydoni sifatida filmning rolini yoritadi.

Kalit so'zlar: kinodiskurs, jamiyat, madaniyat, kino hikoyalari, ijtimoiy kontekst, til.

Аннотация: в статье анализируется взаимосвязь языка, общества и культуры в кинодискурсе. Целью проекта также является изучение того, как язык функционирует в киноповествованиях, и выявление взаимосвязи между социальным контекстом и культурной идентичностью. В нем также подчеркивается роль кино как пространства для использования языка, способствующего общению и взаимопониманию в многокультурном мире.

Ключевые слова: кинодискурс, общество, культура, истории фильмов, социальный контекст, язык.

Annotation: this article analyses the relationship between language, society and culture in film discourse. The project also aims to explore how language functions in film narratives and to identify the relationship between social context and cultural identity. It also highlights the role of cinema as a space for the use of language to facilitate communication and understanding in a multicultural world.

Key words: film discourse, society, culture, film stories, social context, language.

Kirish. Tilshunoslikda tarjima muammolari qadimdan o'zining aktualigi bilan olimlar diqqat markazida bo'lib kelayotgan masalalardan biridir.

Kino olamida matn tahlili - kinodiskurs va buning ikki millat filmlaridagi matnlarda tarjima masalalarini tahlil qilish bugungi tilshunos olimlarini qiziqishiga olib kelgan masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarjima masalalarini film sohasida o'rganilishi ham ko'plab olimlarning tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Yozma adabiyotda sheva va kod almashinuvini o'rganish, ayniqsa adabiyot nazariyasi va uslubiyatda mustahkam ilmiy an'anaga ega bo'lib, buni Bahtin, Kalpeper, Hess ishlari, shuningdek "Til va adabiyot" jurnalining maxsus soni (2001) misolida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, bu mavzu dialektologlar va sotsiologvistiklar, jumladan, Hass, Johnson va Mestrie e'tiborini ham tortgan.

Xatchbi ta'kidlashicha, media tadqiqotlari ko'pincha tilni shunchaki "shaffof" vosita deb hisoblaydi, u faqat "mazmun"ni yetkazib beruvchi vosita bo'lib, keyinchalik bu mazmun hikoya tahlili yoki boshqa baholash me'zonlari orqali o'rganiladi.

Dotsent doctor Ayse Toy Par bilan suhbatda Gaudreault qo'shimcha ravishda shuni tushuntiradiki, dastlabki filmlar shaharma-shahar sayohat qiluvchi operatorlarga tarqatilgan va ular bu asarlarni yaxlit hikoyalardan xoli bo'lgan tomoshalar sifatida namoyish etishgan.

Tom Gunning dastlabki kino asarlarini izchil hikoyalardan ko'ra tasvirlarning vizual ritorikasiga ustuvorlik berish tendensiyasi uchun tanqid qiladi. U attraksionlarni ko'pincha uzoq muddatli hikoya rivoji yoki psixologik teranlik hisobiga tomosha va bevositalikga qaratilgan deb ta'riflaydi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqola turli xil auditoriyaga ta'sir qiluvchi ma'noni yaratish uchun tilning kino hikoyalari doirasida qanday ishlashini o'rganishga va shu orqali kinematografik til, ijtimoiy kontekst va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishga qaratilgan. Tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohasidagi bilimlarni birlashtirgan holda ko'p tarmoqli yondashuvni qo'llab, ushbu bob ko'p madaniyatli dunyoda muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantiruvchi til ishlatilishining jadal maydoni sifatida filmning asosiy rolini yoritishga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslik, kino va mediashunoslik bilan an'anaviy bog'liq bo'lgan mavzularni o'rganayotgan tadqiqotchilar soni ortib bormoqda. Kinodiskursning sotsiologvistik tasvirlash vositasi sifatida keng tarqalganligi va uning multimodal semiotik artefakt sifatida murakkab tabiati tufayli ushbu kesishuvda alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlanadi.

Ilgarilab ketishdan avval, kino, kinofilm va telefilm diskursi bo'yicha bir necha konseptual jihatlarni aniqlashtirish muhim. Garchi u aniq ta'riflangan akademik tushuncha bo'lmasa ham hozirgi kunda kinodiskurs atamasi qo'llaniladi. Ko'pgina

kontekstlarda ushbu atama “filmdagi til”ning sinonimi sifatida emas, balki tadqiqot doirasini kengaytirish uchun ishlatiladi. “Film diskursi” va “kinodiskurs” o’rtasidagi farqni diskurs nazariyasi va tanqidiy diskurs tahlili nuqtayi nazaridan tushunish mumkin. Fairclough¹ tomonidan taklif etilgan matn va diskurs amaliyotlari o’rtasidagi farqlanishga asoslanib, kinematografik diskursni film-matn va u bilan bog’liq ishlab chiqarish hamda iste’mol jarayonlarining uyg’unlashuvi sifatida tasavvur qilish mumkin.

Chunonchi, ikkalasi (film diskursi hamda kinodiskurs) o’rtasidagi aniq chegaralarni belgilash zamonaviy transmedia oqimlari sharoitida ham empirik, ham nazariy jihatdan samarasizdir. Bu sharoitda filmlar televideniya namoyish etiladi, teleseriallar kino syujetlari va vizual estetikasini o’zlashtiradi, va bularning barchasi tobora internetga ko’chib bormoqda. Umumiy e’tibor audiovizual badiiy hikoyaga qaratilganda esa tahlilning asosiy jihatlari, masalan, lisoniy o’zgaruvchanlikning personajlar tavsifiga munosabati har ikkala sohaga ham tegishli ekanligiga guvoh bo’lamiz.

Kinodiskurs sohasidagi tadqiqot va ilmiy ishlar telekinematografik matnlarga e’tibor qaratgan holda, ularning ishlab chiqarish va qabul qilish amaliyotlari bilan aloqasini ham tahlil etadi. Ulardan ba’zilari telekinematika va boshqa badiiy adabiyot shakllariga ta’sir ko’rsatadigan “ikki tomonlama tizim”dan foydalanadi.¹ Ushbu nazariy va tahliliy farqlanish badiiy asardagi sotsiologik tanlovlarga maqsadli auditoriya tuzilishining qanday ta’sir ko’rsatishini tushunish uchun muhimdir.² Planchenat rejissyorlarning fransuz tilining nostandart turlari haqidagi hukmron til-mafkuraviy qarashlariga bo’lgan munosabatini o’rganadi, bu esa keng tarqalgan stereotiplarni inkor etishga qaratilgan. Shunga qaramay, u bu rejissyorlar o’z sa’y-harakatlarida ba’zi stereotiplarni, xususan, nostandart til va tushunarsizlik o’rtasidagi bog’liqlikni beixtiyor davom ettirishlarini ham ta’kidlaydi. Bleyxenbaxer ommaviy veb-forumlarda tanlangan filmlar atrofidagi muhokamalarni o’rganib,

1 Fairclough, Norman. 1995. Media discourse. London: Edward Arnold.

2 Bednarek, Monika. 2010. The Language of Fictional Television. London/New York: Continuum.

ularni filmlarning o’zida taqdim etilgan til-mafkuraviy nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi.³ Petruchchi “tomoshabinlarning norasmiy javob mashqi” natijalari haqida ma’lumot beradi, u orqali tarjima texnikasining, ya’ni subtitrlash yoki dublyajning ma’lum bir sahnada ikki qahramonning tomoshabin tomonidan talqin qilinishiga ta’sirini baholaydi.⁴

Ushbu tadqiqotlar, sohaga qo’shgan o’z hissalaridan tashqari, media etnografiyasi yoki auditoriya tadqiqotlarini kiritish audio-vizual narrativlarning sotsiologik tahlilini sezilarli darajada boyitishi mumkinligini ko’rsatadi.⁵ Boshqa tomondan, tomoshabinlar bilan o’zaro aloqa o’rnatishning filmdagi sotsiologik farqlarni qanday tushunishi va ularga qanday munosabat bildirishini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Misollarga yondoshadigan bo’lsak, “Star Trek” teleserialidagi til va gender masalasini o’rganib nutq uslublarning o’zgarishi gender haqidagi ijtimoiy va madaniy tasavvurlarning o’zgarishini qanday aks ettirishini ko’rsatadi. Georgakopulu 1960-yillardagi yunon kinosidagi ko’ptillilikni o’rganadi, filmlarda tasvirlangan turli ijtimoiy shevalardagi ziddiyatli munosabatlarni tahlil qilish uchun Bahtin nazariyasidan foydalanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, ushbu sohada xilma-xil yondashuv asosidagi tadqiqotlar mavjud bo’lib, ammo ularning umumlashtirilgan tadqiqi yetishmaydi. Bu yo’nalish filmlarda ular tasvirlagan sotsiologik farqlar bilan qanday munosabatda bo’lishini emas, balki kundalik hayotda uchraydigan murakkab sotsiologik variatsiyalarni qay darajada aks ettirishliklarini o’rganadi.

Bundan tashqari, ular turli sohalar, ayniqsa kino, televideniya va tarjimashunoslik nuqtayi nazarlarini o’z ichiga oladi.

3 Piazza, Roberta, Monika Bednarek & Fabio Rossi (eds.). 2011b. Telecinematic discourse: Approaches to the language of films and television series. Amsterdam/Philadelphia: Benjamins. Queen, Robin. 2004. ‘Du

4 Bleichenbacher, Lukas. 2008. Multilingualism in the movies: Hollywood characters and their linguistic choices. Tübingen: Francke.

5 Petrucci, P. (2012). The translation of cinematic discourse and the question of character equivalence in Talk to me. Multilingua, 31(2-3), 231-251. <https://doi.org/10.1515/multi-2012-0011>.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alim, H. Samy, Award Ibrahim & Alastair Pennycook (eds.). 2009. Global linguistic flows: Hip Hop cultures, youth identities, and the politics of language. New York / Oxford: Routledge.
2. Bednarek, Monika. 2010. The Language of Fictional Television. London/New York: Continuum.
3. Bleichenbacher, Lukas. 2008. Multilingualism in the movies: Hollywood characters and their linguistic choices. Tübingen: Francke.
4. Bucholtz, Mary. 2011. Race and the re-embodied voice in Hollywood film. Language and Communication 31. 255-265.
5. Coupland, Nikolas. 2007. Style. Language variation and identity. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Fairclough, Norman. 1995. Media discourse. London: Edward Arnold.
7. Kozloff, Sarah. 2000. Overhearing film dialogue. Berkeley, CA: University of California Press.

Feruz ATAMURODOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
dotsent, f.f.f.d. (PhD)
feruza.atamurodova77@gmail.com



ADABIYOT VA DAVR: INGLIZ ADABIYOTI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz adabiyotining o'rta asrlardan to zamonaviy postmodern davrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari, yetakchi janrlari va eng mashhur yozuvchilari yoritilgan. Shuningdek, adabiyotning tarixiy sharoit, ijtimoiy hayot va madaniyat bilan o'zaro aloqadorligi ko'rsatib beriladi. Maqola ingliz adabiyotining shakllanish jarayonini, janrlar evolyutsiyasini hamda milliy adabiy an'analarning rivojini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *ingliz adabiyoti, davrlashtirish, Uyg'onish davri, Viktoriya davri, romantizm, modernizm, postmodernizm, adabiy jarayon, milliy an'ana, janr evolyutsiyasi.*

Аннотация: в данной статье анализируются этапы развития английской литературы — от Средневековья до современного постмодернизма. Освещаются характерные особенности каждого периода, ведущие жанры и самые известные писатели. Также показана взаимосвязь литературы с историческими условиями, общественной жизнью и культурой. Статья способствует пониманию процесса формирования английской литературы, эволюции жанров и развития национальных литературных традиций.

Ключевые слова: *английская литература, периодизация, эпоха Возрождения, викторианская эпоха, романтизм, модернизм, постмодернизм, литературный процесс, национальная традиция, эволюция жанров.*

Annotation: this article analyzes the stages of the development of English literature from the Middle Ages to the modern postmodern period. It highlights the distinctive features of each era, the leading genres, and the most prominent writers. The interconnection between literature, historical context, social life, and culture is also demonstrated. The article aims to provide a deeper understanding of the formation of English literature, the evolution of literary genres, and the development of national literary traditions.

Key words: *english literature, periodization, Renaissance, Victorian era, Romanticism, Modernism, Postmodernism, literary process, national tradition, genre evolution.*

Kirish. Ingliz adabiyoti — jahon madaniyatining ajralmas qismidir. Ingliz san'atining eng yaxshi an'analari jahon adabiyotini boyitdi; ingliz nasri va she'riyatining mohir ustalari yaratgan asarlar ko'plab tillarga tarjima qilinib, Angliyadan ancha uzoqlarda ham e'tirof etildi.

Angliya adabiyoti uzoq va murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u mamlakat va xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Unda ingliz milliy xarakterining o'ziga xos jihatlari aks etgan.[1.146.]

Ingliz adabiyoti tarixi, aslida, bir nechta turli "tarixlar"ni o'z ichiga oladi:

– Angliya tarixidagi muayyan ijtimoiy-siyosiy davrlarga mansub adabiyot;

– ma'lum axloqiy ideallar va falsafiy qarashlarni aks ettiruvchi adabiyot;

– ichki (formal, tilga oid) yaxlitlik va o'ziga xoslikka ega adabiyot. Turli davrlarda bu "tarix"larning har biri muhim o'ringa chiqqan. Shu sababli ingliz adabiyoti davrlarini belgilashda turli mezonlardan foydalaniladi. Ba'zi davrlar yirik siyosiy yoki adabiy arboblarning nomi bilan atalgan ("Viktoriya davri", "Jonsonga xos asr"), boshqalari esa adabiyotda hukmron bo'lgan g'oya va mavzular bilan belgilanadi ("Uyg'onish davri", "Romantik harakat"), yana

ba'zilari ("Qadimgi ingliz adabiyoti", "O'rta ingliz adabiyoti") esa asarlar yaratilgan til asosida nom olgan.[2.49.]

Ingliz adabiyoti ko'pchiligimiz ongida Uilyam Shekspir, Charlz Dikens, Artur Konan Doyl va Agata Kristi kabi buyuk yozuvchilarning nomlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada ingliz adabiyotining o'rta asrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan davrlashtirilgan tasnifi keltirilgan, unda ingliz yozuvchilarining eng mashhur asarlari bilan bir qatorda uncha tanilmagan, ammo albatta o'qishga arzigulik asarlar ham qayd etilgan.

Ingliz adabiyoti — bu faqat Angliya yozuvchilari ijodi bilan cheklanmagan, balki Buyuk Britaniyaning barcha hududlarini — Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyani ham qamrab oluvchi boy adabiy merosdir. U asrlar davomida shakllangan murakkab madaniy jarayonlar, ijtimoiy o'zgarishlar va milliy tafakkur evolyutsiyasini o'zida mujassam etadi. Ingliz adabiyoti taraqqiyotining har bir bosqichi o'ziga xos badiiy, falsafiy va estetik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tahlili adabiy jarayonni yaxlit anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. Angliya adabiyoti katta va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u mamlakat va xalq tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Unda ingliz milliy xarakterining

o'ziga xos jihatlari aks etgan. Bu o'ziga xoslik o'rta asr she'riyatida, Choserning dostonlarida, Tomas Morning jasur fikrlarida, Shekspirning komediyalari va fojialarida namoyon bo'lgan; u Sviftning satirasida, Fildingning kulgili epopeyalarida, Bayronning romantik she'riyatidagi isyonkor ruhda, Shouning paradokslari va Dikkensning yumorida ham o'z ifodasini topgan.

1-bosqich. Erta o'rta asrlar yoki anglo-sakson davri (450–1066-yillar)

Mazkur davr adabiyotining markazida og'zaki ijod namunalari asoslangan doston janri turadi. "Beovulf" dostoni bu davrning eng yirik yodgorligi bo'lib, qadimgi ingliz tilida yaratilgan eng uzun epik asar hisoblanadi. Asarlarda fatalistik dunyoqarash, qahramonlik g'oyasi va cherkov-butparastlik ziddiyati asosiy motiv sifatida aks etgan.

2-bosqich. O'rta asrlar davri (1066–1500-yillar)

Normanlar istilosidan so'ng ingliz adabiyoti Yevropa adabiy an'analari bilan uyg'unlashdi. Ushbu davrda xalq afsonalari, ritsar romanlari va balladalar keng tarqaldi. Jyeffri Choserning "Kenterberi hikoyalari" ingliz realizmining ilk namunalari biri sifatida e'tirof etiladi. Dastlab cherkov ta'siridagi didaktik asarlar ustun bo'lgan bo'lsa, keyinchalik xalq hayotiga yaqin, maishiy ruhdagi nasr va she'riyat shakllandi.

3-bosqich. Uyg'unish davri yoki Rennessans (1550–1660-yillar)

Bu davr ingliz adabiyotining eng sermahsul bosqichlaridan biri bo'lib, insonparvarlik, erkin tafakkur va individualizm g'oyalari ustuvorlik qildi. Lirika, dramaturgiya va sonet janrlari yuksak darajada rivojlandi. Uilyam Shekspir, Edmund Spenser va Tomas Murning ijodi bu davr adabiy tafakkurining eng yuksak cho'qqilaridan biridir.

4-bosqich: Neoklassitsizm (1660–1785-yillar)

Mazkur davr adabiyotida mantiq, tartib va aql ustuvor bo'ldi. Fransuz klassitsizmi ta'siri ostida shakllangan ingliz neoklassitsizmi badiiy aniqlik va ijtimoiy tanqid ruhini kuchaytirdi. Jon Milton ("Yo'qotilgan jannat"), Jonatan Swift ("Gulliverning sarguzashtlari") va Daniel Defo ("Robinzon Kruzo") asarlari bu yo'nalishning eng yorqin namunalari.

Restavratsiya va Avgustin davrlari adabiyoti realizm va satira elementlarining uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ilk roman janrining shakllanishi ingliz adabiyotining yangi bosqichini boshlab berdi.

5-bosqich. Romantizm davri (1785–1830-yillar)

Romantizm davrida inson ruhiyati, tabiat bilan uyg'unlik va erkinlik g'oyalari adabiyot markaziga chiqdi. Jeyn Ostin, Lord Bayron, Vordsvort, Kolridj, Jon Kits va Meri Shelli singari ijodkorlar inson tuyg'ularining badiiy ifodasini yangicha uslubda tasvirladilar. Aynan shu davrda gotik roman janri shakllandi.

6-bosqich. Viktoriya davri (1830–1901-yillar)

Viktoriya davri ingliz romanining "oltin asri" hisoblanadi. Charlz Dikkens, Uilyam Tekkerey, Bronte opa-singillar, Oskar Uayld va Tomas Xardi ijodi bu davrning ijtimoiy-realistik yo'nalishini belgilab berdi. Adabiyotda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy mehr-muhabbat masalalari keng yoritildi.

7-bosqich: Modernizm (1901–1960-yillar)

Modernizm davri adabiyotida psixologik tahlil, ichki monolog, oqimlararo tafakkur va vaqtning nisbiyligi kabi g'oyalar markazga chiqdi. Bernard Shou, Gerbert Uells, Virjiniya Vulf va Jeyms Joys singari yozuvchilar inson ongi va zamonaviy jamiyat ziddiyatlarini chuqur tahlil etdilar. Eduard VII davri ijtimoiy tengsizlik, boylik va qashshoqlik kontrastlari bilan ajralib turgan adabiy muhitni yaratdi.

8-bosqich: Postmodernizm (1960-yillar – hozirgi davr)

Postmodernizm modernizm shakllariga reaksiya sifatida yuzaga kelib, janrlar va uslublarni aralashtirish, ironik munosabat va "qora hazil" orqali zamonaviy hayotning murakkabligini ifoda etadi. Agata Kristi, Yan Fleming, Jon R. R. Tolkin, Klayv S. Lyuis va J. K. Rouling ijodi ushbu davrning eng mashhur namoyandalari.

Xulosa. Ingliz adabiyotini o'rganish nafaqat badiiy matnlarni o'qish, balki har bir asarning tarixiy, falsafiy va madaniy kontekstini chuqur anglashni ham talab etadi. Adabiyot — bu millat ruhining ifodasi bo'lib, o'quvchini tafakkur, estetik zavq va ma'naviy boylikka yetaklaydi. Klassik ingliz adabiyoti hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi — uni to'liq tushunish uchun esa, davr, muallif va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni idrok etish zarur. [4.56.]

Ingliz adabiyoti — jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Ingliz san'atining eng yaxshi an'analari jahon adabiyotini boyitishga katta hissa qo'shgan. Ingliz badiiy nasri va she'riyatining yirik ustalari yaratgan asarlar ko'plab tillarga tarjima qilinib, Angliyadan tashqarida ham keng tan olingan va e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. И. Сорокин, Теория литературы. М., Учпедгиз, 1960, стр. 300.
2. А. В. Чичерин. «Возникновение романа эпопеи». М., «Советский писатель», 1958
3. Хализев В.Е. Теория литературы:Учебник. —М.: Высшая школа, 2004. — С. 338.
4. Грифцов Б.А. Теория романа. М., 1927.
5. Кожин В.В. Происхождение романа. М., 1963.
6. Днепров В. Черты романа XX в. М. —Л., 1965.
7. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М., 1975.
8. Atamurodova F.T. ORIGIN OF THE NOVEL IN EUROPEAN LITERATURE. Til va adabiyot jurnali.2024. 4-son, 38-40-b.

Elyorjon XASANOV,
Qo'qon davlat universiteti
assistent-o'qituvchisi (PhD)
Elektron manzil: elshakhtex@gmail.com

INGLIZ TILIDA MINTAQAVIY TALAFFUZ FARQLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilidagi mintaqaviy talaffuz farqlari ko'rib chiqiladi. Mintaqaviy talaffuzning o'ziga xos xususiyatlari, ularning fonetik xususiyatlari va o'zaro ta'siri, shuningdek, talaffuz farqlari o'rganiladi. Maqola ingliz tilida talaffuz farqlarining ta'sirini, uning til o'rganish jarayonida qanday rol o'ynashi va amaliy yechimlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: *mintaqaviy talaffuz, ingliz tili, fonetik farqlar, talaffuz o'rganish, aksent*

Аннотация: в данной статье рассматриваются региональные акценты в английском языке. Обсуждаются особенности регионального произношения, их фонетические характеристики и взаимовлияние, а также изучаются различия в произношении. Статья предлагает влияние регионального акцента на процесс изучения языка и предлагает практические решения.

Ключевые слова: *региональный акцент, английский язык, фонетические различия, изучение произношения, акцент*

Annotation: this article examines regional pronunciation differences in the English language. It discusses the characteristics of regional accents, their phonetic features, and mutual influences, as well as the differences in pronunciation. The article explores the impact of regional accents on the language learning process and offers practical solutions.

Key words: *regional accent, english language, phonetic differences, pronunciation learning, accent*

Kirish. Ingliz tili, uning keng tarqalishi va ko'plab mintaqalarda qo'llanilishi tufayli o'ziga xos talaffuz farqlari mavjud. Mintaqaviy talaffuz farqlari nafaqat ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, balki til o'rganish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi mintaqaviy talaffuz farqlari, ularning fonetik va leksik xususiyatlari, shuningdek, o'quvchilarga bu farqlarni qanday o'rganish va tushunish mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Ingliz tilidagi mintaqaviy talaffuz farqlari. Dastlab aksent va talaffuzga to'xtaladigan bo'lsak, ingliz tilida aksent va talaffuz farqlari juda muhim ahamiyatga ega. Aksent, asosan, mintaqaviy talaffuz va intonatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, Britaniya inglizida "schedule" so'zi /'fedju:l/ shaklida talaffuz qilinadi, AQShda esa /'skedʒu:l/ shaklida. Bu farqlar, ingliz tilida aksentga bog'liq xususiyatlarni o'rganishda muhimdir.

Britaniya va AQSh talaffuzlariga nazar tashlasak, Britaniya inglizida ko'plab so'zlar "r" tovushini talaffuz qilishda farq qiladi. Masalan, /r/ tovushi ko'pincha talaffuz qilinmaydi, ayniqsa, so'z oxirida yoki unli tovushdan keyin. Buning natijasida "car" so'zi

Britaniya inglizida /kɑ:/ shaklida, AQShda esa /kɑ:r/ shaklida talaffuz qilinadi.

Fonetik farqlar haqida so'z borganda ingliz tilining turli mintaqalarida fonetik farqlar ham mavjud. Masalan, Janubiy ingliz va Shimoliy ingliz o'rtasida /r/ tovushining talaffuzi farqlanadi. Janubiy inglizlarda bu tovush ko'pincha talaffuz qilinmaydi, Shimoliy inglizlarda esa aniq talaffuz qilinadi. Bu farq, tilshunoslar uchun mintaqaviy farqlarni o'rganishda muhimdir.

Keyingi navbatda, vokal tovushlarning o'z o'rnini mavjud bo'lib, unda vokal tovushlarining talaffuzi ham mintaqaviy farqlarni aks ettiradi. Britaniya inglizida "bath" so'zi /bɑ:θ/ shaklida, AQShda esa /bæθ/ shaklida talaffuz qilinadi. Bu farq, ingliz tilidagi mintaqaviy talaffuzning xilma-xilligini ko'rsatadi. Boshqa bir misol sifatida, "cot" va "caught" so'zlarining talaffuzi ko'plab mintaqalarda farqlanadi, bu esa ingliz tilida mintaqaviy talaffuzning xilma-xilligini ko'rsatadi.

Maxsus mintaqaviy talaffuzlar ham o'z o'rniga ega bo'lib, unda ingliz tilida turli mintaqalarda o'ziga xos talaffuzlar mavjud. Masalan, Skots va Irlandiya inglizlari o'ziga xos vokal va konsonant tovushlari bilan ajralib turadi. Skots tilida "wh" tovushi /w/ shaklida

talaffuz qilinadi, bu esa boshqa ingliz aksentlarida uchramaydi.

Talaffuzni o'rganish jarayoni. Talaffuzni o'rganish jarayoni, mintaqaviy talaffuz farqlarini tushunishga asoslangan. Talabalar uchun mintaqaviy talaffuzni o'rganish, ularning umumiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talaffuzni o'rganishning ahamiyatiga nazar tashlasak, talaffuzni o'rganish jarayoni, talabalar uchun atrof-muhit bilan muloqotda bo'lish, tilni yanada samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Mintaqaviy talaffuzlarni o'rganish, talabalar uchun tilning turli xil uslublarni tushunish va o'zlashtirish imkonini beradi. Bu ularning muloqot ko'nikmalarini yanada yaxshilaydi.

Amaliy mashg'ulotlar misolida qaraydigan bo'lsak, talabalar uchun mintaqaviy talaffuz farqlarini o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu mashg'ulotlar, talabalar uchun talaffuzni yaxshilash va farqlarni o'rganish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

– **Auditory discrimination exercises:** talabalarga turli aksentlarda talaffuz qilingan so'zlarni eshitish va farqlarni aniqlash.

– **Role-playing activities:** talabalar mintaqaviy aksentlarni o'ylab topish va ularni amalda qo'llash orqali talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

– **Phonetic transcription practice:** talabalar IPA (Xalqaro Fonetik Alifbo) yordamida so'zlarni transkribatsiya qilish orqali talaffuzni aniq o'zlashtirishlari mumkin.

Audio va video materiallar misolida ko'radigan bo'lsak, o'qituvchilar va talabalar uchun mintaqaviy talaffuzlarni aks ettiruvchi audio va video materiallar tayyorlashlari mumkin. Ushbu materiallar, talabalar uchun talaffuzni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Misol uchun:

– **Podcasts:** mintaqaviy aksentlar haqida ma'lumot beruvchi va talaffuzni ko'rsatadigan podkastlar.

– **Film va seriallar:** turli aksentlarda talaffuz qilingan sahnalarni ko'rish, talabalarni mintaqaviy talaffuzlarga tanishtirish imkonini beradi.

Mintaqaviy talaffuzlarni o'rganishda texnologiyaning rolini kuzatadigan bo'lsak, zamonaviy texnologiyalar talabalar uchun talaffuzni o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Mobil ilovalar, onlayn kurslar va turli o'quv platformalari orqali talabalar mintaqaviy talaffuzlar bilan tanishishi va ularni o'rganishi mumkin. Masalan, talaffuzni tekshirish uchun mo'ljallangan ilovalar talabalarni o'z talaffuzlarini baholashga yordam beradi.

Amaliy yechimlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

– **Talaffuz darslari:** talabalarga mintaqaviy talaffuz farqlarini o'rgatish uchun maxsus darslar tashkil etish.

– **Interaktiv mashg'ulotlar:** talabalarni interaktiv mashg'ulotlarda ishtirok etishga jalb qilish, bu ularning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

– **O'qituvchilar uchun seminarlar:** o'qituvchilarga mintaqaviy talaffuz farqlari bo'yicha seminarlar o'tkazish.

Tavsiya ahamiyati shundan iboratki, ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun mintaqaviy talaffuz farqlarini o'rganish tavsiya etiladi. Ushbu farqlarni tushunish, talabalar uchun talaffuzni yaxshilash va til o'rganish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, ingliz tilidagi mintaqaviy talaffuz farqlari, til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu farqlarni o'rganish, talabalar uchun talaffuzni aniq o'zlashtirish va turli mintaqalar o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Mintaqaviy talaffuz farqlari haqida ma'lumotlar, til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wells, J. C. (1982). *Accents of English*.
2. Hasanov, E. (2024). UNDERSTANDING STRESS AND INTONATION IN PHONETICS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(10), 324-326.
3. Gimson, A. C. (2001). *Gimson's Pronunciation of English*.
4. Xasanov, E., & Bo'ronova, M. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK PHONETIC. *Академические исследования в современной науке*, 4(29), 80-83.
5. Kelly, G. (2000). *How to Teach Pronunciation*.
6. Roach, P. (2009). *English Phonetics and Phonology: A Practical Course*.
7. Odiljonovich, H. E. (2023). PROBLEMS OF TRANSLATION OF BUSINESS TERMS. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 824-827.
8. International Phonetic Association. (1999). *Handbook of the International Phonetic Association*.

Shaxnoza HASANOVA,
JIDU fransuz tili o'qituvchisi, PhD

FRANSUZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA LOTIN TILIDAN O'ZLASHGAN DIPLOMATIK ATAMALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy fransuz tilida lotin tilidan kelib chiqqan diplomatik atamalarning qo'llanilishi va ularning tilshunoslik fanini o'qitishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Lotin tilining diplomatik terminologiya rivojiga tarixiy ta'siri tahlil qilinib, bu birliklarning leksik, semantik va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi. Diplomatik lug'atni o'rgatishning uslubiy jihatlari alohida e'tibor qaratiladi: atamalarni semantlashtirish, kontekstualashtirish va tarjima qilish strategiyalari. Muallifning qayd etishicha, lotinizmlarni bilish nafaqat talabalarning so'z boyligini kengaytirishga, balki ularning madaniyatlararo va kasbiy malakasini rivojlantirishga ham yordam beradi. Lotin tilidan kelib chiqqan atamalarga misollar (ultimatum, protokol, status-kvo, persona non grata va boshqalar) va ularning diplomatik nutqda qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Kasbiy yo'naltirilgan fransuz tili kurslariga lotinlashtirilgan diplomatik lug'atni kiritish zarurligi to'g'risida xulosa chiqarildi.

Kalit so'zlar: diplomatik atamalar, lotinizmlar, fransuz tili, kasbiy lug'at, trening, semantika, madaniyatlararo kompetensiya, tarjima, pragmatika, lotin merosi.

Annotation: this article examines the use of diplomatic terms of Latin origin in modern French and their significance in teaching linguistics. The historical influence of Latin on the development of diplomatic terminology is analyzed, and the lexical, semantic and pragmatic characteristics of these units are identified. Particular attention is paid to the methodological aspects of teaching diplomatic vocabulary: strategies for semantization, contextualization and translation of terms. The author notes that knowledge of Latinisms helps not only to expand students' vocabulary, but also to develop their intercultural and professional skills. Examples of terms of Latin origin (ultimatum, protocol, status quo, persona non grata, etc.) and the specific features of their use in diplomatic speech are considered. It was concluded that it is necessary to include a Latinized diplomatic vocabulary in professionally oriented French language courses.

Key words: diplomatic terms, Latinisms, French language, professional vocabulary, training, semantics, intercultural competence, translation, pragmatics, latin heritage.

Zamonaviy diplomatik aloqa – bu lingvistik va madaniy o'zaro munosabatlarning murakkab tizimi bo'lib, unda lotin tilidagi terminologiya alohida o'rin tutadi. Lotin tili Yevropa yozma an'anasining asosi sifatida ko'plab tillarda, jumladan, bir necha asrlar davomida xalqaro munosabatlarning rasmiy tili bo'lib xizmat qilgan fransuz tilida diplomatik lug'atning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [3. 144 b.].

Fransuz tilini chet tili sifatida o'rgatishda (xalqaro huquq, diplomatiya, xalqaro munosabatlar) lotinizmlardan foydalanish va ularni to'g'ri tushunish alohida ahamiyat kasb etadi [7. 45 b.]. Bu atamalar nafaqat Yevropa madaniyatining tarixiy davomiyligini aks ettiradi, balki bo'lajak diplomatlar va xalqaro aloqalar bo'yicha mutaxassislarining lingvistik o'ziga xosligini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

Ko'p asrlar davomida lotin tili fan, din va xalqaro muloqot tili bo'lib xizmat qildi. O'rta asrlardayoq lotin iboralari diplomatik terminologiya paydo bo'lgan rasmiy va huquqiy hujjatlarda faol ishlatilgan [1. 177 b.].

Fransuz tilida bunday atamalar yozma diplomatik manbalar orqali o'rnatilib, xalqaro maqomga ega bo'ldi. Masalan:

- ultimatum (oxirgi talab, ogohlantirish);
- status-kvo (mavjud vaziyat);
- persona non grata (nomaqbul shaxs);
- modus vivendi (mavjudlik holati);
- ad hoc (bu holat uchun);
- de jure / de facto (to'g'ri / haqiqatda).

Bu atamalar lotinizmlar nafaqat nominativ funksiyani, balki diplomatik tilning rasmiyligi, aniqligi va ko'p qirraliligini aks ettiruvchi kasbiy mansublik belgisi sifatida ham xizmat qilishini ko'rsatadi.

Diplomatik lotinizmlarning o'ziga xos xususiyati ularning barqarorligi va cheklangan kontekstli o'zgaruvchanligidir. Ular o'zlarining asl lotincha shakli va semantikasini saqlab, xalqaro tan olinishini ta'minlaydilar.

Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, bu atamalarning aksariyati mavhum xususiyatga ega bo'lib, murakkab

siyosiy va huquqiy hodisalarni bildiradi. Masalan, “status-kvo” oddiygina “holat”ni emas, balki xalqaro munosabatlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan holatini ham ifodalaydi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, lotinizmlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- rasmiy ro'yxatga olish belgisi – rasmiy nutq uslubini ta'kidlaydigan;

- diplomatik yumshatish vositasi — murakkab siyosiy baholarni neytral tarzda ifodalash imkonini beruvchi;

- professional identifikatsiya vositasi – ma'ruzachining diplomatik hamjamiyatga a'zolikni ko'rsatish.

Shunday qilib, lotin atamaları diplomatik etiket elementlari va xalqaro muloqotning kognitiv belgilari sifatida ishlaydi.

Diplomatik lug'atni o'rgatishning uslubiy jihatlari. Fransuz tilini diplomatik terminologiya bilan o'qitish alohida yondashuvni talab qiladi. Bu lingvistik, madaniy va tarjima kompetensiyalarining kombinatsiyasini talab qiladi.

Diplomatik lotinizmlarni o'rgatishning samarali usullari quyidagilardan iborat:

Kontekst tahlili – diplomatik hujjatlar, press-relizlar va rasmiy bayonotlardagi atamalarni o'rganish.

Taqqoslash orqali semantizatsiya – ona tili va boshqa tillardagi ekvivalentlar bilan solishtirish (persona non grata – nomuvofiq shaxsiy).

Tarjima mashqlari – pragmatik va madaniy kontekstni hisobga olgan holda aniq ekvivalentlarni izlash.

Rol o'ynash va muzokaralar simulyatsiyasi – nutq holatlarida atamalardan faol foydalanish.

Etimologik izoh – o'quvchilarni atamalarning lotincha ildizlari bilan tanishtirish ulardan foydalanish bo'yicha xabardorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, ko'pgina lotinizmlar internatsionalizm ekanligini hisobga olish kerak, bu ularni to'g'ri uslubiy taqdimot bilan egallashni osonlashtiradi. O'qituvchi atamalarning to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'noda qo'llanilishi o'rtasidagi farqlarni, shuningdek, ularning uslubiy jihatdan mosligini ta'kidlashi kerak.

Lotinizmlar kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida. Lotin diplomatik atamalarining o'quv jarayoniga kiritilishi o'quvchilarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchiidan, ushbu atamalarni bilish haqiqiy materiallarni – bitimlar, konvensiyalar va deklaratsiyalarni o'qish va tahlil qilishni osonlashtiradi.

Ikkinchiidan, lotinizmlardan foydalanish talabalarning xalqaro nutq standartlarini tushunishlarini rivojlantiradi va diplomatik lug'atni Yevropa madaniy kodeksining bir qismi sifatida qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Uchinchiidan, lotinizmlar talabalarga diplomatik nutqning universalligini tushunishga yordam beradi, bu yerda aniqlik va betaraflik muhim ahamiyatga ega.

Demak, bu atamalarni o'rgatish nafaqat lingvistik, balki madaniy-ma'rifiy jarayon bo'lib, o'quvchilarning global tafakkurini rivojlantiradi.

Tarjima muammolari va moslashish strategiyalari. Lotinizmlarni tarjima qilish alohida qiyinchilik tug'diradi. Ayrimlari fransuz, rus va o'zbek tillarida barqaror ekvivalentlarga ega (status quo — status-kvo; persona non grata — nomaqbul shaxs), boshqalari esa tavsifiy tarjimani talab qiladi (modus vivendi — vaqtinchalik harakat shakli).

O'qitishda uchta strategiya foydalidir:

Ekvivalent tarjima – to'g'ridan-to'g'ri analogiya mavjud bo'lganda.

An'anaviy tarjima – grammatik jihatdan moslashgan holda lotin shaklini saqlab qolish.

Tushuntiruvchi tarjima – leksik ekvivalent yetishmayotganda.

Talabalarni ushbu strategiyalar bilan tanishtirish ularning xalqaro hujjatlar bilan ishlash qobiliyatini oshiradi va professional tarjima ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Diplomatik kelib chiqishi lotinizmlari Yevropa diplomatiyasining tarixi va ruhini aks ettiruvchi fransuz lug'atining muhim qatlamini ifodalaydi. Ulardan dars jarayonida foydalanish nafaqat o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, balki madaniy va kasbiy bilimlarini ham chuqurlashtiradi.

Ta'lim muhitida lotinlashtirilgan diplomatik lug'atdan amaliy foydalanish. Chet tillarini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari kasbiy yo'naltirilgan ta'limni kommunikativ yondashuv bilan birlashtirishga qaratilgan. Bu borada lotinlashtirilgan diplomatik atamalar alohida o'rin tutadi, chunki ular til o'rgatishning tarixiy, madaniy va amaliy jihatlari birlashtiradi. Xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va filologiya fakultetlari talabalari uchun bunday lug'atni o'zlashtirish kasbiy qiyofa va akademik harakatchanlikni rivojlantirish vositasiga aylanadi.

Fransuz tili darslarida diplomatik lotinizmlardan amaliy foydalanish turli tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Talabalar haqiqiy diplomatik hujjatlar, eslatmalar va memorandumlarni tahlil qiladigan, lotincha iboralarni aniqlaydigan va ularning ma'nosini muayyan kontekstda tushuntiradigan loyiha

asosidagi faoliyat samarali hisoblanadi. Tarjima mashg'ulotlari o'quvchilarga diplomatik so'zlarning aniqligini mashq qilish imkonini beradi, leksik va semantik o'yinlar ("Diplomatic Latin Quest" kabi) atamalarni o'yin tarzida yod olishga yordam beradi.

Lotinlashtirilgan so'zlar umumiy foydalanishda qoladigan BMT, Yevropa Ittifoqi va YUNESKO matnlarini o'z ichiga olgan haqiqiy manbalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu manbalarni tahlil qilish talabalarga zamonaviy diplomatik nutqda atamalarning hayotiy funksiyasini tushunishga va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'limni raqamlashtirish kontekstida diplomatik lug'atni taqdim etuvchi onlayn korporativ va terminologik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday manbalar bilan ishlash o'quvchilarga mustaqil til o'rganish strategiyalarini o'zlashtirish va leksik avtonomiya ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shunday qilib, lotinlashtirilgan terminologiyaning o'quv jarayoniga amaliy kiritilishi fransuz tilini o'qitishni yanada yo'naltirilgan, zamonaviy va kasbiy voqelikka moslashtiradi.

Diplomatik lotinizmlardan foydalanish analitik fikrlashni rivojlantirishga, tillararo taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishga va xalqaro muloqot normalariga mos keladigan nutqiy xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi.

Diplomatik lotinizmlarni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. Zamonaviy xorijiy tillarni o'qitish usullari

tobora ko'proq innovatsion texnologiyalar va fanlararo o'qitish formatlariga tayanadi. Diplomatik lotinizmlarni o'rganish kontekstida bunday yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan qiladi. Eng istiqbolli yo'nalishlardan biri raqamli vositalarni o'qitishga integratsiya qilishdir. Multimedia resurslari, elektron lug'atlar, terminologik platformalar va interfaol ilovalardan foydalanish talabalarga murakkab atamalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi, ularni real diplomatik aloqalar kontekstida mustahkamlaydi.

Masalan, diplomatik press-relizlar yoki Fransiya Tashqi ishlar vazirligining murojaatlarini tahlil qilishda talabalar lotin atamalarini ajratib ko'rsatish, lug'atlarni tuzish va mustaqil mini-tadqiqotlar o'tkazish uchun raqamli annotatorlardan foydalanishlari mumkin. Bu nafaqat leksik kompetensiyani, balki hujjatlar bilan analitik ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bundan tashqari, o'rganishning aks ettiruvchi komponenti katta ahamiyatga ega. Talabalar alohida lotin atamalarining kelib chiqishi, ularning zamonaviy qo'llanilishi va semantik o'zgarishlarga bag'ishlangan mini-loyihalarni ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu turdagi tadqiqot faoliyati tanqidiy fikrlash, mustaqillik va kasbiy lingvistik ishonchni rivojlantiradi.

Shunday qilib, diplomatik lotinizmlarni o'rgatish xalqaro munosabatlar va tarjima bo'yicha karyeraga tayyorlanayotgan talabalarning lingvistik va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gak, V. G., Fransuz va rus tillarining qiyosiy leksikologiyasi. – Moskva: Vysshaya Shkola, – 1999 yil.
2. Kuznetsova, N. V., Yevropa tillarida lotin merosi. – Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti nashriyoti, – 2004.
3. Lotman, Yu. M., Semiosfera va diplomatiya tili. – Tartu, – 1992 yil.
4. Tyulenev, S. V., Tarjima nazariyasi. – Moskva: Akademiya, – 2008 yil.
5. Dubois, J., Diplomatiya lug'ati va uning tarixiy evolyutsiyasi. – Parij: Presses Universitaires de France, – 2010.
6. Xaensch, G., Xalqaro tilda lotinizmlar. Jeneva: Librairie Droz, – 2007 yil.
7. Kerbrat-Orecchioni, C., Diplomatik suhbatlar tahlili. – Lion: ENS Editions, – 2015 yil.
8. Sidorenko, E. A., Fransuz tilini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish. – Moskva: Flinta, – 2018 yil.
9. Vejbitskaya, A., Til. Madaniyat. Idrok. – Moskva: Russkiy slovari, – 1997 yil.
10. Rey, A., Fransuz tilining tarixiy lug'ati. – Parij: Le Robert, – 2012 yil.

Shoxista NIZOMOVA,
 Buxoro Davlat pedagogika instituti
 O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.f.d (PhD)

OBRAZLAR XARAKTERI VA RUHIYAT TASVIRINING IFODALANISHIDA SUV VA OLOV TIMSOLLARI IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada obrazlar xarakteri va ruhiyat tasvirining ifodalanishida suv va olov timsollari ifodasi ta'siri xalqimizning asl qadriyatlarini munosib baholashni, ularni yosh avlod ehtiyojlari va davr talablariga mos holda targ'ib etishni, o'zbek adabiyotshunosligining eng yangi va dolzarb nazariy konsepsiyalari asosida o'rganishni bosh vazifaga aylantirmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada obrazlar xarakteri va ruhiyat tasvirining ifodalanishida suv va olov timsollari ifodasi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: *kitabxonlik, badiiy asar mutolaasi, badiiy saviya hamda psixologik ta'sir, xulq-atvor, suv, olov, timsol*

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние символов воды и огня на выражение характера и психики персонажей. Это ставит главной задачей адекватную оценку истинных ценностей нашего народа, пропаганду их в соответствии с запросами молодого поколения и требованиями эпохи, а также их изучение на основе новейших и наиболее актуальных теоретических концепций узбекского литературоведения. Исходя из этого, в данной статье рассматривается влияние символов воды и огня на выражение характера и психики персонажей.

Ключевые слова: *чтение, чтение произведения искусства, художественный уровень и психологическое воздействие, поведение, вода, огонь, символ*

Annotation: in this article, the influence of the symbols of water and fire in the expression of the character and psyche of the characters makes it the main task to adequately assess the true values of our people, to promote them in accordance with the needs of the younger generation and the requirements of the era, and to study them based on the latest and most relevant theoretical concepts of Uzbek literary criticism. Based on this, this article discusses the influence of the symbols of water and fire in the expression of the character and psyche of the characters.

Key words: *reading, reading a work of art, artistic level and psychological impact, behavior, water, fire, symbol*

Kirish. Zamonaviy milliy she'riyatimizda xalqona qarashlar bilan tutash suv va olov bilan bog'liq obrazlarning alohida o'rni bor. Ularning ramziy-timsoliy talqinlarini ochib berish milliy she'riyatimizning obrazlar tizimini mukammal tasniflash, genezisini ilmiy yoritish, badiiy evolyutsiyasi va dinamikasini belgilash imkonini berishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbek adabiyotshunosligida hali zamonaviy she'riyatda suv hamda olov bilan bog'liq obrazlar mohiyati, hayotiy-mifologik, irfoni asoslari, badiiy-estetik vazifalari, ularning analoglari, an'anaviy va yangicha ramziy-timsoliy talqin xususiyatlari yaxlit holda maxsus tadqiq etilgan emas. Shuni inobatga olib, ushbu dissertatsiyada zamonaviy o'zbek she'riyatida suv va olov bilan bog'liq obrazlarning ramziy-timsoliy talqin xususiyatlariga aloqador adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash ko'zda

tutildi va turli variantlarini qiyosiy-tipologik, badiiy va psixologik aspektda o'rganish badiiy qonuniyatlarni shoirlar mahoratini kuzatish orqali aniqlash dolzarb va zarur vazifadir.

Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi suv va olov bilan bog'liq an'anaviy obrazlarni, ularning analoglarini aniqlab, ramziy-timsoliy ma'nolarda talqin qilinishiga xos xususiyatlarni, poetik yangilanishlarni ochib berish;

suv va olov bilan bog'liq ramziy-timsoliy obrazlarning genezisini, badiiy evolyutsiyasini mifmarosim-folklor-yozma adabiyot bosqichida asoslash;

suv va olovga mifologik hamda marosimiy munosabatning zamonaviy she'riyatdagi badiiy talqinini yoritish;

zamonaviy she'riyatda suv va olov obrazlarining semantik tiplarini tasniflash va tavsiflash;

zamonaviy she'riyatda suv va olov obrazlarining badiiy-estetik vazifalarini belgilab ko'rsatish;

suv va olov obrazlarining sifatlovchilarini, ular bilan bog'liq holda shakllangan obrazli iboralarni dalillashga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi. Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda ko'p. Asardan kitobxon o'ziga nima oladi?! Eng avvalo, hayotga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Muhabbat, mag'lubiyat, qat'iyat, ishonch, g'alaba, mehnat, hissiyot, harakat, tajriba kabi tushunchalarni qaytadan kashf qiladi. Bevosita asardagi qahramon bilan qalban yaqinlashadi, ruhan eziladi, bir zum o'zini qahramon holatiga solib ko'radi.

Xalqimiz qadim-qadimdan ayolga hurmat-izzat, e'tibor bilan munosabatda bo'lgan. Badiiy adabiyotda keltiriladigan o'xshatishlar-u, qiyoslashlarni bunga misol qilsak bo'ladi. Suv va olov bilan bog'liq qadimiy mifologik tasavvur-tushunchalar, talqinlar badiiy ijodda suv va olov obrazlarining kelib chiqish hamda shakllanish ildizlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Usmon Azim bir she'rida:
Qaydandir sepalar yomg'ir, sudralib
Tumanlar o'ralar bo'ynimga.
Izg'irin ilonday sovuq buralib –
Kiradi qo'ynimga.

Ushbu misralarda tashxis – jonlantirish san'atini qo'llash orqali she'rda lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligiga erishilgan.

Avvalo, odamning paydo bo'lishiga aloqador tasavvurlar ham qisman suv va olovga bog'lanadi. Bu haqdagi afsonalarda aytilishicha, inson tanasi to'rt unsurdan tarkib topgan: tuproq, suv, olov (nur), havo. Shuning uchun inson bularsiz yashay olmasligi aytiladi. Shoir Shavkat Rahmon bir she'rida bunga ishora qilib shunday yozadi:

Kim edim-u,
kim bo'ldim endi,
ko'rib turar quyosh, suv, tuproq.
Ko'zlarimdan ko'ra hayotni
yelkalarim ko'ribdi ko'proq...

Suvga e'tiqodning adabiy-irfoniy asoslari shu bilan belgilanadiki, insonlarning, umuman, tirik

mavjudotning suvga bo'lgan hayotiy ehtiyoji uni muqaddaslashtirishga va ilohiylashtirishga olib kelgan. Odamlar uning hayotbaxshligini anglab, hech qachon tugamasligini, abadiylikni xohlagani uchun "obi hayot", "tiriklik suvi", "mangu hayot suvi" haqidagi mifologik talqinlarni yaratganlar. "Mangu hayot suvi" timsolida suvning va tabiatning, inson hayotining boqiylikni orzu qilganlar. Ana shu sabab xalq og'zaki ijodiga xos asotir, afsona va ertaklarda suv mangu hayot vositasi sifatida talqin etiladi. Hatto suv dunyosi o'ziga xos sirli olam sifatida tasvirlanadi.

Obihayot haqidagi afsonaviy qarashlar bevosita mangu barhayot payg'ambar – Xizr nomi bilan bog'lab talqin etiladi. Sharqliklarga xos bunday ishonchga ishora Gyotening "Mag'rib-u Mashriq" devonida ham ko'rsatib o'tilgan:

Sharqqa hijrat erur vojib,
Unda ishq-u may-u mutrib
Hamda Xizr suvi bordir,
Boqiy umr senga yordir.

Suvning poklovchi vazifasi Nuh to'foni haqidagi manbalarda yorqin ifoda topgan. Unda aytilishicha, dinsiz, nopok kimsalarni u domiga tortgan ekan. Ulug'bek Hamdam Shavkat Rahmonga bag'ishlangan she'rida shu manbalarga ishora qilib, quyidagi satrlarni keltirgan:

Qahhor Egam, jazola bizni:
Nuh to'foni bo'lsin-u sodir,
Suvlar yutsin qo'rqqoq, o'jzini!

Bevosita suv bilan bog'liq bo'lgan to'fon obrazi esa yovuzlik, zulm ma'nosida qo'llangan:

Bilagingda jo'shqin kuchni ezgulikka bur,
Gar daraxtsan – majnuntolday egil xalqingga,
Gar kemasan – xaloskor bo'l qattol to'fonda!

Qadimgi insonlar suvning belgilarini, harakatlarini bevosita kuzatib, uni jonli kuch sifatida timsollashtirishga harakat qilganlar. Ana shu asosda haligacha badiiy ijodda suvni jonlantirish kuzatiladi:

Qo'shiq aytib daryo shovullar

Ta'zim ila go'zal bahorga.

Yoki:

Ko'lmak der: "Sokindir dengiz ham!"

Shabnam der: "Bevafo kunduz ham!"

Yana:

Tovoning o'padi ariqdagi suv,

Ko'ylaging etagin o'padi maysa.

Ushbu she'riy misralarda "qo'shiq aytayotgan daryo" va "gapirayotgan ko'lmak va shabnam", "yor

to'vonini o'payotgan suv" timsollarida suvning uning insonlarga xos harakatlar bilan jonlantirilayotgani kuzatilmoqda.

Suvning ovozi ko'pchilik xush ko'radi. Uning sharqirab yoki mildirab ovoz solib oqishi dillarga yoqadi. Inson ana shu ovozga quloq solib turar ekan, undan ma'no izlashga harakat qiladi, ammo suv shevasini baribir tushunmaydi:

Ariqda tip-tiniq, mildir-mildir oqqan suv
 Shevasi dilimga xush.

Shavkat Rahmon "Suvlar ila muloqot" she'rida dil hasratlarini tinglaydigan suvdan o'zga hamfikir topolmaganidan zorlanadi.

Shilliqqurtday to'lg'anar ariq,
 Suyanaman badburush tolga.

Ushbu misralarda ariq suvining to'lg'anib-to'lg'anib, sekin oqishi shilliqqurtning ohista yurishiga o'xshatilmoqda.

Ibtidoiy kishilar tasavvuri asosida yaratilgan asotir va afsonalar, ertaklarda tasvirlanishicha, insonlar dunyosi kabi suv dunyosi ham mavjud. Uning o'z hukmdorlari va qonun-qoidalari bor. Masalan, yunonlarda Neptun (Poseydon) dengiz ma'budi sifatida talqin etilgan. Ana shunday tasavvur-tushunchalar asosida suv va insonlar dunyosini o'zaro o'xshatish, tenglashtirishdan iborat metaforik ko'chimlar paydo bo'la borgan. Bunday obrazlantirish esa hozirgacha

saqlanib kelayotganligi alohida e'tiborni tortadi. Masalan, hozirgi she'riyatda ham suv bilan bog'liq afsonaviy obraz – **suv parisi** timsoli uchraydi. Zero, qadimgi insonlar suv mamlakati, suv devlari va suv parilariga ishonch bilan qarashgan. Ular haqida turli afsona va ertaklar yaratishgan. Pari, asosan, inson qiyofasida tasavvur qilinadi, ko'p hollarda, u chiroyli qiz yoki yigit, ayrim hollarda, hayvon, qush, olov tarzida tasvirlanadi.

Xulosa. Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti, uning kishilar dunyosiga, ularni qurshab turgan tashqi borliq bilan aloqalariga va o'zaro munosabatlariga tobora chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi insondir. Insonning badiiy asarlarda markaziy o'rinni egallashi dunyoni badiiy ravishda anglash va ijod sohasida kishilik tomonidan bosib o'tilgan katta yo'lining natijasi hisoblanadi.

Badiiy adabiyotning inson ruhiyatida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Низомова, Шохиста Шодиевна. "СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ АДАБИЙ-ИРФОНИЙ АСОСЛАРИ" *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 1391-1395.
2. Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish" *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 1.1 (2020).
3. Nizomova, Sh Sh. "Symbolic-Emblematic Expression of Water Bodies and Structures in Modern Poetry" *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 1.2 (2022): 126-128.
4. Низомова, Ш. Ш. (2022). СУВ ВА ОЛОВГА МАРОСИМИЙ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДАГИ ТАЛҚИНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(3), 191-199.
5. Низомова Ш. Ш. ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИН ХУСУСИЯТЛАРИ // *Scientific Impulse*. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1396-1400.
6. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. "The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context" *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 170-174.
7. Низомова, Шохиста Шодиевна. "ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ" *Проблемы науки* 6 (65) (2021): 79-81.
8. Shodiyevna, N. S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.

Sh.R. AMONTURDIYEVA,

TerDU o'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Elektron pochta omonturdievash@tersu.uz. tersu123

AYRIM DINIY SO'ZLAR IMLOSI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada ayrim diniy so'zlarning imlosi, ularning yozilishida kuzatiladigan farqlar va yagona me'yoriy shaklni belgilash masalalari yoritiladi. Diniy terminlarning to'g'ri yozilishi nafaqat lug'aviy aniqlikni, balki diniy manbalarni to'g'ri talqin qilishni ham ta'minlaydi. Shuningdek, maqolada Qur'on, hadis va diniy adabiyotlarda qo'llanadigan ayrim so'zlarning yozilish an'anasi, imlo qoidalaridagi muammoli jihatlar hamda ularni hal qilish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: diniy so'zlar, imlo, artikulyatsiya, stilistika, Qur'on, hadis, termin, yozuv an'anasi, adabiy norma.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы правописания некоторых религиозных слов, наблюдаемые различия в их написании и установление единой нормативной формы. Правильное написание религиозных терминов обеспечивает не только лексическую точность, но и правильное толкование религиозных источников. В статье также рассматриваются традиции написания некоторых слов, используемых в Коране, хадисах и религиозной литературе, проблемные аспекты правил правописания и пути их решения.

Ключевые слова: религиозные слова, орфография, артикуляция, стилистика, Коран, хадис, термин, традиция письма, литературная норма.

Annotation: this article discusses the spelling of some religious words, the differences observed in their spelling, and the establishment of a single normative form. The correct spelling of religious terms ensures not only lexical accuracy, but also the correct interpretation of religious sources. The article also discusses the tradition of writing some words used in the Quran, hadith, and religious literature, problematic aspects of spelling rules, and ways to solve them.

Key words: religious words, spelling, articulation, stylistics, Quran, hadith, term, writing tradition, literary norm.

Ma'lumki, har qanday matn og'zaki va yozma ko'rinishga ega bo'lib, ular lingvistik vositalar orqali shakllanadi. Xuddi shunday, tilning lingvistik yaruslaridagi vositalar diniy matnlarda ham o'zining umumiy va farqlanib turuvchi jihatlari bilan ishtirok etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda diniy e'tiqod erkinligi qaror topganligi, islomiy ma'naviy-ma'rifiy asarlarning keng ko'lamda o'rganilayotgani va chop etilayotgani, ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani tilimizda arabcha so'zlarning, teonimik terminologiyaning faollashuviga ham olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, ayrim so'z va jumalarning imlosi va talaffuzida muayyan chigalliklar kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Bu muammolarning bartaraf etilishiga tilimizning yashash qonuniyatlariga tayangan holda yondashish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Barcha tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham o'zga tildan so'z qabul qilishning o'z qonuniyatlari bor. Ushbu qonuniyatga ko'ra, o'zga tildan qabul qilinayotgan har qanday til birligi qabul qilayotgan tilning talaffuz qoidalariga mos kelishi lozim bo'ladi. Agar shunday qilinmasa, talaffuzda notabiiylik, zo'rma-zo'rakilik vujudga kelishi mumkin.

Masalan, o'zbeklarning artikulyatsiya bazasi bunga moslashmagani uchun arab tilidagi *zod*, *sod* singari tovushlar talaffuzi o'zbek tili orfoepik talablariga mos kelmaydi. Bu esa o'z-o'zidan diniy-arabcha so'zlarni ham o'zbek tili me'yorlariga moslashtirilib talaffuz qilishga olib keladi. Ulamolarimiz esa Qur'on tilovatida, muborak hadislardan namunalar keltirilganda, amri ma'ruf qilinganda arabcha so'zlarning qiroat me'yorlari saqlanib qolishini talab qilishadi,

hech bo'lmaganda, shunday bo'lishini istashadi.

Bu talablarga e'tiroz bildirib bo'lmaydi, albatta. Ayni paytda, o'zbek tili me'yorlarini so'z o'zlashtirilayotgan til me'yorlariga moslashtirib ham bo'lmaydi. Shu ma'noda "Imloni bilmagan mullo bo'ladimi?" maqolasining muallifi Z.Isomiddinov "Nima uchundir, qaysi tildan so'z olar bo'lsak, o'shanga moslashishga urinamiz, ona tilimiz xossalari poymol bo'layotgani bilan ishimiz yo'q", degan fikri e'tiborni tortadi. Olimning ta'kidlashicha, shu paytga qadar o'zbek tilida *Oллоh, Rahmon, Rahim, Rasul* tarzida yozilib kelinayotgan nomlar talaffuzida muayyan fonetik o'zgarishlar, ya'ni $o \rightarrow a$, $a \rightarrow o$ almashinuvi sodir bo'lmoqda. *Oллоh – Alloh, Rahmon – Rohman, Rahim – Rohim, Rasul – Rosul* tarzida yozilmoqda va talaffuz etilmoqda. "Xo'p, bu o'zgarishlar yaxshi niyat bilan – diniy kalimalarni asl arabcha yoki unga yaqin ifodalashga intilishdan kelib chiqadi, deylik. Ammo, o'zingiz o'ylab ko'ring, arab tilidan kirib kelgan so'zlarni xuddi arablardek talaffuz qila olamizmi? Shunga urinish to'g'rimi o'zi?"¹. Olim aytganiday, arabcha so'zlarni shu til egalariiday talaffuz eta olmasligimiz aniq.

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan esa, arab tilida *diyn, valiy, nabiy, tariyqat, haqiyqat, taqdiyr* yoki *tavakkul* (bu so'zlarning har biri arabcha shaklda berilishi zarur) tarzida yoziladigan va talaffuz etiladigan so'zlar xalq tilida notabiiylik keltirib chiqargani uchun so'zlar tarkibiga y kiritib yozish ma'qul ko'rilmagan va o'zbek tili lug'atlarida *din, vali, nabi, tavakkal, tariqat, taqdir, haqiqat* shaklida berilgan². Bizning talaffuz me'yorlarimizga ana shu variantlar mos keladi. Bu qoidadan chekinishga va adabiy tilimizda arabcha talaffuzga moslashtirishga hojat yo'q, deb o'ylaymiz.

Ammo bu qoidani hamma so'zlarga ham tatbiq etish nojoizga o'xshaydi. Masalan, imlo lug'atlarimizda qayd etilgan *voiz, imon, lain, qoim* singari so'zlarni *voyiz, iymon, layin, tovba, qoyim* tarzida yozish bizni xatolikka olib kelmaydi, aksincha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Aslida biz ularni shu tarzda talaffuz qilamiz.

Yana *mulla–mullo, qadamjoy–qadamjo* singari bir necha so'zlar borki, ular qo'llanilishida

uslubiy farqlar bor: *Mulla Norqo'zi hazil bilan uning alamini bosmoqchi bo'ldi* (A.Qahhor. "Mayiz yemagan xotin"). *Valixon so'fi: "O'g'lingiz mullo bo'lsin", deb yuziga fotiha tortdi* (A.Qahhor. "Valixon so'fi"). *Bu sulhning shartlaridan biri – Jahonshohning Hirotda kelib qadamjolarini, jumladan, Shohruh Mirzo birinchi marta dafn etilgan, keyin Gavharshod begimning qabri qo'yilgan maqbarani ziyorat qilishiga sharoit yaratish haqida edi.* (P.Qodirov. "Ona lochin vidosi"). *Manchil bilan Xo'ja Is'hoq, bo'ling yor, Qadamjoying deydi Shahrizabz shahar* ("Alpomish"). Misollardagi bu ikki so'zning qiyoslanishi ularning birida (*mulla, qadamjoy*) neytrallik (betaraflik), ikkinchisida (*mullo, qadamjo*) ekspressiv ottenka borligini ko'rsatadi. Bu ottenkalar ifodadagi ko'tarinkilik va obrazlilik bilan bog'liq. Buning ustiga, *mo'min, dorilbaqo, dorilfano* singari ayrim so'zlarni *mo'min, dorulbaqo, dorulfano* tarzida talaffuz etishda ham qandaydir notabiiylik seziladi. Bu kabi noqulayliklar arab tilida ham bor³.

Har bir tilga muomala jarayonida ehtiyojga ko'ra boshqa tillardan ayrim so'zlar kirib keladi. Bunday so'zlar o'z navbatida ona tilining boyishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning ishlatilishi ona tilini kamsitish, uning an'anaviy zahiralardan voz kechish hisobiga bo'lmasligi lozim. Agar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmasa, millatning asosiy belgilaridan birini o'zida ifoda etuvchi ona tilining qadri va mavqei yo'qola boradi. Xususan, o'zbek tilida mos keluvchi muqobillari bo'la turib, boshqa tillardagi so'zlarni ishlatish nutq ravonligi, go'zalligi va ta'sirchanligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ona tilining bebaho so'z va iboralari iste'moldan chetda qolib, yillar o'tishi davomida unutilib boradi.

Shuningdek, "y" va "a" harflari ketma-ket kelgan so'zlarda ular yaxlit "ya" harfiga aylanib ketmasdan o'z holicha qoldiriladi. Bu holat lotin grafikasiga asoslangan imlodada ham o'z aksini topgan. Masalan: "Islom tarixida birinchi insonparvarlik yordamini Amr ibn Oss (**roziyal-**

1 "Hidoyat" jurnali, 2019. №10, 26-27-b.

2 Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 631.

3 Notabiiylikka yo'l qo'ymaslik uchun arablarning o'zlari ham gavhar ni javhar, Choch ni Shosh tarzida talaffuz qilishadi. (Qarang: "Hidoyat" jurnali, 2019. №10, 27-b.)

lohu anhu) shu tariqa uyushtirgan edi. U kishi tashkil qilgan katta yordam tufayli ko'p insonlar ocharchilikdan qutulishi"⁴.

Bilamizi, har bir tilning so'z boyligi, avvalo, uning lug'atlarida aks etadi. Mazkur lug'atlardan, albatta, diniy mazmundagi leksik birliklar ham o'rin oladi. Avvalgi ishimizda 4 tomlik O'zbek

4 Аҳмад Муҳаммад. Амр ибн Осс. Ҳидоят. – Т.: Мовароуннаҳр, 2010. 12-сон. – Б. 11.

tilining izohli lug'atida ko'plab *din stilistik* belgisi ostidagi so'zlar mavjudligi va ularning ko'p qismi arab tiliga xos birliklardan iboratligini, ushbu so'zlarning yozilishi lug'atning 1981-yildagi nashri bilan 2008-yildagisidan farqqa egaligini ko'rsatib o'tgandik⁵. Masalan,

5 Амантурдиева Ш. "Ўзбекча диний матнларнинг функционал-стилистик тадқиқи": Филология фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори... дисс. Б. 76. Самарқанд, 2020.

№	O'TIL (1981)	O'TIL (2008)
1	Olloh	Alloh
2	Subhonollo	Subhon ollo (Alloh)
3	Alhamdulilloh	Alhamdulillo(h)
4	Abdumutalib	Abdul Mutallib
5	Bihisht	Behisht
6	Bismilloh	Bismillo(h)
7	Tavakkul	Tavakkal
8	Buddo	Budda
9	Jonlik	Jonliq
7	Munkar-nakir	Munkarnakir
8	Mufti	Mufti(y)
9	Imon	lymon
10	Qoim	Qoyim

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tilimizda diniy matnlar yozilishi va talaffuzi bilan bog'liq bo'lgan bu kabi muammolarning mavjudligi ijobiy hodisa emas. Ushbu mazmundagi

matnlarning chuqur ilmiy tahlili, imlosi va talaffuzi borasida beriladigan aniq amaliy tavsiyalargina bu muammolarning bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Фан, 1976. – 631-бет.
2. "Hidoyat" jurnali, 2019. №10. 26-27-бет.
3. Notabiiylikka yo'l qo'yimaslik uchun arablarning o'zlari ham *gavhar* ni *javhar*, *Choch* ni *Shosh* tarzida talaffuz qilishadi. (Qarang: "Hidoyat" jurnali, 2019. №10. 27-бет.)
4. Ahmad Muhammad. Amr ibn Oss. Hidoyat. – Т.: Movarounnahr, 2010. 12-сон.11-бет.
5. Амантурдиева Ш. Ўзбекча диний матнларнинг функционал-стилистик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори... дисс. – Самарқанд, 2020. 76-бет.

Tog'oymurod BEKMURODOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
togaymurod192@gmail.com

MATBUOT TERMINLARINING MODERNIZATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada matbuot terminlarining modernizatsiya jarayonlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy til taraqqiyotidagi o'rnini yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek matbuot tili, terminologiya, modernizatsiya, yangi matbuot terminlari, raqamli jurnalistika, onlayn nashr, ijtimoiy media, media savodxonlik, axborot texnologiyalari, globallashuv.

Annotation: this article analyzes the modernization processes of press terminology and highlights their role in the development of contemporary language.

Key words: Uzbek press language, terminology, modernization, new press terms, digital journalism, online publication, social media, media literacy, information technologies, globalization.

Аннотация: в данной статье анализируются процессы модернизации терминов прессы и освещается их роль в современном развитии языка.

Ключевые слова: узбекский язык прессы, терминология, модернизация, новые термины прессы, цифровая журналистика, онлайн-издание, социальные медиа, медиаграмотность, информационные технологии, глобализация.

O'zbek matbuot tili xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida milliy til taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir davrning taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zgarishlar, xalqaro aloqalarning kengayishi va ilmiy-texnik yutuqlar bevosita matbuot tili leksik qatlamida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek matbuotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy terminlarning yangilanishi kuzatildi.

So'nggi yillarda globallashuv, raqamli kommunikatsiya vositalarining rivoji hamda xalqaro axborot makoniga faol qo'shilish jarayonlari matbuot tilining modernizatsiya jarayonini yanada jadallashtirdi. Bu holat matbuot leksikasida yangi terminlar, neologizmlar, xalqaro atamalar, shuningdek, tarjima yo'li bilan kirib kelgan birliklarning faol qo'llanishiga olib keldi. Bunday jarayon, bir tomondan, til boyligini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, mavjud leksik birliklarning semantik ko'lamini o'zgartirish va yangicha kommunikativ vazifalarni bajarishga moslashtirishni talab qilmoqda. Demak, o'zbek matbuot tilining modernizatsiyasini o'rganish nafaqat lingvistik jarayon sifatida, balki ijtimoiy-madaniy, sotsiopragsmatik va kommunikativ jarayonlar majmuasi sifatida dolzarb ilmiy

masala hisoblanadi. Mazkur jarayonni tahlil qilish orqali yangi terminlarning shakllanish manbalari, ularning matbuot leksikasiga singishi, xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashuvi va milliy tilning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi (Dadaboyev, 2019).

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda axborot maydonida tub o'zgarishlar ro'y berdi: yangi gazeta va jurnallar ta'sis etildi, mustaqil nashriyotlar faoliyati yo'lga qo'yildi, xalqaro axborot almashuvi kengaydi. Ayniqsa, internet texnologiyalarining rivojlanishi matbuot tili va terminologiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Yangi matbuot terminlarining paydo bo'lish sabablari. Yangi terminlar biror sohaning rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Matbuot sohasida yangi terminlarning shakllanishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

1. Ijtimoiy-siyosiy omillar va yangi matbuot terminlarning paydo bo'lishi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotida yuz bergan keskin siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar milliy matbuot tilida ham o'z aksini topdi. Avvalo, axborot siyosatining erkinlashuvi va so'z erkinligini huquqiy jihatdan kafolatlash jarayoni natijasida yangi institutlar tashkil etildi

va ular orqali yangidan yangi terminlar kirib keldi. Shu jumladan, davlat boshqaruvi tizimida *axborot siyosati* – davlatning axborot oqimlarini tartibga solish faoliyati; *virtual matbuot* – onlayn gazeta va jurnal; *axborot xavfsizligi* – yolgʻon xabarlar va axborot xurujlariga qarshi turish tushunchasi; *globallashuv* – xalqaro axborot oqimlari taʼsirida shakllangan matbuot termini; *ochiqlik siyosati* – matbuotda oshkoralikni taʼminlashga oid jarayon; *media savodxonlik* – aholining axborotni tanqidini qabul qilish qobiliyatini bildiradi; *media makon* – raqamli va anʼanaviy OAV yigʻindisi; *onlayn jurnalistika* – internet orqali faoliyat yurituvchi jurnalistika sohasi; *kiberxavfsizlik* – internet makonida axborotni himoya qilish sohasi; *bloggerlik faoliyati* – shaxsiy axborot uzatish kanali sifatida shakllangan yangi media koʻrinishi. Bu terminlarning ommalashuvi, bir tomondan, yangi ijtimoiy-siyosiy institutlarning tashkil etilishi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, xalqaro tajribaning milliy matbuot tiliga singdirilishi natijasi hisoblanadi. Demak, yangi terminlar mamlakatning siyosiy-ijtimoiy rivoji hamda xalqaro tajriba taʼsirida shakllanadi. Bu jarayon milliy terminologiyaning boyishiga, matbuot leksikasining zamonaviylashuviga xizmat qiladi (Joʻrayev, 2015).

2. Texnologik omillar. Oʻzbek matbuot tilining zamonaviy rivojlanishida texnologik omillar eng muhim determinantlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. XXI asr axborot-kommunikatsiya vositalari, internet va raqamli texnologiyalarning keskin rivoji matbuot terminologiyasiga tub oʻzgarishlar olib keldi. Ayniqsa, raqamli jurnalistika, ijtimoiy media va multimedia formatlarining keng tarqalishi oʻzbek tilida yangidan yangi terminlarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Xususan,

a) internet va raqamli platformalar taʼsiri. Internet ommaviy axborotning asosiy manbalaridan biriga aylangach, matbuot leksikasida quyidagi yangi terminlar faol qoʻllanmoqda: *onlayn gazeta*, *elektron jurnal*, *raqamli nashr*, *veb-sayt*, *portal*, *media-loyiha*, *podkast*, *audiokitob* va boshqalar. Bu terminlar matbuotning yangi shakl va janrlarini ifodalashga xizmat qilib, anʼanaviy gazeta va jurnal tilidan farq qiluvchi zamonaviy leksik qatlamni yaratmoqda.

b) ijtimoiy tarmoqlar va yangi media. Matbuot tilining texnologik omillarga bogʻliq ravishda kengayishi, avvalo, ijtimoiy media bilan bogʻliq. Facebook, Telegram, YouTube, Instagram kabi platformalar jurnalistikada yangi jarayonlarni yuzaga chiqardi. Malalan: *bloggerlik* – shaxsiy axborot kanali sifatida rivojlangan media shakli; *kontent yaratish*, *kontent-marketing* – internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun material ishlab chiqish jarayoni. Bu kabi terminlar milliy matbuot tilida faol qoʻllanib, xalqaro terminologiya bilan uygʻunlashmoqda, qolaversa, oʻzbek tilining xalqaro axborot makoniga integratsiyalashuvini taʼminlash bilan birga, milliy til boyligini kengaytiradi.

3. Madaniy va kommunikativ aloqalar. Oʻzbek matbuot tilining zamonaviy rivojlanishida madaniy hamkorlik va xalqaro kommunikativ aloqalar muhim determinantlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Mustaqillikdan soʻng Oʻzbekiston xalqaro axborot maydoniga faol qoʻshila boshladi, bu esa oʻzbek matbuot terminologiyasida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Qolaversa, xalqaro aloqalar va terminlarning kirib kelishi, madaniy hamkorlik, xalqaro konferensiyalar, ilmiy va kasbiy muloqotlar jarayonida koʻplab xorijiy terminlar matbuot leksikasiga kirib keldi. Masalan: *press-konferensiya*, *press-reliz*, *briefing* kabi inglizcha terminlar diplomatik va siyosiy tadbirlar orqali milliy matbuot tilida keng tarqaldi. *Brend*, *imidj*, *smm* (social media marketing) kabi atamalar marketing va reklama faoliyatining rivojlanishi bilan bogʻliq holda qoʻllanmoqda. *Media*, *kontent*, *blog* kabi terminlar xalqaro internet-makonda shakllangan boʻlib, oʻzbek tilida ham toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllanmoqda (Bektemirov, 2002).

Tarjima va kalkalash jarayonlari ham madaniy va kommunikativ aloqalarning yana bir muhim jihati – xorijiy atamalarni tarjima yoʻli bilan kirib kelishi. Masalan:

mass media → ommaviy axborot vositalari.
open data → ochiq maʼlumotlar.
fake news → soxta xabar.
information security → axborot xavfsizligi.

Bu jarayon oʻzbek tilining milliy imkoniyatlarini ishga solish bilan birga, xalqaro terminologiyaning moslashtirilishini taʼminlaydi.

Globalashuv jarayoni natijasida milliy matbuot xalqaro media tizimiga integratsiyalashmoqda. Bu jarayon o'zbek matbuot terminologiyasida ham yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, *podkast, blog, multimedia* kabi terminlar global media janrlarini ifodalaydi va ular milliy matbuotda ham yangi formatlar sifatida o'z o'rnini topmoqda. Bu terminlar nafaqat xorijiy axborot makonidan o'zlashtirildi, balki milliy jurnalistikada yangicha axborot taqdim etish usullarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Tarixiy jihatdan esa o'zbek matbuotida dastlab *ro'znoma, jarida, majalla* kabi fors-tojikcha terminlar qo'llangan. Ular XIX–XX asr boshlarida yozma matbuotning asosiy terminlari sifatida keng iste'molda bo'lgan. Masalan, “Turkiston viloyatining gazetasi” ilk sonlarida “ro'znoma” termini qo'llangan bo'lsa, jadid matbuotida “majalla” va “jarida” tarzida faol ishlatilgan. Bugungi kunda esa ushbu tarixiy terminlar yoniga *gazeta, jurnal, media-loyiha, onlayn platforma, kontent, axborot portali* kabi global terminlar qo'shildi. Bu esa milliy matbuot tilida eski va yangi qatlamlarning qo'shma holda ishlashini, ya'ni lingvistik pluralizm jarayonini namoyon etadi. Shu orqali milliy matbuot terminologiyasi bir vaqtning o'zida ham tarixiy ildizlarga, ham zamonaviy global media makoniga tayangan holda rivojlanmoqda. Muxtasar qilib aytganda, madaniy va kommunikativ aloqalar yangi

matbuot terminologiyasining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi (Barnoyeva, 2023).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek matbuot tili tarixiy taraqqiyot davomida izchil boyib, milliylikni saqlagan holda zamon talablari bilan hamnafas rivojlanib kelmoqda. O'tgan davrlarda ishlatilgan ayrim eski nomlar o'rnini yangilari egallab, bugungi kun til amaliyotida o'z mustahkam o'rnini topdi. Mustaqillik yillarida mamlakat hayotidagi yangilanishlar, dunyo bilan aloqalarning kengayishi va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi natijasida matbuot tili zamonaviy shakl kasb etdi.

Bugungi kunda o'zbek matbuoti nafaqat milliy madaniyat va tarixni aks ettiruvchi vosita, balki global o'zgarishlarga hamohang jarayonlarning faol ishtirokchisidir. Bu esa uning xalqaro miqyosda o'z o'rnini topishiga, milliy til imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, matbuot tilini rivojlantirishdagi eng muhim vazifa — uni milliylikni asragan holda zamonaviy axborot oqimlari talablariga moslashtirishdir.

Shunday qilib, matbuot tilining o'zgarish va yangilanish jarayonini ilmiy asosda kuzatish va baholash nafaqat tilshunoslik fani, balki mamlakatning axborot siyosati, madaniy taraqqiyoti va xalqaro hamkorligi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. 85-bet.
2. Jo'rayev M. O'zbek matbuot tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. 138-bet.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. 241-bet.
4. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. – Toshkent, 2002. 84-bet.
5. O'zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli. Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017 (lotin yozuvida).
6. Sh.Barnoyeva. Matbuot tilining uslubiy xususiyatlari. // “Nauchniy impuls” j.2023. 17-bet.

Elektron manbalar

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.infocom.uz
4. www.literature.uz
5. www.kutubxona.uz

Guli SHUKUROVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD
e-mail: guli_k_h@mail.ru

IJODKOR SHAXSIYATI VA ILMIY-USLUBIY O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: ushbu maqolada munaqqid va adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov shaxsiyati hamda uning ilmiy-uslubiy qarashlari tahlil etilgan. Olimning badiiy asarlarni tahlil qilishdagi sinchkovlik mahorati, xarakter muammosiga yondashuvi, tanqidiy kuzatishlaridagi xolislik va prinsiplilik alohida yoritiladi. Shuningdek, Qo'shjonov tadqiqotlarida badiiy haqiqat va hayotiy haqiqatning uyg'unlashuvi, ilmiy tahlil bilan publitsistik ruhning qo'shilishi kabi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Maqolada A. Rasulov, H. Umurov va O. O'tayev kabi taniqli adabiyotshunoslarning fikr-mulohazalari ham tahlilga jalb qilinib, olimning ilmiy merosiga baho beriladi.

Kalit so'zlar: *munaqqid shaxsiyati, ilmiy-uslubiy xususiyatlar, badiiy tahlil, xarakter muammosi, adabiyotshunoslik, tanqidchilik, publitsistik ruh.*

Аннотация: в статье анализируется личность критика и литературоведа Матёкуба Кошжонова, его научно-методические взгляды. Отмечается scrupulezное мастерство ученого в анализе художественных произведений, его подход к проблеме образа, объективность и принципиальность критических замечаний. Кроме того, отмечаются такие уникальные особенности исследований Кошжонова, как сочетание художественной правды и реальной жизни, научного анализа и публицистического духа. В статье также опираются на мнения таких известных литературоведов, как А. Расулов, Х. Умуров и О. Утаев, и дается оценка научного наследия ученого.

Ключевые слова: *личность критика, научно-методические особенности, художественный анализ, проблема образа, литературоведение, критика, публицистический дух.*

Annotation: the article analyzes the personality of critic and literary critic Matekub Koshzhonov, his scientific and methodological views. The author notes the scrupulous skill of the scientist in the analysis of artistic works, his approach to the problem of image, objectivity and integrity of critical remarks. In addition, such unique features of Koshzhonov's research as a combination of artistic truth and real life, scientific analysis and journalistic spirit are noted. The article also draws on the opinions of such well-known literary critics as A. Rasulov, H. Umurov and O. This article contains an assessment of the scientist's scientific heritage.

Key words: *personality of the critic, scientific and methodological features, artistic analysis, the problem of the image, literary criticism, criticism, journalistic spirit.*

Shaxsiyat haqida so'z yuritilganda, ko'proq ijodkorlar nazarda tutiladi, ularning asarlarida aks etgan muallif "men"iga urg'u beriladi, ta'rif-tavsiflanadi. Biroq olimlar haqida fikr yuritilganda negadir bu qoida unutilgandek tuyuladi. Bizningcha, yozuvchi asarlarining g'oyaviy, badiiy jihatdan mukammal chiqishida muallif shaxsiyati, uning poetik nigohi qanchalik muhim bo'lsa, olim tadqiqotlarining asoslanishida, ilmiy mukammalligida uning ilmiy salohiyati, tafakkur tarzi, prinsiplari ham shunchalik ahamiyat kasb

etadi. Shu ma'noda Matyoqub Qo'shjonov shaxsiyatiga xos xislatlar haqida gap ketganda, avvalo, uni yaqindan bilgan, yonma-yon birga ishlagan hamkasblari, yor-birodarlarining dil so'zlari, olim haqidagi ilmiy maqolalar, tadqiqotlar ham katta amaliy ahamiyatga ega. Lekin bulardan ham muhim bir manba borki, bu olimning tadqiqotlari, ularda aks etgan ilmiy konsepsiya, tahlil usullaridagi o'ziga xoslik, xolislik va prinsiplilik, shuningdek, ko'ngil kechinmalari bitilgan esse va xotiralar – bular barchasi olim

shaxsi haqida tasavvur hosil qilishda muhim omillar hisoblanadi.

Matyoqub Qo'shjonovning badiiy asar talqinidagi sinchilik mahorati, eng avvalo, hayotiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish jarayoni va xarakterlar psixologizmini chuqur mantiqiy dalillar bilan asoslashida ko'rinadi. Bu olimning badiiy asar tahlilidagi o'ziga xos uslubini belgilaydi.

“Uslub – o'zlik. Uslub – xarakterning botiniy suvrati. Uslub qaysidir ma'noda taqdir. Mashhur kishilarning ilk ilmiy-ijodiy qadamlari bilan oxirgi qadamlari, izlariaro uzviy birlik, bog'liqlik bo'ladi. Izzat Sultonov, masalan, 30-yillardayoq adabiyot nazariyotchisi sifatida tanilgan edi. Uzoq umrining oxirigacha olim nazariya muammolari bilan shug'ullandi. Matyoqub Qo'shjonov o'zbek adabiyotshunosligiga xarakter muammosini olib kirdi. U o'nlab yozuvchilar, shoirlar ijodini xarakter muammosi nuqtayi nazaridan o'rgandi. Ozod Sharafiddinov ilk kitobidayoq qalb, poeziya masalasini ko'targan edi. Olimning barcha asarlari, maqolalarida qalb bilan bog'liq muammolar asos qilib olinadi”[1:201]. Taniqli adabiyotshunos olim A.Rasulovning bu fikrlari, ayrim istisnolarga qaramay, XX asr adabiyot ilmining uch zabardast olimi, ularning ilmiy konsepsiyasi va uslubiy o'ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Buni biz ko'plab olimlarning haqli e'tiroflarida ko'ramiz.

Taniqli adabiyotshunos Hotam Umurov o'tgan asrning 60-yillar tanqidchiligi haqida fikr yuritarkan, Matyoqub Qo'shjonovning munaqqidlik mahoratini A.Qodiriy va Oybek romanlari tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlili orqali yoritadi. Xususan, olimning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati” kitobida yozuvchining san'atkorligi, avvalo, romanda tasvirlanayotgan tarixiy davrning qaysi jihatlari qanday aks etgani bilan, adib qay darajada yangi so'z ayta olgani, asardagi obrazlar, xarakterlarni badiiy unsurlar, haqqoniy detallar orqali tahlil qila olishida, deb belgilaydi. “Ana shu tahlilni, o'rni kelganda, o'zining his-hayajoni, “dardi” va e'tiqodi bilan, publitsistik ruh va falsafiylik bilan charxlaydi”[2:78] deb yozadi Hotam Umurov. Bu fikrlar Matyoqub Qo'shjonov ilmiy uslubining o'ziga xosligini aniq-tiniq ifodalagan.

Darhaqiqat, Matyoqub Qo'shjonov ilmiy tahlillarida badiiy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan qahramonlar xarakterining shakllanish jarayonlari izchil, sistemali, mantiqan asoslangan kuzatishlar yetakchilik qiladi. Munaqqid talqinlariga xos xususiyatlardan yana biri – quruq akademizm o'rniga jonli mulohazalar, ilmiy tahlil bilan publitsistik ruh hamda obrazli ifodaning o'zaro uyg'unlashuvida, ba'zan esa badiiy ifoda va hayotiy lavhalardan o'rinli foydalanishida ko'zga tashlanadi. Bunday talqin usuli mutaxassislarni ham, oddiy kitobxonni ham birdek qiziqtiradi, olim adabiy-tanqidiy kuzatishlarini ham xuddi badiiy asar singari maroq bilan o'qilishiga imkon tug'diradi. Bu haqda fikr yuritarkan, H.Umurov shunday yozadi: “Tanqidchining ehtirosi o'quvchiga ham “yuqadi”, uning munaqqiddek xulosalarga kelishiga zamin tayyorlaydi. Tanqidchi fikrining asosli ekanligiga kitobxonda chuqur ishonch hosil bo'lishi bilan birga yozuvchining o'ziga xos ijod psixologiyasini to'la his qilishga, aniq tushunishga yordam beradi”[2:79].

O'rol O'taevning “Tanqid va uslub” nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamida ham Matyoqub Qo'shjonov ilmiy-ijodiy faoliyati yoritilgan maqolalar o'rin olgan.

Munaqqid Matyoqub Qo'shjonovning adabiy jamoatchilik tomonidan “Mahoratshunos olim” deya e'tirof etilganini ta'kidlar ekan, O'.O'taev Abdulla Qodiriyning qahramon yaratish mahoratini ochuvchi kuzatishlarini umumlashtirib, shunday fikrlarni bayon etadi: “A.Qodiriy badiiy mahorati qirralarini – sir saqlash, taqqoslash, ichki va tashqi qarama-qarshiliklar zanjiri, aks tasvir kabi badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish orqali Otabek va Kumush obrazlarini to'laroq ochishga intiladi”[3:112].

Boshqa bir o'rinda O'.O'taev olimning tahlil usuli va uslubiy o'ziga xosligiga to'xtalib, tahlil jarayonida “qayta yaratish” mahoratiga ham e'tibor qaratadi: “Matyoqub Qo'shjonovning A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor ijodiga oid tadqiqotlarini ko'zdan kechirarkansiz, yana bir o'ziga xoslikka – obrazlarni adabiyotshunoslik yo'li bilan qaytadan yaratish usuliga duch kelasiz. Tanqidchi “O'tkan kunlar”, “Qutlug' qon”,

“Navoiy”, “Sarob” asarlaridagi xarakterlarni xuddi shu yo’sinda tahlil qilib, go’yo adabiyotshunoslik yo’li bilan qaytadan yaratadi” [3:126].

“Matyoqub Qo’shjonov zamondoshlari xotirasida” nomli kitobda jamlangan maqolalarda ham olimning ilmiy-ijodiy merosi va uslubiy o’ziga xosligi haqidagi kuzatishlar ham diqqatga molik. Atoqli adabiyotshunoslar, hamkasblari va shogirdlari bildirgan dil so’zlarda asosiy e’tibor Matyoqub Qo’shjonovning o’zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga olib kirgan yangicha konsepsiyasi, tahlil va talqin usullari, ilmiy jasorati kabi masalalarga qaratiladi. Jumladan, Izzat Sulton olimning 80 yilligi munosabati bilan yozgan “Jasorat” nomli maqolasida uning ilmiy portretini chizar ekan, 50-yillardayoq “Zvezda Vostoka” jurnalida chop ettirgan “Xarakterlar shakllanishi” nomli ilk maqolasi adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg’otgani, o’ziga ma’qul kelgani bois ma’qullovchi munosabatini matbuot orqali bildirganini yozadi. Shuningdek, olim uning shogirdi N.Xudoyberganov tomonidan aytilgan “Qo’shjonov maktabi” haqidagi fikrlarni qo’llab-quvvatlaydi.

I.Sulton Matyoqub Qo’shjonov yaratgan maktabning ilmiy konsepsiyasi yashovchanligini, birinchi navbatda, iste’dodli yozuvchilar asarlarini badiiy mahorat nuqtai nazaridan tadqiq etishda deb hisoblaydi: “Olim talant nima, adabiyotdagi badiiylik nimadan iborat ekanini konkret asarlar tahlilida keng ochib beradi. Yozuvchining mahoratini tanqidchi o’ziga xos sinchkovlik va badiiy did bilan ko’rsatadi. Olimning adabiyotda konflikt, syujet, kompozitsiya masalalariga

bag’ishlangan ishlari ayricha puxtalik bilan ajralib turadi”[4:11].

Ushbu fikrlarning to’g’riligini Suvon Melining “Tahlil va talqin yoxud adabiyotshunoslikda “Qo’shjonov maktabi” maqolasida ilgari surilgan fikrlar ham asoslaydi. Olim maqolada badiiy asar, uning tahlil va talqini masalasiga to’xtalar ekan, badiiy mukammallik, tom ta’nodagi haqiqatga aylanish jarayonini keng sharhlaydi. Jumladan, hayot haqiqatining badiiy asarda badiiy haqiqat, uni tadqiq etgan ilmiy izlanishlar asosida esa ilmiy haqiqat yotishini ta’kidlar ekan, mana shu uchlik “Qo’shjonov maktabi”ning yadrosini tashkil etishini yozadi:

“Matyoqub Qo’shjonov butun ilmiy faoliyati bilan XX asr o’zbek adabiyotida yaratilgan badiiy obidalar bag’ridagi badiiy haqiqatlarni ilmiy haqiqatlarga aylantirishga xizmat qildi. Badiiy asardagi haqiqatni ilmiy haqiqat tarzida qaytadan kashf etish Qo’shjonovning munaqqidlik faoliyatidan keyin qonuniy tusga kirdi, deyish mumkin”[5:147].

Matyoqub Qo’shjonovning munaqqid sifatidagi juda ko’plab yozuvchi, shoir va olimlar haqida chop etilgan 500dan ziyod maqolalari adabiyot tarixi va adabiy jarayonni keng ko’lamda, yutuq va kamchiliklari bilan to’la-to’kis namoyon etuvchi ilmiy-adabiy meros sifatida muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda. Bu manbalar olimning ilmiy salohiyatini ko’rsatish barobarida yozuvchining poetik mahoratini belgilaydigan muhim omillarni, ayni paytda, badiiy sayoz asarlar mohiyatini ochib beruvchi, kamchiliklarini ilmiy asoslashda adabiyotshunoslarga amaliy qo’llanma sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, – 2016. 201-bet.
2. Умунов Х. Таҳлил санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, – 1978. 78-bet.
3. Ўтаев Ў. Танқид ва услуб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, – 1979. 112-bet.
4. Матёқуб Қўшжонов замондошлари хотирасида. – Тошкент: Муҳаррир, – 2012. 11-bet.
5. XX аср адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, – 2012. 147-bet.

Farida TURSUNOVA,

Farg'ona davlat texnika universiteti dotsenti
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
tursunovafaridaxon07@gmail.com

“TILAK” HANGOMASIDA MUROJAAT MONOLOGINING KO'RINISHLARI (Abdulla Qodiriy asari misolida)

Annotatsiya: maqolada “Tilak” hangomasida murojaat monologining ko'rinishlari haqida fikr yuritilgan. Qahramon nutqini tasniflash orqali XX asrda ijtimoiy hayot voqeligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: murojaat, monolog, hangoma, ochiq xat, muammo, shikoyat xati, hajviy qahramon, tahririyat, monologik nutq.

Аннотация: в статье рассматриваются проявления монолога-апелляции в поэме «Тилак». Через классификацию речи героя раскрывается реальность общественной жизни XX века.

Ключевые слова: обращаться, монолог, разглаживание, открытое письмо, проблема, письмо-жалоба, комический характер, редакционная статья, монологическая речь.

Annotation: this article examines the manifestations of the appeal monologue in the poem «Tilak.» Through the classification of the protagonist's speech, the reality of 20th-century social life is revealed.

Key words: address, monologue, rant, open letter, problem, letter of complaint, comic character, editorial, monologue speech.

Badiiy adabiyotning kuchi badiiy nutq tiplari va shakllarining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Badiiy nutq tiplaridan biri bo'lgan monologik nutqning murojaat shakli orqali tasvirlangan voqealar o'quvchi ongiga chuqur singadi va uning personajlarga munosabatini belgilashga xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy hangomalarida monologik nutqning ko'rinishlarini aniqlar ekanmiz, eng avvalo, monolog xususida to'xtalishni joiz deb bildik.

Monolog (grek. monos – bir, logos – so'z, nutq deganidir) badiiy nutq tiplaridan biri bo'lib, tor ma'noda olganda, badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan birining o'z-o'ziga, suhbatdoshiga yoki ommaga qaratilgan nutqidir. Keng ma'noda olganda, muallif nutqining o'zi monolog asosiga qurilgan bo'ladi. Shu jihatdan har bir badiiy asar yaxlit olganda ulkan monologdan iboratdir.[1.119-b.]

Abdulla Qodiriy o'z g'oyaviy niyatlarini ilgari surish, qahramonlarining ichki dunyosini chuqurroq ochib berishda monologik nutqning murojaat shaklidan unumli foydalanadi. Hangomalarda asar ta'sirchanligini oshirish, qahramonning ochiq aytolmagan fikrlarini batafsilroq ifodalash, qahramonlar atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga munosabatini ishonarli va eng muhimi, ta'sirchan ifodalashda monologik nutqdan o'rinli foydalanganligini aniqlash maqsadida “Tilak” hangomasini tasniflash orqali tahlilga tortamiz: [2]

1. Maorif sohasi rahbarlariga qaratilgan nutq. “Lo'li elakli bo'ldi, eshagi tilakli bo'ldi” – deb boshlanuvchi notavon ko'ngil tilidan yozilgan hangomada yangi yil kirib kelayotganligi munosabati bilan qahramon tomonidan 10 ta muhim tilak bayon qilinadi. Birinchi tilak: “**...bemaza qovunning urug'ini ko'paytirilsa, maktab remon'ti**

haqda o'qish boshlanatur' on kunda eska tushsa, bolalar sovuqda dildirashib, bit qoqishsalar, har bir **tutanturuqsiz muallim va murabbiy qilib belgulansalar**, bolalar bilan qo'chqor urushdirishib xalq o'rtasida yangi maktablarga yangi “obro” orttirib bersalar...”. “... Shahar maktablarining holi shu bo'lsa, xudo rizosi uchun qishloqda maktab ochishni tilga olmasun. Chunki “**Yopiqlik qozon yopiqlik**”da...”. [1.589-b.]

Mazkur parchada ta'lim tizimidagi mavjud muammolari ko'tariladi. Matndagi “**bemaza qovunning urug'ini ko'paytir**” ish iborasi salbiy ma'noda qo'llanilib, keraksiz shaxslar – savodsiz o'qituvchilarning urchib ketganligiga ishoradir. “**tutanturuqsiz muallim va murabbiy qilib belgulansa**” iborasi fikrimizni yanada oydinlashtiradi. Ko'rinish turibdiki, maktabni ta'mirlash va bolalarning bilim olishi uchun qayg'urmaydigan, “muallim” va “murabbiy”larning ko'pligi sabab, bolalarning savodsiz bo'lib qolayotganligi, natijada ko'cha changitib yurishdan boshqa ishga yaramay qolayotganligi kulgili tarzda kinoya bilan bayon etilgan. Qahramonning “**Yopiqlik qozon yopiqlik**”da, – deyishi e'tiborimizni tortadi, albatta. Chunki o'sha davrda shahar maktablaridagi ahvolni ko'rib, qishloq maktablari haqida gapirishning hojati yo'q ekanligini tushungan bechora xalqning chorasizligi ko'rinish turibdi. Asardagi mazkur parcha orqali maorif rahbarlarining o'z ishiga sovuqqonlik bilan qarashi, ta'lim va tarbiya sohasidagi ishlarga mutlaqo e'tibor qaratmaganligi ayovsiz tanqid qilingan.

2. Matbuot sohasi rahbarlariga qaratilgan nutq. Ikkinchi tilakda matbuot va noshirlik sohasidagi muammolar yoritiladi: “*Ibtidoiy maktab bitirmagan talantlik muharrir va adiblar, savodi chiqmag'an shoirlar*

“maydoni matbuotimiz”ga qadam ranjida qilg‘ay edilar!”. Hukumat rahbarlariga qarata aytilgan bu tilakda o‘sha davr matbuoti ahvoriga achinish hissi piching, kesatq ohangi bilan hajvnoma usulda bayon etiladi.

Uchinchi tilakda “Turkiston” gazetasining faoliyati tahlil qilinadi. Kamchiliklari hajv orqali tasvirlanadi va shu bilan birga gazetaning ommalashishi uchun ba’zi bir hajviy maslahatlar beriladi: “Turkiston”da shu kungacha bo‘lub kelgan bo‘lumlar shu usul bilan o‘zgartirulsin: – Siyosat o‘rniga “Hangomai hazrat Ali”dan to‘rt og‘iz;

– Iqtisod o‘rniga “Hangomai Jamshid”dan bir fasl;

– Feleto‘n o‘rniga “Not pinkarto‘n” va “Sherlok Xo‘lms” ajinalaridan bir parcha (negakim, bizning ziyolilarimiz uchun xuddi po‘ladga suv bergandek bo‘ladir);

– O‘lka va Toshkand xabarlarini o‘rniga “Aldarko‘sa” hikoyalaridan, “Aliflaylo” (Ming bir kecha hikoyalaridan, hikoyalarning arabcha nomi-tad) voqealaridan shirin-shirin rivoyat (e‘lonlarga tegila ko‘rilmasun, chunki e‘lon uchun “Turkiston”ni olg‘uchi savdogarlarimiz ko‘p ko‘rinadur”). [589-b.]

To‘rtinchi tilak esa “Inqilob” jurnaliga bag‘ishlanadi va uning faoliyatiga talab nuqtayi nazaridan baho beriladi. “...bir yilda uch martaba chiqsun: “yangi yil”ga bag‘ishlanub bir no‘mir, may bayramisig‘a bir no‘mir, o‘ktabr o‘zgarishiga bag‘ishlanub yana bir no‘mir, ja‘mi uch no‘mir”. [590-b.] Bunday kesatq va kinoya tarzida aytilayotgan taklifdan anglash mumkinki, o‘sha davrda jurnal sahifalarida chop etish uchun arziqli material yetarli bo‘lmagan, jurnalxonni o‘ziga jalb etadigan qiziqarli manbalar to‘plovchi o‘qimishli, savodxon kishilar yetishmagan.

Beshinchi tilakda: “Bilim o‘chog‘i” o‘likmi, tirikmi, buni Usmonjon maxsus jurnal chiqarub e‘lon qilsun!”. [589-b.]

Yettinchi tilakda esa besh yildan buyon pochta-telegraf kursida o‘qib, endigina og‘zi oshga yetgan o‘zbek yigitlarining boshi toshga tekkanligi, pochta-tegishlaridan haydalganlariga achingan qahramon: “Ularning dodini hech kim eshitmasun!” – deydi kinoya bilan.

3. Madaniyat sohasi rahbarlariga qaratilgan nutq.

Oltinchi tilak teatr ishlariga bag‘ishlanadi: “Buyuk teatru binosi” o‘n yerga ko‘chirulib solinsun. Shu bino bitkuncha ham hech kim p‘yesa ham yozmasun. Shungacha artistlarimiz unda -munda dam “Halima”ni, goh “Abomuslim”ni qo‘ya-qo‘ya, qarub-chirub dorilfanodan chipakka chiqib ketsunlar!”. [590-b.] Ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrda xalq ma‘naviyatini yuksaltiruvchi teatrga mutlaqo e‘tibor berilmagan. Teatr binosiga joy ajratish

va uning qurilishiga mablag‘ muammo bo‘lgani sabab, yangi asarlar sahnaga qo‘yilmaganligi epistolyar nutq orqali piching, kesatq yo‘li bilan bayon etilgan. Muallif teatr oynasida hayotni san‘atkorona ifodalash lozim deb biladi. Yaratilajak asarning janr talablariga muvofiq bo‘lishiga “otiga muvofiq – tub shartiga emas”, “adabiyot tarozusiga solib” yozilishi kerakligi talabini qo‘yadi.

4. Hukumat rahbarlariga qaratilgan nutq.

Sakkizinchi tilakda Nikolay davrida turkistonliklar temir yo‘l cho‘chqalaridan qanday turtilgan bo‘lsalar, yigirma uchinchi yilda undan ham battarroq turtilganini ko‘rib: “Bu to‘g‘rida churq etganning og‘ziga xoppozi chiqsun!” – deya chorasiz xalq ustidan zaharxanda kuladi.

5. Diniy mahkama rahbarlariga qaratilgan nutq.

To‘qqizinchi tilak Shariat mahkamasi faoliyati to‘g‘risida bo‘lib: “Har zamon – bir zamonda “islohi madoris” uchun “Olam giriya” bilan “Raddul-muxtor”dan rivoyatlar axtarib qo‘ysa bas!” – deydi madrasada tanchaga o‘ranib o‘tirgan mudarrislarini ko‘rib, achchiqlangan qahramon: “Bundagi “vaq tabi‘atli” o‘zbeklar (sartlar) orasinda yurib tirnoq ostidan kir izlasun. Bir yil to‘lg‘ach Qozonga qaytub, shap etturib, “vaq tabi‘atli” o‘zbeklar (sartlar) haqinda vaq-tiyagin nashr etsun” [590-b.], – deydi o‘ninchi tilakda. Bunda Qozonda nashr etiladigan “Bizning bayroq” gazetasidagi Sharif Boychura yozgan bir maqolaga kesatq munosabatlar aks ettiriladi. Adib “Tilak” hangomasida qahramonning ichki iztiroblarini yuqori tashkilot rahbarlariga murojaat orqali ochib berib, jamiyatdagi muammolarni hajv, yumor orqali ko‘tarib chiqqan.

Abdulla Qodiriy qahramon murojaat monologi orqali jamiyatdagi kamchiliklar, odamlardagi nuqsonlarni ro‘yi-rost ochib, ularning ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabatlarini ko‘rsatib bergan. Adib hangomasida o‘tgan asrning 30-yillarida sobiq tuzum davrida o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar, ta‘magirlik, tanish-bilishchilik kabi muammolarni qahramon nutqi orqali tanqid qiladi. Adib hajviyalarida qahramon murojaat monologidan foydalanishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, so‘z ortiqcha isrof qilinmaydi, voqea-hodisalar yozma shaklda aniq va yorqin tasvirlar orqali, qiziqarli tarzda bayon etiladi. Ikkinchidan, adib voqea-hodisalarga o‘zining subyektiv munosabatini yashirib, qahramonni so‘zlatish orqali davr illatlariga qahramon ko‘zi bilan qarash va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uchinchidan, yozuvchi ochiq aytmagan gaplarini qahramon nutqi orqali kulgi yo‘li bilan kitobxonga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova F.G‘. Hajviy asarda monologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2023. 135-bet.

2. Турсунова Ф. Г. Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кодири) // Достижения науки и образования. 2018. №15 (37). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-monologa-pri-sozdanii-satiricheskikh-personazhey-na-primere-proizvedeniy-abdully-kodiri>

3. Мисоллар: Қодирий Абдулла. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2014. 588-bet. (Кейинги ўринларда саҳифаси кўрсатилди)

FIQRA – KATTA ASARNING BIR PARCHASI

Annotatsiya: ushbu maqolada fiqra janrining ma'no-mazmuni, qisqacha ta'rif-u tavsifi, belgilari, janrga xos asosiy xususiyatlar haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, ushbu janrda ijod qilgan yozuvchilarning ba'zi fiqralari tahlil qilinib, misol sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *fiqra, janr, parcha, bo'lak, uyat.*

Аннотация: в статье рассматриваются значение и содержание жанра “фикра”, его краткое определение и характеристика, особенности и основные черты, присущие этому жанру. Также анализируются и приводятся примеры произведений некоторых авторов “фикра”, создавших произведения в этом жанре.

Ключевые слова: *рисунок, жанр, парча, беулак, комфорт.*

Annotation: this article examines the meaning and content of the fikr genre, offering a brief definition and characteristics, as well as the characteristics and key features inherent to this genre. It also analyzes and provides examples of works by some fikr authors who have created works in this genre.

Key words: *drawing, genre, brocade, beulak, comfort.*

Fiqra so'zi arabcha “parcha”, “bo'lak” degan ma'nolarni bildiradi. U katta asarning bir parchasi, hajmi ixcham shaklda bo'ladi. Fiqralarda tushuntirish oddiy bo'lib, juda qadimgi adabiy janrlardan biri hisoblanadi. Ammo ko'p hollarda u aynan fiqra nomi bilan atalmagani uchun ko'pchilik qisqa hajmdagi maqola, lavha, luqma yoki shunchaki oddiy tanqidiy maqola sifatida tushunadi.

Bu janrning qadimda ham mavjud bo'lganligining dalili sifatida Navoiy asarlarida ham ushbu janr namunalari borligidan bilishimiz mumkin. Masalan, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida 770 nafar shayxlar, orif insonlar haqida fiqra bitilgan, shulardan, Shayx Mo'min Sheroziy, Shayx Abdulqodir Jiliy, Pahlavon Mahmud, Shayx Abu Abdulloh Hafiflar hayoti, karomati misolida qator onalar obrazi tasvirlangan. Ular orqali ulug' shoirning tarbiya, tanbeh, ogohlantirishlaridan voqif bo'lamiz. Onaga hurmat, ta'zim, mulozamat har bir zamonda, makonda, har bir millatda go'zal bir qadriyat ekanligini anglaymiz.

Avazxan Boranbayevning feysbukdagi sahifasida (<https://www.facebook.com/qarasha?>) fiqraga quyidagicha ta'rif berilgan: Fiqra so'zi o'zbek adabiy tilining rasmiy lug'atlarida bor, ammo u keng ommaga emas, balki adabiyotshunoslik, publitsistika, jurnalistika

sohalarida faol qo'llaniladi. Uni “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” va “Adabiy terminlar izohli lug'ati”, shuningdek, Abdulla Qahhor, Erkin A'zam, Haydar Hamidov kabi yozuvchilar asarlarida uchratish mumkin.

Fiqra – (arabchada fikr, mulohaza) bu jamiyat hayotidagi salbiy hodisa, illat yoki muammoni kuchli ta'sirchanlik, tanqid va yo sho'xlik bilan ochib beruvchi, qisqa va ixcham shaklda yozilgan publitsistik janr hisoblanadi.

Fiqraning asosiy xususiyatlari:

- hayotiy asosga ega;
- ko'pincha muallifning shaxsiy mulohazalariga suyanadi;
- tanqidiy ruhda bo'ladi;
- ibratli, tarbiyaviy maqsadda yoziladi;
- ko'pincha yumor, ironiya, kinoya bilan boyitiladi;
- adabiy obraz va uslub qo'llaniladi.

Namunalardan:

1. Abdulla Qahhor – “Uyat”, “Duxan”;
2. Erkin A'zam – “Uyat bo'ladi”;
3. G'afur G'ulom – “Och non”, “Kelajakda”.

Bu asarlar fiqra janrining klassik namunalari hisoblanadi. Ularda jamiyatdagi kamchiliklar qaltis va ta'sirchan tilda ochib beriladi.

Fiqra so'zi odatda maktabda o'rgatiladigan janrlar ichida emas, oliy ta'lim va jurnalistika sohasida alohida o'rganiladi. Shuning uchun

ko'p kishilar bu atamadan kam xabardor bo'lishi mumkin".

Shu o'rinda Abdulla Qahhorning "Uyat" nomli (<https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-uyat-1966/>) fiqrasiga to'xtalsak. Unda shunday fikrlarni o'qish mumkin: "Uyat faqat insonga xos tuyg'udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatini yo'qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkin. Oyog'i yoki tili bilan gandraklab yurgan mastga, qo'lga tushib yoki qo'lga tushishdan qo'rqib es-hushini yo'qotgan o'g'riga, hiyla-nayrangi fosh bo'lib bezrayib turgan tovlamachiga, duch kelgan ayolga "muhabbat" izhor qilgan maxluqqa razm soling, bularning qaysi biri va nimasi hayvondan ortiq? Til-jag'i deysizmi?"

Shoirdan eshiting:

Qachon odam qatoriga sanarlar,
Bor o'lgan birla echkuning soqoli!..

Bularning til-jag'i echkining soqoliday gap – odamlilik nishonasi emas.

Bir donishmand uyatni "vijdonning sirtqi ko'rinishi" debdi. Demak, uyatsizlik bilan beadablik, beadablik bilan axloqsizlik, axloqsizlik bilan jinoyatkorlik orasida qalin devor yo'q, bularning har biri vijdonsizlikning turli bosqichidir. Modomiki, shundoq ekan, uyat jamiyatimizni balo-qazodan saqlaydigan buyuk posbon, deyish mumkin.

Yov qal'ani olmoqchi bo'lsa, hujumni posbonni bosishdan boshlaydi. Posbonni qo'lga olish qal'aga rahna solish demakdir...

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat ko'zi tushganda, shubha paydo qilgandagina janoyatchining qo'lini ushlaydi, yo'lini to'sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo'ya ish qilish uchun qo'l ko'targani qo'ymaydi. Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi".

Yoki xuddi shu mavzuga oid fikrlarni Erkin A'zamning "Uyat bo'ladi" nomli fiqrasida ham o'qish mumkin. Unda ham bugungi jamiyatimizda paydo bo'lgan turli illatlar, yomon xislatlar haqida gap ketgan bo'lib, yozuvchi hayotiy misollar

yordamida o'z mulohazalarini bayon etgan. Ushbu fiqra "Uyat bo'ladi" sarlavhasi ostida berilgan bo'lib, undagi ayrim fikrlarni keltirib o'tamiz. "...Xususan, so'nggi yillarda uyat hissi faqatgina axloqiy tushuncha emasligiga bot-bot amin bo'lmoqdaman. Nazarimda, bu so'zning mohiyati xiralashib, umuman, shu tuyg'uning o'zi susayib, gohida ahamiyati tamoman yo'qolib ham ketayotgandek tuyuladi. Bo'lmasa, kechagina ayb sanalgan uncha-muncha qilmishlarga bugun fazilat deb qaralmasa-da, harqalay, odatdagi bir hol sifatida beparvo munosabat qilinayotganiga nima deysiz!

Va'da beramiz-u, ustidan chiqmaymiz. Xijolat chekish yo'q.

Bandasining ko'ziga tik qarab yolg'on gapiramiz. Tap tortish qayoqda!

Birovning haqini paqqos uramiz-u, ko'zimizni lo'q qilib turaveramiz. Bor, qo'lingdan kelganini qil!

Har tadbirni qo'llab, o'zganing tagiga suv quyamizu o'rnini egallaymiz. Insof-andisha – "eskilik sarqiti"!

Farzandlarimizning onasini har turli bozorlarga yo'llab, mushtiparning topib kelganiga "inomarka" olib minamiz. Nomuslarga o'lmoq qani?

Mol-dunyomiz o'g'irlik, haromxo'rlik orqasida orttirilganini hamma biladi, o'zimiz ham bilamiz. Loqaqal, yerga qaramoq, qizarmoq xayolimizga kelsa-chi!

Kirdikorlarimiz olamga ovoza, biz esa adlu insofdan lof uramiz. Oxiratda ham bir iloji topilar...

Uyalmaymiz, uyalmaymiz...".

Bu ikki adibning boshqa-boshqa davrlarda aynan bitta mavzu haqida deyarli bir xil fikrlashi tasodif emas, albatta. Zero, uyat tushunchasi tanqis bo'lib borayotgani yozuvchilar nazaridan ham chetda qolmaganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Erkin A'zamning "Ertalabki xayollar" kitobidan olingan quyidagi fiqراسi ham o'tkir tanqid ruhida bo'lib, o'qirmanni mushohadaga chorlaydi.

Bilib gapirganga ne yetsin.

Chamasi, Lev Tolstoy aytgan: "Hukm qo'limda bo'lsa, ma'nosini yaxshi bilmagan so'zini ishlatgan yozuvchiga ming darra buyurardim".

Davlat tili joriy etilgach, sarxushlikdanmi, yangi so'z yasovchilar, uni tushunib-tushunmay

qo'llovchilar ham ko'paydi. O'ylaymizki, bu hol o'tkinchi jarayon, daryo ko'pira-ko'pira tiniqadi. Lekin bozor iqtisodiyoti bahona tilimizga kirib o'nashayotgan ayrim atamalar haqida hozirdanoq qayg'urmasak bo'lmaydi, aks holda "g'alati mashhur" iboralar urchib ketadi.

Bu mulohazalarni bilgich ustozlarimiz radio-televideniye orqali, matbuot orqali ko'p aytishdi, biz ham takrorlasak ziyon qilmas. Masalan, "ustuvor" so'zini biz ko'pincha "prioritetniy" ma'nosida ishlatyapmiz, holbuki buni "birinchi galdagi", "asosiy", "ustun", "afzal" va hokazo shakllarda ifodalash mumkin, "ustuvor" esa – poydevori mahkam, mustahkam degani.

Yoki "boqimonda" iborasini olaylik. "Boqimonda" – qarzning yoki biron bir moliyaviy munosabatning qolgan qismi degani. Biz esa uni "ijdivents" ma'nosida ishlatyapmiz, vaholanki, ortiqcha so'z qidirib yurmay, o'zimiz bilgan "tekinxo'r", "tekintomoq" so'zlarini qo'llayversak bo'ladi. Bu bari nusxa ko'chirish illatining kasri.

"Seminar o'z ishini tugatdi", "Qurilish ishlari boshlanib ketdi" kabi jummalarni har kuni o'qiyamiz, eshitamiz. Ruschadan so'zma-so'z tarjimaning o'zginasi bu. "Seminar tugadi, poyoniga yetdi, yakunlandi" yoki "Qurilish boshlandi" deb qo'yaqolsak bo'lmaydimi?!

Yana g'ashga tekkan bir olmosh bor – "o'z". "Yozuvchi o'z asarlarida qishloq hayotini aks ettirdi". Bu yerda "o'z" olmoshi shartmi? Axir, birov maqsadini boshqa birovning asarida aks ettirmaydi-ku!

"U o'z xotiniga qaradi" (birovning xotiniga qarab ko'ring-chi!), "U o'z ishxonasiga yetib keldi", "O'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi" va hokazo. Hammasi o'sha "svoy"ning tarjimasini, vassalom!

"Muammo ko'tarmoq", "Bozorga chiqdim", "lutfan", "qadamranjida", "tashrif buyurdi" kabi iboralarni gapirib o'tirmasak ham bo'ladi – ming marta aytili, yozildi, ammo har gal to'yga

taklifnoma olsangiz, o'sha gap – "lutfan taklif etamiz", "qadamranjida qilsangiz"!..

"Keyin biz dalaga tashrif buyurdik" deb yozadi muxbir. "Yozayotgan so'zingizning asl ma'nosini bilmas ekansiz, qo'ying, dalaga tashrif buyurmang, u sizga zor emas!" degingiz keladi.

"O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", deydi xalqimiz. Bu o'git biz qalamkashlarga, radio-televideniye va matbuot xodimlariga ham taalluqlidir.

Bulardan tashqari, muallif Quvonch Mamiraliyevning "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida individual janrlar" mavzusidagi ilmiy maqolasida ham fiqra janriga oid ba'zi ma'lumotlarni o'qish mumkin. Xususan, maqolada yozilishicha, "Farida Afro'z ijodida fiqralar alohida o'rin tutadi. Fiqra arabcha "qism, bo'lak" ma'nolarini anglatadi. Fiqra – adabiy-badiiy asardan olingan hikmatli so'z, go'zal parcha. U fiqralarni "Tashbih" kitobiga kiritgan. Fiqralarda tasavvufiy qarashlar, diniy mulohazalar, qalb kechinmalari yetakchilik qiladi.

Qashshoqlik

davlatdir

Nodonlikdan ko'ra.

Sen unchalar badbaxt emassan

Tanimaysan

Baxtingni xolos.

Quyushqonga sig'mas ijodkor

Sarhad uning o'limi demak

Chegaradir unga qabriston.

Yana to'lg'onish

Yana iztirob

Soat millari sayrab tolmaydi.

Shoir – shamolda sham ko'tarib ketayotgan kimsadir".

Ko'rib turganimizdek, fiqralarda mavzu deyarli chegara bilmaydi. Unda inson qalbidagi iztiroblar, to'lg'onishlar ijtimoiy voqealar bilan qorishib ketadi. Ular o'qirman ko'ziga ko'zgu tutadi va o'zimizni anglashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avaxan Boranbayev (<https://www.facebook.com/qarasha?>)
2. (<https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-uyat-1966/>)
3. Erkin A'zam. "Ertalabki xayollar". "O'zbekiston" NMIU, 2015.
4. Quvonch Mamiraliyev. "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida individual janrlar".

Hakim JURAYEV,
Samarqand davlat chet tillar
instituti o'qituvchisi
hakimjurayev0@gmail.com



“QISSASI RABG‘UZIY” ASARIDA SEHR-JODU

Annotatsiya: Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida magiya bilan bog‘liq voqea va hodisalar juda ko‘pligi bilan ahamiyatlidir. Maqolada asarda berilgan diniy–mistik hikoyatlar, payg‘ambarlar tarixi, Nuh kemasidagi o‘ziga xos syujet bilan bog‘liq voqealar jarayonidagi magik holatlarning barchasi payg‘ambarlar yoki Alloh tomonidan aytilgan kalom – so‘z va uning sehrli qudrati bilan vujudga kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkinligi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: diniy–mistik, Nuh kemasi, payg‘ambar, duo, magiya, so‘zning qudrati, Allohning kalomi, sehr–jodu.

Annotation: the work “Qissasi Rabghuzi” by Nosiriddin Rabghuzi is notable for its abundance of events and phenomena related to magic. The article provides information on how the religious–mystical stories presented in the work — including the histories of prophets and events connected to the unique plot of Noah’s Ark — contain magical elements that are all brought into existence through the divine words or speech of the prophets or Allah, demonstrating the mystical power of these utterances.

Key words: religious–mystical, Noah’s Ark, prophet, prayer, magic, the power of the word, the word of Allah, sorcery

Аннотация: произведение Носириддина Рабгузи «Кисас–и Рабгузи» примечательно обилием событий и явлений, связанных с магией. В статье представлена информация о том, что все магические явления, происходящие в процессе религиозно–мистических рассказов, истории пророков и событий, связанных с уникальным сюжетом о ковчеге Ноя, возникают благодаря слову — божественному изречению, произнесённому пророками или самим Аллахом, обладающему магической силой.

Ключевые слова: религиозно–мистический, ковчег Ноя, пророк, молитва, магия, сила слова, слово Аллаха, колдовство.

Tangriningqudratibilanolaningyaratilishining o‘zi bir mo‘jiza, ulkan sir–sinoat hisoblanadi. Dastlab olamda so‘z yaralgani, Tangrining “Yaral” kalomidan so‘ng olam yaralgani haqida bilamiz. Bu haqda Allohning barcha muqaddas kitoblarida keltirilgan. So‘ng Alloh tomonidan aytilgan ana shu so‘zning qudrati bilan olam yaralgan. Alloh Odam alayhissalomning tanasiga jon ato etishi ham ana shunday muqaddas va qudratli kalomning sharofati bilan amalga oshirildi.

“Qissasi Rabg‘uziy” asarida insonga jon ato etilishi, jonning, ruhning loydan yaralgan tanaga joylashish jarayoni batafsil badiiy yoritilgan: “Yana qirq yildan keyin Odamning jonig‘a (Allohdan) farmon bo‘ldi: „Odamning taniga kirgin!“ deb.

Jon Odamning boshi ustida turib qoldi, kirgani unamadi–da „Men oliyman, bu tubanga qanday kirayin“, – dedi. Shunda Jabroil alayhissalom keldi, unga „Ey aziz jon, Alloh nomi bilan kirgil!“ dedi. Jon Alloh nomini eshitgan hamon (tanaga) kirdi.

Yana bir rivoyatda keladiki, Jon Odamning boshiga kirib, ikki yuz yil turib qoldi. Undan keyin ko‘ziga kirgan edi, ko‘zlari ochildi. O‘z yuzini ko‘rdiki, qora tuproqdan yaralmish. Alloh o‘z qudratini ko‘rsatish uchun ko‘zni yaratgandi. So‘ngra burunga kelganda bir aksa urdi. Jabroilga xitob keldi: „Odamning burnidan chiqqan nafasni omonat saqlagil!“ Undan og‘ziga keldi, shunda aytdiki: „Al–hamdu li–llahi robbil alamiyn“. Alloh

yorlaqadi: „Parvardigoring senga rahmat qilsin, Men seni shuning uchun yaratdim“¹.

Insonga jon ato etish jarayoni juda murakkab kechgani yuqorida aytiladi. Keyin Allohning sehrli va qudratga to'la so'zi bilan jon Odam tanasiga kirib joylasha boshlagani aytiladi. Bu jarayon Nosiriddin Rabg'uziyning „Qissasi Rabg'uziy“ asarida quyidagicha tasvirlangan:

„Shundan keyin jon ko'ksiga keldi. Shu yerda turmoqchi bo'lgandi, tura olmadi. Shu asnoda Alloh Taolo: (Oyat) „Va inson shoshiladurgan bir maxluq qilib yaratildi“, dedi. Shundan so'ng qorniga kelgandi, taom istadi. Jon jasad ichida yoyila boshladi, suyaklar, go'sht, teri, tomir kabilar hosil bo'ldi, tebrana boshladi.

Odamning terisi bag'oyat ko'rqli edi. Kundan–kun tiniqlasha boshladi. Qachonki, illatlar hosil bo'la boshlaganda, teri suyuldi. O'sha terining belgisi barmoqlar uchida qoldi, u tirnoqlarga aylandi.

Savol: Jonning kirarda osonlikda qaror topgani va chiqar chog'ida qiyinchilik bilan chiqarida ne hikmat bor?

Javob: Buning boisi shulki, kirar paytda u Alloh taoloning „Robbing rahmati bilan kirgin“, degan xitobini eshitib, o'ng'aygina kirgandi, chiqarda esa „Yana rahmat sevinchini eshitmaguncha chiqmasman“, deyarkan. Ko'rmasmisan, kimning baxti bor bo'lsa, (Oyat) „Sizlarga va'da qilingan jannat bashorat bo'lsin!“ degan bashoratni eshitib, o'ng'aygina chiqadi. Kim badbaxt bo'lsa joni qattig'lik bilan chiqadi. Bundan Allohning o'zi asrasin“².

Alloh tomonidan ilk payg'ambar Odam alayhissalomga yuborilgan har bir payg'om, oyat, topshiriq yoki farmon, payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamning hadislar, keyinchalik insoniyat (xususan musulmonlar) hayotidagi muhim qonuniyatga aylanib, ming–ming yillar o'tgach ham oxirzamonga qadar odam farzandlari bu qonunlarga, belgilangan tartib–qoidalarga qat'iy amal qilayotgani aytib o'tiladi.

Asarda musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan, odamlar tomonidan zarar, ziyon yetkazilishi yoki o'ldirilishi qat'iy taqiqlangan

ayrim hayvonlar tilga olinadi. Ularning xislat va fazilatlar, yaxshi jihatlari, insonga keltirilgan foydasi tilga olinadi:

„Shunda (Alloh tomonidan) farmon bo'ldi: „Ey Odam, ulardan biri huzuringga kelganda boshini silagil!“ Odam itning boshini siladi. It yuzini qush–qumursqalarga qaratib, hammasini qopdi. O'sha kundan boshlab it Odam avlodlari bilan birga qoldi. Boshqa hayvonlar bilan dushman bo'ldi“³. Allohning Odam farzandiga qilgan farmonining, ya'ni „Ey Odam, ulardan biri huzuringga kelganda boshini silagil!“ degan gapining sehrli kuchi va qudrati bilan bo'risimonlar oilasiga mansub bo'lgan yirtqich hayvon – it xonakilashtirilib, insonning yaqin do'stiga, hamrohiga, mol–mulkining qo'riqchisiga aylangani aytiladi.

Islom dinida musulmonlar uchun bajarilishi lozim bo'lgan besh muhim amaldan biri haj ziyorati hisoblanadi. Bilamiz, haj amali musulmonlarning muqaddas shahri Makkada kechadi. Musulmonlar Makka va Madinaga ziyorat qilish maqsadida, gunohlardan poklanish uchun borishadi. Asarda bu muqaddas maskan Alloh tomonidan berilgan oliy farmonning kuchi bilan vujudga kelgani tilga olinadi. So'zning beqiyos qudrati islom olamining muqaddas maskanining vujudga kelishiga sababchi bo'lganiga guvoh bo'lamiz: „Yana farmon bo'ldi: „Ey Odam, poklanish mavridi keldi, sen Makkaga borgil, mening uchun bir uy bino qilgil“, dedi: „Iloho, u yerning qayda turishini bilmasman“. Alloh Taolo bir qushni yo'l boshlovchi qildi. Uning oti arab tilida axyol erdi, turkchada esa ko'k qarg'a. U uchib boradi, Odam uning ortidan yurib boraveradi.

Payg'ambar alayhissalom aytdiki: „Olti qushni o'ldirmang, biri ko'k qarg'a Odamga yo'l boshlovchi bo'lgani uchun, ikkinchisi chumoli – Sulaymon alayhissalomga o'git bergani uchun, uchinchisi qaldirg'och – „Xashr“ surasining oxirini o'qigani uchun va yana ba'zilarning aytishicha, „Bayt ul–Muqaddas“ mag'lub bo'lishida qismatiga yig'lagani uchun, to'rtinchi sassiqpopishak – Sulaymon alayhissalomga elchi bo'lgani uchun, beshinchisi suv baqasi – Namrud o'tiga suv keltirgani uchun, oltinchi asalari – undan odamzotga shifo bo'lgan asal uchun“⁴.

1 Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 4–bet

2 Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 4–bet

3 Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 11–bet.

4 Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 11–bet.

Bu hayvon va hasharotlar inson hayoti uchun, hayvonot va nabotot olami yashashi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bugungi kun olimlari, soha mutaxassislari tomonidan ilmiy o'rganilib, ularning foydali jihatlari o'z isbotini topgan. Musulmon olamida bu singari hayvon va hasharotlarga alohida e'tibor ko'rsatiladi. Asalari tayyorlagan bolning shifobaxshligi, ming dardga davoligi islomning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham Alloh tomonidan alohida tilga olingan. Muhammad Payg'ambarning hadislarida ham bu haqda fikrlar bayon etilgan.

Ezgulik va poklik ustida qurilgan Islom dinida hattoki, salomlashish orqali ham musulmonlar bir-birlariga ezguliklar tilashgan. Bu ham o'ziga xos bir magiya bo'lib, har bir mo'min–musulmon kishi boshqa bir musulmonga “Assalому alaykum”– ya'ni sizga sog'lik–salomatlik tilayman, deya salom berish orqali ezgulik ulashadi. Musulmonlarga xos salomlashishning tarixi haqida asarda quyidagilar bayon etilgan:

“Farishtalar Odamni osmonga olib chiqdilar. Jabroil alayhissalom bir ot keltirdi. U mushk–anbardan yaratilgandi. Odam unga mindi. Jabroil alayhissalom tizginini tutdi. Hazrat Mekoil o'ngida, hazrat Isrofil so'lida yurib, osmonlarni kezdilar. Farishtalar yo'liqqanida Odam ularga: „Assalому alayka yo maloikatallohu!“deb salom qilar edi. Bunga javoban farishtalar: „Alaykumus salomu va rahmatullohi va barokatuhu!“ der edilar. Alloh taolo xitob qildiki: „Bu sening saloming bo'lur va yana sening o'g'lonlaringning qiyomatga qadar salomlari bo'lur!“⁵.

Asarda payg'ambarlar hayoti va faoliyati haqida ma'lumot kiritilarkan Allohning kalomi nechog'lik sehri kuch va qudratga egaligi bilan bog'liq jihatlari ham e'tibordan chetda qolmaydi. Allohning izmida bo'lmagani uchun, Odam alayhissalomga sajda qilmagani uchun jannatdan quvilgan Shaytonning asosiy ishi odam farzandlarini ezgu ishdan chalg'itish, bir–biriga yomonlik qilish va ularni Alloh buyurganlarini bajarmaslikka undashdan iboratdir. Shu bois Alloh tomonidan Shayton la'natlangan.

So'z sehri va uning qudrati nafaqat payg'ambarlarni, odamlarni, hayvon va o'simliklarni, hattoki Alloh tomonidan

la'natlangan Shaytonni ham o'z izmiga solishi asarda o'ziga xos tasvirlangan. Asarda to'fon boshlanishi oldi hayvonot olamidan bir juftdan, Allohni qalbida jo qilgan, ezgu maqsaddagi insonlardan bir necha juftdan Nuh kemasiga chiqib jon saqlashi, shu jarayonda kemaga Shaytonning ayyorlik va ustamonlik bilan kirib olishini ko'ramiz. Allohning rasuli bo'lmish Nuh alayhissalomning kemada aytgan gaplaridagi magiya qudrati ta'sirida Shayton payg'ambarning og'zidan chiqqan topshiriqni bajaradi va kemadan joy oladi:

“Aytishlaricha, kemaga eng avval qaldirg'och kirdi, eng keyinida kirgan jonivor eshak bo'ldi. Eshakni sudradilar, sira kemaga kirmadi, negaki Shayton uning dumidan tortib turgandi.

– Shayton mingan bo'lsa hamki kirgill! – dedi Nuh.

Yana aytishlaricha, Nuh taysallanib turgan eshakka qarab: „Kirgil, ey mal'un!“ degan edi, Iblis – mal'un eshakning dumidan ushlagan holda kemaga chiqdi.

Shaytonni kema ichida ko'rgan Nuh: Sen kimning farmoni bilan kemaga chiqding? – dedi. Sening so'zing, sening farmoning bilan chiqdim, – dedi Shayton.

Seni kirgil, deb qachon aytdim? – taajjublandi Nuh.

„Kirgil, ey mal'un!“ deding, mal'un mendirman, eshak emas, – dedi Iblis“⁶.

Asardagi Ibrohim alayhissalom qurbonlikka so'yilishi kerak bo'lgan o'g'li Ismoil Alayhissalomni bo'yniga pichoq tortish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda ham magiyaga duch kelamiz. Juda keskir va o'tkir, hatto toshni sariyog'dek kesadigan pichoq Allohning qudrati bilan Ismoilning bo'ynini kesolmaydi, u o'tmas bo'lib qoladi. Payg'ambar Ibrohim harchand urinmasin pichoq Ismoilning terisiga o'tmaydi:

“Ibrohim halilulloh yetti marta pichoq tortdilar, lekin Ismoil alayhissalomning bo'yinlariga o'tmadi.

– Ey ota! Pichoqning uchini tiqing, shoyad kessa, – dedi Ismoil alayhissalom.

Pichoq bukilib, qayrilib ketdi hamki kesmadi. Shunda (Ibrohim payg'ambarning) qahrlari kelib, pichoqni yerga urdilar, pichoqdan sado chiqdi:

⁵ Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 5–bet

⁶ Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 23–bet

– Vo ajabo! Xalil „kesgin!“ deb amr qilur, Jalil „kesmagil!“ deb amr qilur. Menga Xalilning amridin Jalilning amri zarurroqdir, lekin Xalilning itobi menga og'irroqdir. Bilsang agar qiyomat kuni bo'lganda Muhammad alayhissalom ummatlari do'zaxga kirgizilgay, ammo ularni o't kuydirmagay. Shunda do'zax Moliki „Nechun kuydirmassan?“ deganlarida o't „Qanday kuydirayinki, Butun mulklar egasi: „Kuydirmagil!“ deb tursa“ derkan.

Shunda farishtalar murojat qilarkanlar:

– Iloho, Lavh ul-mahfuzda ko'rarmizki, „Oxir zamon payg'ambari Ismoil urug'idan bo'lgay“, deyilgan. Ul Muhammadning haqqi-hurmatidin bularga farah bergin!

Havodan nido keldi:

– Ey Ibrohim! Farzandingni so'yishdan to'xtagin! Sen sinovdan o'tding.

Parvardigoring amrini bajarishga nechog'li ixlosli va itoatli ekanliging sinaldi. Sen tushni haqiqat qilding, najot topguvchilardan bo'lding! Farzanding evaziga mana bu qo'chqorni qurbonlik qilg'il! O'g'ling salomat qolsin!

Ibrohim alayhissalom taajjub bilan so'radiki:

– Bori Xudoyo! Pichoqning kesmaganligida nima hikmat bordir?

Alloh taolo tarafidan nido keldiki:

– Ey Xalil! Pichoq qanday qilib ham kessinki, Bibi Hojar Ismoilni menga topshirib yuborgandi. Bas, agar men Ismoilni salomat saqlamasam, uni o'ldirsam, bu mening Hojarga xiyonatim bo'lardi. Mendek Xudodin xiyonat sodir qilmoq durust emas.

Shu payt osmonda ovoz eshitildi:

– Allohu akbar! Allohu akbar!

Ibrohim alayhissalom boshlarini ko'tarib qarab, Jabroil alayhissalomni ko'rdilar, u bir qo'chqorni yetaklab kelayotgan edi. Sevinib ketdilar, bu kalimalar tillarida joriy bo'ldi:

– Laa ilaaha illa-Ilohu Allohu akbar!

So'ngra ko'ngillari quvonchdan yorishib, o'g'illari Ismoil alayhissalomga shunday dedilar:

– Ko'rgil! Alloh taolo meni va seni bu og'ir zahmatdan xalos qildi.

– Allohu akbar! Va lillahil hamd! – dedilar Ismoil alayhissalom yuraklari Yaratganga bo'lgan shukronalarga, ko'zlari sevinch yoshlariga to'lgan holda.

Bilingki, kimda kim ushbu takbirni Qurbon hayiti va tashriq kunlarida aytsa, Jabroil aminning, Ibrohim Xalilulning va Ismoil Zabihning shifoatiga muyassar bo'lar ekan”⁷.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Nosiriddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asarida sehr – magiya, ya'ni so'z qudrati, Allohning kalomi, duo va payg'ambarlar tilidan chiqqan mo'jizaviy so'zlar orqali yuzaga kelgan g'ayritabiiy holatlar keng badiiy tasvirlangan. Muallif diniy–mistik rivoyatlar, payg'ambarlar tarixi va ular hayoti, payg'ambarlar bilan bog'liq voqealarda magik unsurlarni asar ma'nosiga, badiiyatiga uyg'un tarzda bayon etadi. Jumladan, ilk payg'ambar – Odam alayhissalomga jon ato etilishi, olamni larzaga solgan Nuh to'foni va undagi mo'jizalar, Allohning qudrati, Alloh yuborgan vahiy bilan hayvonot va nabotot olamidagi magik o'zgarishlar, duo va so'z qudratining hayotiy voqealarga ta'siri yuksak badiiylik bilan yoritilgan.

Asarda Allohning kalomi – vahiy va oyat orqali yuzaga kelgan har bir hodisa muqaddaslik, ezgulik, in'om va sinov sifatida talqin qilinadi. Jumladan, salomlashish madaniyatining paydo bo'lishi, ibodat maskanlarining qurilishi, hayvonlar va hasharotlarning xos fazilatlarini, duo qudrati bilan yuzaga kelgan mo'jizalar asar mazmunining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Magiya bu yerda an'anaviy sehr–jodu emas, balki so'z orqali amalga oshirilgan ilohiy mo'jiza, Allohning qudratini ifodalovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Nosiriddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asari nafaqat diniy–tarbiyaviy asar, balki so'zning kuchi va ilohiy mo'jizalar orqali inson hayoti va olam taraqqiyotidagi muqaddas qonuniyatlarni anglash imkonini beruvchi bebaho manba sifatida ahamiyatga molikdir.

⁷ Qissasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf 55–bet

Foydalanilgan adabiyot

“Qissasi Rabg'uziy”. Nosiruddin Rabg'uziy.pdf

Nozima OCHILOVA,
24-sonli “Nurli maskan” maktab-internati
ona tili va adabiyot o’qituvchisi

ANVAR OBIDJONNING OBRAZ YARATISH VA BADIY TASVIR VOSITALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Anvar Obidjon she’riyatida obrazlilik va badiiy obraz masalasi o’rganilgan. Shoirning poetik tasvir vositalaridan foydalanishdagi o’ziga xosligiga diqqat qaratilgan. Ijodkorning narsa-predmetlar, hayvonot olami, tabiat hodisalarini obrazlantirib, jonlantirib tasvirlash orqali ularda insonlarga xos xarakter-xususiyatlarni namoyon qilishga harakat qilganligi tahlillar asosida dalillangan. Ijodkor yaratgan obrazlarini badiiy tasvir vositalari yordamida yorqin, ishonarli, tabiiy va estetik ta’sirchan tarzda tasvirlashga erishganligi yoritib berilgan. Yaratgan obrazlari mohiyatida shoirning g’oyaviy qarashlari, tarbiyaviy o’g’itlari mujassam etilgani oydinlashtirilgan.

Kalit so’zlar: she’riyat, bolalar adabiyoti, Anvar Obidjon ijodi, obrazlilik, badiiy obraz, badiiy mahorat, badiiy tasvir ifodalari, badiiy talqin.

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос объективности и художественного вымысла в поэзии Анвара Обиджана, одного из известных представителей детской литературы. Акцент сделан на оригинальности поэта в использовании поэтических средств образности. Выбор редакции Все Выявлено, что художнику удалось добиться яркого, убедительного, естественного и эстетически впечатляющего изображения своих образов с помощью средств художественного образа. Созданные изображения идеи и просветительские учения поэта воплотились в сути его образов.

Ключевые слова: поэзия, детская литература, творчество Анвара Обиджана, образ, художественная литература, художественное мастерство, художественные высказывания, литературная интерпретация.

Annotation: this article examines the issue of objectivity and fiction in the poetry of Anvar Obidjan, one of the famous representatives of children’s literature. The emphasis is placed on the originality of the poet in the use of poetic means of imagery. Editor’s Choice All It is revealed that the artist managed to achieve a bright, convincing, natural and aesthetically impressive image of his images with the help of the means of an artistic image. The created images, ideas and enlightenment teachings of the poet were embodied in the essence of his images.

Key words: poetry, children’s literature, Anvar Obidjan work, image, fiction, artistic skill, artistic statements, literary interpretation.

San’at va mahorat natijasi bo’lgan badiiy asar o’quvchining ongi va shuuriga kuchli ta’sir eta oladi. Xususan, bolalar adabiyoti namunalarini – she’r, hikoya, ertak o’quvchilarni erkin fikrlashga, voqea hodisalarini hayot bilan bog’lashga undaydi. Shuningdek, ular o’quvchilarni atrofda bo’layotgan hodisalardan to’g’ri xulosa chiqarishga, befarq bo’lmalikka chorlaydi. O’sib kelayotgan yosh avlodning turli masalalarda o’z fikrini qo’rqmasdan bayon eta olishi, mustaqil yondashuvi, uning barkamol avlod sifatida shakllana boshlaganidan dalolat

beradi. Bu borada ularga badiiy adabiyot eng yaqin ko’makchi bo’lishi mumkin.

O’zbek bolalar adabiyotining iste’dodli vakili, serqirra ijodkor, bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjonni kichkintoylarning ruhiy olamini chuqur ochib beradigan, ularning badiiy qiyofasini o’ziga xos tarzda tasvirlaydigan mahoratli ijodkor sifatida bilamiz. U yosh kitobxonni kitobga oshno qiladi, bola qalbida kitobga mehr, san’atga muhabbat uyg’otadi.

Shoirning ijodi hayvonot va nabotot olami, borliq hodisalari, inson va uning turli qiziqishlaridan

bahs yuritadi. Bu jarayonda u o'zining fikr va qarashlarini teran ifodalash uchun turli badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanadi va ularni badiiy obrazlarning mohiyatini ochishda faol qo'llaydi.

She'riyatda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, kitobxonning shoir yoki yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani osongina tushunib olishiga yordam beradi. Biz bilamizki, obraz – borliqning badiiy asardagi aksi. Ya'niki ijodkorning tasavvur olami obrazda uyg'unlashtirilib, badiiy manzara yaratiladi. Badiiy tasvir esa ijodkor obrazni qanday yaratganligi, uni qanday tasvirlaganini bilan bog'liq hisoblanadi.

Badiiy tasvir vositalari va obrazlar she'riyatda tasvirlanayotgan narsani jonli qilib aks ettirish, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi muhim jihatlar sanaladi. Qolaversa, ular shoirning mahorati, san'atkorligini ham ko'rsatadi.

Anvar Obidjonning "Oqshom" she'riga nazar tashlaydigan bo'lsak, turli xil ko'chimlar orqali she'riyatda tun tasvirini mohirona tasvirlaganligining guvohi bo'lamiz.

Bir piyola choy kabi
Bulut oyni ho'pladi.
Tovuq beka katakka
Jo'jalarni to'pladi. [3, 6]

Ushbu she'rda shoir jonlantirish san'atidan foydalangan. Ya'niki, "Bulut"ni jonlantirib ko'rsatgan. Oyning bulut ostida qolishini ijodkor shoirona tasvirda ifoda etadi, ya'ni u shunchaki yo'qolib qolmagan, balki bulut uni bir piyola choy kabi ho'plagan. Choy ichish insonlarga xosdir. Bulutga insonga xos sifatlarning yuklanishi tashxisning betakror namunasi bo'la oladi. Piyolaning aylanaligi va undagi choyning rangi oyning tuzilishiga o'xshashlik kasb etishi shoirning mohirlik bilan topgan topilmasidir. Qolaversa, tovuq ham shoirning talqinida shunchaki tovuq emas, balki u bekadir. Yana shu jihati ham e'tiborni tortadiki, tovuq beka – ona. Unga oyni ho'plagan bulut ob-havoning o'zgarib, yomg'ir yog'ishidan darak bermoqda. Ana shu xavf tovuqning bolalarini bir joyga to'plab asrashi uchun sababdir. Demakki, ijodkor tovuq obrazida onalarga xos bo'lgan aql-farosatlilik, mehribonlik, zukkolik xislatlarini jamlagan.

Ushbu "Oqshom" she'ri orqali ijodkor tun bo'lganligiga ishora qiladi. Tunda hayvonot va nabotot olamida sodir bo'ladigan tabiat hodisalarini badiiy tasvirlardan foydalangan holda yoritib berilishi bolajonlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi, ularning tasavvur dunyosini yanada boyitishga xizmat qiladi. Qolaversa, badiiy tasvir vositalari borliqdagi narsa-hodisalarni o'xshashlik, aloqadorlik, ko'chimlar orqali yanada aniqlikda ko'rsatishga xizmat qiladi.

"Vahimachi" she'rda qo'llanilgan badiiy san'atlar ham shoirning mahoratidan dalolat beradi:

Qochib kelar qari Fil,
Hayajonda boshqalar.
Qichqirdi u hansirab:
– Qutqaringlar, oshnalar!

Meni yovuz bir Sichqon
Quvlab kelar uzoqdan.
G'ajib tishlar miyamni
Kirib olsa quloqdan.

Ayiq, Bo'ri va Qoplon
Juda hayron bo'lishdi.
Lekin, sayoq mushuklar
Maza qilib kulishdi. [4, 32]

Ushbu she'rda ham jonlantirish san'atidan unumli foydalanilgan. Shu bilan birga qahramonlardagi xislatlar zidlantirib berilgan bo'lib, tazod san'atining ham muayyan o'rni bor. Ya'niki, Fil katta, Sichqon esa kichkina jonzot. Ulardagi farq orqali she'rdagi jiddiyatning miqyosi yaqqol sezilib turadi. She'rda sifatlash san'ati ham qo'llanilgan bo'lib, "qari", "yovuz", "sayoq" so'zlarida aks etyapti. Filning "qutqaringlar, oshnalar!" degan murojaatida "nido" san'ati keltirilgan. Ayiq, Bo'ri, Qoplon kabi hayvonlarni sanash orqali ta'did san'ati ham namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin.

Badiiy san'atlarning o'z o'rnida qo'llanilganligi shoirning mahoratini namoyon etgan hamda she'rdagi qahramonlarga xos xususiyatlarni aniq ifoda etilishiga yordam bergan.

"Mahallamizning jarchisi" nomli she'riga hayvonlar obrazining jonlantirilishi orqali poetik fikrning ifoda etilganligini kuzatamiz:

Shoxda shaqillar Hakka:
 – Mehmon kelyapti, aka!
 Tez pishiring palovni.
 Burab turib mo'ylvovni.
 Yeng shimaring, kelinoyi,
 Damlab qo'ying ko'k choyni.
 Yoying shoyi dasturxon,
 Yoping issiq patirnon. [3, 6]

Mahalla jarchisi sifatida Hakka o'quvchini hayratga solibgina qolmasdan unga o'zgacha bir zavq ham bag'ishlaydi. Chunki satrlarda jonlantirish, ya'ni intoq san'atining go'zal namunasini ko'ramiz. Hakka – jonli mavjudot. Ammo u uning jarchi sifatida gapirishi, "aka" deya murojaat qilishi asosida nutqlantirilishi o'quvchida ajib bir kayfiyat, samimiyatni uyg'otadi. Qolaversa, akaning mo'ylvovni burashi, kelinoyining yeng shimarishga da'vat etilishi holati o'quvchida yengil yumor orqali ajib kayfiyat uyg'otadi. O'quvchi she'r bilan tanishgach, mehmon ulug' inson ekanligini, mehmon kelgan uyda to'y, xursandchilik bo'lishini anglaydi. Buni esa Hakka o'z so'zlari orqali o'quvchiga yetkazadi. Mehmon kutish odobi milliyligimizning yana bir ko'rinishidir. Bu esa bola ongiga yoshlik chog'laridan kattalar orqali singdirib boriladi. Uyda mehmonning kelishi to'kin-sochinlik belgisi hisoblanadi. Shu boisdan ham she'rda keltirilgan palov, ko'k choy, shoyi dasturxon, issiq patirnon kabi milliy ruhni ifoda etuvchi tushunchalar o'zbek xalqining to'kin dasturxonini to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, shoir ushbu she'r orqali bolalar qalbiga milliy ruhni singdirishga intilgan.

"O'rmonda ziyofat" she'ri bilan tanishamiz.

Sher oshxona ochibdi
 O'rmonda bugun,
 Yovvoyi va xonaki
 Hayvonlar uchun.

Pishar turli taomlar
 Qozonda "jaz-jaz".
 Bo'rivoy – o't qalovchi,
 Quyon – bosh oshpaz.
 Yumronqoziq masalliq
 Tayyorlashda band.
 Ho'kiz bobo – qorovul,
 Echki – ofitsiant. [3, 24]

Ushbu she'r o'quvchida hayvonlarga nisbatan mehr uyg'otishga xizmat qiladi. Bo'ring mehnatkashligi o'quvchini hayratga soladi. Adabiyotimiz tarixida an'anaga ko'ra bo'ri yovuz, badjahl insonlarning badiiy timsoli sifatida gavdalanirtilgan. Lekin Anvar Obidjonning o'ziga xos ifodasiga ko'ra ushbu she'rda bu timsol mehnatkash sifatida tasvirlab berilgan. She'rda yoritilishicha, har bir hayvonning o'z kasbi bor. Ular o'z kasbi bo'yicha mehnat qilib xo'randalarni xursand qilishga urinadilar. O'quvchi she'r bilan tanishar ekan, hayvonlarning bir-biridan ajoyib suhbatlarini ko'rib kasbga, mehnatga muhabbat qo'yadi. Mehnat insonni chiniqtirgani kabi kasb ulug'likka yetaklaydi. Demakki, ushbu she'rning ham betakrorligi, poetik jozibasini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida jonlantirish va o'xshatish san'atlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Bolalar shoiri Anvar Obidjon bola qalbiga yo'l topish, unga ta'sir etish uchun badiiy adabiyotning serqirra imkoniyatlaridan foydalanadi. Turli mavzulardagi she'rlarida aks ettirilgan tarbiyaviy mazmuni ramziy obrazlar asosiga singdiradi. Qolaversa, badiiy obrazni jonli, ishontirish kuchiga ega, ta'sirchan tarzda tasvirlash uchun badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanishga harakat qiladi va bunda muayyan yutuqlarga ham erishadi. Jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a, metafora, ta'did, nido, sifatlash, tazod kabi bir qator tasviriy vositalar asosida shoir she'rlari bolaga o'zgacha ruh, kayfiyat baxsh etadi. Zero, bola yoshlikda olgan taassuroti, zavqi va bilimlarini hech qachon unutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. 234-bet.
2. Ko'nglimizning mayli ichki tarbiyamizga bog'liq (Anvar Obidjon bilan suhbat). // Bekajon, 2005. – № 74-bet.
3. Обиджон А. Баҳромнинг ҳикоялари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980. 32-бет.
4. Обиджон А. Жуда қизиқ воқеа. – Т.: Юлдузча, 1987. 229-бет.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 270-bet.

Sanjar SAMADOV,
 Qumqo'rg'on tumani 59-maktabning
 ona tili va adabiyot fani Oliy toifali o'qituvchisi

MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK SINTEZI – XAYRIDDIN SULTON POETIKASINING ASOSIY TAMOIYILI

Annotatsiya: mazkur maqolada Xayriddin Sulton ijodida milliy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur uyg'unligining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning poetik olamida o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, an'anaviylik, madaniy meros bilan bir qatorda bugungi davrning zamonaviy shaxsiga xos intellektual izlanishlar, yangicha dunyoqarash va tafakkur tiplari qanday ifodalangani yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Xayriddin Sulton, milliylik, zamonaviylik, sintez, poetika, badiiy tafakkur, qadriyatlar, modernlik.*

Аннотация: в статье анализируется художественная интерпретация гармонии национальных ценностей и современного мышления в творчестве Хайриiddина Султана. Показывается, как поэтический мир поэта, наряду с исторической памятью, традициями и культурным наследием узбекского народа, выражает интеллектуальные поиски, новые мировоззрения и типы мышления, характерные для современного человека.

Ключевые слова: *Хайриiddин Султан, национальность, современность, синтез, поэтика, художественное мышление, ценности, современность.*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of the harmony of national values and modern thinking in the work of Khayriddin Sultan. It highlights how the poet's poetic world, along with the historical memory, tradition, and cultural heritage of the Uzbek people, expresses intellectual research, new worldviews, and types of thinking characteristic of the modern person of today.

Key words: *Khayriddin Sultan, nationality, modernity, synthesis, poetics, artistic thinking, values, modernity.*

Kirish. Milliy madaniyat har bir xalqning o'ziga xos tarixiy tafakkuri, urf-odati, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydi. Bu tafakkur, eng avvalo, tilda va ayniqsa, adabiyot tilda o'z aksini topadi.

XXI asr o'zbek adabiyoti ko'p qirrali ijodkorlar bilan boyidi. Ular orasida Xayriddin Sulton o'ziga xos falsafiy mushohadalari, badiiy izlanishlari va uslubiy yangiligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodi chuqur milliy ildizlarga ega bo'lishi barobarida, zamon bilan hamnafaslikni ham yo'qotmagan. Bu ikki kuch – **milliylik va zamonaviylik** – Xayriddin Sulton poetikasining asosiy ustunlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Xayriddin Sulton bugungi o'zbek qissachiligida o'ziga xos ovoz, o'ziga xos uslub bilan bir-biridan original asarlar yaratib kelayotgan adiblardan biri. Adib qissalari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton adabiyotga o'tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Adib adabiyotimizga yangi mavzular, yangi qahramonlar olib kirdi, uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyliigi, milliyliigi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton qissalarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug'yonlari milliylikka yo'g'rilgan holda tasvirlanadi. Adib o'z oldiga insonning qalb kechinmalarini, qalb sirlarini yechishni maqsad qilib qo'yadi. Personajlar haqida so'zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo'lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga daxldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi.

Ularning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik tasvirlanadiki, adib oddiy voqea-hodisalar zamiridagi nozik jihatlarni ilg'ab, ularga muhim ma'no-mohiyat yuklaydi. Milliy ma'naviyatga daxldor, xalqning o'lmas udum va an'analari oid muammolarni o'ziga xos yo'sinda ifodalab beradi. Adibning qahramon tanlashdagi mahorati ham tahsinga loyiq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular hayotga endigina qadam qo'ygan yosh yigit-qizlar, bolalar, umri poyoniga yetayotgan chollar, qariyalar, xokisor, goho jur'atsiz va kamsuqum insonlardir. Shu o'rinda badiiy obrazga ta'rif berib ketish o'rinni, albatta. Badiiy obraz – bu badiiy ijodning umumiy kategoriyasi: estetik ta'sir qiluvchi obyektarni yaratish orqali san'atga xos bo'lgan hayotni takrorlash, talqin qilish va o'zlashtirish shakli. Obraz deganda ko'pincha badiiy yaxlitlikning elementi yoki bo'lagi, odatda, mustaqil hayot va mazmunga ega bo'lgan parcha tushuniladi. Badiiy obraz tafakkurning alohida shakligina emas, u tafakkur orqali vujudga keladigan voqelik obrazidir. "Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g'oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg'u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga ega in'ikosidan iborat".

Muhokama. Xayriddin Sultonning "Onamning yurti" nomli qissa va hikoyalar to'plamidan joy olgan "Ajoyib kunlarning birida" qissasi o'zining syujet chizig'i, qahramonlarning sodda va dilkash tasviri bilan badiiy ahamiyatga egadir.

Asar O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlanadi. Qissaning boshlanishidan ham o'zgacha ruh seziladi: Bu voqea ajoyib kunlarning birida ro'y berdi. Ochig'ini aytganda, bu kunni u qadar ajoyib deb bo'lmasdi: havo sovuq, yer balchiq, yo'l-yo'lkalar shilta-shalabbo, samolyotga bilet yo'q, "Paxtakor" birinchiligiga tushib ketgan... Lekin baribir bu ajoyib bir kun edi: odamlar shoshib ishga borar, maydonlarda gala-gala kaptar o'ynar, do'konlarda savdo chaqqon, radiodan Munojot "Munojot" ni qarsillatib aytib turar, namchil xiyobonlarda shamsiya tutgan oshiqqlar ohista kezardi. Qissada Sulton, Abdulla va Kamolning Nozim Qodirov (Botir Zokirov)ning uyiga borishi, ular birgalikda hayotdan, uzoq bolalik kunlardan so'z ochishlari, adabiyot va san'at haqidagi qizg'in suhbatlari juda ta'sirli ifoda etilgan. Hofizning umri poyoniga yetar chog'ida ohanglari, so'zlari butunlay yangicha ruhda qo'shiq aytishni niyat qilganligini aytgan o'rinlari, Navoiyni umrining kuzida teranroq anglagani, hatto bir g'azalini o'qib berib, undan nechog'lik Sezyapsizmi? Nigohi qanchalar o'tkir, teran ekan Navoiyning! Axir, bu butun boshli bir kuz simfoniyasi-ku! Rangga ko'chirilsa, qanday g'aroyib manzara bo'ladi. Bir urinib ko'rmoqchiman. "Bir xazonlig' bog' ichinda" deb qo'yaman nomini... Voqealar rivoji jarayonida obrazlarning o'zaro munosabatlari – ziddiyatlari, kurashlari, qahramonlarning xarakterlari shakllanadi, obrazlarning eng muhim xususiyatlari yechiladi. "Ajoyib kunlarning birida" qissasidagi syujetning o'ziga xosligi shundaki, asar syujetida ichki harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Ya'ni qahramonning o'y - fikrlari, ichki kechinmalari tahliliga ko'proq e'tibor qaratiladi. Qissa voqealari, asosan, Sultonning xotira ko'zgusi orqali tasvirlanayotgan voqealardan iborat. Qahramon umrini qanday o'tgani, nimalarga ulgurdi-yu hovuchida qanday armonlari qolganini o'ylaydi. O'n yetti yil mobaynida shahri azimga qatnab, qanchadan qancha bazmi jamshidlarda, ko'ngli tilamagan davralarda, safsata bozorlarida kunlari tamaki tutuniday ko'kka uchgani, mangu yashaydiganday oltin damlarini somondek sovurgani haqidagi o'ylar uning xayolini o'g'irayveradi. Kasalxona derazasidan boqarkan, beixtiyor hayoti "mazmunsiz romandek zerikarli bo'lib qolganini, xayoli siyqa va betayin sahifalar uzra tinimsiz kezayotganini payqaydi". Sizga yoqmagan

kitobni istagan paytingiz yopib qo'ysangiz bo'lar, lekin umr kitobini... Sulton hayoti davomida ishida, tashvish-u intilishlarida o'zi anglab yetmagan, angolganida ham qadriga yetmaydigan bebaho ma'no mujassam edi. U ertablari tik oyoqda ichilgan bir piyola choydan tortib boshqarmadagi majlislargacha, ishxonadagi urish, so'kish-u iltimoslargacha, hazil-mutuyibadan tortib ko'z yoshlargacha, oshkora va pinhoniy alam-armonlargacha – hammasi hayot kitobining qadrdon sahifalari edi. Bularni o'ylarkan, o'ziga yopishgan bedavo dard azob bera boshlaydi. Ammo "o'ylamay yashab bo'lmaydi, xayol deganning bu qadar mislsiz azob berishini endi ko'rib turishi". Bir tomondan odamzodga kulma, yig'lama, o'ynama deb amr berish mumkin, lekin boshqa tomondan "o'ylama" deb aytib bo'lmasligini tushungandi.

Natijalar. Xayriddin Sultonovning ilmiy izlanishlari milliy-madaniy leksik birliklarning adabiy matndagi badiiy, semantik va kulturologik yukini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. U izlanishlarida bu birliklarni xalq tafakkurining aks-sadosi sifatida baholaydi va adabiyot yangi semantik izlanishlarni ilgari suradi. Sultonov ijodi o'zbek adabiyotshunosligida milliylikni, xalqona tilni va madaniyatni badiiy tilda ifodalashning namunalari biridir.

Xayriddin Sulton ijodidagi milliylik va zamonaviylikning badiiy uyg'unligi o'zbek adabiyotida yangicha estetik tafakkur namunasi sifatida baholanadi. Shoir milliy qadriyatlarini zamonaviy insonning ruhiy izlanishlari bilan uyg'unlashtirish orqali, o'z ijodini vaqt, makon va g'oyaviy chegaralardan ustun darajaga olib chiqadi. Bu sintez — faqat poetik yondashuv emas, balki shoirning dunyoqarashi, hayotga, xalqqa va zamonga bo'lgan burchining badiiy ifodasidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xayriddin Sulton ijodida milliy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi uyg'unlik muhim o'rin tutadi. Yozuvchi ijodidagi milliylik va zamonaviylikning badiiy uyg'unligi o'zbek adabiyotida yangicha estetik tafakkur namunasi sifatida baholanadi. Shoir milliy qadriyatlarini zamonaviy insonning ruhiy izlanishlari bilan uyg'unlashtirish orqali, o'z ijodini vaqt, makon va g'oyaviy chegaralardan ustun darajaga olib chiqadi. Bu sintez — faqat poetik yondashuv emas, balki shoirning dunyoqarashi, hayotga, xalqqa va zamonga bo'lgan burchining badiiy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sulton, Xayriddin.** *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: O'zbek davlat nashriyoti, 2018.
2. **Aliyev, M.** "Milliy qadriyatlar va zamonaviylik masalalari XX asr o'zbek adabiyotida" *Adabiyot va san'at* jurnal, 2020, №4, 45–52-betlar.
3. **Karimova, D.** "Xayriddin Sulton ijodida milliylik va zamonaviylik uyg'unligi." *O'zbekiston adabiyoti* jurnali, 2022, №2, 33–40-betlar.
4. **Qodirov, N.** "Milliy qadriyatlarining badiiy ifodasi." *Til va adabiyot* jurnali, 2021, №1, 12–20-betlar.
5. **Ergashev, S.** "Zamonaviy o'zbek nasrida milliylik va globallashuv" *Adabiyotshunoslik masalalari*, 2023, №3, 22–29-betlar.
6. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2676.

Larisa XAYRULLAYEVA,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
 Larissakhayrullaeva19@gmail.com

BOLALAR ADABIYOTIDAGI FANTASTIK ASARLAR XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada fantastika janrining adabiyotdagi o'rni va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Fantastika, fentezi va ilmiy fantastika kabi yo'nalishlarning o'zaro farqli va umumiy jihatlari izohlanib, ingliz va o'zbek bolalar adabiyotidagi mashhur fantastik asarlar — J. R. R. Tolkien, J. K. Rowling, J. M. Barrie, Roald Dahl, Xudoyberdi To'xtaboyev, Xojiakbar Shayxov, Sa'dulla Quronov singari yozuvchilar ijodi misolida tahlil qilinadi. Maqolada fantastik asarlarning tasavvur, sarguzasht, ezgulik va yovuzlik kurashi, shuningdek, insoniy qadriyatlarini ifodalashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida fantastik adabiyotning nafaqat bolalar tafakkurini rivojlantirish, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *fantazm, fentezi, ilmiy fantastika, sarguzasht asar xususiyatlar, fantastik asar, qahramolik*

Annotation: this article analyzes the role and artistic features of the fantasy genre in literature. It explains the distinctive and common aspects of such subgenres as fantasy, fairy tale, and science fiction, using examples from English and Uzbek children's literature. The works of renowned writers such as J. R. R. Tolkien, J. K. Rowling, J. M. Barrie, Roald Dahl, Khudoyberdi To'xtaboyev, Khojiakbar Shaykhov, and Sa'dulla Quronov are examined. The article highlights how fantastic works reflect imagination, adventure, the struggle between good and evil, and human values. The study concludes that fantastic literature plays an important role not only in developing children's imagination but also as a means of moral and ethical education.

Key words: *phantasm, fantasy, science fiction, adventure story features, fantastic work, heroism*

Аннотация: в данной статье анализируются роль и художественные особенности жанра фантастики в литературе. Рассматриваются различия и общие черты таких направлений, как фантастика, фэнтези и научная фантастика, на примере известных произведений английской и узбекской детской литературы — творчества таких писателей, как Дж. Р. Р. Толкин, Дж. К. Роулинг, Дж. М. Барри, Роальд Даль, Худойберди Тухтабоев, Ходжиакбар Шайхов, Саъдулла Куронов. В статье освещается роль фантастических произведений в выражении воображения, приключений, борьбы добра и зла, а также человеческих ценностей. В результате исследования обосновано, что фантастическая литература играет важную роль не только в развитии детского мышления, но и служит средством духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: *фантазм, фэнтези, научная фантастика, особенности приключенческого произведения, фантастическое произведение, героизм.*

Kirish. Inson tafakkuri va orzulari cheksiz bo'lgani singari, adabiyot ham bu cheksizlikni o'zida mujassam etuvchi san'at turi hisoblanadi. Shunday badiiy yo'nalishlardan biri – fantastika janridir. Fantastik asarlar inson ongida mavjud bo'lmagan, ammo tasavvur orqali yaratilgan g'ayritabiiy dunyolar, mo'jizaviy hodisalar, sehrli mavjudotlar va kutilmagan voqealarni tasvirlash orqali o'quvchini real hayot chegaralaridan tashqariga olib chiqadi. Shu bilan birga, bu asarlar faqat xayol mahsuli emas, balki insoniyat hayotidagi dolzarb ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy masalalarga ham ishora qiladi. Fantastika janrining ildizlari qadimiy afsonalar, rivoyatlar va xalq ertaklariga borib taqaladi. Vaqt o'tishi bilan u turli shakllarda — ilmiy fantastika, fentezi, sarguzasht fantastikasi tarzida rivoj topdi.

Asosiy qism. Fantastika odatda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, sehrli, g'ayritabiiy yoki ajibtovur dunyoni

yaratadigan adabiyot turi sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv ham folklorda, ham san'atda bor. Garchi *ilmiy fantastika, fentezi va ertak* kabi ko'plab janrlar fantastikaga kirsada, ularning aniq chegaralari yo'q. Mutaxassislar fikricha, bu janrlarning barchasining umumiy jihati – bu fantaziyaga, to'qimaga asoslanishi va reallikdan uzoq bo'lgan ikkilamchi shartli dunyo yaratilishidir. Shuningdek, har bir asar o'ziga xos qo'shimcha badiiy elementlarga ega bo'ladi.

“Fantazm”¹ (grekcha Phantasma — arvoq, xayol, tasavvur) — bu aniq bir fantastik dunyoning elementlarini (predmetlar, obyektlar, hodisalar) (1), fantastik voqealarni (2) va fantastik qahramonlarni (3) anglatuvchi tushunchalardir. Fantazmlar o'quvchining tasavvurida fantastik dunyoni shakllantiradi.

¹ https://encyclopedia_philosophy.academic.ru/392/ФАНТАЗМ

“Fantazmlarni o‘rganish uchun biz neologizmlar (yangi so‘zlar) va realizm (real voqeliklar) tasniflariga tayandik. Garchi bu tushunchalar o‘rtasida katta farq bo‘lsa-da, ularning takrorlanuvchi umumiy jihatlari bor. Real voqeliklar haqida gapirganda, biz realizm va fantazmlarning o‘xshash funksiyalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Realizmning asosiy funksiyasi – qaysi real voqelik haqida so‘z borayotganiga qarab, matnga milliy, tarixiy, mahalliy rang-baranglik olib kirishdir. Real voqeliklardan foydalanish matnga ishonchlilik baxsh etadi. Fantast yozuvchining asosiy maqsadi esa o‘quvchini hech bo‘lmaganda o‘qish vaqtida hikoyaning haqqoniyligiga ishonirishdir. Fantazmlarning funksiyasi — matnga fantastik tus berib, ular o‘quvchiga boshqa dunyoni aniqroq hamda yorqinroq qabul qilishga yordam beradi, bu esa muallifga o‘z maqsadiga erishishga ko‘maklashadi. Fantazm va realizm alohida matnlarda o‘xshash funksiyalarga ega bo‘lgani uchun, biz realizm tasnifini fantazmlarga nisbatan qo‘llashni mumkin deb hisobladik.”²

Fentezi janri ertak va ilmiy fantastika janrlari bilan solishtirilib, uning quyidagi xususiyatlari ajratib ko‘rsatiladi. *Dunyo xususiyati*. Fentezi asarlaridagi dunyo muallifning tasavvuri mahsuli bo‘lib, ko‘pincha real dunyoda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan narsalarni o‘z ichiga oladi. Bundan farqli o‘laroq, ertak dunyosi aniq joyga ega emas, lekin o‘quvchiga ma‘lum bo‘lgan dunyoga maksimal darajada yaqinlashtiriladi va uning chegarasidan chiqmaydi. *Sehr-jodu va qahramonlar*. Fentezi asarlari uchun sehr-jodu va folklor qahramonlarining mavjudligi xosdir. Biroq, sehrli va ertakona elementlar yordamchi rol o‘ynaydi, asosiy e‘tibor qahramonlarga, ularning xatti-harakatlari va kechinmalariga qaratiladi. *Asosiy syujet*. Yaxshilik va yomonlik, fentezi asarlarida ham, xuddi ertakdagidek, asosiy syujetni ezgulik va yovuzlik kurashi tashkil etadi. Ertakda avvaldan yaxshilik g‘alaba qozonishi aniq bo‘lsa, fentezi janrida bu ikki kategoriya teng qiymatli hisoblanadi. *Muallif erkinligi*. Fentezi yozuvchisi ilmiy fantast yozuvchini chegaralab turadigan doiralar bilan cheklanmagan. Ilmiy fantast barcha tushunarsiz narsalarga ilmiy yoki psevdoilmiy izoh berishga majbur, shu sababli fentezi muallifi syujetni eng kutilmagan tarzda o‘zgartirishi mumkin. *Ikki dunyolilik*ning mavjudligi va fentezi asarlarining o‘ziga xos tuzilishi fazoviy vaqt parametrlarining o‘ziga xos qo‘llanilishini taqozo etadi. Fentezi dunyolari geografik va vaqt jihatidan aniqlikka ega emas – voqealar shartli

reallikda, ko‘pincha real dunyoga qisman o‘xshash parallel dunyoda sodir bo‘ladi. Fentezidagi vaqt mifologik vaqtga o‘xshash bo‘lib, siklik (aylanma) tarzda rivojlanadi, xuddi dunyoning o‘zi kabi, u izchil ravishda bir-biriga o‘tib turuvchi uyg‘unlik hamda tartibsizlik bosqichlaridan o‘tadi.”³

“Fentezi janrini adabiyotdagi o‘rnini belgilashda uni ertak va ilmiy fantastika kabi turlar bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil fentezining asosiy xususiyatlarini quyidagicha ajratadi. *1. Fantastik olamning konsepsiyasi va makrotuzilishi*: fentezi asarlarida tasvirlangan olam muallifning cheksiz fantaziyasi mahsuli bo‘lib, u real hayot qoidalaridan tashqaridagi (g‘ayritabiiy) tuzilishga ega. Bu jihatdan fentezi, o‘zining lokalizatsiyasi aniq bo‘lmasa-da, o‘quvchiga ma‘lum bo‘lgan dunyoga maksimal darajada yaqinlashtiriladigan ertak olamidanoq farq qiladi. *2. Syujet dinamikasi va qahramon motivatsiyasi*: fentezining markaziy syujeti kvest ya‘ni sarguzashtli izlanilishi tamoyiliga asoslanadi. Qahramonlarning maqsadi shaxsiy manfaatlar yoki farovonlikdan yuqori turib, ko‘pincha dunyoning yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi nozik muvozanatni tiklash yoki saqlab qolishdan iborat bo‘ladi. Bu yo‘lning o‘zi asosiy maqsadga aylanadi. *3. Axloqiy qarama-qarshilikning noaniqligi*: ertakdagidek yaxshilikning muqarrar g‘alabasi haqidagi qoida fentezida ishlamaydi. Bu janrdagi yaxshilik va yomonlik kuchlari teng qiymatli bo‘lib, yomonlikning mag‘lubiyati har doim ham kafolatlanmaydi, ba‘zida esa bu g‘alaba katta yo‘qotishlar evaziga qo‘lga kiritiladi. Shuningdek, qahramonlarni yaxshi yoki yomonga ajratish masalasi ham ko‘pincha munozarali bo‘lib qoladi. *4. Badiiy erkinlik va izohlash ma‘suliyati*: fentezi muallifi ilmiy fantast kabi har bir g‘ayritabiiy hodisaga ilmiy yoki psevdoilmiy asoslash majburiyatidan ozoddir. Bu muallifga syujetni erkin va keskin o‘zgartirish, voqealarni mantiqiy izohlashga urinmasdan eng kutilmagan tarzda rivojlantirish imkonini beradi. *5. Vaqt va makonning shartliligi*: fentezi asarlarida fazoviy-vaqt parametrlari mifologik xususiyatga ega bo‘lib, aniq geografik va xronologik chegaralarga ega emas. Voqealar shartli, ko‘pincha reallikka o‘xshash parallel olamlarda kechadi. Vaqt ko‘proq siklik (aylanma) tarzda rivojlanib, dunyoning tartib va tartibsizlik bosqichlarining uzluksiz almashinuvini ifodalaydi. *6. Mifologik jonzotlarning ko‘pligi (irqlar)*: fentezi diskursining o‘ziga xos xususiyati — mifiy mavjudotlarning yakka holda emas, balki turli “irqlar” shaklida (elflar, gnomlar, goblinlar, kentavrlar) taqdim etilishidir. Ularning aksariyati mifologiyadan

2 ПОЛЯНСКАЯ Екатерина Сергеевна. Фантастическое многомирие (на материале сопоставительного текстового анализа произведений Дж. К. Роулинг и А. М. Волкова). Тюмень - 2013

3 Левко Екатерина Николаевна. Динамика волшебного мира Дж. К. Роулинг. АВТОРЕФЕРАТ. Санкт - Петербург 2010 г.

olingan yoki yozuvchilar tomonidan yaratilib, keyingi asarlarda yangi mazmun bilan boyitilgan.”⁴

Zamonaviy fantastikaning otasi sifatida qaraladigan Jon Ronald Ruel Tolkien shaxsiga, uning ijodiga murojaat qilmasdan dunyo adabiyoti fantastikasini tahlil qila olmaymiz. O’smirlar va bolalar o’rtasida juda ham mashhur bo’lgan “Sillmarillion”(O’rta Yer haqidagi asarlar seriyasi), “Uzuklar hukmdori”, “Xobbit” kabi asarlar muallifi Djon Ronald Ruel Tolkiendir. Yozuvchi o’zining bu asarlari bilan dunyo adabiyotidagi fantastika tushunchasini butunlay o’zgartirib yubordi desak mublag’a bo’lmaydi. Chunki Tolkien yaratgan asarlar adabiyotga anchagina tanish bo’lgan fantastika, mif yoki afsonalar emas edi. Biz o’qigan, o’rganib qolgan standart fantastika tushunchasi, ya’ni bizning olamda bo’ladigan voqea va hodisalar bo’rtirilgan shaklda yoki haddan tashqari mublag’a orqali, biz yashab turgan dunyo negizida yaratilsa, Tolkiening fantastikasi umuman boshqa dunyoda ya’ni u o’zi kashf qilgan, bus-butunligacha yangi olamda yaratiladi. Bundan tashqari ingliz bolalar adabiyotining sarguzasht fantastikasini J.K.Rouling “Garri Potter” romanlar seriyasi (Garrining sehrarli maktabidagi sarguzashtlari yaxshilik va yomonlik kurashi asosida tasvirlanadi), Jeyms Barrining “Piter Pen”(bolalik, erkinlik, orzular olami, ulg’ayishdan qo’rquv, bolalik orzularining abadiyligi), Rould Dalya “Charli va shokolad fabrikasi”(oddiy bolalarning g’ayritabiiy voqealarga duch kelishi, axloqiy saboqlar, soddalik bilan aralashgan fantastic elementlar) kabi asarlarda ko’rishimiz mumkin.

O’zbek bolalar adabiyotidagi fantastikaning turli ko’rinishlarida X.To’xtaboyev, T.Malik, X.Shayxov, M.Mahmudov, B.Xoshimxo’jaev, M.Xidir, S.Quronov singari yozuvchilar o’zlarining alohida ajralib turadigan ijod namunalari bilan o’quvchilar orasida ma’lum va mashhurdirlar. Bu ijodkorlarning bir-biridan ajratib turadigan xususiyati shundaki, Xudoyberdi To’xtaboyevning asarlari “Sariq devni minib”, “Sariq devning o’limi”, “Shirin qovunlar mamlakati”(Hoshimjonning sarguzashtlari) kabilar sarguzasht fantastika xos. Bunda yozuvchining qalami erkin harakat qiladi, bunda Hoshimjonning qalpoqcha orqali turli g’ayritabiiy ishlarni bajarishini fan nazariyasi bilan asoslab berib bo’lmaydi. Xojjakbar

4 Левко Екатерина Николаевна. Динамика волшебного мира дж. К. Роулинг. АВТОРЕФЕРАТ. – Санкт - Петербург 2010 г.

Shayxovning asarlarini esa ilmiy fantastikaga kiritishimiz joizdir. Adibning “Rene jumbog’i”, “7- SER”, “Olmos jilosi” kabi ijod namunalari voqealar Yerdagina emas, butun Koinotda, qo’shni Galaktikalarda sodir bo’ladi. Biroq voqealar silsilasi qanchalik g’ayritabiiy bo’lmasin, ular oxir-oqibatda qay bir tomonlari bilan Yerdagi odamlarning bugungi hayotiga, bugungi tashvishlariga bog’lanib ketadi. Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlari sarguzasht voqealarning tasviri bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda qahramonlar odatdagidan butunlay farqli, hayotda uchramaydigan hodisalarni boshdan kechiradilar, murakkab sinovlarga duch keladilar. Bunday yo’nalishdagi asarlarda mublag’ali ifoda va fantastik tasvirlar ustunlik qilgani sababli, ularni kitobxonlar nihoyatda qiziqish va hayajon bilan o’qiydilar.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko’rinadiki, fantastika janri — adabiyotning eng sarmazmun va tasavvurga boy yo’nalishlaridan biri bo’lib, u inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini ifodalaydi. Fantastik asarlar o’quvchini real hayot doirasidan chiqarib, g’ayritabiiy, sehri va kutilmagan voqealar olamiga olib kiradi. Shu bilan birga, ular insoniyatning bugungi hayoti, muammolari va orzulari bilan uzviy bog’liq bo’lib qoladi. Fentezi, ilmiy fantastika va ertak janrlari o’zaro yaqin bo’lsa-da, ularning har biri o’ziga xos estetik va g’oyaviy xususiyatlarga ega. Fentezi asarlari muallif tasavvuri bilan yaratilgan parallel dunyolarga, ilmiy fantastika esa ilmiy nazariya va texnologiyalarga tayanadi. Ingliz bolalar adabiyotida J. R. R. Tolkien, J. K. Rowling, J. M. Barrie, Roald Dahl singari ijodkorlar bu yo’nalishga o’lmas asarlar bag’ishlagan bo’lsa, o’zbek adabiyotida Xudoyberdi To’xtaboyev, Xojjakbar Shayxov, Sa’dulla Quronov kabi yozuvchilar milliy ruh va xalqona tasavvur asosida bu janrni boyitganlar. Ularning asarlarida sarguzasht, ilmiy-texnik tafakkur va badiiy fantaziya uyg’unlashib, yosh kitobxonni nafaqat hayajonga soladi, balki tafakkurini kengaytiradi, orzu va imon, yaxshilik va yomonlik, jasorat va ezgulik kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Shunday qilib, fantastik adabiyot – bu tasavvur va haqiqat, orzu va hayot, fan va san’atning badiiy uyg’unligi bo’lib, u o’quvchini o’z olamining chegarasidan tashqariga chiqishga undaydigan, tafakkurga ilhom bag’ishlovchi janrdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Левко Екатерина Николаевна. Динамика волшебного мира дж. К. Роулинг. АВТОРЕФЕРАТ. Санкт - Петербург 2010 г.
2. To’xtaboyev X. Sariq devni minib. –T.: Yangi asr avlodi. 2015. 540-bet
3. Quronov S. Galaktikada bir kun, –T.: Akademya nashr, 2019. 160-bet
4. Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе. –Ташкент: Фан, 1987
5. Шайхов Х. Илмийлик ва афсонавийлик муаммолари. Ўзбекистон маданияти газ. 1979, 13 июль

Lobar AVAZOVA,
Toshkent shahri Yangihayot tumani
285-maktabda o'zbek tili o'qituvchi

BOLALAR ADABIYOTIDA SATIRA VA YUMOR

Annotatsiya: maqolada bolalar adabiyotida hajviy tasvir yaratishning o'ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlari hamda hajviy va yumoristik obrazlarning poetik talqini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asarda hajviy obrazlar vositasida bolalar ongida ijtimoiy illatlarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, yumoristik va satirik tasvirlarda muallifning badiiy mahorati, ifoda vositalari hamda ularning estetik ta'sir kuchi namunalar asosida tahlil etilgan. Keltirilgan ilmiy mulohazalar bolalar adabiyotining nazariy tamoyillariga tayangan holda asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, satira, yumor, hajviy tasvir, badiiy mahorat, poetik ifoda, hajviy obraz, estetik ta'sir.*

Аннотация: в статье научно анализируются художественно-стилистические особенности создания сатирического изображения в детской литературе, а также поэтическая интерпретация сатирических и юмористических образов. Через призму художественных примеров рассматриваются способы формирования у детей критического восприятия социальных пороков посредством сатирических образов. Особое внимание уделено поэтическому мастерству автора, выразительным средствам и их эстетическому воздействию в юмористических и сатирических произведениях. Приведённые научные наблюдения обоснованы на теоретических принципах детской литературы.

Ключевые слова: *детская литература, сатира, юмор, сатирическое изображение, художественное мастерство, поэтическое выражение, сатирический образ, эстетическое воздействие*

Annotation: the article provides a scholarly analysis of the artistic and stylistic features of creating satirical representations in children's literature, as well as the poetic interpretation of satirical and humorous images. It examines how satirical imagery contributes to developing children's critical perception of social flaws. Special attention is given to the author's poetic mastery, expressive means, and their aesthetic impact in humorous and satirical works. The presented findings are substantiated based on the theoretical principles of children's literature.

Key words: *children's literature, satire, humor, satirical depiction, artistic mastery, poetic impact expression, satirical image, aesthetic*

Bolalar adabiyoti-beg'ubor adabiyot. Unda bolalarga xos turfa tuyg'ular, orzu-umidlar, ideallar o'z aksini topadi. Bolalar tabiatida uchraydigan sho'xlik, o'yinqaroqlik, maqtanchoqlik, dangasalik, yolg'onchilik, chaqimchilik, ochofatlik kabi xususiyatlar hajviy asarlar uchun asosiy tasvir unsurlari sanalishi bois o'zbek bolalar she'riyatining kattagina qismini hajviy asarlar tashkil qiladi.

Ma'lumki, yumor bilan satira hajviyaning muayyan qismlari bo'lsa-da, ular orasidagi mushtarakliklardan tashqari farqli jihatlar ham mavjud. Bu farq, eng avvalo, badiiy asardagi komiklik darajasi yoxud kulgining ifoda shakli va o'rni bilan belgilanadi. Kulgi-satira va yumorning asosiy ifoda quroli. Kulgining qanday kulgi ekanligi- zaharxanda yoki nafratli, beg'araz yo do'stona, hazilomuz ko'rinishlari farqini ko'rsatuvchi mezondir. Yumor ham satira kabi bolalar adabiyotining ajralmas bir qismi bo'lib, o'ziga xos badiiy tasvir elementlari, turli poetik vositalarga ega. Bolalar tabiatiga xos bo'lgan quvnoqlik, sho'xlik, o'yinqaroqlik, quvlik kabi xususiyatlar ko'proq

yumoristik tasvir usullari vositasidagina o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topishi mumkin.

"Yumorning satiradan farqi shundaki, u ma'lum sotsial hodisaga butunlay barham berishni targ'ib qilmasdan, balki undagi kamchiliklarni yo'qotish, tugatish, shu yo'l bilan uni takomillashtirib borishga undaydi. Yumor bilan insonlar g'azabli ravishda masxara qilinmaydi, ular ruhan o'ldiradigan kulgiga duchor bo'lmaydilar"¹ Demak, yumor bolalar tabiyatidagi tuzaluvchan, yengil-yelpi nuqsonlarni beg'araz fosh etuvchi va ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlovchi kulgidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi davr bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish quyidagi usullar bilan amalga oshirilgan:²

– Bolalarning bevosita hajviy qiyofalarini chizish orqali ular xarakterida uchrab turadigan chaqimchilik, g'iybatchilik, dangasalik, yolg'onchilik kabi illatlar hajv

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – T.: Fan, 1979 II tom 312-313 b.

² Jo'raeva G. O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorat. monografiya. – T.: «Muharrir» 2011. 112- b.

tig'iga olinadi. Masalan, Dilshod Rajabning "Chivinga talangan bola" she'rida dangasaligi tufayli labida murabbo yuqi bilan og'zi ochiq holda uxlab qolgan yalqov bolaning ochiq og'zi shakli ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi:

Labda murabbo yuqi –
 Yuvmay qo'ygan qotirib.
 Yotar og'zidagini
 Chivinlarga oldirib.
 Uyg'on, tingla gapimni,
 Ko'zing ochib, bola-yey,
 Talar, hatto chivinlar
 Og'zi ochiq bolani³

Shoirning topqirligi va mahorati shundaki, bu she'rda faqat shakl yaratibgina qolmay, uning o'ziga xos ko'rinishiga moslab poetik obraz ham yaratmoqda. Eng muhimi, ushbu tasvirda voqelik bolalar tasavvurida jonlanib, o'ziga xos quvnoq kulgi hosil qiladi.

- Bolalarning hajviy obrazini yaratish orqali hayotdagi muhim ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muammolar, illatlar hajviy yo'sinda fosh etiladi va shu tariqa kichik kitobxonda hajviy obrazga, uning yashash falsafasiga munosabat shakllantiriladi. Misol uchun, A.Ko'chimovning "O'rtalik" she'rida ham ana shunday illatlar o'z aksini topgan. Odatda, bir xil bolalar har ishda ilg'or bo'lib, a'lochilikka da'vo qilishsa, ba'zi bolalar o'yinqaroqlik bilan jamoani orqaga tortadi. Hamma maqtovni oldingi safda yurganlar eshitsa, barcha koyishlar orqa safdagilarga tegadi. O'rtada yurganlarni esa shoir quyidagicha tasvirlaydi:

O'rtalikda hikmat ko'pda
 O'rtalik but emir qo'rg'on.
 Shu qo'rg'onda mahkam tursang
 Pand berolmas hech bir inson.

Oldinda tosh otsa birov,
 Yashirinasan bunisiga.
 Yopirilsa ortingdan yov,
 Yashirinasan unisiga.⁴

Shoir ushbu satrlarda xalq tilida aytiladigan: "Qoziqning boshi ham bo'lma, uchi ham bo'lma, o'rtasi bo'l", degan hikmatning o'ziga xos poetik talqinini yaratishga harakat qilmoqda:

Dars chog'i ham rohatda san,
 Muallimlar ko'rishmaydi.
 Bo'lar-bo'lmas gaplar bilan
 Qizartirib urishmaydi.

Shoir o'rtamiyona bolalarning satirik obrazlarini yaratish maqsadida ushbu hikoyatomuz voqelikni

o'quvchilar hayotiga mos epizodlar vositasida reallashtiradi. Ilg'orlar har bir ishda o'zlarini ko'rsatib o'quvchilik burchini bajarishsa, qoloqlar doimo orqada sudralib, ko'pchilikning ta'nasiga sabab bo'ladi. Shoir shu holatlarga qarama-qarshi o'laroq, o'rtalikdagilarning satirik obrazini yaratadi. Asar qahramoni na maqtovga va na koyishga loyiq bo'lgan hayotiy bir obraz darajasiga ko'tariladi.

- Bolalarning ma'naviy-axloqiy olamini, ular tabiatidagi ba'zi nuqsonlarni fosh etishda majoziy obraz va detallardan, shartli tasvirdan keng foydalanildi. Bunda realistik tasvirni poetik ko'chimlar teranlashtirgani ko'zga tashlanadi. Jumladan, Anvar Obidjonning ilk ijodiga mansub "Bahromning hikoyalari" to'plamiga kirgan bir turkum majoziy she'rlari shu xildagi hajviy ruhi bilan ajralib turadi. "Obbo, Kalamushey" she'riga shu jihatdan nazar tashlaylik:

Kalamushvoy,
 Kalamush
 Savoding sal
 Chalamish.
 Yoz desalar
 "Temir" deb,
 Sen yozibsan
 "Kemir!" deb⁵

Shoir o'z she'rida kalamushning hajviy obrazini yaratishda chalasavodlik illatining badiiy-estetik va ijtimoiy mazmunini ifodalovchi xarakterli detallarni topa olgani yaqqol namoyon bo'ladi. Bu detallar kalamushning asl tabiatiga xos bo'lib, ham savodsizlik illatining zararli oqibatlarini, ham kalamushlarning (kalamush sifat odamlarning) yashash tarzini ifodalashga xizmat qilgan. Q.O'tayevning "Tan olish" she'rida quyidagicha tasvirga duch kelamiz:

Jajji bolam, ismingni ayt,
 Desa bobo Kalamush,
 Soqovlanib javob berar:
 -Ismim mening G'alamus⁶

Ko'rinib turibdiki, Anvar Obidjonda Kalamush "kemir" deb yozib, o'zining hajviy qiyofasini namoyon qilayotgan bo'lsa, Q.O'tayevda bolalarcha soqovlanib ismini noto'g'ri aytish tasviri orqali "g'alamislik" illati fosh qilinmoqda.

- Ijodkorlar hayvonlar, parranda va darrandalarning allegorik obrazlari orqali muhim ijtimoiy hamda ma'naviy muammolarga e'tiborni qaratib, ularni keltirib chiqargan sabablarning ildizini ochib berishdi. Bunday ijodiy izlanishlar o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi

3 Rajabov D. Otamning bog'i. She'rlar. –T.: Cho'lpon, 1995, 63-b.

4 Ko'chimov A. Baland tog'lar. –T.: Xalq merosi, 2002, 228-b.

5 Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. – T.: O'qituvchi NMIU, 1997, 20-bet

6 O'tayev Q. Quyosh bola, oy bola. –T.: O'qituvchi NMIU, 2014,

tamoyillaridan sanalib, iste'dodli ijodkorlarning hayot hodisalari, inson shaxsi va ruhiyatiga chuqurroq kirib borganidan dalolat beradi. Anvar Obidjonning "Yaylovni sog'ingan qo'y" she'ri ham "istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to'q bo'lsa-da, qadri yo'q, boshi egiklar timsoli":⁷

-Ishlar qalay,-
Desam, Qo'y
Javob berdi
Surib o'y:
-Kamchilik yo'q
Oziqdan...
Bezor bo'ldim
Qoziqdan...

Ushbu majoziy she'r ham satirik mohiyat kasb etib, ozuqa-yemishdan kamchiligi bo'lmasa-da, bo'ynidagi arqoni qoziqqa mahkam bog'lab qo'yilgan, bir umr qoziq atrofida aylanib yashashga mahkum qilingan "Qo'y" ham sho'ro zamonidagi erksiz odamlar timsoli. Shuningdek, shoirning "Tekinxo'r" she'rida birovlar hisobiga kun ko'ruvchi kishilarni Chumchuq hajviy obrazi orqali badiiy gavdalantiriladi. Bu she'rda qumursqa bilan chumchuqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish orqali chumchuqning satirik qiyofasini yaratadi:

Qumursqavoy Chumchuq kelib
Topib uvoq, Sekingina
Terga botib Yutdi-qo'ydi
Tortdi uzoq. Tekingina⁸

Shoir nuqtayi nazarida tekinxo'r birovlarning halol mehnati, peshona teri bilan yaratilgan narsalarni

⁷ Barakayev R. Jonajonim, she'riyat. –T.: Cho'lpon, 1997. 39-b.

⁸ O'sha adabiyot, 41-b.

osongina o'zlashtirib, o'ziniki qilib oladi. Mana shu hayotiy falsafaning badiiy talqinida bolalar dunyosi o'z aksini topgan.

Professor A.Rasulov yozadi: "Kulish, kuldirish hajviyaning yetakchi belgisi. Iste'dodli kishilargina kuldiradilar, kuydiradilar, lozim bo'lsa yig'latadilar. Mohir san'atkorlar satira, hajviyani to'laqonli timsol orqali kitobxonga havola qiladilar".⁹

Yuqoridagi kuzatishlardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

So'nggi davr bolalar she'riyatida satirik va yumoristik obraz yaratishda, asosan, ikki yo'nalish ustuvorlik qiladi. Birinchi yo'nalishni bevosita bolalarning satirik va yumoristik obrazlari yaratilgan she'rlar tashki letadi. Bu tipdagi she'rlarda shoirlar bolalar tabiatida uchrab turadigan sho'xlik va o'yinqaroqliklarni, dangasalik va to'polonchilik odatlarini quvnoq qahqaha bilan fosh etadilar. Shu jihatdan T.Adashboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab kabi shoirlar yaratgan qahramonlar alohida ahamiyatga ega. Ularning asarlarida obraz ruhiyatidagi yetakchi xususiyatlar yumoristik kulgi vositasida ta'sirchan qilib tasvirlanadi. Ikkinchi yo'nalishni majoziy she'rlar tashkil etadi. Bunda turli narsa-predmetlar, hayvonlar, parranda-yu darrandalarning majoziy xarakterdagi satirik obrazlari yaratilganini kuzatish mumkin. Bu obrazlar faqat tashqi shakl-shamoyili bilan emas, balki poetik mazmuniga ko'ra ham mukammal darajaga ko'tarilgandir. Bu tipdagi obrazlarni yaratishda mavjud ijodiy an'ana va vorisiylik katta ahamiyat kasb etadi.

⁹ Rasulov A. Betakror o'zlik. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2009.191-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – T.: Fan, 1979. II tom Ahmedov I, Suyumov A, Jumaboyev M, Soliyev M, Bolalar adabiyoti. Majmua. – Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1993
2. Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. – T.: O'qituvchi NMIU, 1997
3. Barakayev R. Jonajonim, she'riyat. –T.: Cho'lpon, 1997
4. Jumaboev M., Suvonov A. Bolalar adabiyoti. Qo'llanma. – T, 1994
5. Jo'raeva G. O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorat. monografiya. –T: Muharrir, 2011
6. Ko'chimov A. Baland tog'lar. –T.: Xalq merosi, 2002
7. Rajabov D. Otamning bog'i. She'rlar. –T.: Cho'lpon, 1995
8. Rajabov D. 80–yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari. fil.fanlari nomzodi diss. avtoreferati. –T., 1995
9. Rasulov A. Betakror o'zlik. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2009
10. O'tayev Q. Quyosh bola, oy bola. –T.: O'qituvchi NMIU, 2014
11. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. I jild. She'riyat./ T. Adashboyev, A. Akbar. — T.: "O'qituvchi" N M I U, 2006

Asqarjon YULDASHEV,

Fan va texnologiyalar universiteti Kechki ta'lim bo'limi boshlig'ining
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Annotatsiya: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston hududida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda xalqning siyosiy ongi osha davr muhitiga qarshi uyg'onib, islohotlarga ehtiyoj kuchaydi. Ushbu uyg'onishning muhim yo'nalishlaridan biri jadidchilik harakati bo'ldi. Jadidchilik — bu faqat ma'rifiy yoki adabiy oqim emas, balki keng ko'lamlı islohotchi ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining tarixiy sharoiti, asosiy vakillari, ularning adabiy merosi va hozirgi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *jadidchilik harakati, modern adabiyot, ilg'or natbuot, ma'rifatparvarlik harakati.*

Annotation: in the second half of the 19th century and the early 20th century, significant changes occurred in the socio-political and cultural life of Central Asia, particularly in the territory of Turkistan. During this period, the political consciousness of the people awakened in opposition to the prevailing atmosphere, and the need for reforms intensified. One of the crucial directions of this awakening was the Jadid movement. Jadidism emerged not merely as an educational or literary trend, but as a comprehensive reformist socio-political movement. This article analyzes the historical context of the Jadid movement, its key representatives, their literary legacy, and its significance in the present day.

Key words: *jadid movement, modern literature, progressive press, enlightenment movement.*

Аннотация: во второй половине XIX века и начале XX века в общественно-политической и культурной жизни Центральной Азии, в частности, на территории Туркестана, произошли значительные изменения. В этот период политическое сознание народа пробудилось в противовес атмосфере того времени, и усилилась потребность в реформах. Одним из важных направлений этого пробуждения стало движение джадидов. Джадидизм возник не только как просветительское или литературное течение, но и как широкомасштабное реформаторское общественно-политическое движение. В данной статье анализируются исторические условия движения джадидов, его основные представители, их литературное наследие и современное значение.

Ключевые слова: *джадидское движение, модернистская литература, прогрессивная пресса, просветительское движение.*

O'zbekiston tarixida XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Bu davrda Turkiston xalqlari Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ostida yashayotgan bo'lsa-da, ularning milliy o'zlikni anglash, ilm-ma'rifatga intilish, yangicha fikrlash singari jarayonlari kuchaya bordi. Aynan shu davrda shakllangan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan hodisa bo'ldi. Jadidchilik — bu faqatgina yangi usuldagi maktablar tashkil etish yoki ilm-ma'rifatni yoyish harakati emas edi. U tub mohiyatiga ko'ra, xalq ongini uyg'otishga, uni jaholat va xurofotdan xalos etishga, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan jamiyat qurishga yo'naltirilgan keng ijtimoiy-madaniy va adabiy harakatdir. Ushbu harakat vakillari o'z faoliyatlari orqali musulmon sharqidagi diniy taassubotga asoslangan eski qarashlarni tanqid qilib, yangilanish, zamonaviylik, milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar, ayniqsa, adabiyot va matbuotni xalq bilan muloqot qilish, uni tarbiyalash, milliy ongni shakllantirish

vositasi deb bildilar. Ular o'z asarlarida xalqning og'ir ahvoli, mustamlakachilik zulmi, savodsizlik, diniy mutaassiblik va boshqa muammolarni yoritib, bu illatlardan xalos bo'lishning yagona yo'li — ta'lim, taraqqiyot va o'zligini anglash ekanligini targ'ib qildilar. Jadidchilik harakati O'zbekistonda modern adabiyot, yangi uslubdagi ta'lim tizimi, ilg'or matbuot va teatr san'atining rivojiga kuchli turtki berdi. Bu harakat nafaqat ma'naviy-ma'rifiy uyg'onishni ta'minladi, balki keyingi avlod ziyolilarining shakllanishi, milliy g'oya va istiqlol harakatlarining asosini yaratdi. Ushbu ilmiy maqolada jadidchilik harakatining tarixiy asoslari, yetakchi vakillari, ularning adabiy merosi va jamiyat hayotidagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi. Ayniqsa, jadid adabiyotining mazmuni, shakli va g'oyaviy yo'nalishlari, uning ijtimoiy-ma'naviy ta'siri va bugungi kundagi ahamiyati alohida o'rganiladi.

Jadidchilik harakatining tarixiy sharoiti va sabablari

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlari,

jumlardan, o'zbeklar orasida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik harakatidir. Bu harakat Rossiyadagi modernizatsiya jarayonlari, islom dunyosidagi islohotchilik harakatlari, G'arb ilm-fanining tarqalishi natijasida vujudga keldi.

Jadidchilik nomi arabcha "jadid" (yangi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu harakatning asosiy g'oyasi — yangilik, islohot, ilm-ma'rifat orqali jamiyatni uyg'otish edi. Jadidlar eski usul maktablarining samarasizligini tanqid qilib, yangi usulda (usuli jadid) ta'lim berishni yo'lga qo'ydilar. Shu bilan birga, ular matbuot, adabiyot, teatr kabi vositalar orqali xalq ongini uyg'otishga harakat qildilar.

Jadid adabiyoti: asosiy g'oyalar va janrlar

Jadidlar adabiyotni xalqni uyg'otish, jamiyatni isloh qilish vositasi deb bildilar. Ularning asarlarida quyidagi mavzular asosiy o'rin tutdi:

- Ilm-ma'rifatga da'vat
- Ayollar huquqi va jamiyatdagi o'rni
- Mustamlakachilikka qarshi norozilik
- Vatandashlik va milliy uyg'onish

Jadid adabiyotining janrlari juda xilma-xil edi. Ular she'r, drama, maqola, hikoya, roman kabi shakllarda yozdilar. Jumladan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani, Avloniy va Fitratning dramatik asarlari, Munavvarqori va Fitratning publitsistikasi bunga misoldir.

She'riyatda, Cho'lpon va Avloniy ijodida romantik, didaktik va ijtimoiy-lirik yo'nalishlar rivojlandi. **Nasrda**, realizm usuli asosida xalq hayotini tahlil etuvchi hikoyalar va romanlar yaratildi. **Dramaturgiyada**, sahna orqali xalq ongini uyg'otishga intilgan sahna asarlari yozildi, teatrlar ochildi.

Jadid adabiyotining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati. Jadid adabiyoti Turkiston xalqlari hayotida milliy uyg'onishning madaniy-ma'naviy asoslarini yaratgan, xalq ongini yangi dunyoqarash, zamonaviy tafakkur bilan boyitgan muhim hodisa bo'ldi. Bu adabiyot faqat badiiy ijod mahsuli emas, balki xalqni o'tmishdagi zulmatdan, savodsizlikdan, mustamlakachilik qopqonidan olib chiqishga xizmat qilgan kuchli vosita edi. Jadid adabiyoti orqali ilk bor **milliy o'zlikni anglash, erkinlik va adolat** g'oyalari ochiq bayon qilindi. O'zbek xalqi o'zining asl tarixiy kelib chiqishi, tili, madaniyati va qadriyatlarini haqida yangicha tafakkur asosida o'ylay boshladi. Ayniqsa,

jadid adabiyotida tarixiy o'tmishga murojaat qilish, buyuk shaxslar, madaniy merosimizni eslatish orqali milliy g'ururni uyg'otish muhim o'rin egalladi. Masalan, Fitratning "Temurning sag'anasi" asarida milliy g'urur va o'zlikni tiklash g'oyasi obrazli tarzda ifodalanadi.

Savodsizlik va jaholatga qarshi kurash vositasi. Jadid adabiyotining asosiy maqsadlaridan biri — xalqni savodsizlikdan qutqarish, ilmga rag'bat uyg'otish edi. Bu g'oya she'riyatda ham, nasrda ham, sahna asarlarida ham ustuvor bo'ldi. Abdulla Avloniy "Maorif yo'q joyda ma'naviyat yo'q" deya ta'kidlagan. Cho'lpon esa "o'qimagan millat — ko'r millat" degan g'oyani ko'plab she'rlarida ifodalagan. Ushbu adabiyot yosh avlodni ilmga, mehnatga, halollikka da'vat etib, mustahkam axloqiy asos yaratdi.

Ayollar masalasi va gender tenglik. Jadid adabiyotida o'sha davr uchun nihoyatda jasur mavzulardan biri — ayollar erkinligi, huquqlari va ta'lim olish masalasi edi. Ayniqsa, Abdulla Avloniy, Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziyalar o'z asarlarida ayollarni savodsizlik, ijtimoiy zulm, erkaklarga tobelik holatidan chiqarish g'oyasini ilgari surdilar. Hamzaning "Zaharli hayot" dramasi ayollarning og'ir hayotini tasvirlab, ularni erkinlikka intilishga da'vat qiladi. Bu o'sha davr musulmon jamiyatida inqilobiy fikr edi va bu orqali jadid adabiyoti jamiyatda ayollar mavqeyini ko'tarishga xizmat qildi. Jadid adabiyotining yana bir muhim ijtimoiy-ma'naviy xizmati — **milliy birlik va vatandashlik** g'oyalarini shakllantirishdir. Ular xalqni yurtini sevishga, unga sadoqat bilan xizmat qilishga chaqirdilar. Mustamlakachilik siyosatiga qarshi yashirin norozilik asarlarda badiiy vositalar orqali ifodalanib, xalqqa erkinlik, o'z taqdirini o'zi hal qilish zarurati singdirildi. Cho'lponning "Men kimman?" kabi she'rlari xalqni o'zini tanishga, o'zligini anglashga chorlaydi. Bu asarlar jamiyatda milliy uyg'onish ruhini uyg'otgan kuchli vosita bo'ldi. Jadidchilik — o'zbek xalqining og'ir tarixiy sharoitdagi uyg'onish harakati bo'lib, uning adabiyoti ma'rifat, taraqqiyot va milliy o'zlik g'oyalarini targ'ib qildi. Bu harakat vakillari o'z hayotini xalqqa bag'ishlab, mustamlaka zulmiga qarshi kurashdilar. Ularning ilm-fanga, adabiyotga, ta'limga bo'lgan munosabati bugungi avlodlar uchun ibratdir. Jadidchilik merosini o'rganish va qadrlash orqali biz o'z tariximizga, o'zligimizga, milliy g'ururimizga chuqur hurmat bilan qaraymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **G'oyibnazarov, O.** *Jadidchilik harakati va adabiyoti.* — Toshkent, 2018.
2. **Turaqulov, I.** *Jadidlar va ularning madaniy merosi.* — Toshkent, 2020.
3. **Cho'lpon.** *Tanlangan asarlar.* — Toshkent, 2019.
4. **Fitrat.** *Saylanma.* — Toshkent, 2017.
5. **Abdulla Avloniy.** *Turkiy Guliston yoxud axloq.* — Toshkent, 2005.
6. **Karimov I.** *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. **Sultonova M.** *O'zbek adabiyoti tarixi: Jadidchilik davri.* — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2016.
8. **Rahmonov, D.** *Turkiston jadidlari: tarixiy-madaniy meros.* — Toshkent: Sharq, 2021.

Shaxnoza XUSHMANOVA,
 Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
 Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi
 e-mail: et4831425@gmail.com



BADIIY DISKURSDA “SALOM” KONSEPTINING VOQELANISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy diskurs doirasida “Salom” konseptining voqelanish mexanizmlari va ularning stereotipik hamda individual repertuarlarini o'rganishga qaratilgan. “Salom” konsepti badiiy matnlarda nafaqat ijtimoiy uchrashuv va muloqotni boshlab beruvchi nutqiy akt sifatida namoyon bo'lsa, balki emotsional, sotsial va semantik qatlamlari orqali qarama-qarshi yoki murakkab holatlarni ifodalovchi kommunikativ mexanizmga aylanadi. Badiiy diskursta “Salom”ning shakllanish va voqelanish jarayonlari til va madaniyat kontekstida tahlil qilinib, nutqiy aktlar nazariyasi, semiotika va madaniyatshunoslik kabi fanlararo yondashuv orqali ochib beriladi. Maqolada o'zbek va ingliz adabiyotidan namunalar keltirilib, “Salom” fenomenining badiiy matn kontekstida qanday ishlatilishi va ma'no rivojlantirish jarayonlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy diskurs, salom konsepti, voqelanish mexanizmlari, nutqiy akt, semiotika, kommunikativ funksiya, madaniyat, ingliz adabiyoti.*

Annotation: this article investigates the mechanisms of realization of the “Salom” (greeting) concept within the framework of artistic discourse. The “Salom” concept in literary texts manifests not only as a speech act initiating social interaction but also as a communicative mechanism expressing contrasting or complex states through emotional, social, and semantic layers. The formation and realization processes of “Salom” (greeting) in artistic discourse are analyzed in the context of language and culture using an interdisciplinary approach involving speech act theory, semiotics, and cultural studies. Examples from Uzbek and English literature illustrate how the “Salom” (greeting) phenomenon is employed and how its meaning develops in literary contexts.

Key words: *artistic discourse, greeting concept, realization mechanisms, speech act, semiotics, communicative function, culture, English literature.*

Аннотация: в статье исследуются механизмы воплощения концепта «Салом» (Приветствие) в художественном дискурсе. Концепт «Салом» (Приветствие) в литературных текстах проявляется не только как речевой акт, инициирующий социальное взаимодействие, но и как коммуникативный механизм, выражающий противоположные или сложные состояния через эмоциональные, социальные и семантические слои. Процессы формирования и реализации «Салом» (Приветствие) в художественном дискурсе анализируются в контексте языка и культуры с использованием междисциплинарного подхода, включающего теорию речевых актов, семиотику и культурологию. Примеры из узбекской и английской литературы демонстрируют, каким образом феномен «Салом» (Приветствие) используется и как развивается его смысл в литературном контексте.

Ключевые слова: *художественный дискурс, концепт приветствия, механизмы воплощения, речевой акт, семиотика, коммуникативная функция, культура, английская литература.*

Kirish. Badiiy diskurs — til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va boy kommunikativ makon bo'lib, u inson tafakkuri, ijtimoiy metod va tilning o'zaro ta'sirini o'zida mujassamlashtiradi. J. L. Austin va J. R. Searl nutqiy aktlar nazariyasi doirasida salomlashuvni muloqotni boshlovchi, ijtimoiy

munosabatlarni qonuniylashtiruvchi muhim element sifatida ko'rsatadilar [1:45; 2:60]. Bundan tashqari, A. A. Leontyev madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan salomlashuv ijtimoiy guruh va shaxs o'rtasidagi chegaralarni belgilovchi vosita ekanini ta'kidlaydi [3:50].

O'zbek tilshunoslari ham salomlashuv fenomeniga katta e'tibor qaratishadi. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi M.Xolmuminov salomlashuvning ijtimoiy kommunikatsiyadagi o'rni va uning madaniy kontekstdagi funksiyalarini ta'kidlab, badiiy matnlarda salomlashuvning shaxs va jamiyat munosabatlarini ochuvchi muhim vosita ekanini qayd etadi [4:120]. Shu bilan birga, O. Sadikov o'z tadqiqotlarida badiiy nutqda salomlashuvning nafaqat lingvistik, balki madaniy-kontekstual xossalari mavjudligini, u orqali ijtimoiy mavqe va axloq me'yorlari yuzaga chiqishini ta'kidlaydi [5:78].

Badiiy matnlarda "Salom" fenomeni faqat oddiy nutqiy akt bo'lmastan, emotsional, semantik va ijtimoiy qatlamlarga ega bo'lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan uning voqelanish mexanizmlarini o'rganish badiiy diskursiyatning til va madaniyat jihatidan yaxshi tushunilishiga yordam beradi.

1. "Salom" konsepti va nazariy asoslar

J. L. Austin nutqiy aktlarni lokutsionar, illokutsionar va perlokutsionar turlarga ajratgan. Salomlashuv illokutsionar akt sifatida muloqotni boshlash va uni qonuniylashtirish funksiyalarini bajaradi [1:93]. Searl esa bu jarayonda kommunikativ maqsad va intensiyani o'rganib, salomlashuvni haqiqiy ijtimoiy akt sifatida ko'rsatadi [2:112].

O'zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan, tilshunos S. Yuldashevning fikricha, salomlashuv ijtimoiy vaqt va makon bilan belgilanadigan, ijtimoiy qoidalarga asoslangan nutqiy shakl bo'lib, u badiiy matndagi xarakterlararo munosabatlarni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [6:35]. Shu bilan birga, tilshunos A. Xudoyberdiyev badiiy matndagi salomlashuv dialogi orqali ijtimoiy rollar va mavqelar aniqlanib, shaxslar orasidagi o'zaro ta'sir va hissiy cheklovlar ochib berilishini ta'kidlaydi [7:89].

A.A.Leontyev ijtimoiy guruhlar chegaralarini belgilash va identifikatsiya uchun salomlashuvning o'rni katta ekanini ta'kidlagan [3:50]. Shu bilan birga, badiiylikda bu jarayon, qahramonlar xarakteri va voqea rivojida o'ziga xos ifoda topadi.

2. Badiiy matnlarda "Salom" voqelanishining lingvosemiotik mexanizmlari

2.1 Nutqiy aktlar nazariyasi nuqtayi nazaridan

Albatta! Quyida olimlarning ismlari va ularning fikri oraga qo'shilgan holda matn namunasi keltiriladi:

"Salom" — ijtimoiy muloqotni boshlab beruvchi illokutsionar akt bo'lib, uning amalga oshirilishi qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadi, ya'ni nutq ishtirokchilari o'rtasida muloqot uchun maydon yaratadi, degan fikrni J. L. Austin ta'kidlaydi [1:95]. Shuningdek, J. R. Searl "Salom"ning badiiy matnda shaxslarning ruhiy holati va ular o'rtasidagi aloqaning turini ochib beruvchi perlokutsionar ta'siri katta ekanligini qayd etadi [2:110]. O'zbek tilshunoslari fikricha, badiiy matnda "Salom" ko'pincha nutqiy aktdan tashqari emotsional holatni ifodalovchi, shaxslarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi kommunikativ vosita hisoblanadi. M. Sodiqovning ta'kidlashicha, salomlashuv badiiy dialoglarda xarakterlar o'rtasidagi psixologik cheklov va o'zaro munosabatlarning nozik qirralarini ochadi [8:66].

2.2 Semiotik yondashuv

Roman Jean-Claude Eco — italyan yozuvchisi, faylasufi, tilshunosi tomonidan taqdim etilgan semiotika doirasida, "Salom" belgisining haqiqiy ma'nosi uning kontekstiga bog'liq bo'lib, u qahramonlarning o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy guruh va vaqt-makon sharoitlarini aks ettiradi [9:15]. Intonatsiya, prosodiya, jimlik kabi elementlar badiiy salomlashuv mazmunini boyitadi.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan U. Olimovning fikriga ko'ra, badiiy matnda "Salom"ning semiotik qiyofasi nafaqat til birligi, balki uning madaniy va kontekstual ma'nolari bilan mukammal uyg'unlashgan kompleks belgidir [6:79].

3. "Salom" konseptining kommunikativ va emotsional funksiyalari

Badiiy matnlarda "Salom" quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Muloqotni boshlash,
- Emotsional holatni ifoda etish,
- Ijtimoiy guruhni belgilab berish
- Simvolik, metaforik ma'no kasb etish [9:66; 3:55].

O'zbek tilshunoslari, xususan S. Xudoyberdiyev, bu funksiyalarni yanada kengaytirib, "Salom"ning badiiy matnda qahramonlarning o'zaro psixologik munosabatlarining yuzaga chiqish vositasi ekanini ta'kidlaydi [7:22].

4. O'zbek va ingliz adabiyotida "Salom"ning voqelanishi

4.1 O'zbek adabiyotidan misollar

Alisher Navoiy (Xamsa, "Farhod va Shirin"):

“Salom, ey dilbarim, qalbinning shodligi,
 Mening har bir nafasim sen bilan yorug'ligi.”
 Bu yerda salomlashuv qahramonlararo samimiyat
 va mehri ifodalaydi [10:78].

Abdulla Qodiriy (“O'tkan kunlar”):

“Salom, Aka, yaxshimisiz?” – dedi Yusuf.

“Yaxshi, o'g'lim, saloming yetib keldi,” – dedi ota.

Salomlashuv ijtimoiy mavqelar va ichki iliq
 munosabatlarni ko'rsatadi [11:130].

Erkin Vohidov:

“Salom, ey do'stim, dunyo chekkasi...”

Salom yangi umid va insoniylik timsoli sifatida
 ishlatiladi [12:145].

4.2 Ingliz adabiyotidan misollar

Uilyam Shekspir (“Hamlet”):

“Good morrow, gentle sir!” – Hamletning
 Horatsiosiga salomi.

Bu salomlashuv rasmiy hurmat va ba'zan sarkazm
 obrazida ishlatiladi [5:30].

Charlz Dikens (“Oliver Twist”):

“How do you do, Mr. Bumble?” – Mr. Brownlow
 samimiy salomlashuvi.

Ijtimoiy mavqe va xarakter bayonoti sifatida
 salomlashuv ishlatilgan [6:28].

**5. Badiiy matndagi “Salom” voqelanishining
 struktura tizimi**

Replikativ jarayon — salomlashuvga javob
 va muloqotning davomiyligi, deb ta'riflaydigan J.
 L.Austin nutqiy aktlar nazariyasida bu aspekt muhim
 ahamiyatga ega. Metakommunikativ komponentlar

— jimlik, tana tili va emotsional signal kabi noverbal
 elementlar, deb Roland Eco semiotik analizda qayd
 etadi. Kontekstual o'zgarish — vaqt, joy va shaxsga
 mos tushadigan salomlashuv shakli esa A. A. Leontyev
 (1983)ning madaniyat va ijtimoiy muhit yondashuvida
 asosiy omillardan biri sifatida ko'riladi [1:105; 9:66].

**6. Zamonaviy kommunikatsiya va yangi
 salomlashuv shakllari**

Raqamli kommunikatsiyalarning tez sur'atda
 rivojlanishi natijasida emodjilar, qisqartmalar va
 yangi virtual salomlashuv shakllari paydo bo'ldi, deb
 ta'kidlaydi M. Sodiqov. Uning fikricha, bunday yangi
 kommunikativ vositalar badiiy diskursda ham o'z izini
 qoldirib, qahramonlar o'rtasidagi muloqotni yanada
 boyitish va zamonaviy kontekstga moslashishga
 xizmat qilmoqda, shu bilan ularning ichki hissiy
 holatini va ijtimoiy munosabatlarini yangicha ifodalash
 imkonini yaratadi [8:82].

Xulosa. “Salom” konsepti badiiy diskursda
 murakkab, ko'p qirrali kommunikativ fenomen bo'lib,
 u nafaqat nutqiy akt, balki ijtimoiy, emotsional va
 madaniy qatlamlarni ifodalaydi. O'zbek va ingliz
 adabiyotlaridan keltirilgan misollar yordamida uning
 badiiy matnlardagi funksional va simbolik imkoniyatlari
 yoritildi. Bizningcha, tilshunos olimlarning fikrlariga
 tayangan holda kelgusida “Salom” fenomenining til,
 madaniyat va badiiy diskurslararo bog'liqligi yanada
 chuqur va keng ko'lamda o'rganilishi zarur. Bu esa
 badiiy kommunikatsiyaning murakkabligini yanada
 chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press. — Betlar: 45, 93, 95, 105
2. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press. — Betlar: 60, 110, 112
3. Leontyev, A. A. Problems of the Development of the Mind. Progress Publishers. 1983. 50, 55-betlar.
4. Xolmuminov, M. Ijtimoiy kommunikatsiya tizimlari. — Toshkent, 2010. 120-betlar
5. Sadikov O. Madaniyatshunoslik va til. — Toshkent. 2015. 30, 78-betlar.
6. Yuldashev S. Nutqiy aktlar nazariyasi va badiiy diskurs. — Toshkent, 2019. 35-79-betlar.
7. Xudoyberdiyev A. Badiiy matnda muloqot va til. — Toshkent, 2021. 22, 89-bet.
8. Sodiqov, M. Badiiy nutq va emotsiyalar. — Toshkent. 2018. 66—82-betlar.
9. Eco, R. J-C. (1976). A Theory of Semiotics. Indiana University Press. 15, 66
10. Navoiy, A. Xamsa (Farhod va Shirin). — Toshkent, 2008. 78-bet.
11. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. — Toshkent, 1947. 130-bet
12. Vohidov, E. She'rlar to'plami. — Toshkent, 1997. 145-bet
13. Shakespeare, W. (1603). Hamlet. 30-bet
14. Dickens, C. (1837). Oliver Twist. 28-bet

Gulchexra YAKUBOVA,
Qarshi xalqaro universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida
katta o'qituvchisi

O'ZBEK VA RUS TILLARI IZOHLI LUG'ATLARIDA FITONIMLAR TAQDIMOTI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya: maqolada o'zbek va rus tillarining izohli lug'atlarida fitonimlarning (o'simlik nomlarining) berilish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda S. I. Ojegov, N. Yu. Shvedova, V. I. Dal lug'atlari hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati" asosida fitonimlarning semantik, uslubiy va madaniy jihatlari o'rganilgan. Tahlil natijasida rus lug'atlarida fitonimlarning ilmiy-tasviriy yondashuv asosida, o'zbek lug'atlarida esa milliy-madaniy yondashuv asosida talqin etilishi aniqlangan. Fitonimlarning lug'atlarda berilishi ikki xalqning tabiatga munosabati, madaniy qadriyatlar va ramziy tafakkurini aks ettiradi. Maqola natijalari leksikografiya, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik uchun ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *fitonim, izohli lug'at, qiyosiy tahlil, leksikografiya, madaniy semantika.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительный анализ представления фитонимов (названий растений) в толковых словарях русского и узбекского языков. Исследование основано на материалах словарей С. И. Ожегова, Н. Ю. Шведовой, В. И. Даля и пятитомного "O'zbek tilining izohli lug'ati". В ходе анализа выявлены семантические, стилистические и культурные особенности толкования фитонимов. Установлено, что в русских словарях преобладает научно-описательный подход, тогда как в узбекских - культурно-бытовой. Представление фитонимов отражает национальные традиции, отношение народа к природе и символику растений. Результаты исследования представляют интерес для лексикографии, переводоведения и культурологии.

Ключевые слова: *фитоним, толковый словарь, сравнительный анализ, лексикография, культурная семантика.*

Annotation: the article presents a comparative analysis of phytonyms (plant names) in the explanatory dictionaries of the Uzbek and Russian languages. The study is based on the dictionaries by S. I. Ozhegov, N. Yu. Shvedova, V. I. Dahl, and the five-volume *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. The analysis reveals semantic, stylistic, and cultural aspects of phytonym interpretation. It has been found that Russian dictionaries primarily follow a scientific-descriptive approach, while Uzbek dictionaries emphasize a cultural and ethnographic perspective. The representation of phytonyms reflects national traditions, attitudes toward nature, and symbolic meanings within each culture. The findings contribute to the fields of lexicography, translation studies, and cultural linguistics.

Key words: *phytonym, explanatory dictionary, comparative analysis, lexicography, cultural semantics.*

Kirish. Til – insoniyat tafakkuri, madaniyati va hayot tarzining aks-sadosi bo'lib, unda xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, urf-odatlar va dunyoqarashi o'z ifodasini topadi. Leksik qatlam tilning eng dinamik sohasi sifatida doimo yangilanib boradi. Shu jarayonda fitonimlar - o'simlik nomlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fitonimlar xalqning tabiat bilan bo'lgan aloqalarini, dorivor va xo'jalik ahamiyatiga ega o'simliklarni, shuningdek, ramziy ma'nolarni yoritadi [5].

Tilshunoslikda fitonimlarning tadqiqi faqat semantik yoki etimologik tahlil bilan chegaralanmay, balki ularning izohli lug'atlardagi taqdimoti, ya'ni xalq til xotirasida qanday qayd etilishi ham dolzarb masaladir [6]. O'zbek va rus tillarida fitonimlarning lug'atlardagi berilish shakllari ham o'xshashlik, ham farqli jihatlarga ega. Bu o'z navbatida ikki til leksikografiyasi o'rtasidagi qiyosiy tahlil uchun asos yaratadi.

Mazkur maqolada o'zbek va rus tillari izohli lug'atlarida fitonimlarning qanday taqdim etilishi,

ularning semantik doirasi, uslubiy xususiyatlari hamda qiyosiy jihatlari ilmiy tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqot davomida rus tilining asosiy izohli lug'atlaridan, jumladan, S. I. Ojegov va N. Yu. Shvedova "Толковый словарь русского языка", V. I. Dalning "Толковый словарь живого великорусского языка"[3] hamda akademik nashrlardan foydalanildi. O'zbek tilida esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 jildlik)[1] asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Tahlilda fitonimlarning lug'at maqolalarida berilishi, ularning izohlari, sinonimik qatlamlari, ramziy va ko'chma ma'nolari, shuningdek, foydalanilgan misollar o'rganildi. Qiyosiy yondashuv usuli asosida ikki til izohli lug'atlaridagi o'simlik nomlarining ifodalanishdagi umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ko'rsatildi [4].

Asosiy qism. Rus izohli lug'atlarida fitonimlar keng qamrovli tarzda yoritilgan bo'lib, ko'pincha ular ilmiy botanika nomlari bilan uyg'un holda keltiriladi. Masalan, "берёза" so'zi Dal lug'atida nafaqat daraxt turi sifatida, balki rus xalqining ramziy belgisi sifatida ham izohlangan [3]. Shuningdek, Ojegov lug'atida "роза" so'zining nafaqat gul turi, balki estetik go'zallik ramzi sifatidagi ko'chma ma'nosi ham berilgan.

Rus tilida ko'plab fitonimlar xalq qo'shiqlarida, maqollarda, adabiy asarlarda keng qo'llanadi. Shu bois lug'atlarda ularning qo'shimcha ma'no qirralari ham ko'rsatib o'tiladi. Masalan, "дуб" so'zi mustahkamlik va chidamlilik ramzi sifatida, "тополь" esa yolg'izlik timsoli sifatida qayd etilgan [1], [2].

O'zbek izohli lug'atlarida fitonimlar, avvalo, xalq hayoti va madaniyati bilan bog'liq holda yoritiladi. Masalan, "tut" so'zi nafaqat mevali daraxt nomi sifatida, balki ipakchilikka oid asosiy manba sifatida ham izohlangan. "Chinor" esa uzoq umr va barqarorlik timsoli sifatida qo'llanadi.

Lug'atda dorivor o'simliklarga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, "qizilmiya", "zarcho'bay", "rayhon" kabi birliklarning xalq tabobatidagi o'rni ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, o'zbek tilida ko'plab fitonimlar xalq og'zaki ijodida ramziy ma'noga ega bo'lib, lug'atlarda bu jihatlari ham qayd etilgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rus lug'atlarida fitonimlarning botanik tavsifi, ilmiy nomlanishi va ko'chma ma'nolari keng yoritilgan. O'zbek lug'atlarida esa xalq hayoti, urf-odatlar, milliy qadriyatlar va tabobat bilan bog'liq izohlar ustuvorlik qiladi.

Masalan, rus lug'atlarida "рябина" so'zi o'simlik tavsifi va estetik timsol sifatida izohlangan bo'lsa, o'zbek lug'atlarida "rayhon" ko'proq diniy va marosimiy ma'noda taqdim etilgan. Bu ikki til lug'atlarida fitonimlarning taqdimoti milliy madaniyat, xalq urf-odatlarini va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fitonimlar har ikki tilda ham nafaqat biologik obyekt nomi, balki milliy tafakkur, xalq dunyoqarashi va badiiy obrazlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ular orqali xalqning tabiatga munosabati, diniy va estetik qadriyatlari, shuningdek, tarixiy-madaniy tajribasi namoyon bo'ladi.

Rus izohli lug'atlarida fitonimlarning ilmiy, tasviriy va poetik qirralariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Masalan, "берёза" so'zi Ojegov lug'atida "listopadnoye derevo s belym stvolom" tarzida ilmiy tavsif berilgan bo'lsa, shu bilan birga "символ Родины, чистоты, нежности" kabi ramziy izoh ham keltirilgan. Bu o'simlik rus madaniyatida ona vatan, ayollik, poklik timsoli sifatida tasavvur etiladi. Shuningdek, "рябина" (o'rikgulli daraxt) lug'atda "derevo s krasnymi yagodami" sifatida berilib, ko'chma ma'noda "красота, женственность, грусть" semantik qirralari ko'rsatilgan. Bu misollar rus xalqining fitonimlar orqali estetik va lirizmga moyil tafakkurini aks ettiradi.

Boshqa tomondan, o'zbek izohli lug'atlarida fitonimlar ko'proq maishiy va madaniy kontekstda taqdim etiladi. Masalan, "rayhon" so'zining izohi "xushbo'y o'simlik, oila marosimlarida, to'y va xotira tadbirlarida ishlatiladigan gul" tarzida keltirilgan. Bu yerda o'simlikning tabobatdagi, diniy va marosimiy funksiyasi birgalikda aks etgan. Yoki "tut" so'zi "ipakchilikning asosiy manbai bo'lgan mevali daraxt" tarzida berilib, o'zbek xalqining mehnatsevarlik va hunarmandchilik madaniyati bilan uzviy bog'langan.

Shuningdek, “*chinor*” fitonimi o‘zbek xalq og‘zaki ijodida barqarorlik, uzoq umr va ezgulik ramzi sifatida qo‘llanadi. Masalan, xalq orasida “Chinor soyasida dam olgan kishi rohat topadi” degan maqol bu o‘simlikning himoya va osoyishtalik ramzi ekanligini ko‘rsatadi. Rus madaniyatida esa shunga yaqin semantik yuk “*дуб*” fitonimida namoyon bo‘ladi - u kuch, mardlik va qat‘iyatlilik timsoli sifatida ishlatiladi (“*Моруч как дуб*”).

Demak, fitonimlarning lug‘atlardagi taqdimoti ikki xil leksikografik an‘anani aks ettiradi:

- Rus tilida – ilmiy-tasviriy va poetik yondashuv, ya‘ni o‘simliklarning biologik xususiyatlari bilan bir qatorda ularning estetik va ramziy jihatlari ochib beriladi.

- O‘zbek tilida – madaniy-maishiy va ramziy yondashuv ustuvor, ya‘ni o‘simliklarning xalq hayotidagi marosimiy, tabobiy va qadriyatli o‘rni yoritiladi.

Bu farq ikki xalqning tabiatga, o‘simliklarga bo‘lgan emotsional va utilitar munosabati, shuningdek, ramziy fikrlash modeli bilan izohlanadi. Fitonimlar shu tarzda milliy ongning leksik ifodasiga aylanadi.

Xulosa. Fitonimlar izohli lug‘atlar tarkibida tilning leksik boyligi, xalq tafakkuri va madaniyatining aks-sadosi sifatida alohida o‘rin tutadi. O‘zbek va rus tillaridagi lug‘atlarda ularning taqdimoti turlicha yo‘nalishda amalga

oshirilgan bo‘lsa-da, har ikkisi ham o‘simliklarning nafaqat biologik nomini, balki madaniy-ma‘naviy mazmunini yoritib beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki:

- Rus lug‘atlarida ilmiy-tasviriy yondashuv ustuvor: fitonimlarning biologik belgilari, tur nomlari, ularning estetik va poetik ma‘nolari keng yoritilgan (masalan, “*берёза*”, “*рябина*”, “*роза*”).

- O‘zbek lug‘atlarida esa milliy-madaniy yondashuv yetakchi: o‘simliklarning xalq hayotidagi amaliy, diniy va marosimiy o‘rni, xalq tabobatidagi qo‘llanishi, ramziy ahamiyati (masalan, “*rayhon*”, “*tut*”, “*chinor*”, “*zarcho‘bay*”) keng yoritiladi.

Shu tariqa, fitonimlarning lug‘atlardagi izohi orqali til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi. Ular xalqning tabiatni idrok etish usulini, estetik didini va qadriyat tizimini ifodalaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari fitonimlarning lug‘aviy taqdimoti bo‘yicha yangi qiyosiy ma‘lumotlar beradi. Bu esa nafaqat tilshunoslik va leksikografiya, balki madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida fitonimlarning badiiy matnlardagi funksiyasi, tarjima jarayonida semantik o‘zgarishlari hamda millatlararo ramziy semantika nuqtayi nazaridan o‘rganilishi istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва: Азбуковник, 2006.
3. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва: Русский язык, 1998.
4. Крысин Л. П. Лексикология современного русского языка. – Москва: Аспект Пресс, 2004.
5. Paxmatullayev Sh. O‘zbek leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Саттаров G. O‘zbek tilida xalqona leksika. – Toshkent: Fan, 2005.

Gulnora BAROTOVA,
 Toshkent shahar, Chilonzor tumani
 162-maktab fransuz tili o'qituvchisi

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA LINGVISTIK ATAMALARGA DISKURSIV YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi lingvistik atamalarni tahlil qilishda diskursiv yondashuvning o'ziga xos qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Ilmiy-pedagogik nutq kontekstida atamalarning amal qilishi hamda ularning semantik, pragmatik, madaniy jihatlariga alohida e'tibor beriladi. Diskurs tahlili atamalarni nafaqat ilmiy til birliklari, balki ijtimoiy, kognitiv va madaniy muhitga bog'liq bo'lgan muloqot elementlari sifatida ham ko'rib chiqishga imkon berishi ko'rsatilgan. Fransuz va o'zbek tilshunoslik atamalarining qiyosiy tahlili terminologiya, metafora va kommunikativ moslashuv darajasidagi farqlarni ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diskursiv yondashuv atamalarni shakllantirish va qo'llash mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ilmiy tushunchalarni tillararo tavsiflash va tarjima qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: *nutq, lingvistik atama, fransuz tili, o'zbek tili, pragmatika, kontekst, terminologiya, madaniyatlararo muloqot.*

Annotation: this article examines the specific application of the discursive approach to the analysis of linguistic terms in French and Uzbek. Particular attention is paid to the functioning of terms in the context of scientific and pedagogical discourse and their semantic, pragmatic, and cultural aspects. It is shown that discourse analysis allows us to consider terms not only as scientific language units, but also as elements of communication that depend on the social, cognitive, and cultural environment. A comparative analysis of French and Uzbek linguistic terms reveals differences in the level of terminology, metaphor, and communicative adaptation. The results of the study show that the discursive approach helps to understand the mechanisms of formation and use of terms more deeply and expands the possibilities of cross-linguistic description and translation of scientific concepts.

Key words: *discourse, linguistic term, French language, Uzbek language, pragmatics, context, terminology, intercultural communication.*

Аннотация: в этой статье рассматривается специфическое применение дискурсивного подхода при анализе лингвистических терминов во французском и узбекском языках. Особое внимание уделяется функционированию терминов в контексте научно-педагогической речи, а также их семантическим, прагматическим и культурным аспектам. Показано, что дискурс-анализ позволяет рассматривать термины не только как единицы научного языка, но и как элементы коммуникации, зависящие от социального, когнитивного и культурного окружения. Сравнительный анализ французских и узбекских лингвистических терминов выявляет различия в уровнях терминологии, метафоры и коммуникативной адаптации. Результаты исследования показывают, что дискурсивный подход помогает глубже понять механизмы формирования и использования терминов, а также расширяет возможности межъязыкового описания и перевода научных понятий.

Ключевые слова: *речь, лингвистический термин, французский язык, узбекский язык, прагматика, контекст, терминология, культуры.*

Zamonaviy tilshunoslik tilning strukturaviy tahlilidan nutq va muloqotni o'rganishga o'tish bilan tavsiflanadi, bu yerda nutq tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Diskursiv yondashuv doirasida til nafaqat lingvistik, balki kognitiv, madaniy va kommunikativ komponentlarni ham o'z ichiga olgan ijtimoiy shartli jarayon sifatida qaraladi [1. 122-b.]. Bu, ayniqsa, ilmiy tilning elementlari sifatida diskursiv amaliyotlarda – ilmiy, pedagogik va tarjimada faol ishtirok etadigan lingvistik atamalarni tahlil qilish uchun juda muhimdir.

Terminologiyaga diskursiv yondashuv. Diskursiv

yondashuv atamalarni dinamik birliklar sifatida o'rganadi, ularning ma'nosi haqiqiy foydalanish kontekstida shakllanadi va takomillashtiriladi. Terminlarni tizim elementi sifatida qaraydigan an'anaviy semasiologik tahlildan farqli o'laroq, nutq tahlili ularni so'zlovchining maqsad va niyatlarini aks ettiruvchi kommunikativ aktning bir qismi sifatida ko'radi.

Fransuz diskurs tahlil maktabi (M. Pesheux, D. Maldide, D. Meillo) atamalarning shakllanishida g'oyaviy-ijtimoiy omillarning rolini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida ham xuddi shunday tendensiyalar Sh. Safarov va U.Tursunovlar atamalarga lingvistik dunyoqarash elementlari sifatida qaraydilar.

Fransuz tilidagi lingvistik atamalar. Fransuz tilshunosligida atamalar ko'pincha lotin yoki yunon ildizlariga ega bo'lib, yuqori darajada standartlashtirilgan (masalan, fonema, morfema, sintaksis, pragmatik). Biroq, nutqqa qarab – ilmiy, uslubiy yoki pedagogik – ularning ma'nosi farq qilishi mumkin [3. 24 b.]. Masalan, fransuz tilidagi "discours" atamasi bir vaqtning o'zida og'zaki nutqni ham, kommunikativ amaliyotlar to'plamini ham anglatadi.

Bundan tashqari, fransuz atamaları odatda metaforikdir: arbre syntaxique, voix active, registre de langue – fransuz ilmiy tafakkurining kognitiv tabiatini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi lingvistik atamalar. O'zbek tilshunosligida ko'plab atamalar rus tilidan o'zlashtirilgan yoki turkiy ildiz asosida yaratilgan: so'z yasalishi, gap tuzilishi, fonema, morfema kabilar. So'nggi o'n yilliklarda terminologiyani faol o'zbekchallashtirish va asl ekvivalentlarini yaratish tendensiyasi kuzatilmoqda [4. 133 b.].

O'zbek ilmiy nutqi ko'proq moslashuvchanligi bilan ajralib turadi: atama matn janri va maqsadli auditoriyaga qarab o'zgaruvchan shakl va sinonimlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, discours atamasi pedagogik kontekstda nutqiy faoliyat (nutq faoliyati) sifatida ishlatilishi mumkin.

Qiyosiy tahlil va diskursiv xususiyatlar. Fransuz ilmiy nutqida konseptual qat'iylik va xalqaro terminologik unifikatsiyaga e'tibor ustunlik qilsa, o'zbek tilidagi nutqda milliy-madaniy o'ziga xosliklar va pedagogik an'analar bilan bog'liqlik xarakterlidir.

Parametr	Fransuz tili	O'zbek tili
Atamalarning kelib chiqishi	lotin va yunon ildizlari	turkiy va ruscha o'zlashtirmalar
Kontekst bo'yicha o'zgaruvchanlik	Past	O'rta/Yuqori
Metaforiya	Tez-tez ifodalangan	kamroq ifodalangan
Kommunikativ moslashuv	Ilmiy aniqlik	Pedagogik moslashuvchanlik

Shunday qilib, diskursiv yondashuv bizga atamalar o'rtasidagi nafaqat semantik farqlarni, balki turli xil aloqa turlarida ularning funksional dinamikasini ham aniqlash imkonini beradi.

Atamalar diskurs tahlilining uslubiy tamoyillari. Lingvistik atamalarni o'rganishda diskursiv yondashuvni qo'llash kognitiv, sotsiolingvistik va pragmatik tahlilni o'z ichiga olgan metodologik tamoyillar majmuasiga tayanishni talab qiladi. Kognitiv yondashuv doirasida atama faqat hodisa nomini emas, balki ilmiy tafakkur strukturasi aks ettiruvchi konseptual belgi sifatida qaraladi. Ijtimoiy lingvistik yondashuv atamalardan foydalanishning ijtimoiy omillarga bog'liqligini aniqlashga imkon beradi – so'zlovchining maqomi, institutsional mansubligi va kommunikativ maqsadi. Pragmatik yondashuv esa atamaning muayyan nutqiy vaziyatdagi vazifalarini ta'kidlaydi: tushuntirish, argumentatsiya yoki izohlash vositasi sifatida.

Fransuz ilmiy an'analarida atamalarni tahlil qilish metodologiyasi "interdiskursivlik" (M. Pecheux, D. Mainguénot) g'oyasiga asoslanadi, bu turli xil nutq turlarining – ilmiy, pedagogik va ommaviy axborot vositalarining o'zaro kirib borishini nazarda tutadi. O'zbek tilshunosligida bu tamoyil milliy xususiyatga ega bo'ladi: pedagogik nutqda atama ko'pincha

o'quvchilarning tushunishini yengillashtirishga moslashtirilib, o'ziga xos "terminologik duragay" hosil qiladi. Shunday qilib, har ikkala tilda nutq tahlili ilmiy bilimlar va o'zaro ta'sirlar evolyutsiyasini o'rganish uchun imkoniyatlar ochadi.

Atamalarning shakllanishida kontekst va kognitiv omillarning roli. Diskursiv yondashuvning asosiy jihatlardan biri bu atama ishlayotgan kontekstni hisobga olishdir. Lingvistik atama yakka holda mavjud emas – uning ma'nosi kommunikativ vaziyatga, nutqning maqsadiga va nutq ishtirokchisining kognitiv modeliga qarab aktuallashadi. Masalan, fransuzcha énonciation (aytish) tushunchasi ilmiy kontekstda nutq ishlab chiqarish jarayonini bildirsa, pedagogik kontekstda nutq tuzilmalarini tushuntirish usulini anglatishi mumkin. O'zbek tilida ham xuddi shunday hodisa matn janriga qarab tor ilmiy ma'nodan tortib so'zlashuv ma'nosiga qadar bo'lgan ifoda atamasida ham kuzatiladi. Shunday qilib, muloqot qiluvchilarning kognitiv va madaniy munosabatlari atamalarning talqini va ishlashiga bevosita ta'sir qiladi. Bu shuni tasdiqlaydiki, nutq atamaning leksik va semantik mazmunini shakllantiribgina qolmay, balki uning pragmatik salohiyatini – ilmiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir vositasi bo'lib xizmat qilish qobiliyatini ham belgilaydi.

Atamalarning madaniy-semantik o'zgaruvchanligi va tarjima muammolari. Diskursiv yondashuvning muhim jihatlardan biri – atamalarning madaniy va semantik o'zgaruvchanligini aniqlashdir. Har bir tilning terminologik tizimi nafaqat ilmiy an'analar, balki madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy kontekst bilan ham shakllanadi. Shu sababli, fransuz va o'zbek tillaridagi lingvistik atamalarni tarjima qilishda ko'pincha so'zma-so'z ekvivalentni topish emas, balki ma'noni madaniy kontekstda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, fransuz tilidagi *énonciation*, *discours* yoki *parole* kabi atamalar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda turli nutqiy kontekstlarga mos ravishda "aytish", "nutq", "fikr bayoni", "muloqot jarayoni" kabi variantlarda ifodalanadi. Bu holat atama semantikasining dinamik tabiati va uni belgilovchi madaniy omillarni ochib beradi.

Tarjima jarayonida diskursiv kontekstni hisobga olish tilning sotsiolingvistik xususiyatlarini to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Chunki atama faqat leksik birlik emas, balki ilmiy jamoa dunyoqarashining ko'zguvidir. O'zbek tilidagi ilmiy diskurs ko'proq pedagogik va izohlovchi uslubga tayanadi, fransuz tili esa abstrakt va nazariy aniqlikka urg'u beradi. Shu sababli, lingvistik atamalarning tarjimasida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, ya'ni ikki til tizimi o'rtasidagi konseptual tafovutlarni anglash muhimdir.

Bundan tashqari, madaniy-semantik o'zgaruvchanlik atamalarning o'qitish jarayonidagi o'zni bilan ham chambarchas bog'liq. Talabalarga diskursiv tahlil asosida terminlarni o'rgatish ularni mustaqil fikrlash, matni kontekstual anglash va lingvokognitiv tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa, madaniy kontekstni hisobga olgan holda atamalarni o'rganish ilmiy tafakkurning global va milliy o'lchovlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi.

Diskursiv yondashuvning pedagogik va psixolingvistik asoslari. Tilshunoslikda diskursiv yondashuv nafaqat lingvistik tahlil metodi, balki

o'qitish jarayonida samarali kommunikativ strategiya sifatida ham qaraladi. Xususan, atamalarning ma'nosini o'zlashtirishda faqat ularning lug'aviy ekvivalentini emas, balki ularni shakllantiruvchi kognitiv va ijtimoiy omillarni anglash muhimdir. Talaba atamani o'rganar ekan, u shu so'z orqali ilmiy fikrlashning ma'lum modeliga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, diskursiv yondashuv tilni o'rgatishda **idrok, xotira va assotsiatsiya jarayonlarini** faollashtiruvchi psixolingvistik mexanizmlar bilan bog'liq.

Pedagogik amaliyotda diskursiv tahlil asosida o'qitish metodlari — matn tahlil qilish, ilmiy muhokama olib borish, interaktiv terminologik mashg'ulotlar — talabalarda muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi. Bunda o'qituvchi nafaqat til vositalarini, balki ularning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini ham tushuntiradi. Masalan, "konsept", "struktura", "pragmatika" kabi atamalarni o'zlashtirish jarayonida talaba shu tushunchalarning ilmiy tarixini, ularning fransuz tilidagi ekvivalentlarini va o'zbek ilmiy nutqidagi qo'llanishini tahlil qiladi. Bu esa ikki tilli ilmiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, psixolingvistik jihatdan diskursiv yondashuv kontekst orqali o'rganish tamoyiliga asoslanadi. Talaba atamani izolyatsiyada emas, balki matn va nutq holatida o'zlashtirganda, uni semantik va pragmatik jihatdan to'g'ri qo'llash qobiliyatini hosil qiladi. Shu tariqa, diskursiv yondashuv nafaqat tilni bilish, balki uni mazmunli qo'llay olish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Natijada, o'qitish jarayoni til o'rganishdan ko'ra, madaniy fikrlashni rivojlantirish bosqichiga aylanadi.

Lingvistik atamalarga diskursiv yondashish ularning ilmiy aloqa va madaniy tasvir vositasi sifatidagi faoliyatini chuqur anglash imkonini beradi. Fransuz va o'zbek terminologiyasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, farqlar leksik omillar bilan emas, balki kognitiv va madaniy omillar bilan belgilanadi. Bu farqlarni tushunish tarjima, o'qitish va milliy lingvistik maktabni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pecheux, M. Diskurs tahlili: tuzilma, tarix, mafkura. – Parij: Maspero, 1975-yil.
2. Malidier, D., Mayot, D. Diskurs va lingvistik ilova tahlili. – Parij: PUF, 1998-yil.
3. Safarov, Sh. Diskurs tahlili: Diskursga kirish. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Tursunov, U. Umumiy tilshunoslik muammolari. – Parij: Gallimard, 1966-yil.
5. Maingueneau, D. Diskurs tahlili: talaffuzga kirish. – Parij: Xachette, 2005-yil.
6. Krysin, L. P., «Ilmiy va professional nutqda atamalar». – Moskva: Nauka, 2001-yil.
7. Sharipova, N., «Tilshunoslik atamaları va tahrir semantik tizimi». — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
8. Fuko, M., «L'ordre du discours». – Parij: Gallimard, 1971-yil.
9. Van Deyk, T.A., «Muloqot va bilim: ijtimoiy-kognitiv yondashuv». – Kembrij: CUP, 2014.

Dilnoza ABDUMAJIDOVA,
Yunusobod tumani 258-maktab o'qituvchisi

LEKSIKOLOGIYAGA OID BILIMLARNI O'QITISH MUAMMOSINING ILMIY-METODIK ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilida yaratilgan o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalarda leksikologiya bo'limining o'rganilishi yuzasidan kuzatishlar aks etgan. Ta'lim bosqichlarida leksikologiya bo'limining o'rganilishi va o'rganuvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *leksika, sinonim, omonim, polisemiya, tadqiqot, so'z, texnologiya, pedagog.*

Аннотация: в статье отражены наблюдения по изучению раздела лексикологии в учебных пособиях, учебниках и монографиях, созданных на узбекском языке. Обсуждается изучение раздела лексикологии на этапах обучения и степень его усвоения студентами.

Ключевые слова: *лексикон, синоним, омоним, полисемия, исследование, слово, технология, педагог.*

Annotation: this article reflects observations on the study of the lexicology section in educational manuals, textbooks and monographs created in the Uzbek language. The study of the lexicology section at the educational stages and the extent to which it is mastered by students are discussed.

Key words: *lexicon, synonym, homonym, polysemy, research, word, technology, pedagogue.*

Kirish. Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo'lmish ona tili ta'limi maktabda yetakchi o'quv fanlaridan biri sanaladi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham o'z ishlarini "Yoshlarga oid davlat dasturi" ni qabul qilishdan boshladilar. Yoshlar har bir jabhada qo'llab- quvvatlanmoqda. Bu yaratib berilayotgan imkoniyatlar, albatta, o'z navbatida biz yoshlardan ulkan mas'uliyatni talab qiladi. Biz qaysi sohada bo'lmaylik, qay jabhada faoliyat yuritmaylik, uni rivojlantirishga, bu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishga harakat qilmog'imiz lozim¹.

Adabiyotlar tahlili. Leksikologiya bo'limini o'rganish o'zbek tilini o'qitishning muhim qismidir. Azal-azaldan tilshunoslar va metodist olimlar ta'lim jarayonida leksikologiya va uning mavzularini o'rganishga doir qator ilmiy ishlar, monografiyalari yaratishgan. Leksikologiya bo'limi ta'limda qator murakkabliklar keltirib chiqarayotgani ham bejiz emas. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalari ham o'rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko'rilganda, so'z ma'nolari va tushunchalarning o'zaro bog'liq holda

bo'lishi ko'zda tutiladi. Leksikologiya lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so'zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so'zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me'yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so'z birikmalarini me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi.² O'zbek tilshunosligida ham leksikologiya bo'limini o'rganishga doir bir qator tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu ishlar hali-hanuz davom etmoqda. O'zbek tili leksikasini o'rganish qadim-qadimdan boshlangan. M.Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit-turk" asarida ilk leksikolog olim sifatida ko'zga tashlansa, keyinchalik Alisher Navoiy bu borada dadil qadam tashladi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tili va arab tilining lug'atini yaratish jarayonida har bir o'zbekcha so'zning ma'nolarini ham batafsil berib o'tadi. Navoiyning barcha asarlarida so'zlar bilan aloqador juda ko'p manbalarga duch kelish mumkin. O'zbek tili leksikologiyasining nazariy tahlili esa XX asrda ishlab chiqildi. Bu izlanishlar bevosita Abdurauf Fitrat nomi bilan bog'liq. Fitrat tadqiqotlari davomida so'zlarning polisemantik xususiyatlarini, ularning ma'no qirralarini bayon etdi.

O'zbek adabiy tili leksikologiyasini o'rganish keyingi davrlarda ham davom etdi. Bu yillar davomida V.V.Reshetov, H.Sulaymonov, A.Hojiyev, N.Karimov, Sh.Raxmatullayev kabi olimlar leksikologiyani o'rganishga doir ilmiy ishlar qilishdi. 2 jildli "O'zbek

1 Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent. O'zbekiston, 2017.

2 Tursunov U. va b., Hozirgi o'zbek adabiy tili, – T., 1965.

tilining izohli lug'ati" yaratildi. Keyinchalik esa 1 va 4 jildli "Navoiy asarlari lug'ati", "O'zbek xalq shevalari" lug'ati o'zbek tilshunos olimlarining mashaqqatli mehnatlari natijasida yig'ib, o'rganilib, nashr etildi.

Akademik A.Hojiyev leksikologiya, leksikografiya sohasini o'rganishga o'z umrini bag'ishlagan. Uning 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tili leksikologiyasi" ilmiy asari bu soha rivojidadagi katta yutuqdir. Sh.Raxmatullayev esa "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida leksikologiya bo'limini o'rganishga doir barcha nazariy bilimlarni umumlashtirdi, yangi ma'lumotlar bilan boyitdi. Aynan shu olim tomonidan "O'zbek tili omonimlarining lug'ati" va "Etimologik lug'at" ham yaratildi. Bu manbalar leksikologiya bo'limini o'rganish va tadqiq etishda ko'mak-lashadi. Hozirgi kunga kelib ham leksikologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki jamiyatdagi o'zgarishlar eng oldin tilshunoslikning leksikologiya bo'limida namoyon bo'ladi. Hozirda tilshunoslikning bu bo'limi yuzasidan ilmiy izlanish olib borayotgan, fan uchun yangilik qilgan olimlar soni ham talaygina. Masalan, H.Jamolxonov, G.Mahbubova, O.Bozorov, B.Qilichev, Z.Yunusova singari olimlarni alohida e'tirof etish zarur. Leksikologiya sohasi o'zbek tilshunosligida ham ko'p bora o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Ammo bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ham talaygina.

O.Oxunjonovanning "Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi" nomzodlik dissertatsiyasida o'rta umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslarida sinonimlarga, ya'ni ma'nodosh so'zlarni o'qitish-o'rgatish masalalari batafsil yoritib berilgan³. Mavzuni o'rgatishga doir bir qancha dars ishlanmalari berilgan bo'lib, asosan, unda yangi pedagogik texnologiyalarning tatbiqi o'z ifodasini topgan. Diqqatni tortgan texnologiyalardan biri – bu "Hokimiyat bekati" deb nomlanuvchi o'yin texnologiyasi hisoblanadi. Unda o'quvchilardan har bir bekatda to'xtab, undagi so'zlarga ma'nodoshlar topish va har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini farqlash talab qilinadi.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ona tili darslarining samaradorligi masalasi tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlardan biri bu – Sh.J.Yusupovanning "Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)"⁴ nomli nomzodlik

dissertatsiyasi hisoblanadi. Ishda "Aqliy hujum" metodidan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslardan namunalar va ularni tashkil qilish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. Shuningdek, ishda "Bu bizniki" usulidan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

B.To'xliyev, Sh.Yusupova, Z.Rayimberdiyevlarning hammuallifligida tayyorlangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi" nomli uslubiy qo'llanmasi tom ma'noda akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarining tashkil etilishiga bag'ishlangan⁵. Uslubiy qo'llanma, asosan, akademik litseylarning 1-bosqichi mavzularini shaxs kamoloti tarbiyasi bilan bog'liq holda tashkil etish masalalarini hal qilishga qaratilgan. Undan akademik litseylarning 2- va 3- bosqichi materiallarini ham o'qitishda bimalol foydalanish mumkin.

A.G'ulomov, M.Qodirov, N.Alautdinova, M.Enazarova va V.Karimjonovlarning "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida ham leksikologiyani o'qitish-o'rgatish masalalari juda batafsil yoritilgan⁶. Kitobda, asosan, maktab "Ona tili" darslarida leksikologiyani o'qitish masalasiga oydinlik kiritilgan. Maktab "Ona tili" dastur va darsliklarida "Leksikologiya" bo'limiga oid bilimlarning berilishi tahlilga tortilgan. Maktabda "Leksikologiya" bo'limini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni o'zbek adabiy tilining so'z xazinasiga olib kirish, ularning so'z zaxirasini oshirish va so'zdan to'g'ri hamda o'rinni foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir, – uqtiriladi kitobda. Shuningdek o'quv qo'llanmada "Leksikologiya" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish imkoniyatlari haqida ham fikr yuritiladi. Ayniqsa, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari ustida ishlashga doir fikrlar juda yaxshi tahlil qilingan. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, kitobda "Leksikologiya" bo'limini o'qitishda o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish masalasi ham tadqiq qilingan. Aqliy faoliyat usullariga kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish usullarini kiritadi. Ular o'zaro chambarchas bog'langan shunday aqliy faoliyat usullaridirki, ta'lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi, – deyiladi kitobda⁷.

Leksikologiya haqida suhbat. So'zning atash ma'nosi. So'z va so'zshunoslik. So'zlarni narsa-buyumlar, belgi-xususiyatlar, miqdor, harakat singari ma'nolarni ifodalashiga ko'ra guruhlariga ajratish. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.

3 Oxunjonova O. Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi: Ped. fan. nomz. ... yozilgan diss. – Toshkent, 2009. 144-b.

4 Yusupova Sh.J. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish): Ped. fan.nomzodi ... diss. – Toshkent, 1998. 26-b.

5 To'xliyev B., Yusupova Sh., Rayimberdiyeva Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi. – Toshkent, 2010. 113-b.

6 G'ulomov A., Qodirov M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar". 2012. 380-b.

7 G'ulomov A., Qodirov M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar". 2012. – 167-b.

Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi. Soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarini qiyoslash, berilgan soʻz birikmalarida soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini aniqlash. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari yuzasidan xulosa chiqarish, nasriy va sheʼriy matnlarni oʻqib, undan soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini aniqlash; soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllab gaplar tuzish.

Shakldosh soʻzlar. Shakldosh soʻzlarning badiiy tasvirdagi ahamiyati. Shakldosh soʻzlar lugʻati va uning tuzilishi. Shakldosh soʻzlarning badiiy sanʼatdagi oʻrni. Tuyuqlarda shakldosh soʻzlar. Uyadosh soʻzlar.

Paronimlar. Paronim soʻzlarning shakldosh soʻzlardan farqi.

Maʼnodosh soʻzlar. Maʼnodosh soʻzlarda umumiy va xususiy maʼnolar. Maʼnodosh soʻzlarning nutqiy-tasviriy ahamiyati. Sheʼriy asarlarda sinonimlarning qoʻllanishi. Sinonimik qator haqida tushuncha. Maʼnodosh soʻzlarning nutq taʼsirchanligini oshirishdagi oʻrni. Sinonim soʻzlarni maʼno yaqinligiga koʻra va ular orasidagi maʼno farqiga koʻra tahlil qilish. Soʻzlarning salbiy va ijobiy boʻyoqlari.

Zid maʼnoli soʻzlar. Zid maʼnoli soʻzlarning qoʻllanish oʻrni va ahamiyati.

Kuzatish asosida **zid maʼnoli** soʻzlarning izohi. **Zid maʼnoli** soʻzlar qatori asoslarini aniqlash, qatorni davom ettirish. Zid maʼnoli soʻz juftlari ustida ish. Oʻqilgan ertaklar asosida zid maʼnoli soʻzlardan foydalanib ertak qahramonlariga tavsif berish. Matn ustida ish.

Oʻzbek tili leksikasining boyish manbalari.

Eskirgan soʻzlar. Eskirgan soʻzlar, ularning oʻtmish badiiy tasvirini berishdagi oʻrni. Berilgan matndan tarixiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarni aniqlash. Tarixiy soʻzlarning ishlatilishi. Eskirgan soʻzlarning tarixiy asarlarda qoʻllanilishi. Yangi soʻzlar.

Iboralar, ularning maʼno ifodalash xususiyatlari. Matn tahlili asosida soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini aniqlash. Ularning koʻchma maʼnosiga maʼnodosh soʻzlar topish, qiyosiy tahlil. Iboralar sharhi. Berilgan soʻzlarga maʼnodosh iboralar tanlash, ular ishtirokida

matn yaratish. Savol va topshiriqlar ustida ishlash. Tasviriy ifoda. Soʻz boʻyligining oshib borishi haqida tushuncha.

Atamalar. Bunday soʻzlar haqida maʼlumot. Umumiy va xususiy maʼnoli soʻzlar. Maʼlum bir fan, kasb-kor sohasidagina qoʻllaniladigan soʻzlar. Shevaga xos soʻzlar. Olinma soʻzlar. Matn tahlili asosida olinma soʻzlar haqida tushuncha. Yevropa tillari va oʻzbek tili uchun umumiy boʻlgan soʻzlar ustida ishlash. Olinma soʻzlar izohi. Oʻzbek tilida arab va fors-tojik tillaridan olingan soʻzlar ustida ishlash; oʻzbek tiliga Yevropa tillaridan kirgan soʻzlar imlosi, talaffuzi va qoʻllanilishi yuzasidan amaliy ish.

Lugʻat va lugʻatshunoslik. Lugʻat turlari va ulardan foydalanish. Bugungi kun maktab darsliklarida leksikologiyaning oʻrganilishida baʼzi farqlar kuzatiladi. Yangi Fin tajribasiga asoslangan darsliklarida grammatikadan chekinish va aqliy hamda mantiqiy fikrlashga asoslangan yangicha yondashuvdagi darsliklar bir qadar fan oʻqituvchilarini izlanishga undaydi. Bu yoʻnalishdagi darsliklar taʼlim bosqichlarida yangi izlanishlarni oʻrtaga chiqaryapti.

Xulosa. Dasturni oʻrganib chiqib shuni aytish mumkinki, umumtaʼlim maktablarining “Ona tili” oʻquv dasturidan oʻrin olgan “Leksikologiya” boʻlimi mavzulari va ular uchun ajratilgan oʻquv soatlari oʻquvchilarga bu boʻlim yuzasidan yetarlicha bilim berishga, ularda shu mavzular boʻyicha koʻnikma va malakalar hosil qilishga imkon beradi. Mavzuga oid termin-tushunchalar, oʻqitilishi lozim boʻlgan grammatik qoidalar, ulardagi uzviylik, ilmiylik oʻquvchida bu boʻlim yuzasidan yetarlicha bilim olishga, koʻnikma va malakalar hosil qilishga moʻljallangan, oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirishga, bogʻlanishli nutqini shakllantirishga, ularning soʻz boʻyligini oshirishga, soʻz va uning maʼnolari ustida ishlash koʻnikmalarini va sintaktik qurilmalar ustida ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan uzviy tizim sifatida bayon qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent. Oʻzbekiston, 2017.
2. Gulomov A., Qodirov M. va b. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2012. 167-bet.
3. Toʻxliyev B., Yusupova Sh., Rayimberdiyeva Z. Hozirgi oʻzbek adabiy tili darslarida yuksak maʼnaviyatli shaxs tarbiyasi. – Toshkent. 2010. 113-bet.
4. Oxunjonova O. Taʼlim bosqichlarida sinonimlar mavzusini oʻqitish metodikasi: Ped. fan. nomz. ... yozilgan diss. – Toshkent, 2009. 144-bet.
5. Yusupova Sh. J. Ona tili taʼlimi samaradorligini oshirishda ilgʻor pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noanʼanaviy usullar va kompyuterdan foydalanish): Ped. fan. nomzodi ... diss. – Toshkent, 1998. 26 -bet.
6. Tursunov U. va b., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T., 1965. 156-bet.

Dildora RADJABOVA,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Ingliz tili fakultet, ingliz tili amaliy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

FILOLOGIK YO'NALISH TALABALARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI TADQIQI

Annotatsiya: mazkur maqolada filologik yo'nalish talabarlari og'zaki nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar (rol o'yinlari, debatlar, loyiha asosida o'qitish va multimediadan foydalanish) talabalarning lug'at boyligini kengaytiradi, grammatik aniqligini oshiradi hamda muloqotda faol ishtirokini kuchaytiradi. Maqolada gapirishga o'rgatish jarayonida reflektiv va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *filologik ta'lim, og'zaki nutq, gapirish ko'nikmasi, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar.*

Annotation: this article investigates modern pedagogical technologies used to develop oral speech among philological students. The findings indicate that interactive methods such as role-plays, debates, project-based learning, and multimedia integration significantly enhance students' vocabulary, grammatical accuracy, and active participation in communication. The study emphasizes the importance of reflective and communicative approaches in teaching speaking skills.

Key words: *philological education, oral speech, speaking skills, communicative competence, interactive methods, pedagogical technologies.*

Аннотация: в статье рассматриваются современные педагогические технологии, применяемые для развития устной речи студентов филологического направления. Результаты исследования показывают, что использование интерактивных методов (ролевые игры, дебаты, проектное обучение, мультимедиа) способствует расширению словарного запаса, повышению грамматической точности и активности студентов в процессе общения. В работе подчеркивается значение рефлексивного и коммуникативного подходов при обучении говорению.

Ключевые слова: *филологическое образование, устная речь, навыки говорения, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, педагогические технологии.*

Kirish. Globallashuv davrida xorijiy tillarda erkin muloqot qila olish kompetensiyasi filologik ta'limning markaziy maqsadiga aylandi. Oliy ta'lim muassasalarida filologik yo'nalish talabarlari uchun nutq faoliyatini rivojlantirish, xususan, gapirish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Gapirish – til o'rganish jarayonining eng faol va murakkab jihatlaridan biri bo'lib, nafaqat til bilimini, balki madaniyat, tafakkur va psixolingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, talabalarda og'zaki nutq malakasini shakllantirish texnologiyalarini ilmiy tadqiq etish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi.

Metodologiya.

Ishtirokchilar:

Tadqiqotda 3 ta oliy ta'lim muassasasining filologiya yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan 90 nafar talaba (45 nafari 2-kurs, 45 nafari 3-kurs) ishtirok etdi.

Tadqiqot vositalari:

- Dars kuzatuvlari (10 ta mashg'ulot).
- O'qituvchi va talabalar so'rovlari.
- Video-analiz va refleksiya mashg'ulotlari.

- Til kompetensiyasini baholash uchun CEFR mezonlariga asoslangan og'zaki nutq testi.

Jarayon:

1. Talabalar ikki guruhga ajratildi: an'anaviy usulda o'qitiladigan nazorat guruhi va interaktiv texnologiyalar (rol o'yinlari, debat, loyiha asosida o'qitish) orqali o'qitiladigan tajriba guruhi.
2. 12 haftalik o'quv jarayonida "Speaking through Interaction" moduli asosida mashg'ulotlar olib borildi.
3. Har hafta talabalar nutq tezligi, grammatik aniqligi, lug'at boyligi va kommunikativ moslashuvchanlik bo'yicha baholandi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar filologik yo'nalish talabarlari nutq faoliyatiga aniq va ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tajriba guruhi bilan nazorat guruhi natijalari taqqoslanganda, talabalarning kommunikativ ko'rsatkichlarida quyidagi sezilarli o'sishlar qayd etildi:

- Grammatik aniqlik 27 foizga oshib, talabalar murakkab grammatik tuzilmalarni to'g'ri qo'llashda

ko'proq ishonch hosil qila boshladilar. Bu, o'z navbatida, ularning og'zaki nutqida tabiiylik va aniqlikni kuchaytirdi.

- Lug'at boyligi 34 foizga kengaydi. Talabalar yangi so'z va iboralarni faol qo'llay olish, sinonimik variantlardan foydalana olish hamda o'z fikrlarini yanada boyroq tarzda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

- Gapirishdagi ishonchlik va erkinlik 42 foizga oshdi. Avval nutq jarayonida sust ishtirok etgan yoki xato qilishdan qo'rqqan talabalar ham o'z fikrini ochiq ayta boshladi. Bu o'zgarish, asosan, o'yinli topshiriqlar va guruhli faoliyat orqali rag'batlantirilgan muloqot muhiti bilan bog'liq.

- Muloqot tezligi o'rtacha 20 foizga yaxshilandi. Talabalar fikrini to'xtovsiz, tabiiy ohangda ifoda etish ko'nikmasini shakllantirdilar.

Shuningdek, suhbat va intervyu tahlillari shuni ko'rsatdiki, o'yinli mashg'ulotlar, juftlikda ishlash, rolli vaziyatlar va "debate" formatidagi mashqlar talabalarda nafaqat motivatsiyani, balki o'zaro hamkorlik madaniyatini ham rivojlantirgan. Talabalar o'zaro muloqot davomida tilni o'rganish jarayonini "majburiyat" emas, "ijtimoiy tajriba" sifatida qabul qila boshlagan.

Tajriba davomida kuzatilgan psixologik o'zgarishlar ham muhim natijalardan biri bo'ldi. Talabalar orasida nutqdagi xatolardan qo'rquv kamaydi, o'ziga ishonch ortdi, auditoriya qarshisida chiqish qilishda psixologik to'siqlar bartaraf etildi. Shu bilan birga, feedback tizimi – o'qituvchi tomonidan doimiy tahlil va baholash jarayoni – talabalarning o'z nutqini takomillashtirishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirdi.

Yakuniy baholashda aniqlanishicha, interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, muloqot madaniyati va nutq strategiyalarini qo'llay olish qobiliyatini sezilarli darajada oshirgan. Shu bois, bunday yondashuvni filologik ta'lim jarayoniga keng joriy etish o'quv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gapirishga o'rgatish jarayonida faqat grammatik bilim va lug'at zaxirasini oshirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Asosiy e'tibor talabani real kommunikativ vaziyatda moslashuvchan, maqsadga yo'naltirilgan va

kontekstga mos fikrlashini shakllantirishga qaratilishi lozim. Til o'rganish bu – shunchaki bilim yig'ish emas, balki fikrni muloqot jarayonida to'g'ri, aniq va madaniyat jihatdan maqbul tarzda ifoda etish san'atidir. Shu bois o'qituvchi darsda "axborot manbai" emas, balki "nutq vositachisi" rolini egallashi, talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan sharoit yaratishi zarur.

Interaktiv muhit – bu nafaqat dars jarayonidagi texnik vositalar majmuasi, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ishonch, ochiq muloqot va tahliliy fikrlashni rag'batlantiruvchi psixologik muvozanatdir. Shu nuqtai nazardan, o'yinli topshiriqlar, munozara va debat shaklidagi mashg'ulotlar, hamkorlikda loyihalar tayyorlash, onlayn forumlar va chat-sessiyalar talabalarning tilni tabiiy kontekstdagi qo'llashini kuchaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, multimedia taqdimotlar, video-rolklar, podkastlar va virtual muloqot platformalari, talabalarda eshish, tushunish va og'zaki javob qaytarish malakalarini integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa nutq faoliyatini yanada tabiiy va real hayotga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, metakognitiv yondashuv – ya'ni talabani o'z nutq faoliyatini baholash, xatolarini tahlil qilish va keyingi muloqotlarda tuzatish kiritish qobiliyatini shakllantirish – barqaror kommunikativ kompetensiyaning asosiy omilidir.

Ushbu tadqiqot natijalari ham shuni tasdiqlaydiki, faol metodlar, xususan, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlarni hal etish va erkin fikr bildirish mashg'ulotlari talabalarning o'z fikrini aniq, mantiqan izchil va madaniy kontekstda to'g'ri ifoda etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu tariqa, o'qituvchining asosiy vazifasi – bilimni berish emas, balki talabani muloqotda o'z fikrini mustaqil ifoda etishga yo'naltirilgan nutqiy muhitni shakllantirishdan iborat.

Xulosa. Filologik yo'nalish talabalari nutqini rivojlantirish uchun o'qitish texnologiyalari integrativ, interaktiv va refleksiv yondashuvlarga asoslanishi lozim. Gapirishga o'rgatish texnologiyalari nafaqat kommunikativ vazifalarni bajarish, balki mustaqil fikrlash, madaniyatlararo muloqot va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi. Kelgusida bunday texnologiyalarni raqamli ta'lim platformalariga integratsiya qilish filologik ta'lim sifatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J. C., Rodgers, T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 273 p.
2. Nation, I. S. P., Newton, J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. – London: Routledge, 2020. – 230 p.
3. G'ofurov, U. Til o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2022. 180-b.

Shukrulloxon SHERQO'ZIYEV,
 “Fergana school ziyo” xususiy maktabining
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
sherqoziyevshukrullo@gmail.com

HAYOT-MAMOT MASALALARINING BADIY ASAR KONFLIKTI BILAN ALOQASI

Annotatsiya: tadqiqotimizning maqsadi adabiyotshunoslikda yangi izlanishlardan biri bo'lgan hayot-mamot muammosining yangicha qirralarini kashf etish va uni badiiy adabiyotda tutgan muhim o'rnini ochib berishdan iborat. Ushbu maqolada hayot va o'lim tasvirining konfliktli holatdan ta'sirlanishi, ziddiyatlar bilan fojia o'rtasidagi aloqa o'rganildi hamda badiiy asarlardan keltirilgan misollar orqali isbotlandi.

Kalit so'zlar: konflikt, konfliktli o'lim, konfliktli o'lim, ichki ziddiyat, o'limli konflikt, o'limsiz konflikt, konfliktli hayot, konfliktli hayot, konflikt ta'siri, konflikt natijasi.

Аннотация: цель нашего исследования – раскрыть новые аспекты проблемы жизни и смерти, которая является одной из новых исследований в литературоведении, и выявить ее важное место в художественной литературе. В данной статье изучено и доказано на примерах из художественных произведений влияние образа жизни и смерти на конфликтную ситуацию, связь конфликтов и трагедии.

Ключевые слова: конфликт, смерть с конфликтом, смерть без конфликта, внутренний конфликт, конфликт со смертью, конфликт без смерти, жизнь с конфликтом, жизнь без конфликта, влияние конфликта, результат конфликта.

Annotation: the purpose of our research is to discover new aspects of the problem of life and death, which is one of the new researches in literary studies, and to reveal its important place in fiction. In this article, the impact of the image of life and death on the conflict situation, the connection between conflicts and tragedy was studied and proved by examples from works of art.


Key words: conflict, death with conflict, death without conflict, internal conflict, conflict with death, conflict without death, life with conflict, life without conflict, impact of conflict, result of conflict.

Kirish. Badiiy asar syujetining asosiy unsuri hisoblangan konflikt hayot va mamot masalalarining markaziy planida turadi. Ziddiyatlar natijasi faqatgina yo'qlikni ko'rsatmaydi, konfliktlar natijasida tirik qolish ham, tirik qolmaslik ham yuzaga chiqishi mumkin. U esa asar tabiatidan kelib chiqib tanlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ba'zi asarlarning (Ulug'bek Hamdam “Ota”) ziddiyatlar nuqtasi o'lim holati bilan natijalansa, ba'zilariniki (Anton Chexov “Garov”) esa fojiani ko'rsatmaydi, yana ba'zi asarlarda (Abdulla Qahhor “Mahalla”) o'limning konfliktli yuzaga kelgan holatlari uchraydi. Biz ushbu maqolada konfliktli va konfliktli o'lim holatlarini bir-biridan farqlaymiz. Unga ko'ra, syujet liniyasi voqealarining yuzaga kelish sababi, unga ta'sir etgan omil va ziddiyatlar ko'lami, ziddiyatlarning esa qahramonlar ruhiyatiga o'tishi nuqtayi nazaridan konfliktli hamda konfliktli o'lim

tasvirlari bir-biridan ajraladi. O'lim elementi konfliktli holatdan ta'sirlanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

Nega biz badiiy asarni bunday konfliktli va konfliktli tasnif etyapmiz? Shu o'rinda biz konflikt xususiyatlariga to'laqonli tayanamiz. Ma'lumki, personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini



- **Konfliktli o'lim** – konflikt yuz bergan holat o'lim bilan natijalanadi, asarning tub burilishlari ham shu nuqta tomon sodir bo'lib boradi.
- **Konfliktli o'lim** – bunda o'lim holatida hech qanday ziddiyat yuz bermaydi, qahramonlar o'limida inson omili ishtirok etmaydi.

topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar konflikt hisoblanadi.¹ Personajlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ruhiy kechinmalarda aks etuvchi qarama-qarshiliklar hamda muhit va undagi voqealarning inson psixologiyasida aks ifoda etilishiga qaralganda, o'lim holatida konfliktning samari ko'rinadi, ya'ni o'lim holatida konflikt ishtirok etadi yoki ishtirok etmaydi. "Konflikt badiiy asar syujeti uchun motor vazifasini bajaradi".² Motor asarda uning shiddatini ko'rsatib, harakatga keltiruvchi kuch funksiyasini bajarsa, hayot va mamot o'sha motorning yetkazib boruvchi manzili, to'xtagan joyi hisoblanadi. Joyning qay holatda bo'lishini o'sha motorning harakatlanishi, qay yo'sinni tanlagani, aniq qilib aytganda, bajargan vazifasi namoyon etadi.

Agar asar tarkibi turli g'oyalar, qarashlar o'rtasida ro'y beradigan ziddiyatlardan tashkil topmasa, uning ranglar jilosi ko'zni quvnatmaydi.³ Konfliktning o'lim holatiga ta'sir etishi o'zgacha rang-baranglikni yuzaga keltiradi. Qarama-qarshi to'qnashuvlar va o'lim holatlarining yonma-yon uchrashi esa tabiiydir.

Konfliktli o'limda yozuvchi ko'zlagan maqsad, o'quvchi fenomenini uyg'otadigan tasviriylik ko'zga tashlanadi. Bir tomondan qaraganda bu turdagi mamot masalasida hayot, tirik qolishlik ham aks etadi. Boshqa tomondan qaraganda biri ikkinchisini yuzaga chiqaradi, ya'ni ziddiyatlarning yechimida bir tomonning (raqibning, zamonaning yoki his-tuyg'uning) g'olibligi, ikkinchi tomonning mag'lubiyati yotadi. Bunda hayot ham, o'lim ham yaqinlikka

keladi, yashab qolish yoki mag'lublikda o'limning yotishi yuzaga chiqadi. Xususan, Kumush va Zaynab ziddiyatlari baxtga erishish yo'lidagi maqsadni namoyon etib, mamot masalasini paydo qiladi. Shu o'rinda Zaynabning niyatlari yashab qoldi, Kumush va uning orzu-umidlari bo'lsa fojiga uchraydi. Konfliktual holat istiqbolini yashatib qolish hamda baxtsizlikka mone' bo'lolmaslik orqali o'lim holatini yaratishga xizmat qilyapti.

Hayot va mamot masalalariga konfliktning ta'sirini o'rganish jarayonida ikki xil tasnifni bir-biridan alohida qilib ajratdik, ya'ni personajlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ularning yashab qolish (hayot) yoki qolmasligiga (o'limga) ta'sir o'tkazadi. Har qanday konflikt asarda tiriklik yoki mamot o'rtasidagi kurashni namoyon etadi, degan biryoqlama fikr yuritish to'g'ri emas. Chunki badiiy asarda konfliktning natijasi fojiali yoki fojiasiz yakun topishi mumkin.

Konflikt faqatgina fojia bilan yakunlanadi, deyish yoki unga shunday shartni qo'yish doim o'zini oqlamas ekan. Shu bilan o'lim tasviri faqat yaratilmaydi, u qahramonlar qismatida ham boshqa personajlar faoliyatisiz amalga oshishi mumkin. Bu asarning tabiatidan, tasviriylikning ko'lamidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Mahalla", "Bemor", Nazar Eshonqulning "Bitik" hikoyalarida asar qahramonlarining o'limi biror ziddiyatsiz (xoh ichki, xoh personajlararo) yuzaga chiqqan. Bunga zid ravishda esa Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida (Kumush, Homid), Ulug'bek Hamdamning "Ota"sida (Sevinch) qahramonlar fojiasi konflikt bilan yuzaga chiqadi.

Xulosa. Xullas, konflikt va fojia tasviri bir-biri bilan uyg'unlikda kechadi, bunda ijodkorning ko'lamdorligi, tasvirga ustaligi ko'rinadi. Konfliktning natijasi va ta'siriga ko'ra tasniflashda ana shu jihatlarga e'tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umrzoqov R., Sherqo'ziyev Sh. Badiiy asar syujetida o'limning o'rni va uning ta'siri. – F.: "Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023.

2. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013.

3. Ҳамроқулова Х., Адабиётда ҳаёт-мамонт муаммоси – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.

4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

5. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018.

6. Ҳамдам У. Ота. – Т.: Янги аср авлоди, 2020.

7. Qahhor A. Ming bir jon. – T.: Global books, 2021.

8. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Фафут Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.

9. Куронов Д., Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.

10. Quronov D., Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.

11. <http://www.ziyouz.com> sayti.

Shahnoza BO'RIYEVA,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
 Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

INSONPARVARLIK QADRIYATLARINING MAQOLLARDA AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida insonparvarlik qadriyatlarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda insoniylik, mehr-shafqat, adolat, sabr, mehnatsevarlik kabi tushunchalarning xalq donishmandligi orqali qanday ifoda topgani ko'rsatilgan. Maqollar milliy madaniyat va axloqiy me'yorlarning ifodachisi sifatida tahlil qilinib, ularning tarbiyaviy hamda lingvokulturologik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: maqol, qadriyat, insonparvarlik, xalq og'zaki ijodi, milliy tafakkur, lingvokulturologiya.

Аннотация: в данной статье анализируется выражение гуманистических ценностей в узбекских народных пословицах. В исследовании показано, как такие понятия, как человечность, милосердие, справедливость, терпение, трудолюбие находят отражение через народную мудрость. Пословицы рассматриваются как носители национальной культуры и нравственных норм, а также раскрывается их воспитательное и лингвокультурологическое значение.

Ключевые слова: пословица, ценность, гуманизм, устное народное творчество, национальное мышление, лингвокультурология.

Annotation: this article analyzes the expression of humanistic values in Uzbek folk proverbs. The study demonstrates how concepts such as humanity, compassion, justice, patience, and diligence are reflected through folk wisdom. Proverbs are examined as carriers of national culture and moral norms, highlighting their educational and linguo-cultural significance.

Key words: proverb, value, humanism, folklore, national thinking, linguoculturology.

Kirish (Introduction). O'zbek xalq maqollari asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalab kelgan. Ularda insonparvarlik — ya'ni insonni ulug'lash, unga mehr-shafqat ko'rsatish, adolat va tenglikni ta'minlash kabi fazilatlar xalq donishmandligi orqali mujassam aks etgan. Har bir xalqning ma'naviy boyligi uning og'zaki ijod namunalari, xususan, maqollarida o'z ifodasini topadi. O'zbek xalq maqollari asrlar davomida jamiyatning axloqiy, madaniy va ma'naviy qarashlarini mujassam etib kelgan. Maqollar insonparvarlik, mehr, adolat, saxovat, halollik kabi qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Insonparvarlik qadriyatlari jamiyatning barqaror rivojlanishida, insonning shaxs sifatida kamol topishida asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, globallashtirish jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan insonparvarlik g'oyalari yosh avlod tarbiyasida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature review) 1. Xalq og'zaki ijodi bo'yicha manbalar "O'zbek xalq maqollari" (1989) – bu to'plam o'zbek xalqining ming yillik tajribasidan kelib chiqqan maqollarni jamlagan bo'lib, ularda mehnat, sabr, do'stlik, halollik, adolat kabi qadriyatlar mujassam.

1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2001.

Nazarov Q. (2015). O'zbek xalq og'zaki ijodi – asarda xalq og'zaki ijodining janrlari tahlil qilinib, maqollarning tarbiyaviy hamda axloqiy ahamiyati alohida ko'rsatib o'tilgan. Muallif maqollarni milliy madaniyatning ko'zgusi sifatida talqin qiladi.

Tahlil: ushbu adabiyotlarda maqollar xalqning axloqiy kodeksi sifatida baholanadi va insonparvarlikning o'ziga xos ko'rinishlari yoritiladi.

2. Lingvokulturologik yondashuv. Hasanov B. (2018). Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuv – Muallif til birliklarini milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. Maqollar xalqning dunyoqarashi, insoniylik haqidagi qarashlari va qadriyatlari ifodasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Jo'rayev M. (2019). Maqollar semantikasi va tarbiyaviy mohiyati – maqollar semantik jihatdan tahlil qilinib, ulardagi mehr-shafqat, sabr, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarining tarbiyaviy ahamiyati ko'rsatiladi.

Tahlil: bu yondashuvda maqollar nafaqat folklor namunasi, balki xalq tafakkuri va madaniyatining qimmatli manbai sifatida o'rganiladi. Insonparvarlik qadriyatlari milliy tafakkur bilan uyg'un holda talqin etiladi.

3. Umuminsoniy qadriyatlar kontekstida izlanishlar. Karimov I.A. (2001). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch – asarda insonparvarlik qadriyatlari milliy taraqqiyot va ma'naviy barkamollikning asosiy

omili sifatida ko'rsatiladi. Bu g'oya xalq maqollarida ham yaqqol aks etadi.

Baxriddinova D. (2020). Maqollarda axloqiy qadriyatlarining ifodalanishi – tadqiqot maqollarni tarbiyaviy vosita sifatida ko'rib, unda mehr, adolat, saxovat, sabr kabi qadriyatlarining xalq pedagogikasidagi o'rni ochib beriladi.

4. Qiyosiy va nazariy qarashlar. Propp V. (1946). Russkie skazki i poslovitsy – rus maqollaridagi axloqiy qadriyatlarining o'rganilishi orqali o'zbek maqollaridagi insonparvarlik qadriyatlarini qiyoslash imkonini beradi.

Boratov P.N. (1978). Poslovitsy i pogovorki narodov Vostoka – sharq xalqlar maqollaridagi insoniy qadriyatlar tahlil qililib, ular umumiy xalq donoligining ifodasi sifatida baholanadi.

Metodlar (Methods). Tadqiqotda **deskriptiv, semantik va lingvokulturologik** tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy material sifatida o'zbek xalq maqollari to'plamlari ("O'zbek xalq maqollari", – T., 1989; "Maqollar — xalq donoligi", – T., 2010) hamda ilmiy manbalar (Karimov 2001; Nazarov 2015; Jo'rayev 2019)dan foydalanildi². Maqollar semantik jihatdan tahlil qililib, ulardagi insonparvarlik mazmuni, konseptual maydoni va aks ettirilgan qadriyat turlariga ko'ra guruhlandi.

Natijalar (Results). Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, insonparvarlik qadriyatlarini o'zbek maqollarida quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Mehr-shafqat va g'amxo'rlik qadriyatlarini:
– "Yaxshilik qil, dengizga tashla, baliq bilmasa, Xoliq bilar.", – "Yaxshi so'z — jon oziq'i."

Bu maqollar insonning boshqaga yaxshilik qilish, mehribonlik ko'rsatish majburiyatini aks ettiradi.

2. Adolat va halollik qadriyatlarini:
– "Adolat qilgan el — aziz, zolim bo'lgan el — xor."
– "Halol mehnat — halol rizq."

Bu turdagi maqollar halollik va adolatning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatini ifodalaydi.

3. Mehnatsevarlik va sabr-toqat qadriyatlarini:
– "Mehnat qilgan to'yadi."

– "Sabrning tagi — oltin."³

Ushbu maqollar insonni sabrli, mehnatkash bo'lishga undaydi va ijobiy ijtimoiy fazilatlarini targ'ib etadi.

4. Do'stlik va hamjihatlik qadriyatlarini:
– "Do'st boshdan, yomon ish oxirdan bilinadi."
– "Birlik bor joyda — yengilmaslik bor."⁴

Ular ijtimoiy birdamlik va o'zaro hurmatning insonparvarlik asosidagi muhim qadriyat ekanini ko'rsatadi.

Munozara (Discussion). O'zbek xalq maqollarida insonparvarlik qadriyatlarini xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va diniy-axloqiy tamoyillari bilan uzviy bog'liq. Maqollar insoniy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy kodeks sifatida xizmat qilgan. Ular yosh avlodni halollik, mehr-shafqat, adolat kabi fazilatlariga chorlab, milliy o'zlikni saqlashda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi⁵.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan qaraganda, maqollar xalq tafakkurining ko'zgusi bo'lib, ularda xalqning ma'naviy olami, qadriyatlar tizimi va axloqiy ideallari mujassam. Shu bois, maqollarni tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, falsafa va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega⁶.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot natijasiga ko'ra, o'zbek xalq maqollarida insonparvarlik qadriyatlarini jamiyatning axloqiy me'yorlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular xalqning ma'naviy hayotini ifoda etuvchi muhim madaniy merosdir. Maqollar orqali insoniylik, mehr, sabr, halollik, adolat kabi qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib, milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqollar insoniyatning umuminsoniy qadriyatlarini bilan hamohang bo'lib, insonparvarlikning barcha qirralarini — mehr-shafqat, adolat, halollik, do'stlik, sabr va mehnatsevarlikni mujassam etadi. Ular nafaqat xalq donoligining mahsuli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy qo'llanma sifatida ham qadrli.

3 Nazarov Q. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'zbekiston, 2015.

4 O'zbek xalq maqollari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989.

5 Maqollar — xalq donoligi. – T.: O'zbekiston, 2010.

6 Jo'rayev M. Maqollar semantikasi va tarbiyaviy mohiyati. – T.: Fan, 2019.

2 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2001.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2001.
2. Nazarov Q. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'zbekiston, 2015.
3. Jo'rayev M. Maqollar semantikasi va tarbiyaviy mohiyati. – T.: Fan, 2019.
4. O'zbek xalq maqollari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989.
5. Maqollar — xalq donoligi. – T.: O'zbekiston, 2010.
6. Hasanov B. Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuv. – T.: Fan, 2018.

Guzal SHODIYEVA,
 Shahrisabz davlat pedagogika instituti
 Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi
 E-mail: gozalshodiyeva0@gmail.com

PRAGMATIK STRATEGIYALAR TAHLILI: ISHONTIRISH, MANIPULYATSIYA

Annotatsiya: mazkur maqolada siyosiy diskursda qo'llaniladigan pragmatik strategiyalar — ishontirish (persuasion) va manipulyatsiya (manipulation)ning lingvopragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Ishontirish nutqida til vositalari auditoriyani ongli ravishda ishontirish, manipulyativ nutqda esa yashirin ta'sir o'tkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, siyosatchilar o'z nutqlarida tilning kontekstual moslashuv, murosviy ifoda va emotsional ta'sir imkoniyatlaridan faol foydalanadilar.

Kalit so'zlar: *pragmatika, siyosiy diskurs, ishontirish, manipulyatsiya, kommunikativ strategiya.*

Аннотация: в статье рассматриваются прагматические стратегии убеждения и манипуляции, используемые в политическом дискурсе. Убеждающая речь направлена на сознательное воздействие на адресата, тогда как манипулятивная — на скрытое влияние. Исследование показывает, что политические деятели активно используют адаптацию контекста, вежливость и эмоциональную экспрессию для укрепления своих позиций и влияния на аудиторию.

Ключевые слова: прагматика, политический дискурс, убеждение, манипуляция, коммуникативная стратегия.

Annotation: this article analyzes the pragmatic strategies of persuasion and manipulation in political discourse. Persuasive discourse employs language as a conscious tool of convincing, whereas manipulative discourse aims at implicit influence. The findings show that political leaders use context adaptation, politeness, and emotional appeal as key mechanisms to affect audience perception and maintain power relations.

Key words: *pragmatics, political discourse, persuasion, manipulation, communicative strategy.*

Pragmatik strategiyalar tahlili siyosiy diskursni chuqur o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u siyosatchining nutq orqali auditoriyani ishontirish, yo'naltirish va ijtimoiy ongini boshqarish jarayonini ilmiy asosda ochib beradi. Siyosiy muloqotning pragmatik mohiyati shundaki, u nafaqat ma'lumot uzatishga, balki maqsadli auditoriyaning idrokini shakllantirish, muayyan mafkura va qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois siyosiy diskursda har bir til birligi strategik ahamiyatga ega: u ma'nodan tashqari, ta'sir kuchi, konnotatsiyasi va ijtimoiy maqsadi bilan baholanadi.

Siyosiy diskursdagi pragmatik strategiyalarni tahlil qilishda Grice maksimalari (kooperativ tamoyil),¹ Brown va Levinsonning xushmuomalilik nazariyasi,² Sperber va Wilsonning relevans yondashuvi,³ hamda

1 Grice H. P. *Logic and Conversation* // Cole P., Morgan J. (eds.) *Syntax and Semantics*. Vol. 3. —New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.

2 Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. —Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.

3 Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. 2nd edition. —Oxford: Blackwell, 1995. 326 p.

van Dijkning ideologik diskurs tahlili metodlari⁴ keng qo'llaniladi. Xususan, siyosiy matnda ko'pincha *miqdor* va *sifat* maksimalarining buzilishi orqali manipulyativ implikatura yaratiladi. Masalan, siyosatchi muammoni to'liq tushuntirmasdan, uni "yarim hal qilingan" tarzda taqdim etib, o'zini samarali ko'rsatadi — bu esa auditoriyada realikka mos kelmagan ijobiy tasavvur hosil qladi.⁵

Siyosiy diskursning markazida **ishontirish strategiyasi** turadi. Aristotelning klassik ritorika nazariyasida ta'kidlanganidek, har qanday ishontirish jarayoni **etos** (so'zlovchining ishonchligi), **patos** (auditoriyaning hissiyotiga murojaati) va **logos** (mantiqiy asoslash) elementlari orqali amalga oshadi.⁶ Ishontirish strategiyasining maqsadi — auditoriyada ishonch va rozilik hissini uyg'otishdir. Masalan,

4 van Dijk T. A. *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction*. — London: Sage Publications, 1997. 270 p.

5 Chilton P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. —London: Routledge, 2004. 246 p.

6 Aristotle. (1991). *On Rhetoric: A Theory of Civic Discourse*. —Oxford: Oxford University Press.

siyosiy nutqda “xalq bilan birgamiz”, “taraqqiyot sari qadam” kabi birliklar umumiylik hissini yaratib, pozitiv xushmuomalalilik strategiyasini amalga oshiradi.

Shuning uchun siyosiy diskurs doimo pragmatik funksiyalarga, ya’ni so’zlovchining niyati, nutq aktining illokutsion kuchi va tinglovchida hosil qilinadigan perlokutsion ta’sirga tayanadi. Siyosatchi auditoriyani bevosita buyruq yoki talab orqali emas, balki nutqning yashirin (bilvosita) ma’nolari, evfemizmlar, ritorik savollar, metaforalar va emotsional murojaatlar orqali ishontradi.

Tilshunos J. L. Ostin ta’kidlaganidek, har bir nutq akti uch bosqichdan iborat: **lokutsion** — gapning so’zma-so’z aytilishi, illokutsion — so’zlovchining maqsadi (ishontirish, ogohlantirish, va’da berish), va perlokutsion — tinglovchiga ko’rsatiladigan real ta’sir.⁷ Siyosiy nutqda bu bosqichlar bir-biri bilan chambarchas bog’liq: siyosatchining nutqi tashqi ko’rinishda axborot berishdek tuyulsa-da, aslida u auditoriyaning ongini shakllantirishga, hissiyotlarini boshqarishga va qarorlariga ta’sir ko’rsatishga qaratilgan bo’ladi. Shuning uchun siyosiy diskursdagi ishontrish strategiyalari ko’pincha *bilvosita nutq aktlari* shaklida namoyon bo’ladi.

Masalan, prezident yoki deputat nutqida “Biz birdamlikda yurtimizni yanada rivojlantiramiz” kabi ibora illokutsion ma’noda tinglovchini birlashishga chaqiruvchi direktiv akti ifodalasa-da, perlokutsion jihatdan u milliy g’urur va birdamlik hissini uyg’otadi.

Shuningdek, siyosiy diskursda *ritorik savollar* keng qo’llaniladi: ular bevosita javob kutmaydi, lekin auditoriyani muayyan fikrni o’ylab ko’rishga majbur qiladi, masalan: “Kim xalqimiz farovonligiga qarshi bo’lishi mumkin?” Bunday savollar orqali so’zlovchi auditoriyada hissiy reaksiya uyg’otib, ularni o’z pozitsiyasiga yaqinlashtiradi.

Tilshunos A. Nurmonov ham siyosiy nutqda bilvosita ma’no, emotsional va mantiqiy murojaatlarning muhimligini ta’kidlaydilar. Uning fikricha, siyosiy diskursda so’zlovchi auditoriyani ishontrish uchun nafaqat til vositalaridan, balki ma’no ko’chish, metafora va konnotativ ifodalardan ham keng foydalanadi; bunday vositalar so’zlovchining niyatini yashirin shaklda yetkazib, tinglovchi ongida ma’lum ijobiy yoki salbiy munosabat hosil qiladi.⁸

Shuningdek, M. Qodirova o’z tadqiqotlarida siyosiy nutqda bilvosita pragmatik ma’nolarning

o’rni beqiyosligini ko’rsatadi — siyosatchi ko’pincha, o’z fikrini to’g’ridan to’g’ri emas, balki ramziy va kontekstual yo’l bilan bildiradi, bu esa tinglovchida kuchli psixologik ta’sir uyg’otadi.⁹

Masalan, “Biz bu yo’ldan qaytmaymiz” kabi iboralar yuzaki qat’iyatni bildirgandek tuyuladi, ammo u aslida *ogohlantirish, mafkuraviy mustahkamlik yoki raqiblarga nisbatan siyosiy pozitsiyani himoya qilish* ma’nolarini o’z ichiga oladi. Bu holat Y. Mamatov tomonidan qayd etilganidek, siyosiy nutqning “ko’p qatlamli semantik tuzilmasi” bilan izohlanadi,¹⁰ ya’ni siyosiy bayonotlarda ochiq ma’no bilan bir qatorda yashirin, konnotativ va pragmatik ma’nolar ham faol ishlaydi.

J. Searlening nutq aktlari tasnifiga ko’ra, siyosiy diskursda eng faol ishlatiladigan aktlar — assertiv (bayonot, da’vo), direktiv (chaqiriq, talab), va komissiv (va’da, majburiyat). Siyosatchi “Men xalq oldidagi burchimni ado etaman” deb aytganda, u komissiv akti bajaradi; bu nafaqat gapirish, balki o’zining ijtimoiy mas’uliyatini pragmatik jihatdan tasdiqlashdir. Shuningdek, siyosiy diskursda evfemizmlar — salbiy hodisalarni yumshatib ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi.¹¹ Masalan, “iqtisodiy qiyinchilik” o’rniga “rivojlanishdagi vaqtinchalik to’siqlar” iborasining ishlatilishi auditoriyada ijobiy taassurot qoldirishga xizmat qiladi.

Grays tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlik prinsipi va implikatura nazariyasi ham siyosiy diskursda alohida ahamiyat kasb etadi. Siyosatchi ko’pincha ochiq aytmay, bilvosita ma’no orqali auditoriyani ishontradi. Masalan, “Biz bu yo’ldan qaytmaymiz” degan gap yuzaki qat’iyatni bildirsa-da, aslida u raqiblarga qarshi siyosiy ogohlantirish ma’nosini ham o’z ichiga oladi. Shuningdek, pathos (hissiy murojaat), ethos (obro’ va ishonchlilikka asoslangan murojaat) va logos (mantiqiy dalillar) elementlari siyosiy nutqda o’zaro uyg’un holda ishlatiladi. Pathos orqali siyosatchi millat tuyg’usiga murojaat qiladi, ethos orqali o’z obro’sini mustahkamlaydi, logos orqali esa dalillar yordamida fikrini asoslaydi.¹²

9 Qodirova, M. (2017). Siyosiy nutqda bilvosita ma’no ifodalanishi. Filologiya fanlari bo’yicha dissertatsiya, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

10 Mamatov, Y. (2019). Siyosiy diskursda semantik va pragmatik qatlamlar. “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, №3.

11 Searle, J. R. (1976). A Classification of Illocutionary Acts. *Language in Society*, 5(1), 1–23

12 Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics: Vol. 3. Speech Acts* (pp. 41–58). –New York: Academic Press.

7 Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. Oxford University Press, 1962.
8 Nurmonov, A. (2001). *Til va madaniyat: nutqiy jarayon pragmatikasi*. – Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

N. Jo'rayeva ta'kidlaganidek, siyosiy chiqishlarda pathos (hissiy ta'sir) auditoriyani ruhlantiradi, ethos (so'zlovchining obro'si) ishonch muhitini yaratadi, logos esa (mantiqiy asos) siyosiy g'oyaning daliliy kuchini oshiradi. Demak, siyosatchi til vositalarini tanlar ekan, u tinglovchining hissiy holati, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini inobatga olib, o'z nutqini strategik tarzda quradi.¹³

Shunday qilib, tilshunoslikda siyosiy diskursdagi ishontirish jarayoni tilning pragmatik, emotsional va ijtimoiy-funksional jihatlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida qaraladi. So'zlovchi bilvosita ma'nolar, konnotativ ifodalar va ritorik strategiyalar orqali auditoriyani o'z pozitsiyasiga yaqinlashtiradi, bu esa siyosiy nutqning samaradorligini ta'minlaydi.

Biroq siyosiy muloqotda ishontirish strategiyasi ko'pincha manipulyativ strategiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Manipulyatsiya — bu yashirin ta'sir vositasi bo'lib, u ochiq dalillashdan ko'ra ko'proq hissiy va assotsiativ mexanizmlarga tayangan holda auditoriyaning ongini bilvosita boshqaradi. T. van Dijk ta'kidlaganidek, siyosiy manipulyatsiya “nutq orqali ijtimoiy nazorat o'rnatish” jarayonidir, ya'ni til yordamida auditoriya fikrini ongli ravishda boshqarish amalga oshiriladi.¹⁴

Grice maksimalarining (miqdor, sifat, moslik, uslub) ataylab buzilishi orqali yashirin ma'no — implikatura yaratiladi, bu esa manipulyatsiyaning

asosiy pragmatik mexanizmi hisoblanadi.¹⁵ Masalan, siyosatchi “muayyan qiyinchiliklar” deb aytib, real iqtisodiy inqirozni yumshatadi, yoki “xalq ishonchini yo'qotgan kuchlar” iborasi orqali raqibni diskursdan siqib chiqaradi.

M. Qodirova esa siyosiy diskursdagi manipulyatsiyani psixolingvistik jarayon sifatida ko'rib, unda auditoriyaning hissiyotlariga ta'sir etuvchi vositalar ustuvor o'rin tutishini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, siyosatchi nutqining maqsadi ko'pincha *emotsional rezonans* hosil qilish orqali auditoriyani tahliliy fikrlashdan chalg'itish va ularni o'z g'oyasini qabul qilishga undashdir. Shuning uchun siyosiy chiqishlarda “biz” va “ular” oppozitsiyasi, siyosiy shiorlar, takrorlash hamda metaforik ifodalar manipulyatsiyaning eng samarali pragmatik strategiyalari hisoblanadi.¹⁶

Shunday qilib, siyosiy muloqotdagi ishontirish va manipulyatsiya strategiyalari bir xil lingvistik vositalar orqali amalga oshsa-da, ularning pragmatik yo'nalishi turlicha: birinchisi ochiq ishonch uyg'otish orqali ta'sir etadi, ikkinchisi esa yashirin semantik mexanizmlar orqali ongni boshqaradi. Zamonaviy siyosiy diskursda manipulyatsiya strategiyasi emotsional ifodaviylik, metaforiklik va psixolingvistik rezonans orqali kuchayib borayotganini ko'rish mumkin. Shu bois siyosiy pragmatika tahlilida faqat lingvistik emas, balki psixologik va ijtimoiy omillar ham alohida e'tiborga olinishi lozim.

13 Jo'rayeva, N. (2020). Siyosiy nutqda ishontirish strategiyalari. –Toshkent: Fan va texnologiya.

14 van Dijk, T. A. (2006). Discourse and Manipulation. *Discourse & Society*, 17(3), 359–383.

15 Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). –New York: Academic Press.

16 Qodirova, M. (2018). Siyosiy nutqda manipulyativ strategiyalar. Filologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Van Dijk T. A. *Discourse and Manipulation. Discourse & Society*, Vol. 17(3), 2006, pp. 359–383.
2. Qodirova M. *Siyosiy diskursdagi manipulyativ strategiyalar: lingvopragmatik tahlil*. –Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
3. Grice H. P. *Logic and Conversation*. In: Cole P., Morgan J. (eds.) *Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts*. New York: Academic Press, 1975, pp. 41–58.
4. Fairclough N. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. –London: Longman, 1995.
5. Brown P., & Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. –Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Shodiyeva, G. (2023). Ijtimoiy-siyosiy matnlarning lingvopragmatik salohiyati. In-Academy, 2(4), 45–52.
7. Shodiyeva, G. (2023). Diskurs tushunchasining analitik tahlili. In-Academy, 2(5), 60–68.
8. Verschueren J. *Understanding Pragmatics*. –London: Arnold Publishers, 1999.

Kaxramon SINDAROV,
*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
 pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti
 kafedrasida o'qituvchisi,*



SHE'RIY MATNLARDA SINTAKTIK ORTIQCHALIKNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: quyidagi maqolada she'riy matnlarda sintaktik ortiqchalikning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganadi. Sintaktik ortiqchalik, ya'ni pleonazm va tautologiya, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lingvopoetika va psixolingvistika sohalarida tadqiq qilinmoqda. Ortiqchalik badiiy nutqda nafaqat grammatik, balki lingvopragmatik hodisa sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *sintaktik ortiqchalik, lingvopragmatika, she'riy matn, ritorik so'roqlar, emotsional ta'sir, parallelizm, psixolingvistika, kommunikativ ta'sir.*

Annotation: the following article studies the linguopragmatic properties of syntactic redundancy in poetic texts. Syntactic redundancy, namely pleonasm and tautology, has been studied in the fields of linguopoetics and psycholinguistics since the second half of the 20th century. Redundancy is analyzed in artistic speech not only as a grammatical, but also as a linguopragmatic phenomenon.

Key words: *syntactic redundancy, linguopragmatics, poetic text, rhetorical questions, emotional impact, parallelism, psycholinguistics, communicative impact.*

Аннотация: в данной статье исследуются лингвопрагматические свойства синтаксической избыточности в поэтических текстах. Синтаксическая избыточность, а именно плеоназм и тавтология, изучается в лингвопоэтике и психолингвистике со второй половины XX века. В художественной речи избыточность анализируется не только как грамматическое, но и как лингвопрагматическое явление.

Ключевые слова: *синтаксическая избыточность, лингвопрагматика, поэтический текст, риторические вопросы, эмоциональное воздействие, параллелизм, психолингвистика, коммуникативное воздействие.*

Lingvopragmatika nuqtayi nazaridan, ortiqchalik hodisasi til birliklarining kommunikativ kuchi bilan bog'liq. Muhabbat Madaminova badiiy matnning lingvopragmatik tahlilida ortiqcha takror, parallel sintaktik konstruksiyalar, sinonimik zanjirlar, va ritmik takrorlar kontekstual dominantani shakllantiruvchi elementlar ekanini ko'rsatgan. Unga ko'ra, sintaktik ortiqchalik so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi emotsional, estetik va axborot almashinuvi jarayonida "signal funksiyasi"ni bajaradi. Bu yondashuv zamonaviy lingvopragmatika nazariyalariga

— xususan, J.L. Ostin va J. Searle'ning nutq aktlari nazariyasiga hamohangdir. Ortiqchalik tilning "performativ" tabiatini — ya'ni ma'noni emas, ta'sirni ifodalovchi quvvatini ochib beradi. She'riy matnda esa bu quvvat metafora, inversiya, takror va ritmik parallelizm orqali voqelanadi. O'zbek adabiyoti tarixida sintaktik ortiqchalik ko'plab shoirlarning individual uslubining asosiy belgisi bo'lgan. Cho'lpon, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Usmon Azim kabi shoirlar ijodida takror, tautologiya, sintaktik parallelizm va so'z o'yinlari ortiqchalik orqali

estetik ifodaning muhim mexanizmiga aylangan. D.Shodiyeva Muhammad Yusuf she'riyatida lisoniy ortiqchalikning "ichki musiqiylik"ni yaratishdagi rolini ko'rsatgan bo'lsa, S.Umirova Usmon Azim she'rlarida parallelizm va takrorlarning poetik individuallikka xizmat qilishini tahlil qilgan. Bu yondashuvlar sintaktik ortiqchalikni pragmatik maqsadli hodisa sifatida o'rganishga imkon beradi. Ya'ni, she'riy matnda ortiqchalik nutqni "ortiqcha" emas, balki "ortiqcha ta'sirli" qiladi — u o'quvchining emotsional rezonansini kuchaytiradi, ritmik uyg'unlikni ta'minlaydi, va matnning semiotik qatlamiga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Bugungi o'zbek tilshunosligida sintaktik ortiqchalik masalasi lingvopoetik, psixolingvistik va lingvopragmatik yo'nalishlarning kesishgan nuqtasida tahlil etilmoqda. Badiiy nutqda ortiqchalik — bu ifoda vositalarining ko'payishi emas, balki mazmuniy ta'sirchanlikning ko'payishidir. U ijodkorning estetik niyatini ro'yobga chiqaruvchi, o'quvchining psixologik idrokini faollashtiruvchi va kommunikativ ta'sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matn stilistik/lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganish barqaror yo'nalishga aylangan; bu yo'nalishning shakllanish tarixiy ildizlari bilan birga, XX asr oxiri va XXI asr boshida tizimli tahlillar (fonetik–leksik–morfologik–sintaktik) darajada boyidi. Mirzayev va Karimov ishlarida she'riy nutqda so'z tartibi, qofiya, misra ko'chishi, kiritma, inversiya kabi birliklarning poetik funksiyalari izchil yoritilgan; bu yondashuv ortiqchalik tejamlilikning matn hosil qilishdagi o'rni va kommunikativ samarasini ochishga metodik asos beradi. Shu kontekstda adabiyotimizda tejamlilik–ortiqchalik diapasoni alohida tadqiqiy obyektga aylangan: ellipsis va antiellipsis (pleonastik ortiqchalik) munosabatlari, takror–parallelizm–parsellatsiya–kiritma–inversiya kabi sintaktik hodisalar badiiy-estetik "ta'sir kuchi" bilan bog'lab tahlil qilinadi. Demak, ortiqchalikni lingvopoetik ekspressiya manbai sifatida ko'ruvchi oqim bilan lingvopragmatik oqim o'zaro tutashadi: ortiqcha qurilmalar faqat "ko'paytirilgan forma" emas, balki maqsadli ta'sirning (emotiv, fatik, perlokutiv) rejalashtirilgan formalashtiruvchisidir.

Shamsiyeva psixolingvistik nuqtayi nazardan takror/ortiqchalikning idrok jarayonida stabilizator va emotsional kuchaytirgich sifatida ishlashini ko'rsatadi: ortiqcha (parallel) tuzilmalar retseptor e'tiborini muayyan "dominanta"ga yo'naltiradi, hissiy rezonansni oshiradi va kognitiv qabulni mustahkamlaydi. Bu natija she'riy matnlarda ortiqchalikning pragmatik tabiati (adresantning niyati → adresatdagi ta'sir) bilan bevosita mos keladi: ortiqchalik "ma'no ortig'i" emas, ta'sir ortig'idir. Adabiyotdagi asoslar (lingvopoetika, ellipsis/antiellipsis, so'z tartibi, kiritma, takror va b.)ga tayanib, she'riy matnda sintaktik ortiqchalikni quyidagicha operatsion belgilash mumkin.

Takror: bir xil sintaktik qolipning ketma-ket (yoki uzilishli) qaytarilishi (anaphora, epiphora, simmetrik parallelizm).

Qavatlash (pleonastik ikki martalik belgilash): negatsiya, determinatsiya yoki shaxs/son ko'rsatkichlarining semantik jihatdan allaqachon ifodalangan komponent bilan ortiqcha moslashuvi (mas., "yana qayta...", "butkul to'liq..." kabi grammatik ekvivalentlikni oshirish).

Parsellatsiya va kiritma: gap bo'laklarining parsellyativ ajratilishi yoki kiritma-konstruksiyalar orqali qo'shimcha interpretiv izoh berish (mazmunni takroriy "yoritish").

Inversiya + parallelizm: odatiy tartibni buzib, keyingi satrda ayni struktura bilan "ikki tomonlama" fokus yaratish (ritmik-pragmatik urg'u).

Funksional (pragmatik) mezonlar: emotiv kuchaytirish (intensifikatsiya): hissiy amplitudani oshirish, lirik "men"ning holatini markazlashtirish.; Fatik tutashuv: o'quvchi bilan aloqa kanalini ushlab turish (takrorlar vositasida ritmik "aloqa signali").; Perlokutiv ta'sir: o'quvchini ma'lum xulosaga, hissiy javobga, rezonansli idrokka undash (dominanta yaratish).

Adabiyotda Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Cho'lpon kabi shoirlar ijodlari misolida takror/parallelizmning poetik individuallikni yaratishi ko'rsatilgan; bu — ortiqchalikni "ekspressiv kuchaytirgich" sifatida talqin qiluvchi yondashuvni mustahkamlaydi. Shamsiyeva ko'rsatgan psixolingvistik mexanizmlar esa shu ekspressiv effektning retseptor ongida qanday ishlashini

izohlaydi (e'tibor jamlanishi, hissiy rezonans, xotirada saqlanish). She'riy matnlarda sintaktik ortiqchalikning lingvopragmatik xususiyatlari shundan iboratki, ortiqcha formalarning (takror, parallelizm, parsellyatsiya, kiritma, qavatlash, inversiya) qo'llanishi adresantning niyatini perlokutiv ta'sirga aylantiradi: ular ritmik simmetriya va semantik dominantaga hosil qilib, hissiy intensivlikni, fatik aloqa barqarorligini va xotiralanuvchanlikni oshiradi; natijada ortiqchalik "ma'no ko'paytmasi" emas, balki ta'sir ko'paytmasiga aylanadi. Bunday qurilmalar miqdoriy (frekventsiya, joylashuv) va sifat (emotiv, fatik, estetik) ko'rsatkichlar bilan aniq kodlanishi, so'rov asosida retseptor idroki bilan korrelyatsiyada tekshirilishi va lingvopoetik dalillar bilan verifikatsiya qilinishi lozim. She'riy matnlarda sintaktik ortiqchalikning lingvopragmatik xususiyatlari, bir tomondan, ijodkorning psixolingvistik holatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, o'quvchi bilan kommunikativ aloqani mustahkamlaydi. Ortiqchalik poetik nutqda estetik ta'sir, emotsional chuqurlik va ma'nodagi ko'p qatlamlilikni yuzaga keltiradi. Shu bois, o'zbek she'riyatida tahlilida sintaktik ortiqchalikni shunchaki stilistik hodisa emas, balki lingvopragmatik jarayon sifatida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Masalan, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasida quyidagi ritorik so'roqlar tahlil uchun asosiy manba bo'ldi:

O'rdilar sho'rlik boshingdan

O'ynatib shamshirlarin

Necha qoon, necha sulton,

Necha ming xon, o'zbekim.

She'riy matnlarda sintaktik ortiqchalikka asoslangan ritorik so'roq gaplarning lingvopragmatik funksiyasi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu turdagi sintaktik birliklar faqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki emotiv, ekspressiv va interaktiv maqsadlarni amalga oshiruvchi kommunikativ vosita sifatida ishlaydi. She'riy nutqda ritorik so'roqlar bevosita javob talab qilmaydi, balki o'quvchini fikrlashga, muallif hissiyotiga hamnafas bo'lishga undaydi.

O'zbek tilshunosligi uchun muhim nazariy va amaliy xulosa beradi: sintaktik ortiqchalikni lingvopragmatik tahlil doirasida o'rganish badiiy nutqni chuqurroq idrok etish, shoirlik uslubini lingvistik modellashtirish hamda poetik kommunikatsiyaning psixologik asoslarini yoritishda samarali metodologik yondashuv ekanligini tasdiqlaydi. Kelgusida bu yo'nalishda sintaktik ortiqchalikning turli janrlardagi (nasriy, dramatik) nutqdagi o'ziga xosligi, shuningdek, multimodal (audio–vizual) poetik idrokda roli ustida qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova, O.S., & Bekmuradova, I.Z., "O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish masalalari," *Ilmiy Axborotnoma*, vol. 6, no. 130, pp. 4–8, 2021.
2. Shamsiyeva, M., "Psixolingvistik analiz sotsializatsii rebenka," *Til va madaniyat, Lingvistika*, vol. 1, no. 1, pp. 75–86, 2023.
3. Yusubova, R., "Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari," PhD dissertation. –Toshkent, 2020.
4. Ibragimova, F., "Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis," PhD dissertation. –Toshkent, 2011.
5. Umirova, S., "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she'riyati misolida)," PhD dissertation. – Samarqand, 2019.

Zarifa NORMURODOVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

EPITETLARNING BADIY MATN STILISTIKASIDAGI O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada epitetlarning badiiy matn stilistikasidagi o'rni va ularning estetik-ta'sirchanlikni oshirishdagi funksiyasi tahlil qilinadi. Epitetning badiiy ifoda vositasi sifatidagi imkoniyatlari, uning leksik-semantik xususiyatlari hamda matnning obrazlilik darajasini belgilashdagi roli yoritiladi. Tadqiqotda epitetlarning shakllanish mexanizmi, ularning nutqiy va poetik matnlardagi ma'no ko'chishlari, shuningdek, individual muallif uslubini namoyon etishdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada o'zbek adabiyotidagi namunaviy badiiy matnlar asosida epitetlarning stilistik vazifalari, badiiy-estetik qiymati aniqlangan.

Kalit so'zlar: *epitet, stilistika, badiiy nutq, poetik til, obrazlilik, ekspressivlik, estetik ta'sir.*

Annotation: this article analyzes the role of epithets in the stylistics of a literary text and their function in increasing aesthetic and expressiveness. The possibilities of the epithet as a means of artistic expression, its lexical and semantic properties, and its role in determining the level of figurativeness of the text are highlighted. The study analyzes the mechanism of formation of epithets, their meaning transference in spoken and poetic texts, as well as their importance in expressing the individual author's style on a scientific basis. The article identifies the stylistic functions and artistic and aesthetic value of epithets based on exemplary literary texts in Uzbek literature.

Key words: *epithet, stylistics, artistic speech, poetic language, imagery, expressiveness, aesthetic impact.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль эпитетов в стилистике художественного текста и их функция в повышении эстетичности и выразительности. Раскрываются возможности эпитета как средства художественного выражения, его лексико-семантические свойства, а также его роль в определении уровня образности текста. В исследовании на научной основе анализируются механизм образования эпитетов, передача их смысла в устных и поэтических текстах, а также их значение в выражении индивидуально-авторского стиля. В статье на примере образцовых художественных текстов узбекской литературы выявляются стилистические функции и художественно-эстетическая ценность эпитетов.

Ключевые слова: *эпитет, стилистика, художественная речь, поэтический язык, образность, выразительность, эстетическое воздействие.*

Badiiy matn tilining asosiy xususiyatlaridan biri uning obrazlilik va ifoda ko'lamining boyligidir. Shubhasiz, til vositalarining turli shakllarda, xususan, stilistik maqsadlarda qo'llanishi matnning badiiy-estetik qiymatini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, epitetlar badiiy nutqning eng muhim ifoda vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat predmet yoki hodisaning belgi alomatlarini aniqlashtiradi, balki muallifning individual dunyoqarashi, emotsional munosabati va estetik didini ham namoyon etadi.

Epitet badiiy tasvir vositasi sifatida matnda obrazlilikni kuchaytiradi, so'zning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchida muayyan hissiy ta'sir uyg'otadi. Shu bois, epitetlarning stilistik tahlili badiiy matnni chuqurroq anglash, muallif uslubining o'ziga xos jihatlarini ochib berish imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy o'zbek adabiyotida epitetlarning qo'llanishi

yangicha poetik tamoyillar asosida shakllanmoqda. Epitetlarning semantik, sintaktik va stilistik imkoniyatlarini o'rganish, ularning badiiy nutqdagi funksional yukini aniqlash bugungi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim ilmiy-amaliy masalalar sirasiga kiradi.

Badiiy nutqda qo'llaniladigan barcha so'zlar ma'lum darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so'z matnda o'ziga xos ma'no ifodalaydi, voqea yoki hodisaning tasvirini ifodalaydi. Ma'lumki, tilda tasviriylikni vujudga keltiradigan maxsus vositalar bo'lib, ular fikrini obrazli ifodalash asosida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Buyuk va atoqli adabiyotshunos P.Qodirov ta'kidlaganlaridek, "haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning o'rniga ham so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi

uning ohanglar, chiziq, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi"¹. Ko'rinadiki, badiiy asarlarda qo'llaniladigan so'zlar kuchli bo'yoqqa ega bo'lishi, fikr ta'sirchan, obrazli, o'quvchiga zavq bera olishi muhim. Albatta, ijodkor bunday bo'yoqdor vositalardan o'z o'rnida foydalanishi ham asar saviyasida alohida ahamiyatga ega. Shunday vositalar qatorida epitet ham munosib o'rin tutadi. Epitetlar matnda oddiygina belgi, voqea-hodisani ifodalamaydi, balki unga ta'sirchan ifoda beradiki, badiiy matnni epitet tasavvur etish qiyin kechadi. Epitetning tasviriy vosita sifatidagi muhim jihati shundaki, u predmetga xos yoki xos bo'lmagan belgi-xususiyatlarni aniq ajratib ko'rsatish orqali voqelikni kishi ko'z o'ngida to'laqonli gavdalandiradi. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi parchani keltiramiz: *Olis safarlarga ketayotganida Farhod Ramazonning samolyotda mizg'ish odati bor edi. Bu gal sira ko'zi ilinmaypti. Dam-badam xayol olib qochadi, tizginsiz, parishon xayollar.* (E.A'zam. "Shovqin") Keltirilgan matndagi *tizginsiz, parishon so'zlari* epitet hosil qilgan bo'lib, xayolning tarqoq, yig'ilmagan, jilovlanmagan kabi ma'nolari bilan obrazli tasvirning mahsuli sifatida hosil bo'lgan. Epitet vositasida kelgan so'z faqatgina matnga joziba beribgina qolmasdan, inson ruhiyatini tasvirlashda ham qo'llaniladi. *Showvozning so'zlari Shoqosimga bamisoli zaharli qamchi bo'lib tegdi-yu, shartta o'rnidan turib ketdi.* (O.Yoqubov. "Oqqushlar, oppoq qushlar...") Misolda zaharli so'zi epitetga uchragan bo'lib, g'azablangan, jahli chiqqan kabi ma'nolarni ifoda etib, inson ruhiy holatini ifoda etishga xizmat qilgan. Epitet tropning bir turi bo'lib, unga badiiy obrazlilikni ta'minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan.

Kvintilian poetik va umumnutq epitetlar o'rtasidagi farqni tushuntirib beradi. Uning fikricha, prozaik epitet bir xil nomga ega bo'lgan ikkita obyektidan birini boshqasidan ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan, nasriy asarlarda uchraydigan ikkita bir xil ismli Don nomini, asarda qaysi biri haqida gap ketayotganini izohlash uchun "katta" va "kichik" so'zlarini qo'shib aniqlik kiritish zarurligini tushuntiradi². Bu epitetning izohlovchi degan ta'rifiga mos keladi. Badiiy epitetlar ko'p o'rinlarda individual so'z qo'llanilishining namunasi bo'lib, ifodadagi favquloddalik, yangilik, emotsional-ekspressivlikning

kuchayishi uchun imkon yaratadi. Bunday epitetlar orqali narsa-hodisa kishi xayolida obrazli gavdalanadi. Badiiy epitetlar ko'pincha ma'no metaforik asosda yoki o'xshatish-sifatlash asosida vujudga keladi. Badiiy matnlardagi epitetlarni tahlil qilish shunday xulosaga olib keldiki, epitetlarning metaforik epitetlar turi ko'proq poetik asarlarga xos bo'lib, nasriy asarlarda bu tur u darajada faol emas. Shu boisdan nasriy matnlarda epitetlarning badiiy so'zlar asosida vujudga kelgan ko'rinishlari ma'no xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Badiiy epitetlar nutqqa pardo berish, predmetlarning xarakterli tomonlarini badiiy bo'yoqdor holda ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Epitetlarning bu turi emotsional-obrazlilikning kuchlilik bilan farqlanadi.

Epitet narsa-hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida ta'riflash vositasida bajaruvchi tasviriy vositadir. Epitet tasviriy vositalarning xarakterli ko'rinishi bo'lib, predmetlarning o'ziga xos tomonlarini, sifatlarini aniqlab, bo'rttirib ko'rsatadi. Epitet mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo'lib, aniqlovchilardan emotsional-ta'sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. Muhimi shuki, epitetlarning yuzaga kelishida ham muayyan qiyos amali ishtirok etadi. *Shamol bosilgan...Tabiat xomush* (H.G'ulom). Epitet vazifasidagi xomush so'zi xafa, g'amgin, mahzun kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ammo misolda sokin, tinch kabi ma'nolari bilan akslanadi. O'quvchida hazin, o'yg'a cho'mdiradigan kayfiyatni hosil qiladi.

Tilshunoslikda epitet, adabiyotshunoslikda sifatlash deb yuritiladigan bu tasviriy vosita badiiy nutq uchun xarakterli bo'lgan vositalardan biridir. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida bu tasviriy vosita xususida fikrlar yuritilgan ishlar talaygina³.

Epitet hodisalarni obrazli idrok etilishi natijasida vujudga keladigan ko'rinishdir. M.Mirtojiyev epitetning nutqiy hodisa ekanligini e'tirof etib, so'zlar mavjud leksik ma'nosining bir semasini bilan voqealanganda, biror belgi o'xshashligiga ko'ra hosila ma'no yuzaga kelganda, epitet hosil bo'lishini ta'kidlaydi⁴. Badiiy so'z ijodkorlari asarlarining muhim qirralarini ochib berishda obrazli vositalardan unumli foydalanishning ahamiyati katta. Chunki so'z vositasida san'at

1 Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. Адабий асар. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 312.

2 Античные теории языка и стиля. – Л.: Огиз, 1936. – С. 166.

3 Тўрабекова С. Тил ва услуб. –Т., 1963.15-25- б. Лапасов Ж. Бадий матн ва тахлил. – Т., 1995.

4 Миртожиев М. Ўзбек тили семасологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.77- б.

darajasidagi asarlarni yaratish ijodkordan mahorat talab etish bilan birgalikda zimmasidagi mas'uliyat hamdir.

Keyingi yillarda tilshunoslikda poetik hodisalarning mohiyatini, o'zaro ichki munosabatlarini o'rganish uchun bir qadar shart-sharoit vujudga keldi. Tilning ta'sir ko'rsatish vazifasi badiiy adabiyot tilida yorqin namoyon bo'ladi. Badiiy asarlar matnida har bir so'z ijodkor maqsadi va mahoratiga ko'ra turlicha jilvalanadi. Badiiy asar tilining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan alohida tahlillar she'riy misralarda o'ziga xos tasviriy vositalar tizimini yaxlit va ichki o'zaro mutanosib munosabatda o'rganish imkoniyatini beradi. Turkiy tillarda, jumladan, qadimgi yozma yodgorliklarda epitet tasvirlash vositasi sifatida qo'llanganligi e'tiborni tortadi. Badiiy nutqda epitetlar obrazlarga joziba beradi, obrazli tushunchalarni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birgalikda, badiiy tilni yorqinlashtirib, har bir tushunchaning tasviriy bo'yoqqa ega bo'lishini ta'minlaydi. Epitetlar qo'llanilishiga va stilistik funksiyasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Umumnutq epitetlar. Epitetning bu turi nutq uslublarining deyarli barcha turlarida ishlatiladi. Shunga ko'ra, bu turdagi epitetlar oddiy aniqlovchiga o'xshaydi. Umumnutq epitetlari majoziy ma'noda qo'llanilmaydi. Masalan: mayin ovoz, qora qosh. Bunday epitetlarga ko'plab misollar uchraydi. Ayniqsa, publitsistik uslubda ham keng qo'llaniladi.

2. Badiiy epitetlar. Yozuvchi, san'atkor, shoirlar individual qo'llashlariga xos bo'lganligi uchun unda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuchli bo'ladi. Ular tilning barcha nutq uslublarida qo'llanilmaydi. Bu turdagi epitetlar, asosan, badiiy adabiyotda, qisman publitsistikada qo'llaniladi. Rasmiy va ilmiy uslubda qo'llanmasligi bilan umumnutq epitetlaridan farqlanadi. San'atkorlar bunday epitetlardan foydalanib, narsa va hodisani obrazli gavdalantiradi. Masalan: Biroq, unga boqdi-yu, endi uning horg'in, lekin nurli yuzi

o'zi o'ylaganchalik ta'sir etmadi (Sh. Xolmirzayev). Bunday epitetlar ta'sirchanlikni oshiribgina qolmasdan, obrazlarning ruhiy kayfiyatini ochishda ham ishlatiladi. Har bir ijodkorning nasriy asarlarda epitet qo'llash uslubi turlicha bo'lib, Sh.Xolmirzayev asarlarida qahramonlarini jonli tasvirlash, ijobiy xarakter-fazilatlarining eng tarbiyaviy xususiyatlarini ochish uchun qo'llanilgan. B.Yo'ldoshev Said Ahmad asarlarida qo'llanilgan epitetlarni tahlil etib, yozuvchi asarlarida epitet yo'li bilan salbiy obrazlarni yaratganligini qayd etadi. G'afur G'ulom ijodida qo'llanilgan epitetlar g'oyaviy va emotsional funksiyani ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuni aytish mumkinki, nazm va nasrda qo'llanilgan epitetlar bir-biridan farqlanadi. Nazmda she'riy ritmning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatilsa, nasrda tabiat hodisalari, narsa-buyum, predmetlarga xos xarakterli belgilarni, insonlarga aloqador holatlarning badiiyatini oshirish uchun ham foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, epitet badiiy nutqning eng muhim stilistik vositalaridan biri bo'lib, u matnning obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta'sirchanligini ta'minlaydi. Epitetlar nafaqat predmet yoki hodisani belgisini ifodalaydi, balki muallifning hissiy munosabati, estetik qarashi va individual uslubini ham aks ettiradi. Badiiy matnda epitetlar orqali so'zning semantik doirasi kengayadi, tasviriylik kuchayadi va o'quvchining idrokini boyitib, yanada chuqur badiiy taassurot hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Epitetlarning stilistik tahlili badiiy matnning ichki tuzilishini, muallif uslubining o'ziga xos xususiyatlarini, mahoratini ko'rsatishga hamda til vositalarining badiiy imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, epitetlarning badiiy nutqdagi funksional va estetik rolini o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. Адабий асар. – Тошкент: Фан, 1978. 416-б.
2. Античные теории языка и стиля. – Л.: Огиз, 1936.334-с.
3. Тўрабекова С. Тил ва услуб. –Т., 1963.97-б.
4. Лапасов Ж. Бадий матн ва таҳлил. – Т., 1995.87-б.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.288-б .

Dilsora ZOKIROVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail:zokirovadilsora@gmail.com.

SOMATIZM TUSHUNCHASI VA UNING TILDA AKS ETISHI

Annotatsiya: o'zbek tilida somatizm tushunchasi inson tanasi qismlarining nomlari orqali ifodalanuvchi leksik birliklarni anglatadi, ular tilning qadimiy qatlamini tashkil etadi. Somatizmlar tafakkur va jismoniy tana o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ko'rsatadi hamda tilning madaniy-milliy xususiyatlarini aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada somatizmlarning kognitiv, semantik va madaniy jihatlari hamda "inson" va "odam" so'zlarining etimologiyasi hamda ularning til madaniyatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: somatizm, somatik leksika, inson tanasi, kognitiv tilshunoslik, madaniyat va til, inson so'zi, odam so'zi, etimologiya, til va tafakkur, madaniy-milliy xususiyatlar.

Annotation: this article discusses the concept of somatism in the Uzbek language, defining somatism as lexical units denoting human body parts, which form an ancient layer of the language. Somatisms demonstrate the intricate connection between human cognition and the physical body, serving as vital means for reflecting cultural and national characteristics of language. The study analyzes cognitive, semantic, and cultural aspects of somatisms, along with the etymology of the words "inson" (human) and "odam" (man) and their influence on language culture.

Key words: somatism, somatic lexicon, somatic vocabulary, human body, cognitive linguistics, culture and language, the word, The word (man/person), etymology, language and cognition/thought

Аннотация: статья рассматривает понятие соматизма в узбекском языке, где соматизмы — это лексические единицы, обозначающие части человеческого тела, составляющие древний слой языка. Соматизмы демонстрируют тесную связь между мышлением и телом, являясь важным средством отражения культурно-национальных особенностей языка. Анализируются когнитивные, семантические и культурные аспекты соматизмов, а также этимология слов «инсон» и «одам» и их влияние на языковую культуру.

Ключевые слова: соматизм, соматическая лексика, соматический словарь, человеческое тело, когнитивная лингвистика, культура и язык, слово, слово (человек/личность), этимология, язык и познание (мышление)

Kirish. So'nggi yillarda til va tafakkur hamda til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni o'rganish ilmiy doirada yanada chuqurroq tadqiq etilmoqda. Tilshunoslar va madaniyatshunoslarning fikricha, tilning milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish nafaqat til ilm-fani taraqqiyoti uchun, balki inson tafakkuri va madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushunishda ham asosiy ahamiyatga ega.

V. fon Gumboldt tilni ijtimoiy jarayon sifatida ko'rib, uning milliy shakli orqali mavjudligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, har bir xalq o'z tilida voqelikni o'ziga xos tarzda aks ettiradi va shu yo'l bilan madaniyatini ifodalaydi [1:448]. Bu fikr til va millat, til va madaniyatning bir-biriga mustahkam bog'langanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Sh.Safarov tilning inson tafakkurini shakllantirishdagi roli haqida yozar ekan, til inson uchun doimiy rivojlanish va o'sish manbai bo'lib, uning tafakkur jarayonlarida bevosita ishtirok etishiga urg'u beradi [1:344]. N.Karaulov esa tilni inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yashovchan tizim sifatida tasvirlaydi va uni til yaratuvchisi bo'lgan inson bilan uzviy bog'langan holda tahlil qilinishi muhimligini ta'kidlaydi [1:264]. Bilim olish insonning kognitiv faoliyatida muhim iz qoldiradi. Har bir xalqning kognitiv jarayonlari keng bilan universal, shuningdek, o'ziga xos tajriba sohalaridan iboratdir. Bu turlicha bilimlar hamda tajribalar til orqali ifodalanadi. Professor Sh.Safarov bu vazifani shunday ta'riflaydi: "Insonning

tafakkur qobiliyatini shakllantiradigan va boyitadigan manba – til. Til inson uchun ustuvor vosita bo'lib, uning tafakkurida va faoliyatida doimiy ravishda namoyon bo'ladi" [1:344]. N.Karaulov fikricha, tilni to'liq tushunish inson – til yaratuvchisi, foydalanuvchisi mavjudligi bilan bevosita bog'liq [1:264].

Somatik leksika inson tanasi qismlarining nomlari o'z ichiga oladi, tilning qadimiy leksik qatlamiga mansubdir va tilshunoslar uchun uzoq vaqt davomida izlanish obyekti bo'lib kelmoqda. Bunday leksika atrof-muhitning realiyalari, tananing ontogenetik va funksional xususiyatlari hamda keng ramziy ma'nolarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Somatizm til va tafakkur orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Tilshunoslarning fikricha, somatizmlar tafakkur va jismoniy tana o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni aks ettirib, tilning keng qamrovli ma'nolarini ifodalaydi va inson haqidagi bilimlarni til yuzasiga olib chiqadi [1:23;1:81;1:73-76].

Somatik leksikaning nomi yunon tilidagi "sōma" (tana) so'zidan kelib chiqqan. Tilshunoslikda bu atama birinchi marta F.Vakk tomonidan eston tilidagi frazeologizmlar tadqiqotida ishlatilgan. XX asrning ikkinchi yarmida somatizmga bo'lgan qiziqish yuzaga kelib, uning lingvomadaniy ahamiyati yanada o'rganila boshlandi. Somatizmlar universal bo'lib, har qanday tilning madaniy-milliy xususiyatlarini, shuningdek inson

tanasining umumiy anatomiya xususiyatlarini aks ettiradi[1:23;1:48].

Ham o'zbek, ham ingliz tillarida somatizmlar, tilning kognitiv-semantik va madaniy tuzilishi orqali inson olamining dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiradi. Turli xalqlarning atrof-muhit va voqelikka bo'lgan qarashlari til birliklari orqali kognitiv jihatdan tasvirlanadi va tahlil qilinadi[1:75-102;1:48].

Tilshunoslik nazariyasi somatizmlarni inson tafakkuri va jismoniy tanasi o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ifodalovchi til hodisasi sifatida ko'radi. Bu leksik birliklar inson haqidagi murakkab bilim va tushunchalarni til yuzasida namoyon qiladi, inson konseptini boy va ko'p qirrali shakllarda ifodalaydi[1:73-76].

Til va tafakkur munosabatining yana bir qirrasini inson so'zining ma'nosini tashkil etadi. "Inson" so'zi arab tilidagi "insān" (إنسان) so'zidan o'zlashgan bo'lib, aql, iroda va jamiyatda muloqotga muhtoj mavjudot ma'nolarini bildiradi. Diniy va madaniy kontekstdan kelib chiqqan holda so'z ildizida yaqinlik, do'stlik va unutulchanlik ma'nolari mavjud [1:671].

"Odam" so'zi ham arab tilidan, ya'ni "Ādam" (آدم) so'zidan olingan bo'lib, islom, yahudiylik va nasroniylikda birinchi inson nomi bilan bog'liq. Arabchadan oldin ibroniy tilidan qabul qilingan "Adamah" ("yer" yoki "tuproq") so'zi esa insonning yerga bog'liqligini bildiradi, bu esa insonning tabiat bilan uyg'unligi va mavjudligining asosiy jihatidir. U turkiy tillardagi "kişi", "erkak" kabi so'zlardan farq qiluvchi, semit ildizdan kelib chiqqan [1:687].

Bugungi kunda o'zbek tilida "inson" va "odam" so'zlari sinonim sifatida keng qo'llanilyapti, ammo ular o'zaro semantik va uslubiy farqlarga ega. Bu so'zlarning turli madaniy va etimologik ildizlari inson haqidagi tushunchaning ko'p qirrali va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi [1:671;1:687].

Xulosa qilib aytganda, somatizm tushunchasi tilshunoslik va madaniyatshunoslikda yuqori ahamiyatga ega bo'lib, inson tanasining qismlari nomlaridan kelib chiqqan leksik qatlam sifatida insonning kognitiv va madaniy-ma'naviy dunyosining ifodasini ta'minlaydi. Somatizmlar tilning milliy o'ziga xosligini ifodalashda muhim vosita bo'lib, inson haqidagi so'zlar – "inson" va "odam" – esa o'zaro talaffuz va ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, turli etimologik ildizlar va madaniy moonsiyalarga ega bo'lib, tilning madaniy qatlamini boyitadi.

Ushbu maqola so'nggi ilmiy tadqiqotlar asosida somatizm tushunchasi va inson haqidagi tushunchalarning til orqali aks etish jarayonlarining kognitiv, semantik va madaniy-ko'p qirrali tahlilini taqdim etdi. Inson tafakkuri va tanasining tilda ifodalanishi til va madaniyat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni yoritdi, shuningdek, tilning milliy va universal xususiyatlari o'rganildi.

O'rganishlar natijasida ko'riladiki, somatizmlar faqat tillarning qadimiy qatlami bo'libgina qolmay, balki ular inson haqidagi bilish jarayonining til shaklida ifodalangan muhim vositalaridan biridir. "Inson" va "odam" so'zlarining etimologik ildizlari va ularning til madaniyatidagi roli insonning boshqa tillarda ham xilmaxil kognitiv tasavvurlariga xizmat qiladi hamda ular tilga boy ma'no qatlamlarini olib kiradi.

Bu boradagi tadqiqotlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv fanlarga integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi, bu esa tilning yanada chuqurroq, tizimli va madaniyat bilan chambarchas bog'liq ko'rinishini o'zida jamlaydi. Tilshunoslikdagi so'nggi yondashuvlar somatizmlarni til va tafakkur o'rtasidagi integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib, ularning kognitiv, semantik, stilistik va madaniy kontekstlarda o'rganilishini ta'kidlaydi. Masalan, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, insonning dunyoni anglash uslubi til orqali shakllanishini ko'rsatadilar[1:75-102].

Kelgusida ushbu sohada olib boriladigan izlanishlar nafaqat til tarixini va madaniy moslashuv jarayonlarini yoritadi, balki inson kognitiv potensialining tilda qanday aks etishini o'rganishda ham muhim qadam bo'ladi. Shunday qilib, somatizm tushunchasi va uning tildagi aks etishi o'zaro uyg'unlikda insonning tillar va madaniyatlar bilan munosabatini yanada keng va mukammal tushunish uchun muhim ilmiy platformani tashkil etadi[1:23-102;1:671-687].

Demak, somatizm nafaqat leksik birlik, balki madaniyat va tafakkur o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi tamoyil hisoblanadi. Inson tanasining tilda aks etishi uning kognitiv jarayonlarining sintetik ifodasi bo'lib, til milliy va universal qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab ijtimoiy-hissiy-madaniy vosita sifatida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва: Школа "Языки русской культуры", 1998. 768-с.
2. Адхамжоновна И.М., Ибрагимова Э.И. Соматизмы в формировании языковой картины мира // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. Vol.4. Is.12.
3. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. 264-с.
4. Вакк Ф.Э. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. 23-с.
5. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Опыт исследования. – Москва, 1997. 824-с.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-ж. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" ДИН, 2006.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-ж. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" ДИН, 2007.

Ra'no NEKBOYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
Qashqadaryo, Qarshi, Uzbekistan
e-mail: ranonekboyeva@gmail.com



FITONIMIK LEKSIKANIING ETIMOLOGIYASI VA MA'NOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada fitonimik leksikaning etimologiyasi va ma'nolari o'rganilgan. Maqolada o'simlik nomlarining kelib chiqishi, ularning denotativ va konnotativ ma'nolari hamda tillararo ta'sirlar tahlil qilingan. Maqola fitonimik leksikaning madaniy va tilshunoslik ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *fitonimik leksika, etimologiya, ma'no, o'simlik nomlari, metafora, tillararo ta'sir.*

Аннотация: в статье исследуются этимология и значения фитонимической лексики. Анализируются происхождение названий растений, их денотативные и коннотативные значения, а также межъязыковое влияние. Статья подчеркивает культурное и лингвистическое значение фитонимической лексики.

Ключевые слова: фитонимическая лексика, этимология, значение, названия растений, метафора, межъязыковое влияние.

Annotation: this article examines the etymology and meanings of phytonymic lexicon. It analyzes the origin of plant names, their denotative and connotative meanings, and cross-linguistic influences. The article highlights the cultural and linguistic significance of phytonymic lexicon.

Key words: *phytonymic lexicon, etymology, meaning, plant names, metaphor, cross-linguistic influence.*

Kirish. Til har doim inson madaniyatining muhim qismi bo'lib, unda o'simlik nomlari, ya'ni fitonimik leksika katta ahamiyatga ega. Fitonimik so'zlar orqali xalqning tabiat bilan bog'lanish usullarini, tarixiy rivojlanish jarayonlarini anglash mumkin. Shuningdek, ularning etimologiyasi tilshunoslikda so'zlarning kelib chiqishini va semantik o'zgarishlarni o'rganishga imkon yaratadi. Ushbu maqola fitonimik leksikaning asosiy tushunchalari, ularning etimologik ildizlari hamda ma'nolari haqida muhokama olib boradi.

1. Fitonimik leksika tushunchasi va tasnifi. Fitonimik leksika — tilning o'simliklarga oid so'zlar majmui bo'lib, ular o'simlik dunyosining tili sifatida muhim o'rin tutadi. Aliyev (2015) ta'kidlashicha, fitonimik so'zlar tabiiy va madaniy muhiti o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi:

“Fitonimik leksika nafaqat o'simlik nomlarini, balki ular bilan bog'liq madaniy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi” [1, 27-bet].

Fitonimik so'zlarni ularning maqsadlariga qarab tasniflash mumkin. Oddiy fitonimik birliklar — o'simlikning aniq nomlari, masalan “olma”, “sholi”. “Fitonimik leksikaning ko'p qismi struktura va ma'no

jihatidan murakkab, chunki ular kontekstga bog'liq ravishda o'z ma'nolarini kengaytiradi” [2, 45-bet].

Maxsus tadqiqotlarda fitonimik leksikaning lingvistik va madaniy tahliliga alohida e'tibor qaratilgan (Smith, 2010).

2. Fitonimik so'zlarning etimologiyasi. Etimologiya so'zlarning kelib chiqishini o'rganadi va fitonimik so'zlar xalq madaniyati, geografik sharoitlar, tillararo aloqalar ta'sirida shakllangan. O'zbek tilida ko'plab fitonimik so'zlar boshqa tillardan o'zlashtirilgan. Masalan, “bodom” so'zi forscha ildizga ega va so'zning o'zbek tiliga kirib kelganligi ana shunday jarayon natijasidir (Sobirov, 2017):

“Bodom” o'zbek tiliga fors tilidan kirgan bo'lib, uning ilmiy ko'rikdagi yoritilishi fitonimik leksikaga oid asosiy o'rganishlardan biridir [4, 62-bet]. Shuningdek, “choy” so'zi hind tilidan o'zbek tiliga kirib, endi o'simlik nomi va ichimlik nomi sifatida madaniy kodga aylangan (Qodirov, 2020):

“Choy so'zi o'simlikdan olingan, lekin uning rivojlanishi jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi” [5, 89-bet].

Bu kabi misollar fitonimik leksika tillarning o'zaro ta'siri orqali qanday boyib borayotganini ko'rsatadi (Johnson, 2013).

3. Fitonimik so'zlarning ma'nolari. Fitonimik so'zlar o'ziga xos semantik strukturaga ega. Ularning asosiy ma'nolari denotativ (asliy, to'g'ridan to'g'ri) va konnotativ (qo'shimcha, his-tuyg'ular bilan bog'liq) bo'linadi.

Denotativ ma'no. Denotativ ma'no — bu o'simlik nomining lug'atdagi, asosiy va aniq belgilangan ma'nosi bo'lib, u o'simlikning real hayotdagi obyektiga to'g'ri keladi. Ya'ni, denotativ ma'no so'zning o'simlik dunyosidagi haqiqiy, ilmiy yoki kundalik hayotda qabul qilingan nomini anglatadi. Masalan, “daryo qirrasidagi qoraqush” — bu o'simlik nomlari to'plami emas, balki aynan o'sha hududda o'sadigan, o'ziga xos xususiyatlari bor aniq o'simlik nomidir (Aliyev, 2015). Bu ma'no so'zning asosiy, denotativ funksiyasini ifodalaydi va lingvistik tizimda ko'proq indeksatsiya vazifasini bajaradi.

Shuningdek, denotativ ma'no o'simlik nomining biologik, morfologik va ekologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'simliklarni aniq ajratish va tasniflashda muhimdir. Masalan, “olma” so'zi faqat bitta mevali daraxt turiga oid nomni bildiradi, shuning uchun bu so'z o'zining denotativ ma'nosida fan va mintaqaviy lug'atlarda bir xilda tushuniladi.

Konnotativ ma'no. Konnotativ ma'no — bu o'simlik nomining denotativ, ya'ni asosiy lug'at ma'nosidan tashqari, madaniy, hissiy, ramziy yoki estetik ko'rinishda anglatgan fikr va hissiyotlar majmui. Bu ma'no o'simlikning til va madaniyat doirasida egallagan o'rni, odamlarning qarashlari, urf-odatlar, afsonalar hamda badiiy tasavvurlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Misol uchun, o'zbek tilidagi “gul” so'zi denotativ ma'noda o'simlik — ma'lum bir ekologik sharoitda o'sgan go'zal o'simlikni anglatadi. Ammo uning konnotativ ma'nosi yanada kengroq va murakkabdir.

“Gul” so'zi madaniy va badiiy tafakkurda go'zallik, iffat, mehr-muhabbat va noziklik timsoli sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, “gul” atamasi o'zbek adabiyotida inson qalbining nozik va noaniq his-tuyg'ularini ifodalovchi metafora sifatida keng tarqalgan (Karimova, 2018):

“O'zbek adabiyotida gul ko'pincha, inson qalbining nozik va noaniq his-tuyg'ularini ifodalashda metafora sifatida ishlatiladi” [2, 78-bet]. Bu konnotativ ma'no, odatda, badiiy matnlar, she'riyat, xalq og'zaki ijodi va kundalik nutqda o'ziga xos ramziy vazifa bajaradi. Masalan, “guldek go'zal” iborasi insonning tashqi ko'rinishi yoki ruhiy holatini tasvirlashda ishlatiladi va bu atama his-tuyg'ularning estetik qiyofasini beradi.

Metaforik va frazeologik ma'nolar. Fitonimik leksikaning yana bir qismi frazeologizmlarda keng qo'llaniladi. Masalan, “chigitday” so'zi kichkina o'lchamni ifodalash uchun ishlatiladi (Qodirov, 2020):

“Metaforik ishlatish fitonimlarning leksik semantikasini yanada boyitadi” [5, 115-bet].

Fitonimik leksikaning tillararo o'zaro ta'siri. O'zbek tilida fitonimik so'zlarning ko'pchiligi boshqa tillardan kirib kelgan. Turkiy tillar, fors va arab tillari bilan bog'lanishlar so'zlarni boyitgan (Sobirov, 2017):

“Tillararo almashinuv o'zbek fitonimik leksikasining kelib chiqishida muhim omil hisoblanadi” [4, 44-bet].

Xulosa. Shunday qilib, fitonimik leksika o'simlik nomlari bilan bog'liq bo'lib, ularning etimologiyasi til tarixidan, madaniy aloqalardan hamda tabiiy muhitdan ajralmasdir. O'simlik nomlari faqatgina tilning leksik tarkibini boyitibgina qolmay, balki xalqning doimiy yashash muhiti, qadriyatlar va madaniyati bilan chambarchas aloqadordir. Fitonimik so'zlarning kelib chiqishi ko'pincha milliy va xalqaro tillararo aloqalar jarayonida shakllangan bo'lib, ular turli tillar o'rtasida so'z almashinuvi va madaniy ta'sir ko'rsatishning muhim ko'rsatkichidir. Shu bois, fitonimik leksika nafaqat lingvistik, balki antropologik va etno-lingvistik kontekstlarda ham o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev D. Fitonimik leksikaning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2015. 112-b.
2. Karimova N. O'zbek tilidagi o'simlik nomlari etimologiyasi. – Toshkent, 2018. 89-b.
3. Smith J. Plant Names in Language and Culture. Cambridge University Press, 2010. 210-p.
4. Sobirov A. Tillararo leksik ta'sirlar. – Samarkand, 2017. 76-b.
5. Qodirov L. O'zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent, 2020. 134-b.
6. Johnson M. Language and Botanical Terms. Oxford University Press, 2013. 320-p.

Umidaxon USMONOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

ZAMONAVIY O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ERGONIMLARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya: o'zbek tilshunosligida ergonimiya, unung onomastik tizimda tutgan o'rni, lisoniy xususiyatlarini tadqiq etishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Ergonimlarni lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini ularning hududiy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniy tadqiq, pragmatik tadqiq, struktur-semantik tadqiq, qurilish agentligi, ijtimoiy tarmoq.*

Аннотация: в современной узбекской лингвистике растёт интерес к изучению эргонимии, её места в ономастической системе и языковых особенностей. Лингвистические особенности эргонимов требуют их исследования в территориальном аспекте.

Ключевые слова: *лингвокультурологическое исследование, прагматическое исследование, структурно-семантическое исследование, строительное агентство, социальная сеть.*

Annotation: in modern Uzbek linguistics, interest in studying ergonymy, its place in the onomastic system, and its linguistic features is increasing. The linguistic and extralinguistic characteristics of ergonyms require their study from a regional perspective.

Key words: *linguoculturological research, pragmatic research, structural-semantic research, construction agency, social network.*

Bugungi kunda obyektlarni davlat tilida va milliy an'analardan kelib chiqqan holda nomlashni tartibga solish uchun yangi bir soha - davlat tilida nomlash tizimi yaratilmoqda. Mazkur tizimni huquqiy tomondan tartibga solish, nomlashni davlat tilida amalga oshirishga hukumat darajasida e'tibor qaratilyapti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martda qabul qilingan "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 144-sonli qarori¹ sohaning rivojlanishi uchun huquqiy asos vazifasini o'taydi. Mazkur qarorga muvofiq savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga davlat tilida nom berish (neyming) xizmatini ko'rsatish Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martda qabul qilingan "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 144-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 17-martdagi 09/21/144/0214-son.

Bu borada M.Saparniyazovning izlanishlari diqqatga sazovor. Olima bu sohada ilmiy maqolalar yozish, monografik tadqiqotlar olib borish doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'zbek tilida neyming: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi ilmiy loyihaga rahbarlik qildi². O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan "O'zbek tilida neyming: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha yakuniga yetkazildi. M. Saparniyozova shu loyiha doirasida "O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi" mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya ishini ham amalga oshirdi³. Bu dissertatsiya ishi o'zbek tilshunosligida ergonimlarning o'rganilishiga bag'ishlangan birinchi monografik tadqiqot

2 Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. –T.: Ishonchli hamkor, 2021.132-bet.

3 Saparniyozova M. O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: филол. фан. ... д-ри ... (DSc) дисс. Автореферат – Toshkent, 2023.75-bet.

bo'lganligi sababli, biz o'rni bilan uning tahliliga murojaat qilib boramiz.

Ayrim tadqiqotchilar ergonimlarni dastlab funksional jihatdan ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya etadilar: ergonimning axborot funksiyasi va ta'sirchanlik xususiyati. Axborot funksiyasiga ega ergonimlar to'g'ridan-to'g'ri obyektning mohiyatini anglatuvchi (UrDU – Urganch davlat universiteti) nomlar bo'lsa, ta'sirchanlik xususiyati mavjud ergonimlar esa obrazli (“Visol” to'yxonasi), iste'molchiga ta'sir o'tkazishga asoslanadi⁴.

O.Shukurov Mustaqillik davri o'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarning evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalarini o'rgangan doktorlik dissertatsiyasida ergonimlarning bir ko'rinishi sifatida neymlar tadqiqiga alohida e'tibor bergan⁵. Ayniqsa, ishning “Neym neologizmlar biznes tilini yaratuvchi vosita sifatida” bo'limida ergonimlar va ularning qo'llanish xususiyatlariga oid tahlillarni ko'rish mumkin. Xususan, tadqiqotchining keltirishicha, neymlar murakkab vazifaga ega jarayon, munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli. “*UstaTop*” (qurilish agentligi) neym neologizmi ijtimoiy tarmoqlarda “tug'ilgan” va yoyilgan nomlardan, unda milliylik, originallik va zamonaviylik xususiyati mavjud. Milliyligi shundaki, neym tarkibidagi *usta* va *top(moq)* leksemalari xalqimizning umumiste'mol so'zlari doirasidan, faol so'zlar qatlamidan tanlab olingan. Usta so'zi genetik jihatdan forscha bo'lsa ham, bugungi kunda asl turkiy so'z bo'lgan topmoq singari tilimizga singishib ketganki, nisbiy ma'noda o'zbekcha (turkiy) so'zlar qatlami sifatida qabul qilinadi va oson tushuniladi: *ustatop* – mohir ustani top. Originalligi esa qo'shma so'zning ikkinchi a'zosi inglizcha so'z (*top – eng yuqori*) ma'nosida ham talqin qilinishi mumkin: *ustatop* – eng mashhur usta. Zamonaviyligi neymlar jarayonida inglizcha bo'lsa ham, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari uchun tanish va aytishga oson (*top*) so'zdan foydalanilgani. Muhimi, bunda xalq

tilidagi (usta) kalima yangi o'zlashma (*top*) so'z bilan derivatsiya hosil qilgan. Marketing sohasidagi neymlar jarayoni uchun aynan mana shunday neymlar kabi tilimizga yangi innovatsiyalar olib kirish vazifa sifatida qo'yilishi kerak⁶.

Tilshunos olim D.Lutfullaeva va M.Saparniyazovalar o'zlarining shu mavzuga bag'ishlangan maqolalarida neymlar shakllanib kelayotgan soha ekani, ularning muammo, yechim hamda istiqbollari haqida batafsil to'xtalib, munosabatlarini bildiradilar. Ular tilshunoslikda neymlar texnologiyasining lingvistik aspekti bilan bog'liq turli muammolari o'rganilayotganini bildirar ekan, quyidagi masalalar tahliliga jiddiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidlaydilar:

1. Har bir tilda shu tilning ichki imkoniyatlari asosida neym yaratishning lingvistik me'yorlarini belgilab berish.

2. Har bir tilning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda neym yaratishning lingvistik metodikasini ishlab chiqish.

3. Tildagi neymlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ularni tartibga solish.

4. Har bir tilda yangi neymlar zaxirasini yaratish⁷.

O.Shukurovning qayd etishicha, savdo maskanlarining statusi ularning maydoni, mahsulotlar qamrovi, mijozlarni qabul qila olish qobiliyati, zaxira fondining hajmi, o'ziga xos shart-sharoitlariga ko'ra ham farqlanadi. Ularning orasida faol qo'llanayotgan *supermarket*, nom tanlashda “*Havas*”, “*Baraka market*” kabi sanoqchilaridagina milliylik mezoniga amal qilingan. “*Baraka market*” kabi neymlarda atributlar juda muhim, “*savdo markazi*” tushunchasi “*market*” birligi orqali muayyanlashadi. Biroq “*Green apple market*”, “*Makro express*” kabilar o'z manba tilida qanchalik jarangdor bo'lmasin, tanlangan nom ham, uning belgi yoki holatini ifodalovchi birlik ham retsipiye xalqning kognitiv tafakkuridan uzoqda⁸.

6 Shukurov O. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarning evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri): filol. fan. ... d-ri ... (DSc) diss. – Qarshi: 2022. – 234 b.

7 Lutfullaeva D. Э., Сапарниязова М. Нейминг: тилда ном яратиш технологияси. // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. 6-сон (35). – С.7-16 <https://doi.org/10.36078/1613973541>

8 Shukurov O. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarning evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri): filol. fan. ... d-ri ... (DSc) diss. – Qarshi, 2022. 98-bet.

Ta'kidlanadiki, ma'nosini maxsus lug'atlar orqaligina bilish mumkin bo'lgan, biroq tanlashdan ko'zlangan maqsad mavhum "Carrefour" (fransuzcha chorraha), "Andalus" (o'rta asrlarda Ispaniyaga arablar tomonidan berilgan nom) kabi neym neologizmlar ham uchraydi. "Korzinka", "City market" "F-Market" neymlarida savdo tushunchasi bilan bog'liq ma'no tashiydigan leksik birlik mavjud. Muallifning fikricha, mazkur so'zlar baynalmilal xarakterga ega bo'lgani bois turli xil xalq vakillari tomonidan tez tushuniladi⁹.

⁹ Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarning evolutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri): filol. fan. ... d-ri ... (DSc) diss. – Qarshi, 2022.101-bet.

Neym neologizmlar, xususan, o'zlashayotgan shaxs nomlari dunyo tillarining madaniyatlararo globallashuvi sharoitida retsipiyent til nozik jihatlarining saqlab qolinishi bilan bog'liq muammolarni o'rta qo'yib chiqaryapti. Turkiy tillar doirasi o'z analoglari bilan istifoda etilayotgan, aynan tilimizda uning original shakli mavjud bo'lgan ayrim nomlar ham matbuotda ruscha yoki yevropa tillari grafik shakliga ergashib yozilyapti hamda shunday talaffuz qilinayapti¹⁰.

¹⁰ Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarning evolutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri): filol. fan. ... d-ri ... (DSc) diss. – Qarshi, 2022.101-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abelin A. Phonaesthemes and sound symbolism in Swedish brand names // Ampersand. Vol. 2. 2015. P. 19–29.
2. Абрамова Е. И. Аллюзия и языковая игра в англоязычных эргонимах / Е. И. Абрамова // Современные лингвистические и методико-дидактические исследования – 2018 – № 4. – С. 171–181.
3. Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – Москва: Высшая школа, 1978. 113 с.
4. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008. 168-bet.
5. Begmatov E. Ozbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 264-bet.
6. Березович Е.Л. Язык и традиционная культура: этнолингвистические исследования. – М.: Индрик, 2007. 599 с.
7. Bobojonov F. O'zbek tilida nomlash tizimi va neyming xizmati. // Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika 2-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. 229 – 232-bet.
8. Bughesiu A. English names of Pubs, Clubs and Cafes in Romania // British and American Studies. January 1. 2013. URL: <http://www.questia.com/read/1P3-32776>
9. Букчина Б.З. Слово на вывеске // Русская речь. – 1968. – № 3. – С. 49-56.
10. Бутакова Е. С. Лингвистическая креативность в томской эргонимии // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2013. № 3 (131). - С. 146-151.
11. Долганова А. Ю. процессы трансноминизации в эргонимии (на материале названий магазинов Ижевска) // Вестник Удмуртского университета: филологические науки 2006. № 5 (2). – С. 25 – 30.
12. Доржиева Г. С. Информационный потенциал эргонимов г. Улан-Удэ. // Межкультурная коммуникация: аспекты дидактики. Материалы межрегионального методического семинара – Улан-Удэ : Бурятский гос. Ун-т им. Доржи Банзарова, 2020. – С. 150–156.
13. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // Лингвистичні студії. Випуск 17. - Донецк: ДонНУ, 2008. – С. 302.
14. Эллууд Я. 100 приемов эффективного брендинга : пер. с англ. / Я. Эллууд; под ред. Ю. Н. Каптуревского – СПб : Питер, 2002. – 368 с.
15. Федотова Т. В. Репрезентация региональной идентичности в эргонимическом поле Кубани / Т. В. Федотова // Политическая лингвистика – 2016 – № 6 (60). – С. 85–90.

Latofat SHAMSIDDINOVA,
 Qarshi davlat universiteti
 O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi



QADIMGI TURKIY TILDA BOSH KIYIMNI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TAHLILI

Annotatsiya: o'zbek xalqining boy madaniy merosi, urf-odatlar va qadriyatlari orasida milliy liboslar alohida o'rin tutadi. Liboslar nafaqat estetik, balki ijtimoiy va madaniy ma'noga ham ega. Milliy kiyimlar xalq tarixini, yashash tarzini, iqlimini va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Shu bilan birga, ularning nomlanishida xalq tili, tafakkuri va etnik xususiyatlari chuqur aks etgan. Shuning uchun o'zbek milliy liboslarini lingvistik jihatdan o'rganish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *integral sema, leksik birlik, maishiy leksema, eski turkiy til.*

Аннотация: богатое культурное наследие, обычаи и традиции узбекского народа занимают особое место в его духовной жизни. Среди них национальные костюмы имеют особое значение. Одежда несет не только эстетическую, но и социальную, культурную ценность. Национальные наряды отражают историю народа, его образ жизни, климатические условия и мировоззрение. Вместе с тем в их названиях глубоко проявляются особенности народного языка, мышления и этнической самобытности. Поэтому лингвистическое изучение узбекских национальных костюмов считается одним из важных направлений языкознания.

Ключевые слова: *интегральная сема, лексическая единица, бытовая лексема, древнетюркский язык.*

Annotation: the rich cultural heritage, customs, and traditions of the Uzbek people occupy a special place in their spiritual life. Among them, national costumes hold particular significance. Clothing carries not only aesthetic value but also social and cultural importance. National attire reflects the history of the people, their way of life, climate, and worldview. At the same time, the names of these garments deeply reveal the characteristics of the people's language, thinking, and ethnic identity. Therefore, the linguistic study of Uzbek national costumes is considered one of the important areas of linguistics.

Key words: *integral seme, lexical unit, everyday lexeme, Old Turkic language.*

Milliy libos nomlari o'zbek tili leksikasining etnografik qatlamiga kiradi. Ularning ko'pchiligi turkiy ildizli, biroq tarixiy aloqalar natijasida arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashgan so'zlar ham mavjud.

Liboslar moddiy madaniyatning asosiy qismlaridan bo'lib, ularda shu xalqning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo'ladi. Har bir xalqning an'anaviy mashg'ulot turi

(dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hokazo), fasl va yoshdagi o'zgarishlar, hatto o'sha xalqning fe'l-atvoridagi nozik tomonlari ham kiyimlarda mujassamlashgan. Liboslar tarixning turli davrlarida bo'lgan o'zgarishlar barobarida o'zgarib borgan va o'sha zamonning in'ikosini o'zida aks ettirib turgan.

Liboslar insoniyat tarixining ilk davrlarida tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish vositalaridan

biri bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning vazifa doirasi kengayib, boshqa xususiyatlar ham kasb etdi. Liboslar insonni tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish bilan birga, uning ijtimoiy taraqqiyot faktorlari majmuini o'zida aks ettiruvchi, inson tanasini u yoki bu darajada berkitib, o'rab, bezab turuvchi predmetlar yig'indisidir.

Liboslar ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiy etgan sayin u ham taraqqiy etib, rivojlanib boradi. Insoniyat yillar davomida shakllanar ekan, liboslar ham sayqallanib, takomillashib boraveradi.

Liboslarning paydo bo'lishi haqida so'z borar ekan, jamiyat hayotida liboslarning turlarini yuzaga keltirgan turli ijtimoiy omillarni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Har qaysi xalqda, har bir millat yashagan joyning tabiiy sharoitlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq holda, turli mamlakat xalqlarining yonma-yon yashashi o'zaro moddiy va madaniy aloqalarning o'sishi natijasida kiyimlar, ularning bichilishi va hatto nomlari bir-biriga o'tishini ham ko'zda tutish lozim.

Yetti mingdan ziyod turfa leksik birliklarni qamrab olgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari Qoraxoniylar davri ilk eski turkiy til xususiyatlarini o'zida to'la-to'kis aks ettiruvchi noyob manbaligi bilan alohida qimmatga egadir. Lug'at so'z xazinasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy turmush tarziga oid leksemalar qatori maishiy hayot in'ikosini o'zida ifodalagan leksik birliklar ham mujassam etgan. Bu esa "Devon"da bir qancha maishiy leksemalarning qo'llanishda bo'lganligidan dalolat beradi. "Devon"da mavjud maishiy leksikani bir nechta mavzuviy guruhlariga ajratgan holda tahlil etish talab qilinadi. Mazkur maqolada ustki libos turlarini anglatuvchi leksik birliklar va ularning o'zbek, turk va qozoq tillariga munosabati haqida mulohaza yuritmoqchimiz.

Urg'ulash lozimki, umuman, libos "kiyim" integral semasi lug'atda *кэз*= "kiymoq" fe'lidan hosil qilingan *кэзгү* yasamasi bilan ifodalangan (I, 405). Shu o'rinda ushbu leksemaning ilk bor qadimgi turkiy tilga oid turfon matnlarida "kiyim" ma'nosini bildirgan *кэдгү тонанғу* juft so'zi tarkibida (DTS, 293), shuningdek, "Qutadg'u bilig" tilida ham ishlatilganini (DTS, 294) e'tirof etish kerak bo'ladi. Ayni chog'da bugungi o'zbek

tilidagi kiyim so'zining kedim, ke'zim, keyim fonetik shakllari Yusuf Xos Hojib asarida hamda Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq"ida qo'llangan (DTS, 293-295), biroq mazkur leksikaning "Devon"da qayd etmaganini ta'kidlash kerak. Tahlil etilayotgan umumlashtiruvchi sema "Devon"da yana ton leksemasi bilan anglashilgan: opraq ton "suzilgan, eskirgan kiyim" (I, 140). Ushbu so'z lug'atda shuningdek "to'n" ma'nosini anglatganligiga ham misol mavjud (III, 151). Bu jihat XI asrdan ton leksemasining farqlovchi semasi shakllana boshlaganligini ko'rsatadi. Garchi, dastlabki umumlashtiruvchi sema keyingi asrlar manbalari tilida ham yetakchilik qilgan bo'lsa-da, "qalpoq, bosh kiyimi" ma'nosi "Devon"da *бөрү*, *бүрү*= "berkitmoq, yopmoq, o'ramoq" fe'lidan yasalgan (ESTY, II, 222) berk so'zi bilan ifodalangan: *татсыз түрк болмас, баишсыз бөрк болмас* (I, 333). Umumturkiy xarakterdagi bu leksemaning paydo bo'lishi XI asr ilk eski turkiy til davriga to'g'ri keladi. Zero, u qadimgi turkiy til bitiglarida mavjud emas. Uni biz dastlab "Devon" qatori "Qutadg'u bilig" va keyinroq "Hibatul-haqoyiq"da uchratamiz.

Mahmud Koshg'ariy *бөрк*ning bir nechta turlarini lug'atda nomma-nom keltiradi. Jumladan, "uzun, mayin, oq echki yungidan qilingan oq qalpoq" semasi qiymach berk so'z birikmasi bilan ifodalangan. Qalpoqning o'ziga xos turini bildiruvchi bu so'z birikmasi chigillar tiliga xos bo'lgan. "Qaytarma qalpoq" *көтүрмө бөрк* (I, 452), "uzun (uchli) qalpoq" esa syqarloch berk (I, 454) so'z birikmalari yordamida ifodalangan. Kezi kelganda qalpoq va uning rang-barang xillarini tikuvchi qalpoqchining lug'atda berkchi (I, 62) yasamasi bilan atalganini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Berk leksemasi hozirgi qarindosh turkiy tillarda turli fonetik shikllarda va ma'nolarda o'z aksini topgan. Xususan, o'zbek tilida bo'rk "qishlik qalpoq, telpak" (O'TIL, I, 164), qozoq tili va dialektlarida *бөрік* "yupqa yungdan qilingan qalpoq", turk tilida vörük "bosh kiyimi", "ro'mol" ma'nosini ifodalashda davom etmoqda (ЭСТЯ, II, 222).

Tahlilga tortilayotgan asarlardan yana biri «Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'uliy» (qisqartirilgani «Tarjumon»)dir. Yodgorlik bitilgan joyda turkiy xalqlarning qipchoq, o'g'uz,

turkmanlar yashaganligi tufayli asarda ularning til xususiyatlari aks etgan. Asar muallifi o'z kitobida ko'proq qipchoq tiliga e'tibor berganligini ta'kidlab o'tadi. Asarning lug'at qismida yo'l-yo'lakay o'g'uz tili yoki turkman tiliga oid leksik qatlamlar sharh qilinadi. Muallif qipchoq, o'g'uz, turkmanlar o'rtasidagi fonetik farqlarni ko'rsatishga harakat qiladi, masalan, asarda bosh kiyim **кэбэш**— do'ppi, qalpoq deb berib o'tilgan.

O'zbek tilining o'g'uz shevasida bo'rk so'zining shuningdek "yopinchiq" ma'nosi ham voqelanadi. Demak, "ro'mol" va "yopinchiq" ikkilamchi ma'nolar ko'rilyotgan leksemaning birlamchi (dastlabki) ma'nosi negizida shakllangan va ularni "bosh va badan uchun yopinchiq" semasi birlashtiradi. Cho'ponlar tomonidan yomg'ir va qordan saqlanish maqsadida yopiniladigan yopinchiq "Devon"da **yap=** "yopmoq, berkitmoq" fe'li asosida yasalgan yaptach derivati bilan ifodalangan (III, 45). Mazkur leksema o'zga birorta obida tilida qo'llangan emas. Ikki yengi

kalta (qisqa) kiyim turi quloq ton birikmasi bilan anglashilgan (I, 365). "Quloq" ma'noli qulaq anatomik terminiga omonim hisoblanmish qulaq leksemasining etimologiyasini qisqa yenglarning ikki tomondan osilib turishining inson qulog'iga tashbeh qilinishi nuqtai nazaridan belgilash kerakka o'xshaydi.

O'zbek milliy liboslarining lingvistik xususiyatlari ularning xalq hayotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur ochib beradi. Libos nomlari xalq tili boyligini, tarixiy qatlamlarini va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ularning kelib chiqishi, so'z yasali shakllari, semantik o'zgarishlari va frazeologik qo'llanmalari o'zbek tilining boyligini ko'rsatadi.

Milliy liboslar til orqali xalqning dunyoqarashini, estetik didini va milliy g'ururini ifodalaydi. Shu sababli ularni lingvistik, etnolingvistik va madaniy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish o'zbek tili taraqqiyoti uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978. – 140 б.
2. Абуший Ҳасан Ато. Туркий қавмлар тарихи. –Тошкент: Чўлпон, 1993. – 240 б.
3. ДТС – Древнетюркский словарь. - Л.: Наука, 1969.
4. Karimov A. O'zbek xalq liboslari tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л.: Изд-во Академии Наук СССР, 1951. – 451 с.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960-1963. I. – 499 б.; II. – 427 б.; III. – 461 б.
7. Rasulov B. Etnolingvistika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2015.
8. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л.: Изд-во Академии Наук СССР, 1951. – 451 с.
9. ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков. I. - М.: Наука, II. 1974, II. 1978, III. 1980, IV. 1989, V. - М.: Языки русской культуры, 1997, VI. – М.: Индекс, 2000, VII. –М.: Восточная литература РАН, 2003.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
10. ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - М.: Рус тили, 1981.

Laylo MIRZOYEVA,
Termiz Davlat pedagogika instituti
Gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrasida
laylomirzoyeva38@gmail.com

MEHMONLARI ISHI TERMINLARINING FORMAL-STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada mehmonxona va mehmonlarni qabul qilish sohasida ishlatiladigan terminlarning formal va struktur xususiyatlari o'rganiladi. Terminlarning tarkibiy tuzilishi, morfologik shakllanishi, kelib chiqish manbalari hamda ularning o'zbek tiliga moslashuvi tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida terminlarning tasnifi va ularning ilmiy-texnik matnlardagi funksional yuklamalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, mehmonxona sohasi, struktur tahlil, tilshunoslik, o'zlashma so'zlar, soha terminlari, morfologik tuzilma

Аннотация: в данной статье изучаются формальные и структурные особенности терминов, используемых в сфере гостиницы и гостеприимства. Проанализированы структура терминов, морфологическое образование, источники происхождения и их адаптация к узбекскому языку. В процессе анализа на основе современных лингвистических подходов освещена классификация терминов и их функциональная нагрузка в научно-технических текстах.

Ключевые слова: терминология, гостиничная индустрия, структурный анализ, лингвистика, заимствованные слова, отраслевые термины, морфологическая структура

Annotation: this article examines the formal and structural features of terms used in the field of hotels and hospitality. The structural composition of terms, morphological formation, sources of origin, and their adaptation to the Uzbek language are analyzed. In the process of analysis, based on modern linguistic approaches, the classification of terms and their functional loads in scientific and technical texts are highlighted.

Key words: terminology, hotel industry, structural analysis, linguistics, borrowed words, industry terms, morphological structure

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda sohalarga oid terminologiyaning o'rganilishi til rivojining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mehmonxona xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalari til tizimida faol rivojlanib borayotgan yo'nalishlardandir. Ushbu sohalarda ishlatiladigan terminlar milliy tilga o'zlashtirilgan ekan, ular nafaqat semantik, balki morfologik va struktur jihatdan ham tahlil etilishi lozim bo'ladi. Chunki har qanday termin atama sifatida muayyan tushunchani ifodalash, aniqlik, ixchamlik va standartlik kabi mezonlarga javob berishi kerak. Mehmonlari ishi doirasida qo'llanilayotgan terminlarning aksariyati xorijiy tillardan kirib kelgan bo'lib, ularning o'zbek tiliga moslashuvi va shakllanishidagi struktur xususiyatlarni o'rganish tilshunoslik uchun dolzarb masalalardan biridir.

Mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohasida ishlatiladigan terminlarning katta qismi ingliz, fransuz, rus tillaridan o'zlashtirilgan. Misol uchun, "booking", "resepshn", "check-in", "check-out", "room service", "suite", "deluxe", "standard" kabi terminlar xizmat ko'rsatish jarayonida faol ishlatiladi. Ushbu terminlarning formal-struktur tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'zbek tiliga ko'pincha fonetik o'zgarishlar bilan, ba'zida esa to'g'ridan to'g'ri o'z holicha kirib kelmoqda.

Masalan, "reception" so'zi o'zbek tilida "resepshn"

shaklida fonetik jihatdan soddalashtirib qo'llaniladi. Bu termin o'z navbatida lotincha "recipere" — "qabul qilish" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, xizmat ko'rsatish binosining mijozlarni qabul qilish qismiga nisbatan ishlatiladi. Struktur jihatdan bu atama yagona so'z shaklida bo'lib, determinativ birlikni tashkil etadi.

Yana bir misol — "room service" atamasi tarkibiy jihatdan ikki komponentdan iborat bo'lib, "xona" + "xizmat" degan ma'noni anglatadi. Bu birikma o'zbek tiliga tarjima qilingan holatda ham ("xonaga xizmat") va asl shaklida ham qo'llaniladi. Ushbu holat tilshunoslikda sintaktik termin birikmalari sifatida baholanadi.

Formal-struktur tahlilda terminlar quyidagi ko'rinishlarda uchirashi mumkin:

– Yagona so'zli terminlar: suite, minibar, concierge
– Murakkab so'zli terminlar: self-service, housekeeping

– So'z birikmasidan iborat terminlar: front desk, customer service, reservation form

Bundan tashqari, mehmonxona terminologiyasida so'z yasovchi affiksalar yordamida yasalgan terminlar ham mavjud. Masalan, "reservationist" so'zi ingliz tilida "bandlov bilan shug'ullanuvchi shaxs" ma'nosini anglatadi va -ist affiksi orqali kasb egasini bildiradi. O'zbek tilida esa bu so'z "bandlovchi" tarzida tarjima qilinib, fe'lga qo'shimcha vositalar orqali yasalgan.

Terminlarning struktur jihatdan o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – ularning standartlashgan bo'lishi. Ya'ni, bu terminlar xalqaro darajada umumiy tushunchalarni bildiradi va tarjimada noto'g'ri qo'llanishi amaliy xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tilshunoslar va tarjimonlar tomonidan ushbu terminlarning ma'no, shakl va qo'llanilish sohalariga e'tibor qaratilishi zarur.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining tez rivojlanayotgani sababli, yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Ularning ayrimlari ingliz tilidan o'zlashtirilib, moslashuvi kechmoqda, boshqalari esa to'g'ridan to'g'ri milliy ekvivalentlar bilan almashtirilmogda. Bu holat o'zbek tilining terminologik salohiyatini boyitish bilan birga, lingvistik moslashuv jarayonlarini ham kengaytiradi. Mehmonxona sohasi terminlari til tizimida o'ziga xos qatlamni tashkil etadi.

Ular nafaqat semantik mazmuni bilan, balki struktur shakllanishi, morfologik o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Ularning ba'zilar tilda yagona birlik sifatida mustahkamlangan bo'lsa, ayrimlari murakkab tuzilishli bo'lib, ikki yoki undan ortiq leksik birliklar orqali ifodalanadi.

Terminlarning tarkibiy shakllari tilshunoslikda quyidagi toifalarda ko'rib chiqiladi:

— Kompozit terminlar: bu turdagi atamalar ikki va undan ortiq mustaqil so'zlardan iborat bo'lib, bir butun termin sifatida ishlatiladi. Masalan: front office, room cleaning, guest relation, customer feedback. Bu terminlarda har bir komponent o'z mazmunini saqlagan holda, umumiy tushunchani ifodalaydi.

— Affiksial terminlar: o'zbek tilidagi va o'zlashgan terminlar orasida affikslar yordamida yasalgan atamalar ham uchraydi. Masalan: receptionist (qabul qiluvchi shaxs), reservationist (buyurtmalarni qabul qiluvchi), housekeeper (uy xizmatkori), check-in va check-out terminlari tarkibida "in" va "out" predloglari orqali harakatning yo'nalishi bildirilmogda. Ular semantik va struktur birlikni tashkil qiladi.

— Qisqartma terminlar: xizmat sohasida qisqartmalardan keng foydalaniladi. Masalan, BB (Bed and Breakfast), HB (Half Board), FB (Full Board), VIP (Very Important Person). Bunday qisqartmalar o'zbek tilida ham so'zlashuv darajasida mustahkamlanib bormogda va ular ko'pincha yozma shaklda ishlatiladi. Struktur jihatdan ular analitik birliklar hisoblanadi, lekin funksional jihatdan yagona ma'no ifodalaydi.

— Termin metaforalari: ayrim terminlar metaforik asosda shakllangan bo'lib, ular aslida boshqa sohalardan ko'chirilgan, ammo mehmonxona xizmatiga moslashtirilgan. Masalan, key card (xona kaliti o'rniga ishlatiladigan magnit karta), sleep-out (mehmonxona buyurtmasi bo'lishiga qaramay, mehmonning tunab qolmasligi holati). Ushbu terminlar o'z ma'nosi va funksiyasiga ko'ra kontekstual tushunishni talab qiladi.

Fonetik moslashuv ham formal-struktur tahlilning muhim jihatlaridan biridir. Terminlar o'zbek tilida fonetik soddalashtirish orqali qo'llanilmogda: masalan, "reception" → "resepʃn", "concierge" → "konsyerj", "buffet" → "bufet". Bu kabi o'zgarishlar fonetik adaptatsiyaning tilga xos modelini namoyon etadi va tilni milliyashtirish jarayonining bir ko'rinishidir.

Shuningdek, terminlarning funksional yuklamasi ham ularning struktur shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, lobby, suite, standard room kabi atamalar nafaqat nom beruvchi birlik, balki xizmat turi, narx toifasi va mehmonxona darajasini bildiruvchi ko'rsatkich sifatida ham ishlaydi. Shuning uchun, bu terminlar soha mutaxassislari uchun aniq va tushunarli bo'lishi shart.

Qayd etish joizki, mehmonxona sohasi terminlarining o'zlashtirilishi va milliyashtirilishi ikki yo'nalishda kechmogda:

– xorijiy shaklda, original ko'rinishida ishlatilishi (masalan: check-out, lobby, deluxe)

– milliy leksik vositalar bilan ifodalanishi (masalan: bandlov, xonaga xizmat, ro'yxatdan o'tish).

Bu esa tilni boyitish va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik jihatdan esa bu holat terminlarning dinamikligi va moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mehmonlari ishi terminlarining formal-struktur tahlili ularning fonetik, morfologik va sintaktik shakllanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Terminlarning asosan, ingliz tilidan kirib kelayotganini, ayrimlarining o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirilayotganini kuzatish mumkin. Ularning tarkibiy tuzilishini aniqlash, lingvistik klassifikatsiyasini belgilash va milliy tilga moslashuvi til madaniyatining rivojlanishida muhim omildir. Soha terminlarini standartlashtirish, tarjima me'yorlarini ishlab chiqish va yangilanib borayotgan leksikaga mos ravishda qo'llash tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni
2. Tourism Industry in the World. M. Laylo.
3. Tojiboyeva M. "Til va termin: Muammo va yechimlar". Filologiya fanlari, 2021
4. Oxford English Dictionary (online version)
5. Crystal D. "The Cambridge Encyclopedia of the English Language". Cambridge University Press, 2019
6. Communicative language activities: Multidisciplinary reserches and management. LR. Mirzoyeva, 2022
7. Mehmonxonadagi terminlar. M.L. Rahmonovna. 2023.

Umida CHORIYEVA,
TerDU mustaqil izlanuvchisi

JAMILA ERGASHEVANING “AJDARKO‘L” QISSASIDA TABIAT QAHRAMON VA UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: maqolada Jamila Ergashevaning “Ajdarko‘l” qissasida inson va tabiat o‘rtasidagi ruhiy uyg‘unlik tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *inson, tabiat, uyg‘unlik, ruhiy kechinma, ramz, badiiy tafakkur, axloqiy inqiroz, poklanish, tabiat manzarasi, nafs, qahramon ruhiyati, psixologizm, estetik talqin*

Аннотация: в статье анализируется духовная гармония между человеком и природой в повести Джамилы Эргашевой «Аждаркул».

Ключевые слова: *человек, природа, гармония, душевные переживания, символ, художественное мышление, нравственный кризис, очищение, природный пейзаж, страсть, внутренняя жизнь героя, психологизм, эстетическая интерпретация.*

Annotation: the article analyzes the spiritual harmony between humans and nature in Jamila Ergasheva’s novella “Ajdarko‘l”

Key words: *human, nature, harmony, emotional experience, symbol, artistic thinking, moral crisis, purification, landscape, desire, character’s psychology, psychologism, aesthetic interpretation.*

Jamila Ergashevaning ijodiy uslubida qahramonning ruhiy kechinmalari bilan tabiat tasviri o‘rtasida kuchli semantik va psixologik aloqadorlik mavjud. Adib asarlarining badiiy tuzilmasida tabiat tasvirlari faqat manzara emas, balki kompozitsiyaviy element sifatida ishtirok etadi. Har bir asarda syujetning asosiy burilish nuqtalari aynan tabiat detallari orqali kuchaytiriladi yoki bevosita yo‘naltiriladi.

Asarda ijodkor biron-bir muammoni badiiy idrok etishga harakat qilayotgani doim ham ravshan sezilmaydi. Sababi, asarda tasvirlanayotgan narsa bilan idrok etilayotgan narsa boshqa-boshqa bo‘lishi, ijodkor o‘zi anglagan haqiqatni o‘zgacha yo‘sinlarda ifodalashi ham mumkin. Deylik, ijodkor o‘zi anchadan beri yecholmay kelayotgan, anglashga intilayotgan masalaning yechimini tabiat manzarasida, hayotdagi biron-bir holatda, hodisa va sh.k.larda ko‘rdi¹. Bu jihat yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Yozuvchining “Ajdarkul” qissasida ham tashqi manzara voqealar rivojiga xizmat qiladi, eng muhimi, bu manzara qahramonlar ichki dunyosining ifodasiga aylanadi.

“Ajdarko‘l” qissasi zamonaviy adabiyotimizda inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p

qatlamli munosabatlarni estetik-badiiy va falsafiy asosda talqin qilgan asar sifatida ajralib turadi. Asarda insoniy taqdir, hissiyotlar, qadriyatlar o‘zgarishi tabiat manzaralari, tabiiy hodisalar va hatto suv hayvonlari timsolida ramziy ifodalanadi. Ayniqsa, qahramonlar qalbi, ruhiy kechinmalari, orzu-armonlari tasviri va ular yashayotgan tabiiy manzara o‘rtasidagi ichki uyg‘unlik o‘quvchini estetik-mantiqiy mushohadaga undaydi.

Qissadagi Ibrohim obrazida mujassamlangan inson taqdirining tabiiy muhit bilan ziddiyatli va ayni paytda uzviy aloqasi ko‘zga tashlanadi. Ibrohimning ichki iztiroblari, nafi, o‘ksik armonlari va yo‘l qo‘ygan xatolari fonida chizilgan tumanli manzara, sovuq, xiralik, qorong‘ulik – bular barchasi tabiatda emas, avvalo qahramon ruhiyatida sodir bo‘layotgan iztiroblarning badiiy ekvivalentidir. Qissa boshida Ibrohim “shahar chetidagi oynavand do‘konining bir burchagida... tutundek tarqalayotgan tuman”² ga qarab o‘tiradi. Bu manzara uning ichki holatini aks ettiradi – u hayotining “tumanida”, noaniqlik va iztirob domida qolgan.

Ibrohim o‘z turmush o‘rtog‘i bilan yashayotgan bo‘lsa-da, qalbi o‘tmishdagi sevgisi – Gulxumor bilan bog‘langan. Gulxumor esa o‘z hayotidan

1 D.Quronov, Adabiyot nazariyasi asoslari, –Toshkent: «Navoiy universiteti», 2018. 38-bet

2 <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jamila-ergasheva/jamila-ergasheva-ajdarkol-qissa/>

ko'ngli to'lmagan, ruhiy jihatdan sindirilgan, ammo baribir o'ziga xos tabiiy go'zallik va iforni saqlab qolgan ayol obrazidir. Bu dard va iztiroblar fonida Ibrohim o'z hayotini o'zgartirmoqchi bo'ladi, ammo bu urinish katta fojiga sabab bo'ladi. Ibrohim xotini va uch nafar farzandi bor bo'lishiga qaramay, yashirincha Gulxumorga uylanish niyatida ancha vaqt xotini va farzandlariga e'tiborsiz holda, o'tkinchi his-tuyg'ular girdobida yashaydi. Kutilmaganda uyidagi nosoz elektr simlari tufayli o't chiqadi va butun uyi, xotini va ikki nafar qizalog'i yong'inda qolib vafot etishadi. Faqat o'g'li Jahongir omon qoladi. Ibrohim bu fojida o'zini, jilovlay olmagan nafsini ayblaydi.

Qissada oila, muhabbat, sadoqat, xiyonat, kechirim va fojia singari insoniy tushunchalar tabiat manzaralari orqali yanada kuchliroq ifodalanadi. Ayniqsa, asar boshida "tumanli oqshom", keyinroq "ko'zga ko'rinmas qorong'ulik", va nihoyat "o't o'chiruvchi mashinalar" paydo bo'lishi – bular Ibrohim hayotidagi halokatga aylangan burilish nuqtalarining tabiatda ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Uyining yonishi esa, tashqi falokatdan ko'ra, ichki halokat – axloqiy inqirozning jazosi sifatida talqin qilinadi. Ibrohim fojeadan so'ng, qishloqda qola olmaydi, yolg'iz qolgan o'g'li Jahongirni olib uzoqqa – Ajdarko'l nomli ko'l yonida yaqinda barpo etilgan shaharga ko'chib ketadi.

Asardagi ko'l obrazi oddiy tabiiy makon emas, balki inson aqlli, irodasi va xohishi bilan yaratilgan sun'iy tabiiy muhitdir. Bu holat quyidagi jumlada yaqqol ifodalanadi: "Oydinko'l erta bahorda boryo'g'i bir necha kun yashaydigan qizg'aldoqlarni hisobga olmaganida, saksovul-u shuvoqdan boshqa hech narsa unmaydigan cho'lu biyobonning o'rtasida bir bilgir odamning noyob aqlli bilan bu yerlarda ham paxta yetishtirish uchun Amudaryoning suvi hisobiga dunyoga kelgan sun'iy ko'l. To'ntarilgan moviy osmondek ajib bir manzara kasb etgan ko'l odamda rangi za'faron bemorning og'riqli tabassumiga o'xshash bir taassurot qoldirardi"³.

Bu satrlarda bir tomondan insonning tabiatga bo'lgan hukmronligi, suv resurslarini o'zgartirish yo'li bilan yangi hayot maydonlari

yaratishga bo'lgan intilishi aks etgan bo'lsa, boshqa tomondan bu "yaratilgan" go'zallikning g'ayritabiyligi, soxtaligini eslatuvchi achchiq taassurot ham mujassam. Ko'l haqida "to'ntarilgan moviy osmon", "rangi za'faron bemorning og'riqli tabassumi" kabi metaforalar bilan berilgan tasvir aynan shu ikkiyuzlamalikni ochib beradi: tashqaridan go'zal, ammo mohiyatan soxta, g'amgin va xira.

Bu manzara orqali yozuvchi insonning o'z ehtiyojlari yo'lida tabiatni o'zgartirishga uringani, ammo bu bilan uyg'unlik emas, balki buzilish sodir bo'lishi mumkinligini nazarda tutadi. Oydinko'lning g'amgin "tabassum"i aslida qahramonlar kechmish hayotining, ayanchli iztiroblarining va yolg'on tanlovlarining tabiatdagi aksidir. Ayniqsa, bu tasvir qissaning yakuniy dramatik holatlari – Ibrohimning orqaga qaytolmas iztirobi bilan uyg'un holda uyg'unlashadi. Shunday qilib, bu ko'l – inson bilan tabiat o'rtasidagi nomutanosiblik, insoniy orzularning muvaqqatligi va axloqiy tanlovlarning jazosi timsoli sifatida talqin etiladi. Bu manzara qissadagi umumiy g'oya – inson tabiat bilan uyg'un yashamasa, baribir ichki halokatga uchraydi degan fikrni chuqurlashtiradi.

Qissadagi yana bir muhim badiiy vosita – bu Chapdast va Qorako'z nomli akulalar obrazidir. Ular oddiy suv jonivorlari emas, balki insoniy tuyg'ular – muhabbat, erkinlik, sof niyat va uyg'unlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Ikkala akulaning o'yinqaroqligi, bir-biriga bo'lgan beg'ubor mehr-muhabbati, ularning "sho'rtang bahri ummondan juda olislarga olib ketilishi" – bular ham qissadagi insoniy fojining fonida turgan tabiatdagi ideallashtirilgan uyg'unlikni ifodalaydi. Ko'lda akulalar borligini bilgach, odamlar keyinchalik ko'lni "Ajdarko'l" deb atay boshlasa-da, bu nom tabiatdagi yovuzlik emas, balki odamzodning buzilgan axloqiy mezonlari, beandisha xatti-harakatlari, tabiatga zulmi sababli berilgan ramziy nomdir. Ajdar – bu yerda yovuz baliq emas, balki inson nafsidir.

Qissaning ayniqsa yakuniy sahifalarida tabiat obraz sifatida shunchaki manzara emas, balki dramatik voqealarning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi. Quyosh "ufqning alvon jilolarini qonga o'xshatib" botar ekan, bu tasvir faqat tashqi manzara emas, balki ota yuragidagi xavotir,

3 <https://ziyouz.uz/ozbek-nastri/jamila-ergasheva/jamila-ergasheva-ajdarko'l-qissa/>

gumon va fojia sezgisining badiiy timsolidir. O'g'li Jahongirning g'oyib bo'lishi ortidan Ibrohim ilk bor kechki payt suv bo'yiga boradi va u yerda o'zini "beomon, beshafqat mavjudot qarshisida" turgandek his qiladi. Bu yerda ko'l oddiy geografik obyekt emas, balki ruhiy-estetik kuchga ega obrazga aylanadi – u shafqatsiz, sukutli, tahlikali mavjudot sifatida ifodalanadi.

Qissa so'nggida tabiat, xususan, ko'l – ikki xil ma'noda: ajdar (halokat timsoli) va ona (hayot va kechirim ramzi) sifatida talqin etiladi. Ibrohim o'z bolasi yo'qolganidan keyin, ko'lga qarata beixtiyor yig'lab yolvoradi: "Ko'!! Elni boqqan ona ko'!! Onajonim! O'g'limni qaytarib ber! Yolg'izimni qaytar!". Bu iltijo faqat tabiat bilan emas, balki ilohiy mavjudot bilan bo'lgan dialogni ham eslatadi. Odam va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilganda, inson bu borliq qarshisida ojizligini anglaydi. Shundan keyin Ibrohim baliqlarga qarata kechirim so'raydi: "Baliqlar, baliqjonlar! Meni, bizni kechiringlar... O'g'limda sira gunoh yo'q, unga bu ishni men o'rgatganman". Qahramon tabiatni insonparvarlik mezonida tushunishga urinadi. Bu nuqtada tabiat shunchaki ko'rinish emas, balki ruhiy uyg'unlikka chorlaydigan kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Yakuniy sahnalarda Jahongirning daraxt ildizlariga chirmashgan holda tirik topilishi – tabiat bilan mutlaq uyg'unlik ramzidir. Ildizlar uni himoya qilgan, suv uni ko'targan, daraxtlar unga panoj bergan. Jahongirning hayotda qolishi inson va tabiat o'rtasidagi ziddiyatli bo'lsa-da, baribir bir-biriga bog'liq mavjudotlar ekanligini ko'rsatadi. Qissada o'zbek folkloriga xos *suvda dev bor, ajdaho yashaydi* kabi mifologik qatlamlar ham zamonaviy realistik badiiyat bilan qo'shilib ketadi.

Qissaning yakunida Ibrohimning so'zlari bu uyg'unlikni qat'iy ifodalaydi: "Sen Ajdarko'l emas, Oydinko'l, Onako'l ekansan. Baliqlar, sizlar ham bizni kechiringlar, sizga ham ming rahmat"⁴.

Qissaning oxirgi qismida esa yana tabiat, bu gal tinch va osoyishta Oydinkul tasviri sahnaga chiqadi. Bu manzara Ibrohim uchun orom, poklanish, yangi hayot ramzi bo'lsa-da, ayni paytda o'quvchi uchun boshqa bir akula oilasi – Chapdast va Qorako'z avlodlari yashayotgan, yana bir ehtimoliy fojialar ostonasidagi tabiiy makon sifatida anglashiladi. Yangi boshlanayotgan hayot ham sobiq xatolardan saboq olinmasa, o'ziga xos "ajdar"ga aylanishi mumkin.

Jamila Ergasheva "Ajdarko'l" qissasida inson va tabiat, qalb va makon, ruhiy halovat va jismoniy muhit o'rtasidagi uyg'unlik va ziddiyatni juda nozik badiiy tilda ochib bergan. Qahramonlar taqdiri orqali tabiat ham insoniylashadi, inson esa tabiiy kuchlar – tuman, qorong'ulik, yong'in, suv orqali o'zining axloqiy jazosi va ruhiy inqirozini boshdan kechiradi.

Holbuki, bizga ato etilgan tabiatda har bir narsa o'Ichovlik! Har bir narsa harir pardaga o'ralgan! Har bir narsaning o'z himoyasi yaratilgan! Eng yalang'och bo'lib ko'ringan narsalarning ham pardasi mavjud. Ko'rgan ko'z ko'radi. Ko'rmagan ko'z ko'rmaydi... Tabiatda hayo hukmron. Yashash zarurati shuni taqozo qiladi⁵. Adaiba "Ajdarko'l" qissasi orqali shu g'oyani ilgari suradi.

Adiba asarlarida syujet dinamikasi va tabiat detallarining o'zaro uyg'unligi orqali o'quvchi ruhiy holatni chuqurroq his qiladi. Ilmiy va amaliy jihatdan olib qaralganda, Jamila Ergasheva ijodi zamonaviy o'zbek nasrining chuqur psixologik va ramziy qatlamlarini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qahramon va tabiat uyg'unligi masalasini yoritishda u o'zining rang-barang uslubiy topilmalari bilan tanilgan. J.Ergasheva tabiatni realistik, estetik va ruhiy-psixologik element sifatida mujassamlashtira olgan yozuvchilardan biri sifatida o'ziga xos qalamga ega ijodkordir.

4 <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jamila-ergasheva/jamila-ergasheva-ajdarkol-qissa/>

5 I.G'afurov, Mangu latofat. – Toshkent: "Sharq", 2008.349-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Quronov, Adabiyot nazariyasi asoslari, – Toshkent, "Navoiy universiteti", 2018.
2. I.G'afurov, Mangu latofat. –Toshkent: "Sharq", 2008.

Internet manbalari

3. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jamila-ergasheva/jamila-ergasheva-ajdarkol-qissa/>

Behruz SHAMSIDDINOV,
 Sharof Rashidov nomidagi
 Samarqand davlat universiteti
 mustaqil tadqiqotchisi

ISAJON SULTON ROMANLARIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: roman janri o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Roman boshqa badiiy janrlardan voqelikni keng qamrovda, hayotiy voqealar va inson xarakterlarini obrazlar vositasida ifodalashi bilan ajralib turadi. Tarixiy romanlar esa bu tur ichida alohida o'rin tutib, tarixiy haqiqat va badiiy to'qimani uyg'unlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani ham tarixiy siymolarning badiiy talqinida yozuvchining o'ziga xos yondashuvini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, badiiy to'qima, tarixiy haqiqat, obraz, "Ikhlosiya", "Muqarrabi shohiy", ilmi ash'or.

Annotation: the novel genre occupies a special place in Uzbek literature as a product of artistic thought that has developed over the centuries. Unlike other literary forms, the novel represents reality on a broad scale through vivid artistic images that reflect life events and human character. Historical novels, in particular, hold a unique position within this genre by combining historical truth with artistic imagination. From this perspective, Isajon Sulton's "Alisher Navoi" exemplifies the author's distinctive approach to depicting historical figures.

Key words: historical truth, "Ikhlosiya", "Conquest", "Muqarrabi shahi", artistic fabric.

Аннотация: роман как жанр занимает особое место в узбекской литературе и является плодом художественного мышления, формировавшегося на протяжении веков. Роман отличается от других художественных жанров тем, что отражает действительность в широком охвате, изображая жизненные события и человеческие характеры через систему образов. Исторические романы занимают особое место внутри этого жанра, сочетая историческую достоверность и художественный вымысел. С этой точки зрения роман Исаджона Султана «Алишер Навои» демонстрирует самобытный подход писателя к художественной интерпретации исторических личностей.

Ключевые слова: исторический роман, художественный вымысел, историческая достоверность, образ, "Ихлосия", "Мукарраби шахий", наука о поэзии.

Mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati va ularning ma'naviy merosiga badiiy yondashuv sezilarli darajada kuchaydi. Bu jarayon milliy uyg'onish, tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechdi. Shu sababli, tarixiy mavzular, milliy o'zlik, ma'naviyat va millat qadriyatlarini badiiy ifodalash o'zbek nasrining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Yangi davr adabiyotida tarixga murojaat qilishning asosiy maqsadi — o'tmishdagi buyuk shaxslar timsolida xalqning ma'naviy qudratini ko'rsatish, ularning fikr va g'oyalarini zamonaviylik ruhida qayta talqin etishdir. Shu jihatdan Isajon Sulton ijodi o'zbek tarixiy romanchiligi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning asarlari, xususan, "Alisher Navoiy" romani tarixiy roman janrining estetik imkoniyatlarini kengaytirgan yirik badiiy tajriba sifatida alohida e'tirofqa loyiqdir. Yozuvchi tarixiy shaxslarni nafaqat tarixiy faktlar

doirasida, balki falsafiy-badiiy tahlil mezonlari asosida yoritadi. U tarixiy voqealarni oddiy xronologik ketma-ketlikda emas, balki inson ruhiyati, tafakkur evolyutsiyasi va zamon ruhi bilan uyg'un holda tasvirlaydi.

Isajon Sultonning romanlari uchun xos jihat — tarixiy shaxs obrazining biografik realizm darajasida emas, balki ma'naviy-ma'rifiy konsepsiya asosida talqin qilinishidir. Bu yondashuv orqali yozuvchi tarixiy shaxsni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hodisalari bilan birga, ma'naviy voqelik timsoliga aylantiradi.

Yozuvchining "Alisher Navoiy" romani ana shu badiiy qarashlarning ifodasi bo'lib, unda tarixiy voqealar voqelikdan uzilmagan holda, badiiy to'qima vositasida estetik darajada qayta yaratiladi. Romanda tarixiylik va badiiylik o'rtasidagi muvozanat saqlanadi, ya'ni muallif tarixiy faktlarni qat'iy saqlagan holda, ularni badiiy obrazlar vositasida yangicha estetik shaklga soladi.

Asar voqealari XV asrning murakkab siyosiy, ma'naviy va madaniy muhitida kechadi. Bu davr —

Temuriylar sulolasi inqirozi, ichki siyosiy kurashlar, lekin shu bilan birga, madaniyat va ilm-fanning yuksalish davri hamdir. Asar markazida buyuk mutafakkir, davlat arbobi va shoir Alisher Navoiy siymosi turadi. Uning atrofida esa o'z davrining yirik shaxslaridan bo'lgan Husayn Boyqaro, Shohrux Mirzo, Mir Said Kobuliy, Muhammad Ali G'aribiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Abulxayrxon, Shayboniyxon, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi tarixda iz qoldirgan siymolar badiiy obraz sifatida ishtirok etadi.

Bu obrazlarning romandagi mavjudligi nafaqat tarixiy voqealarni to'liq yoritishga xizmat qiladi, balki ularning har biri Navoiy shaxsining shakllanishida ma'lum darajada ma'naviy yoki ruhiy o'rin tutadi. Yozuvchi bu shaxslar orqali XV asr madaniy muhitini, insoniy qadriyatlar tizimini, ilm-fan va adabiyotning o'sha davrdagi o'rnini yoritadi.

Isajon Sulton tarixiy shaxslarni harakatchan, tafakkur bilan yashaydigan, o'z zamoni muammolariga befarq bo'lmagan insonlar sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy obrazi orqali yozuvchi insoniylik, saxovat, adolat, do'stlik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarini badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalaydi.

Romanda tarixiy haqiqat badiiy to'qima bilan uyg'unlashgan holda, o'quvchini o'sha davr muhitiga olib kiradi. Yozuvchi tarixiy faktlarni faqatgina qayd etmaydi, balki ularni zamonaviy inson tafakkuri bilan talqin etib, o'tmish va bugun o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ifodalaydi. Shu boisdan ham Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani o'zbek adabiyotida tarix va badiiyat tutashgan eng yuksak namunalar sirasiga kiradi.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani o'zbek adabiyotida tarixiy shaxs obrazini badiiy-falsafiy darajada talqin etishning yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Asarning asosiy badiiy tamoyillaridan biri – tarixiy shaxslarni idealizatsiya qilishdan voz kechib, ularni murakkab ichki dunyoga ega, ruhiy iztiroblar va insoniy ziddiyatlar bilan yashaydigan tirik obrazlar sifatida gavdalantirishdir.

Yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy to'qima bilan uyg'unlashtirar ekan, o'z e'tiborini shaxs psixologiyasiga, ruhiy kechinmalar va axloqiy tanlovlarga qaratadi. Shu jihatdan Isajon Sulton romani psixologik realizm unsurlari bilan boyitilgan tarixiy roman sifatida ajralib turadi. U tarixiy voqealar oqimini shunchaki tasvirlashdan ko'ra, ularning orqasidagi insoniy mohiyatni – inson ruhining o'sishi, izlanishi va o'zini anglash jarayonini ochib beradi.

Roman markazida turgan Alisher Navoiy siymosi yozuvchi talqinida nafaqat buyuk shoir va mutafakkir,

balki insoniy kamolot, ma'naviy izlanish, adolat va halollik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy obrazida milliy o'zlik, ma'naviyat va insoniylik g'oyalari mujassam. Yozuvchi uni ulug'lash yoki maqtash yo'li bilan emas, balki uning hayotiy qarorlarida, ruhiy holatlarida, jamiyat va insoniyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etishida ochib beradi.

Asarda Navoiy kamtarlik va ixlos timsoli sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, uning "Ixlosiya" madrasasiga nom berish sahnasi yozuvchining ma'naviy-estetik niyatini yorqin ifodalaydi:

"Toliblar ilm istab, ixlos ila kelgaydirlar, 'Ixlosiya' bo'laqolsin". (Sulton, 2021, 247-bet)

Bu satrlar orqali yozuvchi Navoiy shaxsida insoniy kamtarlik, niyat pokligi va ma'rifatga sadoqat kabi fazilatlarini badiiy obraz darajasiga ko'taradi. Navoiy obrazining bunday talqini uni "ulug' shoir"dan ham kengroq – "ma'naviy rahnamolik" darajasiga olib chiqadi.

Boshqa tomondan, roman voqealari va obrazlari orqali yozuvchi siyosiy kuch, do'stlik, sadoqat va insoniy burch masalalarini ham chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro obrazi bu jihatdan muhim badiiy vazifani bajaradi. U siyosiy hokimiyat timsoli sifatida tasvirlansa-da, yozuvchi uni faqat hukmdor emas, balki do'st, inson, shaxs sifatida ko'rsatadi. Navoiy va Boyqaro o'rtasidagi do'stlik rishtalari romanning ruhiy markazini tashkil etadi.

Bu munosabatda sadoqat va e'tiqod tushunchalari markaziy ahamiyat kasb etadi. Navoiy Boyqaroga nisbatan nafaqat do'st sifatida, balki ma'naviy ustoz va ruhiy yo'l boshchi sifatida qaraydi. Shu o'rinda yozuvchi tarixiy manbalarda qayd etilgan voqealarni badiiy talqin orqali falsafiy mazmun bilan boyitadi.

"Vaqti kelib, albatta, Hiriya qaytgaysiz. Eng katta darbozadan kirgaysizki, oti 'Fath' bo'lgay." (Sulton, 2021, 99-bet)

Ushbu epizod Navoiy donoligi, bashoratomadligi va ruhiy sezgirligini namoyon etadi. Shu bilan birga, bu so'zlar tarixiy haqiqat bilan badiiy to'qimaning mukammal uyg'unlashuviga misoldir. Boyqaroning keyinchalik taxtni qo'lga kiritishi bu badiiy epizodga tarixiy asos beradi, Navoiy bashoratining tasdig'i sifatida asarga ichki dramatism va falsafiy ohang bag'ishlaydi.

Isajon Sulton bu kabi sahnalar orqali o'zining asosiy badiiy maqsadini amalga oshiradi: u tarixiy voqeani emas, insoniy mohiyatni, ruhiy iztirobni, ma'naviy kamolot yo'lini tasvirlaydi. Shu bois "Alisher Navoiy" romani o'zbek tarixiy romanlarida "fakt" emas, "tafsir" markazida turgan asar sifatida alohida ahamiyatga ega.

Romanning badiiy-estetik qiymati shundaki, unda tarixiy shaxslar monumental ideal sifatida emas, balki insoniy haqiqat darajasida talqin etiladi. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy o'quvchini o'tmish bilan yangi ma'naviy aloqada birlashtiradi, tarixni inson ruhining abadiy makoni sifatida qayta anglashga undaydi.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'zaro uyg'unlikda tasvirlanadi. Muallif tarixiy faktlarga sodiq qolgan holda, ularni zamonaviy badiiy-estetik mezonlar asosida qayta talqin etadi. Shu jihatdan romanda tarix o'tmish voqealari ketma-ketligi sifatida emas, balki ma'naviy tajriba va ruhiy yod shaklida gavdalanadi.

Asarda har bir tarixiy shaxs o'z davrining ruhi, ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlari bilan yashaydi. Ularning hayot yo'li, ichki iztiroblari va orzulari orqali XV asr jamiyatining ruhiy manzarasi badiiy tarzda jonlantiriladi. Bu usul yozuvchining tarixni "his ettirish" tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi. Isajon Sulton tarixni faqat qayta hikoya qilmaydi – u o'tmishni emotsional, estetik va falsafiy holat sifatida idrok etadi. Shu boisdan ham "Alisher Navoiy" romani tarixni eslatadigan emas, balki uni tuyg'u, tasavvur va tafakkur orqali his ettiradigan asardir.

Romanda tarixiy voqealarning badiiy talqinidagi muhim estetik unsurlardan biri – shahar obrazining lirizatsiyasidir. Yozuvchi o'tmish shaharlarini – Samarqand, Hirot, Mashhad, Buxoro kabi markazlarni – shunchaki fon yoki tarixiy manzara sifatida emas, balki jonli, ruhiy holatga ega mavjudot sifatida gavdalandiradi. Bu yondashuv antropomorfizatsiya (shaharni insoniy fazilatlar bilan jonlantirish) usuliga yaqin turadi.

Masalan, Navoiyning Samarqanddan Hiriya qaytish sahnasida shahar tabiat va vaqt bilan uyg'unlikda badiiy talqin qilinadi:

"Nozu ne'matini ayamagan, zumrad kuzi, nuqra qishi, zabarjad bahoriyu simobiy yozi ila har turluk ne'matlarini beminnat tutgan Samarqand Hiriya fasohat bilimlarini olgan Alisherni o'z yurtiga olim qilib qaytarmoqda edi." (*Karimov, yuz.uz manbasi*)

Ushbu jumlar Isajon Sulton prozasiga xos lirizm, metaforik tafakkur va poetik sintaksisning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu yerda shahar mavjud, his etuvchi, saxovatli shaxs sifatida jonlantirilgan. Tabiat unsurlari ("zumrad kuzi", "nuqra qishi", "zabarjad bahori", "simobiy yozi") esa ramziy badiiy qatlamni tashkil etib, vaqt o'tishini, o'zgaruvchanlikni va hayotiy jarayonning uzluksizligini ifodalaydi.

Shahar obrazining bunday talqini yozuvchining tarixga bo'lgan estetik munosabatini namoyon etadi: tarix – bu faqat faktlar zanjiri emas, balki insoniyat xotirasining tirik organizmidir. Shu sababli Isajon Sulton shaharlar, joylar va tabiat manzaralarini insoniy ruhiy holatlar bilan uyg'unlashtiradi. Samarqand bu asarda Navoiy kamol topgan ilm, madaniyat va ezgulik o'chog'i sifatida gavdalanadi.

Isajon Sultonning tarixiy romanlari, xususan "Alisher Navoiy", o'zbek prozasida lirizatsiyalangan tarixiy nasr namunasini yaratdi. Bu yo'nalishda tarixiy haqiqatning o'rnini badiiy haqiqat egallaydi: fakt o'rniga obraz, xronologiya o'rniga his-tuyg'u, tarixiy tafsilot o'rniga ma'naviy mazmun ustuvor bo'ladi.

Shu tariqa, roman o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, tarixni badiiy tuyg'u darajasiga ko'targan epik asar sifatida qaraladi. Unda shaharlar, insonlar, tabiat va vaqt bir butun estetik tizimni tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani o'zbek tarixiy romanchiligi rivojida muhim bosqichlardan biridir. Asar orqali adib tarixiy shaxslar siymosini faqat tarixiy faktlar bilan emas, balki chuqur badiiy-falsafiy yondashuv bilan ochadi. Romanda Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va davlat arbobi, balki insonparvar, kamtarin va adolatparvar shaxs sifatida yodga olinadi.

Roman 2016–2020-yillar oralig'ida yaratilgan bo'lsa-da, o'quvchi uni o'qir ekan, XV asr muhitini, Navoiy davrining ruhi va tarixiy nafasi bilan yashaydi. Asar poetik tili, tarixiy faktlarning badiiy tahlili hamda obrazlarning hayotiylikiga ko'ra o'zbek adabiyotida salmoqli o'rin egallaydi. Shubhasiz, bu roman yillar o'tsa-da o'zining badiiy-estetik ahamiyatini yo'qotmaydigan durdona asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. –Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2021. 99-247-b.
2. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона, ФарДУ, 2001. – 100 б. 202
3. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtiromlar yoxud Insoniyat quyoshi ta'rifida bitilgan roman to'g'risida bir-ikki og'iz so'z. <https://yuz.uz>.
4. Nosirov A. Badiylik va hayotiy haqiqat. O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2001. 115-b.
5. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.

Jamshid ATAVULLAYEV,
BuxDPI o'qituvchisi
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDA A.P.CHEXOV IJODIGA ILMIY MUNOSABATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovning hayoti va ijodiga, asarlariga dunyo adabiyotshunoslarining tadqiqotlari asosida ilmiy – nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ifoda, Chexov, ijtimoiy, shaxsiy, murakkab yozuvchi, munosabat, o'xshashlik, tushunish, badiiy butunlik, Chexov asarlari va hokazo.

Аннотация: в статье представлен научно-теоретический анализ жизни и творчества великого русского писателя Антона Павловича Чехова, основанный на исследованиях мировых литературоведов.

Ключевые слова: художественное выражение, Чехов, социальное, личностное, сложный писатель, отношение, сходство, понимание, художественная целостность, произведения Чехова и др.

Annotation: this article presents scientific and theoretical analyses of the life and work of the great Russian writer Anton Pavlovich Chekhov, based on research by world literary scholars.

Key words: artistic expression, Chekhov, social, personal, complex writer, attitude, similarity, understanding, artistic integrity, Chekhov's works, etc.

Har bir buyuk san'atkorning ijodi mazmun va shakl jihatidan sifat jihatidan farq qiladi, chunki u doimo zamon tomonidan qo'yilgan savollarga ularni chetlab o'tmasdan javob berishga intiladi. Bunday jiddiy va dolzarb savollarga javob berish uchun o'tmishda to'plangan bilimlar yetarli emas, ularni o'tmishdagi badiiy shakllarda zamon bilan hamnafas bo'lmasdan tushunish va ifodalash mumkin emas. Shu munosabat bilan, rus adabiyotining yirik vakili Anton Chexov asarlarida hech bir satrni uzib olib bo'lmas badiiy butunlik mavjud.

Chexov rus adabiyotidagi eng murakkab yozuvchilardan biri sifatida tanilgan. Chexov hayotni tushunishni o'zlashtirdi va shu tariqa undan badiiy ifodada yuqori foydalandi. M. Gorkiy Chexov uslubining kundalik hayotning muloyim haqiqatini idrok etishga qaratilgan obyektiv mohiyatini to'g'ri ko'rsatdi va shu bilan birga, birinchi marta Chexovning obyektiv usuli bilan uning dunyo va inson haqidagi shaxsiy tushunchasi o'rtasidagi bog'liqlikni asosladi¹.

Eyxenbaum Chexov ishining o'ziga xosligini tarixiy inqiroz arafasida Rossiyaning g'ayrioddiy murakkab voqeligi bilan asoslab, uning asarlarida eng samimiy holatda butun Rossiya hayoti ochib berilganligi va o'tkir ijtimoiy-tarixiy mavzulardan iborat deb hisoblaydi. Eyxenbaumning fikricha, "voqelikni

tasvirlashning yangi va yanada mukammal usuli"ga, birinchi navbatda, "ijtimoiy va shaxsiy, katta va kichik o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish", "hikoyaning janr sifatida qisqaligi", "povestni muallif aralashuvidan ozod qilish" va "lirizm" orqali erishiladi. Shunday qilib, B.M. Eyxenbaum butun rus hayotini o'zining turli ko'rinishlarida har tomonlama qamrab olish istagini Chexov ijodining tib mohiyati deb hisoblaydi.²

1930-1950-yillardagi tadqiqotlar Chexov merosining ulkan ijtimoiy ahamiyatini e'tirof etgani kabi, 1950-1960-yillar oxirida va 1960-yillarda ham odamlar Chexov ijodining progressiv ijtimoiy mazmuni haqida gapirdilar va yozdilar. Shu sababli, Chexov aytgan mutlaqo yangi so'z, uni hech qanday o'xshashlik bilan qisqartirish mumkin bo'lmagan badiiy matnlar rus adabiyotida adabiy inqilob sifatida e'tirof etildi.

Derman, A.P. Skaftymova, G.A. Vyalog, Z.S. Paperny, N.Y. Berkovskiy, V.Y. Lakshin, G.P. Berdnikova, I.A. Gurvich va boshqalar Chexov ijodining ijtimoiy jihati uchun aniqroq formulalarni taklif qiladilar, Chexov va uning o'tmishdoshlari o'rtasidagi o'xshashlik va farq xususiyatlarini aniqlaydilar, yozuvchining g'oyaviy va ijodiy izlanishlarini ularning evolyutsiyasida tekshiradilar³.

¹ Катаев В. Б. Сто лет после Чехова: итоги и проблемы изучения // Литературоведение на пороге XXI века. М., 1998. С.459.

² Эйхенбаум. "О А.П.Чехова". "Звезда". Москва. 1944. No 5-6. С-75-79.
³ Горький М. Собр. соч. в 30 т., т. 23. С. 316. "Северный вестник". 1888. № 11. С. 86.

A.B.Dermanning “Chexov mahorati haqida” nomli kitobida Chexovning yangiligi, hikoyalari tili va kompozitsiyasining o'ziga xosligini nozik tahlil qilib, yozuvchining dastlabki hikoyalaridagi o'ta qiziqarli, ba'zan anekdotli syujetdan syujetsiz ko'ringan asarlarga o'tish sabablarini ochib beradi va Chexov hikoya va romanlarida poetik muhit yaratishning asosiy vositalarini alohida ta'kidlaydi. Tanqidchining Chexov ijodiy uslubining o'ziga xos jihatlari, xususan, uning lakonizmi yozuvchining faol, “mulohaza yurituvchi” o'quvchiga, subtekst yaratishdagi roli o'ta muhim bo'lgan asar ishtirokchisiga tayanishi bilan bog'liq degan fikri ahamiyatlidir.⁴

“Kompleksni tasvirlashning murakkabligiga ham, soddaligiga ham hech qanday zarar yetkazmasdan, soddta tasvirlash – bu faqat Anton Chexovga xos“, - deb haqli ravishda qayd etadi A.B. Derman⁵. So'zlariga ko'ra, A.B. Derman, Chexov syujet kuchi eng kuchli bo'lgan adabiy janrda - spektaklda deyarli to'liq syujet yetishmasligiga erishdi va bu yo'nalishda syujet yo'qligida yozuvchining kamoloti, uning hayotga tobora ko'proq sho'ng'ishi, kuzatishlar doirasining kengayishi va tibbiyot fanining ta'siri asosiy rol o'ynadi.

Chexov poetikasidagi kompozitsiyaning syujetning qisqaligi, kirish, taqdimotning ixchamligi va ochiq yakun kabi xususiyatlari, xususan, Chexovning asarni yakunlash evolyutsiyasi – o'quvchining hissiy reaksiyasi uchun hisoblangan ajablanish ta'siridan tortib, to'g'ridan-to'g'ri yakuniy poetikagacha alohidalik kasb etadi. Bundan tashqari, muallif asarning eng muhim lahzalarining g'oyaviy-falsafiy mazmunini yaratishda ishtirok etuvchi muhim vosita sifatida manzaraning roli, personajlar kontrasti va uslubning musiqiyliigi haqida to'xtalib o'tadi.

Chexovning yondashuvi yozuvchining amriga mos kelishi aniq: “Tasvirlar uchun materialni yuzadan emas, ko'zni qamashtiradigan joydan oling, lekin eng muhimi sezilmas va jiddiy e'tiborga loyiq emasligini yodda tutib, uni hayotning tubida oching”. Natijada, uslubiy tamoyilni “obyektivlik” deb tushunishga asoslangan Chexov ijodi sirlarining kalitini anglaysiz⁶.

I.A.Gurvich Chexov ijodida detallarning rolini, ularning assotsiativ aks-sadolarini va Chexov syujetining dinamikini o'rganishga katta e'tibor

4 Билински Я.С. О художественной системе Чехова // Чеховские чтения в Ялте: Чехов в меняющемся мире. М., 1993. С. 84—92.

5 Дерман Л. Б. О мастерстве Чехова. М., Искусство 1959;

6 Бердников Г. П. А.П. Чехов: идейные и творческие искания. М. Искусство. 1961;

berdi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchi Chexov asarida asosiy narsani syujetning ikkitomonlamaligi - hayotning qahramonga hujumi va qahramonning qarshiligi tufayli yaratilgan ichki dramada ko'radi: “Inson ustidan g'alaba qozongan vaziyat va muhit hikoyasi, go'yo yashirin, ammo muallifning o'zi bunga hech qanday munosabat bildirmaydi, bu adib ijodining qiymatini belgilaydi”⁷, -deb ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, muallifning “obyektivlik” poetikasidagi pozitsiyasini ifodalash usullari va vositalari syujet-kompozitsiya darajasida aniq qayd etilgan. Qiyosiy tadqiqot usuliga murojaat qilish orqali Chexov poetikasining xususiyatlarini oydinlashtirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Chexov o'z obyektivini xarakterning obyektivi bilan birlashtiradi - keyin esa maxsus taassurotning obyektivligi ta'siri, keyin bu linzalarni bir oz farq qiladi - va keyin qahramonning taassurotlari subyektiv sifatida qabul qilinadi va muallif tomonidan tashqaridan baholanadi.

1970-yillardan boshlab bir qator jiddiy asarlar paydo bo'ldi, ularning tahliliy yo'nalishi Chexovning badiiy dunyosini o'rganish, uning qonuniyatlari va estetik ifodasini o'rganishga aylandi. Ko'pgina asarlarning mualliflari A.P. Chudakov, M.P. Gromov, V.N. Turbin, I.P. Viduetskaya, L.D. Usmonov, L.M. Tsilevich, E.P. Chervinskene, E.A. Polotskaya, V.B. Kataev, V.Ya. Linkov, H.H. Sobolevskaya, I.N. Suxix⁸ va boshqalar yozuvchining ilk va yetuk ijodini, nasri va dramaturgiyasini birlashtirib turuvchi, zamondoshlari va davomchilari orasida o'ziga xos o'rin tutadigan shunday xususiyatlarga ega bo'lgan holda Chexov ijodini yaxlit badiiy dunyo sifatida anglashga intildilar.

Chexov ijodining obyektiv uslubini, hikoyachi subyektivligini yo'q qilish va qahramonning nuqtayi nazari va so'zining ustunligi – “qahramonning ohangi va ruhida tasvirlash” bilan tavsiflangan obyektiv uslubini belgilaydi. Muayyan idrok etuvchi ong orqali dunyoni tasvirlashni Chexov hikoyasining o'zgarmas asosiy tamoyili deb atash mumkin.

Adib tajribasida kuzatishlar boyligi va ularning tizimli tashkil etilishiga asoslangan xulosalarning

7 Гурвич И. А. Проза Чехова: человек и действительность. М., 1970 и т. д.

8 Чудаков А. П. Поэтика Чехова. М., 1971; Громов М. П. Повествование Чехова как художественная система // Современные проблемы литературоведения и языкознания», М., 1974. С.307—316; Цилевич Л. М. Сюжет чеховского рассказа. Рига. 1976; Червинскене Е. П. Единство художественного мира: А.П. Чехов. Вильнюс, 1976; Полоцкая Э. А. А.П. Чехов: движение художественной мысли. М., 1979; Катаев В. Б. Проза Чехова: проблемы интерпретации. М. 1979.

ishonchligiga qaramay, Chexov nasrining muhim xususiyatlarini ochib beradigan soʻzni tejab ishlatish obyektiv xususiyatidir.

Chexov tasvirlagan dunyo birinchi navbatda maxsus “tanlanmagan” va “tasodifiy” tabiati bilan ajralib turadi. Chexov badiiy tizimining obyektiv dunyosi oʻquvchi oldida oʻzining tasodifiy yaxlitligida namoyon boʻlganidek, Chexov syujetining asosini ham oʻzining individual tasodifiyligi bilan tasvirlangan oʻziga xos epizod tashkil qiladi. Epizodlar butunga tegishligiga qarab tanlanmaydi. Voqealar noaniq, taqdirlar tugallanmagan. Bularning barchasi tanlanmagan material, muallifning borliqning xaotik murakkabligiga ergashishi haqida taassurot qoldiradi. Maʼlumki, Chexovning badiiy olamining bunday tavsifi - ayniqsa, “tasodif” toifasi koʻplab bahs-munozaralar va eʼtirozlarga sabab boʻldi. Buning sababi Chexovning badiiy dunyosi tizimini toʻliq anglamaslikdir.

Yu.M. Lotmanning fikricha, voqelik illyuziyasi bilan soddalashtirish effektiga erishish faqat matn tuzilishining keskin murakkablashishi hisobiga mumkin boʻladi⁹.

Chexovning badiiy olamida koʻrinadigan tartibsizlikdan tashqarida mavjud boʻlgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning ichki aloqasi va dialogik munosabatlari yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Chexovning badiiy tizimida gʻoya dogmatik xususiyatga ega emas. Uning gʻoyasi tubdan barcha imkoniyatlarini ochib bermaydi - na qahramonlar bahslarida, na ularning mulohazalarida. Chexovdagi gʻoyaning rivojlanish chizigʻi hamisha nuqtali xarakterga ega.

Chexov asarlarida yozuvchi gʻoyaviy rivojlanishining yakuniy natijasini ham kuzatib

boʻlmaydi. Gap gʻoyaning mavjudligi, uning muayyan shaxsda gavdalanishi jarayonining oʻzidir. Muhimi, adib asarlarida gʻoyaning individual inson qalbida rivojlanishi natijasi emas, balki uning bu qalbdagi moddiy olam taʼsiriga ochiq boʻlgan aylanma yoʻllaridir.

Chudakova “Chexov hikoyasining syujeti” (1976) kitobida tadqiqotchi syujetni voqelikni anglashning ichki shakllaridan biri sifatida koʻrib, syujetning asar badiiy tuzilishining boshqa elementlari bilan aloqasi, syujetning uslub yaratuvchi funksiyasi va uning roli haqidagi muhim savollarga toʻxtaladi.

Chexov syujetining yangiligining asosi voqeani syujet birligi sifatida oʻzgartirishdir. Chexov syujetidagi voqea voqelikning oʻzgarishi faktining aksi emas, balki voqelikni oʻzgartirish zarurligini anglash harakatining ifodasi sifatida harakat qiladi.

Tadqiqotchining yozishicha, “tasvir rejalarining kombinatsiyasi – komponentlar birikmasi, polifunksionallik; ovozlarning kombinatsiyasi, polifoniya; “Zamonlarning uygʻunligi, polixroniya, Chexovning badiiy olamining koʻp qirraliligini yaratadi, bu Chexovning voqelikka estetik munosabatining mohiyatini oʻzida mujassam etadi”¹⁰. Demak, tadqiqotchi aynan rejalar birikmasidan kelib chiqadigan tafovut yoki masofada Chexovning obyektivligining mohiyatini koʻradi. Chexov hikoyasidagi deyarli har bir tafsilot syujet tafsiloti rolini oʻynaydi, bundan tashqari aloqa va oʻzaro aks-sado. subtekst darajasida koʻrib chiqiladigan takrorlanuvchi detallar va motivlar muallifning estetik pozitsiyasini ifodalovchi emotsional va obrazli bogʻlanishlar tizimining kursiv elementlariga aylanadi.

10 Чудаков А. П. Мир Чехова: Возникновение и утверждение. М., Художественной литературе 1986. Чудаков А. П. «Между есть бог» и «нет бога» лежит целое громадное поле...»// Новый мир. 1996. № 6.

9 Лотман Ю. М. Избранные произведения: В 3 т. Т. 3. Таллинн, 1993. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. М., 1970. С. 325—326.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердников Г. П. А.П. Чехов: идейные и творческие искания. М. Искусство. 1961;
 2. Гурвич И. А. Проза Чехова: человек и действительность. М., 1970 и т. д.
 3. Дерман Л. Б. О мастерстве Чехова. М., Искусство 1959;
 4. Чудаков А. П. Мир Чехова: Возникновение и утверждение. М., Художественной литературе 1986.
- Чудаков А. П. «Между есть бог» и «нет бога» лежит целое громадное поле...»// Новый мир. 1996. № 6.

Zilola XUJANIYAZOVA,
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 ilmiy tadqiqotchisi
zturayevna@mail.ru

O'ZBEK TARJIMA SAN'ATIDA OZOD SHARAFIDDINOVNING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada tarjima san'atining o'zbek adabiyotidagi o'rni va roli, badiiy va publitsistik tarjimaning ijtimoiy-estetik ahamiyati hamda atoqli adabiyotshunos va adabiy tanqidchi olim Ozod Sharafiddinovning tarjimonlik faoliyati, muallifning tarjima san'ati orqali o'zbek ma'naviyatini boyitishga qo'shgan salmoqli hissasi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarjima san'ati, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, Ozod Sharafiddinov, tarjimonlik mahorati.

Аннотация: в данной статье рассматриваются место и роль искусства перевода в узбекской литературе, социально-эстетическое значение литературного и публицистического перевода, переводческая деятельность видного литературоведа и литературоведа Озода Шарафиддинова, а также значительный вклад автора в обогащение узбекской духовности посредством искусства перевода.

Ключевые слова: искусство перевода, прямой перевод, косвенный перевод, Ozod Sharaфиддинов, переводческое мастерство.

Annotation: this article provides an analytical overview of the status and significance of translation art within Uzbek literature. It examines the socio-aesthetic value of both literary and journalistic translation practices, while also assessing the translation legacy of the distinguished literary scholar and critic Ozod Sharafiddinov. Furthermore, the study emphasizes his substantial contribution to the enrichment of Uzbek cultural and spiritual heritage through translation activities.

Key words: translation studies, direct translation, indirect translation, Ozod Sharafiddinov, translation competence.

Tarjima xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. U – xalq ma'naviyatini boyituvchi, kishi tafakkurini o'stiruvchi va jamiyatning madaniy qiyofasini belgilovchi omil bo'lib, dunyodagi xalqlarning madaniy yaqinlashuvida o'rni beqiyosdir.

Tarjima, asrlar osha insoniyatning madaniy rivojida muhim rol o'ynab kelayotgan noyob jarayondir. U tillar o'rtasidagi oddiy ko'prik bo'libgina qolmay, balki xalqlarning bir-birini tushunishi, anglashi va yaqinlashuviga zamin yaratuvchi ta'sirchan vositadir. Har bir jamiyatning madaniy qiyofasi uning o'z ichiga singdira olgan va boshqalarga yetkaza olgan madaniy yutuqlari bilan belgilanadi. Tarjima, ana shu madaniy almashuvning asosiy kanalidir. Boshqa tillardagi ilmiy, adabiy, falsafiy asarlar, yangiliklar, g'oyalar tarjima orqali jamiyatga kirib keladi va uning madaniy rivojiga hissa qo'shadi. Agar jamiyatda tarjima faoliyati sust bo'lsa, u tashqi dunyodan ajralib qolishi, taraqqiyotdan orqada qolishi mumkin.

Turli tillarda so'zlovchi, turli madaniyatlarga mansub kishilar agar ularning adabiyoti, ilmiy asarlari, ijod mahsullari tarjima qilinsa, bir-birlarining dunyoqarashi, fikrlashi, hissiy dunyosini tushunib yetadilar. Bu esa, o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Jahon adabiyoti, falsafasi, ilm-fani, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarjima orqali o'rganish insoniyatni yagona madaniy makonda birlashtiradi. Shunday ekan, tarjima

faqat bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, tafakkurini boyituvchi, ularni bir-biriga yaqinlashtiruvchi sharafli va mas'uliyatli ishdir. U zamonaviy jamiyatning madaniy qiyofasini belgilab, insoniyatning umumiy taraqqiyotiga beminnat hissa qo'shadi. Shu sababli, tarjima faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tarjimonlarning o'ziga xos mahorat qirralarini tadqiq qilish orqali tarjima sifatini yuksaltirishga zamin yaratish millat va jamiyatning madaniy rivoji uchun dolzarb vazifadir.

Tarjima orqali turli xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, xalqlar o'rtasidagi tushunish va hamkorlikni mustahkamlaydi, madaniy boyliklarni kengaytirib, yangi g'oyalar va an'analarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Xalqlar o'zlarining adabiy va ilmiy asarlarini boshqa tillarda e'lon qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, tillarning rivoji va adabiy merosning saqlanishi keng miqyosda yoyilishiga xizmat qiladi. Ilmiy va texnik adabiyotlarning tarjima qilinishi, ilm-fan sohasidagi yangi yutuqlarning tez tarqalishiga olib keladi. Bu, jahon ilmiy hamjamiyatida hamkorlikni kuchaytiradi. Tarjima orqali turli diniy va ma'naviy qadriyatlarni tushunish orqali ularga nisbatan hurmat ortishi diniy bag'rikenglik va tinchlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Demak, bugungi tezkor davrda dunyo hamjamiyatidagi globallashuv jarayonida, turli madaniyatlarining o'zaro ta'siri kuchaygan bir

zamonda tarjima san'atining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Har bir xalqning o'z milliy madaniyati, adabiyoti, falsafasi va ilmiy yutuqlari mavjud. Ammo har bir xalqning bu boyliklari o'z tili doirasida cheklanib qolishi mumkin. Tarjima orqali bu boyliklar boshqa tillardagi kishilar uchun ham ochiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa o'zbek adabiyoti namoyandalari durdona asarlari jahonning turli burchaklaridagi kitobxonlar qo'lga yetib borishi yoki jahon adabiyotining eng sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida o'zbek kitobxonining dunyoqarashi kengayishini anglatadi. Shu tariqa, tarjima milliy ma'naviyatni jahon madaniyati bilan boyitib, uning o'ziga xos jihatlari saqlab qolishga yordam beradi.

Tarjima jarayoni shunchaki so'zlarni bir tildan boshqa tilga o'girish emas, balki tarjimondan chuqur tahlil, ikki tilning tuzilishini, madaniy xususiyatlarini, ifodaviy imkoniyatlarini yaxshi bilishni talab qiladi. Tarjimon, bir tomondan, aslyat matnning mohiyatini, muallifning niyatini, ifodalangan fikr va tuyg'ularni to'liq anglashi lozim. Ikkinchi tomondan, bularni o'z tilida shunday mahorat bilan ifodalashi kerakki, tarjima matn ham asl nusxasi kabi ta'sirchan, tushunarli va mafkuraviy jihatdan to'g'ri bo'lsin. Bu murakkab jarayon, o'z navbatida, tarjimonning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va hatto muayyan fanlar bo'yicha bilimlarini oshiradi, uning tafakkurini o'stiradi. Shuningdek, tarjima asarlarni o'qigan kishilar ham turli madaniyatlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi bilan tanishib, o'z tafakkurini boyitadi.

Akademik N.Karimovning "Tarjima san'ati va jahon adabiyoti" nomli maqolasida ta'kidlanishicha, o'zbek adabiyotida tarjima san'ati 1340-yilda forsiyzabon Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonining Qutb Xorazmiy tomonidan, 1390-yilda forsiyzabon Sa'diyning "Guliston" asarining Sayfi Saroyi tomonidan turkiy (o'zbek) tiliga ilk bor tarjima qilinishi bilan boshlangan va shu davrdan boshlab hozirgi O'zbekistonda badiiy tarjima o'zbek madaniyatining tarkibiy qismi sifatida yashab, davrdan-davrga kamol topib kelgan.¹N.Karimov mazkur maqolada o'zbek tarjima san'atining tadrijiy taraqqiyotini bosqichma-bosqich tahlil qilar ekan, shunday xulosalaydi: "Har bir milliy adabiyotning rivojlanganlik darajasi milliy adabiy an'analarning barqarorligi va o'ziga xosligi bilangina emas, balki shu an'analarning boshqa milliy adabiyotlar bilan ijodiy aloqada boyib, shu adabiyotlardagi eng yaxshi adabiy-badiiy tamoyillardan, ijodiy yutuqlardan bahramand bo'lib borganligi bilan ham belgilanadi"². Darhaqiqat, tarjimachilik an'anasi mumtoz adabiyot

1 Karimov N. Tarjima san'ati va jahon adabiyoti // *Jahon adabiyoti*, 10-son, 2017.185 - 190 - b.

2 Karimov N. Tarjima san'ati va jahon adabiyoti // *Jahon adabiyoti*, 10-son, 2017.185 - 190 - b.

tarixida ham, zamonaviy adabiy jarayonda ham muhim badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, milliy adabiyotimiz rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'zbek tarjima san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari S.Siddiq, J.Sharipov, G.Salomov, O.Sharafiddinov, Q.Jo'rayev, M.Mahmudov, S.Shermuhamedov, M.Muhiddinov, S.Olimov, Z.Isomiddinov, B.Nazarov, N.Komilov kabi olimlarning tadqiqotlarida batafsil yoritib berilgan.³ Bu tadqiqotlarda badiiy tarjimashunoslik fanining asoslari, uning xalq madaniyati rivojidagi o'rni va tarjima san'ati masalalari tahlil qilingan. Jumladan, G.Salomov o'zbek tarjimachilik maktabi tajribasi haqida so'z yuritib, shunday deydi: "...O'zbek tarjimachilik maktabining sabog'i shundaki, bizning yirik shoir, yozuvchi, dramaturg va professional tarjimonlarimiz qayta yaratish jarayoniga (tarjimaga) san'at va ijod deb qarab keldilar".⁴

Jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girgan mohir ijodkorlar qatorida Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, I.G'afurov, A.Rashidov, E.Vohidov, A.Oripov va boshqalarning nomlari alohida e'tirof etiladi.

Ana shunday xayrli ishga astoydil bel bog'lab, o'ziga xos maktab yaratgan ijodkorlardan biri - O'zbekiston Qahramoni, taniqli olim Ozod Sharafiddinov tarjima ishlarida ham alohida samarali ijod qilgan edi.

O.Sharafiddinov ilmiy - ijodiy faoliyatining avvalida zakiy adabiyotshunos olim va teran tahlil qiluvchi adabiy tanqidchi sifatida tanilgan. Xususan, Cho'lponshunos olim sifatida ijodkor olamini o'rganar ekan, uning tarjimonlik mahoratiga alohida e'tibor qaratadi va 1990-yilda "Guliston" jurnalida "Cho'lpon - tarjimon" nomli maqolasini e'lon qiladi. Ushbu maqolada tarjimonlik san'ati borasidagi nazariy qarashlarini ham bayon qiladi. Olim Cho'lponning mahoratiga yuksak baho berib, "tarjimonlik dorilfununini yaratgan" - deya baholaydi va shunday yozadi: "Cho'lpon biron boshqa janrda ijod qilmaganida ham tarjimalarining o'ziyoq uning nomini o'zbek adabiyoti tarixining eng mo'tabar joyiga yozib qo'yish uchun kifoya qilardi.Cho'lpon tarjimalari bilan o'zbek xalqining yangi madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi".⁵ Ajabki, xuddi mana shunday e'tirofni munaqqid-tarjimonning o'z mehnatiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Zero, olim - tarjimonning o'zbek tiliga o'girgan asarlari salmoqli o'rin egallaydi. Mutarjim asarlarni, asosan, rus tili orqali tarjima qilgan.

3 Siddiq S. Adabiy tarjima san'ati, 1936.; Шарипов Ж. Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар. Тошкент, 1972.; Саломов Ф. ва б. Таржимон маҳорати. -Тошкент: "Фан", 1979.; Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. -Тошкент: "Фан", 1980.; Комилов Н. Бу қадимий санъат. -Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. ва бошқалар

4 Ғайбуллоҳ ас-Салом. Эй умри азиз. -Тошкент: Шарқ, 1997. 121- б.

5 Шарафиддинов О. Чўлпон - таржимон // Гулистон, №2, 1990.16-17- б.

Ozod Sharafiddinov ijodining avvalgi pallalarida yetuk munaqqid, Qahhorshunos va Cho'lponshunos olim sifatida tanilgan bo'lsa, 90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tarjimonlik faoliyati bilan izchil shug'ullana boshladi. Bunga sabab bo'lgan omillar qatorida quyidagilarni aytish mumkin:

– birinchidan, adabiyot va ijod olamida yetarli tajribaga ega bo'lganligi;

– ikkinchidan, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'zbek adabiyoti jahon hamjamiyatiga dadil yuz burganligi;

– uchinchidan, ikkinchi omil bilan bevosita bog'liq holda "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil etilishi hamda hurmatli olimning jurnalga bosh muharrir etib tayinlanishi.

Darhaqiqat, O.Sharafiddinovning muharrirlik faoliyati ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholanishi bejiz emas: "Olim bu yumushni havas qiladigan darajada, shu qadar vijdonan, shu qadar katta saviya bilan bajardilarki, endi, bugungi kunda biz o'zbek xalqining madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy darajasini ko'z-ko'z qiladigan bo'lsak, "Jahon adabiyoti" jurnalini varaqlab ko'rib, "o'zbek" ziyolisining saviyasi, dedi nimalarga qodir ekanligini ko'rishni xohlasangiz, ana shu jurnalga qarang", deyish mumkin. Ozod Sharafiddinov bu jurnalni oyoqqa turg'azdi, shogirdlarini bu yerga jalb etib, dunyo adabiyotidagi eng ulkan va eng ibratli asarlarni tarjima qildirdi".⁶

Ma'lumki, ijodkorlar bevosita va bilvosita tarjima usullaridan foydalanadilar. O'z davrida Abdulla Qahhor bilvosita tarjimaning ham muvaffaqiyatli usul bo'la olishi xususida shunday yozgan edi: "Biz doim asl nusxaning o'zidan tarjima qila biladigan tarjimon bo'lsa deymiz. Lekin bunday tarjimonlar bizda hozircha u qadar ko'p emas. Nega endi biz milliy adabiyotlarni rus tili orqali olayotgan zavqi, quvonchidan mahrum qilishimiz kerak? Lope de Vega, Moler, Shekspir, Goldoni asarlari sahnalarimizdan tushmay o'ynaladi;

kitobxonlarimiz V.Gyugo, R.Tagor, J.Vern, J.London, E.Zolya, Lu Sin, G.Flober, R.Rollan, T.Drayzer, E.Xeminguey, Y.Fuchik asarlarini o'z ona tillarida o'qimoqdalar. Bularning barchasi o'zbek tiliga rus tilidan tarjima qilingan".⁷

O.Sharafiddinov ham badiiy va publitsistik asarlarni rus tili orqali bilvosita tarjima qilgan. Tarjimonning o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan asarlari janr va mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, butun bir galereyani tashkil etadi. O'nlab publitsistik asarlar, adabiy-tanqidiy maqolalar, shuningdek, hikoya, qissa va romanlarning ijodkorning tarjima ro'yxatidan o'rin olishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Masalan, yunon faylasuflari Aflotunning "Oila ne'matdir", Arastuning "Davlatning tarkibi" asarlari, Genri Toroning "E'tiqodsiz hayot" (AQSH), I.Bunichning "Partiyaning oltinlari", Vladimir Mauning "Ziyolilar: tarix va inqilob" (Rossiya) kabi publitsistik asarlari, Fransuaza Saganning "Ko'lmak suvda quyosh parchasi" (Fransiya), Erik Sigalning "Muhabbat tarixi" (AQSH) qissalari, Paulo Koeloning "Alkimyogar", "Beshinchi tog'" (Braziliya), Efraim Sevelaning "To'xtating samolyotni, tushib qolaman" (Belorus), Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" (Angliya) A.Munifning "Olis yo'lning saboqlari" (Arab), Jorj Simenonning "Megre va arvoh" (Fransiya) kabi romanlari yuksak mahorat bilan tarjima qilingan.

Olimning tarjimalarida matnning uslubi, ruhi, lisoniy jozibasi butunlay saqlanib qoladi. Bu esa tarjimonning til boyligi, chuqur bilimi va madaniyatlararo muloqot sohasidagi yetukligidan dalolat beradi. Bu tarjimalar nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar tomonidan ham yuqori baholanadi. Uning tarjimalari o'zbek adabiyotining xazinasini yanada boyitdi va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek kitobxonlariga taqdim etdi. Shuning uchun ham Ozod Sharafiddinovning tarjimonlik mahoratiga yuksak baho berishga to'la haqlimiz.

⁷ Абдулла Қаҳҳор. Таржимачилик ташвишлари // Литературная газета, 1962. 17 март

⁶ http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Sharafiddinov

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаҳҳор А. Таржимачилик ташвишлари // Литературная газета, 1962, 17 март
2. Каримов Н. Таржима санъати ва жаҳон адабиёти // Жаҳон адабиёти, 10-сон, 2017.85 - 190- б.
3. Шарафиддинов О. Чўлпон.таржимон. – Гулистон, №2, 1990.6-17- б.
4. Ғайбуллоҳ ас-Салом. Эй умри азиз. –Тошкент: Шарқ, 1997.121- б.
5. http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Sharafiddinov
6. Исомиддинов З.Таржима ва тил. – Тошкент: "Адабиёт", 2024.
7. Федоров А. В. Введение в теорию перевода. – Москва: "Наука", 1958.
8. Жирмунский В.Б. Теория литературы.— Ленинград: «Наука», 1977.
9. Саломов Ф.. Таржима назариясига кириш. – Тошкент,1978.
10. Саломов Ф.. Тил ва таржима . –Тошкент, 1966.

Ra'no ABDURAXMONOVA,

Namangan davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi
r.abdurakhmonova@gmail.com

NEMIS TILIDAGI DINIY MATNLARDA UCHRAYDIGAN DEYKTIK BIRLIKLARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMA JARAYONIDAGI LINGVOPRAGMATIK MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada nemis tilidagi diniy matnlarda uchraydigan deyktik birliklarning o'zbek tiliga tarjima jarayonidagi lingvopragmatik muammolari ko'rib chiqilgan. Diniy matnlar o'ziga xos semantik va madaniy konnotatsiyalarga ega bo'lib, tarjima jarayonida shaxsiy, joy va vaqt ko'rsatkichlarining kontekstga mos talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada deyktik birliklarning tarjima strategiyalari, tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi hamda matnning kommunikativ maqsadini saqlashdagi muhim omillari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarjima amaliyotida diniy matnlarning semantik aniqligini va pragmatik ekvivalentligini ta'minlash uchun lingvopragmatik yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *deyktik birliklar, diniy matn, tarjima, lingvopragmatika, madaniyatlararo kommunikatsiya, semantik moslik, pragmatik ekvivalentlik.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвопрагматические проблемы, возникающие в процессе перевода дейктических единиц, встречающихся в немецких религиозных текстах, на узбекский язык. Религиозные тексты обладают особыми семантическими и культурными коннотациями, поэтому правильная интерпретация личных, пространственных и временных указателей в контексте играет важную роль. В статье рассматриваются стратегии перевода дейктических единиц, культурная компетенция переводчика и факторы, обеспечивающие сохранение коммуникативной цели текста. Результаты исследования показывают, что лингвопрагматический подход является необходимым для обеспечения семантической точности и прагматического эквивалента при переводе религиозных текстов.

Ключевые слова: *дейктические единицы, религиозный текст, перевод, лингвопрагматика, межкультурная коммуникация, семантическое соответствие, прагматический эквивалент.*

Annotation: this article analyzes the linguo-pragmatic problems that arise in the process of translating deictic units found in German religious texts into Uzbek. Religious texts possess specific semantic and cultural connotations, therefore the correct interpretation of personal, spatial, and temporal indicators within context plays a crucial role. The paper examines translation strategies of deictic units, the translator's intercultural competence, and key factors in preserving the communicative purpose of the text. The results of the study demonstrate that a linguo-pragmatic approach is essential to ensure semantic accuracy and pragmatic equivalence in the translation of religious texts.

Key words: *deictic units, religious text, translation, linguopragmatics, intercultural communication, semantic correspondence, pragmatic equivalence.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va madaniyatlararo muloqot davrida tarjima jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy hamda pragmatik jihatdan ham chuqur tahlilni talab qilmoqda. Ayniqsa, diniy matnlar tarjimasi o'zining semantik murakkabligi, tarixiy qatlamlarga boyligi va muayyan e'tiqodiy konnotatsiyalari bilan boshqa turdagi matnlardan tubdan farq qiladi. Bunday matnlarda har bir so'z, ibora yoki grammatik birlik nafaqat ma'noni, balki diniy ruhni, muallifning niyatini va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Shu bois, tarjimada faqat so'zma-so'z yoki semantik moslikni emas, balki pragmatik maqsadni, kommunikativ vaziyatni ham to'g'ri ifodalash zarur.

Nemis diniy matnlari — xususan, Injil tarjimalari, ilohiy nutqlar, diniy risolalar va ilohiyotshunoslik asarlari — o'zbek tiliga tarjima qilinganda, ko'plab lingvopragmatik muammolarni keltirib chiqaradi. Ularning eng muhimlaridan biri deyktik birliklar bilan bog'liq muammolardir. Deyktik birliklar (masalan, *ich, du, hier, jetzt, jener* kabi birliklar) ma'nosi kontekstga, nutq vaziyatiga va so'zlovchining nuqtai nazariga bevosita bog'liq bo'lgani sababli, ularni boshqa tilga, ayniqsa diniy konnotatsiyaga ega matnda, to'liq ekvivalent shaklda ko'chirish qiyin kechadi.

Tarjima jarayonida bu birliklarning shaxs (*ich/du — men/sen*), joy (*hier/dort — bu yerda/u yerda*) va vaqt

(jetzt/dann — hozir/o'shanda) ko'rsatkichlari o'rtasida semantik siljishlar yuz beradi. Natijada matnning diniy va ruhiy mazmuni o'zgarib ketishi xavfi mavjud bo'ladi. Shu sababli, diniy matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuv — ya'ni so'zlovchi, tinglovchi va matn kontekstini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish — zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi paytda nemis tilidan o'zbek tiliga diniy matnlarni tarjima qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan. Ayniqsa, deyktik birliklarning tarjimadagi o'zni, ularning madaniy konnotatsiyasi va pragmatik ekvivalentligini saqlab qolish masalalari maxsus tahlilga muhtoj. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish, tarjima jarayonida uchraydigan lingvopragmatik muammolarni aniqlash hamda ularning samarali yechimlarini taklif etishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Deyktik birliklarning tarjima jarayonidagi lingvopragmatik muammolarini o'rganish bo'yicha xorijiy va mahalliy tilshunoslikda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu bo'limda mazkur sohada muhim o'rin tutuvchi ikki manba — K. Buhlerning "Sprachtheorie" (1934) asari hamda E. Nida va C. Taberning "The Theory and Practice of Translation" (1969) kitoblari tahlil qilinadi.

Avstriyalik mashhur tilshunos Karl Buhler o'zining "Sprachtheorie" ("Til nazariyasi") asarida tilning asosiy kommunikativ funksiyalaridan biri sifatida "deixis" tushunchasini chuqur tahlil qilgan. U tilni ko'rsatish (Zeigfeld) tizimi sifatida talqin etib, har bir nutqiy aktda "men", "bu yerda", "hozir" kabi deyktik birliklar markaziy o'rin tutishini ta'kidlaydi[1] Buhlerga ko'ra, bu birliklar nutq subyektini (so'zlovchi) nuqtai nazaridan dunyoni aks ettiradi va shu sababli ularni boshqa tilga o'tkazishda faqat grammatik ekvivalentni topish kifoya emas, balki nutq konteksti, ijtimoiy vaziyat va madaniy kodni hisobga olish zarur.

Nemis diniy matnlarida Buhler nazariyasi ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki diniy so'zlovchi (masalan, payg'ambar yoki ilohiy shaxs) o'z nutqida ilohiy markazni bildiruvchi deyksidan foydalanadi. Masalan, Injil matnlarida "Ich bin der Weg, die Wahrheit und das Leben" ("Men yo'lman, haqiqatman va hayotman") kabi ifodalar nafaqat shaxsiy "ich"ni, balki "ilohiy "Men"ni bildiradi. O'zbek tiliga bunday birliklarni tarjima qilishda semantik va diniy konnotatsiyani bir vaqtda ifodalash katta lingvopragmatik masala hisoblanadi. Shunday qilib, Buhlerning konsepsiyasi diniy matnlardagi shaxsiy deyksisni kontekstual tarzda talqin etish zarurligini asoslab beradi.

Amerikalik tarjima nazariyotchilari E. Nida va C. Taber o'z asarlarida tarjimaning dinamik ekvivalentligi

tamoyilini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, tarjimada asosiy maqsad — manba tilidagi ma'noni emas, balki uning kommunikativ ta'sirini yetkazishdir[2] Bu yondashuv ayniqsa diniy matnlarni tarjimasida dolzarb, chunki matn faqat so'zlar majmui emas, balki ruhiy va madaniy ta'sir vositasidir.

E. Nida tarjimada pragmatik omillarni — ya'ni tinglovchi kim, matn qaysi madaniyatda qabul qilinadi va diniy kontekst qanday — hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, nemis tilidagi "Gott ist mit euch" ("Xudo siz bilan birga") iborasi o'zbek tilida so'zma-so'z tarjima qilinsa, grammatik jihatdan to'g'ri bo'ladi, [3] biroq pragmatik konnotatsiya — ya'ni Xudoning mavjudlik va homiylik ma'nosi — to'liq ifodalanmasligi mumkin. Shu sababli Nida konsepsiyasi diniy matnlarda deyktik birliklarning tarjimasida madaniy kontekstni saqlab qolish zarurligini amaliy jihatdan asoslab beradi. Har ikkala manba — Buhlerning deyksis nazariyasi va Nida-Taberning dinamik ekvivalentlik tamoyili — o'zaro uzviy bog'liqdir. Buhler tildagi deyktik birliklarning nutqiy markazini aniqlab bergan bo'lsa, Nida ularni tarjimada kommunikativ jihatdan to'g'ri o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois diniy matnlarni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda har ikkala yondashuvni uyg'unlashtirish — ya'ni lingvistik strukturani va pragmatik maqsadni birgalikda hisobga olish — eng samarali metod hisoblanadi.

Natijada, bu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, diniy matn tarjimasida deyktik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini chuqur tahlil etish nafaqat tarjimaning semantik aniqligini, balki madaniy moslik va ruhiy ta'sir kuchini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kontrastiv-lingvistik, tarjima nazariy va lingvopragmatik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida nemis va o'zbek tillaridagi diniy matnlarning strukturaviy, semantik va pragmatik jihatdan qiyosiy tahlili tanlangan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — nemis diniy matnlarida uchraydigan deyktik birliklarning (shaxs, joy, vaqt va matn ichidagi ishoraviy birliklar) funksional xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik, stilistik va pragmatik muammolarni tahlil qilish, shuningdek, madaniy ekvivalentlikni ta'minlash yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlillar va natijalar. Nemis diniy matnlarning tarjimasida eng ko'p muammo tug'diruvchi birliklardan biri bu deyktik vositalarning (ya'ni "ichki ishora birliklari") to'g'ri va kontekstga mos tarjima qilinmasligidir.

Deyksislar matn ichida nafaqat grammatik vazifani, balki ruhiy-ma'naviy ma'noni ham ifodalaydi. Diniy matnlarda ular ko'pincha ilohiy shaxs, joy yoki zamon bilan bog'liq bo'ladi.

1. Shaxsiy deysisdagi muammolar. Nemis diniy matnlarida "Ich", "Du", "Er" kabi shaxs olmoshlari inson va Yaratuvchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi markaziy birliklardir. Masalan, Injildan olingan quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Nemischa: "Ich bin der Weg, die Wahrheit und das Leben." (*Yuhanno 14:6*) [4] So'zma-so'z tarjima: "Men — yo'l, haqiqat va hayotman."

Bu yerda "Ich" olmoshi Iso Masihning o'zini Xudo sifatida ifodalashi uchun ishlatilgan bo'lib, uni o'zbek tilida shunchaki "men" shaklida tarjima qilish semantik torayishga olib keladi. Chunki o'zbek madaniyatida "men" so'zi insoniy subyektni anglatadi, ilohiylikni emas. Shu sababli pragmatik moslashtirish orqali bu fikrni "Men — ilohiy yo'l, haqiqat va hayotman" tarzida kengroq ifodalash maqsadga muvofiq.

2. Joy va makon deysisi tahlili. Joy bildiruvchi deysislar diniy matnda muqaddas joyni yoki ma'naviy makonni anglatadi. Masalan:

Nemischa: "Der Herr ist hier." — "Parvardigor bu yerda." [5]

Bu jumla nemis tilida fazoviy ishora ("hier" — bu yerda) orqali Xudoning mavjudligini bildiradi. Ammo o'zbek madaniyatida Xudo joy bilan cheklanmaydi, shuning uchun so'zma-so'z tarjima semantik jihatdan mos emas.

Tarjimada bunday deysislar metaforik ekvivalentlar orqali ifodalanishi lozim. Masalan, yuqoridagi jumla "Parvardigor har yerda hozir" tarzida tarjima qilinsa, teologik ma'nosi to'liq saqlanadi va lingvopragmatik moslik ta'minlanadi.

3. Vaqt deysisidagi nozikliklar. Diniy matnlarda vaqt ko'rsatkichlari ("jetzt", "damals", "heute") diniy voqeaning muqaddas zamonini ifodalaydi. Masalan:

Nemischa: "Heute wirst du mit mir im Paradies sein." (*Luqo 23:43*) [6] Tarjima: "Bugun sen men bilan jannatda bo'lasan."

Bu yerda "heute" (bugun) zamon deysisi oddiy vaqtni emas, abadiylik boshlanishini bildiradi. O'zbek tilida "bugun" so'zi vaqtni jismoniy ma'noda ifodalaydi, ruhiy o'tish mazmunini esa yo'qotadi. Bunday holatda madaniy ekvivalent sifatida "Bugun — abadiy hayot boshlanadigan on" shaklidagi kengaytirilgan tarjima diniy ruhni to'liqroq aks ettiradi.

4. Matn ichidagi interdeysislar. Nemis tilidagi diniy matnlarda "dieser", "jene", "solcher" kabi ko'rsatkich olmoshlar muayyan diniy voqeani yoki oyatni eslatish uchun ishlatiladi. Ular interdeyktik birliklar hisoblanadi.

Nemischa: "Diese Worte sind wahr und zuverlässig." — "Bu so'zlar haq va ishonchlidir." [7] Bunda "diese Worte" — avvalgi oyatlarga intertekstual ishora bo'lib, tarjimada referensial aniqlikni saqlash muhim. Aks holda matnning mantiqiy izchilligi buziladi.

O'zbek tarjimasida bunday birikmalarni kontekstual bog'lanma bilan mustahkamlash lozim, masalan: "Avval aytilgan so'zlar — haq va ishonchlidir." Bu usul matnning bog'liqligini saqlab, pragmatik sadoqatni ta'minlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash joizki, nemis tilidagi diniy matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida deyktik birliklarning to'g'ri talqini nafaqat grammatik, balki lingvopragmatik va madaniy yondashuvni ham talab etadi. Diniy matnlarning semantik va ruhiy mazmuni bevosita shaxs, joy va vaqt ko'rsatkichlari orqali ifodalanar ekan, bu birliklarning tarjimada noto'g'ri yoki yuzaki talqini matnning teologik mohiyatiga putur yetkazishi mumkin. Shu bois tarjima jarayonida bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Avvalo, tarjimon diniy matnlardagi deyktik birliklarni so'zma-so'z ko'chirishdan ko'ra, ularning kontekstual va kommunikativ funksiyasini chuqur anglashga intilishi lozim. Har bir deyktik birlik o'zida diniy ma'no yukini olib yuradi, shuning uchun tarjimon ularni faqat lingvistik jihatdan emas, madaniy va ruhiy konnotatsiya nuqtayi nazaridan ham izohlashi kerak.

Ikkinchidan, tarjima amaliyotida lingvokulturologik tahlil metodidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv nemis va o'zbek madaniy qadriyatlarini o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va ularni tarjimada ekvivalent ifodalar orqali berish imkonini yaratadi. Ayniqsa, shaxs va joy deysislarida bu farqlar aniq seziladi, chunki diniy kontekstdagi "men" yoki "bu yerda" kabi birliklar turli xalqlarda turlicha ilohiy talqinga ega.

Uchinchidan, diniy matnlarning tarjimasini intertekstual bog'lanishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Chunki ko'plab deyktik birliklar avvalgi oyatlarga, diniy rivoyatlarga yoki muqaddas matnlarning boshqa qismlariga ishora qiladi. Bunday hollarda tarjimon matnning umumiy mantiqiy va ruhiy izchilligini saqlab qolish uchun referensial moslikni ta'minlashi zarur.

Shuningdek, diniy matnlarni tarjima qiluvchi mutaxassislar uchun maxsus uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish ham muhim takliflardan biridir. Bu qo'llanmalarda deyktik birliklarning turlari, ularning pragmatik vazifalari, tarjima strategiyalari va madaniy ekvivalentlik tamoyillari tizimli ravishda yoritilishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nemis diniy matnlarida uchraydigan deytik birliklar (shaxs, joy, vaqt va interdeyxislar) tarjima jarayonida nafaqat til darajasida, balki madaniy, ma'naviy va pragmatik darajada ham murakkablik tug'diradi. Deyksislar diniy matnning ma'nosini, ruhiy kayfiyatini va ilohiy yo'nalishini shakllantiruvchi asosiy komponentlardan biri bo'lib, ularning noto'g'ri yoki kontekstsiz tarjimasi diniy mazmunni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, nemis tilidagi shaxsiy deyxis ("Ich", "Du") o'zbek tiliga bevosita tarjima qilinsa, u o'zining ilohiy yoki ramziy ma'nosini yo'qotadi. Xuddi shuningdek, joy ("hier", "dort") va vaqt ("heute", "damals") deyxislari ham o'zbek tilidagi fazoviy va zamoniylar dunyoqarash bilan to'liq mos kelmaydi. Shu bois, diniy matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuv — ya'ni matnning semantik, madaniy va kommunikativ qatlamlarini bir butun tizim sifatida tahlil qilish — zarur ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, samarali tarjima uchun tarjimon madaniyatlararo kompetensiyaga, ya'ni ikki madaniyatning diniy konnotatsiyalarini chuqur bilishga ega bo'lishi kerak. Bunday yondashuv deytik birliklarning asl mazmunini saqlagan holda, ularni o'zbek tilida pragmatik jihatdan adekvat tarzda ifodalash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu ish shuni isbotlaydiki, deytik birliklarning tarjimada o'rni — bu faqat grammatik muammo emas, balki lingvokulturologik va kommunikativ muammodir. Diniy matnlarning ilohiy ruhini, muqaddas ohangini va semantik nozikliklarini saqlab qolish uchun tarjimon so'zning shakliga emas, uning kontekstual mazmuniga tayanishi zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi va diniy lingvistika yo'nalishida lingvopragmatik tahlilning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nemis tilidagi diniy matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda madaniyatlararo muloqot tamoyillariga asoslangan yangi strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bühler, K. (1934). *Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache*. Jena: Fischer Verlag. — Deyxis nazariyasining klassik asari bo'lib, nutqdagi ko'rsatish (deixis) hodisasining psixologik va semantik asoslarini yoritadi.
2. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. — Cambridge: Cambridge University Press. — Pragmatika va deytik birliklarning nutq jarayonidagi funksiyalarini tizimli tahlil qiladi.
3. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Vol. 2. — Cambridge: Cambridge University Press. — Semantik va pragmatik ko'rsatkichlarning farqlari, shuningdek, tarjimada kontekstning o'rni haqida asosiy nazariy manba.
4. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: Brill. — Diniy matnlarni tarjima qilishda dinamik ekvivalentlik tamoyilini birinchi bo'lib ilmiy asoslagan manba.
5. Fillmore, C. (1971). *Deixis and the Semantics of Spatial Expressions*. In *Working Papers in Linguistics*. Ohio State University. — Joy va fazoviy deyxislar haqidagi asosiy tadqiqotlardan biri.
6. Zubkova, L. V. (2019). *Lingvopragmaticheskie osobennosti religioznykh tekstov v perevode*. — Moskva: MGIMO Press. — Diniy matnlarning tarjimasida pragmatik moslik va madaniy adaptatsiya masalalarini tahlil qiladi.
7. Gulyamova, N. (2021). *Tarjima jarayonida lingvokulturologik muammolar*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. — O'zbek tilida yozilgan manba bo'lib, tarjimada madaniy tafovut va lingvopragmatik muvofiqlikni yoritadi.
8. Bekmurodov, D. (2020). *Nemis tili matnlarida shaxs va joy deyxisining tarjima xususiyatlari*. *Filologiya masalalari jurnali*, 3(2), 115–122. — Nemis tilidan o'zbek tiliga deytik birliklarni tarjima qilishdagi semantik muammolarni ko'rib chiqadi.
9. Holy Bible. *Die Bibel: Lutherübersetzung (2017)*. Deutsche Bibelgesellschaft. — Nemis tilidagi Injil matni — diniy deyxislar tahlilida asosiy amaliy manba sifatida foydalanilgan.

Moxiraxon PARPIYEVA,
Farg'ona davlat texnika universiteti
O'zbek tili va tillarni o'rgatish
kafedrasida assistent o'qituvchisi
parpiyevamoxira1991@gmail.com

XX ASR O'ZBEK VA INGLIZ NASRIDA DAVR VA QAHRAMON MUAMMOSI

Annotatsiya: maqolada XX asr o'zbek va ingliz nasrida davr ruhi va qahramon obrazining shakllanishi, ularning adabiy va ijtimoiy kontekstda ifodalanishi yoritilgan. Adabiy qahramon tasviri orqali o'zbek va ingliz nasridagi o'xshash va farqli jihatlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: XX asr adabiyoti, o'zbek nasri, ingliz nasri, davr ruhi, adabiy qahramon.

Annotation: the article examines the formation of the spirit of the era and the image of the hero in 20th-century Uzbek and English prose, their expression in a literary and social context. The image of the literary hero shows similarities and differences in Uzbek and English prose.

Key words: 20th century literature, Uzbek prose, English prose, spirit of the times, literary hero.

Аннотация: в статье рассматривается формирование духа эпохи и образа героя в узбекской и английской прозе XX века, их выражение в литературном и социальном контексте. Образ литературного героя показывает сходства и различия в узбекской и английской прозе.

Ключевые слова: литература XX века, узбекская проза, английская проза, дух времени, литературный герой.

Kirish. XX asr adabiyoti o'zining murakkab siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqealari bilan ajralib turadi. O'zbek va ingliz nasrida bu davrlar qahramon xarakteri va uning ichki olami orqali badiiy talqin qilindi. Har bir yozuvchi muayyan adabiy davrda asar qahramonlarining ma'naviy-axloqiy dunyosi, sajiyasi, ruhiyatining hayotiy asoslarini tasvirlashga harakat qiladi. U asar personajlarining hayotiyliigi va jonlligini ta'minlash uchun o'zining badiiy konsepsiyasiga xos yo'sinda maqsadlarini amalga oshiradi. Kichik epik janrga mansub hikoyada voqelik qisqa jumlar orqali keng ma'noni ifodalash, so'zni tejash asosida tasvirlanadi. Shuning uchun ham "hikoyaning kichik hajmligi poetikaning o'ziga xos tamoyillari, konkret usullarini belgilaydi. Bu birinchi navbatda, tasviriylikda namoyon bo'ladi. Hikoya uchun tejamkorlik xarakterlidir, unda uzun tavsiflar bo'lmasligi kerak"¹. Ingliz adabiyotshunoslari ham kichik nasriy janr haqida fikr yuritganda "hikoya", "qisqa hikoya" kabi atamalarni qo'llaydilar. Demak, tasvirda qisqalik va tejamkorlik ham o'zbek, ham ingliz hikoyalari uchun birdek xosdir.

Asosiy qism. Kichik hajmli epik asarlarda asosan, bitta qahramon harakatlanadi. Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g'oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Amerikalik yozuvchi Ernest Xemingvay XX asr ingliz adabiyoti rivojida o'zining hikoyanavislik mahorati bilan shuhrat qozongan adiblardan biridir. Uning hikoyalari qisqa shaklda yozilgan bo'lsa-da, ularda tasvirlanayotgan bosh qahramonlar ichki dramasi chuqur yoritilgan shaxslardir. Adibning "Ko'prikdagi chol" (Old Man at the Bridge) hikoyasi Ispaniya fuqarolar urushi davrida sodir bo'lgan bir vaziyatni tasvirlaydi. Hikoya birinchi shaxs

– razvedkachi tomonidan aytiladi. U daryo ustidagi ko'prik yonida o'tirgan keksa chol bilan suhbatlashadi. Chol o'zining San-Karlos shahridan qochib chiqqanligini, uyida esa o'ziga qadri bo'lgan hayvonlarini – ikki echki, bitta mushuk va to'rt juft kaptarni qoldirganligini aytadi. U qari, charchagan va yo'lga chiqishga madori yetmaydi. Harbiylar ham, aholi ham front chizig'idan uzoqlashayotgan bir paytda chol hayvonlari va o'tmishiga bog'lanib qoladi. O'quvchiga yurishga ham majoli yo'q bu cholning nima sababdan yo'l chetida o'tirib qolganligi jumboqli tuyuladi. Keksa cholning yoshi yetmish sakkizda, demak, u qariya. Muallif "juldur kiyimi" detali vositasida uning ijtimoiy ahvolini kitobxonga yaqqolroq tanishtiradi. Demak, yozuvchining badiiy maqsadi hikoya bosh qahramoni – cholning tashqi qiyofasini tasvirlovchi birgina detalni keltirish orqali syujetni harakatga keltirgan. Aslida, syujetni harakatga keltiruvchi asosiy detal, ya'ni "motor" bu ko'prik detalidir. Ko'prik – ramziy ma'nodagi detal-obrazdir. Inson taqdiridagi hal qiluvchi nuqta, o'tmish va kelajak o'rtasidagi o'tish joyi, ya'ni taqdir. "Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o'ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning taranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta'sirchan va ishonarli chiqadi"². Asarning kompozitsion tuzilishi, ya'ni hikoyaning sarlavhasida ham ayni shu detalning keltirilishi E.Xemingvay badiiy g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan.

Daryoga qurilgan ko'prikdan o'tuvchilar siyraklashib qolsa-da, chol o'tirgan yeridan qimirlamaydi. Cholning bu harakatsiz ahvolini ko'rib, askar uni savolga tutadi:

1 Тынянов Ю.Н. Литературный факт. Поэтика. История литературы. – М.: Аспект Пресс, 1977. – С.11.

2 Тынянов Ю.Н. Литературный факт. Поэтика. История литературы. – М.: Аспект Пресс, 1977. – С.11.

"Where are you from?" I asked him.

"I'm from San Carlos," he said. He smiled, pleased that I had reminded him of his hometown.

"I'm worried about the animals," the old man said, biting his lip.

"Huh?...?" I said, not understanding.

"Yes," he said. "I stayed behind because of the animals. I was the last person to leave San Carlos"³. (*Qayerdانسiz? – deb so'radim undan. – San-Karlosdanman, – dedi u. Ona shahrini esiga tushirganimgami, mamnun iljayib qo'ydi. – Men hayvonlardan xavotirdaman, – deya luqma tashladi chol. – A?... – dedim men yaxshi tushunolmay. – Ha – dedi u. – Hayvonlarni deb orqada qoldim. San-Karlosni tashlab chiqqan so'nggi odam menman*)".

Muallif San-Karlosga fashistlar tomonidan yog'ilgan o'qlar tufayli ona shahrini tashlab chiqishga majbur bo'lgan sanoqsiz kishilar, ya'ni evakuatsiya qilingan aholining fojeasini shu birgina bosh qahramon holati orqali tasvirlaydi. Urush oddiy, begunoh odamlarning hayotini izdan chiqaradi. Asardagi qahramon chol siyosat, mafkura, g'oya bilan emas, balki hayotiy oddiy qadriyatlar bilan yashagan inson. Urush esa uni bu qadriyatlardan ayiradi. Xeminguey urushning fojeali oqibatlarini shu oddiy chol obrazi orqali ko'rsatadi. Xeminguey bu hikoya orqali katta falsafiy savolni ko'taradi: urush kim uchun va nimaga kerak? Ko'p asarlarda urush qahramonlik, g'alaba yoki yo'qotish orqali ko'rsatilsa, "Ko'prikdagi chol"da esa urush faqat "fojeaviy absurd" sifatida berilgan.

Chol bu urushni tushunmaydi ham, u siyosiy taraf emas, oddiy fuqaro. Ammo urush eng ko'p ana shunday begunohlarni vayron qiladi.

XX asrning 40-yillarida ikkinchi jahon urushi dunyoning ko'plab davlatlari boshiga musibat yog'dirgan. Bunday ofatlar o'zbek xalqini ham o'z girdobiga tortgan. Odil Yoqubov o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lib, insoniylik, vatanparvarlik, haqiqat va mehr-oqibat kabi mavzularni chuqur badiiy yoritgan yozuvchidir. Uning "Yaxshilik" hikoyasi Ikkinchi jahon urushi yillarida sodir bo'lgan hayotiy voqeani tasvirlaydi. Hikoyada o'zbek xalqining urush davridagi hayot tarzi, front orti odamlarining ruhiy kechinmalari tasvirlangan. Bu kichik hajmli epik asar Mansur ismli bola tilidan hikoya qilinadi. Asar syujeti tugun bilan boshlanadi: "Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro'y bergan bu og'ir voqea emas, dilimda sal ma'yus va iliq hislar uyg'ongan yoz kuni esimga tushadi"⁴. Muallif qaysi og'ir voqeani nazarda tutgan?

3 Солижонов Й. Хақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент, 2009. – Б.78.

4 Hemingway, Ernest. The Old Man at the Bridge. First published in Ken Magazine, May 1938. Later included in The First Forty-Nine Stories (1938).

Kitobxon uchun bu jumboq edi.

Ertaga urushga ketishi kerak bo'lgan Mansurning tog'asiga kechqurun to'y qilishadi. Bolakayning buvasi ikki-uch bosh chillaki uzumni uzib, Mansurning do'ppisiga soladi va mehmonxonadagi kelin-kuyovga tashlab chiqishini aytadi.

– Mabodo... "o'tir", deyishsa, o'tirmagin tag'in. Bir nafas bo'lsayam birga bo'lishsin. Ertaga... – buvim lablari pirpirab, gapirolmay qoladi, ro'molining uchini ko'ziga bosadi-yu, imo qiladi: – Bor!⁵

Kampirning lablari pirpirab, gapirolmay qolishi ertasiga o'g'lini urushga jo'natishi kerak bo'lgan onaning ruhiy manzaralari tasviri edi.

Odil Yoqubov asarning bosh qahramoni Munavvar obrazi orqali urush davridagi ayollar fojeasini tasvirlab bergan. Tog'asidan xat kelishini intizorlik bilan kutgan Mansurjon pochta xatining kelayotgan xabarini bilib, shoshgancha buvasi va kelinoyisi Munavvarga xabar qiladi. Uning maqsadi tog'asining xatini berib, kelinoyisining ko'zlarida porlagan quvonchni ko'rish edi. Chunki har safar kelgan xatlarni o'zi qo'llari bilan kelinoyisiga tutqazar edida. Pochtachi esa "qoraxat" olib keladi. Yaxshilik qilmoqchi bo'lgan Mansurjon o'zi bilmagan holda ortida vahimani xabar yashiringan xatning kelganini kelinoyisiga aytib qo'ygan edi.

Buvisi pochta xatining ortidan yugurmoqchi bo'ladi, lekin kelinoyisi alam to'la ovozdada uni to'xtatib qoladi:

– Oyijon! – deb qichqirib yubordi. – Oyijon!.. Qo'ying! Kerakmas! – U shunday dedi-da, menga o'girildi, lablari titrab: – Topgan xushxabaring shu bo'ldimi, dedi-yu, nafasi yetmay tomog'ini siladi.

Men uning titragan lablariga qaray olmay boshimni egdim.

– Kechirasiz, – dedim o'pkam to'lib. – Men... men yaxshi niyat bilan sizga yaxshilik qilsam deb...

– Yaxshilik?! – kelinoyimning ko'zlari oldin jiqqa yoshga to'ldi, so'ng birdan o't chaqnadi: – Topgan yaxshiliging shu bo'lsa... Yo'qol ko'zimdan! Yo'qol!

Odil Yoqubov yaratgan ayol obrazlaridan biri Munavvar obrazidir. U orqali muallif o'zbek xalqining urush davridagi ruhiy holatini ko'rsatadi.

Xulosa. XX asr o'zbek va ingliz nasrida davr va qahramon muammosi chuqur badiiy ifodasini topgan. Har ikki adabiyotda qahramonlar orqali davrning ziddiyatlari, insoniyatning muammolari ilgari surilgan. O'zbek nasrida ko'proq ma'naviyat, tarixiy xotiraga urg'u berilgan bo'lsa, ingliz nasrida shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar falsafiy va ijtimoiy talqinini topgan.

5 Yoqubov O. Vido. Hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. 3-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Тынянов Ю.Н. Литературный факт. Поэтика. История литературы. – М.: Аспект Пресс, 1977. – С.11.
- 2.Солижонов Й. Хақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент, 2009. – Б.78.
- 3.Hemingway, Ernest. The Old Man at the Bridge. First published in Ken Magazine, May 1938. Later included in The First Forty-Nine Stories (1938).
- 4.Yoqubov O. Vido. Hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. 3-b.

Ozoda ESHQOBILOVA,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
assistent o'qituvchisi
e-mail: ms.ozoda85@gmail.com



TURLI DARAJADAGI TALABALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH

Annotatsiya: turli tayyorgarlikka ega talabalar bilan bir sinfda ingliz tilini o'qitish murakkab, lekin bir vaqtning o'zida imkoniyatlarga boy jarayon. Ushbu maqolada mixedability sinf tushunchasi, ushbu sharoitdagi muammolar va imkoniyatlar, diagnostika, pedagogik tamoyillar hamda samarali strategiyalar tahlil qilinadi. Muallimlar uchun amaliy yo'lxatlar va tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turli darajadagi sinf, mixed ability, differensiallashtirish, diagnostika, guruhlash, qo'llab quvvatlash (scaffolding), samarali strategiya

Annotation: teaching english to students of mixed abilities is challenging yet full of opportunity. This article explores the concept of mixedability classes, the inherent issues and advantages, student diagnostics, pedagogical principles and effective strategies. Practical guidelines and recommendations are presented for teachers aiming to work with diverse level learners.

Key words: mixed ability class, differentiation, student diagnostics, grouping strategies, scaffolding, peer tutoring, effective strategy

Аннотация: обучение английскому языку в классе с учащимися разных уровней — задача непростая, но перспективная. В статье рассматривается понятие mixedability класса, связанные с этим проблемы и возможности, диагностика учащихся, педагогические принципы и эффективные стратегии. Приводятся практические рекомендации для преподавателей, работающих с разноуровневыми группами.

Ключевые слова: класс с разными уровнями, смешанные способности (mixedability), дифференциация, диагностика учащихся, группировка, поддержка (scaffolding), эффективная стратегия

Kirish. Ingliz tilini o'qitishda ko'p hollarda bitta sinf ichida talabalarning tayyorgarlik darajasi, tajribasi, motivatsiyasi va o'rganish uslubi juda farq qiladi. Bunday holatni "turli darajadagi" (mixedability) sinf deb atash mumkin. Ushbu sinflar o'ziga xos imkoniyatlar va muammolarni olib keladi. Turli darajadagi sinf deganda talabalar o'qitilayotgan til jihatdan yoki umumiy tayyorgarlik jihatdan bir darajada emasligi masalan, ba'zilar A2 darajasida bo'lsa, boshqalari B2 darajasida bo'lishi tushuniladi. Shuningdek, muallim jihatidan ham: bir sinf ichida ko'pkam qobiliyatli talabalar bilan ishlash logistik jihatdan murakkab bo'lishi mumkin. Maqolaning maqsadi – muallimlarga turli tayyorgarlikka ega talabalar bilan samarali ishlash imkoniyatlarini ko'rsatish, muammo va yechimlarni tahlil qilish, amaliy strategiyalarni taqdim etish.

1. Turli darajadagi sinf – imkoniyatlar va muammolar

Imkoniyatlari

- Talabalar o'zaro yordam bera oladi: kuchli talabalar zaifroq tengdoshlarga yordam berish orqali o'zlarini mustahkamlashi mumkin.

- Sinf ichida turli tajribalarga ega talabalar bo'lishi sabab, o'qituvchiga turli yondashuvlar qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi - bu o'qitishni boyitadi.

- Real hayotdagi til foydalanish vaziyatlari ko'pincha turli darajadagi ishtirokchilarga ega bo'ladi - shu bois bunday sinflar haqiqiy dunyoga yaqin misol bo'lishi mumkin.

Muammolari

- Muallim uchun rejalashtirish va differensiallashtirish (moslashtirish) ishini ko'proq talab qiladi - bir mavzu uchun bir necha darajadagi topshiriqlar, materiallar va strategiyalar tayyorlash kerak bo'ladi.

- Kuchli talabalar zerikishi yoki past darajadagilar ortda qolib ketishi xavfi mavjud.

- Baholashning adolati masalasi – bir xil testlar ham barcha darajadagi talabalar uchun mos bo'lmasligi mumkin.

- Talabalarning o'zini baholash, motivatsiya va o'ziga ishonchi jihatdan farq bo'lishi mumkin - bu sinf muhitiga ta'sir qiladi.

2. Talabalarni diagnostika qilish va tayyorgarlik farqlarini aniqlash

Turli darajadagi sinfda samarali ishlash uchun talabalarning boshlang'ich tayyorgarligi, o'rganish uslubi, motivatsiyasi va ehtiyojlarini bilish muhim.

Diagnostika usullari:

- Dars boshlanishidan oldin yoki kurs boshida sinovlar (listening, reading, writing, speaking) yordamida daraja aniqlash.

- Talabalar bilan suhbat, so'rovnoma - "avval ingliz tilida o'qidingizmi?", "qaysi o'rganish uslubi sizga yoqadi?", "maqsadingiz nima?" kabi savollar orqali.

- Dars davomida formativ baholashlar: kichik kvizlar, "exit ticket" (dars oxirida birikki savol), juft ishlar va shaxsiy kuzatuv.

Tayyorlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar:

- Har bir talabaning profilini tuzish: tayyorgarlik darajasi, kuchli jihatlari, zaif jihatlari, qiziqishlari.

- O'qitish jarayonida guruhlash, juft ishlash, mos topshiriqlar rejasini shu ma'lumotga asoslanib tayyorlash.

- Dars materiali: bir mavzu bo'yicha darajaga mos variantlar – matnlar, faoliyatlar, kiritilgan yordamlar bilan.

3. Pedagogik tamoyillar va amaliy strategiyalar

Pedagogik tamoyillar:

- Differensiallashtirish (differentiation) – mazmun, jarayon va mahsulot jihatidan talabalar ehtiyojiga moslashuv kerak.

- Scaffolding (qadamqadam qo'llabquvvatlash) – talabalarni boshlab qo'llab, keyin mustaqil ishlashga o'tkazish.

- Moslashuvchan guruhlash (flexible grouping) – turli guruhlash usullarini qo'llash.

- Talabamarkazli yondashuv (learnercentred) – tanlov, maqsad belgilash va refleksiya imkoniyati berish.

- Motivatsiyani saqlash va xato qilish xavfsizligini yaratish – sinf muhitida xato qilishdan qo'rqmaslik.

Amaliy strategiyalar:

- Differensiallashtirilgan topshiriqlar (tiered

tasks, choice boards) – bir mavzu, turli murakkablikdagi topshiriqlar.

- **Guruhlash va juft ishlash** – kuchli va zaif talabalarni aralash guruhga qo'yish, rollar belgilash.

- **Mos materiallar va resurslar** – darajaga mos matnlar, so'z banklari, vizual audio yordam.

- **Faoliyat turlarini xilmaxil qilish** – individual, juft, guruh ishlar; o'yinlar, interaktiv vazifalar.

- **Tez tugaydiganlar va yordamga muhtojlar uchun qo'shimcha variantlar** – extension tasks, catchup stations.

4. Dars rejalashtirish va baholash

Dars rejalashtirish:

Mavzuni tanlash, maqsad belgilash, warmup, kirish lug'at/grammatika, differensiallashtirilgan topshiriq, guruh faoliyati, taqdimot/fikrmulohaza, uyga vazifa yoki kengaytma bilan tashkil etish.

Baholash va taraqqiyot:

- Formativ baholash: "exit ticket", juft/guruh ishida kuzatish, self/peerassessment.

- Yakuniy baholash: darajaga mos test yoki loyihalar, ochiq mezonlar.

- Taraqqiyotni kuzatish: talabalar profilini yuritish, maqsadga erishish suhbatlari, rejalashtirilgan yordam.

Xulosa. Turli darajadagi sinflarda ingliz tilini o'qitish – bu murakkab, lekin juda mazmunli jarayon. To'g'ri yondashuv bilan barcha talabalar o'z salohiyatini rivojlantirishi mumkin. Muallimdan differensiallashtirish, qo'llabquvvatlash, mos materiallar va faol strategiyalar talab etiladi. Sinf tarkibi turlicha bo'lganida, bu muammo emas, balki imkoniyat sifatida qo'llanilishi lozim. Har bir talaba qadrlanishi, rag'batlantirilishi va o'z temposida o'sishi uchun sharoit yaratish muhimdir. Shu bilan birga, sinf madaniyati - xato qilishdan qo'rqmaslik, o'zaro yordam va tanlov imkoniyatlari bilan boyitilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, Joanna. *The English Language Teacher's Handbook: How to Teach Large Classes with Few Resources*. New York: Continuum; London: Cassell, 2000.

2. Berry, Eve; Williams, Molly. *Teaching Strategies for Multilevel ESL Classes*. Facilitator's Guide. Oregon: Clackamas Community College, 1992.

3. Harmer, Jeremy. *How to Teach English*. Essex: Pearson Longman, 2007.

4. Harmer, Jeremy. *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Longman, 2001.

5. Hess, Natalie. *Teaching Large Multilevel Classes*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

6. Hordienko, N. M.; Lomakina, L. V. "Teaching EFL to MixedAbility Classes: Strategies, Challenges, Solutions." *Advanced Education*, 2015.

7. Lembaga Bahasa LIAPalembang, Diana Luspa. "Mixed Ability Classes in EFL Learning: Problems and Solutions." *Esteem Journal*, 2018.

8. Ma'rufjon qizi Usmonaliyeva, M.; Kosimova, Mukammal Umaraliyevna. "Teaching MixedAbility Classes." *Educational Research in Universal Sciences*, 2024.

9. Otakulova Barnoxon. "Teaching MixedAbility Classes: Factors, Challenges and Advantages." *New Modern Researchers: Modern Proposals and Solutions*, 2025.

10. Turg'unov, Shuhrat; Adashova, Shohista. "Teaching Large and MixedAbility Classes." *PEDAGOGS International Research Journal*, 2024

Vazira IBRAGIMOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti
“Neft gaz va geologiya” fakulteti assistenti
e-mail: vibragimova754@gmail.com

FIZIKA TA'LIMIDA RAQAMLI VA GIBRID LABORATORIYALAR: PEDAGOGIK SAMARADORLIK VA QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya: zamonaviy fizika ta'limida raqamli va gibridd laboratoriyalar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar talabalarga murakkab fizik jarayonlarni vizualizatsiya qilish, nazariy bilimlarni amaliy natijalar bilan bog'lash va mustaqil tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Gibridd laboratoriyalar esa real va virtual tajribalarni uyg'unlashtirib, xavfsiz, interaktiv va takrorlanuvchi o'quv muhitini yaratadi.

Kalit so'zlar: raqamli laboratoriyalar, gibridd laboratoriyalar, fizika ta'limi, pedagogik samaradorlik, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'qitish samaradorligi.

Annotation: in modern physics education, digital and hybrid laboratories are an important tool for increasing the effectiveness of the pedagogical process. Virtual laboratories and simulations allow students to visualize complex physical processes, connect theoretical knowledge with practical results, and develop independent research skills. Hybrid laboratories, on the other hand, combine real and virtual experiences to create a safe, interactive, and repeatable learning environment.

Key words: digital laboratories, hybrid laboratories, physics education, pedagogical effectiveness, virtual laboratories, simulation, innovative pedagogical technologies, teaching effectiveness.

Аннотация: в современном физическом образовании цифровые и гибридные лаборатории являются важным инструментом повышения эффективности педагогического процесса. Виртуальные лаборатории и симуляции позволяют студентам визуализировать сложные физические процессы, связывать теоретические знания с практическими результатами и развивать навыки самостоятельной исследовательской работы.

Ключевые слова: цифровые лаборатории, гибридные лаборатории, физическое образование, педагогическая эффективность, виртуальные лаборатории, симуляция, инновационные педагогические технологии, эффективность обучения.

Kirish. So'nggi o'n yillikda fizika ta'limi jadal raqamli transformatsiyaga yuz tutmoqda. An'anaviy "qo'lda bajariladigan" laboratoriya ishlari amaliy tajriba berish bilan birga, qimmat jihozlar, xavfsizlik muammolari va cheklangan imkoniyatlar sababli ko'plab ta'lim muassasalarida to'liq qo'llanilmayapti [1], [2]. Shu bois, dunyo bo'yicha raqamli simulyatsiyalar va gibridd laboratoriyalar (ya'ni virtual hamda real tajriba muhitini birlashtiruvchi tizimlar) fizika ta'limining zamonaviy pedagogik shakliga aylanmoqda [3], [4].

Raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalar talabalarga murakkab fizik jarayonlarni xavfsiz, tejamkor va interaktiv sharoitda o'rganish imkonini beradi. Masalan, PhET Interactive Simulations

platformasi orqali o'tkazilgan tadqiqotlar simulyatsiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish fizika tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan [5]. Shu bilan birga, CloudLabs tizimi talabalarga masofadan turib amaliy tajribalarni bajarish imkoniyatini yaratgan, bu esa mustaqil pedagogik tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan [6].

Gibridd laboratoriyalar esa real va virtual tajribalarni uyg'unlashtirib, xavfsiz, interaktiv va qayta takrorlanuvchi pedagogik muhit yaratadi. Remote Labs 2.0 modeli talabalarga masofadan real jihozlarni boshqarish imkonini bergan, bu esa laboratoriya resurslarini 40% tejam qilishga olib kelgan [7]. CloudLabs Learning tizimi esa

sensorlar va aktorlar yordamida fizik tajribalarni onlayn amalga oshirish orqali o'quvchilarning refleksiya va tahlil ko'nikmalarini oshirgan [6].

Biroq, raqamli va gibrid laboratoriyalarni joriy etishda bir qator pedagogik va texnik qiyinchiliklar mavjud: texnik jihozlarning yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi pastligi, kognitiv yuklama o'tirish va baholash mezonlarining nomuvofiqligi [8]. Shu bois, simulyatsiyalar va gibrid laboratoriyalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar tomonidan aniq metodik ko'rsatmalar va pedagogik qo'llanmalar taqdim etilishi zarur [9].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gibrid laboratoriyalar samarali bo'lishi uchun:

- Real va raqamli muhit o'rtasida pedagogik integratsiya;
- Baholash mezonlari kompetensiyaga asoslangan bo'lishi;
- O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar mavjud bo'lishi zarur [10].

Shuningdek, UNESCO (2023) hisobotida raqamli laboratoriyalar pedagogik tenglikni oshirish, ekologik izni kamaytirish va o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini tezlash-

tirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi [11]. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli laboratoriyalarni joriy etish nafaqat texnologik modernizatsiya, balki ekologik va iqtisodiy jihatdan ham pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [12].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli va gibrid laboratoriyalar fizika ta'limini interaktiv, xavfsiz va innovatsion shaklga keltiradi, lekin ularning pedagogik samaradorligi o'qituvchi tayyorgarligi, texnik baza va metodik qo'llanmalar bilan chambarchas bog'liq [13]. Shu bilan birga, bu yondashuvlar o'quvchilarning nazariy va amaliy ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini beradi va 21-asr pedagogik talablari bilan mos keladi.

Natijalar va tahlil.

Tadqiqot natijalari raqamli simulyatsiyalar va gibrid laboratoriyalarni fizika ta'limida qo'llash o'quvchilarning konseptual tushunish, amaliy faoliyat va motivatsiya darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. SPSS dasturi orqali tahlil qilingan ma'lumotlarga ko'ra, tajriba guruhi (n=60) va nazorat guruhi (n=58) o'rtasida quyidagi farqlar aniqlandi:

Ko'rsatkich	Boshlang'ich o'rtacha (M±SD)	Yakundagi o'rtacha (M±SD)	Farq (%)	p
Konseptual tushunish	56.4 ± 8.1	78.5 ± 7.3	+28.7 %	< 0.001
Eksperimental ko'nikma	52.1 ± 9.6	75.2 ± 8.9	+23.1 %	< 0.001
Raqamli savodxonlik	61.3 ± 7.9	81.4 ± 6.5	+20.1 %	< 0.001
Motivatsiya darajasi	64.2 ± 6.8	83.7 ± 5.4	+19.5 %	< 0.001
Refleksiya (o'z-o'zini tahlil)	58.9 ± 8.4	80.3 ± 6.7	+21.4 %	< 0.001

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, gibrid laboratoriyalar (ya'ni real tajriba va virtual simulyatsiyani birlashtiruvchi muhitlar) talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etish ko'rsatkichini 25–30 % gacha oshirgan. Shu bilan birga, virtual muhitda mustaqil ish bajarish imkoniyati ularning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirgan.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli simulyatsiyalar va gibrid laboratoriyalar fizika ta'limida yangi pedagogik yondashuv sifatida yuqori samaradorlikka ega. An'anaviy "tajriba –

natija – hisobot" tizimidan farqli o'laroq, ushbu modelda o'quvchi faol ishtirokchi sifatida jarayon markaziga qo'yiladi. Talaba endilikda tayyor natijani kuzatuvchi emas, balki uni o'zi kashf etuvchi, tahlil qiluvchi va model yaratuvchi subyektga aylanadi. Bu o'quv jarayonining motivatsion va ijodiy komponentlarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Xulosa.

Olingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, fizika pedagogikasi sohasida raqamli simulyatsiyalar va gibrid laboratoriyalarni joriy etish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki

ularning ijodiy tafakkuri, tahliliy yondashuvi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. An'anaviy laboratoriyalarga nisbatan raqamli muhit xavfsizroq, tejamkor va pedagogik jarayonda

kengroq imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, murakkab fizik hodisalarni vizual modellashtirish orqali o'quvchilar mavzularni chuqurroq anglaydi, xatolardan qo'rqmay tajriba o'tkazadi va o'z xulosalarini mustaqil shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Banda H.J., Nzabahimana J. *Effect of integrating physics education technology simulations on students' conceptual understanding in physics: A review of literature*. – Phys. Rev. Phys. Educ. Res., 2021, Vol. 17, No. 2, p. 023108.
2. PhET Interactive Simulations. *Research and publications*. – University of Colorado Boulder, 2022. – URL: <https://phet.colorado.edu/research>
3. Agyei E.D., Agyei D.D. *Enhancing students' learning of physics concepts with simulation as an instructional ICT tool*. – Eur. J. Interact. Multimed. Educ., 2021, Vol. 2, No. 2.
4. Herrera L.A. *The role of digital simulation in enhancing conceptual understanding in physics*. – Int. J. Math. Sci. Educ., 2024.
5. CloudLabs Learning. *Hybrid Laboratories*. – 2023. – URL: <https://cloudlabslearning.com/hybrid-laboratories>
6. Diab H. *Transforming science education in elementary schools: Integrating simulations*. – Educ. Sci. Dig., 2024, Vol. 8, No. 11.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoni. *“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida*. – 2020-yil 5-oktabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-fevraldagi 87-son qarori. *Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*.
9. Susilawati A., Nuraini L., Yuliyanto A. *Effect of using PhET simulation media to enhance students' motivation and problem-solving skills in learning physics*. – Res. Gate, 2022.
10. UNESCO. *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
11. Ganiev, A.A. (2024). Virtual Laboratories and Mobile Laboratory Stands as Educational Technologies in Physics Teaching. PEDAGOGS, 60(1), 37–40.
12. Akhmetova, N., Sandibaeva, N., & Garnaeva, G. (2023). Formation of Students' Research Skills in Digital Transformation of Physics Teaching. Periodicals of Engineering and Natural Sciences (PEN), 13(2), 344.
13. Karshiboyev, Sh. E., Imomov, B. U., Bektemirov, Sh. K., Ibragimova, V. I., & Urinov, S. X. (2025). *Fizika fanidan laboratoriya ishlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma*. Buxoro: “Kamolot” nashriyoti.

Sholpan PIRNIYAZOVA,
 Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika
 instituti assistent o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILISHGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga qiziqishini shakllantirishning lingvodidaktik asoslari tahlil qilingan. Maqolada o'quvchilarning bilimga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar yoritiladi. Interfaol yondashuvlar va o'yinli ta'lim vositalarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, boshlang'ich ta'lim, lingvodidaktika, bilishga qiziqish, interfaol metodlar, o'quv motivatsiyasi, kommunikativ yondashuv.

Аннотация: в статье анализируются лингводидактические основы формирования познавательного интереса у учащихся начальных классов на уроках родного языка. Рассмотрены методы, способствующие повышению учебной мотивации школьников. Отмечается значение интерактивных подходов и игровых технологий в обучении.

Ключевые слова: родной язык, начальное образование, лингводидактика, познавательный интерес, интерактивные методы, учебная мотивация, коммуникативный подход.

Annotation: this article analyzes the linguodidactic foundations of developing cognitive interest among primary school students in mother tongue lessons. It discusses methods that enhance learners' motivation for knowledge. The importance of interactive approaches and game-based learning tools is emphasized.

Key words: mother tongue, primary education, linguodidactics, cognitive interest, interactive methods, learning motivation, communicative approach.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va bilishga qiziqishni shakllantirish masalalari eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu jarayonning samarali tashkil etilishi keyingi bosqichdagi o'quv faoliyati uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ona tili darslarida o'quvchilarning bilishga bo'lgan ichki motivatsiyasini uyg'otish, ularni so'z boyligini kengaytirishga, nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirish bugungi pedagogik amaliyotning muhim talabi hisoblanadi [4].

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantirish masalasi lingvodidaktika fanining asosiy tadqiqot obyekti sanaladi. Lingvodidaktik yondashuv o'quv jarayonida tilni o'rgatish bilan bir qatorda o'quvchining shaxsiy, psixologik va bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, darsdagi metodik yondashuvlari, interfaol usullarni to'g'ri tanlashi muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ona tili darslarida o'quvchilarning bilishga qiziqishini uyg'otish orqali ularning tafakkurini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va nutqiy kompetensiyalarini oshirishga erishiladi. Shu bilan birga, bu jarayonni lingvodidaktik asosda takomillashtirish orqali ta'limning samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarda ona tiliga mehr uyg'otish imkoniyati kengayadi. Tadqiqotning **maqsadi** – ona tili darslarida boshlang'ich sinf

o'quvchilarining bilishga qiziqishini shakllantirishning lingvodidaktik asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish va uni takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat [1].

Tadqiqotning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

– lingvodidaktika nazariyasining asosiy tamoyillarini tahlil qilish;

– boshlang'ich sinflarda bilishga qiziqishni shakllantirishga oid ilmiy manbalarni o'rganish;

– ona tili darslarida lingvodidaktik yondashuv asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish metodlarini aniqlash;

– pedagogik tajriba asosida taklif etilgan metodlarning samaradorligini baholash.

Tadqiqotning **predmeti** – ona tili darslarida o'quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantirish jarayoni [3]. Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** shundan iboratki, unda ona tili darslarida bilishga qiziqishni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari tizimli yondashuv asosida o'rganildi va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga qiziqishini shakllantirish jarayonini o'rganishda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: kuzatish, suhbat, so'rovnoma, dars tahlili, tajriba-sinov ishlari hamda taqqoslash metodlari. Ishning amaliy qismi 1–3-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, unda o'quvchilarning ona tili darslariga bo'lgan qiziqish darajasi aniqlanib, lingvodidaktik metodlar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar samarasi tahlil qilindi. Eksperimental ishlar jarayonida o'quvchilarning bilishga

qiziqishini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

Interfaol metodlar: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Fikrlar almashinuvi”, “Rolga kirish” kabi.

Didaktik o‘yinlar: so‘z topish, gap tuzish, sinonim-antonim o‘yinlari.

Nutqni rivojlantirish mashqlari: matnni davom ettirish, hikoya tuzish, muammoli savollarga javob topish [5].

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning 80 foizi faol ishtirok etdi.

“Rolga kirish” va “Klaster” metodlari asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar mustaqil fikr bildirishga harakat qildi.

Dars oxirida o‘tkazilgan qisqa suhbatlar natijasida o‘quvchilarning 70 foizi ona tili faniga nisbatan qiziqish bildirganini aytgan.

So‘z boyligi, to‘g‘ri talaffuz va gap tuzish ko‘nikmalarida ijobiy o‘sish qayd etildi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida lingvodidaktik metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilishga qiziqishini 30–35% ga oshirdi. Ayniqsa, o‘yinli topshiriqlar va guruhli faoliyat bolalarda musobaqalashish va o‘z fikrini ifodalash istagini kuchaytirdi.

Shuningdek, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq faoliyati o‘rtasida muvozanat yuzaga kelgani, matnni tahlil qilish va fikrni mantiqan ifodalash qobiliyati rivojlangani aniqlanadi. Bu esa lingvodidaktik yondashuvning samaradorligini amalda isbotlaydi [6].

Lingvodidaktika nazariyasiga ko‘ra, o‘quv jarayonida til materiallarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘quvchining bilish faoliyatini rag‘batlantirish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari bu nazariy qarashlarni amalda tasdiqlab berdi. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli savollar asosida muloqot tashkil etish, o‘yinli topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilishga qiziqishini barqaror shakllantirishda muhim omil bo‘lib chiqdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida **ta’limning kommunikativ, interfaol va ijodiy yondashuvlari** uyg‘un holda qo‘llanganda o‘quvchilarning so‘z boyligi, tahlil qilish ko‘nikmalari va nutq madaniyati rivojlanadi. Bu holat boshqa tadqiqotlar (masalan, A.Karimova,

N.To‘xtayeva, Sh.Mirzayeva tadqiqotlari)da ilgari surilgan lingvodidaktik tamoyillar bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlanishicha, o‘quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati va nutq madaniyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yarata olsa, o‘quvchilarda o‘zini erkin ifoda etish, savol berish va mantiqiy fikrlashga bo‘lgan ishonch ortadi. Umuman olganda ona tili darslarida lingvodidaktik yondashuv asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish – bu nafaqat o‘quvchining o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish, balki ularning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning eng muhim yo‘nalishidir. Ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga qiziqishini shakllantirish – ularning shaxsiy, nutqiy va ijodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Lingvodidaktik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda til materiallarini chuqur anglash, so‘z boyligini kengaytirish, nutqni ifodali qurish va fikrni erkin bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar, o‘yinli topshiriqlar va kommunikativ mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi. Bunday yondashuv ularning ta’lim jarayonidagi faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Shuningdek, o‘qituvchining lingvodidaktik bilimlari, dars jarayonida to‘g‘ri metodik yondashuvi hamda ijobiy psixologik muhit yaratish mahorati bilishga qiziqishni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: ona tili darslarida interfaol va ijodiy metodlarni tizimli qo‘llash; dars jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi o‘yin va muammoli vaziyatlardan foydalanish; lingvodidaktik tamoyillar asosida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish; o‘quvchilarda tilga nisbatan mehr va estetik didni shakllantiruvchi topshiriqlarga keng o‘rin berish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, lingvodidaktik yondashuv asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarda bilishga qiziqishni barqaror shakllantirish, ularni tilni sevishga, so‘z san‘atini anglashga va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Karimova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
2. N.To‘xtayeva. Lingvodidaktika asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
3. D.G‘ulomova., M.Sattorova. Boshlang‘ich ta’limda interfaol o‘qitish texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
4. A.Xodjayev. Pedagogika nazariyasi va tarbiya metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. O.Hasanboyeva, N.Jo‘rayeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4312-son qarori. “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.”
7. K.Shoumarov. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishini rag‘batlantirish omillari. – “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2022. №2, 61–67-b.

Sarvara ERGASHEVA,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
 davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining
 O'TA yo'nalishi magistri
sarvarafurqatqizi@gmail.com

8-SINF O'QUVCHILARINI ADABIYOT FANIDAN SUMMATIV BAHOLASHGA OID TOPSHIRIQLARNING O'ZIGA XOSLIGI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada 8-sinf o'quvchilarini summativ baholashga oid topshiriqlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, unda mumtoz she'riy matnni o'qib tushunish hamda shu asosida berilgan topshiriqlarni bajarish tartibi, baholash mezonini keltirilgan. Ushbu topshiriqlar yuzasidan Toshkent shahrida joylashgan Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o'quvchilari orasida tajriba-sinov o'tkazilgan. Uning natijalari ham maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *summativ baholash, baholash mezonini, o'qib tushunish, Blum taksonomiyasi, test, she'r*

Аннотация: в статье рассматривается значение заданий для суммативного оценивания учащихся 8 класса. Описан порядок выполнения заданий, направленных на понимание классического поэтического текста, а также приведены критерии оценивания. На основе данных заданий было проведено экспериментальное исследование среди учащихся 8 класса специализированной школы имени Абу Али ибн Сино в городе Ташкент. Результаты исследования также представлены в статье.

Ключевые слова: *суммативное оценивание, критерии оценивания, понимание прочитанного, таксономия Блума, тест, поэтический текст.*

Annotation: this article discusses the importance of tasks for summative assessment of 8th grade students. It also presents the procedure for reading and comprehending a classical poetic text and completing the tasks based on it, as well as the assessment criteria. An experimental study was conducted on these tasks among 8th grade students of the Specialized school named after Abu Ali ibn Sino in Tashkent. Its results are also presented in the article.

Key words: *summative assessment, assessment criteria, reading comprehension, Bloom's taxonomy, test, poetry.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim olishi, o'qib-izlanishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Xususan, sport, san'at, adabiyot sohasiga alohida e'tibor kuchaymoqda [1].

Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun jahon standartlariga mos darsliklar yaratilmoqda, yangicha metodikani targ'ib qilish uchun o'quv seminarlari tashkil qilinmoqda. Darhaqiqat, "Zed", "Alfa" avlod ta'lim-tarbiyasida zamonaviy texnika, texnologiya, yangicha metod, fanlararo integratsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki oddiy, an'anaviy o'qitish tizimi bu avlod vakillarining e'tiborini yetarlicha jalb etolmasligi mumkin. Zero ular o'qituvchi beradigan ma'lumotni xohlagan internet manbalaridan, elektron kitoblardan oson topa oladilar. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar egallagan

bilim, ko'nikma, malakalarni baholash uchun eskicha yondashuvlardan qisman voz kechish lozim. Ta'lim tizimini rivojlantirish, jahon o'qitish standartlarini ommalashtirish uchun bugungi kunda summativ va formativ baholash tizimi respublika bo'ylab tatbiq etilmoqda. Summativ baholash (adabiyotlarda "o'rganishni baholash" deb ham yuritiladi) – ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, fan (modul) bo'limi oxirida, fan (modul) oxirida, o'quv choragi (semestr) yoki o'quv yili oxirida, ta'limning bir bosqichi nihoyasida yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lim oluvchining ta'lim maqsadlarga qay darajada erishganini o'lchash jarayoni [7:276]. Masalan, ularni summativ baholash uchun adabiyot darslarida oldin ko'proq avval insholar yozdirilgan. "Alisher Navoiy g'azallari shaydosiman", "Nodiraning hasbi hol g'azallari", "Lutfiy g'azallari tahlili" singari mavzularda insho yozish talab etilardi. Bu kabi

mavzularda insho yozish uchun o'quvchi g'azallarni tahlil qila olishi, muallif maqsadini tushunishi, asar g'oyasini topa bilishi talab etilardi. Ko'pincha o'quvchilar tahlil qilishga qiynalib, g'azalni tushunmasdan, "G'azal haqida" mavzusidagi tahlilni ko'chirib olishardi. Hozirgi davrda esa dunyo olimlari maktabda o'rgatilayotgan bilim, ko'nikma, malakalardan hayotiy kompetensiya sifatida foydalanish zarur degan g'oyani ilgari surishmoqda. Shu bois ta'limning hozirgi bosqichida – baholashning yangicha shakllariga o'tishda bir qator: zarur parametr (umumiy ta'limning tashkil etilishi darajasi, o'quvchiga xos bo'lgan qobiliyatlar va kompetensiya – bilim, qobiliyat, ko'nikma, malaka, qiziqish va motivatsiya uyg'unligining darajasi) larni jamiyat va zamon talablariga muvofiq ravishda shakllantira bilish hamda ularni xolis baholash bilan bog'liq muammolar mavjud [5:291].

O'quvchilarni summativ baholash uchun yopiq testlardan tashqari ochiq testlardan ko'proq foydalanish ularning fikrlash doirasini tekshirish, bolaning matnni qay darajada tushunganini aniqlash, asardan chiqargan xulosalarini tahlil qilish uchun samarali hisblanadi. Ochiq test topshirig'i – test topshiruvchi javobni o'zi yaratishi (yozishi, og'zaki javob berishi, ijro etishi, bajarib ko'rsatishi va hokazo) talab qilinadigan test topshirig'i [4:26].

Quyida Toshkent shahrida joylashgan Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o'quvchilari orasida summativ baholashga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishi, uning natijasi keltirilgan:

Tanlangan obyekt: Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o'quvchilari

Domen: qit'a janri

O'lchanadigan xususiyat: o'quvchilarning qit'a janri bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish.

O'lchov indikatorlari:

→ qit'aning boshqa janrlardan farqini tushunish va ajrata olish;

→ qit'ada ifodalangan so'zlarning kontekstual ma'nosini anglash;

→ qit'aning misra, baytini tushunish va tahlil qila olish;

→ qit'ada qo'llangan badiiy san'atlarni topa olish (tazod, nido, tanosub, tashbeh, tamsil);

→ qit'ada ilgari surilgan g'oyani aniqlay olish.

TEST TOPSHIRIQLARI TASNIFI

1. Quyida keltirilgan mumtoz she'riy asarlarning janrini yozing va ularning janriy xususiyatini izohlang:

1. Qarilar xotiri nozikdur, ey tifi,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox?
2. Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq.
Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan —
O'q undan qanchalik qochganiga boq!
3. Ne toledurki, har kimiki desam yor,
Manga ul oqibat bo'lur badandesh.
Biravdurkim, oni desam ko'zumsen,
Chekar mujgon kibi qasdimg'a yuz. [<https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/alisher-navoiy-qitalar-xurshid-davron-sharh.html>]

2. Ushbu mumtoz she'riy asarning **tabdilini** yozing:

**Qarilar xotiri nozikdur, ey tifi,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox?**

3. Yuqoridagi mumtoz she'riy asarlarda qanday **badiiy san'atdan** foydalanilgan? Badiiy san'atlarni hosil qiluvchi **vositalarni** yozing.

4. Yuqorida keltirilgan mumtoz she'riy matnlarga mos maqollar yozing.

Foydalanish uchun lug'at

Xotir – ko'ngil; xotira

Tifi – bola, go'dak

Shikast – sinish; zarar yetishi

Vahm – vahima, qo'rquv, hayajon; saqlanish, xavf-xatar, xayol, gumon, o'ylov, fikr

O'lma – bo'lma

Gustoh – erka; erkin; ibosiz, tarbiyasiz

Atfol – go'dak, yosh bola

Mayl – kishining narsa yoki ishga, biror ehtiyojini qondirishga bo'lgan ishtiyoqi, qiziqishi, intilishi, havasi; moyillik; istak, xohish, rag'bat; erk, ixtiyor

Ulfat – do'st

Yoy – qadimgi urush va ov quroli

Boq – qara

Tole – turmushdan mamnunlik holati, turmushdan mamnun etuvchi taqdir, omad, baxt

Badandesh – niyati yomon; dushman; xasis

Oni – uni

Chekar – tortmoq, urmoq; boshdan kechirmoq, ruhan yoki jisman his qilmoq; iste'mol qilmoq; sanchib, kuydirib, bosib tasvir, naqsh, bezak hosil qilmoq, bezamoq

Mujgon – kiprik

Kibi – kabi

Qasd – o'ch; biror niyatda bo'lmoq

TEST SPETSIFIKATSIIYASI

T/r	Test	Baholash indika-tori	Test turi	Qiyinlik darajasi	Ball	Ajra-til-gan vaqt
1.	Quyida keltirilgan mumtoz she'riy asarlarning janrini yozing va ularning janriy xususiyatini izohlang: 1. Qarilar xotiri nozikdur, ey tifi, Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh. Unuttungmu-ki, atfol o'ynag'anda Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox?	janrlarni farqlash	ochiq	2	3	2 daqiqa
2.	Quyida keltirilgan mumtoz she'riy asarlarning janrini yozing va ularning janriy xususiyatini izohlang: Yomon bila ulfat bo'lma, yur yiroq, Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq. Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan – O'q undan qanchalik qochganiga boq!	janrlarni farqlash	ochiq	2	3	2 daqiqa
3.	Quyida keltirilgan mumtoz she'riy asarlarning janrini yozing va ularning janriy xususiyatini izohlang: Ne toledurki, har kimiki desam yor, Manga ul oqibat bo'lur badandesh. Biravdurkim, oni desam ko'zumsen, Chekar mujgon kibi qasdimg'a yuz.	janrlarni farqlash	ochiq	2	3	2 daqiqa
4.	Ushbu mumtoz she'riy asarning tab-dilini yozing: Qarilar xotiri nozikdur, ey tifi, Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh. Unuttungmu-ki, atfol o'ynag'anda Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox?	she'rda ifodalangan so'zlarning kontekstual ma'nosini anglash; qit'aning misra, baytini tushunish va tahlil qila olish;	ochiq	3	16	14 daqiqa
5.	Yuqoridagi mumtoz she'riy asarlarda qanday badiiy san'atdan foydalanilgan? Badiiy san'atlarni hosil qiluvchi vositalarni yozing.	she'rda qo'llangan badiiy san'atlarni topa olish (tazod, nido, tanosub, tashbeh, tamsil);	ochiq	3	16	15
6.	Yuqorida keltirilgan mumtoz she'riy matnlarga mos maqollar yozing.	she'riy matnda ilgari surilgan g'oyani aniqlay olish	ochiq	2	9	10 daqiqa

Jami: 50 ball

Vaqt: 45 daqiqa

BAHOLASH MEZONI

No	Baholash mezon	Ball
1.	Asarlar janri to'g'ri topilgan va izohlangan	9
	<i>Izoh: asarlar janri to'g'ri topilgan, lekin izohlanmagan bo'lsa (har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi)</i>	3
2	Asar tabdili to'g'ri yozilgan bo'lsa, har bitta misra to'g'ri bo'lsa	16
3	Har bir to'g'ri topilgan va izohlangan badiiy san'atga 3 balldan beriladi	16
	Har bir to'g'ri topilgan javob uchun 1 balldan beriladi	
4	Yuqorida keltirilgan mumtoz she'riy matnlarga mos maqollar yozing. Har bir to'g'ri javob uchun 5 ball	9

2-TAJRIBA TESTI TAHLILI

T/r.	APROBATSIIYA HAQIDA MA'LUMOT	
1.	Tajriba o'tkazilgan sinf	Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-"A" sinf o'quvchilari
2.	Tajriba ishtirokchilari soni	18 ta
3.	Ajratilgan vaqt	45 daqiqa
4.	Testning umumiy soni	4 ta

Testning tartib raqami	To'g'ri belgilaganlar soni	Noto'g'ri belgilaganlar soni	Xulosa
1.1.	12 (67%)	6 (33%)	valid
1.2.	10 (56%)	8 (44%)	valid
1.3.	12 (67)	6 (33%)	valid
2	11 (61%)	7 (39%)	valid
3.1.	8 (44%)	10 (56%)	valid
3.2.	7 (39%)	11 (61%)	valid
3.3	9 (50%)	9 (50%)	valid
4.1.	15 (83%)	3 (17%)	novalid
4.2.	6 (33%)	12 (67%)	valid
4.3.	8 (44%)	10 (56%)	valid

2-TAJRIBA TESTI TAHLILI

T/r.	APROBATSIIYA HAQIDA MA'LUMOT	
1.	Tajriba o'tkazilgan sinf	Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8- "B" sinf o'quvchilari
2.	Tajriba ishtirokchilari soni	18 ta
3.	Ajratilgan vaqt	45 daqiqa
4.	Testning umumiy soni	4 ta

Testning tartib raqami	To'g'ri belgilaganlar soni	Noto'g'ri belgilaganlar soni	Xulosa
1.1.	10 (56%)	8 (44%)	valid
1.2.	16 (89%)	2 (11%)	novalid
1.3.	12 (67%)	6 (33%)	valid
2	9 (50%)	9 (50%)	valid
3.1.	13 (72.2%)	5 (28%)	valid
3.2.	6 (33%)	12 (67%)	valid
3.3	8 (44%)	10 (56%)	valid
4.1.	18 (100%)	0 (0%)	novalid
4.2.	16 (89%)	2 (11%)	novalid
4.3.	11 (61%)	7 (39%)	valid

Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillar esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir [6:75]. 8-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan yuqoridagi summativ baholash uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar "Blum taksonomiyasi"ning bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish [7:205] bosqichlarini qamrab olgan. Tajriba jarayonida

o'quvchilarning aksariyati mumtoz she'riy matnda ifodalangan badiiy san'atlarni topishga qiynalgan. Ayrim o'quvchilar she'rdagi badiiy san'atni to'g'ri topgan bo'lsa-da, ularni izohlashda qiyinchiliklarga duch kelgan. Adabiyot darslarida mumtoz she'riy matnni tahlil qilishga o'rgatish uchun ko'proq uni tabdil qilib, hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'girishga o'rgatilsa, shu asosida topshiriqlar berib borilsa, o'quvchi mumtoz she'rlarni o'qib tushunishda muammolarga duch kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 29-апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизimini 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlash то'ғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони // Халқ со'зи. – Тошкент, 2019-йил 30-апрел. No 88 (7318).
3. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида" ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2020. 252-b.
5. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim metodikasi. – T.: Innovatsiya – Ziyo, 2024. 320-b.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Metodist nashriyoti, 2023. 390-b.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – T.: Academ Space, 2024. 295-b.
8. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013, 412-b.
9. Fozilov E. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – T.: Fan, 4-tom.
10. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/alisher-navoiy-qitalar-xurshid-davron-sharh.html>

Dilfuza UMAROVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsina,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

O'QUVCHILARDA MATNLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning mazmun-mohiyati, zamonaviy ta'lim jarayonida bu ko'nikmaning ahamiyati hamda uni rivojlantirishning samarali metodlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning o'qish, tahlil, qayta hikoya qilish, umumlashirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *matn bilan ishlash, o'quvchi, ta'lim jarayoni, ko'nikma, tafakkur, tahlil, o'qish madaniyati, orfografik xatolar, diktant.*

Аннотация: в данной статье анализируются сущность и содержание формирования у учащихся навыков работы с текстом, значение этого навыка в современном образовательном процессе, а также эффективные методы его развития. В исследовании на научной основе освещены педагогические подходы, направленные на развитие у учащихся навыков чтения, анализа, пересказа, обобщения и критического мышления.

Ключевые слова: *работа с текстом, учащийся, образовательный процесс, навык, мышление, анализ, культура чтения, орфографические ошибки, диктант.*

Annotation: this article analyzes the essence of developing students' skills in working with texts, the importance of this competence in the modern educational process, and effective methods for its enhancement. The study scientifically elucidates pedagogical approaches aimed at improving students' reading, analysis, retelling, summarization, and critical thinking skills.

Key words: *working with text, student, educational process, skill, cognition, analysis, reading culture, orthographic errors, dictation*

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish va ularni mustaqil bilim egallashga yo'naltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, o'quvchilarda **matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish** zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi o'qigan matnни to'g'ri anglash, tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratib olish, muallif fikrini tushunish va uni o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lash orqali tafakkurini rivojlantiradi. Matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning nafaqat o'qish madaniyatini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini ham shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni ham o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, tanqidiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishni asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Ushbu konsepsiyada o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida muhim o'rin tutadi. Chunki aynan shu davrda o'quvchi o'qish va tushunishning asosiy malakalarini egallaydi, so'z boyligi kengayadi, fikrlash darajasi shakllanadi. O'qituvchi tomonidan tanlangan matnlar, ularga nisbatan

berilgan topshiriqlar, tahlil va qayta hikoya qilish mashqlari o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga, dunyoqarashining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan, o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat filologik bilimlarni rivojlantiradi, balki ularning hayotiy kompetensiyalarini — muloqot, tahlil, xulosa chiqarish, baholash va ijodkorlik qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Mazkur ilmiy maqolada matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari, samarali metodik yondashuvlari va ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Matn bilan ishlash deganda o'qilgan yoki tinglangan matnни anglash, tahlil qilish, muallif g'oyasini tushunish, asosiy mazmunni ajratish, fikrlarni izchillikda ifodalash va xulosa chiqarish jarayoni tushuniladi. Ushbu jarayon o'quvchining mantiqiy fikrlashini, tafakkur doirasini, nutq madaniyatini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar matn bilan ishlashda bir necha bosqichli kognitiv faoliyatni amalga oshiradilar: avvalo matnни o'qib tushunadilar, so'ng undagi asosiy ma'lumotlarni ajratadilar, muallifning maqsadini aniqlaydilar, matn mazmunini umumlashtiradilar va oxirida o'z fikrlarini bayon etadilar. Shunday qilib, matn bilan ishlash nafaqat til va adabiyot fanlari doirasida, balki barcha o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda **interfaol metodlardan** keng foydalanish samarali natija beradi. Jumladan, "Insert", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Fishbone" kabi metodlar o'quvchilarning matn tahlil qilish, asosiy fikrni aniqlash va uni izchil bayon etish malakasini kuchaytiradi. Masalan, "Insert" metodida o'quvchi matn o'qish jarayonida belgilar orqali o'z fikrini ifodalaydi: "+" belgisi — yangi ma'lumot, "-" — avvalgi bilimga zid, "√" — tasdiqlovchi ma'lumot, "?" — tushunarsiz joyni bildiradi. Bu usul o'quvchini faol o'quv subyekti sifatida matnga jalb etadi.

Shuningdek, **klaster usuli** matn mazmunini vizual shaklda umumlashtirishga xizmat qiladi. O'quvchi markazda asosiy g'oyani yozib, atrofida unga bog'liq fikrlarni shoxcha tarzida joylashtiradi. Bu usul o'quvchilarda mantiqiy bog'liqlikni ko'ra olish, tushunchalar orasidagi munosabatni aniqlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Matn bilan ishlashning tahliliy bosqichlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

1. **Matn tushunish bosqichi** – o'qilgan matn mazmunini anglash, asosiy fikrni topish;

2. **Tahlil bosqichi** – muallifning maqsadi, g'oyasi, obrazlar, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash;

3. **Umumlashtirish bosqichi** – matndan asosiy g'oya va xulosalarni chiqarish;

4. **Ijodiy qayta ishlash bosqichi** – o'quvchi matn asosida yangi fikrlar yoki o'z ifodasini yaratadi.

Bu bosqichlar o'quvchining tafakkur faoliyatini rivojlantirish bilan birga, uning yozma va og'zaki nutqini boyitadi, tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

Shuningdek, matn bilan ishlashda ****axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)****dan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron matn tahlili, onlayn viktorinalar, testlar, Google Classroom yoki EduPage kabi platformalarda matn asosida topshiriqlar berish o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi va ularni tanqidiy o'ylashga undaydi.

Matn bilan ishlashda differensial yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining yosh xususiyati, bilimi, dunyoqarashi va til imkoniyatlari hisobga olingan holda, matn tanlash va topshiriqlarni tuzish o'quv samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qisqa, sodda, axloqiy mazmundagi

matnlar tanlansa, yuqori sinflarda ilmiy, tarixiy, ijtimoiy, badiiy matnlar bilan ishlash ko'nikmasi rivojlantiriladi.

Ilmiy manbalarda (Qosimova, 2023.; Usmanov, 2024.; Talapov, 2024.) ta'kidlanishicha, o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasi shakllanganda ularning og'zaki va yozma nutqi boyiydi, mantiqiy tafakkuri mustahkamlanadi, mustaqil o'qish va o'z fikrini ifodalash malakasi rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat fanlar bo'yicha bilimini, balki hayotiy kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik mahoratni, dars jarayonini to'g'ri tashkil etishni va o'quvchilarni faol fikrlashga yo'naltiruvchi innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishni talab etadi.

Xulosa. O'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning tafakkuri, nutqi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Matn bilan ishlash jarayoni o'quvchini faqat o'qishga emas, balki o'ylash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z fikrini asosli tarzda ifodalashga o'rgatadi. Bunday yondashuv ta'limning asosiy maqsadi – mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini, o'qish madaniyatini va axborotni tahlil qilish salohiyatini oshiradi. Dars jarayonida interfaol metodlar (klaster, insert, Venn diagrammasi, Fishbone va boshqalar) hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi va ularni faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga jalb etadi.

O'qituvchi uchun eng muhim vazifalardan biri — matn bilan ishlashni o'quvchining yosh, individual imkoniyatlari va qiziqishlariga mos holda tashkil etishdir. Shundagina o'quvchi matndan faqat ma'lumot oluvchi emas, balki o'z fikrini shakllantiruvchi, tahlil qiluvchi, yangi g'oya yaratuvchi faol subyektga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarda mustaqil o'qish madaniyatini, tanqidiy va ijodiy tafakkurni hamda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi muhim omil bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida ushbu yo'nalishni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova, M. S. (2023). *O'qish madaniyatini shakllantirish metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Usmonov, F. F. (2024). *Ta'lim jarayonida matn tahlilining lingvodidaktik asoslari*. – Toshkent.
3. Samadova, S. S. (2022). *Matn ustida ishlashning zamonaviy pedagogik texnologiyalari*. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy nashriyoti.
4. Talapov, B. (2024). *Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar*. – Toshkent.
5. Nafasov, D. Sh., Xodjaniyazova, R. A., Axmedova, G. F., Otajanov, I. A., & Sobirova, N. Y. (2025). *Xalq pedagogikasi*. – Toshkent.

Zebiniso DAVRONOVA,
ToshDO'TAU doktoranti
E-Mail: zebinisodavronova4@gmail.com

O'QUVCHILARDA TASVIRIY MATN QISMLARINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning tasviriy matn qismlarini shakllantirishdagi muammolar tahlil qilindi. Ushbu tahlillar asosida o'quvchilarning tasviriy matn qismlarini shakllantirishdagi kamchiliklari, matn qismlaridagi ma'lumotlar mazmunini farqlay olmasligi, shaxs tashqi ko'rinishi tasviri bilan xulq-atvor tasvirini farqlay olmaslik holatlari, qolip asosida berilgan so'z va birikmalar bilan o'quvchilar o'z jumllarini grammatik va mazmun jihatdan to'g'ri bog'lay olmaslik o'rinlari mavjudligi ko'rsatilib o'tildi.

Kalit so'zlar: *tasviriy matn, tashqi ko'rinish tasviri, xulq-atvor tasviri, matn yaratish, matn qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, mavjud holat, tahlil, 5-sinf, 6-sinf, 7-sinf.*

Annotation: this article provides an analytical overview of the current state of developing students' skills in creating descriptive texts in mother tongue education. Based on these analyses, the shortcomings in students' formation of parts of descriptive texts were identified, including their inability to distinguish the content of information within text parts, difficulty differentiating between descriptions of a person's appearance and behavior, and instances where students could not correctly connect their sentences grammatically and semantically using the given words and phrases according to the pattern.

Key words: *descriptive text, description of appearance, description of behavior, text creation, parts of the text: introduction, main body, conclusion, current state, analysis, 5th grade, 6th grade, 7th grade.*

Аннотация: в данной статье представлен аналитический обзор текущего состояния развития у учащихся навыков создания описательных текстов в обучении родному языку. На основе проведённого анализа выявлены недостатки в формировании частей описательного текста у учащихся, такие как неспособность различать содержание информации в частях текста, трудности в различении описания внешности человека и его поведения, а также случаи, когда учащиеся не могут правильно грамматически и смыслово связывать свои предложения, используя данные слова и выражения по образцу.

Ключевые слова: *описательный текст, описание внешности, описание поведения, создание текста, части текста: введение, основная часть, заключение, текущее состояние, анализ, 5-й класс, 6-й класс, 7-й класс.*

Ona tili darolarida o'quvchilarda tasviriy matn yaratish ko'nikmasining bugungi holatini, matn yaratish jarayonida o'quvchilar duch kelayotgan muammolarni aniqlash maqsadida maktabda darslar kuzatilib tahlil qilindi, o'quvchilar bilan og'zaki suhbatlar olib borildi, shuningdek, maxsus so'rovnomaga o'tkazilib, natijalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijalari asosida o'quvchilarning tasviriy matn yozishga doir qanday bilim va ko'nikmalarga ega ekanining mavjud holati aniqlandi. O'quvchilar tayyor qolip asosida matn qismlarini shakllantirib yozdi. Matn qismlarini shakllantirish uchun tayyor jumla va birikmalar berildi.

S.Boymirzayevaning ta'kidlashicha, "Matn yoki matn yaxlitligi lisoniy belgilarning sintaktik, semantik, pragmatik bog'lanishi asosida tashkil topadigan tugal tuzilmadir. Shu sababli matnning matn bo'lishini, uning tabiatini belgilovchi asosiy xususiyat sifatida nutqiy sintaktik birliklar – gap va nutqiy aktlarning yagona bir matn tizimida birikuvini ta'minlovchi qoidalarni e'tirof etganimiz ma'qulroqdir". [2: 5]

"Matnning asosiy belgilari: matnning mavzusi va undagi asosiy fikr. Matnning bo'linishi. Matn qismlarining tuzilishi. Murakkab sintaktik butunlik. Matnning sodda va murakkab rejasi. Matndagi gap va abzaslarning bir-biri bilan bog'lanish usullari hamda vositalari". [3: 51]

"**Yaqin insoningiz tasvirini quyidagi qolip asosida yozing**" topshirig'idagi tasviriy matn qismlarini shakllantirish uchun tayyor qoliplar hamda struktura berilgan. O'quvchi ushbu ko'rsatmalar asosida shaxs tasvirini yozadi. Ushbu topshiriq asosida o'quvchilarning shaxs tasvirini yaratish, matn qismlarini: kirish, asosiy qism, xulosa qismlarini yozish, matnning boshlanmasi va yakuniy qismlarini shakllantirish, tashqi ko'rinish tasviri va xulq-atvor tasvirini farqlay olish, qolip asosidagi so'zlar bilan o'z jumllarini grammatik va mazmun jihatdan to'g'ri bog'lay olish ko'nikmalarining mavjud holati aniqlandi.

5-sinf o'quvchilari matnlari tahlili (o'quvchilar yozgan matnning aynan o'zi keltirildi).

To'rt nafar o'quvchi berilgan qolip asosida matn qismlarini qoniqarli darajada bajargan. Kirish qismda **"Mening eng yaqin insonim – bu Mirzohid. U men bilan maktabga birga boradi va qaytishda birga"** kabi gaplarda o'quvchi shaxs haqidagi asosiy ma'lumotlarni yozishga to'g'ridan to'g'ri o'tib ketganini ko'rishimiz mumkin. *"U mening sinfdoshim"* *"U mening qadrdon do'stim"* kabi tanishtiruvchi qism mavjud emas. Shuningdek, *"U kuchli va aqlli, chiroyli yaqin do'st hushmomila xazilkash"* *"U har doim meni erkalaydi. Menga bu yoqadi"* kabi kirish qismlarda ham yuqorida aytib o'tilgan kamchilik takrorlangan.

Asosiy qism uch qismdan iborat bo'lib: shaxsning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori va mashg'ulotlarini tasvirlashga qaratilgan. O'quvchilar tashqi ko'rinishni tasvirlashda *"Ularning tashqi ko'rinishi dadam bo'yi uzun qorachadan kega qoshi qopqora"*, *"tashqi ko'rinishi bo'yi kichikroq u ozg'in va qo'li ham o'ziga mos"*, *"dadamning tashqi ko'rinishi chiroyli. Bo'yi uzun. Semizroq. Yuzlarida soqol va mo'ylovlari bor"* kabi tasvirlardan foydalangan. Shaxs xulq-atvori tasvirlari: *"dadamning xulq-atvoriga keladigan bo'lsak, dadam jaxildorroq lekin uncha urshmaydi. Momilasi yaxshi"*, *"Shohjahonning xulq atvoriga keladigan bo'lsak, u juda hushmomila odobli. U darsda uxlay deb o'tiradi. Chunmasa so'rashdan tonmaydi"*. Shaxs tasvirini yaratishda doimiy va sevimli mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar ham yozilgan, o'quvchilarning tasvirlari quyidagicha: *"dadam ko'pincha televizor bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, mashina haydashni uning sevimli mashg'uloti"*, *"Shohjahon ko'pincha o'yinlar o'ynash bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, darvoza va himoyada o'ynash uning sevimli mashg'uloti"*. Xulosa qism uchun *"Umuman olganda, Shohjahon men uchun ideal do'st u mening oyimga kelib turadi"* *"Umuman olganda, dadam juda yaxshi juda mehribon"* kabi fikrlar yozilgan. Qoniqarli darajada bajargan o'quvchilar qolgan o'quvchilarga nisbatan matn qismlarini shakllantirishda har bir qismga mos tasvirlarni yozgan. Ammo o'quvchilar tayyor qoliplar asosida gaplar tuzishda muammolarda duch kelmoqda, ya'ni so'zlarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lashda xatolarga yo'l qo'ymoqda: **"Ayniqsa, dars qilishga oz vaqt ajratadi uning sevimli mashg'uloti"**.

O'n olti nafar o'quvchi matn qismlarini qoniqarli darajada yoza olmagan, matn qismdagi tasvirlarni farqlash, ularni kerakli qismlarda berish, qolip sifatida berilgan so'zlar bilan jummalarni to'g'ri bog'lay olishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Kirish qismda o'quvchilar tanishtiruvchi, umumiy ma'lumotlarning o'rniga asosiy qismga tegishli bo'lgan tasvirlardan foydalangan: *"U juda chiroyli biz har doim bila yuramiz va bila o'tiramiz"*, *"U juda quvnoq va xushchaqchaq"*, *"U*

menga juda yoqadi bir nima so'rab tursam, albatta beradi". o'quvchilar asosiy qismdagi shaxsning tashqi ko'rinishi tasvirini xulq-atvor tasviridan farqlay olmagan: *"Uning tashqi ko'rinishi eng yaqin do'stim va uni kimdir ursa uning yoni olman"*, *"Onamning tashqi ko'rinishi mehribon, go'zal, mehnatkash, bizni yaxshi ko'radi oilasi uchun jonni beradi"*, *"Zuhraning tashqi ko'rinishi juda yaxshi qiz. U uy ishlarini qiladi. Masalan, ovqat pishiradi"*. Xulq-atvoriga oid tasvirlarni yozishda deyarli hech qaysi o'quvchi qiyinchilikka uchramadi (tashqi ko'rinish tasviri bilan farqlay olmaslik o'rinlari ham mavjud): *"U juda jahldor, lekin juda yaxshi. Sal narsag jahli chiqadi"*, *"U juda qaysar. Lekin maktabda yaxshi o'qiydi"*, *"Do'stona va yordam beradigan, har biro dam bilan kelishib ketadigan, menga bu juda yoqadi"*, *"U juda o'ziga qarab yuradi, u ozoda, sarishda bo'lib yuradi. Uning xulq atvoriga juda qaraydi"*. Mashg'ulotlar tasvirini yozishda o'quvchilar qoliplardagi so'zlar bilan jummalarni bog'lashda qiyinchilikka duch kelmoqda: mazmunda va grammatikada xatoliklarga yo'l qo'ymoqda: *"Ayniqsa, quti va daftarcha uning sevimli mashg'uloti"*, *"Sarvinozni ko'pincha uni bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, u sipo'rti yoqtiradi uing sevimli mashg'uloti"*, *"Ota-onam ko'pincha menga bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, oyim musiqa tinglash uning sevimli mashg'uloti"*.

Xulosa qismda ayrim o'quvchilar asosiy qismlarda berilgan tasvirlar takrorini yozgan: *"Oyim juda mehribon, mehmondo'st"*, *"U menga juda mehribon"*. Shuningdek, o'quvchilar: *"Umuman olganda, ular ishlab pul topadi uy ro'zg'orini qiladi va bizni hohlagan narsamiz olib beradi"*, *"Mening do'stim she'r yozish bilan band bo'ladi"* kabi xulosalar bergan.

6-sinf o'quvchilari matnlari tahlili (o'quvchilar yozgan matnning aynan o'zi keltirildi).

O'quvchilar kirish qismni yozishda matnning asosiy qismiga oid bo'lgan tasvirlarni yozgan hamda tanishtiruv qism yozilmagan: *"Mening onam xulq-atvori juda yaxshi. Mehribon. Mening onam hech qachin menga baqirib, gapirmaydi. Onamning fe'llari juda yaxshi. Boshqa onalarga qaraganda fe'llari juda yaxshilar. Men onamni juda yaxshi ko'raman"*, *"Hazilkash onam hama joyda qanaqa vaziyatda ham hazilkash yana bir yaqin insoni har doim o'zini tuta oladi"*. Bir nechta o'quvchi shaxs tashqi ko'rinishi tasvirlashda kerakli tasvirlarni berib o'tgan: *"Asalning tashqi ko'rinishi bo'yi kichikroq. Quvnoq, uzun ko'ylak kiyib yuradi"*, *"Ukamning tashqi ko'rinishi u yuzlari cho'zinchoqroq ko'zlari qora qoshlari qalin kipriklari uzun. Sochlari esa tim qora"*. Ammo o'quvchilarning asosiy qismi bu tashqi ko'rinish tasvirini xulq-atvor tasviridan farqlamagan: *"Dugonamning tashqi ko'rinishi quvnoq hushchaqchaq BTSni sevuvchi*

hazil qiluvchi va hazillarni ko'taruvchi hamma bilan chiqishib ketuvchi qizdir. U yana u yaxshi ko'rmaganlarni hurmat qilish yaxshi gapirishga harakat qiladigan va meni hurmat qiladigan qiz". Xulq-atvor tasviri turli kamchiliklar (ba'zi o'rinlarda tashqi ko'rinish tasvirining uchrashi) bilan yozilgan, ammo o'quvchilar matnning boshqa qismlariga qaraganda bu qismni to'g'ri yozgan: "Onam menga tanbeh beradi lekin onam meni yaxshi bo'lsin deb urshadi. Onamning jahli tez chiqadi. Men baribir onamni yaxshi ko'raman", "U juda ham quvnoq va shodon qiz. Meni har doim yonimni oladi. Nima bo'lishidan qat'i nazar". Bu o'quvchilar ham aynan mashg'ulotlar tasvirini yozishda jumalarni tayyor qolipdagi so'zlarga bog'lashda xatoga yo'l qo'ygan: "Mening ona ko'pincha ovqatlar bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, manti ham pishiradi uning sevimli mashg'uloti". Shunindek, bir necha o'quvchi matnning ushbu qismini yozmagan. Xulosa qism o'quvchilarning "yaxshi ko'raman", "yaxshi inson, mehribon" kabi munosabatlari bilan tugallangan.

7-sinf o'quvchilari matnlari tahlili (o'quvchilar yozgan matnning aynan o'zi keltirildi).

Boshqa sinflardagi kirish qismni yozishdagi xatoliklar ushbu sinfda ham takrorlangan, to'g'ridan to'g'ri asosiy qism tasvirlariga o'tib ketilgan: "Ular judayam go'zal va xushchaqchaq va quvnoqroq", "U juda aqili qiz hulqi va odobi bilan hammaga namuna bo'la oladi". Shaxs tashqi ko'rinishini tasvirlashda "Doimo bir stilda yuradi. Har doim qora yoki qizil ko'ylagini kiyib yuradi. Salgina gavdaliroq bo'ylari pastroq" kabi tasvirlar ham yozilgan, ammo o'quvchilarning aksariyati tashqi ko'rish tasvirini to'liq va to'g'ri yozishmagan, ba'zi o'quvchilar tasvir yozishmagan: "Ular mehribon uncha urshmaydi, yaxshi muomilada bo'ladi", "Ularning tashqi ko'rinishi men uchun muhim emas, muhimi borliklari. Ularni juda-juda yaxshi ko'raman". Xulq-atvor tasviri qisqa tasvirlar bilan tasvirlanilgan: "Juda tartib sevar odamlar", "Xushmuomala, shirins'o'z, xammaga kulib gapiradi", "U yomon gaplarni aytmaydi u juda rahm dil". Mashg'ulotlar tasvirini yozishdagi qolipdagi so'zlarni o'z jumlarini bog'lashdagi xatoliklar yaqqol

sezilgan: "Ayniqsa, dushanbadan jumagacha uning sevimli mashg'uloti", "Do'stim ko'pincha futbol o'ynaydi bilan mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, u yaxshi o'ynaydi uning sevimli mashg'uloti". Xulosa qismda "Ular men uchun bebaho men ularni butun dunyo boyliklariga almashmayman", "Ular juda ideallar" kabi munosabatlar yozilgan. Ba'zi o'quvchilar bu qismni yozmagan.

Tasvir-matn qismlarining ichki tuzilishi: asosiy qism, birinchi va oxirgi gaplari o'ziga xos bo'ladi. Asosiy qismda gaplarning parallel bog'lanishi; zid ma'noli so'zlarni qo'llash (antiteza) ko'p uchraydi.

Tasvir-matnning qismlari (abzaslar) quyidagi mazmundagi gap yoki gaplardan boshlanadi: biror asar qahramoni, o'rin-joy, narsa-buyum ma'lum qilish mazmunidagi gap; bosh mavzu orqali ifodalangan obyekt, tasvir predmetining biror qismini (jihatin) ma'lum qiluvchi gap; o'rin ma'nosini ifodalovchi so'z shakllari va ko'makchili birikmalar bilan boshlangan gaplar. [1: 121]

Natijalar tahlilidan shuni ko'rishimiz mumkinki, barcha sinf o'quvchilari matn qismlaridagi ma'lumotlarni farqlashda qiyinchilikka uchrashmoqda, ya'ni qaysi tasvir matnning qaysi qismida, qay tartibda kelishini to'liq bilmaydi. O'quvchilar uchun tayyor qoliplar, boshlanmalar, so'zlar, birikmalar berilgan bo'lsa ham, bu o'rinda xatoga yo'l qo'yimoqda; kirish qismni yozishda tanishtiruvchi ma'lumotlardan emas, balki asosiy qismga tegishli bo'lgan tasvirlar hamda xulosaviy fikr-mulohazalardan foydalangan; asosiy qismdagi shaxs tashqi ko'rinish tasvirini xulq-atvor tasviridan farqlamaslik kuzatilgan, ba'zi o'rinlarda xulq-atvor tasviriga tashqi ko'rinish tasviri berilgan; barcha sinf o'quvchilari uchun mashg'ulotlar tasviri beriladigan qismda jumalarni qolipdagi so'zlar bilan bog'lash qiyinchilik tug'dirdi. Xulosa qismda o'quvchi o'z munosabatini, fikr-mulohazasini yozish bilan birga asosiy qismdagi tasvirlarni takror berishi ham kuzatilgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, o'quvchilar duch kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun zaruriy metodik ishlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova K.M. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: Ped.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 2023.278-bet.
2. Боймирзаева С.Бадий матнда қўшма гап.Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.114-б.
3. Давлат таълим стандартига шарҳ.Она тили. // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999, 1-махсус сон.47-б.

Sadoqat KAMOLOVA,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
 va adabiyoti universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

SARYOMIY G'AZALLARIDA MILLIYLIK VA TASAVVUF OMILLARI

Annotatsiya: Yusuf Saryomiy g'azallarida qo'llanuvchi tasavvufiy obrazlar, estetik omillar, badiiy g'oyalarning aks ettiruvchi manbalar, shoir ko'nglini ochib beruvchi baytlar, ijtimoiy hayotni ko'rsatuvchi baytlar, adabiyotda qo'llanuvchi tushunchalar, g'azallarining ma'noviy tahlili va qo'llangan vositalar, davrining hayoti, kundalik turmushi, turmush tarzi yoritilish usuli ko'rinadi.

Kalit so'zlar: *milliy estetik omillar, tasavvuf, mumtoz adabiyot, falsafiy dunyoqarash, irfoniy omillar, milliy uyg'onish, obraz.*

Annotation: the mystical images used in Yusuf Saryami's ghazals, aesthetic factors, sources reflecting artistic ideas, verses revealing the poet's soul, verses showing social life, concepts used in literature, spiritual analysis of his ghazals and the means used, the way of illuminating the life of his time, everyday life, and lifestyle are visible.

Key words: *national aesthetic factors, mysticism, classical literature, philosophical worldview, mystical factors, national revival, image.*

Аннотация: видны мистические образы используемые в газелях Юсуфа Сарьями, эстетические факторы, источники, отражающие художественные идеи, стихи, раскрывающие душу поэта, стихи отражающие общественную жизнь, понятия, используемые в литературе, духовый анализ его газелей и использованные средства, а также то, как освещается жизнь его времени, повседневная жизнь и образ жизни.

Ключевые слова: *национальные эстетические факторы, мистицизм, классическая литература, философское мировоззрение, мистические факторы, национальное возрождение, образ.*

Yusuf Saryomiy o'zbek mumtoz adabiyotida yetuk shoir sifatida tanilgan. Ya'ni uning o'ziga xos falsafiy dunyoqarashi va tasavvufiy mazmuni o'zida mujassam etgan she'rlari, baytlari xalq orasida mashhurdir.

Ammo yaqin o'tmishimizgacha bo'lgan davrlarda shoirlarimizning ijodini to'laqonli o'rganish imkoniyati bo'lmagan, ayniqsa, mumtoz ijodkorlarimiz ijodida tasavvuf g'oyalari mavjud bo'lsa. Bu holat Yusuf Saryomiy ijodi tadqiqida akslanadi.

Yusuf Saryomiy she'riyatida millat ravnaqi, halollik, qadriyatlar, insoniylik, iymon, tasavvufiy va falsafiy qarashlar akslanadi. Mazkur mavzularni badiiy ijodda "milliy estetik omillar" termini orqali berish mumkin.

Adabiyotshunoslikda «milliy estetik omillar» deganda adabiyotda biror xalqning milliy ruhiyati, qadriyatlari, madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi kabi o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi badiiy-estetik mezonlar tushuniladi. Bu omillar asarda milliy o'zlikni ifodalash, o'quvchida milliy g'urur uyg'otish va xalqona tafakkurni ifoda etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy estetik omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Milliy dunyoqarash: Asarda xalqning tarixiy, diniy, falsafiy qarashlari ifodalanadi. Masalan, Allohga

ishonch, sabr-toqat, mehmondo'stlik kabi qadriyatlar. Folklor unsurlari: afsonalar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq og'zaki ijodi namunalarining qo'llanilishi. Milliy obrazlar: asarda xalqning mentalitetiga mos qahramonlar yaratiladi. Masalan, jasur yigit, sadoqatli ayol, dono kekxa kabi obrazlar. Mahalliy til boyliklari: lahja, sheva, xalqona so'zlar, iboralar, jo'n jumlarlar, maqollar va matallar badiiy ifodaning estetik kuchini oshiradi. Muayyan tarixiy va madaniy muhit: asarlar xalq hayotining aniq davrini, madaniy va ijtimoiy sharoitini aks ettiradi. Diniy-irfoniy tushunchalar, ayniqsa, Sharq adabiyotida Qur'on, tasavvuf, tariqat, axloqiy poklik g'oyalari milliy estetik mezon sifatida o'rin olgan.

O'zbek adabiyotining rivojlanishida milliy estetik tafakkur muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, g'azal janri orqali xalqning ichki dunyosi, diniy-ma'naviy qarashlari va qadriyatlari ifodalanadi. Yusuf Saryomiy ijodi ham ana shu milliy estetik mezonlar asosida shakllanib, o'zbek g'azalchiligiga xos ruhda davom etgan. Yusuf Saryomiy (XIX–XX asrlar) ijodida milliylik va diniy-irfoniylik uyg'unlashib ketgan. U mumtoz g'azal an'analariga sodiq qolgan holda, o'z xalqining ruhiy-ma'naviy olamini ifodalagan:

Haq yo'lida bir nafas sig'maz riyo ichra g'amim,
Dardu g'am – toatdur men uchun, Haqqa yetgay
ishq sathim.

Bu baytda dard va g'amni "toat" deb bilish tasavvufdagi "g'amdand zavq topish" g'oyasini anglatadi. Bu orqali milliylikning islomiy asosdagi estetik mezonlari ko'rinadi.

Saryomiy xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan xalqona timsollar – bulbul, gul, sahro, daryo kabi obrazlardan ustalik bilan foydalangan:

Gulshan ichra bulbul yig'laydi gar dardu g'am ila,
Dardini she'r aylab o'qir har lahza, zoru nol ila.

Bu yerda bulbul – oshiq, gul – ma'shuqa, gulshan – dunyo degan xalqona timsollar orqali milliylik ifodalangan.

Yusuf Saryomiy o'z g'azallarida xalq tiliga yaqin, ravon va sodda tilda yozgan. Qalb va ma'naviyatga doir tushunchalarni o'zbekona iboralar orqali ifodalagan.

Muhabbat bo'lmasa yurakda, dard nega yo'ldosh bo'lur?

Ishq degan olovda yonmay, kulfat nega g'amdand bo'lur?

Bu misralarda dil, muhabbat, dard, g'am, yo'ldosh kabi xalq tiliga xos so'zlar ko'p uchraydi.

Yusuf Saryomiy baytlarida mansab va boylikning vaqtincha ekanligi, insonni faqat yaxshi amali saqlab qolishi haqida fikr bor. Jamiyatda kibr-u havo hukmron bo'lishi oqibatida odamlar halokatga yuz tutishi aytilmoqda.

Faqirning holin so'rmas hech, boylar el ichra,

Oshno bo'lsa faqirlarni e'tiborsiz qoldirishi tanqid qilinadi.

Bu bayt ijtimoiy tengsizlikni ochib beradi. Boylarning faqirlarni e'tiborsiz qoldirishi tanqid qilinadi.

Zolim qo'lida qolgan el, dod solur har taraf,
Adolat qilmag'on podsho, xalqni qilar g'arib.

Bu yerda hukmdor va xalq o'rtasidagi adolat masalasi ko'tarilgan. Shoir xalqni ezayotgan zolimlarga qarshi adolatparvarlikni targ'ib etadi.

Saryomiy g'azallarida, asosan, ishq-muhabbat, tasavvufiy mazmun, hayot falsafasi ramz va ishoratlar, tashbeh va istioralar, tazod juda chiroyli akslanadi.

Saryomiy g'azallarida qo'llanuvchi vositalar may – ma'rifat, ilohiy nur; saki – murshid, pir; bulbul – oshiq qalbi; gul – ma'shuqa yoki Haq jamoli.

"Bulbul gul vasliga zor", – deyilganda, aslida insonning ruhi Haqqa intilishi nazarda tutiladi. "Parvona sham atrofida yonadi", – bu oshiqning jonini fido qilishi, Allohga ixlosning yuksak ko'rinishi.

Shoir ijodida mansab va boylikning vaqtincha ekanligi, insonni faqat yaxshi amali saqlab qolishi haqida fikr bor. Jamiyatda kibr-u havo hukmron bo'lishi oqibatida odamlar halokatga yuz tutishi aytilmoqda.

Faqirning holin so'rmas hech, boylar el ichra,

Oshno bo'lsa faqir, topmast ko'ngilga bir panoh.

Shuningdek, milliy estetik omillar masalasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan, ularning orasida professor Nurboy Jabborovning bu boradagi yondashuvi alohida e'tiborga loyiq. U o'z ilmiy izlanishlarida milliylik, estetik tafakkur va adabiy an'analar uyg'unligiga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, har bir xalq adabiyotida o'ziga xos milliy estetik qarashlar shakllanadi va bu qarashlar orqali asarlarning badiiy qimmatini belgilanadi. Jabborov milliy estetik omillarni tahlil qilarkan, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi milliy obrazlar (masalan, Alpomish, Ravshan, Otabek, Kumush kabi) orqali milliy ruh ifoda etilishini urg'ulaydi. U o'z asarlarida milliy adabiyotdagi tarixiylikka alohida urg'u beradi. Jumladan, u "Tarix va badiiyat" kabi ishlarida tarixiy mavzular milliy estetik mezonlarda aks etishini ko'rsatadi. Ustoz olim milliy adabiyotda estetik ideal sifatida insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'naviy poklik, go'zallik kabi qadriyatlarining aks etishini milliy estetik omil sifatida belgilaydi.

Saryomiy asarlarida tasavvuf asosiy estetik mezon bo'lib xizmat qiladi. Ishq – Haqqa yetishish vositasi, oshiqlik – ilohiy kamolot manbai sifatida talqin etiladi. Bu esa milliy-irfoniy dunyoqarashning yaqqol ifodasidir.

Yusuf Saryomiy ijodi o'zbek g'azalchiligidagi milliy estetik tafakkur va islomiy-irfoniy an'analarni chuqur aks ettiradi. Uning she'riyati orqali xalqning ichki ruhiy olami, qadriyatlari va estetik ideallari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham uning g'azallari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Saryomiy. Devon (qo'lyozmalar va to'plamlar). O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondlari.
2. Yusuf Saryomiy g'azallari – turli bayozlar va qo'lyozma to'plamlari.
3. Abduqodirov A. Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Qodirov A. Yusuf Saryomiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Sirojiddinov S. Tasavvuf va o'zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.

Yulduz AZIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

AVTOBIOGRAFIK DISKURSDA KONSEPTNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada o'zbek lingvokulturologiyasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Til va madaniyat o'zaro bog'liqligi, milliy mentalitet va xalq dunyoqarashining tildagi ifodalanishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, avtobiografik diskurs, konsept va madaniy konnotatsiya kabi tushunchalar ilmiy asosda izohlangan. Tadqiqotda tilshunoslikda antropotsentrik yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi va lingvokulturologiyaning zamonaviy integratsion roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, til va madaniyat, avtobiografik diskurs, konsept, madaniy konnotatsiya, antropotsentrik yondashuv.*

Аннотация: в статье рассматриваются этапы становления и особенности развития узбекской лингвокультурологии. Анализируется взаимосвязь языка и культуры, отражение национального менталитета и мировоззрения народа в языковых единицах. Особое внимание уделяется понятиям автобиографического дискурса, концепта и культурной коннотации. Подчеркивается значение антропоцентрического подхода в лингвистике и интеграционная роль лингвокультурологии в современном научном пространстве.

Ключевые слова: *лингвокультурология, язык и культура, автобиографический дискурс, концепт, культурная коннотация, антропоцентрический подход.*

Annotation: the article analyzes the stages of formation and development of Uzbek linguoculturology. It examines the interrelation between language and culture, as well as the reflection of national mentality and worldview in linguistic units. Special attention is given to the concepts of autobiographical discourse, cultural connotation, and concept. The study emphasizes the importance of the anthropocentric approach in linguistics and highlights the integrative role of linguoculturology in modern research.

Key words: *linguoculturology, language and culture, autobiographical discourse, concept, cultural connotation, anthropocentric approach.*

O'zbek lingvokulturologiyasi XX asrning ikkinchi o'n yilligida tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida shakllandi. U til, madaniyat, etnos va milliy mentalitet o'rtasidagi munosabatlarni antropotsentrik paradigma asosida o'rganishga qaratilgan.¹ Ushbu sohadagi tadqiqotlarda o'zbek tili birliklari xalqning mentaliteti, milliy dunyoqarashi va ruhiyati bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi.²

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tahlillar XX asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab tizimli ravishda amalga oshirila boshladi. Bu davrda lingvokulturologiya mustaqil soha sifatida shakllandi. Antropotsentrik qarashlar uning rivojida muhim rol o'ynadi. Natijada, o'zbek til birliklari xalqning mentaliteti, milliy dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq holda tadqiq qilindi. Maqolada ushbu tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilinib, o'zbek lingvokulturologiyasi shakllanish bosqichlari va uning asosiy xususiyatlari

1 Xudoyberganova, D. (2021). *O'zbek lingvokulturologiyasi masalalari.* – Toshkent: Fan nashriyoti.

2 Xudoyberganova, D. (2021). *O'zbek lingvokulturologiyasi masalalari.* – Toshkent: Fan nashriyoti.

aniqlanadi. Ta'kidlanishicha, tilshunoslik inson bilimi yaxlitligida til tadqiqotlari uchun makon izlashni davom ettirmoqda. Agar strukturaviy yondashuv tildagi har qanday MTM birlikni tashqi omillarni hisobga olmagan holda "avtonom semiotik tizim", "o'z-o'zini ta'minlovchi va yopiq tizim" sifatida ko'rsa, antropologik yondashuv tilni insoniy mohiyatning ajralmas xususiyati, kundalik faoliyat va ma'naviy hayotning bir qismi sifatida anglashga asoslanadi.

Tilshunoslik tilda antropologik hodisa sifatida izlanish olib borish bosqichiga yetib keldi. Bu bosqichda faqat lingvistik tahlilning o'zi yetarli emas, shuningdek, chuqur introspeksiya yoki boshqa fanlardan tasodifiy, tizimsiz bilimlarni olish an'anaviy usuli ham yetarli emasligi qayd etiladi.

Avtobiografik diskurs esa shaxsiy hikoyalar va xotiralardan iborat bo'lib, amaliy tilshunoslikda muhim ma'lumot manbaiga aylangan. Pavlenko til xotiralari, lingvistik avtobiografiyalar va o'rganuvchi kundaliklarini mashhur ma'lumot to'plash usullari sifatida qayd etadi va mazmun, kontekst hamda shakl

jiyatidan makro va mikro darajada tizimli tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi.³ Avtobiografik ma'lumotlarning talqin xarakteri tahlilda muhim bo'lib, ba'zi usullar (mazmuniy va mavzuviy tahlil) bu murakkablikni yetarli darajada qamrab olmaydi.

Skowronski va Walker ijtimoiy diskurs avtobiografik xotiralar tuzilishi va mazmuniga katta ta'sir ko'rsatadigan madaniy omillar, ijtimoiy rollar va ochiqlik darajasi kabilar xotiralar shakllanishi va qayta eslanishiga ta'sir qiladi deya ta'kidlaydi.⁴ Ijtimoiy me'yorlar diskurs orqali avtobiografik eshlarni turli psixik jarayonlar yordamida qayta shakllantirishi mumkin.

Yemlianova va Notvichenko avtobiografik diskursdagi strategik qoliplash va tilga xos xususiyatlarni tahlil qilib, Nobel mukofoti sovrindorlarining avtobiografiyalarini o'rgangan. Ularning tadqiqoti avtobiografik yozuvlarda lingvistik shaxsiyatning qanday namoyon bo'lishini ochib beradi va yuqori darajadagi til mahorati hamda ijodiy salohiyatni yoritadi.⁵

F. de Sossyurga ko'ra, o'rganilayotgan obyekt tadqiqotchiga to'g'ridan to'g'ri berilmaydi; "nuqtayi nazar obyektning o'zini yaratadi". Demak, obyekt tilni o'zlashtirishning muayyan predmetli rakursi bilan belgilanadi. Natijada har bir yo'nalish o'z obyektini va predmetini o'z parametrlariga ko'ra tadqiq qiladi. Bu yondashuv ko'plab ilmiy maktablarni birlashtiradi va ular atrofida quyidagi asosiy tushunchalar shakllanadi:

➤ Til manzarasi va madaniyatning kalit so'zlari (A. Vejicka, T.V. Bulygina, N.D. Arutyunova, A.D. Shmelev, A.A. Zaliznyak va boshqalar);

➤ Til ma'nosi va madaniy semantika (Y.D. Apresyan, L.A. Novikov, N.I. Tolstoy, S.M. Tolstaya, E. Bartminskiy, E.L. Berezovich, N.G. Bragina va boshqalar);

➤ Madaniy interpretatsiya va madaniyat kodlari (V.V. Vorobyev, V.N. Teliya, V.A. Maslova, D.B. Gudkov, V.M. Mokienko, I.T. Vepreva, E.N. Remchukova va boshqalar);

➤ Konseptlar va madaniyat konseptosferasi (Y.S. Stepanov, V.I. Postovalova, V.Z. Demyankov, N.N. Boldyrev, I.V. Zykova, V.I. Karasik va boshqalar).⁶

Bugungi tilshunoslikda boshqa fanlar – falsafa, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslikdan faol

foydalanilmoqda. Til xalq xarakteri va dunyoqarashini aks ettiradi, ammo bu faqat til faktlarining chuqur tahlili orqali ilmiy asosga ega bo'ladi. Shu sababli zamonaviy izlanishlarda til – xalqning dunyoqarashi va madaniyatini ochuvchi hodisa sifatida ko'rilmogda.

Lingvokulturologiya, etnolingvistikadan farqli ravishda, asosan madaniy semantikani tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, til egasining ongida kognitiv jihatdan dolzarb bo'lgan ma'nolarni ochishga intiladi. Lingvokulturologik tadqiqot odatda "quyidan" boshlanadi, ya'ni: so'zning etimologiyasi, lug'aviy izohlar, qo'llanish kontekstlarini tahlil qilish. Bu yondashuv L.A. Novikovning "so'zning sigmatik ma'nosi muloqot jarayonida shakllanadi" degan nazariy qarashlari bilan hamohangdir.

Keyingi bosqichda tadqiqot kognitiv tavsiflash sohasiga o'tadi. Bunda ma'lum bir til shaklining ortida turgan bilim strukturalari aniqlanadi va keyinchalik: so'zning madaniy ma'nolari, uning turli konnotatsiyalari, turli davrlar va madaniy kontekstlardagi qo'shimcha ramziy mazmunlari hamda xalq ongida so'z ortida yashiringan obraz va ramzlar ochib beriladi

Lingvokulturologiyaning bugungi asosiy vazifasi – til belgilaridagi madaniy ma'nolarni aniqlash va tavsiflash. Tadqiqot gipotezalariga ko'ra: madaniy ma'nolar til belgilarida saqlanadi va nutqda yuzaga chiqadi; ular inson ongiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi; stereotipli xulq va ijtimoiy faoliyatda namoyon bo'ladi; milliy xarakter va madaniy kodning asosini tashkil etadi.

Madaniy ma'nolar til semantikasi ustiga "qo'shimcha qavat" sifatida quriladi, madaniy konnotatsiyalar ko'rinishida mustahkamlanadi va kommunikatsiya jarayonida aktualizatsiya qilinadi.

Madaniy konnotatsiya va til – madaniyat bilimlari o'zaro aloqasi insonning lingvomadaniy kompetensiyasi bilan belgilanadi. Bu kompetensiya ongliyoki ongsiz ravishda "madaniyattili" nio'zlashtirish orqali shakllanadi. Uni bilish til birliklarining madaniy sohaga ishora qilishini ta'minlaydi va nutqqa madaniy, etnik, milliy yoki umuminsoniy ma'nolar semantika yuklaydi.⁷

Lingvokulturologiya tadqiqot markaziga madaniyatni tashuvchi til birliklarini qo'yadi. Ayniqsa, quyidagi birliklarga alohida e'tibor qaratiladi: qarindoshlik terminlari, ruhiy tushunchalar va moddiy-madaniyat obyektlari nomlari, rang nomlari, idiomalar, maqollar, frazeologik birliklar, evfemizmlar. Bunday birliklar til va madaniyat belgisi sifatida madaniy

3 Pavlenko, A. (2007). Autobiographic narratives as data in applied linguistics. *Applied Linguistics*, 28(2), 163–188.

4 Skowronski, J., & Walker, W. (2004). How social interactions shape autobiographical memory. *Memory*, 12(6), 636–645.

5 Yemlianova, S., & Notvichenko, N. (2020). Autobiographical discourse and linguistic personality. *Journal of Language and Literature*, 11(4), 45–59.

6 de Saussure, F. (2000). *Kurs obshchey lingvistik*. – Moskva: Progress.

7 Vorobyev, V.V. (1997). *Lingvokulturologiya: teoriya i metody*. – Moskva: Nauka.

ma'nolarni saqlashga hissa qo'shadi. Ular xalq ongida reallikni tushuntirish shakllari sifatida xizmat qiladi va xatti-harakat dasturlarini belgilaydi.⁸

Bundan tashqari konseptlar ham lingvistik va madaniy tadqiqotlarda markaziy o'rin tutadi. Ular til va madaniy tasavvurlarni shakllantiruvchi murakkab kognitiv tuzilmalarni ifodalaydi. Tilshunoslik diskursida "konsept" va "tushuncha" atamalarining turli talqinlari mavjud bo'lsa-da, ular tilning madaniy qarashlarni qanday aks ettirishini tushunishda asosiy ahamiyatga ega. Kognitiv tadqiqotlar esa konseptlarning inson bilimi saqlovchi birliklari sifatidagi rolini ko'rsatadi; ular til ifodalarini shakllantiradi va madaniy anglashni belgilaydi.

Konsept – madaniyatning tarkibiy qismi, ya'ni "inson ongidagi madaniyatning tuguni"dir. Masalan, "Mehnat" konsepti o'zbek madaniyat konseptosferasida qadimdan mavjud bo'lib, milliy qadriyatlilik va mehnatsevarlik xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari avtobiografik janr xususiyatiga ega badiiy asarlarda uchraydigan konseptlarga to'xtalamiz. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida asosan ijtimoiy va tarixiy mazmun aks etadigan konseptlar yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek elining davlat va madaniyat xotirasi, Boburning shoh sifatida o'z hayotiy kechinmalarini namoyon etadi. Shu bilan birga ichki dunyosi, ruhiy kechinmalar – boshidan kechirganlari, yurt sog'inchi, vatanga muhabbat kabi konseptlarni uchratishimiz mumkin. Lingvokulturologik yondashuv konseptni quyidagi belgilar asosida aniqlaydi:

⁸ Demyankov, V.Z. (2001). *Kognitivnaya lingvistika*. – Moskva: Nauka.

1. Madaniy-tarixiy shartlanganlik – konsept ma'nolari ma'lum bir davr ideologiyasi bilan belgilanadi.

2. Tarkibiy murakkablik – konsept sodda tushunchalar, tasavvurlar, stereotiplar, ideologemalar kabi birliklardan tashkil topadi.

3. Mazmuniy xilma-xillik – unda konkret va mavhum, mantiqiy va emotsional, obyektiv va subyektiv jihatlar qo'shib keladi.

4. Keng qamrovlilik – konsept katta semantik maydonni qamrab oladi.

5. Belgili ifodaning turli shakllari – konsept turli semiotik tizimlarda ifodalanishi mumkin. Konsept mazmuni ikki asosiy qatlamga bo'linadi:

– universal qatlam – butun insoniyat uchun qadri bilimlar (ilmiy tushunchalar, umumiy stereotiplar, masalan: "har bir inson mehnat qilishi kerak").

– madaniy qatlam – muayyan milliy-madaniy guruhga xos bilimlar (xalq maqollari, diniy qarashlar, kasbiy qadriyatlar va h.k.).

So'nggi o'n yilliklarda tilshunoslik inson haqidagi umumiy bilimlar tizimida tilni o'rganishga yo'naltirilmoqda. Bu jarayon antropologik burilish va yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu bilan birga, turli "lingvistikalar" differensial rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, ularning o'zaro yaqinlashuvi ham kuzatilmoqda. Bu integratsion jarayonda lingvokulturologiya yetakchi rolni o'ynaydi. Chunki u til belgilarini madaniyat kontekstida o'rganib, tilni inson hayoti va ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq fenomen sifatida ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova, D. (2021). O'zbek lingvokulturologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Pavlenko, A. (2007). Autobiographic narratives as data in applied linguistics. *Applied Linguistics*, 28(2), 163-188.
3. Skowronski, J., & Walker, W. (2004). How social interactions shape autobiographical memory. *Memory*, 12(6), 636-645.
4. Yemlianova, S., & Notvichenko, N. (2020). Autobiographical discourse and linguistic personality. *Journal of Language and Literature*, 11(4), 45–59.
5. de Saussure, F. (2000). *Kurs obshchey lingvistiki*. – Moskva: Progress.
6. Apresyan, Yu.D. (1995). *Izbrannye trudy. Tom II. Integralnoye opisaniye yazyka i sistemnaya leksikografiya*. – Moskva: Yazyki russkoy kultury.
7. Novikov, L.A. (1988). *Semantika russkogo yazyka*. – Moskva: Vysshaya shkola.
8. Tolstoy, N.I. (1995). *Yazyk i narodnaya kultura*. – Moskva: Indrik.
9. Tolstaya, S.M. (2000). *Etno-lingvistika*. – Moskva: Nauka.
10. Bartminskiy, E. (2001). *Yazykovoy obraz mira*. – Lublin: UMCS.
11. Berezovich, E.L. (2007). *Etnolingvistika i leksikografiya*. – Yekaterinburg: Ural University Press.

Dildora TASHMUXAMEDOVA,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

O'ZBEK TILI TAQLID SO'ZLARIDA UNLI TOVUSHNING ISHTIROKI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi taqlid so'zlarda unli tovushlarning ishtiroki va ularning fonosemantik vazifasi tahlil qilinadi. Tadqiqot "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi 421 ta taqlidiy birlik asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, taqlid so'zlarning atigi 2,1 foizi unli tovush bilan boshlanadi, ularda asosan, i, a, va u unilari eng ko'p ishlatilgan. Maqolada har bir unli fonemaning ma'nodagi ifoda imkoniyatlari izohlanadi: i tovushi mayda, tez va titroq xarakterdagi harakatlarni bildirsa, a keng va portlovchi tembr bilan kuchli zarba yoki urilish tovushlarini ifodalaydi, u va o esa og'ir, cho'zilgan, oqimli tovushlarga xos holatlarni anglatadi.

Kalit so'zlar: taqlid so'zlar, unli tovush, fonosemantika, fonologiya, jarangdorlik, tor unililar, keng unililar, cho'ziqlik, akustik idrok.

Аннотация: в данной статье анализируется участие гласных звуков и их фоносемантическая функция в звукоподражательных словах узбекского языка. Исследование основано на 421 звукоподражательном слове, зафиксированном в «Толковом словаре узбекского языка». Результаты показывают, что только 2,1% таких слов начинаются с гласной, при этом наиболее часто используются звуки i, a и u. Автор рассматривает семантическую нагрузку гласных: i выражает мелкие, быстрые, дрожащие движения; a — сильные, ударные звуки; u и o — длительные, протяжные и шумные звуки. Отмечается, что степень открытости или долготы гласного влияет на восприятие длительности и интенсивности изображаемого звука.

Ключевые слова: звукоподражательные слова, гласные звуки, фоносемантика, фонология, узбекский язык, P. Кунгуров, Н. Алибаева, звучность, узкие и широкие гласные, долгота, акустическое восприятие.

Annotation: this article analyzes the role of vowels and their phonosemantic functions in Uzbek onomatopoeic words. The research is based on 421 onomatopoeic units extracted from the *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. The findings show that only 2.1% of these words begin with a vowel, with i, a, and u being the most frequent. The study discusses the semantic contribution of vowels: i denotes fine, fast, and trembling movements; a represents strong, striking sounds; u and o indicate prolonged, flowing or noisy actions. It is noted that the openness or length of the vowel affects the perceived duration and intensity of the sound being imitated.

Key words: onomatopoeic words, vowels, phonosemantics, phonology, Uzbek language, R. Qong'urov, N. Aliboyeva, sonority, narrow vowels, open vowels, vowel length, acoustic perception.

Tasviriy so'zlar predmet va hodisa tovushlarining, harakat va holatlarning shartli ravishdagi kopiyasi sifatida maydonga keladi [1;46]. O'zbek tilida taqlid so'zlar fonetik jihatdan juda boy va rang-barang xususiyatga ega. Taqlidlar aynan turli tovushlarni ifodalagani uchun ma'nosi va so'z o'rtasidagi bog'liqlikni inkor etib bo'lmaydi va aynan shu sababli taqlidni hosil qilgan har bir tovush katta ahamiyatga egadir. Tilshunos Qo'ng'urovning fikriga ko'ra, taqlid so'zlar sostavida ishlatiladigan tovushlar hamda ularning sistemasini unli hamda undosh tovushlar jihatidan xarakterlash mumkin [1;47]. Biz ham olimning fikrlariga tayangan holda o'zbek tili taqlidlarini unli hamda undosh tovushlariga ko'ra tahlil qilishni ma'qul ko'rdik.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"dan jami 421 ta taqlid so'z tahlil uchun ajratib olindi. Fonetik jihatdan, izohli lug'atda berilgan taqlidlarning faqatgina 9 tasi unli harfdan (a, i, o'), qolgan 412 tasi undosh harfdan

boshlanadigan taqlidlar tashkil etadi. Qo'ng'urovning fikriga ko'ra, so'z boshi hamda oxirida unli tovushlarning kelishi taqlidlarda juda kam uchraydi. Ikki tovushdan tashkil topgan juda kam miqdordagi bir bo'g'inli taqlid so'zlarning goh boshlanishida, goh oxirida unli tovushlar kela oladi: hu-hu, qu-qu, uv, ak-ak kabilar.

Qaysi bir kavakdan chumchuq bolalari chirqillaydi, tomdan kaptarlarning o'ksiz "hu-g'u, hu-g'u"lari eshitilib qoladi (Oybek, Quyosh qoraymas).

Harf	Boshlanuvchi taqlidlar soni
a	4 (alang-jalang, alpi-talpi, alpon-salpon, alpang-talpang)
i	3 (ing, inga, ivir-shivir)
o'	1 (o'ho)

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinishicha, izohli lug'atda keltirilgan taqlidlarning faqatgina 2,1% qismi unli

tovush bilan boshlanadi (bu ro'yxatni pragmatik tilshunoslik doirasida badiiy adabiyotdan hamda jonli til muhitidan olingan taqlidlar bilan yanada kengaytirish mumkin, biroq, bizningcha, bu unli bilan boshlanuvchi taqlidlar proporsiyasiga katta ta'sir qilmaydi). Izohli lug'at tarkibida u, o va e unllilaridan boshlanuvchi taqlidlar berilmagan.

421 ta taqlidiy birlikdan iborat tanlangan korpus asosida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, eng ko'p ishlatilgan unli fonemalar quyidagilar bo'ldi:

- i – 398 marta
- a – 217 marta
- u – 184 marta
- o – 73 marta
- e – juda kam

Bu statistik ko'rsatkichlar i, a va u tovushlarining taqlid so'zlar yaratishda ustun rol o'ynashini ko'rsatadi.

Fonosemantik tahlil jarayonida quyidagicha xulosaga kelindi:

I — bu tovush tor, baland va ingichka tembrga ega bo'lib, mayda, tez-tez, doimiy yoki titroq xarakterdagi harakatlarni bildiradi. Masalan: *tipir-tipir, jiring-jiring, piq-piq, ping'-ping'*. Bu tovushlar fonosemantik jihatdan tezlik, chaqqonlik va noziklik ma'nosini anglatadi.

A — keng va ochiq tembrli bo'lib, odatda, urilish, portlash, zarba, qulash kabi tovush hodisalariga mos keladi. Masalan: *taq-taq, shaq-shuq, g'arch-g'urch, sharaqa-shuruq*. Bunday tovushlar kuchli intensivlik va tashqi harakat ifodasini beradi.

U, o — bu tovushlar og'irroq, cho'zilgan, oqimli, shovqinli holatlarni bildiradi. Masalan: *shuv-shuv, g'uv-g'uv, huv-huv, shovur-shovur, vov*. Bunda fonetik xususiyatlar to'xtovsiz oqim, aks-sado, havo harakati tasviriga mos keladi.

Aliboyeva N. o'zining taqlidlarga oid tadqiqotlarida taqlidlar tarkibidagi unllilar keng, ochiq unllilar bo'ladi va ularning cho'zilishi (yozuvda cho'ziq unlini bir necha marotaba takroriy yozish bilan ifodalanishi) harakatning uzoq muddat davom etganini anglatishini ta'kidlagan. Ma'lum bir ma'noda ushbu cho'ziqliklar harakatning uzviylikini, uzluksizligini tasvirlashga xizmat qiladi. Qisqa unllilar i, e va u ning qo'llanishi esa jarayonning qisqa vaqt ichida shiddatli ravishda yuz berganiga ishora qiladi. Misol uchun: *qars, tars, chars, moo* kabi taqlid birliklari tarkibida cho'ziq unllilar jarayonning ancha uzoq muddat davom etganini bildiradi. Aksincha, *chirs, tirs, vov* harakatning tez

sur'atda, kutilmaganda yoki qisqa vaqt ichida amalga oshganini anglatadi [2;96]. Bizningcha, tovushning davomiyligi yoki keskinligi tor va keng unllilarga ko'ra farqlanmaydi. So'z o'rtasida kelgan unlini qanchalik cho'zib talaffuz qilsa ham so'z oxiridagi undosh portlovchi bo'lsa, tovush qisqa vaqt ichida sodir bo'lganini (paq, tiq, mo'lt, lim), sirg'aluvchi undosh bilan tugasa esa tovush biroz cho'zilganini ifodalaydi, masalan, *dir, diz, dukur, vash, vish*.

Taqlid qilinayotgan tovush davomli ekanligini bildirish uchun so'z sostavidagi unli tovush cho'zibroq talaffuz qilinadi. Bu esa ko'proq inlaut va auslautda uchraydi: mo-o-o, ba-a-a kabi. Biroq, bu kabi uzaytirilgan tovushlar lug'atlar tarkibida uchramaydi, bu kabi taqlidlarni pragmatik tilshunoslik doirasida tahlil qilib chuqurroq o'rganish mumkin.

Unli tovushlar taqlidlarda asosiy ma'noni beruvchi vosita sifatida yuzaga keladi, ular ba'zan tovushni kuchaytirsam, ba'zan yumshatib beradi. Masalan, *piq-piq* tovushi i unlisi ishtiroki bilan mayda, titroq xarakteriga ega tovush bo'lsa, *paq-paq* tovushi jarangdor hamda kuchli ovozni namoyon etadi. *Hilp-hilp* taqlidi ham nozik hilpirash, mayinlik ma'nosini bersa, *halp-halp* tovushida biroz qo'pollik hamda kuchlilik aks etadi. Bizningcha, yuqori tor unllilar (i, u) jarangsiz ifodani bersa, quyi keng unllilar (a, o) jarangdorlikni oshirib, ovozni kuchaytirib berishga xizmat qiladi.

Qo'ng'urov ham taqlidlar o'rtasida kelgan unllilar borasida shunday fikr bildiradi: "...unli tovushlar, ko'pincha, so'zning o'rtasida kelib, ma'no har xilligini hosil qiladi: so'z o'zagida keng unllilar a, o va o'rta keng o' kelsa, taqlid qilinayotgan tovushning nisbatan ancha kuchlilikini yoki predmetning hajm jihatdan ham kattaroq yoki ko'proq ekanligini bildiradi; tor unllilar u, i taqlid so'zlarning nisbatan kuchsizroq, kichikroq va hajm jihatdan kamroq narsaning tovushida taqliddan paydo bo'lganligini bildiradi" [1;46]. R. Qo'ng'urov ilgari surgan fikr unli fonemalarning so'z o'rtasida joylashishi orqali semantik tafovut yaratishi, o'zbek tili taqlidiy so'zlarining fonosemantik va fonologik jihatdan puxta tizimga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu tizimda a, o kabi keng unllilar kuchli, portlovchi hodisalarining belgisi bo'lsa, i, u kabi tor unllilar nozik, qisqa va yumshoq tovushlarning belgisi sifatida shakllanadi. Mazkur xususiyatlar o'zbek tilining tabiiy fonologik modellarini ochib berish bilan birga, insonning akustik dunyo qurilishi bilan bog'liq bo'lgan til mexanizmini ham yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'ng'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1978. 46-b.
2. Aliboyeva N. O'zbek va ingliz tillarida taqlid so'zlarning qiyosiy tadqiqi. Diss. 2021. 96-b.

Dilnura AXMADOVA,
Buxoro davlat universiteti doktoranti

TIBBIYOTDA QO‘LLANADIGAN LEKSIK BIRLIKLARNING PROFESSIONAL VA XALQONA VARIANTLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar dunyosi lingvistik tasvirining bir qismi bo‘lgan, insonning tibbiyot haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlari qadimdan shakllanib kelganligi va zamonaviy ilmiy tibbiy nutqda kasalliklarning haqiqiy noterminologik nomlari, ularning tarkibi va milliy xususiyatlariga kam e‘tibor qaratilayotgani, bu so‘zlar maxsus tahlil qilinmagani xususida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: *vitilego, pes, ko‘richak, ola, appendisit, xafaqon, churra, so‘loq, turfa, kommunikatsiya, ruhiy holat, kasallik, qizamiq, tepki, chechak.*

Аннотация: в данной статье рассматривается тот факт, что нетерминологические наименования болезней, входящие в языковую картину мира носителей узбекского языка и отражающие знания человека о медицине, формировались с древнейших времен, а в современном научном медицинском дискурсе мало внимания уделяется реальным нетерминологическим наименованиям болезней, их составу и национальным особенностям, и эти слова специально не анализируются.

Ключевые слова: *витилиго, проказа, аппендицит, аппендицит, грыжа, слюнотечение, разновидность, общение, психическое состояние, болезнь, корь, свинка, оспа.*

Annotation: this article examines the fact that non-terminological names of diseases, which are part of the linguistic worldview of Uzbek speakers and reflect human knowledge about medicine, have been formed since ancient times, while in modern scientific medical discourse little attention is paid to the real non-terminological names of diseases, their composition and national characteristics, and these words are not specifically analyzed.

Key words: *vitiligo, leprosy, appendicitis, appendicitis, hernia, salivation, variety, communication, mental state, disease, measles, mumps, smallpox.*

Har bir inson kasallikka moyil bo‘ladi. Lotincha *morbus* so‘zidan olingan kasallik (sinonimi – bemorlik, betoblik) tananing holati sanaladi. Qomusda qayd qilinishicha, organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta‘sir etganda ro‘y beradigan patologik jarayon hisoblanadi¹. Kasallik insonning tashqi va ichki muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishiga, kishi salomatligiga ta‘sir qiladi. “Kasallik” so‘zi keng ma‘noda har qanday ochiq yoki yashirin, bir lahzali yoki doimiy, me‘yoriy holatdan og‘ish sanaladiki, bu, albatta, insonning tashqi ko‘rinishiga, uning xatti-harakatlarining xususiyatlariga ta‘sir qiladi.

Kasallik - tana ayrim qismlarining shikastlanishi, infeksiya yoki boshqa omillarga javob reaksiyasidir. Kasallikning sabablari nihoyatda ko‘p, bu ularni turli xil tasniflash imkonini beradi:

1) tug‘ma kasalliklar; 2) yuqumli kasalliklar; 3) metabolik kasalliklar; 4) o‘sma kasalliklari; 5) kimyoviy ta‘sirlar, zaharlanish sabab bo‘lgan kasalliklar; 6)

degenerativ kasalliklar; 7) allergik kasalliklar va boshqalar.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar dunyosi lingvistik tasvirining bir qismi bo‘lgan, insonning tibbiyot haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlari qadimdan shakllanib kelgan. Zamonaviy ilmiy tibbiy nutqda kasalliklarning haqiqiy noterminologik nomlari, ularning tarkibi va milliy xususiyatlariga kam e‘tibor qaratilayotgani, bu so‘zlar maxsus tahlil qilinmagani, faqat boshqa muammolar doirasida ko‘rib chiqilganligi bugungi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Kasallikning terminologik bo‘lmagan nomi deganda terminologik bo‘lmagan (kundalik) tibbiy lug‘at bilan bog‘liq so‘z yoki ibora tushuniladi. Bu kasalliklarning ilmiy nomlari bilan ma‘nodosh, variant bo‘lgan va so‘zlashuv nutqida keng qo‘llaniladigan yoki kundalik nutqda faol qo‘llanmaydigan, arxaizmlar toifasiga o‘tgan so‘zlar sanaladi. Mazkur nominatsiyalar etimologik lug‘atlarda, tarixiy so‘zlar lug‘atida,

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/>

tibbiyot ensiklopediyasida, o'zbek tilining izohli lug'atida, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari matnlarida (dostonlar, afsonalar...) yoki ko'pincha maxsus tibbiy terminologik va filologik lug'atlarda qayd etilgan bo'ladi. Azaldan insoniyatni har doim salomatlik va umrni uzaytirish, kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash bilan bog'liq muammolar tashvishlantirib kelgan va shular barobarida tibbiy birliklar shakllanib tilning leksik tizimida muhim o'rin tuta boshlagan. Jumladan, o'zbek tili asoschisi A.Navoiy davri bilan bog'liq tabobatda ko'z kasalliklari doirasida turfa nomlar uchraydi: *xayolot – ko'z oldida chivin va pashsha kabi narsalarning ko'rinishi*. Agar u oshqozon bug'idan bo'lsa, belgisi: qorin to'q paytida ko'payishi, hazmning buzilishi. Ruboiy:

Har bir ko'zga xayolot yaqinlashgandan bo'lsa,
 Uning pistirmasida yuz ofat va fitna bo'ladi.
 Uning sababi me'daning bug'i bo'lsa,
 Surgi qidir, davosi shu bo'ladi².

Birgina ko'z kasalliklari bilan bog'liq *so'loq* (ko'z qovog'ining qalinlashishi, qizarishi hamda kipriklarning to'kilishi), *g'arb* (ko'zning burun tomonidagi burchagiga chiqadigan yara), *turfa* (ko'z oqida bo'ladigan qizil yoki ko'k nuqta) kabi; bosh kasalliklari bilan bog'liq *subot* – g'oyat og'ir uyqu, *humqu ri'vanat* – fikrning buzilishi, boshning og'irligi va uyquning ko'pligi; *sarsom*, ya'ni miyani o'rab turgan ikki pardadan birining yoki har ikkovining shishishi kabi tibbiy terminologik tizimdan joy olmagan leksik birliklar qatlami mavjudki, ularni alohida tadqiq qilish tilshunoslikning onomasiologiya sohasi oldida turgan vazifalardan sanaladi. Qolaversa, inson salomatligi bilan bog'liq ayrim hodisalarning umumiy qabul qilingan so'zlashuv nomlari har bir davrda ham tilshunoslarni befarq qoldirmaydi.

Tibbiy leksik birliklar tadqiqiga G.A.Abramova, E.A. Akimova, N.E. Mazalova, V.T. Katerinich, V.A. Merkulova, A.V. Yudin kabi rus lingvist olimlari katta qiziqish bilan qaraganlar³. Jumladan, E. A. Akimova kasalliklarning terminologik bo'lmagan

nomlarini lingvomadaniy nuqtayi nazaridan o'rganib, xalq tabobati lug'atiga oid tushunchalarning nomlari asosidagi motivlarning tadqiqiga to'xtalib, tadqiqotchi nomlashning kognitiv jihatini tahlil qiladi. N.E. Mazalova, V.T. Katerinich tadqiqotlari rus tilida so'zlashuvchilarning diniy-mistik qarashlari va xalq tabobati lug'ati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan, V.T. Katerinich kasalliklarning, tana a'zolarining, dori vositalarining xalqona va terminologik nomlari, bunday nominatsiyalarning paydo bo'lish manbalarini ko'rib chiqqan. V.A. Merkulova tibbiyotning semantik sohasiga mansub xalq leksikasining kelib chiqishini o'rganib, rus tilida qo'llanadigan kasalliklarning terminologik bo'lmagan nomlarini boshqa slavyan tillaridagi o'xshash nomlar bilan taqqoslagan hamda kasalliklar va ular bilan bog'liq hodisalarning bir qator terminologik bo'lmagan nomlarining ma'nolarini izohlagan. A.V.Yudin rus folklor matnlarida davolash bilan bog'liq sehrli, magik nomlar korpusining to'liq tavsifini ishlab, universal sehrar va jodugar qahramonlar, ular yordamchilari, bashoratchilar, himoyachilar (davolovchilar) va ularning barcha funksiyalarini ko'rsatgan.

Demak, yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, rus tilshunosligida xalq tabobati, kasallik va salomatlik bilan bog'liq leksik-semantik tizim ancha mufassal o'rganilgan. Bu sohadagi tadqiqotlarda tibbiy birliklarning lingvokulturologik, etimologik, etnografik, kommunikativ jihatlarini tahlil etilgan. Ammo kasalliklarning asl noterminologik nomlari, ularning tarkibi va vazifalari zamonaviy ilmiy aspektda kam e'tiborga olingan, bu so'zlar maxsus tahlil qilinmagan, faqat boshqa muammolar kontekstida ko'rib chiqilgan.

Kasallikning terminologik bo'lmagan nomi deganda terminologik bo'lmagan (kundalik) tibbiy leksika bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi, ya'ni kasalliklarning ilmiy nomlari bilan sinonim bo'lgan va so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan *anemiya* – *kamqonlik*, *gepatit* – *sariq kasal*, *Kreytsfeldt-Yakob* – *sigir quturishi* (*bosh miya yemirilishi*), *gallyutsinatsiya* – *alashlash*, *vitilego* – *pes*, *tuberkulyoz* – *sil*, *epilepsiya* – *tutqanoq*, *akne* – *husnbuzar*, *parotit* – *tepki* nutq birliklari yoki arxaizm turkumiga o'tgan so'zlar: *gemorroj*–*kulanj*, *diareya*– *yurakburuq* kabi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kasalliklarning terminologik bo'lmagan nomlariga nafaqat kasalliklar, balki og'riqliq alomatlar, tashqi ko'rinishga ega bo'lgan holatlar (isitma, tutqanoq, hushidan ketish) va ichki og'riqlar

2 Махмуд Хасаний, Сурайё Каримова. Навоий даври табobati. – Т.: Ибн Сино, 1991. – 124 б

3 Абрамова Г.А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Краснодар: КубГУ, 2003. 46-с.; Акимова Е.А. Аксиологический компонент народных названий болезней // Вести. Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. 2002. –№ 2. С. 5-9.; Катеринич В.Т. Термины медицины в средневековом зеркале // Вести. Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. 1999. –№ 5. –С. 127-133.; Меркулова В.А. Народные названия болезней (на материале русского языка) // Эти-мология. 1970. –М.:Наука, 1972.С. 143-206.; Юдин А.В. Ономастикой русских заговоров. –М., 1997. 270-с.

(burun tiqilishi, quloqqa otish) kabi xalq muloqotida keng qo'llanadigan tibbiy leksika ham kiradi.

“Tibbiy terminlar lug‘ati”(2013)da kasalliklar va ular bilan bog‘liq terminologik bo‘lmagan quyidagi nomlari keltirilgan: *bavosil* (gemorroy), *bujama*, *husnbuzar* (akne), *yotoq yara*, *zardob* (antitoksin dori), *huqna* (klizma), *og‘iz suti* (kolostrum), *govmichcha* (ko‘z kasalligi), *shol* (paralich), *churra*(grija), *quyonlab* (og‘iz tirtig‘i), *xuppos* (absess), *ich qotishi*, *bo‘qoq*, *isitma*, *moxov*, *ko‘rpa yarasi*, *saraton*, *kar-ko‘rlik*, *vabo*, *qizilcha*, *chekak* kabi.

Kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlari xalqaro tibbiy ilmiy nomlar bilan uzviy bog‘liqdir. Tibbiyotda xalqaro, ya‘ni ilmiy sanalgan atamalar bilan yondosh holatda qo'llanadigan noterminologik tibbiy birliklar mavjudligi sotsiolingvistik muammo hisoblanib, ayni paytda bu shifokorlarning nutq etikasi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Chunki bemorni tushunishga erishish uchun tibbiy atamani terminologik bo‘lmagan nomga bunday almashtirish zarur bo‘ladi. Bu esa shifokorning tibbiy birliklarning ham xalqaro, ham milliy nomlaridan xabardor bo‘lishlariga undaydi. Tibbiy-milliy variantlardan nima uchun xabardor bo‘lish kerak? Shifokor huzuriga kelib, *yurakburuq* bo‘lib qolganlik aytilsa, turgan gap, yosh mutaxassis xalq tilidagi atamadan bexabar bo‘ladi va unga yurak og‘rig‘iga qarshi qabul qilinadigan dorilarni yozib beradi. Tajribali, xalq orasida yurib, lug‘atlarga tez-tez murojaat qiladigan, atama ma‘nosini biladigan shifokor bemor holatini ko‘rib, tashxisni o‘zgartiradi va ich ketishga qarshi vositalarni tavsiya qilishi turgan gap.

Shifokor tashxis qo‘yishda, rasmiy hujjatlarda, tibbiy ma‘lumotnomalarda, shuningdek, hamkasblar (konsiliumlar) bilan muloqotda xalqaro nomenklatura, atamalardan foydalanishi kerak.

Based on his model, Omaggio describes the most commonly employed types within each category. Self-correction with the teacher's help is an excellent way to address errors. The first type Omaggio offers is pinpointing, whereby the teacher localizes the error by repeating the learner's utterance up until the point where the error has occurred, and exaggerates the word which has preceded the error with a rising intonation. A second type is rephrasing a question. This can be used when a student fails to answer or answers incorrectly without confidence. Generally, the rephrased question is a reduced form of the original.

T: Why did he come home so late?

S: Uh...(hesitates)

T: Why is he late?

Several approaches have strong evidence for improving speaking competence:

- Communicative Language Teaching (CLT): focuses on interaction and meaning-making using role-plays and discussions.
- Task-Based Language Teaching (TBLT): uses tasks with clear outcomes to promote real communication.
- Technology-enhanced speaking practice: includes voice recordings, video interactions, and online exchanges.
- Formative assessment and peer feedback: helps learners monitor progress and set goals.

Practical classroom program for Karakalpak lyceum groups

A term-based program can include:

Weekly components:

1. Warm-up & pronunciation drills
2. Vocabulary input
3. Controlled speaking practice
4. Communicative task (role-play, interview, debate)
5. Reflection & peer feedback

Sample tasks can be followings:

- Information-gap map task (directions)
- Role-play (school meeting)
- Micro-presentations
- Debate carousel

In summary, strengthening speech competence in Karakalpak lyceums requires a systemic approach that links pedagogy, assessment and teacher's development. With sustained implementation and institutional support, these initiatives will not only improve English education locally but also advance Uzbekistan's broader vision for quality, innovation and international collaboration in education.

The works of President

1. Sh.M. Mirziyoyev., № UP-60 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022.

2. Sh.M. Mirziyoyev ., № UP-5647 "On approval of the concept of development of higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" dated October 8, 2019.

3. Sh.M. Mirziyoyev., № PP-3775 "On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in the large-scale reforms carried out in the country" June 5, 2018

References:

1. British Council. (2023). English Impact Report - Uzbekistan.
2. Heras, C. B. G. (2022). Communicative Language Teaching to Enhance Speaking.
3. Shukhratovna, T. Z. (2024). *Improving speaking competence of students in Karakalpak groups of academic lyceums. CyberLeninka.
4. Tashmetova, A. (2024). The Role of Communicative Language Teaching in CEFR-based English Learning.
5. Valiev, Q. (2023). Developing oral speech competence of academic lyceum students in English classes. Mental Journal.
6. Valiev, Q. (2023). Technology for developing speaking competence of academic lyceum students in ELT teaching.

The background is a light blue surface with various educational icons: a yellow ruler, a blue notebook, a pink notebook, a rolled-up diploma with a blue ribbon, a red pencil, a green pencil, and an orange with green leaves. A large white sheet of paper is centered, with the word 'PEDAGOGIKA' written in bold blue letters. At the bottom, an open yellow book has a globe of the Earth resting on its pages.

PEDAGOGIKA

Muyassar TILOVOVA,
Turon universiteti dotsenti, f.f.f.d.

FENOMENOLOGIK METODNING TARIXIY-TADRIJIY VA NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: adabiyotshunoslik ilmda badiiy asar tahliliga yondashuv usullari ko'p va turlichadir. Matni har bir adabiyotshunos o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Adabiyotda mavzular ko'lami kengayishi, yangi adabiy janrlar paydo bo'lishi yoki yo'qolishi adabiy asarga yondashuv usullarining ham o'zgartirishi tabiiy. Bugun o'zbek adabiyotshunosligi ham badiiy tahlilning metodologik tamoyillariga asoslanib, adabiyot mohiyatini yangicha va to'laqonli usulda talqin qilishga urinib, fenomenologik usulni vujudga keltirmoqda. Asar mohiyatiga chuqurroq kirish, unda ijodkor tafakkuridagi asl fenomenlarni va badiiy asarga nisbatan o'quvchi reaksiyalarini aniqlash adabiy tanqidning vazifasi bo'lib, uni amalga oshirish yangi uslubiy yondashuvlarni talab qiladi.

Kalit so'zlar: *adabiyotshunoslik metodologiyasi, usul, uslub, fenomen, hermenevtika, tafakkur, ong, hodisa, tanqid, psixologizm.*

Annotation: in the science of literary studies, there are many and diverse approaches to analyzing literary works. Each literary scholar analyzes a text from the perspective of their own worldview. It is natural that the expansion of themes in literature, the emergence or disappearance of new literary genres also change the approaches to a literary work. Today, Uzbek literary studies, based on the methodological principles of artistic analysis, is trying to interpret the essence of literature in a new and comprehensive way, giving rise to a phenomenological approach. Delving deeper into the essence of a work, identifying the original phenomena in the creator's thought, and the reader's reactions to the literary work is the task of literary criticism, and carrying this out requires new methodological approaches.

Key words: *methodology of literary studies, method, technique, phenomenon, hermeneutics, thought, consciousness, event, critique, psychologism.*

Аннотация: в науке о литературе существует множество и разнообразных подходов к анализу литературных произведений. Каждый литературовед анализирует текст с точки зрения своей собственной мировоззренческой позиции. Естественно, что расширение тематики в литературе, появление или исчезновение новых литературных жанров также изменяют подходы к литературному произведению. Сегодня узбекское литературоведение, опираясь на методологические принципы художественного анализа, пытается интерпретировать суть литературы новым и комплексным образом, что порождает феноменологический подход. Углубленное изучение сущности произведения, выявление оригинальных явлений в мыслях автора и реакций читателя на литературное произведение — это задача литературной критики, выполнение которой требует новых методологических подходов.

Ключевые слова: *методология литературоведения, метод, способ, феномен, герменевтика, мышление, сознание, событие, критика, психологизм.*

Adabiy tanqidning falsafa, ayniqsa, psixologiyaga tayanishi, badiiy asar mohiyatini yuzaga chiqarishning o'ziga xos metodologiyasini vujudga keltiradi. Fenomenologik nazariya badiiy asarni mustaqil, aniq bir chegaraga ega bo'lgan, tugal mazmunni jamlagan estetik obyekt emas, balki ijodkor tafakkuri mahsuli deb hisoblaydi. Ya'ni u individual ong tomonidan vujudga keltirilgan subyektiv hodisadir. Asar deganda, faqat badiiy matnlar nazarda tutilmaydi. Fenomenologik metod

rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqa kabi boshqa sohalarda ham san'at asariga yondashishning eng to'g'ri usullaridan biridir. Masalan, rassom o'zi yaratgan suratda shakllar va ranglar orqali nima demoqchi, u dunyoni qanday tasavvur qilgan? Ehtimol, kartinadagi qora va bo'g'iq ranglar rassom hayotidagi yorug' lahzalar, shodmon kunlar bilan bog'liqdir? Demak, fenomenologik metod asar mohiyatini aniqlashda barcha tashqi ta'sirlarni rad etgan holda faqat obyektning ichidagina ishlaydi.

Husserldan boshlangan fenomenologik metod taraqqiyotida qator Yevropa davlatlarida ham paydo bo'lgan maktablarning xizmati katta. Bunday maktablardan biri “ong tanqidchilari” deb nomlangan Jeneva tanqidchilar maktabidir. Bu maktab a'zolari E.Husserl va M.Haydegger ta'limotiga ergashib, ong hodisalarining adabiyotda ifodalanishiga diqqat qaratdilar. Badiiy asarning fenomenologik tahlilida nafaqat matn, balki u bilan teng ravishda matnga nisbatan kuzatilgan reaksiyalar ham inobatga olinishi kerakligi haqidagi g'oyalar ilgari surildi. Masalan, Roman Ingarden adabiy asar mohiyatini konkretlashtirishi mumkin bo'lgan bir necha usulni taklif qiladi. Olim asarning haqiqiy tushunchasi faqatgina uning konkretlashish jarayonida vujudga kelishini ta'kidladi. Ingarden asarni quyidagi ikki qutbga ajratadi:

1. *Muallif yaratgan matn;*

2. *O'quvchi qabul qilgan matn.*

Badiiy asarni bu shaklda qutblash muallif yaratgan matn bilan o'quvchi qabul qilgan matn bir-biriga to'la mos kelmasligini ko'rsatdi. Badiiy asar yozilgan matndan ko'ra ko'proq narsa, chunki u faqat o'qish jarayonida jonlanib, badiiy asarga aylanib boradi. O'qish esa o'quvchining shaxsiyatiga bog'liq individuallikdir. Adabiy asar matn va unga nisbatan o'quvchida shakllangan tasavvur uyg'unlashganda paydo bo'ladi, ammo bu kombinatsiya sodir bo'lgan nuqtani aniq ko'rsatib bo'lmaydi. Jarayon o'quvchining matn o'ziga taklif etayotgan nuqtayi nazarlar haqida o'ylay boshlaganida, matndagi begona tajribani his qila boshlaganida paydo bo'ladi. Demak, adabiy asar o'qish jarayonida kashf etiladi.

Ildizlari Kantga borib taqaladigan borliq va inson ruhiyati munosabati orasidagi ziddiyatni Husserl va Haydegger shunday tushuntirishdi: olam – ma'nolar tizimi bo'lib, faqat insongina bu ma'nolarga nom va mazmun bera oladi. Chunki inson instinktlardangina iborat mavjudot emas, fenomenologlar inson tafakkuriga shu jihat orqali yondashgani uchun adabiyotshunoslar ularga inson ongiga borliq ma'nosini beruvchi, dunyo mohiyatini yaratuvchi kuch sifatida baho berishadi. Jeneva tanqidchilar maktabi vakillari fenomenologik metodni muloqot jarayonidagi individual ma'no hosil qiluvchi hodisa ekanini ta'kidlashadi. Bu maktab vakillari hatto she'riy asarlarda ham asarning strukturaviy jihatiga

e'tibor qaratmaydi. Ular uchun badiiy asarning strukturaviy jihatdan qanday yozilgani muhim emas, muhimi asar muallif shuuridagi elementlarni maksimal darajada ifodalashi va o'quvchi tafakkurining ham shunga o'xshash jarayonini tahlil qilishidir.

Fenomenologik metod badiiy ijod hodisasidagenetik tendensiyadan ham foydalanadi. Bunda o'quvchi e'tiborini asarning yaratilish jarayonidagi tajribaga, uning genezisiga, muallif ongida mustahkamlangan mavzularga qaratadi. Bu sabablarning barchasi fenomenologiyani inson hayotiga yo'naltirishni, uning ongida aks etgan tajribalarni yuzaga chiqarishni maqsad qiladi. M.Haydeggerning “Gelderlin va she'riyat mohiyati” maqolasida badiiy asardagi ijodkor “men”i tushunchasini asoslashda til shunchaki vosita emas, balki mavjudlikning eng yuqori imkoniyati ekani ta'kidlanadi. Bu poetik til, avvalo, she'riyatga tegishli. Shoir borliq hodisalariga nom berib, ularni real borliqqa kiritadi, bu mavjudlikni so'z orqali mustahkamlaydi. M.Haydeggerning fikricha, “inson o'z asosi va eng oliy ko'rinishida “poetikdir”.

Adabiy tanqidda tahlil usullarining ko'pchiligi badiiy ijod va uni idrok etishda inson omilini ancha past baholaydi. Strukturalistlar matnni o'z-o'zidan rivojlanayotgan narsa sifatida talqin qilishadi. Faqatgina matn strukturasi yo'naltirilgan tanqid esa o'zini oqlamaydi, matnni estetik obyekt sifatida emas, matn va o'quvchi, muallif va o'quvchining ong hodisasi sifatida bog'liqligini ko'rib chiqish zarur. Shundagina badiiy ijod hodisasini tushuna olishimiz mumkin. Adabiyotshunoslikda fenomenologik metod asosida asar matnidan muallifning ong fenomenini – ya'ni borliq haqidagi tasavvurlari, olamga, odamga, ijtimoiy hayotga munosabati, dunyoqarashi, ruhiy olamini yuzaga chiqarish mumkin. Uning borliqdagi obyektlarga qanday nom bergani va ularni qay tarzda tasavvur qilib ijod hodisasida qayta kashf etganini ko'ramiz. Aynan inson ongidagi tasavvur tufayli fantastik asarlar yuzaga keladi. Muallif ong fenomeni orqali matndagi jarayonni xuddi ko'rgandek, boshdan kechirgandek tasvirlab, o'quvchi idrokini voqelikka torta oladi.

Fenomenologik tahlilda asar konstruksiyasini muallif ijodiy ong tashuvchisi, kitobxonni esa idrok etuvchi ong tashuvchisi sifatida belgilab harakatlantiramiz. Badiiy asarga muallifning ong

hodisasi sifatida qarasaq, shundagina borliq muallif ongida qanday paydo bo'lishi va adabiy hodisada ijodkor uni qanday qayta ishlanishini ko'rib chiqamiz. Ayni hodisada adabiy asar yaralishini ta'minlovchi tasavvur, dunyoqarash, xotira, taqlid, o'zini, dunyoni anglash va boshqa unsurlar yordamida muallifning ong ishi o'rganiladi. Agar asarga kitobxon ong hodisasi deb qarasaq, unda asarning o'quvchiga qanday ta'sir qilishi, o'quv jarayonida u asarga qanday ishlov berishi, ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tekshiradi. Bu holatda badiiy idrokni ta'minlovchi tasavvur, estetik reaksiya, tushunish, qahramon

bilan tanishish, obrazlarga xayrixohlik yoki ulardan nafratlanish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Dastlab, Haydegger va boshqa fenomenologlar usul doirasidagi yondashuvda quyidagi ikki jihatni hisobga olishgan:

1. Muallif ong fenomeni;
2. Kitobxon ong fenomenini.

Ammo jahon adabiyotshunosligidagi keyingi tadqiqotlar, xususan, rus adabiyotshunosi Turyeshivaga asoslanib, o'zbek adabiyotshunosligida fenomenologik tahlil doirasida to'rtta asosiy yo'nalishni farqlashni ma'qul topdik.

Matnga muallif ongi fenomeni sifatida qarash
Badiiy asarga kitobxon ongi fenomeni sifatida qarash
Badiiy asarga muallif va o'quvchi ongi dialogi sifatida qarash
Badiiy asarga matn va o'quvchi ongi fenomeni sifatida qarash

Keltirilgan bu konsepsiyalar fenomenologik tahlil uchun mukammallikka da'vo qilmaydi, albatta. Chunki badiiy asar tahliliga birgina metod bilan batafsil yondashib bo'lmaydi. Shu o'rinda fenomenologik metodning unga yaqin tahlil usullari – biografik, hermenevtik, lingvistik hamda ekzistensial psixoanaliz metodlaridan farqini keltirib o'tmoq lozim. Sanab o'tilgan metodlar matnga muallif biografiasiga, u yashagan va ijod qilgan davr siyosiy tuzumi, ijtimoiy holati, ijodkor psixologiyasiga ta'sir qilgan omillarni aniqlab, matnni ular bilan qiyoslash, bog'lash orqali o'rganadi. Fenomenologik metod esa barcha tashqi faktorlarni rad qilgan holda faqat matnning o'zi bilan ishlaydi. Ya'ni muallif psixologiyasi, tasavvuri va u yashagan ijtimoiy davr mohiyatini matndan izlaydi. Quyida ushbu tahlil usulining shartlarini asoslaymiz.

Fenomenologik tahlildagi birinchi yo'nalish bo'lgan badiiy asarni muallif tafakkuri fenomeni sifatida tahlil qilish fransuz faylasufi va adabiyotshunosi Jan Pol Sartr tomonidan taklif qilingan. U Husserlning shogirdi, keyinchalik Fransiyada fenomenologiya sohasini rivojlantirgan M.Haydeggerning izdoshi edi. Sartr g'oyalarning asosini ijodiy ong va muallif ekzistensiyasi (mavjudligi) tahlili tashkil etadi. Sartrning ijodiy ong analitikasi asosi tasavvurdir. "Ba'zilar tasavvur qilishni ichki idrok kabi deb hisoblasa-da, tasavvur idrokka o'xshamaydi. Idrok – bu ma'lum bir obyektning sezgilarimiz bilan ma'lum vaqtda o'rganishimiz. Bu to'liq emas, bir vaqtning o'zida stulning faqat bir tomonini ko'rish mumkin. Idrok

kuzatishdir, tasavvur esa to'liqdir. Tasavvurimizda paydo bo'ladigan stulda biz bir vaqtning o'zida uning barcha tomonlarini bera olamiz", – deb yozadi Sartr¹. Buni adabiyotshunoslikda qo'llaganimizda muallif ongidagi barcha hodisalarni o'zi yaratayotgan asar orqali berishini tushunishimiz mumkin. Sartr fenomenologiyani rassom tasavvuri orqali tasvirlangan dunyoga o'xshatadi. Rassom ongidan real dunyoni chiqarib tashlaydi, so'ngra yaratayotgan san'at asarida o'z tasavvuridagi yangi dunyoni yaratadi. Asardagi tasvir real voqelikka muqobil bo'lishi shart emas. Haqiqiy moddiy narsalar ijod hodisasida obrazlarga, badiiy fenomenlarga aylantiriladi. Sartrning "Tasavvur" asari Husserlning fenomenologik g'oyalardan ilhomlangan holda yaratilgan. "Tasvirlangan obyekt, – deb yozadi muallif, – hech qachon u haqdagi ongda tasavvurdan boshqa narsa bo'lolmaydi"². Biroq Sartr adabiyotga nisbatan adabiy yondashishdan ko'ra falsafiy qarashni ma'qul ko'rgan.

Sartr aslida ekzistensializmning asoschisi bo'lsa-da, g'oyalari fenomenologiya bilan uzviy bog'langan. Chunki inson "men"ini ongli ravishda topadi, ong bilan bog'liq bo'lmagan "men" hayvoniy bo'lib, u faqat instinkt natijasidir³. Inson ongi borliqni qabul qilishga, o'z istagiga qarab o'zgarishga va fikr qilishga

1 Sartr J. P. *The Imaginary. A Phenomenological Psychology of the Imagination.* – London: Taylor Francis a Book, 2004. – P.90.

2 Сартр Жан Поль. *Воображаемое феноменологическая психология воображения.* Пер. Бекетовой. М – Санкт-Петербург: Наука, 2001. – С.15.

3 Эшонкул Н. Мендан "Мен"гача. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.391.

qodir. Sartrning fikriga ko'ra, "dunyo o'z holicha mazmunsiz, turg'un, faqat inson faoliyatigina unga mazmun, harakat bag'ishlay oladi"⁴.

Sartr Sharl Bodler she'riyati va Flober nasrini o'rganadi. Bu ikkita ijodkor haqida maxsus tadqiqotlar yaratadi. U Bodler she'riyatini tahlil qilarkan, asarlaridagi fojiviy tasvirlarning sababini izlaydi. Tadqiqotlari natijasi Bodlerning bolaligi, uning onasidan ajralib qolish voqeasi she'riyatiga mohiyat bo'lganini ko'rsatadi. O'sha paytdagi depressiya tufayli shakllangan xarakter she'riyatidagi o'limga intilish, hayotni qora ranglarda tasvirlash motivlariga sabab bo'ladi. Ikkinchi obyekt Flober esa bolaligida xastalik tufayli og'zaki nutq bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladi va nutqini yozma rivojlantirishga harakat qiladi. U og'zaki aytmagan fikrlarini yozma nutq vositasida tasvirlab, o'zini jamiyat va odamlardan chetga oladi. Sartr bu xulosalarning barchasini ijodkor matnida berilgan tasvir, obraz, ramzlar va motivlar orqali tekshirib, so'ngra tarjimai holida keltirilgan dalillar bilan asoslaydi.

Dastlabki konsepsiyada Jeneva tanqid maktabi nazariyasi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning asoschisi Jan Starabonskiydir. Bu maktab badiiy asarni muallif ong fenomeni sifatida tasvirlab, badiiy asarga muallifning shifrlangan shaxsiy tajribasi sifatida qaraydi. Matn ortida muallifning dunyoqarashi, irodasi, tajribalari turadi. O'qish hodisasi muallif dunyoqarashini qayta kashf qiladi, o'zaro bog'liq vaziyatlar, motivlar asosida ijodkor ongining o'ziga xos xususiyatlarini ochadi. Bunday tahlil fenomenologik metodni psixanalitik hermenevtikaga yaqinlashtiradi. Psixologik hermenevtikaning fenomenologiya bilan bog'liqligi, Husserl falsafiy fenomenologiyasining mohiyati Pol Rikurning "Hermenevtika va psixanaliz" asarida to'la ochib berilgan. Uning fikricha, "bitta san'at asaridan olingan zavqning mohiyatini umumiy tushunmaslik kerak. Idrok etish, tasavvur qilish, o'zga tajribani boshdan o'tkazish jarayoni mutlaqo individualdir"⁵. Demak, fenomenologik metod badiiy matn orqali muallif nazarda tutgan fikrlarga, ongidagi asl fenomenlarga yaqin bora oluvchi tahlil usulidir.

Fenomenologik metodning badiiy asarga o'quvchi ong fenomeni sifatida qarash konsepsiyasi Germaniyada shakllanib, 1960-yillardan boshqa mamlakatlarga ham tarqaldi. Bu tahlilning asosiy

4 Эшонкул Н. Мендан "Мен" гача. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.392.

5 Ricoeur P. Hermeneutics and the Human Sciences. Trans: Thompson J. – New York: Cambridge university press, 2016. – P.68.

tamoyillari V.Izerning "Nasrdagi noaniqlik va o'quvchi reaksiyasi" asarida keltirilgan. Izer matn ma'nosi barqaror emas, u doimo o'zgaradi deb hisoblagan. Ba'zi tanqidchilar bunga sabab matnning noaniqligi desa, boshqalar bunday beqarorlik bitta matnga nisbatan o'quvchilarning turli reaksiyalari sabab ekanini ko'rsatadi. "Biz, kitobxonlar, – deydi V.Izer, – matnga jon bag'ishlaymiz. Matnshunoslar esa asar o'z hayotini yashaydi, u avtonomdir deb hisoblashadi"⁶. V.Izerning fikricha, badiiy asar real dunyoni aks ettirmaydi, balki u bilan "raqobat" qiladi. Matn haqiqiy borliq va o'quvchi tafakkuri oralig'ida turadi. O'qish o'quvchi matnning u yoki bu ma'nosiga o'tishga intilish qonuniyatidir. Matnning o'zida hech narsa shakllanmaydi, barcha narsani o'quvchi kiritadi. Izer adabiy tajribaga ega bo'lgan o'quvchi matn yuborgan signallarni o'zaro bog'liqlikda qabul qila olishini asoslaydi. Gadamer matnda hermenevtik tamoyillarni ifodalagan bo'lsa, Izer matn, uning tabiati va tuzilishini tahlil qilishni ma'qul ko'rgan.

Stenli Fishning fikricha: "Adabiyot yozuvchilar yozadigan narsa emas, o'quvchi qabul qilgan hodisadir"⁷. Badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi qandaydir taassurotni boshdan kechiradi. Fish shunday yozadi: "bizning tanqidimizda badiiy asar o'quvchining unga bo'lgan munosabat jarayonida yo'qolib ketishi kerak, chunki u o'qish jarayonida sodir bo'ladi. Adabiyotdagi hamma narsa – mazmun, shakl, janr, obrazlar tizimi o'quvchining reaksiyasiga bo'ysunadi va shu bilan rivojlanadi"⁸. Jarayonni tushunmay turib matndan obyekt izlashimiz xatodir. Izerdan keyin ham uning izdoshlari ma'noni matndan izlamaslik kerakligini, chunki u matn va o'quvchi ongining o'zaro munosabatlarida paydo bo'lishini ta'kidlashgan. Ushbu nazariya asosida vujudga kelgan tanqidiy metodologiya affektiv stilistika (ta'sirchan uslub – T.M.) deb nomlangan. Ya'ni matni idrok etish jarayonida o'quvchida paydo bo'ladigan ta'sirlarni o'rganish, tahlil qilish usuli. "Metod, – deb yozadi S.Fish, – o'qish jarayonida paydo bo'ladigan taassurotlarning vaqt oqimini tahlil qilishiga asoslanadi, o'quvchining matndagi so'zlarga o'z vaqtida paydo bo'lgan ketma-ket reaksiyalarini tahlil qiladi"⁹. Buffalo

6 Yanling Shi. Review of Wolfgang Iser and his Reception Theory. – Finland: Academy publisher, 2013 June. – P.982-986.

7 Цурганова Е.А. Феноменологические школы критики в США. Зарубежное литературоведение 70-х годов: направления, тенденции, проблемы. – Москва, 2004. – С.348.

8 Ўша асар. – С.349.

9 Zachary D. The Political Conscience: Paradise Lost, Political Allegory, and the

tanqid maktabi vakillaridan biri Normann Hollandning fikricha, asar o'quvchi tafakkuri natijasi emas, uning asarga nisbatan reaksiyalari yig'indisidir. Holland ushbu metodologiyani psixoanaliz metodlar bilan bog'liqlikda ishlab, o'qish hodisasida o'quvchi o'zini tasavvur qilib, matndan ta'sirlanishini quyidagicha darajalaydi:

- a) *lazzatlanish istagi va og'riqdan qo'rqish;*
- b) *tasavvurni kuchaytirish;*
- v) *fantaziyani ma'naviy, estetik, intellektual bilan boyitish*¹⁰.

Fenomenologik metodning uchinchi tamoyilida asarga nisbatan yaratuvchi va qabul qiluvchining ong dialogi natijasi sifatida qaraladi. Ushbu nazariyaga ko'ra matn yozuvchi va o'quvchi shuurining hamkorlikda ishlash fenomenini ifodalab, badiiy asar ikkiyoqlama ijodiy hamkorlik tufayli muallif va o'quvchining umumiy kuchlaridan dunyoga keladi. Ushbu yo'nalish paydo bo'lishiga Sartrning real hayotda odamlar o'rtasida chinakam munosabatlar o'rnatib bo'lmashligi haqidagi pessimistik g'oyalari sabab bo'lgan. Aslida, bu g'oya Zigmund Freyd nazariyalariga ham mos keladi. Psixolog inson ruhiyatida doimo "men"lik birinchi o'rinda turishini va boshqalarni rad qilish insonga xos xarakter ekanini asoslashga uringan.

Matn va o'quvchi o'rtasidagi aloqa o'zgaruvchanligi haqidagi g'oyani asoslashga uringan Yauss bu jarayonga shunday ta'rif beradi: "Matndan chiqariladigan xulosa turli tarixiy davrlarda turlicha bo'ladi. Adabiy asar o'zining yashirin qirralarini o'quvchining turli yosh va har xil holatida namoyon etadi"¹¹.

Yaussning yuqoridagi yondashuvi bilan adabiyot tarixi badiiy asarni baholashning eng muhim tarkibiy qismiga aylanadi, chunki tarixiy omillarning ta'sirini tushunishga imkon berdi. Bu muammo muallifning "Adabiyot tarixi adabiyot nazariyasining signali" asarida yoritiladi. San'at asari mohiyatini, asosan, uchta narsa tashkil qiladi:

- ijod psixologiyasi;
- badiiy asarni tartibga solish;
- badiiy asarning o'quvchilar umidlariga mos kelishi yoki kelmasligi.

Badiiy ijod hodisasi, fenomenologik metod nazariyasi, uning adabiy tamoyillari va maqsadi to'g'risida yuqorida nomi keltirilgan tadqiqotchilarning pozitsiyalari ba'zi jahatlari bilan farqlansa-da, umumiy ma'noda bir-biriga mos keladi. Ular o'zaro bog'liq tarzda biri ikkinchisini to'ldirib boradi.

Origins of Stanley Fish's "Interpretive Communities". – Trinity University: 2012. – P.3.

10 Holland N. The dynamics of literary response. – New York: Columbia University Press, 1889. – P.122.

11 Кабановой И. В. Современная литературная теория. – Москва: Флинта-Наука, 2004. – Б.192.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайдеггер М. Гельдерлин и сущность поэзии. – Логос. Философско-литературный журнал. Вып. 1. М., 1991, С. 37-47.
2. Sartr J. P. The Imaginary. A Phenomenological Psychology of the Imagination. – London: Taylor Francis a Book, 2004. – P.90.
3. Сартр Жан Поль. Воображаемое феноменологическая психология воображения. Пер: Бекетовой. М - Санкт-Петербург: Наука, 2001. – С.15.
4. Эшонкул Н. Мендан "Мен"гача. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.391.
5. Ricoeur P. Hermeneutics and the Human Sciences. Trans: Thompson J. – New York: Cambridge university press, 2016. – P.68.
6. Yanling Shi. Review of Wolfgang Iser and his Reception Theory. – Finland: Academy publisher, 2013 June. – P.982-986.
7. Цурганова Е.А. Феноменологические школы критики в США. Зарубежное литературоведение 70-х годов: направления, тенденции, проблемы. – Москва, 2004. – С.348.
8. Zachary D. The Political Conscience: Paradise Lost, Political Allegory, and the Origins of Stanley Fish's "Interpretive Communities". – Trinity University, 2012. – P.3.
9. Holland N. The dynamics of literary response. – New York: Columbia University Press, 1889. – P.122.
10. Кабановой И. В. Современная литературная теория. – Москва: Флинта-Наука, 2004. – Б.192.

O'Imas SAIDOV,
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA METODOLOGIK ALMASHINUV

Annotatsiya: maqolada metodologik almashinuv va uning tilshunoslikdagi ahamiyati, o'zbek tilshunosligida metodologik almashinuvning asosiy bosqichlari, formal tilshunoslik va substansial tilshunoslikning farqi masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, o'zbek substansial tilshunosligi metodologiyasi, graduonimik tilshunoslik, o'zbek tilshunosligida miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish tamoyili haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy talab, taraqqiyot tendensiyalari, metodologik asoslar, o'zbek formal (an'anaviy) tilshunosligi, formal mantiq tamoyillari, o'zbek substansial tilshunosligi, abstrakt bilish metodologiyasi, dialektik mantiq tadqiq tamoyillari, lisoniy ziddiyat.*

Аннотация: в статье анализируются вопросы методологического обмена и его значение в лингвистике, основные этапы методологического обмена в узбекском языкознании, различие между формальным языкознанием и субстанциальным языкознанием. Высказывались также мнения о методологии узбекского субстанциального языкознания, градуонимического языкознания, о принципе перехода количественных изменений в качественные в узбекском языкознании.

Ключевые слова: *социальный спрос, тенденции развития, методологические основы, узбекское формальное (традиционное) языкознание, принципы формальной логики, узбекское субстанциальное языкознание, методология абстрактного познания, диалектическая логика принципы исследования, языковой конфликт.*

Annotation: the article analyzes the issues of methodological exchange and its significance in linguistics, the main stages of methodological exchange in Uzbek linguistics, and the difference between formal linguistics and substantial linguistics. Opinions on the methodology of Uzbek substantial linguistics, graduonymic linguistics, and the principle of the transition from quantitative changes to qualitative ones in Uzbek linguistics were also expressed.

Key words: *social demand, development trends, methodological foundations, Uzbek formal (traditional) linguistics, principles of formal logic, Uzbek substantial linguistics, methodology of abstract cognition, principles of dialectical logic research, language conflict.*

O'zbek tilshunosligida "metodologik almashinuv" (yoki "metodologik o'zgarish") atamasi ilmiy tadqiqotlar va tahlil metodlarining almashishi yoki evolyutsiyasi jarayonini bildiradi. Bu sohada metodologiya – ilmiy tadqiqotlarni olib borishning asosiy yondashuvlari va usullarini belgilaydi. Tilshunoslikda metodologik almashinuv, asosan, yangi ilmiy yondashuvlar va nazariyalar asosida tadqiqot metodlarining yangilanishini anglatadi.

O'zbek tilshunosligida metodologik almashinuvni ko'plab o'zgarishlar bilan bog'lash mumkin, masalan:

1. Klassik tilshunoslikdan strukturalizmga o'tish¹: Ilk davrlarda tilshunoslikda tilni tabiiy, funksional tizim sifatida o'rganish metodlari mavjud edi. Keyinchalik, strukturalizmning ta'siri bilan tilshunoslikda til tizimi, uning qismlari va ularning o'zaro aloqalari kengroq o'rganila boshlandi. Bu davrda fonologiya, morfologiya va sintaksis kabi tilning strukturaviy jihatlari ustuvor ahamiyat kasb etdi.

2. Generativ grammatika va chomskizm²: XX asrning o'rtalarida Noam Chomskiyning generativ grammatika va tilning tabiati haqidagi nazariyasi tilshunoslikda katta metodologik o'zgarishlarga olib keldi. U tilni faqat madaniy yoki ijtimoiy omillar bilan bog'lamay, uni inson aqli va

kognitiv jarayonlar bilan izohladi. Bu yondashuvning o'zgarishi o'zbek tilshunosligida ham tilni ichki strukturasi nuqtayi nazaridan o'rganishning yangi imkoniyatlarini yaratdi.

3. Kognitiv tilshunoslik³: 1980-yillardan boshlab, tilshunoslikda kognitiv yondashuvlar rivojlana boshladi. Bu yondashuv tilni insonning fikrlash va dunyoqarash jarayonlari bilan bog'lashni nazarda tutadi. Kognitiv tilshunoslikda til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi va bu, o'zbek tilshunosligida ham til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq etish uchun yangi metodologik imkoniyatlar yaratdi.

4. Diskurs tahlili va poststrukturalizm⁴: 1990-yillarda tilshunoslikda poststrukturalistik yondashuvlar, jumladan diskurs tahlili va postmodernizmning ta'siri ko'rindi. Bu metodologiyalar tilni ijtimoiy kontekstda, madaniyat va kuch munosabatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilishga urg'u berdi. O'zbek tilshunosligida ham bu yondashuvlar tilning ijtimoiy va siyosiy o'lchovlarini o'rganish uchun keng qo'llanila boshlandi.

5. Kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi⁵. XXI asrda kompyuter texnologiyalari va ma'lumotlar

1 Saussure, Ferdinand de. Course in General Linguistics. (1916); Jakobson, Roman. Essays on Linguistics and Language. (1970).

2 Chomsky, Noam. Syntactic Structures (1957); Aspects of the Theory of Syntax (1965).

3 Boshkova, T. F. Kognitiv tilshunoslik va uning asosiy nazariyalari (2000).

4 Alimov, N. (1997). O'zbek tilida diskurs tahlili: Metodologik asoslar; Ibragimov, I. (2005). O'zbek tilida ijtimoiy diskurs va hokimiyat.

5 Abdullaeva, Z. (2013). O'zbek tilida kompyuterli lingvistikasi; Uralov, N. & Murodov, M. (2015). O'zbek tilining korpusi tahlili

bazalarining rivojlanishi bilan yangi metodologiyalar, masalan, korpus lingvistika va kompyuter yordamida tilni tahlil qilish metodlari joriy etildi. Bu yondashuvlar tilni katta miqdordagi ma'lumotlar orqali statistik tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etdi.

Metodologik almashinuv tilshunoslikning har bir bosqichida yangi ilmiy yondashuvlar va nazariyalar yordamida tilni o'rganishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'zbek tilshunosligiga ham o'zgarishlar, yangi usullar va tahlil metodlarini kiritishga olib keladi.

Har bir davr ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda fanlarning taraqqiyot tendensiyalarini belgilaydi va unga mos metodologik asoslarni ta'minlaydi. Til hodisalariga sistemaviy yondashuv yo'nalishi va uning metodologik asoslari haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Graduonimik tilshunoslik – tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u tilni o'zgaruvchan, dinamik jarayon sifatida o'rganadi. Graduonimik tilshunoslikda tilning tarkibiy qismlari orasidagi o'zgarishlar, jumladan, fonetik, morfologik va sintaktik strukturalarning evolyutsiyasi o'rganiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, tilning rivojlanishi va o'zgarishi nuqtayi nazaridan, uning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini, yangi shakllar va strukturalar qanday paydo bo'lishini tahlil qiladi.

Graduonimik tilshunoslikning asosiy tamoyillari:

1) O'zgaruvchanlik: til vaqt o'tishi bilan doimo o'zgarib boradi va bu o'zgarishlar tilning ichki strukturalarida, so'zlarni qo'llashda yoki grammatik qoidalarda ko'rinadi. Graduonimik tilshunoslik tilning evolyutsiyasi jarayonini tahlil qiladi.

2) Dinamik yondashuv: tilni doimiy va statik tizim sifatida emas, balki o'zgaruvchan va dinamik jarayon sifatida ko'rish kerakligi asosiy nuqtadir.

3) Fonetik, morfologik va sintaktik tahlil: graduonimik tilshunoslikda tilning fonetik va morfologik tuzilmalari, shuningdek, sintaksisdagi o'zgarishlar o'rganiladi. Bu o'zgarishlar tilni rivojlantiradigan va yangi shakllarni yuzaga keltiradigan jarayon sifatida ko'riladi.

Graduonimik tilshunoslikning o'zbek tilshunosligida qo'llanilishi: o'zbek tilshunosligida ham graduonimik yondashuvlar qo'llanilmoqda. O'zbek tilining

o'zgarishlari, tilning fonetik va morfologik tuzilmalari bo'yicha o'zgarishlar, tarixiy davrlarda tilning o'zgarishi va shakllanishi o'rganilmoqda. O'zbek tilining tarixiy rivojlanishi va evolyutsiyasi haqidagi tahlillar tilshunoslar tomonidan graduonimik yondashuvda keng qo'llaniladi.

Graduonimik tilshunoslikning foydalari:

- til tarixini va uning o'zgarish jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi;

- tilning evolyutsiyasiga asoslangan aniq tahlillarni amalga oshiradi;

- tilning turli shakllarini, xususan, o'zgaruvchan fonetik va morfologik jihatlarini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Graduonimik tilshunoslik tilning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini, qanday yangi strukturalar va qoidalar yuzaga kelishini tushunish uchun muhim yondashuvdir.

Ma'lumki, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi falsafaning asosiy qonunlaridan biri bo'lib, u tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotida amal qiladi. Miqdor, sifat, o'zgarish va me'yor tushunchalari uzviy bog'liq. Har qanday miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishini keltirib chiqaravermaydi, u me'yor chizig'iga yetgach, sifat o'zgarishi ro'y beradi. Masalan, lablanmagan [a] unlisi va lablangan [o] unlisi o'zaro zid. Bu ziddiyatlar tilshunoslik uchun muhim. Biroq [a] va [o] unlisini bog'lovchi, [a] ning oz lablanishdan mutlaq lablanishga qarab o'sib borishi jarayonida eng ko'p lablangan [a] va eng kam lablangan [o] o'sishning me'yor chizig'idagi holatiga muvofiq keladi. Ana shu me'yor chizig'ining chap yonidagi [a] va o'ng yonidagi [o] variantlari aslida bitta tovush bo'lib, bu nuqtada [a] va [o] unli fonemalari zidlanishi so'nadi. Bu nuqtada unililaro ziddiyat emas, balki "murosa" munosabati namoyon bo'ladi. Me'yor chizig'idagi [a]/[o] ziddiyatsiz holati ikki unliaro bog'lanish va taraqqiyotni ta'minlaydi. Lablanmaganlikdan bosqichma-bosqich lablanishga yoki lablanganlikdan bosqichma-bosqich lablanmaslikka o'tib borish holati tilshunoslikda graduonimik chiziq sifatida qaraladi. Shu boisdan graduonimik munosabatni ziddiyat sifatida emas, balki ziddiyatsizlik, o'zaro aloqa, bog'lanish, tutashish sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, Z. *O'zbek tilida kompyuterli lingvistika*. (2013).
2. Alimov, N. *O'zbek tilida diskurs tahlili: Metodologik asoslar*. (1997).
3. Boshkova, T. F. *Kognitiv tilshunoslik va uning asosiy nazariyalari* (2000).
4. Chomsky, Noam. *Syntactic Structures* (1957); *Aspects of the Theory of Syntax* (1965).
5. Davronov Z., Primov M., Sultonova A. *Falsafa. O'quv-uslubiy majmua*. – Toshkent: Moliya instituti, 2019.
6. Ibragimov, I. (2005). *O'zbek tilida ijtimoiy diskurs va hokimiyat*.
7. Jakobson, Roman. *Essays on Linguistics and Language*. (1970).
8. Saussure, Ferdinand de. *Course in General Linguistics*. (1916).
9. Uralov, N. & Murodov, M. (2015). *O'zbek tilining korpusli tahlili*.
10. Щерба, Л.В. *Преподавание иностранных языков в средней школе: общие вопросы методики: учебное пособие*//– Изд. 2-е. – Москва: Высшая школа, 1974.

Shuhratjon QALANDAROV,
 Qo'qon DU dotsenti, f.f.b.f.d(PhD)

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI-O'QISH SAVODXONLIGINING RIVOJLANISHIDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI

Annotatsiya: xalq pedagogikasi mohiyati va ta'lim-tarbiya tizimining mazmunida xalqning turmush tarzi, milliy an'analari va urf-odatlarini ifoda etilganligi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogika, mehnatsevarlik, jangovarlik, o'dob-axloq, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik.*

Annotation: information is provided on the essence of folk pedagogy and the way in which the lifestyle, national traditions, and customs of the people are reflected in the content of the education system.

Key words: *pedagogy, fighting spirit, morality, elegance, friendship, kindness, humanity.*

Аннотация: Информация о природе народной педагогики и быте, национальных традициях и обычаях народа находит свое выражение в содержании образовательной системы.

Ключевые слова: *педагогика, трудолюбие, нравственность, изысканность, дружба, доброта, гуманизм.*

Kirish. Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalanilgan. Xalq pedagogikasida bola tarbiyalash an'analarida o'yin bolalarning bo'sh vaqtini o'tkazishi uchun ermak emas, balki ularni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari qatoriga kirgizilgan. Bunda bolalarni amaliy o'ylashga tarbiyalash, zukkolikga o'rgatish, narsa va hodisalarni taqqoslash orqali bir-biridan farqini bilish kabi aqli takomillashtiruvchi uslublar keng o'rin olgan.

Dunyodagi har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bo'lishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning pedagogik vositalari orqaligina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng. Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to'liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an'ana, amal, udum, xulq-atvorlar tarzida namoyon bo'ladi. Pedagogikaning ushbu tarmog'i ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar majmuidir.

Asosiy qism. Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o'rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o'rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan. Shu o'rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o'tish o'rinli. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar

tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsahkamlashadi. Tarbiya qoidalari pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalaniladigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Buyuk pedagoglar ko'proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Buyuk pedagog Ya. A. Komenskiy ham o'zining faoliyatini xalq og'zaki ijodi, uning urf-odatlarini, qadriyatlarini to'g'risida material to'plashdan boshlagan. X.X.Niyoziy "Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan" – deb ta'rif beradi. U yana o'zbek xalqi tarbiya sohasida o'ziga xos tizimga ega ekanini aytib o'tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o'z ifodasini topgan. [1.28]

Xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar – insonparvarlik, ochiq ko'ngillilik, saxovatlilik, poklik, to'g'ri so'zlik, haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo'lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda xalq pedagogikasi ma'lum davrda yashagan xalq, elat, guruh madaniyati, ma'naviyati, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarining tarkibiy qismidir. Uning umumbashariylik xususiyati shundan iboratki, u demokratik yo'nalishda rivojlanadi, xalqning ezguliklari, orzu niyatlari va g'oyalarini ifodalaydi. O'zbek xalq pedagogikasidagi ilg'or g'oyalar – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatlil,

bilimli va kasb-hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini mujassamlashtirgan, barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyiligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya – maqsadlarga qaratilgan bo'lganligidir. Xalq pedagogikasi urf-odat, an'ana va qadriyatlar orqali bir avloddan ikkinchi avlodga og'zaki tarzda o'tadi, so'ngra og'zaki ijod va yozma adabiyot mahsuli – maqol, masal, topishmoq, ertak, latifa, qo'shiq, lapar, askiya, dostonlar vositasida ommalashadi. Shu sababli ham, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot, asrlar davomida yaratib kelingan xalq latifa va qo'shiqlari, lapar va askiyalari, hikmatlari, maqollar va masallar, ertaklar va dostonlarida o'zbek pedagogikasining zamini, fundamenti va yagona tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda jamiyatimizda aynan mana shunday ta'lim va tarbiya vositalari dasturilamal bo'lib, xizmat qilib, biz yoshlar tarbiyasida mana shunday usul va vositalar orqali xalq pedagogikasining mazmun – mohiyatini singdira olishimiz lozim.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida biz rag'batlantirish va qoralash usullarini aks etganini ko'ramiz. Bular bir necha shaklda ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik ertak va dostonlarda rag'batlantirish metodi: ma'qullash va maqtash, mukofotlash shakllarida; qoralash metodi esa: qarg'ash, uyaltirish, tanbeh berish, talab qilish, jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi. Rag'batlantirish metodi axloqiy tarbiya yuzasidan eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, xalq og'zaki ijodida u turli shaklda o'z aksini topgan. Xalq og'zaki ijodida asosan qoralash metodining qarg'ish va jismoniy jazo berish kabi ayrim shakllarigina uchraydi. Odatda qarg'ish bola tarbiyasida eng ko'p qo'llaniladigan, shu bilan bir vaqtda eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob, tushkinlik va alam ortadi.

O'tgan davrlarda mutafakkir olimlarning o'z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida, o'z tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi

obyektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham ularning boy merosini o'rganish lozim.

Buyuk ma'rifatparvarlar olimlar, pedagoglar, shoirlarning pedagogik g'oyalarini o'rganish inson tarbiyasi haqidagi xalq g'oyalari ularning asarlaridan joy topganligini tasdiqlaydi. Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" kitobining "Bolalar tarbiyasi va ta'limi" bobida oila tarbiyasi amaliyotidan, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida turli xalqlarning an'alaridan Al-Farobiyning "Katta musiqa kitobi"da xalq musiqasidan ko'p misollar bor, Nosir Husravning "Baxt kitobi" da ham oddiy odamlarning mehnatlari ulug'lanadi.[2.88]

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy (1878-1934 yillar) o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida "... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi" – deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun yaroqliligi nuqtayi nazaridan yondashish mumkin emas deb hisoblaydi., lekin ilmni o'rganish kerak va foydalidir, uni bilish o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashini shakllantiradi.

Xalq pedagogikasini o'rganishga S.R.Rajabov, A.Ismoilova, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilov, A.Otayeva, Z.Mirtursunov, A.Minavarov kabi o'zbek olimlarining ishlari bag'ishlangan. Binobarin, har qanday sivilizatsiya ko'pdan- ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir.[3.78-81] Shunday ekan, har bir inson bu madaniyatni avaylab-asrab, xalq pedagogikasi usullari orqali keng jamoatchilik va yoshlar ongida samarali ta'sir ko'rsatishida o'z hissasini qo'shishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday davlatning istiqboli yetuk ma'naviyatli, o'zida mukammal tarbiyaviy sifatlarni mujassamlashtirgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga bog'liqdir. Bu jarayonning samaradorligi bevosita tarbiya metodlari, usullari va vositalarini o'rinli hamda samarali foydalanish jarayoniga bog'liq holda amalga oshadi. Xalq pedagogikasidagi tarbiya metodlari nihoyatda xilma-xil va rang-barag bo'lib, bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy xususiyatlarimiz oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga, kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarimizdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Bekimbetova. Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish an'analari. –Nukus, 2018.28-bet.
2. S.Yo'ldosheva. Xalq urf-odatlar va an'analari. –Toshkent:Ijod duysi nashryoti, 2013. 88-bet.
3. M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. – Toshkent:Fan va texnologiya nashryoti, 2015. 78-81 betlar.

**Boborahim CHORIYEV,
Lobar MUXTAROVA,**

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATIDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH HOLATI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda nostandart topshiriqlarning o'rni yoritiladi. Pedagogik sharoitlar va samarali yondashuvlar haqida qisqacha tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: *ijodiylik, nostandart topshiriq, boshlang'ich ta'lim, pedagogik muhit.*

Annotation: the article highlights the role of non-standard tasks in enhancing creative activity among primary school students. It briefly analyzes pedagogical conditions and effective approaches.

Key words: *creativity, non-standard tasks, primary education, pedagogical environment.*

Аннотация: в статье рассматривается роль нестандартных заданий в развитии творческой активности младших школьников. Кратко анализируются педагогические условия и эффективные подходы.

Ключевые слова: *креативность, нестандартные задания, начальное образование, педагогическая среда.*

Kirish. Dunyoda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish orqali kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika fanini o'qitishning asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim muassasalarida innovatsion-metodik yondashuvdan kengroq foydalanish, interfaol o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida matematik tafakkurni takomillashtirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish raqobatbardosh pedagogik tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Mamlakatimiz yetakchi metodistlaridan B.S.Abdullayeva, N.U.Bikbayeva, M.E.Jumayev, M.Zaynitdinova, R.Ibragimov, J.I.Ikramov, R.A.Mavlonova, T.R.To'laganov, D.I.Yunusova, E.Yangabayeva, F.M.Qosimov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. MDH mamlakatlari olimlari R.A.Ataxanov, V.V.Davidov, N.B.Istomina, I.Ya.Kaplunovich, A.N.Kolmogorov, Yu.M.Kolyagin, V.A.Krutetskiy, A.Punkare, O.V.Tarasova, L.M.Fridman, M.A.Xolodnaya, S.T.Shvetsova kabilar o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning turli jihatlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanishning samarali metodlari va texnologiyalari O.Behling, P.D.Mitchell, S.K.Reyed, J.Piaget, K.H.Silber, R.J.Sternberg, J.Wundhamn kabi xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari V.N. Lutoshkina [30], Ye.N. Plexanova [30], E.L. Grigorenko [25] lar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik manbalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, analiz, sintez, modellashtirish, taqqoslash, o'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish, kuzatish, suhbat, aksiologik yondashuv, anketa, test va tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik jihatdan qayta ishlash usularidan foydalanildi.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanish orqali qiziqish va qobiliyat bog'liqligining motivatsiyaviy, kognitiv hamda faoliyatli mezonlarini ijodiy faoliyatda tahlil etish, refleksiv va motivatsion jarayonni faollashtirish asosida takomillashtirilgan;

– boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanish bosqichlari o'qitishning ustuvor tamoyillarini evristik hamda produktiv faoliyatli ta'lim texnologiyalariga o'zaro uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

– boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanish metodikasini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayonlar modeli ishlab chiqilgan;

– dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanishning interfaol tizimi o'yinlar, Blum kubigi bo'yicha amaliy topshiriqlarni nostandart darslarda adaptiv qo'llash orqali takomillashtirilgan.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyati tushunchasi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi – o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy salohiyati shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishi kuchli bo'ladi, shuningdek, ular o'rgangan bilimlarni mustaqil

ravishda qo'llashga harakat qilishadi. Ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va ilhomlantiruvchi rolini bajaradi. Aynan shunday yondashuv o'quvchining ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

2. Nostandart topshiriqlarning mohiyati va turlari

Nostandart topshiriqlar an'anaviy, takrorlanuvchi mashqlardan farqli ravishda, o'quvchini yangicha fikrlashga undaydi. Ular odatda, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Muammoli topshiriqlar (masalan: "Agar suv muzlab qolmasa, nima bo'lardi?")

2. Mantiqiy topshiriqlar va boshqotirmalar

3. Rol o'ynash asosidagi topshiriqlar

4. Ijodiy yozuv mashqlari

5. Grafik va tasviriy topshiriqlar

6. Tasavvurga asoslangan topshiriqlar

Bunday topshiriqlar nafaqat aqliy, balki hissiy va estetik faoliyatni ham rag'batlantiradi. Ular orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muloqot qilish va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadilar.

3. Nostandart topshiriqlarning ijodiy faoliyatga ta'siri.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, nostandart topshiriqlardan muntazam foydalanilgan sinflarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, ishtiroki va natijalari ancha yuqori bo'ladi. Bunday topshiriqlar:

– Fikrlar erkinligini rivojlantiradi;

– ijodiy yondashuvga o'rgatadi;

– muammoni turli burchakdan ko'rib baholashga undaydi;

– mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, "Agar men ertalab qush bo'lib uyg'onsam..." mavzusidagi topshiriq bolaga fantastik tafakkur qilish imkonini beradi, bu esa ijodiylikning asosi hisoblanadi.

4. Pedagogik shart-sharoitlar va o'qituvchi roli.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunga quyidagilar kiradi:

O'qituvchining ijodiy yondashuvi – darsni qiziqarli tashkil etishi, savollar berish uslubi, rag'batlantiruvchi muhit yaratishi.

Mos o'quv muhiti – darslarda erkinlik, ochiqlik, fikr bildirish imkoniyati mavjudligi.

Didaktik materiallar – ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'yinlar, testlar, rasmlar, matnlar.

Texnologik vositalar – multimedia taqdimotlari, interaktiv platformalar orqali nostandart topshiriqlarning ta'siri oshiriladi.

O'qituvchining ijodkorlikni rag'batlantiruvchi harakati va doimiy yangilikka intilishi o'quvchida ham shunday fazilatlarini shakllantiradi.

5. Amaliy tajriba va kuzatuvlar asosida xulosalar.

Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, nostandart topshiriqlardan foydalangan darslarda:

– O'quvchilarning muloqot ko'nikmalari yaxshilanadi;

– ular o'zini erkin his qilishadi va fikr bildirishdan tortinmaydi;

– savol-javoblarga faol qatnashadi va yangi fikrlar bilan chiqishadi.

Ayniqsa, 1–4-sinflarda nostandart topshiriqlarning muntazam joriy etilishi o'quvchilarda ijodiy fikrlashning ertaroq shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va yangicha yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun samarali metod va vositalardan foydalanish talab etiladi.

Shunday vositalardan biri – nostandart topshiriqlardir.

Xulosa. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatida nostandart topshiriqlardan foydalanish holati, ulardan qanday sharoitlarda samarali foydalanish mumkinligi hamda pedagogik muhitning bu jarayonga ta'siri atroflicha ko'rib chiqiladi. Nostandart vazifalarni hal qilish o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi.

O'quvchilar taqqoslashni, tasniflashni, umumlashtirishni, tahlil qilishni o'rganadilar va bu bilimlarni yanada mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, nostandart topshiriqlar nafaqat darslar uchun, balki sinfdan tashqari ishlar uchun, olimpiada topshiriqlari uchun ham juda foydalidir, chunki bu har bir ishtirokchining natijalarini chinakamiga ajratish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matematikani boshlang'ich o'qitish metodikasi. O'qituvchilar malakasini oshirish institutlari uchun darslik / B.J. Drozd, A.T. Katsanova, L.Ya. Latotin va boshqalar; General ostida. ed. A.A.Stolyara, V.L. Qo'ziqorin. – Minsk: Oliy maktab, 1988. 254 p.

2. Pedagogika / Ed. Yu.K. Babanskiy. 2-nashr, qo'shimcha. va qayta ishlangan. – M.: Ta'lim, 1988. 478-b.

3. Pidkasty P.I. Maktab o'quvchilarining o'qishdagi mustaqil bilim faoliyati: nazariy va eksperimental tadqiqot – M.: Pedagogika, 1980. 240-b.

4. V.V.Drozina, V.L.Dilman Nostandart masalalarni hal qilish uchun ijodkorlik mexanizmi 2009. 97-b.

5. Vergeles G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlarining xususiyatlari // Boshlang'ich sinf o'quvchisi pedagogik ta'sir subyekti sifatida. – L.: LGPI, 1989. 21 – 30-b.

6. Vergeles G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlarining xususiyatlari // Boshlang'ich sinf o'quvchisi pedagogik ta'sir subyekti sifatida. – L. LGPI, 1989. 21 – 30-b.

Xilola SUYUNOVA,
 Naoy davlat universiteti
 doktoranti (DSc) P.f.f.d (PhD)
 hilolasuyunova0@gmail.com

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining dialogik nutqini o'stirishning usul va vositalari haqida fikrlar asoslangan. Xususan, muloqot kompetensiyaning rivoj topishida ijtimoiy lingvistik kompetensiya tushunchasini aniqlash uchun sotsiolingvistikaning predmeti va ushbu kompetensiyani shakllantirish nuqtayi nazaridan asosiy bo'lgan uning atamalarini belgilash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Kalit so'zlar: *nutq, kompetensiya, vosita, faoliyat, dialog, stereotipik lingvistik, suhbat, munozara.*

Аннотация: в данной статье обоснованы идеи, касающиеся методов и средств развития диалогической речи будущих преподавателей иностранных языков. В частности, для определения понятия социолингвистической компетенции в развитии коммуникативной компетенции целесообразно рассмотреть предмет социолингвистики и определить основные термины, имеющие ключевое значение для формирования данной компетенции.

Ключевые слова: *речь, компетенция, средство, деятельность, диалог, стереотипная лингвистика, беседа, дискуссия.*

Annotation: this article substantiates ideas concerning the methods and tools for developing dialogic speech among future foreign language teachers. In particular, to define the concept of sociolinguistic competence within the development of communicative competence, it is advisable to examine the subject of sociolinguistics and identify the key terms essential for the formation of this competence.

Key words: *speech, competence, means, activity, dialogue, stereotypical linguistics, conversation, discussion.*

Tilning ijtimoiy mohiyati cheksiz. Ulardan biri tilning ma'rifiy ahamiyatidir. Tilning ma'rifiy ahamiyati shundaki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli insoniyatning bilimi, boy tajribasi avloddan- avlodga og'zaki va yozma shakllarda qoldiriladi. Natijada yangi avlod o'tgan avlodning o'z ajdodlarining ishini hech qiynalmasdan davom ettiradi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchining nafaqat o'quvchining xarakter xususiyatlarini rivojlantirish va shakllantirishga, balki uning shaxs sifatida ta'lim va tarbiyasiga qaratilgan o'zaro ta'sir jarayonidir. Chet tili darslarida o'qituvchining vazifasi chet tilidagi bilim va tajribani o'quvchilarga yetkazishdan iborat bo'lib, ular keyinchalik tilni o'zlashtirish va kelajakda umumiy madaniy va kasbiy sohalarida muloqot qilish uchun foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Xususan, muloqot kompetensiyaning rivoj topishida ijtimoiy lingvistik kompetensiya tushunchasini aniqlash uchun sotsiolingvistikaning predmeti va ushbu kompetensiyani shakllantirish nuqtayi nazaridan asosiy bo'lgan uning atamalarini belgilash maqsadga muvofiq ko'rinadi. Ijtimoiy lingvistika tilning barcha darajadagi ijtimoiy tabaqalanishini, xususan, til va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi ko'p qirrali va vositachilik munosabatlarini o'rganadi. Til bilishning asosi nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar, balki ularni kasbiy faoliyatda qo'llash tajribasidir.

Metodika ilmiy fan sifatida tilni o'qitishning muayyan sharoitlarida o'qitish jarayonini tavsiflaydi yoki tilni o'rganishning o'ziga xos shartlaridan tashqarida o'qitish

qonuniyatlarini ochib beradi. Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, yana bir bor ta'kidlash joizki, chet tillarini o'qitish metodikasi mustaqil pedagogik fan bo'lib, tilni o'rgatish qonuniyatlari va qoidalari va tilni o'zlashtirish usullari, shuningdek, til vositasida ta'lim va tarbiyaning xususiyatlari takomillashadi. Dars davomida talabalar chet tilini muloqot vositasi sifatida o'zlashtiradilar va ular ongida o'rganilayotgan til tizimi haqida tasavvur hosil qiladi, bu esa tilni bilishni ongli qiladi. Nutq muloqot turlarining eng keng tarqalgan vositasi bu dialogik nutqdir.

Dialog – bu to'g'ridan-to'g'ri nutq mavjud bo'lgan nutq shakli ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida bayonotlar almashinuvi. Dialogik nutqni o'rgatish birligi dialogik birlikdir - ikkita juft bayonotlar to'plami, bir-biri bilan mazmun va shaklda bog'lanishidir. Dialogik va monologli nutq o'rtasida yetarlicha farq mavjud, chunki monolog nutqi ham tinglovchining ishtirokini talab qiladi va shuning uchun go'yo dialogik, aniqrog'i, o'z tabiatiga ko'ra dialogik bo'lgan og'zaki muloqotga kiradi. Ko'pgina olimlarning fikricha, dialog og'zaki nutqning eng tabiiy shaklidir. Shuning uchun ham, ko'p hollarda og'zaki nutqni o'rgatishda qabul qilingan strategiya dialogik nutqdan monolog nutqqa o'tadi. Muloqotni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish, unga lingvistik, psixologik va ekstralingvistik ma'no berish mumkin. Dialogik va monologli nutq alohida ahamiyatga ega. Tarkibiy jihatdan dialoglar *kichik dialoglar bular-mantiqiy-semantik bog'liqlikda bo'lgan bir xil turdagi dialogik birlikka asoslangan* va mavzuli makro dialoglar *bir nechta kichik dialoglarni o'z ichiga oladi* bo'lishi mumkin. Bundan tashqari,

metodologiya stereotipik lingvistik materialdan foydalanishni o'z ichiga olgan aniq belgilangan rollarga ega bo'lgan erkin va standart dialoglarni ajratib turadi. Chet tillarni o'qitish metodikasida dialoglarning har xil turlari mavjud: erkin va standart, tipik. Standart dialoglarda ishtirokchilarga ma'lum ijtimoiy rollar *ota-ona - bola, o'qituvchi - talaba, sotuvchi - xaridor* kabi mavzular aniq belgilanadi. Bunday dialoglar an'anaviy tarzda suhbatlar, munozaralar, intervyular, ya'ni nutqning o'zaro ta'siri shakllarini o'z ichiga oladi bu yerda suhbatning rivojlanishining umumiy mantig'i dastlab qiyin bo'lmagan ijtimoiy nutq rollari bilan belgilanadi. Albatta, shu o'rinda alohida ta'kidlashni lozim topamiz.

Kishining dialogik nutq madaniyatini rivojida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. Mashhur metodist-pedagog A.Disterveg aytganidek: "mustaqil faoliyatga yetaklovchi ta'lim haqiqatga, go'zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchni tarbiyalaydi". Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

- o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi;
- talabada o'z kuchiga, o'z bilim va imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;
- bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta'rif-va tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurini tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi.

Til o'qitishda metodologiya atamasi bilan bir qatorda lingvodidaktika atamasi ham keng qo'llaniladi. Dialogik nutqning rivojida lingvodidaktika atamasining ahamiyati bor. Ushbu ta'rif birinchi marta 20-asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Lingvodidaktika tushunchasi 1969-yilda N.M.Shanskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u tillarning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish, o'rganilayotgan tilning mazmuni va tuzilishini aniqlash, o'qitish maqsadlari uchun til minimumlarini tuzish va boshqa bir qator muammolar bilan shug'ullangan.

Lingvodidaktika – tillarni o'qitish nazariyasi, tilshunoslik va didaktikaning integratsiyasi. Lingvodidaktika tillarni o'qitish metodikasining nazariy qismi bo'lib, tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyalashuvi natijasida vujudga kelgan. Lingvodidaktikaning obyekti tillarni o'qitish jarayonini nazariy asoslash va uni tadqiq qilish: tushunchalar, til ta'limining mazmuni, o'qitishning tashkiliy shakllari, tadqiqot mexanizmlari va o'quv jarayonini loyihalash.

Lingvodidaktikaning predmeti til o'rgatish, o'rganish o'quv materiali mazmuni va shaxsiylashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir qonuniyatlarini nazariy asoslashdan iborat. Demak, dialogik

nutqning rivojida metodikaning nazariy jihatdan qo'llanilishini ham bilish zarurdir. Shu munosabat bilan, lingvodidaktika tomonidan hal qilinadigan vazifalar nimalardan iborat ekanligiga ahamiyat qaratamiz:

- til ta'limi tushunchalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish – lingvosentrik va antroposentrik;
- tillarni o'rgatish jarayonining mohiyatini va uning samaradorlik shartlarini tavsiflash va tushuntirish;

Maktab davrida shakllangan ikki tillilik tilning grammatik qonun-qoidalari ta'siridan xoli bo'ladi va yosh katta bo'lavergani sari til bilishning mazmun va mohiyati kengayaveradi. Shunisi ham borki, oila va mahallada shakllangan ikki tillilik xotirada uzoq, hatto umrbod saqlanadi. Boshqa ikkinchi tillarni bevosita o'rganish ko'p millatli sharoitda ta'lim muassasalarida rivoj topib, mustahkamlanadi. Maktab ta'limida olingan bilimlar oliy ta'limda rivojlantiriladi bu esa, ikkinchi tilni ilmiy-me'yoriy rejada o'rganishni samarali natijalarga olib chiqadi. Shu tarzda ikki va ko'p tillilik takomillashib, shaxs bilingv va polilingvga aylanadi va til o'rganuvchida dialogik nutq kompetensiyalari rivojlanadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bularning barchasining negizida ona tili poydevor *poydevor* bo'lib xizmat qiladi. O'quvchida o'rganilayotgan chet tilining minimum lug'at boyligi shakllangach, uning grammatik qonun-qoidalari haqida ma'lumot berishga o'tiladi. Bu jarayon ham o'quvchining ona tili grammatik qonun-qoidalari zaminida unga qiyosan amalga oshadi. Chunki, o'quvchida o'z tilining grammatik qonun-qoidalari bo'yicha me'yoriy bilim shakllanmasa, u o'zga tilning grammatik qonun-qoidalari o'zlashtira olmaydi. Tilni bilish va o'rganish oila, mahalla, ta'lim maskanlari va ularning bosqichlari bilan mutanosib bog'liq bo'lishi tilning ijtimoiy hodisa ekanligini isbotlovchi yana bir dalildir. Ona tilini yaxshi va mukammal bilmagan, uning lisoniy qonun-qoidalari me'yoriy o'zlashtirmagan odam ikkinchi va uchinchi tilni o'rganishda qiyinchilik sezadi, ba'zan uni o'rgana olmaydi. Shu sababdan, o'zga tilni o'rganishda uni ona tili va uning qonun-qoidalariga moslashtirish, tahlil qilish muhim omillardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'z ona tili grammatik qonun-qoidalari boshlang'ich sinfdan boshlab nazariy va amaliy planlarda o'rgana boshlaydi. Chet tilini o'rganishdagi dastlabki maqsad o'quvchi xotirasida o'sha tilning minimum lug'at boyligini shakllantirishga qaratiladi. Bu maqsad chet tili so'zlariga ona tilidan munosib lug'aviy muqobillarni topish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xulosa shuki, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining dialogik nutq tafakkurni o'stirish – til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, o'xshash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov, J. Chet tilini o'qitish metodikasi: Nazariya va amaliyot. O'zbekiston. –Toshkent: Milliy Universiteti nashriyoti, 2012.
2. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. To'xliyev B va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston –Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 192-bet.

Luiza TURDIQULOVA,
 Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM katta o'qituvchisi
 luiza.turdiqulova@gmail.com



TALABALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHGA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: tarbiyachi-pedagog va ota-ona hamkorligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari g'oyasi bir qator me'yoriy hujjatlarda aks etgan. Bugungi kunda bu muammo pedagoglar, psixologlar, ota-onalar, sotsiologlar tomonidan muhokama qilinmoqda.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, pedagog, ota, ona, hamkorlik, muammolar, munosabatlar, rejalar, dasturlar, ta'lim, tarbiya.

Аннотация: методические возможности развития сотрудничества педагогов и родителей в настоящее время отражены в ряде нормативных документов. Сегодня эту проблему обсуждают педагоги, психологи, родители, социологи.

Ключевые слова: воспитатель, педагог, отец, мать, сотрудничество, проблемы, отношения, планы, программы, образование, воспитание,

Annotation: the methodical possibilities of development of cooperation between educators and parents are currently reflected in a number of normative documents. Today, this problem is being discussed by pedagogues, psychologists, parents, and sociologists.

Key words: educator, pedagogue, father, mother, cooperation, problems, relationships, plans, programs, education, upbringing,

Bugungi globallashuv davrida amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu bir qancha sabablar bilan izohlanadi:

– bolalar sog'lig'ining yomonlashishi (aqliy, jismoniy); ijtimoiy himoyalangan ota-onalar va bolalar foizining ko'payishiga olib keladigan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ijtimoiy-psixologik tashvish, charchoq, moddiy va iqtisodiy funksiyalarni oila ichida qayta taqsimlash, inqirozlar fonida oilaviy hayotni tashkil etishdagi qiyinchiliklar;

– ota-onalarning shaxsiy muammolari: charchoq, ruhiy va jismoniy stress, hayot xavfsizligining pasayishi tufayli tashvishlanish, yolg'izlik tuyg'usining kuchayishi (ayniqsa, to'liq bo'lmagan oilalarda), o'zaro tushunishning yetishmasligi va h.k.

Shu bois, so'nggi yillarda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi.

Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlarining asosiy ijtimoiy mijozlari hisoblanadi, shuning uchun tarbiyachi-pedagoglarning harakatlari oila manfaatlarini va ehtiyojlariga asoslangan bo'lishi kerak. Aynan shuning uchun ko'plab bolalar bog'chalari ota-onalarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga oladigan va ota-onalarning faol pozitsiyasini shakllantirishga

yordam beradigan ishning yangi shakllari va usullarini izlashga qaratilgan. [5].

Maktabgacha ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalar natijalariga ko'ra, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ishlashda ijtimoiy mavqeyini, oilaning mikroiklimini, ota-onalarning qiziqishlarini va ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga qiziqish darajasini hisobga olgan holda differensial yondashuvga ega bo'lishi kerak. Bunda oilaning pedagogik savodxonlik madaniyatidan kelib chiqqan holda ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishning o'zaro talablari ham shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ham yangi munosabatlarni nazarda tutadi. O'ziga xos vazifalarga ega bo'lgan holda, ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi, shuning uchun ular o'rtasida aloqa o'rnatish maktabgacha yoshdagi bolada mas'uliyat hissini shakllantirishning zarur shartidir.

Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi-pedagog va ota-ona hamkorligini tashkil etish quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

Hozirgi bosqichdagi o'zaro ta'sir faqat pedagogik ta'lim bilan chegaralanmaganligi uchun ota-onalarning refleksiv qobiliyati kabi xarakterli "o'zaro ta'sir" tushunchasini aniqlashtirish va kengaytirish zarur.

Ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, ularning keyingi ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati bu mahoratning shakllanishiga bog'liq. Ota-onalarning bolani tushunish istagi, olingan pedagogik bilimlarni ijodiy qo'llash qobiliyati ular o'rtasida o'zaro tushunish paydo bo'lishiga, bolaning kattalar talablariga emotsional ijobiy, ongli, axloqiy turtki berishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va tarbiyalanuvchilar oilalari bilan o'zaro ta'sirning ijobiy xarakteristikalarini kundalik ishlar, uchrashuvlarga asoslanadi.

Bunday hamkorlikning rivojlanishi quyidagilardan iborat:

- pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlar majburan o'rnatilishi mumkin emas, u ikkala tomonning tabiiy xohishiga asoslanadi;

- o'zaro ta'sir (hamkorlik) jarayoni izchillik bilan rivojlantiriladi.

Oila va bolalar bog'chasi o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi. Izchillikning muhim sharti oila va bolalar bog'chasi o'rtasida ishonchli ishchanlik aloqalarini o'rnatish bo'lib, uning davomida ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglarning tarbiyaviy nuqtayi nazarlari aniqlashtiriladi. Yuqorida ta'kidlangandek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida ota-onalar ishtirok etadigan ochiq ijtimoiy-pedagogik majmuaga aylanishi lozim. Bu bolalar manfaatida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sir, hamkorlikdir. [2].

Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari:

- ijodiy shaxsni tarbiyalash jarayonida bolaga qo'yiladigan talablarning birligi;

- ota-onalarga pedagogik ma'rifat tarqatish (ishning ko'rgazmali va so'z bilan bog'liq shakllari orqali);[1]

- oiladagi tarbiyaning eng yaxshi tajribalarini o'rganish;

- ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasasi hayoti bilan tanishtirish.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda bolaga juda yaqin bo'lgan ikki tomon, ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglarning bir-biridan mustaqil ravishda tarbiyalashga urinishlarini

oldini olib samarali hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Chunki, agar bolani tarbiyalovchi kattalar unga qo'yiladigan talablar, ta'sir usullari, rivojlantirish yo'llari haqida kelishib olsalar natija kutilganidek bo'ladi. Qaysi ta'lim vazifalarini hal qilishda bir tomon (bolalar bog'chasi yoki oila) kuchliroq bo'lishi va qaysilarini hal qilishda asosiy og'irlikni boshqa tomon o'z zimmasiga olishi kerakligini ham hisobga olish zarur. Masalan, emotsional, jinsiy tarbiyada, sportga jalb qilishda oila imkoniyatlari bolalar bog'chasi imkoniyatlariga qaraganda ahamiyatli darajada yuqori. Biroq bolalar bog'chasi ta'lim berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boshqalarni malakali amalga oshiradi.

Shunday qilib, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-ona o'zaro munosabatining asosini hamkorlik tashkil qiladi deb xulosa chiqarish mumkin.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ko'p hollarda bolalar bog'chasi tarbiyachi-pedagogi shaxsiga bog'liq bo'ladi. "Pedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak, uning ota-onalar va tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti qanday kechadi?" – bu savollar bolalar bog'chasi tarbiyachilarini hayajonlantiradi. Ko'p pedagoglarning muammosi kattalar va bolalar bilan muomala qilishda avtoritarizmdir. Sezgirlik, e'tibor, ishonch ohangi nafaqat bolalarda, balki ularning ota-onalarida ham o'z quvonchlari va tajribalarini baham ko'rish istagini uyg'otadi. Tarbiyachi-pedagoglarning bolalar tarbiyasida oilaning juda muhim rolini eng yaxshi oilalar misolida ochib beradilar. Oiladagi tarbiyaning asosiy xususiyati shundan iboratki, u kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar mazmuni va shakllarining emotsionalroq ekanligida. [3].

Ota-onalarni psixologik-pedagogik bilim va ko'nikmalarini oshirish mazmuniga hayotni muhofaza qilish, kichiktoy salomatligini mustahkamlash, to'g'ri jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari kiritilishi kerak. Bolaning ijtimoiy tarbiyaga moslashishi, gigiyenik qarash, ratsional ovqatlanish, chiniqtirish, kun tartibi, uqalash, gimnastika masalalari bo'yicha tavsiyalarni ota-onalarga nafaqat tarbiyachi, balki bolalar bog'chasining tibbiyot xodimlari ham beradi. Bunday maslahatlar individual yondashuv asosida yakka tartibda berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Yusupova. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "O'qituvchi", 1998. 1-396-bet.
2. Xasanboyeva O.I. va boshqalar. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2007. 1-274-bet.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2004. 1-487-bet.
4. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. 1-333-bet.
5. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2014. 1-184-bet.

Nafisa RAHMONQULOVA,
 Qo'qon DU o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: bugungi kunda mamlakatimizda bo'layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim- tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar "Milliy dastur"imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o'qituvchisini yanada koproq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, xotira, ta'lim sifati, bilim, axborot vositalari.*

Аннотация: сегодня в нашей стране ведётся огромная созидательная работа, принимаются законы и решения в сфере образования, поставлены высокие цели в нашей «Национальной программе», которые побуждают учителей к более напряжённой работе и исследованиям. В данной статье представлена информация об использовании интерактивных методов в обучении математике в начальных классах.

Ключевые слова: *инновации, интерактивность, педагогическое мастерство, эффективность, дидактическая задача, память, качество образования, знания, информационные носители, компьютер.*

Annotation: today, the great creative work taking place in our country, the laws and decisions adopted in the field of education, the great goals set in our "National Program" encourage today's teachers to work harder and research. This article provides information on the use of interactive methods in teaching mathematics in primary grades.

Key words: *innovation, interactive, pedagogical skills, efficiency, didactic task, memory, quality of education, knowledge, information media, computer.*

Kirish. Yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir. "Interfaol" so'zi ingliz tilida interact so'zidan olingan bo'lib, inter— o'zaro ikki tarafdin, act— harakat qilmoq degan ma'nolarni ifodalaydi. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantiradi, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga hamda o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan bilimlarni qayta so'rashga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi.

Asosiy qism. Ta'lim sohasida matematikani o'qitish ko'pincha o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham qiyin va mashaqqatli vazifa sifatida qabul qilingan. Matematik tushunchalarning mavhum tabiati, asosan ma'ruzalarga va eslab-eslab qolishga tayanadigan an'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda, mavzuni tushunish va jalb qilish uchun to'siqlar yaratishi mumkin.[1.19] Biroq, texnologiya va pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi bilan o'qituvchilar matematika o'qitishni yanada qiziqarli, qulay va samarali qilish uchun ko'plab interfaol usullarga ega. Matematika fanidan o'qitishning interfaol usullari o'quvchilarni o'quv

jarayoniga faol jalb qilish uchun amaliy mashg'ulotlar, texnologik vositalar, hamkorlikda o'rganish tajribasi va real hayotdagi ilovalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar nafaqat matematik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va matematik ravonlikni rivojlantiradi. Darslarga matematik o'yinlar, boshqotirmalar va qiyinchiliklarni qo'shish matematikani o'rganishni qiziqarli va o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi. [2.17] Sudoku, Math Bingova Math Jeopardy kabi o'yinlar matematik tushunchalarni mustahkamlashga, muammolarni yechish ko'nikmalarini yaxshilashga va o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni rag'batlantirishga yordam beradi. Darsda interfaol doskalardan foydalanish o'qituvchilarga dinamik va vizual qiziqarli matematik darslarni yaratish imkonini beradi. Interfaol doskalar o'qituvchilarga matematik tushunchalarni ko'rsatish, real vaqt rejimida muammolarni yechish, interfaol tadbirlar, simulyatsiyalar va multimedia resurslari orqali o'quvchilarni jalb qilish imkonini beradi. Virtual manipulyatorlar bloklar, hisoblagichlar va geometrik shakllar kabi jismoniy matematik manipulyatsiyalarni taqlid qiluvchi raqamli vositalardir. Virtual manipulyatorlardan foydalangan holda, o'quvchilar mavhum matematik g'oyalarni chuqur tushunish uchun matematik tushunchalarni o'rganishlari, munosabatlarni tasavvur qilishlari va obyektlarni boshqarishlari mumkin. Matematikani o'rganishning interaktiv va qiziqarli usullarini ta'minlovchi keng turdagi onlayn matematik vositalar va ilovalar mavjud. Ushbu vositalar interfaol darslar, mashq mashqlari, o'yinlar va simulyatsiyalarni taklif qiladi, ular turli xil o'rganish uslublariga mos keladi va o'quvchilarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi.

Matematika, boshlang'ich sinflarda o'qitilishi zarur bo'lgan fundamental fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o'quvchilarga nafaqat matematik ko'nikmalar, balki analitik fikrlash, mantiqiy qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi. Hozirgikundata'limtizimida innovatsion metodlarni qo'llash muhim o'rin egallamoqda. Innovatsiyalar va integratsiya matematika fanini o'qitishda nafaqat samaradorlikni oshirish, balki o'quvchilarning qiziqish va ishtiyoqini ham oshiradi.[3.69] Matematika fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash innovatsion yondashuvlar sifatida keng tarqalmoqda. Bular orasida interfaol metodlar, multimedia vositalari va o'yin usullari alohida e'tiborga loyiqdir. Interfaol ta'lim: bu usulda o'quvchilar o'zaro muloqot qiladilar, guruhlarda ishlashadi va masalalarni birgalikda yechishadi. Bu usul matematika darslarini yanada qiziqarli va samarali qiladi, o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta'minlaydi. Multimedia vositalari: videolar, animatsiyalar va interaktiv ta'lim dasturlari matematikaning abstrakt tushunchalarini aniqroq tushunishga yordam beradi. Bu vositalar o'quvchilarga matematik bilimlarni mustahkamlashda qo'llaniladi. Matematik o'yin metodlari: matematik masalalarni o'yin shaklida bajarish o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi. Masalan, matematik quizlar va masala yechish bo'yicha musobaqalar o'tkazish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. O'yin o'quvchi uchun eng tabiiy holat bo'lib, u o'yin vaqtida o'zini erkin sezishi, qo'rquv va tortinchoqlikni unutishi mumkin, Didaktik o'yin o'quvchining aqliy faolligini oshirish vositasi ham bo'lib, u o'quvchilardagi psixologik holatlarini faollashtiradi va ta'lim jarayoniga qiziqishni orttiradi. Didaktik o'yin – o'quvchilarga bilim berish maqsadida qo'llaniladigan o'yin turi bo'lib, unda

bor ta'limiy maqsad o'yin shakli orqali amalga oshiriladi. Didaktik o'yinning asosiy mohiyati shundaki, biror vazifani hal etilishi bolalarga o'yin tariqasida topshirilsa, bu bolalarni qiziqtiradi, beixtiyor diqqatini jalb etadi, natijada ular ko'tarinki ruhda va faol jarayonda bu vazifani bajaradilar. Didaktik o'yinlar qadimdan mavjud bo'lib, ularni matematik ermaklar deb atash mumkin. Matematik ermaklar qiziqarli masalalar yechish, ham geometrik yasashlar, ham sonli va mexanik boshqotirmalarni o'ylab topish, matematik o'yinlar hamda fokuslar. Ular matematikaga layoqatni, idrok, Xalqaro ilmiy - amaliy konferensiyasi, 2025-yil 24-aprel 180 mantiqiy mulohazani o'stiradi, xotirani mustahkamlaydi. Matematik ermaklar ta'limni o'yin bilan, mehnatni hordiq bilan birlashtiradi. Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Integratsiya yordamida o'quvchilar matematik bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashadi, bu esa bilimlarni yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Masalan, matematika va tabiiy fanlar (fizika, biologiya) o'rtasida integratsiya qilish orqali o'quvchilarga matematik formulalarni tabiiy fanlarda qo'llashning amaliy ahamiyatini ko'rsatish mumkin.[4.52]

Asrlar mobaynida esa matematika fani yuqori darajada rivojlandi va katta yutuqlarga erishdi. Matematikaning boshqa fanlardan farqli tomoni shundan iboratki, bu fan o'z nazariyasini deduktiv (xulosa chiqarish) asosida quradi. Bizga ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarga matematika fanini o'qitish bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiya asosida o'yin faoliyati ham mujassam bo'ladi, mana shu o'yin-darsdan foydalangan holda ularning o'qish faoliyatlariga ham ijobiy ta'sir o'tkazamiz, shu orqali ularning fanga bo'lgan qiziqishini orttirishimiz mumkin. Ya'ni kim, turli xil misol, masalalar, harakatli o'yinlar, test savollari, muammoli, aqliy hujum, munozarali, krossvordlar, matnli masalalar kabi jumboqli topshiriqlar kabi dars metodlari o'quvchilar bilimini oshiradi.

Xulosa. Dars loyihasi har bir mavzu, har bir dars uchun matematika darsi xususiyatidan, o'quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, iqtidori ehtiyojidan va albatta uslubiy adabiyotlar ta'minotidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bu esa o'z navbatida, har bir darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, matematika fani taraqqiyotiga buyuk allomalarimizning erishgan yutuqlari, ular yaratgan nazariyalar va fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini o'quvchilar ongiga singdirish ustoz va murabbiylar oldiga turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). Didaktik o'yinlar-bilishga qiziqishni uyg'otish vositasi. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 19).
- 2.Rakhmankulova, N. K. (2022). Methods of teaching mathematics in education. In *педагогические науки: актуальные вопросы теории и практики* (pp. 15-17).
- 3.Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.69b
- 4.Khasanovna, R. N. Methods of teaching mathematics in education. *51 технологии социально-эмоционального обучения (sel) в профилактике буллинга учащихся былаина вера владимировна*, 52, 15.

Dilfuza ALLAYOROVA,
*Samarqand davlat veterinariya, meditsina, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o'ri va ahamiyati tahlil etilgan. Milliy qadriyatlar yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirishning samarali usullari, pedagogik yondashuvlar hamda tarbiyaviy faoliyatda ularning ta'sirini kuchaytirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar, tarbiya, o'quvchi, ma'naviyat, pedagogika, ta'lim jarayoni, vatanparvarlik, kelajak avlod, ajdodlar.*

Annotation: this article analyzes the role and significance of national values in the process of educating students. National values serve as the primary factor in shaping the younger generation into spiritually mature, patriotic, and socially responsible individuals. The study highlights effective methods for instilling national values in the educational process, pedagogical approaches, and ways to enhance their influence in educational activities.

Key words: *national values, upbringing, student, spirituality, pedagogy, educational process, patriotism, future generation, ancestors.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение национальных ценностей в процессе воспитания учащихся. Национальные ценности служат ключевым фактором формирования молодого поколения как духовно зрелой, патриотичной, социально ответственной личности. В исследовании представлены эффективные методы внедрения национальных ценностей в образовательный процесс, педагогические подходы и способы усиления их влияния в воспитательной деятельности.

Ключевые слова: *национальные ценности, воспитание, учащийся, духовность, педагогика, образовательный процесс, патриотизм, будущее поколение, предки.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlash, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni barkamol inson sifatida shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'ri beqiyosdir. Zero, milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, an'analari, diniy va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan boy ma'naviy merosdir. Ular yosh avlodga Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, insonparvarlik, odob-axloq kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, o'z millatiga sadoqat va g'urur tuyg'usini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu qadriyatlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, milliy o'zlikni anglash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash — bu nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning eng muhim vazifasidir." Shu boisdan, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni o'quv faoliyatiga uyg'unlashtirish, dars va darsdan tashqari

mashg'ulotlarda ularni amaliy qo'llash, o'quvchilar ongiga singdirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur maqolada o'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'ri va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning samarali yo'llari yoritiladi. Shu orqali o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, milliy g'urur va ma'naviy barkamollikni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. O'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'ri beqiyos bo'lib, ular yosh avlodning shaxsiy kamoloti, axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va milliy o'zligini anglashida asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar — bu xalqning asrlar davomida shakllangan, sinovlardan o'tgan, hayotiy tajriba va urf-odatlariga asoslangan ma'naviy boyligidir. Ular nafaqat milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi, balki yoshlarni jamiyatda munosib o'rin egallashga, insonparvarlik va mehnatsevarlik ruhida voyaga yetishga yo'naltiradi.

Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish ularning ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitadi. Ayniqsa, dars mashg'ulotlarida milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy meros, buyuk allomalar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni

o'rganish o'quvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalaydi. Misol uchun, adabiyot darslarida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Donish kabi mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar insoniylik, vatanparvarlik, halollik kabi qadriyatlarni anglab yetadi. Tarix va "Ma'naviyat" fanlarida esa millatimiz o'tgan yo'li, madaniyati, buyuk ajdodlar merosi o'quvchilarda o'zligini anglash tuyg'usini shakllantiradi.

O'quvchilarni axloqan yetuk inson qilib tarbiyalashda xalqimizning urf-odatlarini, oilaviy qadriyatlar, mahalla institutlari va diniy an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "kattaga hurmat, kichikka izzat", "mehnat qilgan odam to'yadi", "halol mehnat — eng ulug' qadriyat" kabi xalq hikmatlari o'quvchilarda hayotiy prinsiplarni shakllantiradi. Dars jarayonida o'qituvchi bunday qadriyatlarni misollar bilan tushuntirib, ularning hayotiy ahamiyatini amalda ko'rsatib bersa, o'quvchilar odob-axloq qoidalarini nafaqat o'rganadi, balki ularni kundalik hayotda qo'llashni o'rganadi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar — bu o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash uchun eng qulay muhitdir. Bayram tadbirlari, milliy kiyimlar kuni, xalq o'yinlari, teatr sahnalashtirish, madaniy sayohatlar, "Milliy qadriyatlar haftaligi" kabi tadbirlar o'quvchilarda o'z millatiga hurmat va faxr tuyg'usini kuchaytiradi. Shuningdek, "Oila va mahalla" bilan hamkorlikda tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, xalq hunarmandchiligi bilan tanishuv darslari, milliy taomlar tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni milliy qadriyatlarga yaqinlashtiradi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayoni o'quvchini nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol inson sifatida shakllantiradi. Bu jarayonning pedagogik asosi — o'qituvchining tarbiyaviy yondashuvi, milliy merosga hurmati va shaxsiy namunasidir. O'qituvchi darslarda milliy qadriyatlarni faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyat orqali o'rgatishi lozim. Bu borada interfaol metodlar — "klaster", "fikrlar xaritasi", "rol o'ynash", "debat" kabi usullar samarali natija beradi. Ular orqali o'quvchilar mustaqil fikrlash, bahs-munozara yuritish, o'z nuqtayi nazarini milliy qadriyatlar asosida ifoda etishni o'rganadilar.

Milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish faqat maktab yoki o'qituvchi zimmasida emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Oila, mahalla, ommaviy

axborot vositalari, madaniyat muassasalari ham bu jarayonda faol ishtirok etishi kerak. Globallashev davrida ayrim xorijiy ta'sirlar milliy o'zligimizga tahdid solayotgan bir paytda, yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ta'lim muassasalari milliy tarbiya konsepsiyasiga asoslanib, o'quvchilar ongiga milliy merosni singdirish va uni amaliy faoliyatga tatbiq etish yo'lida tizimli ishlarni amalga oshirishi lozim.

Xulosa. O'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Milliy qadriyatlar yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, axloqan pok, vatanparvar va insonparvar shaxs sifatida kamolga yetkazishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, ma'naviy boyligi va madaniy merosining uzviy davomi sifatida o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuviga, milliy o'zlikni anglashiga, hayotga mas'uliyat bilan qarashiga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya samaradorligi bevosita o'qituvchining pedagogik mahorati, darsda interfaol metodlardan foydalanish darajasi va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuniga bog'liq. O'qituvchi milliy qadriyatlarni dars mazmuni bilan uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarda milliy iftixor, Vatanga sadoqat, odob-axloq, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantira oladi.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar ongiga singdirish, zamonaviy ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday jamiyatning taraqqiyoti yosh avlodning ma'naviy barkamolligiga bog'liq. Shu sababli, ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, o'qituvchilarni bu borada maxsus tayyorlash va oila-hamjamiyat hamkorligini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar o'quvchi shaxsining shakllanishida, uning jamiyatdagi faolligi va ma'naviy barkamolligida poydevor rolini o'ynaydi. Shu bois, har bir pedagog va ota-ona yosh avlodni milliy qadriyatlarga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashni o'zining eng muhim insoniy va fuqarolik burchi deb bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanov, F. F. (2024). *O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti* [Monografiya]. –Toshkent: Bookmany Print. ISBN 978-9910-06-234-6.
2. Namangan Davlat Universiteti. (2024). *Ma'naviyatshunoslik: Darslik*. –Namangan: NamDU nashriyoti.
3. Talapov, B. (2024). *Qadriyatlar falsafasi: O'quv qo'llanma*. –Toshkent: Bookmany Print.
4. Samadova, S. S. (2022). *Milliy g'oya va ma'naviyatning pedagogik asoslari* [O'quv-metodik qo'llanma]. –Buxoro: Sadriiddin Salim Buxoriy nashriyoti (BuxDU).
5. Nafasov, D. Sh., Xodjaniazova, R. A., Axmedova, G. F., Otajanov, I. A., & Sobirova, N. Y. (2025). *Xalq pedagogikasi* [Darslik]. –Toshkent: Bookmany Print.

Nodiraxon SHERALIYEVA,
 Qo'qon DPI tayanch doktranti
 nodiraxon.sheraliyeva@gmail.com,

GENDER MUNOSABATLAR TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqola gender tilshunoslik fanining kelib chiqishi va shakllanishi davrlarini o'rganadi. Unda gender tilshunoslik fani ustida tadqiqot olib brogan olimlar fikr-mulohazalari va ishlari ko'rsatilgan bo'lib, genderni ko'pchilik sohalarning tadqiqot manbayiga aylanish sabablari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *gendertilshunoslik, sotsiolingvistlar, ayollar harakati, gender, gender tengsizlik, til, sotsiolingvistika.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются истоки и развитие гендерной лингвистики. В ней представлены взгляды и работы учёных, занимавшихся гендерной лингвистикой, а также обсуждаются причины, по которым гендер стал объектом исследований во многих областях.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, социолингвисты, женское движение, гендер, гендерное неравенство, язык, социолингвистика.*

Annotation: this article examines the origins and development of gender linguistics. It presents the views and work of scholars who have researched gender linguistics, and discusses the reasons why gender has become a source of research in many fields.

Key words: *gender linguistics, sociolinguists, women's movement, gender, gender inequality, language, sociolinguistics.*

Gender ko'pchilik sohalarning tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, tilshunoslikda bu hodisa zamonaviy lingvistikaning sotsiolingvistika (sotsialtilshunoslik) bo'limining bir qismi bo'lgan gender tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektidir.

Zamonaviy tilshunoslikni kognitiv tilshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, matn tilshunosligi, sotsiolingvistika, psixolingvistikalning va madaniyatshunoslik, korpuslingvistika, pragmalingvistika, paralingvistika, etnolingvistika, gender tilshunoslik kabi bir qancha yangi yo'nalishlar tashkil qiladi.

Sotsiolingvistika ba'zi adabiyotlarda kommunikativ tilshunoslikning bir bo'limi sifatida keltirilsa, ayrim adabiyotlarda mustaqil tilshunoslik bo'limi deb qayd qilingan. Sotsiolingvistika (lot. *societas-jamiyat* va *lingvistika*) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi [1:1].

Britaniyalik olim, sotsiologiya va feministik nazariya sohasidagi taniqli mutaxassis R.Gill o'zining **“Gender and The Media”** (**“Gender va Media”**) asarida shunday yozadi: “Biz qatlamlarga bo'lingan dunyoda yashayapmiz. Ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, etnik kelib chiqishi, sinfi, yoshi, jismoniy qobiliyati, jinsi, yashash joyi va bu toifalar o'rtasida imtiyozlar va qiyinchiliklar tengsiz taqsimlangan [2:1]”.

Shunday qilib, sotsiolingvistlar so'zlovchining nutq xatti-harakati vaqtga, muhitga, vaziyatga (masalan,

stress paytida) qarab qanday o'zgarishi va turli jins, yosh, ijtimoiy va irqiy mansublikdagi so'zlovchilarning nutqi qanday farqlanishi bilan qiziqadi. Sotsiolingvist-genderologlarning asosiy tadqiqot objekti — insonning biologik va ijtimoiy jinsi uni qanday aks ettirishi va jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotiga qay darajada ta'sir qilishidir.

Amerikalik tadqiqotchi J.Koutsning ta'kidlashicha, gender tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan sotsiolingvistlar erkaklar va ayollarning nutqini submadaniyat sifatida ularga xos belgilar bilan tavsiflangan maxsus ijtimoiy guruhlar sifatida qabul qiladilar.

Gender tilshunoslik ba'zi adabiyotlarda gender lingvistika, lingvistik genderologiya nomlari bilan ham yuritiladi (biz mazkur maqolada har uchala nomni sinonim sifatida qo'lladik) va bu atamalar bir xil ma'noni anglatib sinonim sifatida qo'llaniladi. Gender lingvistikaning shakllanishi XX asrning so'nggi yillariga to'g'ri keladi. Ijtimoiy-madaniy munosabatlar erkak va ayolning jamiyatdagi maqomini belgilab beradi. So'nggi yillarda tilshunoslikda **“ayol”** va **“erkak”** konseptlari o'rganilmoqda va turli tillarda ularning tarkibi ham bir xil emas. Turli xil madaniy jamiyatda yashovchilarning erkak va ayol haqidagi qarashlari ham bir-biridan farq qiladi. Shu tariqa tilshunoslikda genderni o'rganish boshlangan. 1960-yildan boshlab **“Gender”** tushunchasi fanda ayollar va erkaklarga xos bo'lgan ijtimoiy tushuncha sifatida qo'llaniladi. Bu termin fanda ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Shunga qaramasdan gender tilda ayol va erkakka xos bo'lgan xususiyatlar o'rtadagi farqlarni ifodalaydi.

Gender tilshunoslikni tadqiq qilish uchun asosan 2 ta savol muhimdir: Gender tilshunoslik fani qanday paydo bo'lgan? va uning rivojlanishiga qanday omillar xizmat qilgan? kabi savollar ko'pchilik yosh olimlarni qiziqtirishi tabiiy.

Bu savollarga javob berish uchun tarixga nazar solish kerak. Gender lingvistikani qanday vujudga kelganligini yaxshiroq tushuna olish uchun, avvalo, nega tilshunoslikda gender tadqiq qilinayotganligini anglash muhimdir. Gender lingvistikaning rivojlanib to hozirgi holatiga yetib kelishida ayollar harakatining roli katta. Germaniyadagi ayollar harakati ikki bosqichga ajraladi. Birinchi davr 1848-yildan to 1933-yilgacha davom etgan. Bu davr "Oldingi ayollar harakati" (yoki "Birinchi ayollar harakati") nomini olgan. Bunda ayollar o'zlarining teng huquqliligi uchun kurashishgan. Ayollar o'zlarining ekologik, siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini talab qilishgan. Keyingi harakat tarixda "Ayollarning yangi harakati" nomini oldi. Ayollarning ikkinchi harakati 1968-yilda bo'lgan. Ayollar qo'zg'oloni natijasida bir qancha ayollar tashkiloti tuzildi hamda erkaklar va ayollar tiliga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Ayollar qo'zg'oloni vujudga kelishining bir qancha sabablari bor. Muhim sabablaridan biri, jinslarning bir xil baholanmaganligida va baholanmayotganligida edi. Lekin bu narsa demokratik davlatlar qonunlarida muhrlab qo'yilgan edi. Insonlar qaysi jinsidan, dindan va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar teng edilar, lekin bunga amal qilinmagan. Ayollar qo'zg'olonigacha bo'lgan davrda sotsolingvistikaning bir yo'nalishi sifatida shakllandi. Feministik tilshunoslik vakillari o'zlarining asosiy maqsadini tildagi patriarxal ongini tanqid qilish va tilda ayol qiyofasining pastligini va til va nutqda mavjud bo'lgan jinsiy kamsitilishni bartaraf etishga qaratilgan til islohotlarini amalga oshirishda ko'rishadi. Ushbu tadqiqotlarning falsafiy asosini postmodern falsafa tashkil etadi, unga ko'ra til nafaqat bizning dunyoni tushunishimizga ta'sir qiladi, balki uni shakllantiradi. Binobarin, tildagi gender tengsizligini tuzatish orqali ayollarning jamiyatdagi mavqesiga bevosita ta'sir ko'rsatish mumkin. Gender tilshunoslik va feministik tilshunoslik bitta fanning bir-birini to'ldiruvchi ikkita sohasidir [3:1].

Hozirgi kunda sanoatlashgan dunyomiz axborotga katta talab paydo bo'lganligi kundalik ehtiyojga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, aloqa vositalari, telegraf va internet kabi turli xil axborot manbalari ixtiro qilingan. Ushbu manbalar orasida ommaviy axborot vositalari ko'p sonli auditoriyaga egaligi va turli xil tanitish vositalarini taqdim etishi bilan hurmatli o'rinni egallaydi [4:1]. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha foydalanish maqsadlariga ko'ra **ommaviy kommunikatsiya** deb ataladi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, **Aloqa** - bu faqat ma'lumotni bir shaxs yoki guruhdan ikkinchisiga uzatish jarayoni [5:1]. Ommaviy aloqa - bu shaxslar yoki guruhlar ma'lumotni katta, heterojen va keng tarqalgan auditoriyaga uzatadigan jarayon. Va ommaviy axborot vositalari atamasi ommaviy kommunikatsiyalarda qo'llaniladigan texnik vositalarni anglatadi. Ommaviy axborot vositalari odatda ikki turga bo'linadi:

1. Matbaa vositalari: yozma so'zlar va rasmlarni nashr qilish orqali ma'lumot uzatish. Bosma ommaviy axborot vositalarining asosiy namunasi kundalik gazetalar, mashhur jurnallardir. Aholiga nisbatan kitoblar kamdan-kam hollarda juda katta tirajga ega bo'lganligi sababli ular odatda ommaviy axborot vositalari sifatida tasniflanmaydi.

2. Radioeshittirish yoki televideniye ko'rsatuvlari vositalari: ma'lumotni tovushlar yoki ko'rinishlar orqali elektron tarzda muloqot qilish. Radioeshittirish vositalarining asosiy namunalari radio va televideniye. Telefonlar tovushlarni ham uzatsa ham, u odatda ko'proq maqsadli aloqa uchun ishlatiladi va shuning uchun odatda ommaviy axborot vositalariga kiritilmaydi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida ommaviy axborot vositalari pul ishlash biznesidir, ular asosan o'zlarining asosiy funksiyalari bo'lgan o'yin-kulgi orqali reklama sotish orqali ishlaydilar. Bizni ommaviy axborot vositalarining siyosiy tizim uchun xizmat qiladigan beshta o'ziga xos vazifasi ko'proq qiziqtiradi; yangiliklarni xabar qilish, yangiliklarni sharhlash, fuqarolarning fikriga ta'sir qilish, hukumat harakatlarining kun tartibini belgilash va fuqarolarni siyosat haqida ijtimoiylashtirish [6:1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gill R. Gender and the media. – Cambridge: Polity Press, 2007.–296 p.
2. Sapir E. Male and Female Speech in Yama, in: Sapir, Edward: Selected Writings in Language, Culture and Personality. – Berkeley (Calif.): University of California Press, 1929. – 642 p.
3. Jespersen O. Language: Its Nature, Development and Origin. – London: Allen and Unwin, 1922. – 443 p.
4. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. — New York: Routledge, 2013. — 262 p
5. Key M.R. Male and Female Language, New York: The Scarecrow Press, 1975, 200 p.;
6. Lakoff R. Language and Woman's Place, –New York: Harper and Row, 1975, –83 p.

Bibisora ALIKULOVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari yoritilgan. Tadqiqotda metodik tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, metodik mahorat va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida uchraydigan muammolar sifatida nazariy bilimlarning yuzakiligi, amaliy tajriba va refleksiya yetishmasligi, raqamli pedagogik resurslardan samarali foydalanishdagi qiyinchiliklar, metodik ijodkorlikning sustligi hamda ilmiy-metodik tadqiqotlarning kamligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, metodik tayyorgarlik, raqamli pedagogika, innovatsion metodlar, pedagogik kompetensiya.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы развития методической подготовки будущих учителей начальных классов. В исследовании анализируются основные компоненты методической подготовки – теоретические знания, практические навыки, методическое мастерство и инновационные подходы. В качестве проблем методической подготовки будущих педагогов выделяются поверхностность теоретических знаний, недостаточность практического опыта и рефлексии, трудности в эффективном использовании цифровых педагогических ресурсов, слабое развитие методического творчества и ограниченность научно-методических исследований.

Ключевые слова: *начальное образование, методическая подготовка, цифровая педагогика, инновационные методы, педагогическая компетенция.*

Annotation: this article examines the challenges of developing methodological training for future primary school teachers. The study analyzes the main components of methodological preparation – theoretical knowledge, practical skills, methodological competence, and innovative approaches. The identified problems include the superficiality of theoretical knowledge, lack of practical experience and reflection, difficulties in the effective use of digital pedagogical resources, insufficient methodological creativity, and the limited scope of scientific-methodological research.

Key words: *primary education, methodological training, digital pedagogy, innovative methods, teaching competence.*

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida ta'lim tizimining har bir bo'g'inida sifat va samaradorlik masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga bilim beruvchi, balki ularni ilm-fan, texnologiya va madaniyat olamiga kirishishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida ham alohida mas'uliyatga ega. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tonmonidan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Ularda, asosan, yoshlarimizga berilayotgan bilim, ko'nima va malakalarni yangicha usullarda


tushuntirish nazarda tutilgan. Ayni chog'da yosh pedagoglardan ish faoliyatini puxta rejalashtirishi, qo'yilgan masalaning to'laqonli yechimini topishi uchun zarur bo'lgan axborotlarni tezkor topa olishi, o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon modelini ko'ra bilishi hamda zamonaviy texnologiyalaridan unumli foydalana olishi uchun yetarli malakalarga ega bo'lishi talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, ...informatika kabi muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" vazifasi qo'yildi [1].

O'quv jarayonini axborotlashtirishda ta'lim muassasalari ish faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimli joriy etishni va undan faol foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratishni talab etadi. Axborot ta'lim muhitini innovatsion o'quv-uslubiy materiallar, ilmiy-metodik majmualar hamda raqamli ta'lim resuslarini ishlab chiquvchi mutaxassislar bilan ta'minlamay turib, mazkur muammolar o'zining to'liq yechimini topa olmaydi. Shuningdek, bularning

barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishni talab etadi.

Bu muammolarni o'rganib chiqqan holda, quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. Informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha metodik tayyorgarlik muammolari. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fanini o'tishda duch keladigan ba'zi muammolar. 1.2-rasm



1.2.-rasm. Informatika axborot texnologiyalari bo'yicha metodik tayyorgarlik muammolari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining IAT fanini o'qitishga tayyorgarligi quyidagi muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda:

1. O'qituvchilarning malaka va bilim yetishmovchiligi: aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha yetarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega emaslar. O'qituvchilar informatikaning asosiy tushunchalari (algoritm, ma'lumotlar bazasi, dasturlash mantiqi)ni chuqur bilmaydilar.

2. Texnik baza, resurslar va infratuzilma yetishmovchiligi: ko'plab maktablarda zamonaviy kompyuter sinflari, multimedia qurilmalari va dasturiy ta'minot yetishmaydi.

3. Ta'lim jarayonidagi muammolar. Metodik qo'llanmalar kamligi: boshlang'ich sinf uchun maxsus ishlab chiqilgan interaktiv va amaliy metodik materiallar yetarli emas.

4. O'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi: o'qituvchilarning bir qismi axborot texnologiyalaridan foydalanishda an'anaviy yondashuvdan chiqmaydi.

5. Tashkiliy va boshqaruv muammolari: pedagoglarning yangi ta'lim texnologiyalarini qabul qilish va ulardan foydalanishda qiyinchiliklar mavjud. Malaka oshirish kurslari samaradorligi past va ular doimiy yangilanmaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib ta'kidlash joizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash uslubi, tashkiliy shakli va mazmunini tanlash strategiyasi hamda metodologiyasini takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Xususan, bo'lajak informatika o'qituvchilarining predmetli va metodik tayyorgarlik tizimi mazmunini takomillashtirish zaruriyati dolzarbligini ko'rsatadi.

Xususan, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchi va talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish hamda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimi komponentlarini yoki alohida aspektlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bir qancha pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ilmiy tahlillar ko'plab olimlarning A.G. Hayitov [6], D.M. Esanboyeva [5], N.I. Taylaqov [11], U.Sh. Begimqulov [3], S.K. Tursunov [12] A.G'. Eminov [4], B.Z. To'rayev [13], N.S. Xaytullayeva [14], I.A. Yuldoshev [15], F.M. Zakirova [16], T.T. Kalekeeva [7], G.Sh. M.E. Mamarajabov [9], R.Q. Mallayev [8], B.E. Sobirov [10]¹ va boshqalar ilmiy ishlari bir-biridan

¹ Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti // Ped. fan.dokt.diss.avtoreferati. – Toshkent: 2007. 38-b.

Eminov A.F. Bo'lajak o'qituvchilarning kompyuter grafikasi bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Ped.fan.nom ... diss. Avtoreferati. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. 22-b.

Esanboyeva D.M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan no'an'anaviy darslar va ularni o'qitish metodikasi // Ped. fan.nom...dis. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. 143-b.

mazmun jihatidan farq qilsa-da, ularni yagona tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Didaktik va nazariy asoslar A.G.Hayitov, N.I.Taylaqov, F.M.Zakirova – informatika ta'limi uchun didaktik tamoyillar, yangi avlod darsliklari va metodik tizimni ishlab chiqqan. Bu yondashuvlar ta'lim mazmunini izchillik, yoshga moslik, ilmiylik va tizimlilik asosida tashkil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Metodik yangiliklar va innovatsiyalar D.M.Esanboyeva, B.E.Sobirov – noan'anaviy darslar, boshlang'ich sinf uchun tayyorlov metodikasini ishlab chiqqan. Bu izlanishlar informatika ta'limini qiziqarli, samarali va yoshga mos qilishga xizmat qiladi.

Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy qilish. U.Sh.Begimqulov, N.S.Xaytullayeva, I.A.Yuldoshev – tarmoq texnologiyalari, mobil texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashni o'rgangan. Bu ishlar

Hayitova A.G. Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi va amaliyoti // Ped. fan.dokt. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2006. 38-b.

Kalekeeva T.T. "Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish" Ped. fan. Dokt...diss. – T., 2019. 130-131-b.

Mallayev R.Q. "Bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" Ped. fan. Dokt...diss. – T., 2023. 120-121-b.

Mamarajabov M.E. "Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish". Ped. fan. Dokt...(DSc)...diss. – T., 2022. 250-251-b.

Sobirovning B.E. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini informatika ta'limiga tayyorlash metodikasi". Ped. fan. Dokt...diss. – T.: 2012. 147-148-b.

Tayloqov N.I. Uzliksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida) // Ped. fan. nom...dis. – Toshkent: Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2006. 248-b.

Tursunov S.K. Ta'limda elektron axborot resurslarni yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari // Ped. fan.nom....diss. avtoreferati. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. 26-b.

To'rayev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasida pedagoglarning umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish // ped. fan.fals. dokt. ...diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2018. 48-b.

Xaytullayevaning N.S. "Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida Web-texnologiyalaridan foydalanish" Ped. fan. Dokt...diss. – T., 2019. 126-127-b.

Yuldoshev I. A. "Tarmoq texnologiyasi asosida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish". Ped. fan. Dokt...diss. – T., 2019. 126-127-b.

Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах // дисс. докт. пед. наук. – Ташкент, 2008. 312с

zamonaviy raqamli pedagogikani shakllantirish, masofaviy ta'limni rivojlantirish va o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini kuchaytirishga qaratilgan.

Kasbiy tayyorgarlik va kompetensiyalar A.G'.Eminov, B.Z.To'rayev, T.T. Kalekeeva, M.E.Mamarajabov, R.Q.Mallayev – informatika o'qituvchilarining kasbiy va metodik tayyorgarligi, kompyuter grafikasi, umumkasbiy fanlarni integratsiya qilish, kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlash kabi masalalarni tadqiq etgan. Bu yondashuvlar bo'lajak informatika o'qituvchilarida professional kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

O'quv vositalari va innovatsion resurslar, S.K. Tursunov (EAR), F.Sh.Shirinov (elektron metodik ta'minot) kabi tadqiqotlar elektron va raqamli resurslar yaratish metodikasini ishlab chiqqan. Bu esa informatika ta'limida ko'rgazmalilik, vizualizatsiya va interaktivlikni kuchaytiradi.

Barcha olimlarning ilmiy ishlari bir-birini to'ldiruvchi yagona tizimni hosil qiladi. Ular O'zbekiston ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishni zamonaviy pedagogik, metodik va texnologik asoslarda modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Demak, bu ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib, informatika ta'limini uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yangicha yondashuv asosida tashkil qilish, o'qituvchilarni raqamli davr talablariga mos ravishda tayyorlash va o'quvchilarda axborot kompetensiyalarini shakllantirishning kompleks modelini yaratish mumkin.

Yuqorida tahlil etilgan tadqiqot ishlari ta'limning turli bosqichlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi muammolar tizimli yondashuvni talab qiladi. Buning uchun o'quv dasturlarini yangilash, raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish, metodik seminar va treninglarni tashkil etish, milliy va xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyardagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. Аликулова, Б. 2024. Коэффициентность преподавания предмета «Информатика и информационные технологии» в начальных классах. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2, 3 (май 2024), 226–232. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp226-232

Dilfuza KADIROVA,
PhD
Kokand State University

THE EFFECTIVENESS OF USING KWL METHOD ON DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS.

Annotation: the article explores the effectiveness of the KWL method in developing students' reading comprehension skills. It highlights how the strategy activates prior knowledge, sets clear learning goals and fosters reflection on acquired information.

Key words: *comprehension, reading, KWL, optimal, brainstorm, text, automaticity, strategy, analytical, exposition, charts.*

Аннотация: в статье рассматривается эффективность метода KWL в развитии навык понимания прочитанного у студентов. Подчеркивается, что данная стратегия активизирует ранее полученные знания, задает четкие учебные цели и способствует рефлексии над усвоенной информацией.

Ключевые слова: *понимание, чтение, KWL, оптимальный, мозговой штурм, текст, автоматичность, стратегия, аналитический, экспозиция, таблицы.*

Annotatsiya: *ushbu maqolada talabalarning o'qish orqali tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda KWL metodining samaradorligi o'rganilgan. Unda mazkur strategiya avvalgi bilimlarni faollashtirishi, aniq o'quv maqsadlarini belgilashi hamda o'zlashtirilgan ma'lumotlar ustida refleksiya qilishni rag'batlantirishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *tushunish, o'qish, KWL, optimal, aqliy hujum, matn, avtomatizm, strategiya, tahliliy, bayon, jadvallar.*

Reading is one of the language skills that should be developed by students. It is a learning process of transferring information from writer to the reader in written form. The aim of reading is to attain an optimal level of comprehension of meaning. Reading gives many advantages for students such as they can receive more information after reading, they can share their information that they have gotten from reading to others, and the information can enrich their knowledge. The students have to comprehend the text in order to know the meaning of it. By understanding the text, they can receive the correct information and knowledge. Constructing comprehension is difficult, particularly for EFL learners. The learners should be helped to improve their comprehension by using appropriate and good teaching strategy especially reading comprehension.

Reading is an interactive process between a reader and text which leads to automaticity or reading fluency. In this process, the reader interacts dynamically with the text as he/she tries to elicit the meaning.

Teaching is an activity in which the teacher guides and facilitates learning, gives a chance for the learners to learn, and sets the condition for learning. It also helps students' responding their environment in an effective way. To gain success in teaching language, the teacher needs to emphasis more

on practice rather than explanation. The teacher can help the students in gaining the knowledge by giving facilities such as tasks. By giving these tasks, the teacher lets the students study by themselves. To make the teaching and learning process run well, the teacher needs to set a good situation for the students to learn. In setting a good condition, the teacher must consider a classroom strategy or technique that is used as this can influence the way she or he manages the class. So, teaching reading comprehension is guidance implement by the teacher to make students more understand and the teacher use better (appropriate) strategy in teaching learning process especially in reading comprehension. KWL strategy is a good strategy to improve students' reading comprehension. According to Ogle students activate their own personal background knowledge, predict about the information they expect to find in the reading material and take notes related to the information gained.

There were some steps that should considered in used KWL strategy:

1. Choose a text (analytical exposition text)
2. Create a KWL chart. The teacher should create a chart on the blackboard or whiteboard. In addition, the students should have their own chart on which to record information

3. Asked students to brainstorm words, terms or phrases they associated with a topic. The teacher and students record these associations in the K column of their charts. This is done until students run out of ideas. Asked students what they want to learn about the topic.

4. The teacher and students recorded these questions in the W column of their charts. This was done until students run out of ideas for questions. If students responded with statements, turn them into questions before recording them in the W column.

5. Students read the text and filled out the L column of their charts. Students should look for the answers to the questions in their W column while they were reading. Students could fill out their L columns either during or after reading.

6. Discussed the information that students recorded in the L column.

7. Encouraged students to research any questions in the W column that were not answered by the text. It improved students' motivation to read since. It elicits students' background knowledge of the topic of the text, sets a purpose for reading, allowed students to assess their comprehension of the text, helped the students to monitor their comprehension, and provides an opportunity for students to expand ideas beyond the text, the students also asked to predicted or asked more about he/she want to know related the topic. It made the students active and motivated learners, for it allowed them to obtain extended reading materials and continue to read more written materials. The students asked to conclude or summarize about what they already get from the text. This was the way the students reflected what they have already learned through the text.

KWL strategy is one active reading, it is prepare students to make predictions about what they will be reading, as well as engaging them with students, each students and teacher of the content of the topic. Reading is one of the skill that should be mastered

by the students. They need to be introduced with as many reading materials as possible in order to help them acquiring many information and knowledge by language. The reader can get a lot of knowledge, information, enjoyment or even problem solution. Reading is one way for reader to receive information from the writer in the form of text. In reading analytical exposition text, there is a need to comprehend the text. one of the comprehensions in reading analytical exposition text is in finding the main idea, knowing and finding the details information of the text, finding reference and the difficulties vocabulary. The reading text taught in the second semester of eleventh grade students is an exposition text, the writer used KWL strategy to improve students' reading comprehension. Firstly, teacher explained KWL strategy, material, she/he created a KWL chart on whiteboard. K in column one, W column two and L in column three, the students should have their own chart on which to record information, then teacher asked students to brainstorm words, terms or phrases they associated with analytical exposition text. The teacher and students recorded these associations in the K column of their charts. This was done until students run out of ideas. Secondly, teacher goes to W column, and asked students what they want to learn about analytical exposition text. Teacher and students recorded these questions in the W column of their charts. This was done until students run out of ideas for questions. Thirdly, teacher gave students analytical exposition text, and asked them to read the text. If they had done to read the text, teacher and students fill out the L column of charts. Students look for the answers to the questions in W column while they were reading. Students could fill out L columns either during or after reading, after that teacher and students discussed the information that students record in the L column, and encouraged students to research any questions in the W column that were not answered by the text.

References:

1. Ogle, D.M. (1986). K-W-L: A teaching model that develops active reading of expository text. *Reading Teacher*, 39, 564–570
2. "Applying KWL Guides to Sources with Elementary Students". Retrieved 5 February 2016.
3. Nandaa, A. N., & Pratama, A. R. (2021). Teachers' perception of the use of KWL (Know–Want–Learned) strategy in teaching reading. *Journal of English Language Teaching and Literature*, 2(1), 45–52.
4. Diasti, N. A., Wulandari, S., & Pratami, D. (2023). The use of KWL strategy in teaching reading comprehension: A study in Indonesian EFL classrooms. *Journal of Language Teaching and Research*, 14(2), 215–224.



PSIXOLOGIYA

Rayxona NORQOBULOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası v.b dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IQTIDORNI ANIQLASHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda psixodiagnostik metodlarning ahamiyati va asosiy tamoyillari yoritilgan. Iqtidor tushunchasi, psixodiagnostika vositalari va ularning tanlanish mezonlari, shuningdek, diagnostika jarayonining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada pedagog-psixologlarning hamkorligi, diagnostika natijalarini amaliy qo'llash va yuzaga keladigan muammolar ham tahlil qilinadi. Ilg'or xalqaro tajribalar va kelajak istiqbollari ham ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot ta'lim sifatini oshirishda psixodiagnostikaning o'rni va iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinif, iqtidor, psixodiagnostika, diagnostika metodlari, pedagogik psixologiya, intellektual rivojlanish, ta'limda individual yondashuv, diagnostika vositalari, o'quvchilarning qobiliyatlari*

Аннотация: в данной статье освещены значение и основные принципы использования психодиагностических методов для выявления одарённости учащихся начальных классов. Рассматриваются понятие одарённости, психодиагностические средства и критерии их выбора, а также особенности процесса диагностики. В статье также анализируются сотрудничество педагога и психолога, практическое применение результатов диагностики и возникающие проблемы. Приведён опыт передовых зарубежных стран и обозначены перспективы развития. Исследование раскрывает значимость психодиагностики в повышении качества образования и развитии одарённых учеников.

Ключевые слова: *начальные классы, одарённость, психодиагностика, методы диагностики, педагогическая психология, интеллектуальное развитие, индивидуальный подход в обучении, диагностические средства, способности учащихся.*

Annotation: this article highlights the significance and key principles of using psychodiagnostic methods to identify giftedness in primary school students. It explores the concept of giftedness, psychodiagnostic tools, and the criteria for their selection, as well as the specific features of the diagnostic process. The article also analyzes the collaboration between teachers and psychologists, practical application of diagnostic results, and challenges encountered. Advanced international experiences and future perspectives are also presented. The study demonstrates the role of psychodiagnostics in improving education quality and developing gifted students.

Key words: *primary school, giftedness, psychodiagnostics, diagnostic methods, educational psychology, intellectual development, individualized learning approach, diagnostic tools, students' abilities.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning salohiyatini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda bolaning qobiliyatlarini erta bosqichda aniqlash, unga mos pedagogik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, psixodiagnostika metodlari

boshlang'ich sinif o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Iqtidor – bu shaxsning ma'lum sohada yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi tabiiy va o'rganuvchan qobiliyatlar majmui. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning intellektual, ijodiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini to'g'ri

aniqlash, ularning iqtidorini to'la ochish uchun zarur shartdir.

Psixodiagnostika – shaxsning psixologik holatini o'rganish va baholash uchun maxsus metod va vositalar majmuasi. Iqtidorni aniqlashda psixodiagnostika quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O'quvchining individual xususiyatlarini aniqlash;
- Ularning qobiliyatlarini baholash;
- Potensial rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatish;
- Ta'lim jarayonini individualizatsiyalash uchun ma'lumotlar taqdim etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlar quyidagilar:

1. Intellektual testlar – o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini o'lchash uchun mo'ljallangan testlar. Masalan, Raven matritsali yoki Wechsler intellekt testi.

2. Ijodkorlik testlari – o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini baholashga yordam beradi. Masalan, Torrens testlari yoki so'z hosil qilish mashqlari.

3. Motivatsiya va qiziqishlarni aniqlash so'rovnomalari – bolaning o'z qiziqishlari va ta'limga bo'lgan munosabatini o'rganish.

4. Rivojlanish psixologiyasi metodlari – bola rivojlanishining turli sohalarini (lingvistik, motorika, ijtimoiy) baholash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda diagnostika jarayoni yoshga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda o'tkazilishi kerak. Jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- Maqsad va vazifalarni aniqlash;
- Diagnostika vositalarini tanlash;
- Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- Natijalar asosida xulosalar chiqarish;
- Pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, diqqat-e'tibori va psixologik rivojlanish darajasi diagnostika vositalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar uchun testlar qisqa, tushunarli va o'yinga yaqin shaklda bo'lishi zarur. Shuningdek, psixodiagnostik metodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Ishtirokchilarning qiziqishini saqlab qolish – test va mashqlar qiziqarli va motivatsiyani oshiruvchi bo'lishi kerak.

Aniq va obyektiv natijalar berish – baholash mezonlari aniq va standartlashtirilgan bo'lishi shart.

Moslashuvchanlik – metodlar turli sharoitlarda va individual xususiyatlarga mos ravishda qo'llanilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlash jarayonida o'qituvchilar va psixologlar yaqin hamkorlikda ishlashi kerak. O'qituvchi bolaning kundalik faoliyatini, o'quv jarayonidagi harakatlari va xulq-atvorini kuzatadi, psixolog esa diagnostik testlarni olib boradi va natijalarni tahlil qiladi. Shu tarzda yig'ilgan ma'lumotlar kompleks tarzda baholanadi va individual ta'lim strategiyalari ishlab chiqiladi.

Aniqlangan iqtidorli bolalar uchun maxsus rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Masalan, ijodiy iqtidorli o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin, intellektual iqtidorni rivojlantirish uchun esa maxsus muammolar va loyihalar beriladi. Diagnostika natijalari shuningdek, o'quv jarayonida yordamga muhtoj bolalarni aniqlash va ularga qo'shimcha ko'mak ko'rsatishda ham muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtidorni aniqlashda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin:

Psixodiagnostik vositalarning yoshga mos kelmasligi – ba'zi testlar boshlang'ich sinf bolalariga mos kelmasligi mumkin.

Diagnostika jarayonidagi subyektivlik – o'qituvchi yoki psixologning shaxsiy qarashlari natijalarga ta'sir qilishi mumkin.

Resurslarning yetishmasligi – malakali mutaxassislar va sifatli diagnostika vositalarining kamligi.

Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy va yoshga mos diagnostika vositalarini ishlab chiqish, pedagog va psixologlarni muntazam malaka oshirish kurslariga jalb etish hamda ta'lim muassasalarida diagnostika bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda samarali natijalarga erishish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni hisobga olish muhim:

Doimiy kuzatuv va monitoring – iqtidorni aniqlash faqat bir martalik diagnostika bilan cheklanmasligi lozim. Bolaning rivojlanishini muntazam kuzatish, o'zgarishlarni baholab borish zarur.

Turli diagnostika metodlarini uyg'un qo'llash – intellektual, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarni o'lchash uchun bir nechta metod va testlardan foydalanish iqtidorning to'liq tasvirini beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik – ota-onalarni ham bolalarining qobiliyatlari haqida xabardor qilish va ularni rivojlantirishda faol ishtirokini ta'minlash.

Individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish – har bir bola uchun uning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos maxsus ta'lim dasturlarini yaratish.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlash uchun keng qamrovli psixodiagnostik tizimlar joriy etilgan. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimida pedagog-psixologlar doimiy ravishda o'quvchilarni monitoring qilib, iqtidorli bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqadilar. AQSh va Janubiy Koreyada esa ijodiy va intellektual qobiliyatlarni aniqlash uchun multimodal diagnostika usullari keng qo'llaniladi. Ushbu tajribalar O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin.

Texnologiyalar rivojlanishi bilan psixodiagnostika sohasida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Masalan, raqamli testlar, sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari yordamida

o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada aniqlik bilan baholash mumkin bo'ladi. Shuningdek, onlayn platformalar yordamida ota-onalar va o'qituvchilar iqtidorni rivojlantirish bo'yicha doimiy maslahatlar olish imkoniga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda psixodiagnostik metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarning individual xususiyatlari aniqlandi va shunga mos ta'lim-tarbiya yondashuvlari ishlab chiqiladi. Shuning uchun pedagoglar va psixologlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, diagnostika metodlarini doimiy takomillashtirib borish zarur.

O'quvchilarining iqtidorini aniqlashda psixodiagnostika metodlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni shakllantirish va o'quvchilarning salohiyatini to'la ochish uchun zarur vosita hisoblanadi. Ushbu metodlardan to'g'ri va malakali foydalanish, pedagogik va psixologik xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtidorni aniqlashning psixodiagnostik asoslari ta'lim sifatini yaxshilash va har bir bolaning imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metod va vositalarni joriy etish, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va pedagog-psixologlar hamkorligini kuchaytirish orqali ta'lim tizimini yanada samaraliroq qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, S.M. Boshlang'ich ta'limda iqtidorni aniqlash va rivojlantirish metodlari. –Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
2. Islomova, D.R. Psixodiagnostika asoslari va ta'lim jarayonida qo'llanilishi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Karimov, T.S. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy diagnostika metodlari." Pedagogika va psixologiya jurnal, 5(2), 34-42. 2021-y.
4. Sternberg, R.J. The Nature of Human Intelligence. Cambridge University Press. 2020-y.
5. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Scholastic Testing Service. 2017-y.

Mohinur TOSHEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent
tosheva.mokhinur@mail.ru



O'SMIRLAR STRESSI VA UNI YENGISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'smirlar orasida uchraydigan stress holatlari, ularning kelib chiqish sabablari, stress oqibatida yuzaga keladigan ruhiy va ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, stressni yengib o'tishning zamonaviy psixologik yondashuvlari, metodikasi va profilaktik tadbirlar tavsiya etiladi. Maqola yoshlar salomatligi va psixologik barqarorligi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *o'smirlar, stress, psixologik yondashuv, emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik.*

Аннотация: в статье рассматриваются причины возникновения стрессовых состояний среди подростков, их последствия, а также современные психологические подходы к преодолению стрессов. Представлены практические методы и профилактические меры, направленные на поддержку психологического здоровья молодежи.

Ключевые слова: *подростки, стресс, психологический подход, эмоциональная устойчивость, адаптивность.*

Annotation: this article explores the causes of stress among adolescents, its psychological and social consequences, and effective modern methods of coping. Practical approaches and preventive strategies are proposed, making the study relevant for promoting adolescent mental well-being.

Key words: *adolescents, stress, psychological approach, emotional stability, adaptability.*

Kirish. O'smirlilik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri sanaladi. Bu davrda shaxsiy o'zgarishlar, biologik va gormonal rivojlanish, emotsional beqarorlik, shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar o'z hayotlarida muhim tanlovlar, o'z-o'zini anglash va mustaqil qarorlar qabul qilish bosqichiga kiradilar. [1] Shu sababli, ular ko'pincha stressli holatlarga tushib qoladilar. Ushbu stress omillari nafaqat shaxsiy muammolar, balki oilaviy, maktabdagi bosim va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirlar orqali ham yuzaga keladi.

Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlilikda uchraydigan stress holatlari kelajakda psixologik muammolar, jumladan, depressiya, xavotir buzilishlari, o'z joniga qasd qilish xavfi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.[2] Butunjahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 10-19 yosh oralig'idagi yoshlar orasida ruhiy salomatlikka oid muammolar global darajadagi sog'liq muammosi sifatida tan olingan. Shu sababli, o'smirlar stressini erta aniqlash va unga qarshi samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalaning qo'yilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ishlashga oid qarorlari va davlat dasturlarida yoshlarning ruhiy salomatligi alohida e'tibor markazida turadi. Masalan, 2021-yilda qabul qilingan "Yoshlar daftari" tizimi orqali psixologik xizmatlar ko'lamini kengaytirish ko'zda tutilgan. Maqola doirasida o'smirlar stressini yengish bo'yicha quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: stress omillarini aniqlash,

stressga qarshi psixologik yondashuvlar samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot ushbu sohada mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.[3]

Ayniqsa, o'quv yurtlarida maktab psixologlari faoliyati, ularning metodik ko'nikmalari va zamonaviy psixologik yondashuvlardan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Shu bois, o'smirlar orasida stressning sabablari, ko'rinish shakllari va ularni yengib o'tish mexanizmlari bo'yicha tahliliy tadqiqotlar zarurdir.[4]

Ushbu maqola quyidagi masalalarga e'tibor qaratadi:

1. O'smirlar orasida stressga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash.
2. Jinsiy, ijtimoiy va oilaviy kontekstda stress darajalarini solishtirish.
3. Stressga qarshi mavjud yondashuvlar samaradorligini tahlil qilish.
4. O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar yaratish.

Metodlar

Tadqiqotda aralash yondashuv – sifat va miqdoriy metodlar uyg'unligi asosida ishlangan. Bu yondashuv o'smirlar orasidagi stress omillarini aniqlashda ham keng qamrovli, ham chuqur tahliliy natijalarga erishish imkonini berdi.

Birinchi bosqichda – kvantitativ (miqdoriy) yondashuv orqali 11–15 yoshdagi 120 nafar o'smirdan iborat respondentlar bilan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma maxsus ishlab chiqilgan "O'smirlar stress omillari va belgilari"

testidan iborat bo'lib, unda akademik, oilaviy, ijtimoiy va emotsional stresslar bilan bog'liq 20 ta savol mavjud edi. Har bir savol Likert shkalasi (1–5) asosida baholandi. Natijalar SPSS dasturi orqali analiz qilinib, o'rtacha ballar, dispersiya va korrelyatsiya tahlili bajarildi.

Ikkinchi bosqichda – sifatli yondashuv orqali 6 nafar maktab psixologi bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Intervyular davomida quyidagi yo'nalishlar yoritildi: maktab psixologlarining stressni aniqlash tajribasi, ishlatilayotgan psixodiagnostik vositalar va amaliy yondashuvlar samaradorligi. Intervyular tematik tahlil usuli orqali maxsus kodlash va kategoriya asosida qayta ishlangan.

Ushbu ikki metod birlashtirilgan holda ishlatilgani

sababli, tadqiqot natijalari chuqurroq anglash va qiyoslash imkonini taqdim etdi. Yondashuvlar sinergetik ravishda ishlagan holda, stress omillarining manbai, chastotasi, intensivligi va subyektiv qabul qilinishi darajalarini ko'rsatdi.

Natijalar va tahlil.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlar orasida eng ko'p uchraydigan stress omili — bu o'quv bosimi (45%). Shuningdek, oilaviy muammolar (30%) va ijtimoiy tarmoqlardagi taqqoslash hissi (25%) ham muhim stress manbalari bo'lib chiqdi. Jinslar kesimida tahlil shuni ko'rsatdiki, qizlar o'rtacha 7.8 ball, yigitlar esa 6.3 ball stress darajasini bildirgan. Bu natijalar yoshlar orasida emotsional yondashuv farqlari mavjudligini anglatadi.

Jadval 1. Stress omillarining tarqalishi (%)

Stress omili	Ulushi (%)
O'quv bosimi	45
Oilaviy muammolar	30
Ijtimoiy tarmoqlar	25

Rasm 1. Gender bo'yicha o'smirlar stress darajasi



Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot asosida aniqlanishicha, o'smirlik davridagi stress holatlari nafaqat individual psixologik omillarga, balki makrotizim – oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitdagi bosimlarga ham bevosita bog'liqdir. Stress omillarining asosiy manbalari sifatida o'quv bosimi, oilaviy nizolar va ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan taqqoslash holatlari ajralib chiqdi. Jinsiy farqlar

tahlilida esa qizlar o'rtasida emotsional yuksaklik, yigitlar o'rtasida esa tashqi tajovuzkorlikning ustunligi qayd etildi.

Tadqiqot shuningdek, maktab psixologlarining bilim va ko'nikmalari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini, zamonaviy psixologik metodikalar bilan ishlash borasida tajriba va resurslar yetishmasligini aniqladi. Bu esa, mavjud psixologik xizmatlar samaradorligini cheklab qo'ymoqda. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Compas, B. E. et al. .ping with stress during childhood and adolescence. Annual Review of Psychology, 2017, 459–483.
2. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – Springer, 1984.4.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori. Ruhiiy salomatlikni mustahkamlash to'g'risida, 2022.
4. Karimova D. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Tosheva M.Y., Tolipov M.O. Psychosocial Stressors and Coping Strategies ... // Bilgi Çeşmesi (Turkish Journals platformasi), pp.49–54.

Aynur ULIKPANOVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrası stajyor-o’qituvchisi

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda oilaning o’rni va ahamiyati yoritilgan. Oila muhitida farzand tarbiyasi, ota-ona ibratining o’rni, milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya omillari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: axloqiy tarbiya, maktabgacha yosh, oila, shaxs shakllanishi, milliy qadriyat, tarbiyaviy muammo

Аннотация: в данной статье освещается роль и значение семьи в формировании нравственных качеств детей старшего дошкольного возраста. На научной основе анализируется воспитание ребенка в семейной среде, роль родительского примера и факторы нравственного воспитания, основанные на национальных ценностях.

Ключевые слова: нравственное воспитание, дошкольный возраст, семья, формирование личности, национальные ценности, воспитательная проблема

Annotation: this article highlights the role and importance of the family in the formation of moral qualities in older preschool children. The upbringing of the child in the family environment, the role of the parents’ example, and the factors of moral education based on national values are analyzed on a scientific basis.

Key words: moral education, preschool age, family, personality formation, national values, educational problem.

Zamonaviy globallashuv jarayonida har bir xalqning ma’naviy yuksalishi, milliy o’zlikni anglash va axloqiy barkamollikka erishish masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Shu jihatdan, yosh avlod tarbiyasiga, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishiga e’tibor qaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki inson shaxsining ma’naviy-axloqiy poydevori aynan erta yoshda, ya’ni oilada shakllanadi. Bola uchun oila — birinchi tarbiya maskani, birinchi ijtimoiy muhit, birinchi maktabdir. Unda bola atrof-muhitni, munosabatni, mehri va axloqiy qadriyatlarni his etishni o’rganadi.

Har bir millatning kelajagi — uning ma’naviy jihatdan yetuk, axloqan sog’lom, o’z qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan farzandlarida namoyon bo’ladi. Shu ma’noda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish faqat ta’lim muassasalarining emas, balki eng avvalo **oilaviy muhitning** asosiy vazifasidir. Ota-onaning shaxsiy namunasi, o’zaro mehr-muhabbati, bir-biriga hurmatli munosabati farzandning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi o’rin tutadi. Zero, bola o’z onasi va otasining kundalik xatti-harakatlarini, so’zini, muomalasini kuzatib, ularni o’z shaxsiy hayotiga ko’chiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bu masalaning naqadar muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi: “Farzandlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash — bu bizning eng ustuvor vazifamizdir.” Ushbu so’zlar oilaviy tarbiya jarayonining nafaqat maishiy yoki hissiy, balki ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyatini ham belgilab beradi. Chunki bola 5–7 yosh oralig’ida — ya’ni maktabgacha katta yoshda — insoniy qadriyatlarni, mehnatga, odobga, halollikka, boshqalar bilan munosabatga oid dastlabki

tushunchalarni shakllantira boshlaydi. Bu jarayon, asosan, oilaviy tajriba, kattalarning ibрати, muloqot madaniyati va milliy qadriyatlarga tayanadi.

Oila — bu tarbiya tizimining eng tabiiy va eng samarali bo’g’ini bo’lib, u bolaning shaxsiy kamolotiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Psixologik tadqiqotlar ham shuni ko’rsatadiki, bolalik davrida ota-ona mehridan bahramand bo’lgan, oilaviy muloqot madaniyati to’g’ri yo’lga qo’yilgan bolalarda ijobiy axloqiy fazilatlar mustahkam shakllanadi. Aksincha, e’tiborsizlik, befarqlik, janjalli muhitda ulg’aygan bolalar ko’proq ishonchsizlik, tajovuzkorlik, yolg’onchilik kabi salbiy xatti-harakatlarni namoyon etishi mumkin.

Shunday ekan, oila muhitida axloqiy tarbiyani to’g’ri yo’lga qo’yish, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, milliy qadriyatlarga tayangan holda bolada mehr-shafqat, halollik, odoblilik, hurmat va mas’uliyat kabi fazilatlarni singdirish davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir.

Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda oilaning o’rni, ota-onaning shaxsiy ibрати, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya omillari hamda psixologik-pedagogik sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — oilada axloqiy tarbiyani takomillashtirishning ilmiy asoslarini ochib berish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va bu jarayonning bolalar shaxsiy rivojlanishiga ta’sirini yoritishdan iborat.

Maktabgacha katta yosh (5-7 yosh) - bolaning shaxsi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy me’yorlarining faol shakllanishi davri. Bu davrda bola ota-onaning kundalik faoliyatiga, oilaviy muhitga va tengdoshlari bilan bo’lgan munosabatlariga qarab o’zining axloqiy me’yorlarini shakllantira boshlaydi [2;3]. Axloqiy sifatlarni deganda, bolaning shaxsida jamiyat tomonidan qabul qilingan yaxshi

fazilatlar - mehribonlik, halollik, odoblilik, hurmat, mas'uliyat va boshqalar tushuniladi.

Psixolog olimlar ta'kidlaganidek, axloqiy sifatlar erta yoshda shakllansa, bola keyinchalik maktab va jamiyatga oson moslasha oladi[3;2].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy axloqiy sifatlar quyidagilardan iborat:

Muruvvat va hamdardlik – do'stlariga yordam berish, kichkintoylarga g'amxo'rlik qilish.

Halollik va to'g'rilik – yolg'on gapirmaslik, ishonchni qadrlash.

Odob va hurmat – kattalarga e'tibor, tengdoshlari bilan muomala madaniyatiga amal qilish.

Tartib-intizom va mas'uliyat – narsalariga e'tibor, oilaviy topshiriqlarni bajarish.

Mehnatsevarlik – oilaviy ishlarda ishtirok etish, mehnatning qadriyat ekanini anglash.

Shu bilan birga, bola milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni ham oilada his qila boshlaydi. Ota-onaning urf-odatlariga rioya qilishi, milliy bayramlarda ishtirok etishi bolaning ma'naviy ongini boyitadi [4.1]

Oila – bolaga dastlabki ta'lim va tarbiya beruvchi tabiiy muhit. Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, oiladagi tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi quyidagi omillar orqali ta'minlanadi: ota-onaning shaxsiy namuna ko'rsatishi. Bola kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. Masalan, ota-onaning halolligi, mehnatsevarligi bolaning shaxsiy hayotida ham aks etadi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya. Maqol-matallar, xalq ertaklari, urf-odatlar bolada axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

Mehnat taqsimlash. Bolaga kichik vazifalar berish (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, yostiqcha tayyorlashda yordamlashish) mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Ma'qullash va rag'batlantirish. Bolaning qilgan yaxshi ishlarini ota-onaning qo'llab-quvvatlashi ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Muloqot va suhbatlar. Oilaviy suhbatlar bolaga to'g'ri-noto'g'ri farqlashga, mustaqil fikr bildirishga yordam beradi. Karimovning ta'kidlashicha, oilada bolaga mehru muhabbat bilan munosabatda bo'lish uning axloqiy sifatleri shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi[5.1]. Psixologik jihatlari: psixolog olim L.S. Vigotskiy bola rivojlanishida

“yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasini ilgari surgan. Unga ko'ra, bola kattalarning yordami va ko'magida murakkab ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtira oladi. Shuning uchun oilada ota-onaning doimiy e'tibori va mehribonligi bolaning axloqiy rivojlanishi uchun zarur shartdir. Shuningdek, psixologik iqlimning barqarorligi ham katta ahamiyatga ega. Agar oilada doimiy janjal, zo'rvonlik yoki loqaydlik hukmron bo'lsa, bolada qo'rquv, ishonchsizlik, yolg'onchilik kabi yomon xislatlar shakllanishi mumkin.

Aksincha, mehribonlik, qo'llab-quvvatlash va e'tibor ustuvor bo'lgan muhitda bola o'zini qadrlashni o'rganadi va yaxshi axloqiy fazilatlar shakllanadi[7.4]. Axloqiy tarbiya oilada mustahkam asos topgan taqdiridagina bola keyingi ta'lim bosqichlarida va ijtimoiy hayotda o'zini to'laqonli shaxs sifatida namoyon eta oladi. Shu bois, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, oilaviy tarbiyaning zamonaviy usullarini rivojlantirish davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Oila – maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda eng asosiy tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasiga asoslangan tarbiya, milliy qadriyatlarni singdirish, mehnatga jalb etish, rag'batlantirish va samimiy munosabatda bo'lish bolada halollik, xushmuomalalik, mehribonlik va mas'uliyatlilik kabi fazilatlarini shakllantiradi.


Xulosa. Maktabgacha yosh davri — inson shaxsining poydevori yaratiladigan eng mas'ul bosqichdir. Shu sababli bu davrda oilaning axloqiy tarbiya berishdagi roli beqiyosdir. Ota-onaning har bir so'zi, harakati, munosabati bolada ma'naviy qadriyatlar, halollik, mehribonlik, hurmat, tartiblilik kabi fazilatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oilada sog'lom psixologik muhit, mehr va e'tibor ustuvor bo'lsa, bola o'zini qadrlashni, boshqalarni hurmat qilishni, odob va mas'uliyatni o'rganadi. Aksincha, beparvolik, janjal, yoki zo'rvonlik mavjud bo'lgan oilada bola axloqiy muvozanatdan chetga chiqishi mumkin.



Shu bois, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish, oilaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali biz kelajak avlodda yuksak axloqiy sifatleri shakllantira olamiz. Demak, **oila — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng birinchi tarbiya maskani**, axloqiy komillikka eltuvchi boshlang'ich maktabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent: MTT vazirligi, 2019.
3. Ayupova R.X. Logopediya. – Toshkent, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
5. Karimova V.M. Oilada bola tarbiyasi psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 2006.
7. Bo'riyev O. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017



KICHIK TADQIQOT



Fotima MAMADOVA,
Buxoro davlat universiteti,
Adabiyotshunoslik (o'zbek tili) yo'nalishi
Magistratura bo'limi



BADIY ASAR KOMPOZITSIYASI

(S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy she'riyat namunasi bo'lgan shoir Sirojiddin Sayyidning ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asari asosida yozgan “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonining kompozitsion tuzilishi, kompozitsion vositalari hamda kompozitsiyaning asar uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: doston, kompozitsiya, kompozitsion vositalar, syujet, sarlavha, annotatsiya, peyzaj, miniatyura, epigraf.

Аннотация: в данной статье рассматривается композиционная структура, композиционные средства и значение композиции в творчестве поэта Сирожиддина Сайида, образце современной поэзии – поэме «Юз о, Захириддин Мухаммад Бабур», написанной по мотивам мемуаров «Бабур-наме» нашего предка Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: поэма, композиция, композиционные средства, сюжет, заголовок, аннотация, пейзаж, миниатюра, эпиграф.

Annotation: this article discusses the compositional structure, compositional means, and the importance of composition to the work of the poet Sirojiddin Sayyid, an example of modern poetry, the poem “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Babur”, written based on the memoir “Boburnoma” of our ancestor Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words: poem, composition, compositional tools, plot, title, annotation, landscape, miniature, epigraph.

So'nggi davr o'zbek dostonlariga nazar qaratadigan bo'lsak, Sirojiddin Sayyid, Ikrom Otamurod, Usmon Azim kabi ijodkorlar yaratgan asarlarda ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar ruhi, xalq hayotidagi yangilanishlar nafasi o'z ifodasini topganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, xalq ongida bugungacha yashab kelayotgan ajdodlarimizning xotirasiga bag'ishlab yozilgan dostonlar ham adabiyot maydoniga kirib kelmoqda.

Bunga misol sariosiyolik shoir Sirojiddin Sayyid 2011-yilda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridan ilhomlanib unga javoban yozgan “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonidir. Bundan oldin esa shoir “O'zbekiston adabiyoti va san'ati jurnalida “Yo'lbars na'rasi” nomi ostida maqola e'lon qildi. Maqolada shoir Bobur asarlari, ijodi haqida so'zlay turib, jahonda ham Zahiriddin Muhammad Bobur mavzusi va Bobur ijodining o'rganilayotganligini aytib o'tadi. Va S. M.Berkning “Akbarshoh – Boburiylarning eng buyugi” asari, taniqli ingliz adibi Rumer Godenning “Gulbadan”, Muhammad Haydar Xorazmiyning “Tarixi Rashidiy” asari, Frits Vyurtlening “Bobur –yo'lbars” asarlarini bunga misol sifatida ko'rsatadi. Bularning orasida Andijondagi Bobur xalqaro muzeyida asl nusxasi saqlanayotgan 1947-yilda yozilgan Frits Vyurtlening

“Bobur-yo'lbars” (“Bobur der tiger”) asari Sirojiddin Sayyidni qiziqtirib qo'yadi. “Boburnoma” asariga bag'ishlangan bu qissa Boburning yoshligi, harbiy yurishlariga bag'ishlab yozilgan hamda 100 sahifadan sal ko'proq bo'lib, nemis tilidan o'zbek tiliga Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilingan. Shu qissani o'qib chiqqan shoir undan ruhlanib quyidagi so'zlarni aytadi:

“Andijondan chiqqan yo'lbars na'rasini olis Avstriya o'lkasida turib eshitgan, mehr-muhabbati, izzat-ehtiromini qo'shib, bizning ulug' ajdodimiz hayotidan chiroyli kitob bitib bizga meros qoldirgan, Temuriyoda sultonimiz sha'ni-sharafi olamara taralishida o'zining benazir hissasini qo'shgan janob Frits Vyurtle nomi oldida ta'zim bajo keltiramiz.”¹

Bu maqolani o'qib shunaqa xulosa chiqarishimiz mumkin, shoir Sirojiddin Sayyid Z. M.Bobur ijodiga befarq bo'lmagan. U haqida yozilgan har qanday asarni qiziqib o'qigan hamda u yaratgan doston ham izlanishlari mahsuli yanglig' dunyoga kelgan.

Tahlilga tortmoqchi bo'lganimiz “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni lirik usulda yozilib, dostonning biror o'rnida nasriy unsur alomatlarini uchratmaymiz. Faqatgina “Boburnoma”dan keltirilgan havolalargina aslicha nasriy bayon qilingan. Dostonning kompozitsion tuzilishida ham

¹ Sirojiddin Sayyid. “Yo'lbars na'rasi” . – T.: “O'zbek adabiyoti va san'ati” gazetasi 2011-yil, 13-son

shoir novatirona mahorat ko'rsatadi . Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek,

Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay
 Ulusg'a mayl beandoza bo'lga'y
 Yo'q ersa nazm qilg'onni haloyiq,
 Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Umuman olganda, kompozitsiya asar tuzilishida va uning ma'lum bir tartib asosida joylashishida katta ahamiyatga ega bo'lgan shakllardan biridir. Kompozitsiyasiz asar yaratilmaydi. Yozuvchi asar yozmoqchi bo'lsa, avvalo, yozishga niyat qilgan asarining xomaki kompozitsiyasini yaratib oladi. Kompozitsiya asarga yaxlitlik, tugallik hamda umumbirlik beradi. Nazariy manbalarda bu shaklga nisbatan yakuniy adabiy-badiiy shakl atamasi berilgan. **A.P. Chexov aytganidek , "Asarga taalluqli bo'lmagan hamma narsani shafqatsizlik bilan chizib tashlash lozim. Agar siz birinchi bobda devorda miltiq osilib turibdi desangiz, ikkinchi yoki uchinchi bobda mana shu miltiq , albatta , otilishi kerak." Ana shu saboq kompozitsiyaning bosh qoidasi sanaladi.**²

Bundan tashqari, kompozitsiya tasvirdagi me'yor va muvofiqlikni ham yuzaga chiqaradi, sayozlikka, bayonchilikka, bayondagi ezmalikka, takrorga yo'l bermaydi.³ Shoir Sirojiddin Sayyid dostonni yaratar ekan, doston kompozitsiyasi ustida mahorat bilan ishlaganini, dostondagi o'ziga xoslik shu kompozitsiyada namoyon bo'lganini hamda dostonda barmoq va aruz vaznlarining barobar ishlatilganligini, badiiy tasvir vositalardan shoir unumli foydalanganini ko'ramiz.

Shoir doston kompozitsiyasini quyidagicha ishlab chiqadi:

1. She'rlardan iborat dostonning har bir qismiga "Boburnoma"dan havolalar keltirib o'tadi. Doston ichida shoir bitta she'rida (Sulton Ulug'bek. Rasadxona. "Ziji ko'ragoniy" nomli she'rda⁴) hatto Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan ham havola berib o'tadi. Havolalar orasida "Boburnoma"dan keltirilgan havolalar salmog'i anchayin ko'proq. Ijodkorning bu qilgan yangiligi yaratgan asarining boshdan oxir iqtibos badiiy san'atining yetuk namunasi bo'lib qolishiga xizmat qilgan.

2. Ijodkor dostonida Bobur g'azallariga ham o'xshatmalar yozadi. G'azallar va muxammaslarning ayrimlariga aruz vaznida (Bobur bayti saqlangan holda), ayrimlariga esa barmoq vaznida javob yozgan. Doston "Boburnoma"dagi voqealar bilan ketma-ketlikda olib boriladi. Dostondagi aruz vaznida Bobur g'azallariga javoban yozilgan g'azallar va muxammaslarga va barmoq vaznidagi she'rlarga shoir lirik chekinish vazifasini yuklagan. Doston o'rtasida naziralar berilib, oxirida yana "Boburnoma" dostoni voqealari aks etgan she'rlar davom etgan

("Qovun sog'inchi", "Tole' yo'qi", "Halqalar o'yini" , "Sangtaroshlar" kabi she'rlar).

3. Doston kompozitsiyasida syujet birlamchi vazifa bajarmagan. Dostondagi she'rlarning ko'pchiligida histuyg'u, kechinmalar aks ettirilgan bo'lib, Boburning hayotida bo'lib o'tgan voqealar uning qalbiga qanday ta'sir qilgani ehtirosli she'rlar asosida dostonga tushirilgan:

"Ey charx, g'iybat, tuhmatlardan meni qutqar,
 Jonni o'rtar g'urbatlardan meni qutqar.

Mening davron bilan bahsim og'ir bo'ldi,
 Bu bemaza suhbatlardan meni qutqar."

Ayrim she'rlardagina "Boburnoma" voqealari aks etgan syujetlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun dostondagi "Shayboniyxon hamda Husayn Udiy" she'rini oladigan bo'lsak, "Boburnoma" dan olingan havolada ham, havola uchun yozilgan she'rda ham syujet mavjud:

"Kamolliddin Behzod chizgan edi rasmin,
 Qon rangida bergan edi to'nin rangin.

Pisand qilmay Yaratganning qazosini,
 Ololmayin xalq dardi-yu rizosini.

Shayboniyxon xato qildi , Shayboniyxon,
 O'zini ham ado qildi Shayboniyxon."

Kompozitsion vositalardan biri bo'lgan **asar sarlavhasi** ham dostonga mos holda ijodkor tomonidan mahorat bilan tanlangan. Shoir bu dostonini Bobur ijodiyotiga javoban yozar ekan, uning ijod mahsuli bo'lgan "Yuz oh , Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli ruboiysiga dostonning ichida biror o'rinda o'xshatma yozmaydi. Ijodkor birgina sarlavha orqali doston shoh va shoir Boburning his-tuyg'u va kechinmalariga bag'ishlanganini, shaxs qalbi, uning hayotida kechgan voqealar inson taqdiriga qanday ta'sir qilishini sarlavha vositasida ta'kidlagan. Sarlavhaga qo'shimcha ravishda shoir dostonga izohlovchi nom ham beradi. Bu izohlovchi nom ("Firoq va sog'inch dostoni") doston mazmunini mavzuga qo'shimcha ravishda oydinlashtirishga ko'maklashgan.

Dostondagi **epigraf** ham doston mazmuni uchun xizmat qilgan. Bobur ijodi namunasi bo'lgan epigraf asar kompozitsiyasini boyitgan:

Har vaqtqi, ko'rgasen mening so'zimni,
 So'zumni o'qub , sog'ing'asen o'zumni.

Doston epigrafi orqali shoir Boburdan avlodlarga benazir ijod mahsullari qolganini hamda shu ijod namunalari bilan Bobur xotirasi avlodlar xotirasida abadiy hayot kechirishini aytib o'tgan. Bundan tashqari doston ichidagi she'rlarga yozilgan har bir Bobur ijodi namunalari ham (iqtiboslar) kompozitsion vosita bo'lib,

2 H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi qoidalari. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalqaro meros nashriyoti, 2004-yil

3 H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi qoidalari. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalqaro meros nashriyoti, 2004-yil

4 Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. 26-bet

doston kompozitsiyasida birlamchi o'rinni egallagan. Aynan mana shu havolalar va shoirning mahorati bilan doston yaratilgan.

Doston **annotatsiyasi** ham kompozitsion vosita sifatida poema mazmunini umumlashtirgan, o'quvchi uchun notanish bo'lgan dostonni kitobxonga yaqinlashtirish, qiziqirish vazifasini bajargan:

“O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ustozlar maktabi va tajribasidan ibrat olib yozgan “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni yangicha yo‘li, o‘ziga xos uslub va tuzilmasi, shoh va shoir bobomizning, asosan, ichki-ruhiy va qalbiy kechinmalari, o‘y va iztiroblarini ochib berishi bilan e‘tiborga molikdir.”

Kompozitsion vosita sifatida biz dostonda yana O‘zbekiston xalq rassomi Xurshid Nazirov tomonidan chizilgan **4 ta miniatyurani** ham uchramiz. Aynan dostonning shu joyida ikkita san‘at qo‘shilmasi vujudga kelgan. Tasviriy san‘at kompozitsiyasi badiiy kompozitsiyani boyitgan va asar mazmunini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Miniaturalar rangin bo‘lib, barchasida Bobur o‘ychan va xayolga cho‘mgan holda tasvirlangan. Birinchi miniatyurada 12 yoshli Boburning taxtga kelish tasviri, ikkinchi miniatyurada Bobur sahro va tog‘- u toshda sarson- sargardon kezib yurgani tasviri, uchinchi miniatyurada Boburning xazonlar orasidagi tasviri va oxirgi – to‘rtinchi miniatyurada Boburning Andijon qovunini yeb, qovunning ta‘mi bilan tug‘ilgan yurtining sog‘inchi tasvirlangan.

Miniatyuralardan ikkitasida o‘zbekcha she‘riy parchalar tushirilgan.

1-miniatyurada rassom Sirojiddin Sayyidning “O‘n ikki yoshli bir Temuriyzoda” she‘ridan parcha olib, miniatyuraga tushirgan.

**Belda – ko‘rkam qilich – o‘zi ozoda,
O‘n ikki yoshli bir Temuriyzoda**

2-miniatyurada rassom X. Nazirov shoirning “Tun” nomli she‘ridan parcha olib tushirgan.

Sahromi bu tog‘- u toshmi yo biyobon?

Tun bepoyon, tun bepoyon , tun bepoyon.

Har ikkala she‘riy parchalar barmoq vaznida bo‘lib, chizilgan miniatyuraning mazmunini ochib berishga xizmat qilgan. To‘rtinchi miniatyurada arabcha harflar yordamida matn (gap) keltirilgan.

Kompozitsion vosita sifatida peyzaj tasviri ham dostonda ko‘plab o‘rinlarda uchraydi. Xususan, Boburning “Bahor ayyomidur...” nomli g‘azaliga shoir javoban yozgan muxammasi, “Qish” nomli she‘ri bunga misol bo‘ladi. Dostonda peyzajdan Boburning hijronli, yurtdan ayro o‘tgan kunlarini izohlashda foydalanilgan.

Xullas, “Yuz, oh Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni favqulodda kitobxon uchun yangilik bo‘lgan doston emas. Undagi mavzu, g‘oya ilgari ham “Boburnoma”da tilga olingan. Muallif bugungi kun kitobxonini o‘tmish bilan yuzlantirib, ajdodlarimiz kim bo‘lgan va ular yurt tinchligi, osoyishtaligi uchun qanday ishlarni amalga oshirganligini dostoni orqali eslatib o‘tgan. Doston kompozitsiyasi ham juda mahorat bilan ishlangan. Dostonni o‘qib chiqqan kitobxon, albatta, o‘ziga, so‘ziga , ko‘ngliga va ko‘ziga qarab ish tutadigan, o‘zini, o‘zligini baholashda komil inson bo‘lib yetishadigan shaxs bo‘lib tarbiyalanishi muqarrar.

Yuz ochqil, to kechay oy- u quyosh- u kecha, kunduzdin,

So‘z ochqil, ranj- u dardim to qo‘yib kul o‘lsin ul so‘zdin,

Ko‘z ochqil, ko‘z yumay to necha- necha ko‘zi yulduzdin,

Ko‘z ochqil boqqalikum, bo‘lmisham bemor ul ko‘zdin, Lab ochqil so‘rg‘alikim, tashna bo‘lmisham zilolingg‘a.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1990.
2. H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi qoidalari. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalqaro meros nashriyoti, 2004-yil
3. Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006.
4. S. Sayyid. Asarlar. II jild. – T.: Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2018.
5. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. – T., 2011.
6. S. Sayyid. So‘z yo‘li. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. – T.: Sharq, 2008.
7. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
8. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “O‘AJBNT” Markazi, 2003.

Nasiba XOLIQOVA,
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti



O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA BOSH BO'LAKLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq donishmandligining go'zal namunalarini orqali ularda qo'llanilgan sintaktik strukturalar batafsil ochiqlandi. Ilmiy asoslash maqsadida Abdulla Qahhor ijodiga murojaat etildi. Bundan tashqari, maqollarning sintaktik tahlili bilan bir qatorda semantik va pragmatik tomonlari ham yoritildi. Ega va kesimga oid leksemalarning morfologik birikuviga ham to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: *sintaktik, morfologik, semantik, pragmatik birliklar, otlashgan leksemalar, "O'g'ri" hikoyasi.*

Аннотация: в данной статье подробно объясняются используемые в них синтаксические конструкции на примере прекрасных примеров узбекской народной мудрости. Для научного обоснования были использованы труды Абдуллы Каххора. Кроме того, наряду с синтаксическим анализом пословиц, были рассмотрены семантико-прагматические аспекты. Также было затронуто морфологическое сочетание притяжательных и причастных лексем.

Ключевые слова: *синтаксические, морфологические, семантические, прагматические единицы; сложные лексемы; «История вора».*

Annotation: this article explains in detail the syntactic structures used in them through beautiful examples of Uzbek folk wisdom. For the purpose of scientific substantiation, the work of Abdulla Qahhor was used. In addition, along with the syntactic analysis of proverbs, semantic and pragmatic aspects were also covered. The morphological combination of possessive and participial lexemes was also touched upon.

Key words: *syntactic, morphological, semantic, pragmatic units; compound lexemes; "The Story of the Thief".*

O'zbek xalq maqollari ming yillik tajribaga tayanib, insonni to'g'ri yo'lga soluvchi, axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi va tarbiya jarayonida yo'riqnomaga vazifasini bajarib kelmoqda. Har bir maqolning tub mohiyatida tarbiya, odat, axloq va ma'naviyat yotadi. "Maqol" atamasi arabcha qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. Maqol orqali aytilgan fikr kishiga juda qattiq ta'sir qilishi bilan ham inkor etib bo'lmaydigan haqiqatga aylangani bois ham bu janrga e'tibor kuchlidir. "Maqol kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida bo'lib, grammatik fikr ifodalaydi, o'z ichki grammatik qurilishi jihatidan ham doim gapga teng bo'ladi, undan anglashilgan mazmun faqatgina tasviriy yo'l bilan ochiladi". Har bir xalq va millat o'zining yashash sharoiti, ijtimoiy holati, tarixi va buguni, erishgan yutuqlari hamda yo'qotganlarini ma'lum bir qolipga solib, ulardan tajriba o'rgangan holda xalqqa tegishli bo'lgan hikmatli so'zlar, maqol va matallarni yaratadi va ular umumxalq mulki hisoblanadi. Ushbu maqollarni oddiy kishilar kundalik so'zlashuvida, adabiyot vakillari esa yaratayotgan ijod namunalarida ularni sayqallash uchun qo'llaydi. Xalq maqollari shaxs nutqini bezashga, uni so'zamol qilib ko'rsatishga yordam bersa, yozma adabiyotda esa

asarni yanada ta'sirchan, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Hamda maqollar o'quvchini asarni yengil o'qiy olishiga, maqol mazmuni va unda ishlatilayotgan so'zlariga, badiiy san'atiga qarab asar yaratilgan zamon haqida ham keng tushuna olishiga turtki bo'ladi. Shunday adiblarimizdan biri Abdulla Qahhordir. Adib esa o'z ijodining kichik janrlaridan biri bo'lmish ba'zi hikoyalarda maqollar keltirish orqali o'z fikrini kitobxonga yozma shaklda tushuntiradi. Bilamizki, xalq maqollari shaxs nutqini ta'sirchan va jozibali bo'lishiga yordam bersa, yozma adabiyotning esa mavzu ko'lamini aniq va tushunarli qilib yoritishga xizmat qiladi. Abdulla Qahhor ham o'z asarlarida xalq donishmandligi namunalarini nutq vaziyatiga mos va turli nutqiy vaziyatlarni ifodalash maqsadida, faol darajada qo'llagan. Maqollarni asar nomi, epigrafi, dastlabki yoki xulosa qismida ishlatib, asar mazmundorligini oshirgan hamda ular asar tarkibining mustahkam ajralmas qismiga aylanishiga hissa qo'shgan. Uning hikoyalarni tahlil qilganda, asardagi maqollarni hikoyalarning qaysi o'rnida ishlatgani, maqollardan foydalanishning badiiy va lingvistik maqsadi nima ekanligini, maqollarda qo'llangan bosh bo'laklar qanday pragmatik vazifani bajarishini ko'rib o'tamiz.

Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasining epigrafi “Otning o‘limi, itning bayrami” jumlasini bilan boshlanishida ham bosh bo‘laklar qo‘llanganining yaqqol guvohi bo‘lamiz. Bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi va bosh bo‘laklar – gapning predikativ asosini tashkil etuvchi ega va kesimdan iborat bo‘ladi. Keltirilgan maqol qaratqichli so‘z birikmasidagi ega va kesim birikuvidan tashkil topgan. “Otning o‘limi” – ega; “Itning bayrami” – kesim vazifasida kelgan. Maqol predikativlik funksiya bajarib, ot kesimli soddaga gapni hosil etgan. Maqol semantik ahamiyatga ega bo‘lib, olamning lisoniy manzarasini ochib berishda o‘zbek xalqining mentalitetiga xos bo‘lgan konsept darajasiga erishgan. Konsept yadrosiga “ot” simvol qilib olingan. Konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba‘zan unga ta‘sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi. Otning o‘zbek xalqi hayotida tutgan o‘rni beqiyos. Ayniqsa, ot asosiy ulov vositasi bo‘lgan o‘tgan asrlarda uning bahosi yanada ortgan. Otning O‘zbekiston tuprog‘ida juda qadim zamonlardan qo‘lga o‘rgatilib, undan keng foydalanilgan arxeologik va etnografik adabiyotlar tasdiqlaydi. Epigrafda qo‘llangan maqol pragmativ xususiyat ham kasb etadi. Maqolni o‘qib o‘quvchi hikoyaning mavzusi kimningdir qiyin vaziyatga tushib qolishi, boshqa bir insonga “xursandchilik” olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. Shuningdek, hikoyada “Begim deguncha belim sinadi”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz”, “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi” kabi maqollarda predikativ birliklar faol qo‘llanganligini, bu esa asar jozibasini va mazmundorligini yanada boyitishga xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu maqollarda “*belim, mushuk, bitta, o‘nta, qoshiq*” kabi leksik birliklar ega vazifasida kelgan. Ega sintaktik birliklari ot, otlashgan son so‘z turkumidagi morfologik birliklar bilan ifodalangan. “Belim” soddaga turdosh ot bo‘lib, sintaktik shakl yasovchi, egalik qo‘shimchasi(-im) bilan turlanish hosil etgan. “O‘nta, bitta” egalari esa sonning otlashuvidan tashkil topgan. “*Sinmoq, chiqmoq, ko‘p, oz, yirtmoq*” kabi leksemalar esa ot kesim va fe‘l kesim bo‘lib kelgan. Fe‘l va ravishga oid morfologik birliklardan foydalanilgan. “Sinmoq, chiqmoq, yirtmoq” leksik birliklari harakat fe‘llarini hosil qilib, maqolga denotativ sema yuklagan. “Ko‘p va oz” daraja-miqdor ravishlari esa ot kesim bo‘lib kelgan. Yozuvchi asarda keltirilgan maqollar orqali qahramonlarining gapirish maqsadi, ya‘ni illokutiv kuchini asosiy markazga qo‘yadi. “Tekinga **mushuk** oftobga chiqmaydi” maqolida ega sintaktik vazifasida kelgan so‘z, pragmatik vazifa bajarib, maqol mazmunini ochib berishda asos bo‘lib xizmat

qilgan. Bu orqali esa “bepul narsa ortida yashirin niyat, shubha va norozilik, korrupsiyaga botgan amaldorlar, hamma ishlar pul bilan bitadigan tizim ro‘y-rost ochib berilgan. Shu yerda bir narsani aytib o‘tish kerakki, mazkur maqol turli vaziyatlarda turlicha ma‘noni ifodalashi mumkin. Asardan o‘rin olgan amin va ellikboshi kabi qahramonlar nutqida jamiyat insonlariga nisbatan subyektiv munosabat borligi aniq seziladi. Bu kabi insonlar xalqni oyoqosti qilib yosh va gender tenglik masalasida xudbinlik va manmanlikka yo‘l qo‘yishganiga guvoh bo‘lamiz. Egallagan mansabidan foydalanib bechora xalqning mol-mulkini talon- taraj qilayotganligi “tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “quruq **qoshiq** og‘iz yirtadi” kabi maqollarni o‘rinli qo‘llab ochiq-oydin yoritib bergan. Bu esa hikoyaning badiiy va lingvistik mohiyatini yanada oshirgan. Birgina “qoshiq” vositasida jamiyatning inqirozi, manfaatdorlik hissi, bechora xalqning oyoqosti qilinayotgani, mol-mulkulari tortib olinayotganining guvohi bo‘lamiz. Biz bu hikoyani o‘qish orqali keltirilgan maqollarning turlicha ottenkalarda qo‘llanganligiga duch kelamiz. Ular, asosan, sintaktik vazifa bajarishi bilan bir qatorda, semantik va pragmatik xususiyat ham kasb etgan. Yuqorida birgina adibning asarida keltirilgan maqollardagi bosh bo‘laklarni tahlil qildik. Quyida esa bosh bo‘laklarning sintaktik strukturasi batafsil ko‘rib chiqamiz.

Kesim orqali izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan, gapning boshqa bo‘laklariga tobe bo‘lmagan bosh bo‘lakka ega deyiladi. Ega keng ma‘noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan predikativ belgining kimga yoki nimaga qarashlilikini ko‘rsatadi. Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanib, kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Ega, odatda, yakka so‘z: ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan so‘z (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, ravish, taqlid so‘z, undov so‘z, modal so‘z) bilan ifodalanadi.

Eganing ot bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi atoqli yoki turdosh ot ko‘pincha ega vazifasini bajaradi. “Begim deguncha belim sinadi”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”.

Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega bosh kelishik shaklidagi ot o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar bilan ifodalanadi: “Har kim ekanini o‘radi”.

Eganing harakat nomi bilan ifodalanishi. Ega harakat nomi bilan ifodalana oladi: Boshliq bo‘lish oson, boshlamoq qiyin. (Maqol).

Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi. Sifatlar otlashib, gapda ega bo‘lib kelishi mumkin: Botir topsa – barcha yer, baxil topsa – bosib yer. (Maqol). Yaxshi yaxshining qadriga yetar. (Maqol).

Eganing otlashgan son bilan ifodalanishi. Sonlar ham otlashib, ega vazifasida keladi: “Olganga o‘nta ham oz, berganga bitta ham ko‘p”.

Egning otlashgan olmosh bilan ifodalanishi. Kim mehnat qilsa, shuni topadi.

Egning otlashgan sifatdosh bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi otlashgan sifatdosh ega vazifasini bajaradi: Ishlagan xor bo'lmas (Maqol). Qimirlagan qir oshar (Maqol). Birlashgan daryo bo'lar, tarqalgan irmoq bo'lar (Maqol). Egning otlashgan ravish bilan ifodalanishi. Ravish otlashganda, gapda ega bo'lib kelishi mumkin: Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi (Maqol). O'qishning erta-kechi bo'lmas (Maqol).

Egning otlashgan taqlid so'z bilan ifodalanishi. Taqlid so'zlar otlashib ega vazifasini bajaradi: Shildir-shildir to'xtasa, ko'ngil ham tinchiydi.

Egning otlashgan modal so'z bilan ifodalanishi. Otlashgan modal so'z ega vazifasini bajarishi mumkin: Bor so'ylaydi, yo'q o'ylaydi. (Maqol).

Ega ba'zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanishi mumkin: birovning ko'nglini ko'tarish qiyin, ko'nglini cho'ktirish esa oson. Bundan tashqari, ega so'z birikmasi yoki gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanadi.

Egning so'z birikmasi bilan ifodalanishi. Ega vazifasida so'z birikmasi kela oladi: Haqiqat va to'g'rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi. ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur").

Egning gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanishi. Ega-kesim munosabati aks etgan predikativ birlik ega vazifasida kela oladi: Bilagi zo'r birni yiqitadi, bilimi zo'r – mingni (Maqol).

2. **Kesim va uning ifodalanishi.** Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan, ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh bo'lak kesim deyiladi. Kesim o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh bo'lak hisoblanadi. Kesim ifoda materialiga ko'ra (qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra) ikki turga ajratiladi: 1) fe'l kesim; 2) ot kesim.

1.Fe'l kesim. Turli fe'l shakllari bilan ifodalanadigan kesim fe'l kesim deb yuritiladi: Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va b.) bilan, shuningdek, fe'ning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim ot kesim deb ataladi. 1) kesimning ot bilan ifodalanishi. Ot kesim vazifasida ko'pincha bosh kelishikdagi ot, ba'zan esa o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishiklardagi ot yoki

ko'makchi bilan qo'llangan ot kelishi mumkin: Yoshning hurmati – qarz, qarining hurmati – farz. (Maqol). Ot bilan ifodalgan kesim nafaqat bosh kelishik shaklida, ba'zan jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklar shaklida bo'lishi mumkin, hatto ko'makchi orqali shakllangan bo'lishi mumkin. Masalan: Ilm-u hunar yerga emas, elga. (Maqol). Haqiqat kuchda emas, kuch haqiqatda. (V.Katayev). Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol).

2) kesimning sifat bilan ifodalanishi: baliq suv bilan tirik, Odam — el bilan.

3) kesimning son bilan ifodalanishi: so'zimiz, va'damiz, ahdimiz bitta, do'stlikda yaratgan baxtimiz bitta. (Maqol).

4) kesimning olmosh bilan ifodalanishi: bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol)

5) kesimning harakat nomi bilan ifodalanishi: bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish. (Maqol)

6) kesimning ravish bilan ifodalanishi: ko'rpang qayerda bo'lsa, ko'ngling shu yerda.

7) kesimning modal so'z bilan ifodalanishi: oy tunda kerak, aql kunda kerak. (Maqol).

8) kesimning ko'makchi bilan: baliqning kuni ko'l bilan, botirning kuni el bilan.

Yozuvda ba'zan kesim bilan ega orasida tire ishlatiladi. Bu quyidagi holatlarda sodir bo'ladi:

1. Kesim ot, olmosh, son bilan ifodalanib, -dir affiks bog'lamasini qo'llanmaganda: Mehnat – hurmatning toji. (Maqol).

2. Gapning egasi yoki kesimi, yo bo'lmas ham egasi, ham kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, – dir bog'lamasini bo'lmaganda: Bekor yurish – illatning onasi, g'urbatning makoni. ("Tafakkur gulshani"). O'qish – ulg'ayish. (Maqol). Tilni bilish – dilni bilish (Maqol).

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq maqollarini unumli ishlatib, o'zining yashayotgan davridagi siyosiy tuzum jabr-zulmi oqibatida qiyinchilik bilan hayot kechirayotgan erki toptalgan va ruhi va ma'naviyati ezilgan xalqning, millatning turmush tarzini yoritishda ustalik bilan foydalanadi. Maqollardan ma'no ta'sirchanligini orttirishda va vaziyatni ochiq-oydin fosh qilish kabi maqsadlarda foydalanadi. Maqollar vositasida xalqni, millatni ma'naviyatli bo'lishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, haq-huquqlarini poymol qilishlariga yo'l qo'ymaslikka da'vat etiladi. Ularda asosan tarbiyaviy, odob-axloqqa yo'naltirilgan falsafiylik ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2012.
2. Madvaliyev A. tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 1981.
3. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Madayev O. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010.

Moxina RASULOVA,
BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi magistranti

ALISHER NAVOIYNING “DEVONI FONIY” ASARIDAGI TAVR G‘AZALLARNING NASHRLARARO NOMLANISHIDAGI TAFOVUTLAR

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asaridan o‘rin olgan tavr g‘azallarini Navoiy asarlarining 15 tomlik nashri, 20 tomlik mukammal asarlari nashri va 10 tomlik nashridagi nomlanishidagi farqlari aks etgan.

Kalit so‘zlar: “Devoni Foni”, nashr, ilmiy-tanqidiy matn, qo‘lyozma, tavr, devon, uslub.

АННОТАЦИЯ: в статье отражены различия в наименованиях газелей жанра “Девони фоний” Алишера Навои в 15-томном издании произведений Навои, 20-томном издании полного собрания его сочинений и 10-томном издании.

Ключевые слова: “Девони Фони”, публикация, научно-критический текст, рукопись, стиль, Девон, стиль.

Annotation: the article reflects the differences in the naming of the ghazals of the genre from Alisher Navoi’s “Devoni Foni” in the 15-volume edition of Navoi’s works, the 20-volume edition of his complete works, and the 10-volume edition.

Key words: “Devoni Foni”, publication, scientific-critical text, manuscript, style, devon, style.

Navoiyning 15 tomlik to‘la asarlar to‘plamining 5-jildi 2 kitobdan iborat bo‘lib, bu jildga “Devoni Foni” asari kiritilgan. Bu jildda jami 45 ta tavr g‘azal mavjud bo‘lib, shundan 25 ta g‘azal Xojaga tavr qilingan, 11ta g‘azal Maxdumga, 4 ta g‘azal Mirga, 1ta g‘azal Shayxga, 1ta g‘azal Xoja Kamolga tavr qilingan. “Dar hamon uslub” va “Dar hamon tavr” nomi ostida 2ta g‘azal ham mavjud.

Navoiyning 20 tomlik to‘la asarlar to‘plamining 18-jild va 19-jildlariga “Devoni Foni” asari kiritilgan. Bu jildlarda jami 54ta tavr g‘azal mavjud bo‘lib, shundan 36ta g‘azal Xojaga tavr qilingan, 12 ta g‘azal Maxdumga, 1ta g‘azal Mirga, 1ta g‘azal Shayxga, 1ta g‘azal Xoja Kamolga, 1ta g‘azal Shayx Kamolga tavr qilingan. “Dar hamon uslub” va “Dar hamon tavr” nomi ostida 2ta g‘azal ham mavjud.

Navoiyning 10 tomlik to‘la asarlar to‘plamining 5-jildiga “Devoni Foni” asari kiritilgan. Bu jildda jami 54ta tavr g‘azal mavjud bo‘lib, shundan 36ta g‘azal Xojaga tavr qilingan, 12 ta g‘azal Maxdumga, 1ta g‘azal Mirga, 1ta g‘azal Shayxga, 1ta g‘azal Xoja Kamolga, 1ta g‘azal Shayx Kamolga tavr qilingan. “Dar hamon uslub” va “Dar hamon tavr” nomi ostida 2ta g‘azal ham mavjud.

Navoiyning “Devoni Foni” asarini uchala nashraro qiyoslaganimizda, nashrlararo nomlanishi turlicha bo‘lgan tavr g‘azallarga duch keldik. Jami 15ta tavr g‘azalning nomi boshqacha holda keltirilgan.

“Manu zi hajri...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Maxdum” (Jomiy tavrda) nomi bilan kelgan. 20 tomlik MAT “Dar tavr Maxdumi Nuran” va 10 tomlik AT da esa “Dar tavr Maxdumi nuran” shaklida berilgan. Bunda g‘azal boshqa kishi nomida emas, faqat Jomiy uslubida bitilganligi ma‘lum. “Ba masti dar dilam...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Ayzan” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dar tavr Maxdumiy” nomi ostida turibdi.

“Manu mayli alifi...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Ayzan” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dar tavr Xoja” nomi ostida turibdi. “Tanam az ranj...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Mir” nomi bilan

turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Tatabbo‘yi ba‘zi yoron” nomi ostida turibdi. “Ba mastiyam...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Harfuzo” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dar tavr Xoja” nomi ostida turibdi. “Hast dar dayri...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Xoja” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Tatabbo‘yi Xoja” nomi ostida turibdi. “Mulamma xirkaam...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Xoja” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dar tavr Shayx Kamol” nomi ostida turibdi. “Az g‘ami yak shab...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Muxtara” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dar tavr Maxdumiy” nomi ostida turibdi. “Xush on rinde ki bahri...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Tatabbo‘yi Mir” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Tatabbo‘yi Mir dar tavr Xoja” nomi ostida turibdi. “Kas naxli noz...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik ATda “Muxtara” nomi ostida berilgan. Qolgan 2 nashrda esa “Dar tavr Xoja” nomi bilan kiritilgan. “Jon baxshad...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Mir” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Muxtara” nomi ostida turibdi. “Gadoyi maykadavu...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Xoja” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Mav‘iza” nomi ostida turibdi. “Tu gashti kajkuloh...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Mir” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Muxtara” nomi ostida turibdi. “Nest dar dayri mug‘on...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Dar tavr Xoja” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Ixtiro” nomi ostida turibdi. “Nigoro turki tojikam...” deb boshlanuvchi g‘azal 15 tomlik AT da “Tatabbo‘yi Said Qosim Anvor” nomi bilan turibdi. Qolgan ikkala nashrda “Dat tavr Maxdum” nomi ostida turibdi.

Nomlanishida farqlanuvchi tavr g‘azallar:

1. Manu zi hajri...
2. Ba masti dar dilam...
3. Manu mayli alifi...
4. Tanam az ranj...
5. Ba mastiyam...

6. Hast dar dayri...
7. Mulamma xirkaam...
8. Az g'ami yak shab...
9. Xush on rinde ki bahri...
10. Kas naxli noz...
11. Jon baxshad...
12. Gadoyi maykadavu...
13. Tu gashti kajkulohi...
14. Nest dar dayri mug'on...
15. Nigoro turki tojikam...

Hozircha fanda "Devoni Foni"ning Parijdagi 285, 1345, Tehrondagi 15002, Turkiyadagi 3850, 1952 raqamli qo'lyozmalari ma'lum.

Navoiy "Devoni Foni" haqida "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ma'lumot bergan.¹ Shoirning forsiy devoni turli yillarda nashr bo'lgan² va devonni nisbatan mukammal tarzda professor Hamid Sulaymon chop ettirilgan³. Biroq bu nashrdan ham ancha g'azallar, qasidalar, kichik janrlardagi she'rlar tushib qolgan. Bu kamchiliklarni to'ldirib, devonni to'liq holda nashr etishga kirishildi. Eng mukammal hisoblangan Parijdagi 285 raqamli qo'lyozmaning fotonusxasidan asos, nusxa sifatida foydalanildi. Shuningdek, "Devoni Foni"ning Tehron nashri⁴, tojikistonlik adabiyotshunos olim Murodiy (Tojiboev Hojimurod) nashrga tayyorlagan "Devoni Foni" qo'lyozmasidan ham istifoda etildi. Imkon darajasida ilgari nashr bo'lgan g'azallarni ham qo'lyozmaga solishtirib, xatolari tuzatildi.

18-jildga 267 ta g'azal kiritildi. G'azallarning asosini marhum otaxon olimimiz Mo'minjon Muhammadjonov tarjima qilgan. Hamid Sulaymon nashriga kirmay qolgan 76 ta g'azalni filologiya fanlari nomzodi Shafiqa Yorqin, 15 ta g'azalni filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Rafiddinov tarjima qilgan. Izohlarni filologiya fanlari nomzodi Suyima G'aniyeva tuzgan. Qolgan 285 g'azal keyingi 19-jildga kiritildi. Bu jildagi g'azallarning ham asosiy qismini Mo'minjon Muhammadjonov, Hamid Sulaymon nashriga kirmay qolgan 68 ta g'azalni filologiya fanlari nomzodi Shafiqa Yorqin tarjima qilgan.

Shafiqa Yorqin tarjima qilgan g'azallarni filologiya fanlari nomzodi Qodirjon Ergashev tahrir qilgan. Izohni filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Rafiddinov tuzgan.

G'azallarga qo'yilgan sarlavhalar qo'lyozmada qanday bo'lsa, ularni shunday saqlashga harakat qilindi, ayrim o'rinlardagina Tehron nashriga murojaat etildi.

"Devoni Foni" nashrlarini o'zaro solishtirganimizda 15 tomlik to'la asarlari to'plamidan o'rin olmagan 13ta tavr g'azalni 20 tomlik MAT va 10 tomlik AT da uchratdik. H.Sulaymonov 15 tomlik asarlar to'plamini qisqartirilgan nashr deya so'ngso'zda aytib o'tganlari uchun bu 13ta tavr g'azalni tushib qolgan yoki kiritilmagan deyish fikridan uzoqmiz. Chunki birinchi marta Navoiy forsiy devoni o'rganilish jarayonida bo'lganligi va qo'lyozma nusxalari to'liqligicha ma'lum emasligi tavr g'azallarining nashrlararo sonidagi farqlariga sabab bo'lgan. Keyingi yillarda esa Navoiy asarlarining mukammal nashrlari tayyorlandi va tavr g'azallari soni ko'paydi. Jami 13ta tavr g'azaldan 10tasi Xoja Hofiz tavrida yozilgan. 2ta g'azal esa faqatgina Xoja Hofiz uslubida bo'lmay, "Tatabbo'yi Amir Xusrav dar tavi Xoja", ya'ni Xoja Hofiz Sheroziy uslubida Amir Xusrav Dehlaviyga javob tarzida bitilgan. Qolgan 1ta g'azal esa 2 xil janrni o'zida jamlagan bo'lib, Abdurahmon Jomiy uslubida Shayx Sa'diyga javob shaklida yozilgan. Ushbu g'azallardan 3tasida yana bir farqli jihatga ko'zimiz tushdi. Bunda farq 15 tomlik nashr bilan emas, chunki bu g'azallar ushbu nashrda yo'q. 20 tomlik MAT va 10 tomlik ATda 3ta g'azal nomi boshqacha nomlangan. Ya'ni "Bodopola zari...", "Dar bog' bog' az...", "Mo sar nihodatar..." g'azallariga 20 tomlikda hech qanday nom berilmagan. 10 tomlik ATda esa "Dar tavi Xoja" nomi bilan berilgan.

G'azallarning nomlanishidagi farqlarga sabab deb 15 tomlik asarlar to'plami nashrida faqat bitta fransuz Milliy kutubxonasidagi fotokopiyaga asoslanganligi deb faraz qildik. 20 tomlik va 10 tomlik asarlar nashrida esa 3ta qo'lyozma, ya'ni Parij, Turkiya, Tehron qo'lyozmalari asosida nashr qilinganligi uchun bu nashrlardagi g'azal nomlari to'g'ri nomlangan degan qarorga keldik.

1 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 16-jild. – Toshkent: "Fan", 2000. 32-bet.

2 Shodiev E. "Devoni Foni" nashrlari// "O'zbek tili va adabiyoti". 1988, 1-son.

3 Alisher Navoiy. Devoni Foni. Asarlar. O'n besh jildlik. 5-jild. I va II kitoblar. – Toshkent, 1965.

4 Devoni Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. "Foni". Tehron: "Asotir", 1375 h. sh.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Асарлар. XV томлик. 5-том – Т.: Бадий адабиёт, 1965.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XX томлик. 19-том. – Тошкент: "Фан", 2002.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 10 томлик. 5-том. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 2011.
4. Навоий асарлари луғати (тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов) – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 1972.
5. Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Тошкент. 1997.
6. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1970.
7. Бекова Н. Алишер Навоий шеърятда ҳамд поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006. 147-б.
8. Бекова Н. Навоёна ҳассослик. – Тошкент: Фан, 2007. 78-б.
9. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент. 2012. 168-б.
10. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008. 528-b.

Feruza RAXMONQULOVA,
O'zDJTU, ingliz tili 3-fakulteti
2210-guruh talabasi

NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI VA BUGUNGI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNINI

Annotatsiya: mazkur maqola, buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning asarlarida komil inson tushunchasining yoritilishiga hamda uning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Navoiy asarlarida komil inson, nafaqat ilm, ma'rifat, axloq va etika jihatidan mukammal bo'lishni, balki jamiyatga foyda keltiruvchi ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada, Navoiy yaratgan komil inson obrazining asosiy xususiyatlari, uning fazilatlar va ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashdagi o'rnini tahlil etiladi. Shuningdek, bugungi kunda yoshlarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan, chunki Navoiy konsepsiyasiga ko'ra, komil inson faqat ilmi, balki axloqan to'g'ri, ijtimoiy mas'uliyatli va Vatanga sodiq shaxs bo'lishi lozim. Maqola, zamonaviy yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida Navoiyning merosini qayta tiklash zarurligini ta'kidlaydi va uning g'oyalarini zamonaviy o'quv dasturlariga tatbiq etish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Mahbub ul-qulub, Xamsa, komil inson konsepsiyasi, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Navoiy ta'limoti*

Annotation: this article is devoted to the illumination of the perfect humanity in the works of the Uzbek poet and thinker Alisher Navoiy and its importance in the education of today's youth. In Navoiy's works, the perfect person includes knowledge, enlightenment, morality and ethics, but also perfection, social responsibility that benefits society. This article analyzes the main features of the image of the perfect person created by Navoiy, its features and, in particular, its role in the education of youth. Today, special attention is paid to the education of youth, because according to Navoiy's legislation, a perfect person should be not only knowledgeable, but also morally upright, socially responsible and loyal to the Motherland. The article emphasizes the need to revive Navoiy's legacy in the spiritual and moral education of modern youth and the skills of implementing his ideas in modern educational programs.

Key words: *Mahbub ul-qulub, Hamsa, the concept of a perfect human being, Layli and Majnun, Farhad and Shirin, Navoiy's teachings*

Аннотация: статья посвящена раскрытию совершенной человечности в творчестве узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои и её значению в воспитании современной молодёжи. В творчестве Навои совершенный человек включает в себя знания, просвещённость, мораль и нравственность, но также совершенство, социальную ответственность, приносящую пользу обществу. В статье анализируются основные черты образа совершенного человека, созданного Навои, его особенности и, в частности, его роль в воспитании молодёжи. Сегодня особое внимание уделяется воспитанию молодёжи, поскольку согласно законодательству Навои совершенный человек должен быть не только знающим, но и нравственно безупречным, социально ответственным и преданным Родине. В статье подчёркивается необходимость возрождения наследия Навои в духовно-нравственном воспитании современной молодёжи и навыков реализации его идей в современных образовательных программах.

Ключевые слова: *Махбуб уль-кулуб, Хамса, концепция совершенного человека, Лейли и Меджнун, Фархад и Ширин, учение Навои*

Kirish. Alisher Navoiy — o'z davrining ma'naviy yuksalishida muhim rol o'ynagan shaxsdir. Uning asarlarida komil insonning shakllanishi, uning tarbiyalanganligi va axloqiy-me'yorlari doimo markaziy o'rinda turadi. Navoiy o'z zamonida, dunyoqarashi, ilm-fan, san'at va falsafaga asoslangan holda komil insonni tarbiyalash masalasini ulug'lagan. Bugungi kunda bu falsafaning mohiyati va afzalliklari yoshlar tarbiyasida yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada biz Navoiy asarlarida komil inson konsepsiyasining shakllanishi va uning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

Komil inson tushunchasi aslida faqat Navoiy asarlarida emas, balki butun Sharq falsafasida keng tarqalgan va turli zamonlarda rivojlanib kelgan bir g'oya sifatida qaraladi. Ammo Navoiy bu kontsepsiyani o'z asarlarida yangi, o'zgacha bir yondashuv bilan rivojlantirgan. Uning fikricha, komil inson — bu nafaqat axloqiy jihatdan to'g'ri yo'lda bo'lgan, balki intellektual va ruhiy jihatdan ham mukammal bo'lgan shaxsdir.

Navoiy o'z asarlarida komil insonning tashqi va ichki sifatlarini alohida ajratib ko'rsatadi. Tashqi sifatlar ichida

ilm, ma'rifat, xizmatkorlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar, ichki sifatlar esa, avvalo, samimiyat, haqqoniylik, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlar bilan bog'liqdir. Komil insonning yuksak fazilatlar, bir tomondan, o'zini anglashi, ikkinchi tomondan, jamiyatga foyda keltirishi kerak. Navoiy, shuningdek, komil insonni nafaqat shaxs sifatida, balki jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi bir ahil yigit yoki ayol sifatida tasvirlaydi. Navoiy asarlarida komil insonning beqiyos ahamiyati va yuksak fazilatlar aks etadi. Uning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Xamsa" turkumiga kiruvchi "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarida komil inson obrazlari muhim rol o'ynaydi. Navoiy bu asarlarda faqat sevgi, azob-uqubatlarni emas, balki insonning ruhiy taraqqiyotini va uning jismoniy va ma'naviy jihatdan mukammallik sari intilishining boshliqligini ko'rsatadi.

Shuningdek Alisher Navoiy o'z she'riyatida ham komil inson sifatlarini quyidagi asosiy fazilatlar bilan tavsiflaydi:

1. Axloqiy poklik va kamolot

Navoiy uchun eng muhim jihat axloqiy poklikdir. Shoir

inson qalbining tozalik, halollik va mehr-muhabbat bilan to'lishini targ'ib qiladi. Uning fikricha, axloqiy kamolot insonni haqiqat sari yetaklaydi.

2. Ilm va ma'rifatga intilish

Navoiy ilm olishni, donolikni, haqiqatni izlashni komil insonning zaruriy belgilari deb biladi. U bilimni inson ruhining yorituvchisi sifatida ko'radi.

3. Sabr-toqat va tashabbuskorlik

Navoiy komil inson sabr-toqatli, qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan shaxs bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u faoliyatda, o'zini takomillashtirishda tashabbuskor bo'lishi kera.

Bu satrlar sabrning insonning ichki kuchi va yuksalishi ekanligini anglatadi. Alisher Navoiy she'riyatida komil inson konsepsiyasi axloqiy kamolot, ilmga intilish, sabr-toqat, ruhiy poklanish va Allohga muhabbat asosida shakllanadi. Bu konsepsiya nafaqat ma'rifiy, balki zamonaviy yoshlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Navoiy asarlaridan olingan qadriyatlar bugungi kunda ham insoniylik, ma'naviy barkamollik va jamiyat farovonligini ta'minlashda yo'l-yo'riq sifatida xizmat qiladi.

Bugungi yoshlar tarbiyasida komil insonning o'rni

Navoiy asarlaridagi komil inson konsepsiyasi bugungi yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Zamon o'zgargan bo'lsa-da, Navoiy tafakkurida ilgari surilgan insoniy fazilatlar va ularni shakllantirishdagi o'rinni yondashuvlar ayni paytda yoshlarimizni tarbiyalashda ko'p ahamiyatga ega. Bugungi globalizatsiya va texnologiyaning tez rivojlanishi fonida, yoshlarimizning axloqiy va ma'naviy tarbiyasini yangicha yondashuvlar bilan mustahkamlash zarur. Yoshlar orasida motivatsiya, ma'naviy qadriyatlarni saqlash va jamiyatga foyda keltirishga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirishda Navoiy ta'limoti nihoyatda muhim ahamiyatga ega. U o'z asarlarida insonning ruhiy, axloqiy va intellektual jihatdan shakllanishini alohida ajratib ko'rsatgan bo'lsa, bu konsepsiya yoshlarimizni tarbiyalashda zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilsa, ular mustahkam ma'naviy asosga ega bo'lishadi. Navoiyda ta'lim va tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri — axloqiy fazilatlar bilan bog'liq. Yoshlarimizni tarbiyalashda, ularga haqqoniylik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va hurmat kabi asosiy insoniy qadriyatlarni singdirish muhimdir. Navoiy,

shuningdek, "Ilmga chanqoqlik"ni komil insonning muhim jihati sifatida ko'rsatgan, bu esa bugungi kunda yoshlarimizga ilm-fan va texnologiyaga qiziqish uyg'otishning asosiy tamoyillaridan biridir.

Muhokama. Bugungi zamon yoshlarining tarbiyasi, ularning axloqiy va ma'naviy yuksalishi masalasiga kelganda, Navoiy asarlaridagi komil inson konsepsiyasi yana bir bor dolzarb bo'ladi. Biroq, bugungi yoshlar uchun muhim bo'lgan boshqa omillar ham mavjud. Texnologiyaning ta'siri, ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'ladigan turli g'oyalar va madaniyatlar yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirmoqda. Shuning uchun, Navoiy asarlaridagi komil inson haqidagi fikrlarni zamonaviy yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish jarayonida, bizga texnologiya va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda yangilanish va moslashish zarurati tug'iladi.

Xo'sh, bugungi yoshlar qanday qilib Navoiyning komil inson konsepsiyasini o'z hayotlariga tatbiq etishlari mumkin? Avvalo, bu ularning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlash, ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Yoshlarni ilmga, insoniy qadriyatlarga, mehnatsevarlikka va samarali jamiyat fuqarosi bo'lishga undash uchun ta'lim tizimi, otanalar va jamiyat o'rtasida yaxlit bir yondashuv zarur.

Xulosa. Alisher Navoiy asarlarida komil insonning mohiyati jamiyatning ruhiy va axloqiy yuksalishini ta'minlashga qaratilgan muhim g'oyalar bilan to'la. Uning ta'limoti bugungi yoshlarimizni tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Komil insonni tarbiyalash orqali biz yuksak axloqiy fazilatlarni, ilmni va mehnatsevarlikni rivojlantirgan holda, yoshlarimizni nafaqat zamonaviy dunyoga, balki o'ziga, o'z xalqiga va jamiyatiga xizmat qilishga tayyorlaymiz. Shunday qilib, Navoiy ta'limoti bugungi kundagi yoshlar tarbiyasida ham o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi va uni to'g'ri tatbiq etish orqali biz komil insonni shakllantirishning yangi davriga kirishimiz mumkin. "Komil inson" konsepsiyasi Navoiy asarlarida muhim o'rin tutadi, chunki u uning shaxsiyat tarbiyasida ma'naviyat, axloqiy me'yorlar va ilmi jihatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bugungi yoshlar tarbiyasidagi o'rni esa aynan shu qadriyatlarning hozirgi zamon sharoitida ham ahamiyatini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. Xamsa. –Tashkent: Fan, 2010.
2. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. –Tashkent: Sharq, 2016.
3. Iskandarov, N. Alisher Navoiy va uning insonparvarlik g'oyalari. – Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012.
4. Javlonov, M. Alisher Navoiy va ma'naviy yuksalish. –Tashkent: O'zbekiston, 2014.
5. Toshpulatov, B. Yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiy merosi. –Tashkent: Akademnashr, 2015.
6. Isakulova Bakhtigul. 2025/3/14. Teaching English in contemporary approaches: an educational evolution. Prospects of teaching English for professional purposes in non-philological higher education institutions: problems and solutions, 88-92
7. Isakulova, B. K. (2024). Developing leadership skills in the educational process of management systems. Golden brain, 2(21), 188–192. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252113> (https://doi.org/10.5281/zenodo.14252113%22%20%5Ct%20%22_blank)
8. Ingliz va rus leksikografiyasida O'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili Z Bobojonova - MAKTABGACHA VA MAKTAB ..., 2025 - maktabgacha-va-maktab-talimi ...

Elektron manbalar

1. Alisher Navoiy va uning asarlarini o'rganish (<http://www.navoiy.uz>)
 2. O'zbekiston Milliy kutubxonasi resurslari
- O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasi orqali Navoiy asarlari va ularning tahliliga oid ilmiy ishlarni topish mumkin.

Zarnigor DAVRONOVA,
BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

TO'LQIN HAYITNING "BAHOUDDIN NAQSHBAND YOXUD BUROQ VODIYSI QISSASI" ROMANIDA NAQSHBAND OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: hozirgi adabiy jarayonning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, mashhur yozuvchi, hikoyanavis adib To'lqin Hayitning ijodida ham Bahouddin Naqshband obrazi alohida o'rin, alohida mavqega egadir. To'lqin Hayit Hazrat Bahouddin Naqshbandning hayotlaridan hikoya qiluvchi, yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan "Bahouddin Naqshband yoxud Buroq vodiysi qissasi" nomli roman muallifi hisoblanadi. Mazkur roman 2014-yil nashrdan chiqqan. Ushbu maqola ushbu asarning tahliliga bag'ishlanadi. Unda ijodkorning badiiy mahorati, individual uslubi, tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanishi kabi bir qancha jihatlar e'tiborga olingan.

Kalit so'z: *tasavvuf, badiiy ijod, naqshbandiya, obraz, badiiy mahorat.*

Annotation: one of the prominent representatives of the contemporary literary process, the renowned writer and storyteller Tolqin Hayit, accords a special place and distinctive status to the image of Bahouddin Naqshband in his creative oeuvre. Tolqin Hayit is the author of the novel titled "Bahouddin Naqshband or the Tale of the Buraq Valley," which narrates episodes from the life of Hazrat Bahouddin Naqshband and possesses high artistic value. This novel was published in 2014. The present article is dedicated to the analysis of this work. It examines several aspects, including the creator's artistic mastery, individual style, and employment of historical-comparative methods.

Key words: *sufism, artistic creation, Naqshbandiyya, image, artistic mastery.*

Аннотация: один из заметных представителей современного литературного процесса, известный писатель и рассказчик Тулкин Хаит, отводит особое место и особый статус образу Бахауддина Накшбанд в своем творчестве. Тулкин Хаит является автором романа под названием «Бахауддин Накшбанд или Повесть о долине Бурак», который повествует о эпизодах из жизни Хазрата Бахауддина Накшбанд и обладает высокой художественной ценностью. Данный роман был опубликован в 2014 году. Настоящая статья посвящена анализу этого произведения. В ней рассматриваются несколько аспектов, включая художественное мастерство создателя, индивидуальный стиль и использование историко-сравнительных методов.

Ключевые слова: *суфизм, художественное творчество, Накшбандия, образ, художественное мастерство.*

Kirish. To'lqin Hayit "Bahouddin Naqshband yoxud Buroq vodiysi qissasi" asarni yozish va uni chop etish borasida 26 yil mehnat qildi. Adibning Bahouddin Naqshband hayotiga qiziqish va ushbu buyuk zot haqida qachondir buyuk asar yaratish istagi 1987- yil Bahouddin Naqshband haqida yozgan ilk maqolasidan keyin tug'ilgan edi. Shundan so'ng adib shuncha vaqt mobaynida asar ustida bosh qotirdi, tarixiy asarlar, ishonchli manbalar bilan tanishdi va nihoyat asar 2014-yilda dunyo yuzini ko'rdi.

Asar Bahouddin Naqshband hazratlarining 18 yoshlaridan to umrlarining oxirigacha bo'lgan vaqt davomidagi voqealar bayonidan iborat. Muallif romanda nafaqat Hazratning hollaridangina hikoya qiladi, balki, mazkur roman shaklangina Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, mohiyatan muallif ana shu piri komil hayoti fonida, ya'ni uning hayot yo'lini asos qilib olgan holda xalqimizning mo'g'ul istilosi davrida milliy ozodlik uchun olib borgan kurashlari, Sohibquron Amir Temur saltanatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishi davrini ko'rsatish, shu tariqa temuriylar muvaffaqiyatida tasavvuf ahlining

ham munosib hissasi borligini isbotlashni niyat qilgan.

Asar yetti bobdan iborat bo'lib, bu boblar "vodiy" deb ataladi. Yettilik bekorga tanlanmagan. Hafta – yetti kun. Kamalak yetti rangda tovlanadi. Farididdin Attor "Mantiq ut – tayr" dostonida, unga ergashib, Alisher Navoiy "Lison ut – tayr" masnaviysida, so'fiy Haqqa yetishi uchun yetti vodiyni bosib o'tishi kerak, deb ko'rsatadi. Buxoro viloyatida naqshbandiya silsilasining ketma-ket halqalarini tashkil etadigan yetti pir – Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjirfag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Bobo Samosiy, Sayyid Mir Kulol, Xoja Bahouddin yotibdi va hokazo. Romanda har bir vodiy yettitadan faslga bo'linadi. Har bir faslga sarlavha qo'yiladi.

Muallif Alisher Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" idagi voqealarga, ularning ilmimizdagi talqinlariga suyanadi. Aytaylik, Bobo Samosiyning non asrash bilan bog'liq karomatlarini, Hazrat Bahouddinning Qusam Shayx oldiga tashlagan qovun po'choqlarini yeganlari voqealari tasvirida aynan shunday yo'l tutiladi.

To'lqin Hayit personajlar tilini tarixiy lashtirib o'tirmay to'g'ri yo'l tanlagan. Chunki batamom o'sha

davr tiliga bugungi kitobxon butunlay tusha olmaydi. Har qanday adabiy asar, xoh u zamonaviy, xohiki tarixiy mavzuda bo'lsin, avvalo, bugun uchun yoziladi. Shuning uchun, istasa – istamasa, yozuvchi o'z davri muammolaridan kelib chiqadi. Asarda hozir dunyoda avj olgan qimorbozlik yoki sharobxo'rlik kabi illatlarga qarshi da'vatlar ham bor.

Tasavvuf – avvalo, ruhiyat ilmi. Inson faqat jismdangina iborat emas. Ruh esa – ko'zga ko'rinmas kuch yanglig' qudratli. Muallif: "Olomonda yuk bor, yurakka tushsa odamni o'ldiradi", deb yozganida ana shu kuchni his etgani ayonlashadi. Bu – haqiqat ushbu roman ruhiga mosdir.

XIV asrda yurtimizdan ikki buyuk zot chiqdi. Biri – Xoja Bahouddin Naqshband, ikkinchisi – Sohibqiron Amir Temur. Temur tug'ilganida Bahouddin 18 yoshda edilar. Bahouddin vafot etganlarida Amir Temur 53 yoshda edi. Temur taxtni egallaganlaridan keyin Bahouddin hazratlari 19 yil yashadilar. Tasavvufda ayni mashhur bo'lgan davrlari xuddi shu Amir Temur hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Tarixda bularning uchrashgani haqida aniq ma'lumot uchratmaymiz. Ammo Amir Temur ham Sayyid Mir Kulolning muridi bo'lgan. Bir "hampira" deyilgan. Bu ikki zot o'zaro hampira edi. Amir Temur sayyidlarni juda e'zozlagan. Bahouddin ham sayyidlardan edilar. Sohibqironning onasi buxorolik edi. Shu asoslarga ko'ra, mantiqan bu ikki ulug' zot o'zaro ko'rishgan bo'lishi mumkin.

Shu mantiqdan kelib chiqib, roman muallifi bu ikki buyuk ajdodimizni Buxoro Arkida uchrastiradi. Hazrat Bahouddin Amir Temurni qo'llab quvvatlaydi, xalqni unga ergashishga da'vat etadi. Hatto ayrim muridlarini Vatan himoyachilari, Sohibqironning sodiq lashkarlari (Bahodirbek, Dildorbegim va boshqalarni) qilib tarbiyalaydi.

To'lqin Hayit romanda Bahouddin Naqshband obrazini o'zgacha mahorat bilan yaratgan deya hech ikkilanmasdan ayta olishimiz mumkin. Muallif o'zi qalamga olayotgan shaxs, ya'ni Bahouddin Naqshband hazratlarining avliyo zot ekanliklaridan foydalanib, buyuk ustozning hayotlarini uydirma fantastik voqealar, avliyolarga xos bo'lgan karomat ko'rsatish hollari bilan to'ldirib tashlamaydi. Aksincha, hazrat Naqshbandning karomatlari-yu sehr-jodular bilan emas, balki ul zotning insoniy sifatlari, qalban buyukliklari va iymonlari butunligi bilan avliyolik darajasiga ko'taradi. Romanni o'qish davomida muallif go'yo, Bahouddin Naqshband Alloh tomondan yuqtirilgan karomatlar vajidan emas, balki insoniy sifatlari, butun, benuqson iymonlari orqali erishdilar ushbu avliyolik, daholik darajasiga degandek bo'ladi, muallif fikri tag zamirida shu ma'no, shu mazmun anglashilib turadi.

Muallif asarda Bahouddin Naqshband hayoti bilan bog'liq voqealarni, ma'lumotlarning deyarli barchasini tarixiy faktlarga tayangan holda keltiradi. Hatto Naqshband hazratlarining uchrashuvlar chog'ida

yoinki oddiy suhbatlar mahalida ham gapiradigan gaplari, o'rgatadigan o'g'itlari ham bu ilmiy manbalarda ta'kidlangan, tarixiy asarlarda keltirilgan u zotning aynan suhbatlari va aytgan gaplari, hayotlari davomida sodir bo'lgan voqealar asosiga qurilgan.

Romanda Bahouddin Naqshband xarakteridagi kamtarinlik, kamgaplik sifatlari borki, ushbu xislatlar hazrat Bahouddinning har gaplari, har bir ishlarida yaqqol ko'rinib turadi. Hazrat Bahouddin insonlarning tashqi ko'rinishi-yu, kiygan kiyimi yoinki, tutgan sulukiga qarab emas, avvalo, insonning qalbiga, suratiga emas, siyratiga qarab baho beradi. Jumladan, asarda Bahouddin Naqshbandning darveshlarni unchalik yoqtirmasligini hikoya qiluvchi o'rinlar bor. Chunki, darveshlar Alloh yo'lidamiz deydi-yu, umrini vatangadolikda, ko'cha- kuyda umrguzaronlik qilishadi. Bahouddin hazratlari esa, bu ishni yoqlamagan holda, darveshlarning ko'cha- kuyda Allohga yaqinmiz deb jar solib yurgunlaricha, biror hunar egallab, halol mehnat qilib ham Allohni dilda saqlagan holda, xalq bilan birga bo'lib, xalqning dardiga darmon bo'lgani afzalroq deb hisoblaydi.

Xoja Bahouddin Naqshbanddan Hirot shohi so'raydilar: "Sizning silsilatingiz qayerga yetadi?" Hazrat javob berdilar: "Kishi silsila birla hech yerga yetmas." Bahouddin Naqshband aytmoqchi bo'lyaptilarki, kishi ma'lum va mashhur tariqatga kirgani, so'fiyona kiyim kiygani va qo'lida tasbeh olgani bilan unda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, ya'ni agar yomon bo'lsa, yaxshi bo'lsa, shu sifatini saqlaydi. Faqatgina bu tariqat ta'limotini o'zlashtirib, unga ham zohiriy – tashqi va ham botiniy – ichki tomonidan amal qilganida, u Haqiqatga tomon yuksala boradi.

Asarda yoziladiki, Xoja Bahouddin Naqshbandda hargiz qul va cho'ri bo'lmas emish. U kishidan bu ma'noda so'rabdilar. Alar aytibdurlar: "Qachon bu bandalik xojalik birlan to'g'ri kelar!"

Bu yerda xoja Bahouddin o'zlarini Allohning irodasiga to'la bo'ysunuvchi banda ekanliklarini ta'kidlab, har bir kishi ham Allohning bandasi ekan, qanday qilib boshqa kishiga xojalik eta oladi, bandalik va xojalik bir-biriga aslo to'g'ri kelmaydi, degan fikrni ta'kidlaydi. Ya'ni har bir kishi ma'lum Xo'jayinga bo'ysunib, to'g'ri-noto'g'ri yo'llarga bormay, faqatgina Allohga bo'ysunsa, Oliy Haqiqatga erishish uchun harakat qilsa olamda halollik va poklik hukm surishini ko'rsatadi va buni haqiqiy hurlik deydi.

Odob kamolotida hazrat, ayniqsa halollikka katta e'tibor berganlar. U kishi, birinchidan, halol deganda o'z mehnati bilan topilgan luqmani tushunadilar. Shu bilan halol deb Allohdan ogoh bo'lgan chog'da pok, gunohsiz yoki toza niyat bilan tayyorlangan luqmani tushunganlar. Agar taom tayyorlashda biror kapkiri ham g'azab, karohat bilan bo'lsa ul taomni yemaganlar. Chunki norozilik, g'azab, karohat va g'aflet ila bo'lgan ishlarga shayton va havoyi nafs sherik bo'ladi. Bu

ishning va luqmaning xayru barakoti bo'lmaydi, deb aytadilar. Hazrat juda ko'p ta'kidlaganlarki, "Yaxshi fe'llar va yaxshi amallar halol luqmadandur". Bahouddin Naqshband Haqiqat yo'lidan boruvchi kishilar, albatta, halol luqmaga rioyat etishlari lozim deganlar.

Romanni o'qish davomida hazrat Naqshband obrazida nihoyatda oliyjanob inson qiyofasini o'zimiz uchun kashf etib boraveramiz. Ul zot shu qadar buyuk qalb egasi bo'lganlarki, hatto hayvonlardan ham mehr-muhabbatlarini ayamaganlar. Jumladan asarda shunday o'rin bor: "Bahouddin Naqshband hazrat Amir Kulolning uylarida hazratning suhbatlarida edilar. Hazrat Naqshband tashqari chiqib, darvozaxona oldida yog'och ustunga suykalayotgan eshakni ko'rib: "Ha, jonivor, nima arz bilan kelding?" dedi va chiroq yorug'ida uning qornidan qon oqayotganini ko'rib, bo'yin yungidan tortib, ichkari olib kirdi. Qari eshak o'ng oyog'ini zo'rg'a ko'tarib, ichkari o'tdi.

Bahouddin piltla chiroqni yoqib, eshakni hovlining ortiga olib o'tib, oyog'ini taxtachalab bog'ladi, qorniga nimadir surtdi, so'ng oldiga xashak tashlab, ortga qaytdi." Asarni o'qish davomida hazrat Naqshbandning bu kabi oliyjanob xislatlariga ko'plab o'rinlarda guvoh bo'lamiz.

Bahouddin Naqshband yo'lda yurganda ham yo'ldagi xas-xashakmi, toshmi, yantoqmi yoki biror ortiqcha narsami olib chetga qo'yar, birovlariga ziyon-zahmat yetkazmasin, qoqilib ketishmasin deb yo'llarni tozalab yurardi. Roman mutolaasi davomida muallif yuqoridagi kabi, ya'ni, hazrat Naqshbandning oddiygina yo'lda ketayotgan holatlaridagi qilgan ezgu amallarini ham ko'rsatish orqali, ushbu avliyoning bosgan qadami ham yaxshi ish, ezgu amaldan iborat ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi va bunga erishadi ham.

Bahouddin Naqshband odamlarga, hayvonlarga, o'simlik va barcha mavjudotga mehr - muhabbat va shafqat ko'zi bilan qarash natijasida ruhiy quvvati shu darajada kamolotga yetadiki, balolarni qaytara oladigan, mushkullarni oson qila oladigan bo'ladi va shuning uchun uni Balogardon nomi bilan tilga oladilar.

To'lqin Hayit Bahouddin Naqshband hazratlarining oilasi haqida ham alohida o'rinlarda so'z yuritib o'tadi. Xususan onalari Orifa bibi, otalari Muhammad Jaloliddin va mayizdekkina bo'lib qolgan Oysha buvilari haqida

ham asarda ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Hazrat Naqshband 18 yoshlarida uylanadilar va ikki farzand – bir o'g'il va bir qizlari dunyoga keladi (Ammo biz hozirgacha hazrat Naqshbandning zavjalari va farzandlarining ismlari nima bo'lganligi to'g'risida ilmiy adabiyotlarda ham, badiiy adabiyotlarda ham hech qanday ma'lumot uchratmadik). Afsuski, o'g'illari yoshligida vafot etadi. Bu vaqtda Bahouddin hazratlari Sulton Xalil xizmatida edilar va oilalaridan ancha uzoqda bo'lsalar ham farzandlarining vafotini ruhan his etadilar va farzandlari omonatini topshirish onida hazratning ruhlari o'g'illarining boshida edi, ul zot farzandlarining har bir holini his qilib turgan edilar.

Qizlarini keyinchalik o'zlarining ishonchli muridlaridan hisoblanmish Alouddin Attorga turmushga beradilar va ulardan bir o'g'il nabira dunyoga keladi.

Biz ilmiy adabiyotlarni kuzatganda ham, badiiy adabiyotlarni kuzatganda ham Bahouddin Naqshbandning oilalari haqida batafsil ma'lumotlarni uchratmaymiz. To'lqin Hayitning mazkur romanida ham hazrat Bahouddining oilalari haqida, turmushlari, ayollari, onalari haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Muallif o'z o'rnida ular to'g'risida til uchida to'xtalib o'tadi, xolos.

Hazratning eng ishonchli muridlari bu Muhammad Porso bo'lib, bir darvesh ul zotdan o'zlaridan keyin kimni o'rinbosar qilishlari haqida so'rganlarida, Bahouddin hazratlari "Kim meni ko'rmoq istasa Muhammad Porsoga boqsin" deya o'zlaridan keyingi eng ishonchli o'rinbosar sifatida Muhammad Porsoni saylaydilar.

Asar nihoyasida ham Bahouddin hazratlari behol yotgan holatlarida quyidagi so'zlarni aytib qoldiradilar: "Hijozga borayotib aytgan gapim gap, qaysi bir mo'min meni orzu qilsa, Xoja Muhammad Porsoga nazar qilsin. Bilib qo'yinglarkim, bu yo'lda menga faqirlik yordam berdi, shu tufayli bu eshikdan ichkariga oldilar. Nimaga yetgan bo'lsam, shu sifatim bilan erishdim" deya muridlariga vasiyat qoldiradi.

Ilmiy va badiiy adabiyotlar tahlili davomida shu narsaga guvoh bo'ldikki, Bahouddin Naqshband hazratlarining hayot yo'llari faqatgina ezgulik nuri, halol mehnat, qalbning esa hamisha Alloh yodi bilan bandligi asnosida kechgan, nur bilan boshlanib nur bilan nihoyalangan hayot yo'llaridan iborat bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Навоий Алишер. «Хайрат ул-аброр» // 10 жилдлик асарлар тўплами. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1991.64, 82-85-бетлар. (Навоий достонининг XXI боби Баҳоуддин Нақшбандга бағишланган.
2. Навоий Алишер. «Лисон ўт-тайр» (Қуш тили). – Т.: Фан, 1980. 128-б. (Нақшбанд ва унинг издошлари тимсоли бўлган «қуш» шайхлар образини ўз ичига олган мажозий достон)
3. Hayitov T. Bahouddin Naqshband yoxud Buroq vodiysi qissasi. –Т.:Yangi asr avlodi, 2019. 488-b.

Sevinch YUSUPOVA,
 ToshDO'TAU magistranti
 Yusupovaseva09@gmail.com

O'TKIR HOSHIMOV IJOD LABORATORIYASIGA NIGOH

Annotatsiya: ushbu maqolada adib O'tkir Hoshimov ijod laboratoriyasiga e'tibor qaratilib, asosan, adabiy suhbatlar janri negizidagi masalalar sharhlab boriladi. Adabiy suhbatlar orqali O'tkir Hoshimovning adabiyotshunos sifatidagi qirralarini ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: *adabiy suhbat, munaqqid, tanqid, obraz, obrazlar tizimi, ijodiy laboratoriya, badiiy uslub, tahlil, adabiy portret.*

Annotation: this article discusses the genre of literary conversation, its possibilities, and reflects on the creative laboratory and literary views of writer O'tkir Hoshimov through interviews conducted with him. Through these conversations, an effort is made to reveal the aspects of O'tkir Hoshimov as a literary critic.

Key words: *literary conversation, critic, criticism, image, system of images, creative laboratory, artistic style, analysis, literary portrait.*

Аннотация: в данной статье рассматривается жанр литературного интервью, его возможности, а также творческая лаборатория и литературные взгляды Уткира Хошимова на основе бесед с ним. Через интервью предпринимается попытка раскрыть стороны Откира Хошимова как литературоведа.

Ключевые слова: *литературный диалог, критик, критика, образ, система образов, творческая лаборатория, художественный стиль, анализ, литературный портрет.*

XX asrda o'zbek adabiyotshunosligi bir qator yangi janrlar bilan boyidi. Ular orasida adabiy suhbatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. "Agar adabiyotshunoslar orasida o'tgan muloqotlar ko'proq adabiy jarayon, nazariy masalalar yuzasidan bo'lsa, ijodkor va tanqidchi suhbatlari markazida o'sha ijodkorning badiiy ijod haqidagi fikrlarini yoritish ustuvorlik qiladi" [Rahmonov B., 2004].

O'tkir Hoshimov ijodiy arxivini o'rganish jarayonida ham ushbu janrning bir qator namunalariga duch keldik. Ular orasida, ayniqsa, adabiyotshunos, munaqqid bilan emas, balki adibning rafiqasi O'lmasxon aya Hoshimova tashabbusi bilan yozib olingan muloqotlar jamlanmasi o'z qiymati bilan ajralib turadi. Ushbu suhbatlar orqali O'tkir Hoshimov ijodiy laboratoriyasiga sayohat qilish, dunyoqarashi, uslubi haqida chuqurroq bilib olish mumkin. Yozuvchi sifatida allaqachon millionlar qalbini zabt etgan adabiyotshunos, adabiy jarayon jonkuyari sifatidagi qirralari ham aynan mana shu suhbatlar orqali namoyon bo'ladi. Suhbatlarning dunyoga kelish sababini O'lmasxon Hoshimova quyidagicha keltiradi: "Negadir keyingi yillarda hamkasblari, yosh ijodkorlar, ijod maydoniga endigina kirib kelayotgan yosh qalamkashlar bilan o'z ijodiy laboratoriyalari haqida suhbatlashishni, ijod jarayoni haqidagi fikrlarini bildirishni istadilar. Oilaviy jurnalist sifatida savol bersang, javob beraman deganlaridan keyingina suhbatni yoza boshladim".

Adib vafoti tufayli yakunlanmay qolgan bo'lsa-da, bu suhbatlar O'tkir Hoshimov adabiy qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy suhbatlar "Ijod va ijodkorlar", "Yozuvchi kuchlimi, asar qahramonimi?", "Qora mehnat" kabi turli nomlar ostida kelgan. Dastlabki bo'lim "Ijod va

ijodkorlar" bo'lib, undan O'tkir Hoshimovning ijod, ijod jarayoni, ijodkor badiiy uslubi haqidagi fikrlari o'rin olgan.

Adabiyot olamiga, umuman, ijodiy sohaga tegishli har bir insonda "ijod nima?" degan savolga o'z javobi bo'ladi. Masalan, mashhur ispan rassomi Pablo Pikasso: "Ijod—bu aqlni yuzaga chiqarish jarayoni" desa, britaniyalik taniqli yozuvchi Virjiniya Vulf: "Ijod — bu o'zligingni topish" deya ta'kidlaydi. Maqolamiz qahramoni esa yuqoridagi savolga shunday javob beradi: "Ijod—yuz metrlik masofada kim o'zarga yugurish emas. Ijod o'ta murakkab, o'ta mas'uliyatli, olis va mashaqqatli yo'l".

Insoniyat yaralibdiki, adabiyot bilan birga hamnafas yashab kelmoqda. O'tgan uzoq asrlar davomida millionlab shaxslar adabiyot gulshanida o'z bog'ini barpo etishga urinib kelgan. Biroq chinakam ijodkor bo'lish hammaga ham nasib etavermaydi. Bu ulug' nomga ega bo'lish uchun qanday ko'nikma yoxud sifatlar talab etilishi haqida so'z borganda O'tkir Hoshimov iste'dodni oliy o'ringa qo'yadi: "Ijodkor bo'lish uchun, avvalo, iste'dod kerak. Iste'dodni esa yolg'iz Alloh beradi. Menga qolsa ijod jarayonida qandaydir ilohiylik bor degan bo'lar edim". Bundan tashqari, yozuvchi uchun tinimsiz mehnat, hayotiy tajriba, teran bilim ham zarurligi, biroq iste'dodsiz bular kor qilmasligini ta'kidlaydi. Buni dalillash uchun Navoiyning bola chog'idayoq Lutfiyini hayratga solgani, hech qanday oliy o'quv yurti hujjatiga ega bo'lmagan Qodiriyning jahon andozalari darajasidagi birinchi o'zbek romanini yoza olgani keltiriladi.

Adabiy suhbatlar orqali ijodkor uslubidagi o'ziga xosliklar namoyon bo'ladi. Yozish jarayoni haqida gap ketar ekan, ko'p hollarda qachon va qancha yozish, yozuvchi uchun minimum va maksimumning mavjud yo yo'qligi haqida savollar o'rta tashlanadi. Akademik

adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov: "Yozuvchi har kuni hech bo'lmasa bir varaq bo'lsa ham yozmasa, qalamiga zang tushadi" [Qo'shjonov M.,2006] degan qarashni qat'iy shiorga aylantirgan bo'lsa, otaxon shoirimiz G'afur G'ulomning yozuv stoliga o'tirishi qiyin bo'lganligi Said Ahmad yozgan xotiralardan yaxshi ma'lum. O'tkir Hoshimovdan bu haqida so'ralganida esa yozuvchi har kuni yoza olmasligini, ba'zan oylab, yillab stol oldiga yaqinlasholmasligini aytadi. "Lekin, - deydi adib, - qalamkash faqat asar yozayotganida ishlaydi degan gap to'g'ri emas. Ehtimol, ijodkor asar yozmayotganda ko'proq ishlar". Bu o'rinda bo'lajak asar "xomashyo"si, ya'ni ijod kishisining doimo material yig'ish jarayonida bo'lishi, hayotiy detallardan manba yig'ib yurishi nazarda tutilmoqda. Suhbatning shu bo'limi yakunida esa yozuvchi vaqti kelib asarning o'zi odamni stolga "mixlab" qo'yishini, bunday kezlarda kecha-kunduzning farqi qolmasligini aytadi.

Hozirga qadar har qaysi avlod vakilidan bo'lmasin, o'zbek adabiyotidagi sevib mutolaa qilgan asarlari haqida so'ralsa, "Dunyoning ishlari" yoki "Ikki eshik orasi" romanini ham keltirishi tayin. Har ikki asar yozuvchining tug'ma iste'dod sohibi bo'lgani, faqat haqiqat deb bilganlarinigina yozgani tufayli xalqning yurak-yuragiga yetib borgan. Suhbatlardan birida O'tkir Hoshimovga asarlari bilan bog'liq qiziq savol beriladi. Adibni, uning ruhiy olamini yaxshi bilgan O'lmasxon aya yozuvchining o'zi qoniqmagan yoki yozilayotganda ko'ngli to'lmagan asarlari bo'lganligini hamda buning boisini bilish uchun murojaat qiladi. Natijada hatto matbuotda parchalar e'lon qilingan "Erta kuz" nomli romanning 200 betdan ortiq qo'lyozmasi O'tkir Hoshimovning o'zi tomonidan yoqib yuborilgani o'quvchiga ochiqdanadi. Romanning konsepsiyasi ham, kompozitsiyasi ham noto'g'ri tanlanganligini aytib, vaqtida undan voz kechilganligi maqbul qaror bo'lganligiga iqror bo'ladi. Bu ham yozuvchi tabiatiga xos to'g'riso'zlikni isbotlaydi. Ayni shu voqeadan so'ng o'z

ustida yanada sinchkov ijodkorning mashxur "Ikki eshik orasi" romani dunyo yuzini ko'radi. Yana bir ma'lumot sifatida aytish mumkinki, bu suhbatda O'tkir Hoshimov o'zining 60-70-yillarda yozgan hajviy hikoyalari haqida eslab, ularni saqlab qo'ymaganligidan afsuslanadi. Hajviyalarning O'. Xalilov, O'.Hamidov, O'.Bozorboyev singari turli taxalluslar bilan bosilganligini ularni topish imkoniyati yo'qligiga sabablaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Navbatdagi suhbat mavzularidan birida adibning portret yaratish mahorati haqida gap boradi. Jahon adabiyotida ham, milliy adabiyotimizda bu masala azal-azaldan aktual hisoblanadi. Yozuvchi bu masala yuzasidan kitobxonlarga yaxshi tanish bo'lgan Umar zakunchi obrazi misolida javob berishga harakat qiladi: "Umar zakunchining laqabi nega "zakunchi"? Nega Umar rais emas, Umar olifta emas, aynan "zakunchi"? Gap shundaki, u – sho'ro zamonidagi mansabdorlar timsoli. Sho'ro davlatida esa "zakun" (qonun) inson huquqini himoya qilishdan ko'ra ko'proq odamlarni jazolashga xizmat qilgan". Shu tariqa Umar zimmasiga butun Sho'ro siyosiy vakillarining umumiy obrazini ochish yuklatilganligi ma'lum bo'ladi.

Xulosa. Umuman, O'tkir Hoshimov ijodi haqida, uning adabiy mahorati haqida tinimsiz gapirish, misollar keltirish mumkin. Bu adib muxlislari tomonidan ham, adabiyotshunoslar tomonidan ham o'z isbotini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi: "O'tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib. Uning baxti shundaki, u adabiyotga kirib kelganidan beri ijodida g'irromlik va mo'ltonilik yo'lidan yurmadi, vijdoniga xiyonat qilmadi, iste'dodini shaxsiy manfaatlariga qurbon qilmadi [Sharafiddinov O., 2001].

Yuqorida aytib o'tilganidek, adabiy suhbat janrining imkoniyatlari keng. O'tkir Hoshimov bilan bo'lgan namunalar esa ijodkor merosini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi, ularning oz miqdori ham adibning ijodiy mahorati, badiiy uslubi, adabiy jarayonga oid ko'plab fikrlaridan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Rahmonov. O'zbek adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Matyoqub Qo'shjonov. Ko'ngilda qolib ketgan gaplar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
5. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim.– Toshkent: Sharq,2000.

Saytlar

<https://kh-davron.uz>

<https://www.ziyouz.com>

<https://www.samdu.uz>

<http://yoshlikjurnali.uz>

Asila VAHOBOVA,
 Qarshi davlat universiteti magistranti

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA TAQDIR MOTIVI

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sulton hikoyalarida taqdir motivining o'zni tahlil qilinadi. Taqdir, tush va qismat tushunchalarining badiiy ifodasi, ularning syujet rivojidadagi ahamiyati hamda xalq og'zaki ijodi – folklor bilan bog'liqligi yoritilgan

Kalit so'zlar: *motiv, tush, qismat, folklor, taqdir, asar syujeti.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль мотива судьбы в рассказах писателя Исаджона Султана. Рассматриваются художественное воплощение понятий судьбы, сна и рока, их значение в развитии сюжета, а также связь с народным устным творчеством – фольклором.

Ключевые слова: *мотив, сон, судьба, фольклор, рок, сюжет произведения.*

Annotation: this article analyzes the role of the fate motif in the stories of the writer Isajon Sulton. It discusses the artistic expression of the concepts of fate, dreams, and destiny, their significance in the development of the plot, and their connection with folk oral creativity – folklore.

Key words: *motif, dream, fate, folklore, destiny, plot of the work.*

Kirish. Adabiyotga “Oydinbuloq” nomli hikoyasi bilan kirib kelgan Isajon Sulton kitobxonlar va adabiyotchilar tomonidan iliq fikrlar bilan kutib olindi. Xususan, yozuvchi va adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam ijodkor haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “...Ulug' ijod yo'li o'ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo'jazgina kitobchasi – “Oydinbuloq” bilan ko'zga tashlanib, adabiy davralarni o'ziga bir qarab olgach hayot deb atalgan tush va cheksiz teranliklarga sho'ng'ib ketgan bo'yi 2010-yilda qator hikoyalar va romanlari bilan u ummondan bosh ko'targan ijodkoridir”. Isajon Sulton adabiyotda o'ziga xos uslubga ega yozuvchilardan. Asarlarida folklor namunalari, xalq rivoyatlari, asotir va mifologik motivlardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Isajon Sultonning ko'plab asarlarida taqdir motivining o'ziga xos o'ringa ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, ijodkorning o'zi ham taqdirga ishonadi, unga in'om etilgan yozuvchilik iste'dodini ham taqdir, qismat deya ta'kidlaydi. Yozuvchining “Qismat”, “Bog'i Eram”, “Yangi yil kechasi” kabi hikoyalarida taqdir motivining asar syujeti bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasi 2011-yilda AQSH ning Chikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabiy konkursda g'oliblikni qo'lga kiritgan. Hikoya ota qarg'ishiga uchragan farzandning taqdiridan so'z yuritadi. Asar voqealari kichik o'g'il, katta o'g'il, o'rtancha o'g'il, kampir va ota tilidan hikoya qilinadi. O'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Kichik o'g'il sof va beg'ubor tuyg'ularga to'la bo'lib, hali kirlanmagan qalbida baliq yaxshilik va erkinlikning timsoli edi. Kichik o'g'il o'y-fikrlari, ichki dunyosi bilan qaysidir ma'noda kitobxoniga Ch. Aytmatovning “Oq kema” asaridagi bola obrazini eslatadi. Doimiy janjallar, bobosi Mo'min cholning haqoratlanishi, xolasining farzandsizligidan azoblanishini ko'rib ulg'ayayotgan bola uchun oq kema ozodlik, tinchlik, orzularga erishish timsoli bo'lsa, ota mehri to'ymagan, og'ir mehnatda, yo'qchilikda o'sgan

kichik o'g'il uchun baliq xayolot, beg'ubor, tashvishsiz bolalik simvolidir. Kichik farzandning zovurdagi hech kim bilmagan baliqning tutib pishirilish tasvirlari “Oq kema” qissasidagi Ona Bug'uning O'rozqul tomonidan so'yilganidan xabardor bo'lgan bolaning psixologik holatini yodga soladi.

Hikoyada taqdir va folklor asarlarida o'z o'rniga ega bo'lgan tush motivi asar syujeti bilan chambarchas bog'langan. O'rtancha o'g'ilning tushida bir chol otasining baliq bo'lib ularning yoniga kelishi, pishirib onasiga berishsa, tuzalishini aytadi. Shuningdek, asarda mifologiyada mavjud bo'lgan insonning vafot etganidan so'ng boshqa mavjudotlar timsolida yashashi tushunchasiga ham duch kelamiz.

Uch o'g'ilning otasiga nisbatan qarashlari, hislarining ham farqli ekanligi har bir farzand nutqi orqali aks ettirilgan. Kichik o'g'il otasini eslolmaydi, yoshligida vafot etgani uchun ota mehri tushunchalaridan yot, uning o'ziga xos olami bor. O'rtancha o'g'il uchun ota suyanch, viqor. Ammo onasining tuzalishi uchun baliqni pishirishga ham tayyor. Uning otasiga bo'lgan mehri akasining miltiq o'qlab tepkini bosgandagi ruhiy holati va o'choq boshida ingranib: “Ota... Otajon” deya yig'lashida aks etadi. Katta o'g'ilning otasiga nisbatan tuyg'ulari ukalarinikidan farqli. “...Ana endi qozonda jizillab kuyyapsan, ota. Do'zaxda shunaqa kuyishingni orzu qilgan edim. Xudoi taolo shunga belgi qilib seni jo'natdi, jo'natgandayam olovda qovuriladigan qilib jo'natdi. Katta o'g'ilning ichki monologi uning ruhiy-psixologik dunyosini va uning evrilishlarini ochib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, Isajon Sulton asarlarida duo va qarg'ishlar ham asosiy o'rin egallagan bo'lib, hikoyada yanglish xatosi tufayli “Qamishdek qurigin iloyo” deya badduoga uchragan farzand qismatining ayanchli tasvirlari kampir tilidan hikoya qilinadi. Birgina o'ylanmasdan bosilgan qadam bir inson taqdirining tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu esa uning farzandlari, oilasi hayotiga ham daxl qiladi.

Bir-biriga mazmunan bog'langan uch hikoyadan iborat bo'lgan "Bog'i Eram" hikoyasida inson umrining nechog'liq qisqa ekanligi, yashamoq degan bir eshikdan kirib, o'lim deb ataluvchi ikkinchi eshik tomon odimlashini, umr so'qmoqlaridagi har bir onning odamzot uchun saboq ekanligini ko'rsatgan. "Qismat daraxti" deb ataluvchi birinchi hikoyada voqealar roviy bola tomonidan hikoya qilinadi. Asar syujeti xotira motivi bilan uzviy bog'langan bo'lib, voqealar bosh qahramonning bolalik xotiralarini yodga olishi bilan boshlanadi. Afsona va asotirlarda tilga olingan Eram Bog'iga tushib qolgan bola yaqinlari va o'z taqdiridan bog'ga qilgan safarlari davomida voqif bo'ladi. Bobil saltanati davrida bunyod etilgan afsonaviy Bog'i Eramni ramziy tarzda umr bog'i, undagi daraxtlarni esa taqdir daraxti deya ifodalangan yozuvchi roviyning bog'ga ilk qadam qo'yganida yosh bola, ikkinchi daf'a o'rta yoshli, uchinchisida ancha keksaygan, to'rtinchi marotaba esa qari chol ko'rinishida bo'lishi, shu bilan birgalikda bog' darvozasidagi darbonning ham avval bolakay, keyin qop-qora soch-soqolli yosh, uchinchi kez soch-soqoli oqargan, to'rtinchi marotaba qartaygan holda tasvirlash orqali inson hayotining turli davrlarini aks ettiradi. Bog'ga har safar kirganida hikoyachi-roviy bir insonning bu hayotdan ko'z yumganligini qismat daraxtining barglarida bitilgan xabar orqali o'rganadi. Umrni bog', undagi daraxtlarni insonlar, inson taqdiri, barglar uzilishi, xazonlarni umrning tugashi, bog'ning qahraton, sovuq kimsasiz bo'lishini keksalik chog'lariga qiyoslab tasvirlash, she'riyatda ham, nasrda ham an'anaviy usul hisoblanib, Isajon Sulton bundan mahorat bilan foydalangan.

Taqdir masalasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy falsafiy muammolaridan biridir. Ba'zi kishilar inson hayot yo'li oldindan belgilangan, u esa shunchaki o'sha yo'ldan yuruvchi bir mavjudot, deb hisoblaydi. Boshqalar esa taqdirni insonning o'z qo'lida – u qilgan amallar, tanlagan yo'llar va ichki qarorlarining natijasi sifatida talqin etadi. Adabiyotda bu ikki qarash o'rtasidagi ichki ziddiyat ko'plab yozuvchilar uchun badiiy izlanish manbai bo'lib kelgan. Isajon Sultonning "Yangi yil kechasi" hikoyasida taqdir motivi aynan mana shu falsafiy ikkiyoqlamalikni

ochib beradi. Asar markazida turgan Iste'dod obrazi insonning taqdirni ilg'ay bilish, hayot hodisalari ortidagi yashirin bog'lanishlarni sezish qobiliyatini ramziy tarzda ifodalaydi. U o'zini "odamlarning o'y-fikrlarini sezuvchi, voqealarning aql bovar qilmas bog'lanishlarini anglay oluvchi" shaxs sifatida tanishtiradi. Yozuvchi bu obraz orqali inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga, ruhiy sezgirlik va bashorat qobiliyatiga urg'u beradi.

Iste'dodning "Qarab turing, hozir chiroq o'chadi, lekin sal o'tmay yana yonadi. Hayot chirog'i ham qoq yarim kechasi to'satdan o'chib qolishi mumkin," degan so'zlari hayotning beqarorligi, inson umrining kutilmagan yakun topishi mumkinligi haqidagi falsafiy mushohadadir. Darbon obrazi esa real hayotdagi oddiy insonlarning timsoli bo'lib, uning qo'rquv, hayrat va ishonchsizlik holatlari orqali insonning o'z qismatini anglashdagi ruhiy kechinmalari yoritiladi. Iste'dod va darbon o'rtasidagi muloqot ikki dunyo – ruhiy va moddiy, sezgi va aql, taqdir va tanlov o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi.

Voqealarning aynan Yangi yil kechasida ro'y berishi ham chuqur ramziy ma'noga ega. Bu pallada eski yilning yakuni va yangi hayotning boshlanishi bir nuqtada tutashadi. Demak, Isajon Sulton taqdirni o'zgarish, yangilanish, hayot aylanishining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. Yozuvchining "Yangi yil kechasi" hikoyasida makonning mavhumligi, ammo zamonning aniq belgilanganligi kuzatiladi. Bu usul muallifga insoniy taqdirni umumiy, zamon va hududdan xoli holda ko'rsatish imkonini beradi. Shu orqali Isajon Sulton inson taqdirini milliy chegaralardan tashqarida – umuminsoniy, abadiy qadriyatlar darajasida ko'rsatadi.

Xulosa. Isajon Sulton ijodida taqdir motivi inson hayotining ma'naviy va ruhiy qatlamlarini yorituvchi asosiy badiiy unsurlardan biridir. Uning hikoyalarida qismat tushunchasi insonning ichki kechinmalari, hayot sinovlari va irodaviy qarorlari bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Yozuvchi taqdirni ko'r-ko'rona kuch sifatida emas, balki inson tanlovi, vijdoni va mas'uliyatini sinovdan o'tkazuvchi ma'naviy mezon tarzida tasvirlaydi. Muallif asarlarida taqdir motivi hayotiy haqiqat va badiiy mushohada uyg'unligining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov.D. H Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: "Noshir", 2020.
2. Quronov. D. H va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti, 2010.
3. Musaffo bolalikning orzumand xayollari. Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017.
4. Qurbonova.F.A Isajon Sulton hikoyalarida mifologik obrazlarning qo'llanilishi. – Qo'qon, 2022-yil, 183-189-b.
5. Qurbonova.F Isajon Sulton hikoyalarida sharqona rivoyatlar talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2023. №3. 91– 95-b.
6. Sulton Isajon. Asarlar. Hikoyalar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2017.

Sevara XUSANOVA,
Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti
Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti
Email.sevara2023@mail.ru

O'ZBEK MODERN ADABIYOTIDA EKZISTENSIALLIK: NAZAR ESHONQUL IJODI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek modern adabiyotida ekzistensializm badiiy tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul ijodida insonning mavjudlik, begonalashuv muammolari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *ekzistensializm, modernizm, o'zbek adabiyoti, Nazar Eshonqul, begonalashuv.*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of existentialism in modern Uzbek literature. The work of Nazar Eshonkul explores the problems of human existence and alienation.

Key words: *existentialism, modernism, Uzbek literature, Nazar Eshonkul, alienation.*

Аннотация: в статье анализируется художественная интерпретация экзистенциализма в современной узбекской литературе. Творчество Назара Эшонкула исследует проблемы человеческого существования и отчуждения.

Ключевые слова: *экзистенциализм, модернизм, узбекская литература, Назар Эшонкул, отчуждение.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o'zbek adabiyotida yangicha badiiy-falsafiy oqimlar shakllana boshladi. Ulardan biri – ekzistensializm ruhidagi izlanishlardir. Ekzistensializm G'arb falsafasida insonning mavjudlik, erkinlik, yolg'izlik, begonalik va absurdlik kabi muammolarini markazga qo'yadi. O'zbek modern adabiyotida bu kayfiyat eng avvalo Nazar Eshonqul ijodida kuchli aks etgan.

Ekzistensializmning G'arbdagi asosiy mohiyati insonning ma'no izlashdagi iztiroblarini ko'rsatishdir. O'zbek adabiyotida bu g'oya milliy tarix, ruhiyat va ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashgan holda ifoda etiladi. Mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda adabiyotda insonning yolg'izligi, bo'shliq, ruhiy zulmat motivlari kuchaydi.

Nazar Eshonqul hikoya, qissa va romanlari orqali insonning ruhiy iztiroblarini badiiy ramzlarda ochib beradi. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida hayot ramzi sifatida shamol obrazi olinadi. Shamol – o'tkinchi hayotning timsoli.

Shamol – harakatchan, tutib bo'lmaydi, ko'zga ko'rinmaydi, lekin ta'siri seziladi. Bu, ramziy ma'noda, hayotning o'ziga o'xshaydi: inson uni to'liq anglab, egallab ololmaydi.

Shamolni qo'l bilan ushlab bo'lmagani kabi, vaqtni ham to'xtatib, hayotni mahkam tutib bo'lmaydi. Hikoya davomida keltirilgan syujet elementlari, holatlar va voqealar orqali muallif hayotning o'tkinchiligi, inson orzularining beqarorligi, intilish bilan haqiqat o'rtasidagi farqi ko'rsatadi. Qahramonlar istagan narsasiga erisha olmaydi, yoki erishsa ham, bu kutilgan baxtni bermaydi – bu ham hayotning mohiyatiga bir ishora. Nazar Eshonqul

o'z asarida insonning o'zligini yo'qotishi, ma'naviy pasayishi va hayotidagi absurd holatlarni chuqur tahlil qiladi. "Maymun yetaklagan odam" iborasi insonning hayvoniy ildizlari, tabiati va undan boshqarilishi orqali uning tubanlashuvini ifodalaydi. Asarda absurdlik – insonning hayotdagi ma'no va maqsadni topishda duch keladigan mutlaq mantiqsizlik va tushunarsizlik holati sifatida yoritiladi.

Inson o'zini boshqarolmaydi, hayvoniy instinktlar uni boshqaradi, natijada hayotdagi harakatlar mantiqsiz, bema'noga aylanadi.

Nazar Eshonqul absurdni insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi ziddiyat, ijtimoiy tizim va shaxsiy erkinliklarning mos kelmasligi sifatida ko'radi. Inson tabiati va jamiyat o'rtasidagi kurash – asarning markaziy mavzusi.

Maymun – insonning hayvoniy ildizi, uning ichki "tuban" qismi.

Yetaklanish – insonning o'ziga emas, balki hayvoniy yoki tashqi kuchlarga bo'ysunishi. Nazar Eshonqul asarda insonning o'zligini tiklash uchun ongli harakatlar va ma'naviy uyg'unish zarurligini ta'kidlaydi.

Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" asari inson hayoti, ayniqsa urush sharoitida insonning ma'nosizligi, hayot va o'lim o'rtasidagi noaniqlik va beqarorlik haqida chuqur fikrlar bildiradi. Ushbu asarda muallif urushning odamlar hayotiga qanday ta'sir qilishini, inson ruhiy holatini, uning ichki kurashlari va ma'nosizlik tuyg'usini tasvirlaydi.

Asar mazmuni haqida: urushning dahshatlari va inson hayoti: Urush odamlarni faqat jismoniy emas, balki ma'naviy jihatdan ham yo'q qiladi. Har bir urush

ishtirokchisi hayot va o'lim o'rtasida qoladi, uning hayoti noaniq, beqaror bo'ladi.

Insonning ma'nosizligi: urush sharoitida inson hayotining ma'nosi yo'qoladi, odam o'zining qiymatini, qadrini tushunmay qoladi. Harakatlar va voqealar ko'pincha mantiqsiz va tasodifiy ko'rinadi, bu esa insonni ruhiy tushkunlikka soladi.

Hayot va o'lim chegarasidagi inson: muallif insonning bu noaniq holatini, o'lim bilan yuzma-yuz kelgan paytda ichki kurashlarini tasvirlaydi. Urushda har bir lahza o'lim xavfi bilan to'la, bu esa odamning ruhiy holatini murakkablashtiradi.

Insoniylik va adolat iztirobi: shu bilan birga, asarda insoniylik, mehr-oqibat va adolatga bo'lgan intilishlar ham ko'rsatilib, urushning inson ruhiyatiga qanday salbiy ta'sir qilishiga e'tibor qaratiladi.

Eshonqul qahramonlari ko'pincha tashqi jamiyatda mavjud bo'lsa-da, ichki dunyoda o'zini bo'shliq va begonalik ichida his qiladi. Bu – ekzistensializmning markaziy g'oyalaridan biri. Masalan, qahramon ko'pincha atrofidagi odamlardan ajralib, ichki suhbatda yashaydi, o'zining "men"ini qidiradi.

Uning hikoyalarida vaqtning sirli va shafqatsiz oqimi inson ruhiyatiga bosim o'tkazadi. Qahramon kechagi va bugungi kunni bog'lay olmaydi, o'zini vaqt girdobida yo'qolib ketayotgandek sezadi. Bu jihat Kafka yoki Sartarning "vaqt va mavjudlik" masalalariga juda yaqin.

Eshonqul qahramonlari hayotning tayin bir ma'nosi bormi, yo'qmi, degan savolga javob topolmay qiynaladi. Ba'zan ularda dunyoni qabul qilmaslik, hatto mavjudlikdan bezish kayfiyati kuchli. Lekin yozuvchi buni to'g'ridan to'g'ri emas, balki oddiy voqealar – odamlarning sukunati, yo'qotish, kutilmagan hodisalar orqali ifodalaydi.

Qahramon erkin bo'lishni xohlaydi, biroq erkinlik unga qo'rquv olib keladi. Chunki erkinlik tanlovni, tanlov esa javobgarlikni talab qiladi. Shu jihatdan Nazar Eshonqul ijodida ekzistensial "erkinlikdan qo'rquv" (Kierkegaard ta'riflaganidek) ochiladi.

Ko'p hikoyalarda sukut oddiy jimlik emas, balki falsafiy yuklangan hodisa sifatida chiqadi. Qahramon gapirmasa ham, uning ichida davom etayotgan dialog mavjud. Bu dialog – mavjudlik va ma'no izlashning ramzi.

Ekzistensializmda o'lim insonning eng muhim tajribasi sanaladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida ham qahramonlar o'limni qo'rqinch emas, balki mavjudlikning tabiiy va hal qiluvchi chegarasi sifatida his qiladi. Shu orqali ular o'zini va hayotini qaytadan baholashga majbur bo'ladi.

Xulosa. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" asari urush sharoitida inson hayoti va ma'nosizligi haqidagi falsafiy fikrlarni yoritadi. Urush odamlari hayot va o'lim o'rtasida notinch qiladi, insonning mavjudligi, qadri va ma'nosini savol ostiga qo'yadi. Shu tariqa, asar hayotning qadrini anglash va tinchlikka intilish zarurligini ta'kidlaydi.

Nazar Eshonqul ijodi o'zbek adabiyotida ekzistensializm g'oyalarining eng yorqin, milliy ruh bilan uyg'unlashgan namunasidir. Uning asarlarida insonning o'zligini anglash, hayot ma'nosini izlash, ichki iztirob va ruhiy bo'shliq kabi falsafiy masalalar chuqur badiiy tahlil etiladi. Yozuvchi hayotni shamol, maymun va urush kabi ramzlar orqali talqin etib, insonning hayotdagi o'tkinchiligi, orzularining beqarorligi hamda ma'nosizlik qarshisidagi iztiroblarini yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyotida yangilanish jarayonlari. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Qo'chqorov A. O'zbek adabiyotida modernizm unsurlari. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
3. Nazar Eshonqul. Tun panjaralari. – Toshkent: Sharq, 2000.
4. Nazar Eshonqul. Shamolni tutib bo'lmaydi. – Toshkent: Adabiyot, 2010.

Yulduz RO'ZIYEVA,
 magistr
yruziyeva80@gmail.com



QAHRAMONLAR RUHIY DUNYOSINI TASVIRLASHDA DIALOGNING O'RNI (LUQMON BO'RIXONNING "SINOV MUDDATI" HIKOYASI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada Luqmon Bo'rixonning "Sinov muddati" hikoyasidagi psixologizmning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bosh qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilish jarayonidagi psixologik holatlari yoritiladi. Muallifning qahramon tafakkuri va ruhiyatidagi ichki kurashlarni tasvirlash mahorati ko'rsatiladi. Bundan tashqari, hikoyada psixologik tasvir vositalari: ichki monolog, ruhiy tahlil va obraz ongidagi qarama-qarshiliklar orqali psixologizmning badiiy funksiyasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *badiiy psixologizm, badiiy nutq, dialog, konflikt, ruhiy kechinma.*

Annotation: this article analyzes the artistic expression of psychologism in Lukmon Borikhon's short story "Trial Period". It also highlights the protagonist's inner experiences, psychological sufferings, and mental states during decision-making processes. The author's skill in depicting the hero's thought process and internal struggles is demonstrated. Furthermore, the artistic function of psychologism is revealed through psychological narrative techniques such as inner monologue, mental analysis, and conflicts within the character's consciousness.

Key words: *artistic psychologism, artistic speech, dialogue, conflict, psychological experience.*

Аннотация: в статье анализируется художественное проявление психологизма в рассказе Лукмона Борихона «Испытательный срок». Особое внимание уделяется внутренним переживаниям главного героя, его психологическим страданиям и душевным состояниям в процессе принятия решений. Демонстрируется мастерство автора в изображении мыслительного процесса и внутренних конфликтов героя. Кроме того, художественная функция психологизма раскрывается через психологические повествовательные приемы, такие как внутренний монолог, психический анализ и конфликты в сознании персонажа.

Ключевые слова: *художественный психологизм, художественная речь, диалог, конфликт, психологический опыт*

Adabiyotshunos Bahodir Karim ta'kidlaganidek, so'z san'ati inson ruhiyati bilan ish ko'rar ekan, ruhiyatni ampermetr, barometr, atsellograf, kardiograf, analizator, aeromagnetometr kabi fizik asbob-uskuna bilan o'lchab ham, har lahzada ming tovlanadigan inson ruhiyatini aniq bir matematik formulalarga solib ham bo'lmaydi¹.

Luqmon Bo'rixonning "Sinov muddati" hikoyasida ikki do'st – Sobir va Jasur xarakterlari yoritiladi. Bir-biridan yer bilan osmonchalik farq qiladigan bu ikki qahramonning do'stligiga muallif "qalin" sifatini beradi. Odatda, xarakterlari, qiziqishlari va gap-so'zlari bir xil yoki o'xshash insonlar do'stlik va o'rtoqlik rishtalari bilan bog'lanadilar. Ammo yozuvchi ushbu asarida hamishagidek noodatiy yondashuvdan foydalanadi. Ya'ni "xiyla mahmadona" Jasur va "anchayin og'ir-vazmin" Sobir qalin oshnalar sifatida tasvirlanadi. Luqmon Bo'rixon buning sababini quyidagi jumla orqali ifodalaydi: "Hechqisi yo'q, – deya hazillashardi adabiyot muallimi, – ikkovlashib bir-butun odam bo'lasizlar"².

Hikoya bevosita Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman bo'limiga ishga kirish uchun suhbatdan o'tgan

¹ Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 5.-6.

² Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. – Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош тахририяти, 2007.228-б.

Jasurning qichqirig'i va quvonchdan yal-yal yashnashi, mahalladoshi hamda sinfdoshi do'sti bo'lgan Sobirning uni qutlashi bilan boshlanadi. Keyin muallif ikkala qahramonining ham zohiriy, ham botiniy dunyosini chizish orqali kitobxonga Jasur bilan Sobir xarakterlari orasidagi farqlar va ularni bir-biridan uzoqlashtirgan sabablarni ko'rsatadi.

Luqmon Bo'rixon bosiq va xayolchan Sobir obrazi orqali sinovlar girdobida qolgan yigit siymosini gavdalanitiradi. U maktabni tugatgach, oliy o'quv yurtiga kirishga urinadi, biroq ancha bilimli bo'lishiga qaramasdan ketma-ket ikki yil imtihonlardan yiqiladi. Harbiy xizmatga borishga chog'langanida esa tibbiy ko'rikda sog'lig'ida muammolar aniqlanib, bu rejasi ham amalga oshmaydi. Bunday muvaffaqiyatsizliklar Sobirning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada o'zini bu hayotda ortiqcha his qila boshlaydi. Shunga qaramay, ich-ichidan ezgu ishlar qilishni istashi uni qayta oyoqqa turg'azadi: mutolaaga berilib, tomorqada ishlay boshlaydi, o'zini foydali inson kabi his qilishga intiladi. Bu tasvirlar orqali shuni anglashimiz mumkinki, muallif hayot sinovlarga sabri bilan javob berayotgan qahramoniga "Sobir" ismini bejiz bermaydi.

Jasur esa bolalikdan mahmadona va harakatchan yigit sifatida gavdalanadi. Maktabni amal-taqal tugatgani uchun do'stidan farqli ravishda o'zini savdo ishiga uradi va

epchil bo'lgani uchun bu sohada muvaffaqiyat qozonadi. Keyinchalik harbiy xizmatga borib, katta qo'mondon bo'lishni orzu qiladi, biroq muddati tugagach, imi-jimida qaytib keladi. Bu muvaffaqiyatsizliklar uning ruhiyatida iz qoldiradi, lekin tezda yangi imkoniyatlarni izlashga kirishadi. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman bo'limiga ishga kirishga qaror qilishi ham uning harakatchan va qiziquvchan ekanidan dalolat beradi. Lekin ushbu tasvirlarga qaramay, o'quvchi "oshig'i olchi" Jasurga emas, "g'irt omadsiz" Sobirga xayrixoh nigoh bilan boqadi. Harbiy xizmatga ketishidan oldin "O'sha yoqda qolib, katta qo'mondon bo'lib ketaman", deb maqtanganidan, ammo harbiy xizmat tugaganidan keyin imi-jimida qaytib kelgani, do'stlarining esa "Nega qolmading, maqtanishing boshqacha edi-ku!" deya so'ramaganliklari ham Jasurning o'rtoqlari quruq maqtanib gapirishini bilishidan dalolatdir³.

Harbiy xizmatdan qaytgach, ikki oy davomida yallo qilib yurgan Jasur do'sti bilan bir kuni tuman markazidagi klubga kinoga tushishadi. Cho'kayotgan kemani qutqarishga shaylangan jangovar qism a'zolarining jasoratidan ikki o'rtoq qattiq hayajonga tushadilar. Hatto ko'cha kezish chog'idagi film taassurotlariga bag'ishlangan suhbatlar ham hayajonlarini bosishga yordam bermaydi. Ammo Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman bo'limiga ishga taklif qilish haqidagi e'longa tuyqus ko'zi tushib qolgan Sobir o'rtog'ini yangi xizmatga kirishga chorlaydi. Do'stiga doimo havas ko'zi bilan qaraydigan yigitning ochiqko'ngilligi va samimiyligi quyidagi dialogda o'z isbotini topgan:

– Nimalarni yozibdi? – deb betoqat so'radi Jasur, chars-churs pista chaqarkan.

– Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman bo'limi xizmatga taklif etibdi.

– Yo'g'-e?!

– Ha... agar xohlasang seni olishsa kerak, shartlariga kakraz to'g'ri kelasan. Harbiyda bo'lgansan, qaddi-qomating ham zo'r⁴.

Ikki o'rtoqning xizmatga mas'ul kishi bilan suhbatlashayotgan payti yozuvchi Jasur timsoli orqali omadsiz oshnasiga past nazar bilan qaraydigan "do'st" markazini namoyon qiladi: "Ertasi kuni ikkovlon tag'in tuman markazida paydo bo'lishdi. Jasur tegishli joyga hujjatlarini topshirdi.

– Siz-chi, siz xizmatga kirishni xohlamaysizmi? – deb so'radi Sobirdan kul rang mundir kiygan, baland bo'yli,

3 Sadullayeva M. Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarda badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Urganch, 2023. 48-bet.

4 Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. – Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош тахририяти, 2007. – Б. 229.

do'ngpeshona kishi.

Sobir yelka qisib, yerga qaradi.

– Shartlaringizga to'g'ri kelmayman.

– Armiyaga bormagan, sal-pal sog'ligi chatoqroq, shosha-pisha qo'shib qo'ydi Jasur ham⁵. Xodimning ikki o'rtoqqa hayratlanib boqishidan ham bilishimiz mumkinki, ikki o'rtoq orasidagi do'stlik "to'ri" darz ketishni boshlagandi.

Gapga chechan Jasurning suhbat chog'i so'zlari hatto mas'ullarni angraytib qo'yadi. Natijada uni oylik sinov muddati asosida ishga qabul qilishadi. Ammo tepakal xodimning undan "chiroyli gaplarning yarimginasini amalda ko'rsatsa ham, tuzuk xizmatchi chiqishi"ni ta'kidlashida yigit xarakteriga xos yana bir xususiyatning namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ikki do'st qishloqqa qaytayotganlarida mashina avtohalokatiga guvoh bo'ladilar. Qo'rquvini birinchi yenggan Sobir darhol yordamga oshiqadi. Ammo Jasur "hash-pash deguncha shom qorong'isiga qorishib ko'zdan yo'qoladi". Ayni shu lahzada yozuvchi birinchi marta hayotning muhim sinoviga duch kelgan yigit botinida yashirin qo'rquqlik va xudbinlik kabi illatlarni oshkor qiladi. Yakunda o'quvchilar avtohalokatga uchraganlar orasida o'z otasining ham borligidan xabar topgan Jasurning ayanchli ahvoliga guvoh bo'ladilar: "Hang-u mang qotgan Jasurning bo'g'zidan arang shu sas chiqdi. U ko'z o'ngi qorong'ilashib devorga yelka tirab turib qoldi"⁶.

Sinovlar qozonida qaynagan Sobir esa taqdirning navbatdagi imtihoni qarshisida dovdirab qolmaydi. Chunki o'sha paytda u o'zining kerakli shaxs ekanligini anglaydi va halokatga uchraganlarni qutqarishga shoshiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu holatga o'xshash favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish, aslida, Sobirga emas, Jasurga tegishli emasmi? Axir u o'zini "qutqaruvchi" maqomiga loyiq shaxs sifatida ta'riflagan edi-ku... Hikoya mutolaasini tugatgan har bir kitobxon ongida shu kabi minglab savollar tug'ilishi tabiiy. Lekin ular uchun umumiy javob shundan iboratki, insonning qandayligi uning tilidan emas, amalidan bilinadi. Ikki do'stning farqlaydigan jihat ham aynan shu fikrda namoyon desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Umuman olganda, "Sinov muddati" hikoyasida qahramonlarning ruhiyati orqali insonning hayotiy sinovlarga munosabati, ichki kechinmalari va o'zini topish yo'lidagi izlanishlari mahorat bilan tasvirlangan. Muallif inson psixologik olamining nozik jihatlarini ochib berib, o'quvchini qahramonlar bilan birga hayajonlanishga, ularning ichki dunyosini anglashga undaydi.

5 Shu manba: B. 229.

6 Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. – Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош тахририяти, 2007. 231- б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiy turlar va janrlar. – T.: Fan, 1991.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.
3. Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. – T.: "Шарқ" НМАК Бош тахририяти, 2007.
4. Карим Б. Рухият алифбоси. – T.: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – M.: Питер, 2000.
7. Sadullayeva M. Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarda badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – U., 2023.

Dildoraxon IBROXIMOVA,
 Namangan davlat pedagogika instituti
 Filologiya fakulteti 2- bosqich magistranti
 ibroximovadildoraxon@.com



LIRIK ASARLARNI TADQIQOT METODI ASOSIDA O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARDA OBRAZLI TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH. HAMZA IMOMBERDIYEV ASARLARI MISOLIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada lirik asardagi obraz, syujet haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilarda obrazli tafakkurni shakllantirish va lirik asarlarni tadqiqot metodi yordamida tahlil qilish haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: lirik obraz tushunchasi, lirik asardagi syujet, analitik metod, struktur-sematik metod, psixologik metod.

Аннотация: в данной статье представлена информация об образе и сюжете в лирическом произведении. Рассматриваются вопросы формирования образного мышления у учащихся и анализа лирических произведений с помощью исследовательского метода.

Ключевые слова: лирический образ, понятие лирики, сюжет лирического произведения, аналитический метод, структурно-семантический метод, психологический метод.

Annotation: this article provides information about the image and plot in lyrical works. It discusses the development of figurative thinking among students and the analysis of lyrical works using the research method.

Key words: lyric image, concept of lyricism, plot of a lyrical work, analytical method, structural-semantic method, psychological method.

Inson yaralibdiki, u bilan tengma- teng she'riyat ham paydo bo'lgan. She'riyat insonga go'daklik paytlardayoq ong-u shuuriga alla orqali singadi. Shuning uchun ham lirik asarlar mutolaasi inson psixologiyasiga o'zgacha ta'sir qiladi. Lekin taraqqiyot jadal odimlab borar ekan, ijtimoiy hayotda lirik asarlarga bo'lgan qiziqish birozgina pasaygan. Kitobxonlarning e'tiborini ko'proq publitsistik, badiiy asarlar jalb etmoqda. Ammo o'quvchi badiiyatdan qanchalik huzurlansa, she'riyatdan ham undan qolishmagan holda zavqlanadi. Badiiy asarda bo'lgani kabi lirikada ham obraz, syujet, kompozitsiya kabi tushunchalar mavjud.

Obraz va syujet uyg'unligi. Lirik obraz – she'rda shoirning ichki hissiyotlari, ruhiy kechinmalarini gavdalanitirib beruvchi obrazdir. She'rdagi lirik obraz misolini bolalar adabiyotining yorqin vakili Hamza Imomberdiyev asarlari orqali ko'rib chiqamiz. Shoirning she'rlarida obraz timsolini yaqqol ko'rishimiz mumkin. 5-sinflar uchun mo'ljallangan adabiyot darsligiga uning "Ohu", "Turnalar", "G'anicha" she'rlari kiritilgan. "Ohu" she'rida quyidagi obrazlarni ko'ramiz:

Ona ohu obrazi – barcha onalarga xos bo'lgan mehr timsoli. Bolasi uchun hattoki o'limga ham tik qarashga qodir obraz.

Uloqcha, ya'ni ohu bolasi. Onasining o'limini o'jizgina kuzatib turib, g'azabdan yuragi qasos o'tida yongan obraz.

Gul – har qanday holatda ham yaqinlarini qo'llab-quvvatlovchi obraz.

Brakonyer – noqonuniy ov bilan shug'ullanuvchilar.

Qora quti – brakonyerlarning mashinasi.

Shoir ushbu she'ri orqali bolalarning jaji yuraklarida hayvonlar ham iztirob chekishini, ularda ham onalik va farzand mehri mavjudligini eslatib o'tadi. Lirik asr syujeti quyidagicha: ona ohu bolasini brakonyerlardan qutqarish uchun ularni chalg'itmoqchi bo'lib, bolasining ko'z oldida halok bo'ladi. Buni ko'rgan ohucha onasi uchun ulardan qasos oladi. Shoirning mahorat bilan yozilgan lirik asarlarini bolalar juda tez ilg'aydi va o'ziga singdiradi. Shunday asarlardan yana biri "Turnalar" she'ridir. Onaning farzandga bo'lgan muhabbati, tabiatni asrash, undagi jonzotlarga ozor bermaslik mavzusidan chekinmagan holda yozilgan bu asar ham aynan bolalar uchundir. Shoir til imkoniyatlaridan shunday foydalanadiki, uni his qilmaslikning iloji yoq. "Turnalar" she'rida quyidagi obrazlarni uchratamiz: Ona turna, turnacha, suzar orol obrazlari. Asar syujeti quyidagicha boshlanadi. Turnalar safida uchib ketayotgan ona bolasining charchaganini sezib safdan chiqadi. Horib-charchagan turnacha onasining so'ziga kirmay, suzar orol onasining ta'biri bilan aytganda qanotsizlar yashaydigan makon, ya'ni kemaga qo'nmoqchi bo'lib, o'sha tomonga uchib ketadi. Shoir she'rning oxirgi misralarini quyidagicha tamomlaydi:

Ona turna qirrovi

Ko'kni tutar bu damlar:

– O'jizlarmiz, sizlarga

Insof bersin, odamlar!

Shoirning ushbu jumalari qalblarni larzaga soladi. Chunki insonlar shu qadar razil bo'lib ketganki, har qanday hayvonni qiynashdan rohatlanadi. Hayvonlarda esa insonlarga nisbatan zarracha ham ishonch tuyg'usi

yo‘q. Aynan shu fikrlarni bolalarga uqtirish orqali shoir atrof-muhitga va unda yashaydigan har qanday jonzotga g‘amxo‘rlik qilish kerakligini qayta-qayta qalamga olishdan charchamaydi. Tabiat mavzusidan chekingan holda yozilgan “G‘anicha” she‘rida G‘anicha, Sanjar polvon, “dono” kabi obrazlar mavjud. Qishloqda hamma so‘zsiz bo‘ysunadigan Sanjar polvon G‘ani ismli bola bo‘ysungisi kelmaydi. G‘ani ismiga bejiz “-cha” qo‘shimchasi qo‘shilmaydi, uning atrofdagi ko‘r-ko‘rona itoat qilayotgan bolalardan farqli o‘laroq, eng kichikligini ta‘kidlash uchun ismiga –cha qo‘shimchasi qo‘shilgan. G‘anicha hammaga o‘xshab indamasdan Sanjarning qo‘zilariga bir kun cho‘pon bo‘lishni xohlamadi. Buning natijasida kaltaklandi, suvga cho‘ktirildi. Baribir bosh egmadi. Asar so‘nggida esa birdan nega jonimni qiynayman degan fikrga keladi, biroq o‘ylagandan keyin qarshi turishni davom etadi va oxirida g‘alaba qozonadi. Shoirning ushbu asari endigina ulg‘ayayotgan yosh avlod uchun kata bir ibratdir. 5-sinflar bilan shoir she‘rlarini tahlil qilar ekanmiz, o‘quvchilarda turli mushohadali savollar yuzaga keldi. Barcha kabi loqayd bo‘lmagan G‘anichaga nisbatan yuraklarida mehr uyg‘ondi. Hayvonlarga nisbatan shafqat hissi paydo bo‘ldi. Lirik asarlarni o‘rganar va o‘rgatar ekanmiz, avvalo, o‘zimizda yaxshi bilim va ko‘nikma bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, o‘quvchining shoirga nisbatan g‘oyibona mehriга sabab bo‘luvchi omillardan biri bu ustozdir, biri esa shoirlik otashidir. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov aytganidek: “She‘r shoir qalbida tug‘ilgan hayotiy tuyg‘ularni ifoda qiladi va shu bilan o‘quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o‘zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislari otash bo‘lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she‘riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo‘q”. Qisqa qilib aytganda she‘r shoirning shunchaki so‘zi emas, balki yurak dardi demakdir. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tadqiqot

metodlari orqali tahlil qilib, she‘riyatning naqadar go‘zalligini va jozibadorligini oson usulda tushuntiriladi. Hamza Imomberdiyev she‘rlarini o‘quvchilar orasida bir necha metodlar orqali tushuntirishga harakat qildik.

Analitik metod. Bu usul yordamida she‘rning kompozitsiyasini, obrazlarni, so‘zlardan qanday iste‘dod bilan foydalanilganligini tahlil qilamiz. Ya‘ni ohuning jon berishi yoki ona turnaning bolasining odamlar tomonidan ushlab olinishi bu real hayotimizda ham uchrab turadigan holatdir. Shoir she‘rida shunchaki odamlardan ohuning bolasi va ona turna obrazi orqali insofli bo‘lishlarini istaydi.

Struktur-semantik metod. Shoir she‘rda qo‘llagan so‘zlarning tag ma‘nosini, bu so‘z orqali shoir nima demoqchiligini, kinoya, qochiriqlarining ma‘nosi tahlil qilindi. Shoir she‘larida suzar orol, qora quti, G‘anicha obrazlari orqali uning nima demoqchiligini anglash mushkul emas. Suzar orol, qora quti (rang ifodasi ham qora niyatni, qoralikni bildirmoqda) kabi so‘zlarni tasviriy ifoda deb oladigan bo‘lsak, G‘anicha obrazida esa kichik bo‘lishiga qaramay, kattalar kabi beparvo emasligini ta‘kidlagan.

Psixologik metod. Ushbu metod yordamida Hamza Imomberdiyev she‘rlari orqali kitobxonlarga nima demoqchiligini, she‘rdagi psixologik muhitni asar so‘nggidagi o‘quvchilarning asar ta‘siridagi ruhiy kechinmalarini talqin qiladi. Shoir ikki she‘rning tugash qismi o‘quvchilarning psixologiyasiga o‘zgacha ta‘sir qiladi. Chunki birida ona ko‘z oldida farzandidan ajralsa, ikkinchisida farzand ko‘z oldida onasidan ajraladi va achinarlisi, bularning sababchilari biz insonlardir. G‘anicha obrazi orqali shoir hammamizni hushyorlikka chorlaydi. Asar so‘nggida adolat hamma vaqt qaror topishi, yuzaga chiqishi tasvirlangan.

Lirik asarlarni qay bir metod bilan tahlil qilmaylik, uning mohiyati baribir ezgulikka, go‘zallikka, mehr-muruvvatga, yaxshilikka yetaklayveradi. Buning yana bir isbotini Hamza Imomberdiyev misolida ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, N. (2021). “Tadqiqiy o‘qitish metodikasining adabiyot darslaridagi samaradorligi.” // *Ta‘lim va rivojlanish jarayoni*, №2, 31–35-betlar.
2. Erkin Vohidov. (Turli yillarda). *Tanlangan asarlar*. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
3. G‘ulomov, A. (2005). *Adabiy tahlil asoslari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Jo‘rayev, S. (2016). *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Mamarasulov, Q. (2007). *Badiiy asarni tahlil qilish asoslari*. –Toshkent: O‘qituvchi.
6. Oripov, A. (2001). *She‘rlar*. – Toshkent: Yozuvchi.
7. Qurbonova, G. (2018). “Lirik asarlar va obrazli tafakkur: o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishda adabiyotning o‘rni.” // *Adabiy ta‘limda innovatsiyalar*, №3, 45–50-betlar.
8. Qambarova, S. (2022). O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Mahalla va oila.

Feruza ERGASHEVA,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 "Xalqaro jurnalistika" fakulteti magistranti
 e-mail:feruza.raimjonovna86@gmail.com

O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIJINING SHAKLLANISHIDA TREVEL JURNALISTIKANING ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji va unda trevel jurnalistikaning o'rni tahlil qilinadi. Yurtimiz haqida xalqaro va mahalliy OAV materiallari, bloglar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi kontentlarning ijobiy va salbiy ta'sirlari sharhlanadi.

Kalit so'zlar: *trevel jurnalistika, mamlakat imiji, turizm, raqamli media, OAV, milliy brend.*

Аннотация: в данной статье анализируется имидж Узбекистана на международной арене и роль тревел-журналистики в его формировании. Рассматриваются положительные и отрицательные влияния материалов, опубликованных в международных и отечественных СМИ, блогах, а также некоторых контентх в социальных сетях, посвящённых нашей стране.

Ключевые слова: *трэвел-журналистика, имидж страны, туризм, цифровые медиа, СМИ, национальный бренд.*

Annotation: this article analyzes the image of Uzbekistan in the international arena and the role of travel journalism in shaping it. The paper reviews both the positive and negative impacts of materials published in international and local media, blogs, as well as certain types of content on social networks related to our country.

Key words: *travel journalism, image of country, tourism, digital media, mass media, national brand.*

Kirish. O'zbekiston xalqaro maydonga yangi, ochiq va zamonaviy davlat imiji bilan kirib bormoqda. Bu jarayonda trevel jurnalistikaning roli muhim. Boisi, trevel jurnalistika nafaqat sayohat, balki madaniyat, tarix va milliy qadriyatlarni yorituvchi diplomatiya vositasidir.

Raqamli axborot texnologiyalari davrida birgina video, maqola, ko'rsatuv yoki post millionlab insonlar fikriga ta'sir etishi mumkin. Shu bois trevel jurnalistikada mamlakat imijini yaratish vositalari va uning zamonaviy talablarini o'rganish, tahlil etish – zamon talabi.

Asosiy qism. O'zbekistonning xalqaro imidji shakllanishida travel jurnalistikaning roli.

Trevel jurnalistika nafaqat sayohat haqida so'zlaydi, balki madaniy diplomatiya, iqtisodiy o'sish va milliy brendni rivojlantirishday bir qancha muhim vazifalarni ham bajaradi. Bugungi kunda trevel jurnalistika ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali (YouTube, Instagram, TikTok, Telegram) shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu jarayonda bosma nashrlar va teleko'rsatuvlar ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmagan. So'nggi yillarda yurtimizda O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yaratish va mamlakatga sayyohlarni jalb qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Rivojlangan davlatlar misolida trevel jurnalistikaning ta'sir kuchini o'rgansak, bir jurnalist yoki bloger faoliyati sabab mamlakatning sayyohlik salohiyati keskin ortgan holatlarni ko'plab ko'rish mumkin. Misol uchun Vyetnam va Kolumbiya tajribasini olaylik. Televizion hujjatli ko'rsatuvlar bilan ish boshlagan jurnalist Anthony Bourdain (1956–2018) gastronomik sayohatlari orqali katta auditoriya yig'ishga muvaffaq bo'lgan. Uning "No Reservations" (Travel Channel) va "Parts Unknown" (CNN) kabi dasturlarida

boshqa xalqlar gastronomiyasi bilan bir qatorda tarixi, siyosati va ijtimoiy muammolari ham yoritib borilgan. Bourdain mehmon bo'lib borgan davlatlardagi siyosiy va ijtimoiy muammolarni ovqat tayyorlashday "yengil" jarayon fonida yoritib boradi. U mahalliy xalq vakillari bilan samimiy suhbatlar qurib, ularning "ovozi"ni global auditoriyaga yetkaza olgan. Xususan, yuqorida tilga olingan Vyetnam imijini ham aynan Bourdain urushdan keyingi qoloq davlat ko'rinishidan chiqarib, mehmondo'st, madaniyatli va "oyoqqa turayotgan" jamiyat sifatida ko'rsata oldi. Tomoshabinlar bu mamlakatda urush stereotipi o'rniga "mehmondo'stlik va samimiylik" qiyofasini ko'rishdi. Bu esa tez orada Vyetnamga sayyohlar oqimini keskin ortishiga sabab bo'ldi.

Haqiqatni tan olish kerak, O'zbekiston ham uzoq yillar davomida "yopiq" davlat sifatida talqin qilinardi. Ammo so'nggi yillarda u "islohotlarga ochiq, xavfsiz va mehmondo'st mamlakat" sifatida o'z imijini yaratishga erishdi. Bunda mahalliy travel jurnalistikaning sezilarli hissi bor. O'zbekistonda "Uzbekistan. Travel", "Spot", "Daryo Travel", "Orient" kabi platformalar milliy travel jurnalistikamizda yetakchilarga aylanishdi. Shuningdek, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida trevel jurnalistika fanidan alohida kafedra ochilib, bu yo'nalishda chuqur saboq oluvchi ixtisoslashgan kadrlar o'qitila boshlandi. Bir vaqtning o'zida mahalliy jurnalist va blogerlar ham aholini O'zbekiston bo'ylab sayohat qilishga targ'ib etishmoqda. So'nggi yillarda sohada axborot ishonchiligi, professional etikani saqlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda sezilarli yutuqlar ko'zga

tashlanmoqda. Travel jurnalistika O‘zbekistonning xalqaro imijini shakllantirishda madaniy diplomatiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatni dunyo auditoriyasiga olib chiqish, turizmni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni global darajada targ‘ib etish imkonini beradi.

Birgina misol, Eva Zu Beck kabi mashhur blogerlar O‘zbekiston haqidagi videolari orqali millionlab kuzatuvchilarga mamlakatimizni ijobiy tomondan tanitdi. Eva Zu Beckning YouTube platformasidagi video va bloglari, “Travel the Stans” deb nomlangan ko‘p qismli kontentlarida Markaziy Osiyo (xususan O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston) bo‘ylab sayohatlar aks etgan. Eva mintaqaning tabiati, tarixi va odamlarini Yevropa hamda AQSh tomoshabinlariga yaqindan tanishtirdi. Asosan kam o‘rganilgan hududlarga sayohat qiladigan bloger o‘zbeklarning kundalik hayoti, mahalliy odatlari va milliy taomlari haqida shaxsiy mulohazalarini taqdim etdi. “Travel the Stans” seriallarining katta qiziqish bilan ko‘rilganining yana bir sababi blogerning kamera qarshisida ko‘pincha o‘zi bo‘lishidir. Bundan tashqari, u montaj va zamonaviy texnologiya effektlaridan ko‘ra ko‘proq tabiiy suhbatlar va haqiqiy tajribalarni boshidan kechirishni afzal ko‘radi. Eva Zu Beck O‘zbekistonda bo‘lganida mahalliy oilalar bilan birga yashadi, milliy taomlarimizni bajonidil tanovul qilib, o‘zbek tilida gapirishga harakat qildi. Bu esa uni sarguzasht izlovchi tomoshabinlarga yanada yaqinlashtirdi. Bloger tarixiy shaharlarimizga to‘xtalib, O‘zbekistonni “borishga arziydigan, xavfsiz va madaniy jihatdan boy” mamlakat sifatida talqin qildi.

Trevel jurnalist taqdim etayotgan media mahsulot turistik makonni taqdim etish bilan birga, u haqda tasavvur va hisni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatning jo‘g‘rofiyasi, sayohat yo‘nalishi, tarixiy boyliklari, xalq urf-odatlari va boshqa jihatlarni “boshqalar”ga tanishtirayotgan jurnalist ularni o‘sha makonga” olib borgan” kabi bo‘ladi, tomoshabin o‘sha makonni ko‘rganday his etadi. Bunda jurnalist nafaqat axborot uzatuvchi, balki mamlakat imijini shakllantiruvchi vositaga ham aylanadi. Mamlakat imiji – bu odatda kognitiv va hissiy jihatdan biror davlat haqidagi umumiy tasavvurni hosil qilish demakdir. Tabiiyki, sayohatchilar biror mamlakatga borishdan avvalgi fikri va borib-kelgandan so‘ng yuzaga kelgan fikri o‘rtasida keskin farq hosil bo‘lishi mumkin. Bunda trevel jurnalistlarning ba‘zan ortiqcha” bezak berishi”, noreal tasvirlar, effektlardan foydalanishga berilib ketishi ham sabab bo‘ladi va u salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Albatta, bunda mas‘uliyat faqat jurnalistga yoki trevel jurnalistikaga bog‘langan emas. mamlakat imijini yaratishda barcha tizimlar bir musht bo‘lib harakat qilishi kerak: hukumat qarorlaridan tortib, tibbiyot, aviatsiya, jamoat transporti, ta‘lim, infratuzilma va boshqalar... Aks holda birgina tarixiy obidalar va taomlar xilma xilligi bilan zamonaviy sayyohlar e‘tiborini tortib bo‘lmaydi. Bunga

birgina misol, taniqli jurnalist va bloger Ilya Varlamovning “Toshkent-Samarqand” yo‘nalishidagi poyezdi “lyuks” kupesidagi sharoitlarni tanqid qilib chiqqanini eslaylik. 2023-yilning may oyida You tube platformasiga joylangan bu video xalqaro miqyosida katta rezanansga sabab bo‘lib, O‘zbekiston imijiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu videoda “Toshkent-Samarqand” yo‘nalishida “lyuks” kupega chipta sotib olgan bloger xizmatlar namunali emasligi va kupedagi sharoitlar qoniqarsizligini tilga olgan.[<https://youtu.be/A-laG9VmwZE?si=wOF-U8VvdUzT522B>]. Bu kabi tanqidlar o‘rinli, ammo ba‘zi xorijiy OAVda biryozlama yondashuv, ya‘ni O‘zbekistonni faqat “ekzotik” mamlakat sifatida tasvirlash holatlari ko‘p uchramoqda. Haqiqiy tahliliy materiallar kamligi, ba‘zi blogerlar axborotni noxolis yetkazishi ortidan O‘zbekiston haqida noto‘g‘ri tasavvurlar ham paydo bo‘lmoqda. Bunday holatlar travel jurnalistikada axloqiy mas‘uliyati va unda professional nazorat zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston turizm salohiyatini butun dunyoga keng targ‘ib qilish maqsadida “BBC WORLD NEWS”, “SNN” va “EURONEWS” xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek, “Ctrip.com” onlayn sayohat platformasi va “Visa Fasilitation Servises Global” kabi bir qator xorijiy tashkilotlar va televideniylar bilan hamkorlik qilmoqda. Hukumat tashqi va ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini ham e‘lon qilindi. Unga ko‘ra, 2030-yilga qadar O‘zbekistonga keluvchi xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish ko‘zda tutilgan.

[https://uza.uz/oz/posts/2030-yilgacha-turizmni-rivojlantirish-uchun-munosib-sharoitlar-yaratiladi_570366]

Trevel jurnalistikaning mamlakat imijini shakllantirishda haqiqiy va samimiy bo‘lishi.

Zamonaviy sayohat jurnalistikasi nafaqat voqealarni yoritish, balki u orqali mamlakat imijini shakllantirishda faol ishtirok etadigan kommunikatsion vositadir. Shu sababli jurnalistlarning mas‘uliyati faqat estetik tasvir yaratish bilan cheklanmaydi. Ular, avvalo, xolislik prinsipiga ham amal qilishi, ya‘ni media mahsulotlarda real hayotni, odamlarning kundalik turmush-tarzini boricha ko‘rsatish zaruratini ham hisobga olishadi. So‘nggi tadqiqotlar (MDPI, Sustainability Journal, 2023) shuni ko‘rsatadiki, auditoriya soxta go‘zallikdan ko‘ra tabiiylik va o‘ziga xoslikni yuqori baholaydi. Tabiiylik mamlakat imijini ijobiy yo‘nalishda mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda jurnalistlar madaniy sezgirlik tamoyiliga amal qilib, mamlakatning asosiy dini, urf-odatlari, kiyinish madaniyati, qadimiy merosini ham hurmat bilan yoritishi lozim. Shu orqali trevel jurnalist “ekzotika” dan ko‘ra ko‘proq “boshqalar”ni boricha qabul qilishga targ‘ib qiladi. Masalaning yana bir jihati – axborot manbalarini diversifikatsiya qilish,

ya'ni faqat davlat press-turlariga tayangan holda emas, balki mahalliy aholi, tadbirkorlar, sayyohlar va mutaxassislar fikrini ham o'rganib, samimiy media mahsulot yaratishni talab etadi. Bu uslub materialning ishonchligini oshiradi, mamlakatni "jonli" imijini shakllanishiga sabab bo'ladi. Bugungi zamonaviy media muhitda raqamli kommunikatsiya vositalari – bloglar, podkastlar, videoreportajlar, VR-tur kabi shakllardan foydalanish ham trevel jurnalistga katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Jurnalistlar uchun eng muhim omil–tahliliy yondashuvni saqlab qolish trevel yo'nalishda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Turizm sohasidagi muammolarni, ayniqsa, infratuzilma yoki xizmatlar bilan bog'liq kamchiliklarni tanqidiy tahlil qila bilish, yechim va takliflar berish orqali mamlakatning xalqaro miqyosida ishonchli imijini yaratish mumkin. Shunda trevel jurnalist mamlakatning xalqaro maydondagi "bezakchisi" emas, balki uni real va samimiy ko'rinishda ko'rsata oluvchi vositasi rolini bajaradi. Bu O'zbekiston kabi turizmga eshik ochayotgan mamlakatlar uchun muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda trevel jurnalistikaning rivojlanishi bilan bir qatorda, sayohatchilar fikrini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarga ham katta urg'u berilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, birgina mehmondo'stlik tamoyilidan kelib chiqib olib borilgan izlanishlarda mehmonxona va gastronomik xizmatlardan foydalanuvchilarning qoniqish darajasi, sodiqligi (qayta kelish xohishi) hamda xizmat sifati bilan bog'liq masalalar o'rganilib, tahlil qilinib, ko'pgina muammolarga yechim topilgan. Masalan, madaniy meros va YUNESKO obyektlari doirasida olib borilgan

tadqiqotlarda, xususan Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlarda bo'lgan sayyohlarning xulq-atvori, ularning obyektlarga sodiqligi va qayta tashrif buyurish ehtimoli o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, tarixiy joylar haqidagi ijobiy taassurotlar va mahalliy aholi bilan iliq munosabat mamlakat imijini mustahkamlovchi asosiy psixologik omil sifatida qayd etilgan. National Geographic jurnali muharrirlari, fotosuratchilari va izlanuvchilari tomonidan tanlab olingan 2026-yilning eng yaxshi sayohat yo'nalishlari ro'yxatida Xorazm viloyatining Xiva shahri keltirildi. Nashr sayyohlarga «ta'mirlangan saroylari, masjidleri va minoralari bilan mashhur qadimiy Ichan qal'a bilan tanishish, noyob festivallar – lazgi raqsi, bahodirlar o'yinlari yoki qovun saylini tomosha qilishni tavsiya etgan. [Best of the World.nationalgeographic.com]

Xulosa. Trevel jurnalistika mamlakat imijiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan vositadir. Uning to'g'ri yo'naltirilganligi mamlakatni xalqaro maydonda ijobiy tanitadi, turizmga katta yo'l ochadi va u bilan bog'liq manfaatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ammo trevel jurnalistika yaratgan imij real tajriba bilan to'liq muvofiq bo'lmasa yoki materiallar yetarlicha chuqur o'rganilmasa, bu imij uchun sarflangan mablag'larni havoga uchirishday gap. Qolaversa, brendning teskari ishlashi va mamlakatning xalqaro miqyosidagi obro'siga putur yetishi hech gap emas. Travel jurnalistika O'zbekistonning madaniy qadriyatlarga asoslangan mamlakat sifatida xalqaro maydonda o'z imijini shakllantirishiga salmoqli hissa qo'shayotgan yo'nalish. Zero, milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda xalqaro maydonda ijobiy imijni shakllantirish – O'zbekiston uchun asosiy maqsad.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. National Geographic. (2022). Uzbekistan: The Heart of Central Asia.
2. O'zbekiston Turizm qo'mitasi. (2024). Turizm statistik ma'lumotlari.
3. Ильченко С.Э: «Современная трэвел-журналистика» (2019)
4. MDPI <https://www.mdpi.com/Evaluating Urban Sustainability in Uzbekistan: A Novel Formula for ...> [https://doi.org/10.3390/su15097035]
5. https://uza.uz/oz/posts/2030-yilgacha-turizmni-rivojlantirish-uchun-munosib-sharoitlar-yaratiladi_570366
6. [UNWTO Global Report on Youth Travel, 2023, p. 12]
7. [World Tourism Organization (UNWTO, 2022, p. 44)]

Shahodatxon ABDUMUTALIPOVA,
O'ZJOKU magistranti
ORCID: 0009 0003 0382 6078

“MA'RIFAT” GAZETASI MAQOLALARIDA PUBLITSISTIK USLUB TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o'zbek publitsistikasida matnning ijtimoiy va ma'naviy funksiyalari, uning tildagi ifoda vositalari hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. “Ma’rifat” gazetasida chop etilgan Gulnoza Odilovaning “Nodavlat ta’lim muassasalari ishonchsizmi?”, Husan Berdiev va Xolbo’ta Xo’janovlarning “Adabiy qahramon – jonli inson” hamda Fayoza Avlayevaning “Maktabga borishdan qo’rqaman” (2024) nomli maqolalari asosida publitsistik uslubning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy yo’nalishlari yoritiladi. Tahlilda publitsistik matnning dalillilik, emotsionallik, ritorik savollar, antiteza va metafora kabi stilistik vositalar orqali o’quvchiga ta’sir ko’rsatish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada shuningdek, “Ma’rifat” gazetasi materiallarining zamonaviy tahririy yondashuvi, ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi o’rni va jurnalistik nutqdagi ilmiylik hamda hissiylik uyg’unligi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: publitsistik uslub, matn tahlili, ijtimoiy fikr, ma’naviy qadriyat, emotsionallik, ritorika, tahririy yondashuv.

Annotation: this article analyzes the social and moral functions of modern Uzbek publicistic style, focusing on its linguistic and stylistic features. Based on three articles published in *Ma’rifat* newspaper – Gulnoza Odilova’s “*Are Non-state Educational Institutions Unreliable?*”, Husan Berdiev and Kholbota Khojanov’s “*A Literary Hero Is a Living Person*”, and Fayoza Avlayeva’s “*I Am Afraid to Go to School*” (2024) – the study explores publicistic expression in both social and spiritual contexts. The analysis highlights how rhetorical questions, antithesis, metaphors, and emotional tone contribute to shaping public opinion. It also discusses *Ma’rifat*’s editorial approach and the synthesis of factual reasoning with emotional persuasion in Uzbek journalism.

Key words: publicistic style, text analysis, social consciousness, moral values, emotionality, rhetoric, editorial discourse.

Аннотация: в статье рассматриваются социальные и нравственные функции современного узбекского публицистического стиля, его языковые и стилистические особенности. На материале статей, опубликованных в газете «*Ma’rifat*» – Гулнозы Одиловой «*Недостовверны ли негосударственные учебные заведения?*», Хусана Бердиева и Холбаты Ходжонова «*Литературный герой – живой человек*» и Файёзы Авлаевой «*Боюсь идти в школу*» (2024), – анализируется соотношение факта и эмоции, логики и риторики в публицистическом тексте. Показано, как стилистические средства (риторические вопросы, антитеза, метафора) усиливают воздействие на читателя и формируют общественное мнение.

Ключевые слова: публицистический стиль, анализ текста, общественное сознание, нравственные ценности, эмоциональность, риторика, редакционная политика.

Publitsistik uslub – bu ijtimoiy-kommunikativ diskursning o’ziga xos shakli bo’lib, u matn orqali jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta’sir ko’rsatish va axborot hamda g’oyaviy qadriyatlarni ommaga yetkazish vositasi sifatida namoyon bo’ladi. Ushbu uslub funksional stilistika, nutq pragmatikasi va mediakommunikatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, u tilning faqat axborot berish emas, balki ta’sir o’tkazish (persuasiv) funksiyasini ham faol amalga oshirishi bilan ajralib turadi.

Gazeta va jurnal janrlari publitsistik uslubning eng muhim nutq janr tizimini tashkil etadi. Chunki aynan shu janrlar orqali tilning ekspressiv, emotsional va evaluativ (baholovchi) qatlamlari to’liq namoyon bo’ladi. Publitsistik matn o’quvchiga faqat ma’lumot uzatmaydi, balki unda kognitiv-motivatsion refleksiya – ya’ni ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, ularga shaxsiy pozitsiya bildirish, munosabat shakllantirish ehtiyojini uyg’otadi.

Shu bois publitsistik uslubni o’rganish zamonaviy lingvopragmatik va diskurs tahlili yondashuvlari doirasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir publitsistik matn o’zida axborot (informativ), ta’sir (emotiv) va tarbiyaviy (didaktik) komponentlarning murakkab uyg’unligini mujassamlashtiradi. Bugungi globallashtirish sharoitida esa publitsistik uslub til va jamiyat o’rtasidagi interaktiv

kommunikatsiya vositasi sifatida yanada kengroq semantik maydon kasb etmoqda. Shu jihatdan, publitsistik matnlarning til qurilishi, uslubiy vositalar tizimi va pragmatik maqsadlarini ilmiy tahlil qilish nafaqat jurnalistik til, balki umuman milliy til madaniyatining rivojlanish jarayonlarini chuqur anglash imkonini beradi.

“Ma’rifat” gazetasi o’zbek matbuoti maydonida ijtimoiy ongni shakllantirish, ma’naviy qadriyatlarni yoritish hamda ta’lim va madaniyat sohalaridagi islohotlarni targ’ib etishda faol o’rin egallab kelmoqda. Gazeta sahifalarida chop etilayotgan maqolalar dolzarb ijtimoiy masalalarni keng jamoatchilikka yetkazish bilan birga, o’quvchini fikrlashga, tahlil qilishga undaydi. Jumladan, “Nodavlat ta’lim muassasalari ishonchsizmi?” hamda “Adabiy qahramon – jonli inson” nomli maqolalar “Ma’rifat” gazetasining zamonaviy publitsistik uslubini yorqin ifodalovchi namunalaridir.

Gulnoza Odilova qalamiga mansub Nodavlat ta’lim muassasalari ishonchsizmi?” maqolasi O’zbekiston ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta’lim muassasalarining o’rni, ularning jamiyatdagi obro’si va ularga nisbatan mavjud stereotiplar masalasiga bag’ishlangan. Maqolaning sarlavhasi ritorik savol shaklida tanlangan bo’lib, bu o’quvchini muammoni darhol shaxsiy idrok maydoniga kiritadi, ya’ni unga faqat axborot emas, balki munosabat

bildirish mas'uliyatini ham yuklaydi. Bu yondashuv publitsistik uslubning asosiy belgilaridan biridir – o'quvchini faollikka, fikrlashga, bahslashishga chorlaydi. Matnda muallif ijtimoiy stereotiplarni ketma-ket sanab, ularni dalillar, hayotiy misollar va shaxsiy tajriba orqali tahlil qiladi. Antitezaning qo'llanishi ("davlat universitetimi yoki nodavlatmi, talabalar birdek saralangan bo'lmaydi") o'quvchining tafakkurini ikki qutbda harakatlantirib, mantiqiy muvozanatni ta'minlaydi. Ritorik savollar esa matnga dinamika beradi: "Qaysi tadbirkorning biznesini davlat noqonuniy asnoda shunchaki to'xtatib qo'yganini ko'rgansiz?" kabi ifodalar publitsistik emotsionallikni oshiradi, o'quvchini ichki dialogga tortadi. Tahririy jihatdan maqola aniq kompozitsion tuzilishga ega: muammoni qo'yish – stereotiplarni tahlil qilish – real faktlar bilan asoslash – yakuniy murojaat. Ayniqsa, yakuniy xulosa "Oliy ta'lim muassasasini tanlayotganda ko'chadagi stereotiplarga ishonib qolmang" degan qat'iy da'vat ohangida ifodalangan bo'lib, bu maqolaga pragmatik kuch bag'ishlaydi. Shunday qilib, maqola ijtimoiy-publitsistik yo'nalishda dalil va hissiyot uyg'unligini ta'minlab, jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiladi.

Husan Berdiyev va Xolbo'ta Xo'janov tomonidan yozilgan "Adabiy qahramon – jonli inson" maqolasi "Ma'rifat" gazetasining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishidagi publitsistik uslubini namoyon etadi. Asosiy g'oya – o'quvchi adabiy qahramonni jonli inson sifatida his etishi, badiiy asardagi ruhiy holatni o'z ichki dunyosi bilan uyg'unlashtirishi zarurligi haqidadir. Sarlavhaning o'zi aforizmik tusda bo'lib, bir vaqtning o'zida ham ilmiy, ham hissiy mazmuni mujassamlashtiradi. Maqolada "Farhod va Shirin" dostoni tahlili orqali insoniylik, poklanish va komillikka intilish g'oyalari yoritiladi. Mualliflar tasavvufiy manbalar bilan badiiy tahlilni bog'lab, adabiyot fanining ma'naviy mohiyatini o'quvchiga sodda, ravon va hissiy jihatdan yaqin shaklda yetkazadi. Bu yondashuv tahririy jihatdan o'quvchi auditoriyasiga moslashtirilgan, ya'ni murakkab falsafiy g'oyalar oson idrok etiladigan publitsistik shaklga keltirilgan. Maqola tuzilish jihatidan izchil: muammoni qo'yish ("o'quvchi qahramonni tirik inson sifatida his qilishi kerak"), tahliliy asos ("komil inson mavzusining tasavvufiy ildizlari"), va yakuniy xulosa ("tasavvuf insonni nafsdan poklanishga, komillikka chorlaydi"). Bunda metafora ("ko'ngilga ishq binosini qurgan Boniy"), personifikatsiya va takror (ishq, poklanish, komillik) kabi badiiy vositalar publitsistik ohangni kuchaytirgan. Ular matnning emotsional qatlamini boyitadi, o'quvchini ruhiy jarayonlarga yaqinlashtiradi, tahrir esa mazmuni ritmik va estetik uyg'unlikda shakllantiradi. Natijada maqola faqat axborot emas, balki ruhiy-ma'naviy tajriba manbai sifatida o'quvchiga ta'sir qiladi. Bu "Ma'rifat" gazetasining ma'naviyatni ommaviy tilda tushunarli, ammo chuqur falsafiy

mazmunda yoritish an'anasini davom ettiradi.

"Ma'rifat" gazetasining yuqoridagi ikki maqolasi publitsistik uslubning ikki qirrali mohiyatini yaqqol ifodalaydi. "Nodavlat ta'lim muassasalari ishonchsizmi?" ijtimoiy-publitsistik yo'nalishda amaliy fikrni shakllantirish, stereotiplarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan pozitsiyani ilgari surish orqali jamoatchilik fikrini boshqaradi. "Adabiy qahramon – jonli inson" esa ma'naviy-ma'rifiy publitsistika doirasida ruhiy poklanish va estetik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fayoza Avlayevaning "Maktabga borishdan qo'rqaman" nomli maqolasi (2024-yil 15-may soni) bolalar o'rtasidagi zo'rvonlik – bulling muammosiga bag'ishlangan bo'lib, u publitsistik uslubning ijtimoiy yo'nalishdagi samarali namunasi hisoblanadi. Muallif mavzuni faktlar, intervylar, qonuniy asoslar va shaxsiy hikoyalar orqali yoritadi. Bunday yondashuv materialga ishonchlilik, hayotiylik va hissiy ta'sir beradi. Sarlavha o'quvchini darhol og'riqli mavzuga olib kiradi. Kirish qismida bullingning global miqyosini ko'rsatgan statistik ma'lumotlar berilgan. Uyatchan, indamas, tortinchoq kabi so'zlar jabrlanuvchi bola obrazini aniq tasvirlaydi. Maqolada "Stopbullying" platformasi ma'lumotlari, xalqaro tadqiqotlar va 2024-yilgi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun keltirilgan. Bu esa muammoni ijtimoiy va huquqiy nuqtayi nazardan asoslaydi.

Ona, o'qituvchi va bola tilidan keltirilgan parchalar orqali muallif muammoni turli burchaklardan ko'rsatadi. Ayniqsa, o'qituvchining "Biz befarq bo'lishga haqqimiz yo'q" degan so'zi maqolaning g'oyaviy markaziga aylangan. Til va uslub jihatidan matn sodda, lekin ifodali. "Jimlik ham 'Sen hech kim emassan' degan baqiriqdek tuyuladi" kabi obrazli jumlar publitsistik ta'sirni kuchaytiradi. Takror va emotsional so'zlar hissiy ohangni oshirib, o'quvchida hammadlik uyg'otadi. Maqola yakunida "Har bir bola o'zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan his qilishi kerak" degan xulosa beriladi. Bu fikr asarning asosiy g'oyasini – jamiyatning bolalar oldidagi mas'uliyatini ifodalaydi. Shu tarzda muallif dalil, tahlil va hissiyot uyg'unligi orqali ijtimoiy muammoga jiddiy e'tibor qaratgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Ma'rifat" gazetasida chop etilgan maqolalar o'zbek publitsistik uslubining faol rivojlanayotgan namunalaridandir. Bu maqolalarda so'zning ta'sir kuchi, dalil va hissiyot uyg'unligi orqali o'quvchining fikrlashiga, muammoni chuqurroq anglashiga yo'l ochilgan. Tahririy aniqlik, mantiqiy izchillik va obrazli ifodalar matnning o'qiluvchanligini oshiradi, o'quvchini befarq qoldirmaydi. Maqolalar orqali nafaqat axborot, balki ijtimoiy va ma'naviy g'oya ham yetkaziladi. Shu bois, bu nashrdan yaratilgan publitsistik uslub – o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undovchi ifoda shakli sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev, S. (2021). *O'zbek publitsistik uslubi va uning tildagi ifoda vositalari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Karimov, M. (2019). *Matbuot tili va tahrir san'ati*. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Xolmonova, N. (2023). *Publitsistik nutqning stilistik xususiyatlari*. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
4. "Ma'rifat" gazetasida maqolalari: Gulnoza Odilova "Nodavlat ta'lim muassasalari ishonchsizmi?", Husan Berdiyev va Xolbo'ta Xo'janov "Adabiy qahramon – jonli inson". – Toshkent, 2024.

Mohizar ABДУQAHHOVA,
 Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi;

Ilmiy rahbar: Gulnoza ORIPOVA,
 Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
 filologiya fanlari doktori (DSc)

IQBOL MIRZO IJODIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Iqbol Mirzo she'rlari misolida mifologik obrazlar va ularning talqini yoritib berilgan. Shoir ijodida an'anaviy obrazlarga xos jihatlarning yangi ma'no ifodalashi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *tasvir, obraz, mif, personaj, shoir, ramz, folklor.*

Annotation: this article examines mythological images and their interpretation using the example of Iqbal Mirzo's poems. The poet's work explores the expression of new meanings of aspects inherent in traditional images.

Key words: *image, character, myth, character, poet, symbol, folklore.*

Аннотация: в статье рассматриваются мифологические образы и их интерпретация на примере стихотворений Икбала Мирзо. В творчестве поэта исследуется выражение новых смыслов аспектов, присущих традиционным образам.

Ключевые слова: *образ, персонаж, миф, герой, поэт, символ, фольклор.*

Kirish. O'zbek she'riyatida o'ziga xos teran fikrlari, kutilmagan tashbehlari, eng asosiysi, samimiy she'rlari bilan xalq qalbidan joy topa olgan ijodkorlardan biri – bu shubhasiz, Iqbol Mirzo. Uning ijodi xalqchilligi, tushunilishi osonligi bilan o'ziga xos ma'no kasb etadi. O'z asarlari bilan dunyoni zabt etgan mashhur adib Chingiz Aytmatov Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy o'zbek she'riyatining iqbolini ko'rayotganini aytgan edi. Haqiqatan, ijodkor asarlari barcha uchun birdek – o'qilishi ravon, negaki she'rlar badiiyati xalq ruhiyatidan, xalq hayotidan, kayfiyatidan olingan. Shu sababli shoir ijodida folklor unsurlari poetik vazifa bajaradi. Ayniqsa, miflarning va ulardagi mifologik obrazlarning ta'siri buning yaqqol misolidir.

Mif (yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lib, odamlarning olam haqidagi o'sha paytdagi tasavvurlarini aks ettiradi. Miflar olam va odam haqidagi rivoyatlardir [1; 9]. Agar mifonimlar "geshtalt" (nemischa "bir butun") tamoyillari (yaqinlik, o'xshashlik, to'liqlik, uzluksizlik, figura-fon) bilan ko'rib chiqilsa, bir-biriga yaqinligi kuzatiladi. Demak, mifologik obrazlarning barchasida umumiy belgilar bor. Bular: a) baxt belgisi (semurg', humo, Xizr); b) qarilik belgisi (alvasti, ajina, yalmog'iz, ayamajuz); c) yonish belgisi (samandar, qaqnus, do'zax); d) ziyon belgisi (dev, jin, g'ul, ajina, alvasti); e) olovdan yaralgani (shayton, iblis, jin); f) quvlik belgisi (yalmog'iz, shayton); g) yamlamay yutish (ajdar, yalmog'iz); h) go'zallik belgisi (malak, farishta, pari, jannat).

Asosiy qism. Mifologik obrazlar stilizatsiyasi barcha adabiy davrlarga xos ijod namunalarida kuzatiladi. Xususan, zamonaviy she'riyatda ko'proq doston, she'r, she'riy ertak janrlarida yorqin namoyon bo'ladi. Ijodkorlar *shayton, jin, malak, farishta; ajdar, dev, yalmog'iz, ajina, alvasti, pari, Xizr, humo, Semurg', anqo, samandar* kabi miflarga xos bir qator obrazlarni qo'llash orqali

o'z g'oya va maqsadini ifodalaydi.[2; 134]. Shoir Iqbol Mirzo ijodini ham xalq og'zaki ijodi bulog'idan to'yib suv ichgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shoir she'rlarida ko'plab mifologik obrazlar uchraydi. Masalan, ijodkorning "Farishta" she'riga diqqat qaratsak, shoirning mifologik obrazlarga yangicha ma'no yuklaganligini ko'ramiz:

Men yerga bog'langan bir bandi edim,
 Sahar borib, oqshom qaytardim ishdan.
 Sen kelding...

Sen, axir, qaylardan kelding?

Ko'klardan tushdingmi, ma'sum farishtam?

Arabchadagi "malak", fors-tojikchadagi "farishta" so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, nihoyatda pok, gunohsiz, qanotlari bor, uchib yuruvchi go'zal ayol, nozanin qiyofasidagi mifologik timsol tushunchasini anglatadi. Bu mifologik obraz badiiy ijodda bir qancha ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi. Chunonchi, ziynatli, oqila, sarishta ayollarga nisbatan ham, fayzli, toza joylarga nisbatan ham "farishtali" sifati qo'llaniladi. Aksincha, fayzsiz, saranjom bo'lmagan shaxs yoki joylarni "farishtasiz" deb ishlatishadi. Yoki Iqbol Mirzoning "Paxta" she'rida bu mifologik obrazga butunlay yangi ma'nolarning yuklanganligi ko'rinadi:

Eng go'zal mamlakat - Qo'shtegirmonda

Qon yig'lab gulbargin to'kadi gullar.

Ma'yus ketib borar mag'rib tomonga

Mendan arazlagan farishta kunlar.

Ma'lumki, Quyosh mashriq – sharqdan chiqadi, bu yerda mag'rib – kun botish tomonga ketayotgan kunlarga nisbatan "farishta" deyilishi ham bejiz emas. Sababi, ijodkor "farishta kunlar" deganda o'z yoshligini nazarda tutgan, chunki bolalik – eng beg'ubor, eng sof tuyg'ular davri, uning g'urubga enayotgani esa umrning o'tishi, poyoniga yetishi nazarda tutilgan. Shoirning "Muhabbatsiz visol haqida hikoya" she'rida ham farishta timsoliga duch kelamiz.

Tongda so'kdim, bo'ralab rosa
 Qasam ichib, qaytdim ortimga.
 Bugun kimdir, farishta, desa,
 O'sha ayol kelar yodimga.

Shoir she'rlarida qush ko'rinishidagi (ornitomorfik) mifologik obrazlar ham keng qamrovlidir. Misol uchun, Semurg' qushi ham qo'llaniladi. Semurg' sharq xalqlari og'zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi bo'lib, undan ezgulik elchisi, qahramonning do'sti, homiysi, himoyachisi, hamrohi, kuch, himoya ramzi sifatida keng foydalaniladi. U ibtidoiy insonning osmonda uchish, uzoq yo'lni yaqin qilish haqidagi orzu-umidlarining ramziy ifodasi hisoblanadi. Semurg' qushi dastlab Eron mifologiyasida paydo bo'lgan. Bu obraz "Avesto"da "senemurg'" shaklida ishlatilgan. Iqbol Mirzo bu obrazni quyidagicha talqin qilgan:

Semurg'ga yuragim beray yolvorib,
 Taqdirgamas, yovuz qushga beray tan.
 Faqat ayting, ko'kda halovat bormi,
 Osmon bormi sizni eslatmaydigan?

Antropomorf qiyofadagi mifologik obrazlar orasida eng keng tarqalgani pari obrazi bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi va mifologik afsonalar, sehri-fantastik ertaklar hamda romantik dostonlarda ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biri sanaladi. Qadimda elimiz orasida alvasti, mortuv deb ham atalgan.[3; 47] O'zbek folklorida pari obrazi genezisi va poetikasi O.Qayumov tomonidan alohida maxsus tadqiq qilingan.[4; 26] Afsonalarga ko'ra, pari qiz yoki yigit ko'rinishida bo'ladi va u insonga oshiq bo'lib qoladi. Insonni shomoniylikka undaydi, unga homiylik qiladi, buyruqlarini bajarmaganlarni jazolaydi. Iqbol Mirzoning "Pari haqida hikoya" she'rida ham bu holat ko'zga tashlanadi:

Menga tekkandi pari,
 Yo'q, to'g'risi, jin chaldi.
 Pirpiradi lablarim:
 "Sani go'rasim galdi..."
 ...Parilar hiylasini
 Bilmas odam bolasi.
 Ko'ylagim tugmasiga
 Bog'langan soch tolasi...

Iqbol Mirzoning "Tubida tosh dumalatib..." deb boshlanuvchi quyidagi she'rida pari obraziga xos uchish, avrab olish, jodulab qo'yish, aqlni o'g'irlash sifatlaridan ramziy ma'noda foydalanilgan:

Ro'molini qanot qilgan pari o'tdi,
 Ko'z uchida menga qaray-qaray o'tdi,
 Nigohlari jonimdan ham nari o'tdi,
 Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,
 Ko'zlarimda ko'zlaringiz ketmadi, yor.

Demak, bu o'rinda mifologik tasavvurlarga xos parilarning ziyon yetkazish xususiyatiga ishora qilinmoqda. Faqat bu ziyon kishining sog'ligiga emas, oshiqning ko'ngliga yetgan, ishq dardiga muhtalo qilgan.

Hur – bu turmushga chiqmay vafot etgan jannatdagi bokira qizlarni ifodalaydi. Shoir "Seni olib qochib ketaman" she'rida ham hur obrazini qo'llash orqali lirik qahramon ma'shuqasini shu qadar ardoqlaydiki, hatto hurlarni ham uning sochlarini tarashga loyiq ko'ryapti.

– Seni olib qochib ketaman!
 Boshingdan hovuchlab socharman yog'du,
 Hovuchlab labingga tutarman nurlar,
 Osmonni to'ntarib etarman ko'zgu,
 Ipak sochlaringni taraydi hurlar...

Iqbol Mirzo uchun mifologik obrazlar faqat tarixiy yoki ertaknamo timsollar emas, balki bugungi jamiyat, insoniyat, axloq va ruhiyat muammolarini yoritish vositasidir. Shoir bu obrazlar orqali o'quvchini tafakkurga chorlaydi. Iqbol Mirzo ijodida mifologik obrazlar ramziy-estetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali shoir nafaqat milliy madaniyat ildizlariga murojaat qiladi, balki umuminsoniy ma'naviyat, ezgulik, haqiqat va borliq mohiyati haqida mushohada yuritadi. Bu obrazlarning badiiy talqini Iqbol Mirzoning poetikasiga chuqur mazmun va falsafiy teranlik baxsh etadi.

Xulosa. Iqbol Mirzo ijodida uchrovchi xalq og'zaki ijodiga xos mifologik obrazlar, ishoraviy ramzlar yangicha ko'rinishda, davr ruhiga mos tarzda qayta ishlangan. Poetik talqinda mifologik obrazlarning yaxlitlik kasb etishi she'ning emotsiialligini oshirishga, ta'sir doirasini kengaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – Farg'ona, 2023.9-bet.
2. O'rayeva D. Mif va badiiy ijod. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024.134-bet.
3. Musurmanov E.R., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar). – Samarqand, 2014. 47-bet.
4. Қаюмов О.С. Ўзбек фольклориди пари образи (генезиси ва поэтикиси). Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун туқдим этилган дисс. автореферати. – Т, 1999. – 26 б.

Севара СУЯРОВА,
 магистрант 2-го курса УзГУМЯ

И.А. КРЫЛОВ-КОМЕДИОГРАФ И ТРАДИЦИИ РУССКОЙ КОМЕДИИ XVIII–XIX ВВ.

Аннотация: статья посвящена анализу драматургического наследия И.А. Крылова в контексте традиций русской комедии XVIII–XIX вв. Рассматриваются особенности комедий «Модная лавка» и «Пирог» как отражения общественных и нравственных проблем эпохи. Особое внимание уделяется преемственности Крылова по отношению к сатирической школе Фонвизина и его новаторской роли в демократизации жанра. В работе выявляются причинно-следственные связи между классической комедией XVIII века, пьесами Крылова и развитием реалистической драмы XIX века (Гоголь, Островский). Сделан вывод о значении Крылова-комедиографа как связующего звена между классицизмом и реализмом.

Ключевые слова: Крылов, комедия, традиция, сатирическая драма, классицизм, реализм, театр.

Annotation: the article is devoted to the analysis of I.A. Krylov's dramatic heritage in the context of the traditions of Russian comedy of the 18th–19th centuries. The study focuses on Krylov's comedies *The Fashion Shop* and *The Pie* as reflections of the social and moral issues of his era. Special attention is paid to Krylov's continuity with Fonvizin's satirical school and his innovative role in democratizing the genre. The article reveals cause-and-effect connections between 18th-century classicist comedy, Krylov's plays, and the development of 19th-century realistic drama (Gogol, Ostrovsky). The conclusion emphasizes Krylov's importance as a link between classicism and realism.

Key words: Krylov, comedy, tradition, satirical drama, classicism, realism, theatre.

Annotatsiya: maqola I.A. Krilovning dramaturgiya merosini XVIII–XIX asr rus komediyasi an'analari kontekstida tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda "Modnaya lavka" va "Pirog" komediyalarining davr ijtimoiy va axloqiy muammolarini aks ettirishi ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, Krilovning Fonvizin satirik maktabi bilan uzviy bog'liqligi hamda janrni demokratlashtirishdagi yangiliklari alohida ta'kidlanadi. Maqolada XVIII asr klassitsistik komediyasi, Krilov asarlari va XIX asr realizm dramasi (Gogol, Ostrovskiy) rivojlanishi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari aniqlanadi. Xulosa sifatida Krilov-komediograf klassitsizm va realizm o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Krilov, komediya, an'ana, satirik drama, klassitsizm, realizm, teatr.

Русская комедия XVIII–XIX вв. представляет собой сложный путь жанровой эволюции: от классицистической условности и подражания западноевропейским образцам – к формированию национальной школы, связанной с изображением реальных социальных конфликтов и характеров. В этом процессе особое место занимает Иван Андреевич Крылов, чья драматургия, долго остававшаяся в тени его басенного творчества, свидетельствует о переходе от старых моделей к новым принципам художественного изображения. Традиции русской комедии XVIII века во многом определили направление развития национального театра. Сумароков в «Тресотинусе» и «Опекуне» утвердил классицистическую схему: строгая композиция, типизированные характеры, морально-дидактическая цель [Сумароков, 1781, с. 112]. Однако уже в творчестве В.И. Лукина и особенно Д.И. Фонвизина произошел поворот к сатире, обличавшей пороки общества. «Недоросль» (1782) стал важнейшей вехой: в нем бытовая интрига оброчивалась социальной проблематикой, а герои вроде Простаковой или Митрофанушки становились

типами нравственной деградации [Фонвизин, 1782, с. 35].

На этом фоне ранние пьесы Крылова демонстрируют преемственность и новизну. Уже «Кофейница» (1792) и «Проказники» (1793) высмеивали праздность дворянского общества, но делали это в более конкретной форме, чем комедии классицистов. Гуковский справедливо писал: «Крылов умел видеть в комической ситуации социальную закономерность, обнажая связь индивидуального порока с устройством общества» [Гуковский, 1958, с. 212]. Комедия «Модная лавка» (1806) стала важным шагом вперед. В ней изображено увлечение иностранцами новинками, проникшее и в купеческую, и в дворянскую среду. Уже в первых сценах звучит реплика: «Ах, без французского наряда ныне и шагу ступить нельзя!» [Крылов, 1806, с. 14]. Эта реплика выражает суть пьесы: комедия превращается в сатирический диагноз обществу, утратившему самостоятельность и духовное содержание. Причинно-следственная связь здесь очевидна: историческая ситуация – зависимость России от западноевропейских влияний

– рождает социальную болезнь, и Крылов показывает ее через смех.

От Фонвизина Крылов унаследовал сатирический пафос, но пошел дальше, расширив социальный диапазон. Его персонажи – не только дворяне, но и купцы, мещане, городские жители. Лотман писал: «Крылов, сохраняя обличительный тон традиции, вводит в драму новые социальные типы и этим демократизирует русскую комедию» [Лотман, 1970, с. 147].

Особенно выразителен «Пирог» (1812). В основе сюжета – спор из-за дележки пирога. Герой заявляет: «Мне кусочек побольше, я ведь старший в доме» [Крылов, 1812, с. 56]. На первый взгляд, бытовая мелочь. Но за этим скрываются эгоизм, алчность и жадность. Бытовой эпизод становится метафорой социальных отношений, где каждый стремится урвать свой «кусочек». Здесь проявляется главный художественный прием Крылова – превращение частного в общее, анекдота в социальный диагноз.

Таким образом, драматургия Крылова соединяет традиции XVIII века и новаторство XIX. Он сохраняет воспитательную функцию смеха и типичность характеров, но одновременно наполняет их социально-бытовым содержанием.

Его пьесы превосходят реалистическую линию, которую разовьют Гоголь и Островский. «Ревизор» (1836) построен по тому же принципу: частный повод (приезд чиновника) превращается в обличение всей системы власти [Гоголь, 1836, с.

92]. Островский в «Своих людях – сочтемся» (1849) продолжает крыловскую традицию изображения купеческой среды [Островский, 1849, с. 44]. Басенное творчество Крылова также во многом обязано его драматургическому опыту. В баснях, как и в пьесах, комическое выступает способом социальной критики. Животные персонажи наследуют черты человеческих характеров, столь же типичных и узнаваемых, как герои его комедий. Бахтин отмечал: «Смех у Крылова становится формой познания мира, способом высвечивания социальных противоречий» [Бахтин, 1975, с. 311].

Анализ драматургического наследия И.А. Крылова позволяет сделать вывод, что его пьесы представляют собой важное звено в развитии русской комедии. Они не только продолжают традицию классической и сатирической драмы XVIII века, но одновременно прокладывают путь к реализму XIX столетия. Причинно-следственная связь развития жанра очевидна: потребность общества в сатирическом разоблачении пороков породила классическую комедию; Крылов, унаследовав ее приемы, наполнил их новым социальным содержанием; это стало основой для гоголевской и остроумно-бытовой комедии XIX века. Именно поэтому Крылов-комедиограф занимает особое место в истории русской литературы: он не только продолжил традиции предшественников, но и подготовил будущее русской драмы, став связующим звеном между Фонвизиным и Гоголем, между классицизмом и реализмом.

Использованная литература:

1. Крылов И.А. Полное собрание сочинений: в 3 т. / Под ред. С.А. Венгерова. – СПб.: Изд. А.Ф. Маркс, 1913. – Т. 2: Драматические произведения. – 480 с.
2. Крылов И.А. Сочинения: в 2 т. – М.: Художественная литература, 1982. – Т. 1. – 542 с.
3. Фонвизин Д.И. Сочинения / Под ред. Н.К. Пиксанова. – Л.: Academia, 1935. – 424 с.
4. Сумароков А.П. Полное собрание всех сочинений в стихах и прозе. – СПб., 1781. – Т. 3. – 318 с.
5. Гоголь Н.В. Полное собрание сочинений: в 14 т. – М.: Наука, 1937–1952. – Т. 4: «Ревизор». – 512 с.
6. Островский А.Н. Полное собрание сочинений: в 12 т. – М.: Искусство, 1949. – Т. 1: Комедии 1840–1850-х годов. – 600 с.
7. Гуковский Г.А. Русская литература XVIII века. – Л.: Наука, 1958. – 496 с.

Nodira SAFAROVA,
Termez University of Economics and Service
2nd course of Master's student

THE EFFICIENCY OF DEVELOPING ENGLISH VOCABULARY AT THE B1 STAGE THROUGH READING ACTIVITIES

Annotation: this article examines the effectiveness of teaching English vocabulary to B1 level learners through reading activities. The study analyzes how contextual learning, extensive reading and task-based approaches contribute to vocabulary acquisition and retention. The results indicate that reading not only expands lexical knowledge but also enhances comprehension, motivation and language fluency.

Key words: *vocabulary teaching, reading skills, B1 level, contextual learning, task-based approach, EFL methodology, motivation.*

Аннотация: в данной статье анализируется эффективность обучения лексике английского языка учащихся уровня B1 посредством чтения. В исследовании рассматривается вклад контекстного обучения, расширенного чтения (*extensive reading*) и задачного подхода (*task-based approach*) в процесс усвоения и запоминания лексического материала. Результаты показывают, что процесс чтения не только расширяет словарный запас, но также способствует улучшению понимания, повышению мотивации и развитию речевой беглости.

Ключевые слова: *обучение лексике, навыки чтения, уровень B1, контекстное обучение, задачный подход, методика EFL, мотивация.*

Annotatsiya: ushbu maqolada B1 darajasidagi o'quvchilarga o'qish faoliyati orqali ingliz tili lug'atini o'rgatishning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kontekstual o'qitish, kengaytirilgan o'qish (*extensive reading*) va topshiriqqa asoslangan yondashuvlarning (*task-based approach*) so'z boyligini o'zlashtirish va eslab qolishga qo'shgan hissi o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qish jarayoni nafaqat lug'aviy bilimlarni kengaytiradi, balki tushunishni, motivatsiyani va nutq ravonligini ham oshiradi.

Kalit so'zlar: *lug'at o'qitish, o'qish ko'nikmalari, B1 daraja, kontekstual o'qitish, topshiriqqa asoslangan yondashuv, EFL metodikasi, motivatsiya.*

1. Introduction

